



UDK:159.9(575.1)

Javlonbek ABDUJALILOV,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: javlontuit@gmail.com

Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti PhD D.Axmadaliyev taqrizi asosida

NEED ANALYSIS FOR LEARNING AND TEACHING ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND ROBOTICS IN GENERAL SECONDARY EDUCATION OF UZBEKISTAN

Annotation

In this article, we conducted survey for measuring the perception of teaching and learning of artificial intelligence and robotics programming in secondary education in Uzbekistan. We chose to take a survey with four group of participants. They are high school students (10th and 11th grade school students), their parents, ICT teachers and school principals are invited to participate. 12 schools were included for the survey located in Tashkent city. Each respondents survey paper was coded, and survey results were analyzed based on respondents' opinion.

Key words: Artificial intelligence, robotics, software programming.

АНАЛИЗ НЕОБХОДИМОСТИ ОБУЧЕНИЯ И ПРЕПОДАВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И РОБОТОТЕХНИКИ В ОБЩЕМ СРЕДНЕМ ОБРАЗОВАНИИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В этой статье мы провели опрос для измерения восприятия преподавания и изучения программирования искусственного интеллекта и робототехники в системе среднего образования в Узбекистане. Мы решили провести опрос с участием четырех групп участников. Это старшеклассники (учащиеся 10 и 11 классов), к участию пригласили их родители, преподаватели ИКТ и директора школ. В исследование были включены 12 школ, расположенных в городе Ташкенте. Каждый опросный лист респондентов был закодирован, а результаты опроса анализировались на основе мнения респондентов.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, робототехника, программирование.

O‘ZBEKISTON UMUMIY O‘RTA TA‘LIMIDA SUN‘IY INTELLEKT VA ROBOTOTIKANI O‘RGANISH VA O‘QITISHGA EHTIYOJNI TAHLILLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada biz O‘zbekistondagi umumiy o‘rta ta‘limda sun‘iy intellekt va robototeknikani dasturlashni o‘qitishni idrok etish darajasini o‘lchash uchun so‘rovnoma tadqiqotini o‘tkazdik. Biz to‘rt guruh ishtirokchilari bilan so‘rovnoma o‘tkazishni tanladik. Ular umumiy o‘rta maktab o‘quvchilari (10 va 11-sinf o‘quvchilari), ularning ota-onalari, Informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilari va maktab direktorlari ishtirok etishga taklif etildi. Tadqiqotga Toshkent shahrida joylashgan 12 ta maktab kiritildi. Har bir respondentning so‘rov qog‘ozi kodlangan va so‘rov natijalari respondentlarning fikri asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Sun‘iy intellekt, robototexnika, dasturiy ta‘minot.

Introduction. The researchers of the developed countries are conducting various scientific works aimed at developing a number of skills of students, including problem solving, critical thinking and creativity, by implementing the topics of artificial intelligence and robotics within the computer science subject in general secondary education schools. Based on the modern trends of these studies, formation of students' skills to apply the learned knowledge into practice is one of the urgent tasks. Moreover, the implementation of innovative educational technologies in the educational process of general secondary education with the topics of artificial intelligence and robotics in the subject of informatics and information technologies are very important in 21 century. This, in turn, is important for the training of personnel with digital competencies by increasing the interest of students in artificial intelligence and robotics in the general secondary education system of Uzbekistan.

Literature review. Artificial intelligence teaching for K-12 schools has attracted increasing attention among institutions, researchers and educators globally. For instance,

the Association for the Advancement of Artificial Intelligence (AAAI) and the Computer Science Teachers Association (CSTA) have collaborated to start AI education for K-12 students in the United States in terms of knowledge representation, machine learning, and AI ethics education [1]. Moreover, the AI4K12.org project aimed to develop guidelines for AI education, which serves as a framework for policymakers and curriculum developers to adopt when developing the essential AI concepts, knowledge, and skills for each grade level. The guideline mentioned the five big ideas in AI including perception, representation & reasoning, learning, natural interaction, and societal impact of AI technologies [2]. In addition, the Massachusetts Institute of Technology (MIT) has developed a suite of AI learning resources, including learning units, hands-on activities, and teacher education guides [3]. Further, the UNESCO Institute for Information Technologies announced an education policy "AI in Education: Change at the Speed of Learning" which describes the advancements in recent technologies including data analytics personalized learning, and machine learning, and explores the

promises of AI in education [4]. Despite the fact that these institutions have realized the value of AI education and continued to invest in it at various levels, the design of the AI K-12 curriculum is more complex and lacks standardisation, making it difficult to compare the outcomes among different institutions. Therefore, there is a necessity to explore the recent development in AI education for K-12 schools.

Educators and researchers across countries are working rigorously to develop and explore effective curricula, pedagogy, learning materials, artefacts, systems and tools for their students [5,6,7,8,9,10]. In Asian countries, AI has become an emerging field from research, pedagogical practices, and policies. Due to their strength in the technology industry, countries such as Mainland China, Hong Kong, Japan, Korea and Singapore have launched curricular reforms to address the current movement in AI education.

Research object. The project object is to unveil the potentially interested youth – in school education with suitable appropriate learning environment for AI and robotics. The project intended to cover 12 schools chosen from Tashkent city, Uzbekistan. The mission part of the project is exploring learners' and stakeholders' perceptions on AI and S/W.

Exploring students' and stakeholders' perception on AI and S/W offers valuable information. It uncovers how the intended technologies are understood and accepted by the users. It helps a smooth adoption of the technology into the curriculum.

Students are invited for an interview first and according to the final list of students who are willing to participate, their parents are also asked for their perceptions.

Current trends of interest and status in the educational system are observed by inviting school leaders and ICT

teachers. Their suggestion for the best need for support is necessary.

The development of tailored methodical support is conducted for exploring need analysis. Teacher training, designing suggestions for designing.

The proposed project aims to build, improve and strengthen the education, innovation and transfer capacities of schools in the area of sustainable digitalization and innovative technologies in general and in the area of artificial intelligence in particular. The focus of the project lies specifically in the creation, modification and enhancement of the existing school study programs (mostly S/W programming and AI related topics) with modules that are currently missing in their study programs.

The specific objectives are as follows:

development of new/modernized/updated study program for Informatics and IT;

development of modular components of AI-based study programs and courses (such as Artificial Intelligence, Robotics);

development of new Responsible AI laboratories at each of the participating schools;

capacity building of Informatics and IT teachers for AI and S/W.

Research Methodology. For measuring the perception of teaching and learning of AI and S/W in secondary education in Uzbekistan we chose to take a survey with four groups of participants. They are high school students (10th and 11th grade school students), their parents, ICT teachers and school principals. 12 schools were included for the survey located in Tashkent city. The positive response for the survey invitation was as follows: 735 students and 542 parents; 33 ICT teachers, and 12 School principals.

Table 1. Number of questions for the two types of items

Question Types	Number of questions for each participant			
	Student	Teacher	Principal	Parent
Education status	3	6	1	2
Necessity and direction of educational support	5	4	9	3
Total	8	10	10	5

Two types of survey items were designed (Table 1): questions indicating the learning and teaching status of AI and S/W (Education status); questions indicating the need for further support (Necessity and direction of educational support). The student survey consists of 8 questions. Parents were asked 5 questions. Teachers and school principals were asked 10 questions each. Observing responses are coded to make analysis.

Coding of respondents

For students: Region-101; Type of respondent-1; Grade-10; Numb-101

Sample:

101111133: Mirobod-101, student-1, 11-11th grade, student number-133 (starting from 101).

10121: Mirobod-101, teacher-2, number-1.

1013: Mirobod-101, director – 3.

1014133: Mirobod-101, parent-4, number 133 (starting from 101).

Analysis and results. Student response from the survey gave the information that currently, student knowledge and comprehension on both programming and artificial intelligence in Uzbekistan is low, about 25% of students reported they have learned independently and other 20% students stated school

lessons helped them to grasp the knowledge. Since 50% of students have a surface knowledge and intention to learn from now, the majority of students answered that they had training in different topics, which draws a conclusion as: most students have low level of knowledge or lack of standardized training and have high intention to grasp a practical based training.

The second part of the survey measured the need for support. About 85% of students would participate if there was training 50% and 40% of students showed a great interest in AI and SW respectively.

Since majority 60% of parents expressed satisfaction about overall educational process, a significant number of parents say that their child did not get any training on AI and SW. Learning AI and SW are found preferable face-to-face class settings by using well equipped laboratories. And students believe it benefits their future. These responses closely correlate with parent responses. Parents mostly believe that programming and AI learning positively affect their child's creativity and mastery of other disciplines (285/542). Many parents see programming/AI education as beneficial to their children's future. As can be seen in the "other" answers to questions, there are also some different opinions among parents about the impact and necessity of programming/AI education.

Data shows that while parents have significant levels of support and satisfaction for their children's programming and AI training, there is also a large proportion of those whose children are not involved in these disciplines. It seems that it has a positive effect on both education and future outcomes, helping to integrate programming and artificial intelligence into the child's learning journey.

At the same time, there are some different perspectives and concerns expressed in "other" responses suggest the need to further explore and understand parental perspectives to better address anxiety and enhance programming and AI acquisition among children. However, the information provides valuable insights into parents' attitude to programming and artificial intelligence training for their children, emphasizing the need for continued participation and education about potential benefits.

12 school principals are also invited to take surveys from the same schools. Here is a report based on the school principal's responses for programming and artificial intelligence in education and in school: adequate conditions are created in school with qualified teachers and equipped classrooms: 3/10; partial conditions in different combinations: 4/12, and there are partial conditions have been created, including the provision of qualified teachers, but special classrooms are not sufficiently equipped: 5/12. School interest in teaching programming and artificial intelligence (measure 1-10) yields an average percentage rating: 7.73. Almost all school principals reported that there are different levels of existence of smart constructions, but not enough: 7/12. According to the data, schools suffer from lack of qualified personnel in teaching AI. Collectively, school directors showed willingness to cooperate with specialized institutions/organizations (12/10). Directors believe the improvement of the skills of teachers in programming and artificial intelligence by development of necessary competencies through training programs.

School principals have a strong interest in teaching programming and artificial intelligence, with an average rating of 7.73 out of 10. However, problems with the availability of resources (such as skilled personnel and equipment) remain.

There is a clear need for an interest in cooperation, efforts to improve the skills of teachers and improved resources, including qualified personnel and the necessary equipment. Directors recognize the importance of providing appropriate infrastructure to enhance teacher experience and effectively train programming and artificial intelligence.

The problems identified indicate the need for targeted activities to address resource shortages and increase teacher capacity, and to ensure the school's interest in providing

comprehensive programming and artificial intelligence education.

33 ICT teachers showed willingness to participate who are registered as full time ICT teachers in schools where the survey was taken. They have been asked about their pedagogical skills in teaching AI and SW. They have also expressed their need for methodical facility support in schools. A significant number of teachers reported to include AI and SW in the subject curriculum. Whereas schools include AI and SW in syllabus, there is a lack of student knowledge. This indicates a major demand for methodical support for teacher training and for software/hardware support. Teacher reports claim show lower competence on teaching AI and SW for 10-11 grade. There are very few teachers who can deliver the topics (25% SW and 6% AI) for higher grades. Note that this is only information when middle and higher grades are examined separately.

When it comes to the overall glance, most teachers are fluent in delivering lessons on SW topics only. This is another evidence for a great demand for support for teaching and learning of SW & AI improvement. As the observation shows, many teachers say there are not enough methodical sets for teaching these topics. 31% of teachers report that schools are designed with special classrooms but don't have equipment related to demonstration these technologies like, IoT, robotics, tools for establishing VR.

Conclusion and Recommendations. During the survey we have noticed that most of the students are willing to learn programming and Artificial intelligence within Informatics and Information Technologies course, but because of lack of qualified teacher for these topics there is not enough teaching hours in the subject. Moreover, more rigorous evaluation methods using qualitative and quantitative approaches are necessary for future educators and researchers to understand how they examine students' AI learning performance. A set of implications and recommendations for pedagogical designs in terms of educational standards, curriculum designs, formal/informal education, student learning outcomes, teacher professional development and learning progressions were set up. Additionally, behaviourist theory, cognitive theory, and constructivist theory will be instrumental in addressing AI education. In particular, since learning is recognized to be a social process, involves cognitive thinking, and renders behavioural changes, constructive learning theories and models such as project-based learning, problem-based learning, and inquiry-based learning will better support AI education.

REFERENCES

1. Touretzky, D., Gardner-McCune, C., Martin, F., & Seehorn, D. (2019a). Envisioning AI for K-12: What should every child know about AI? Proceedings of the AAAI Conference on Artificial Intelligence, 33(1), 9795–9799.
2. The Artificial Intelligence (AI) for K-12 initiative (AI4K12) is jointly sponsored by AAAI and CSTA. <https://ai4k12.org/>.
3. MIT Media Lab. (2020). Learning about artificial intelligence: A hub of MIT resources for K-12 student. Retrieved from <https://news.mit.edu/2020/learning-about-artificial-intelligence-hub-of-mit-resources-k-12-students-0407>.
4. UNESCO IITE. (2020). AI in education: Change at the speed of learning. Retrieved November 14, 2021, from https://iite.unesco.org/wp-content/uploads/2020/11/Steven_Duggan_AI-in-Education_2020.
5. Burgsteiner, H., Kandlhofer, M., & Steinbauer, G. (2016). Irobot: Teaching the basics of artificial intelligence in high schools. In Proceedings of the thirtieth AAAI Conference on artificial intelligence (pp. 4126–4127). AAAI Press.
6. Chai, C., Lin, P., Jong, M., Dai, Y., Chiu, T., & Qin, J. (2021). Perceptions of and behavioral intentions towards learning artificial Intelligence in primary school Students. *Educational Technology & Society*, 24(3), 89–101.
7. Chai, C., Lin, P., Jong, M., Dai, Y., Chiu, T., & Qin, J. (2021). Perceptions of and behavioral intentions towards learning artificial Intelligence in primary school Students. *Educational Technology & Society*, 24(3), 89–101.
8. SenseTime. (2018). Fundamentals of artificial intelligence. East China Normal University. Retrieved from https://www.sensetime.com/en/Service/ai_class.html
9. Touretzky, D. (2020). Five big ideas in AI" featured in NSF video showcase. Retrieved from

<https://www.cs.cmu.edu/news/five-big-ideas-ai-featured-nsf-video-showcase>

10. Williams, R., & Breazeal, C. (2020). How to train your robot: A middle school AI and ethics curriculum. MIT. Retrieved from https://dam-prod.media.mit.edu/x/2020/06/19/EduAI_2020.pdf



Alibek ABDULLAYEV,

Qo'qon davlat pedagogika instituti t.f.n, informatika kafedrası dotsenti

E-mail: quqon_alibek@mail.ru

Qo'qon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi, (PhD) taqrizi asosida

THEORETICAL BASIS OF CONTINUOUS PROFESSIONAL TRAINING DEVELOPMENT OF IT TEACHERS

Annotation

Today, due to the expansion of the scope of application of digital technologies to all fields and the modernization of computer devices, the improvement of software tools suitable for it, there is a need to improve the content of the subjects of informatics and the forms, methods and tools of teaching in the continuous education system. This article reveals the theoretical foundations of the development of continuous professional training of informatics teachers.

Key words: Cloud technologies, method, digital technologies, One million developers, Delphi, Java programming language, multimedia.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ НЕПРЕРЫВНОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ ПЕДАГОГИ ИТ

Аннотация

Сегодня в связи с расширением сферы применения цифровых технологий во все области и модернизацией компьютерных устройств, совершенствованием подходящих для этого программных средств возникает необходимость в совершенствовании содержания предметов информатики и форм, методы и инструменты обучения в системе непрерывного образования. В данной статье раскрываются теоретические основы развития непрерывной профессиональной подготовки учителей информатики.

Ключевые слова: Облачные технологии, метод, цифровые технологии, Миллион разработчиков, Delphi, язык программирования Java, мультимедиа.

INFORMATIKA O'QITUVCHILARIDA UZLUKSIZ KASBIY TAYYORGARLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Аннотация

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning barcha sohalarga tadbıq etish ko'lamı kengayishi va kompyuter qurilmalarining zamonaviylashuvi, unga mos dasturiy vositalarnı takomillashuvi tufayli uzluksiz ta'lim tizimida informatika turkumiga kiruvchi fanlarning mazmunini hamda o'qitishning shakl, usul va vositalarini takomillashtirish zarariyati paydo bo'lmoqda. Ushbu maqolada informatika o'qituvchilarida uzluksiz kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishning nazariy asoslari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Bulutli texnologiyalar, metod, raqamli texnologiyalar, Bir million dasturchi, Delphi, Java dasturlash tili, multimedia.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son va 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmonlarida "o'quvchilar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishning umumiy darajasini oshirish maqsadida umumta'lim maktablarining asosiy o'quv dasturlariga doimiy o'zgartirishlar kiritish; ta'limda multimedia mahsulotlarini ishlab chiqish va ularni qo'llash jarayonini tizimli tashkil etish choralarini ko'rish; umumiy o'rta ta'lim maktablarida informatika fanini o'qitish metodlarini takomillashtirish; maktablarda «Bir million dasturchi» loyihasini keng hududda joriy qilish; zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish; ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni onlayn kuzatish va o'zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek, ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi «E-MINBAR» platformasini amaliyotga joriy etish, ta'lim jarayonlarida «Bulutli texnologiyalar»dan foydalanish»kabi ustuvor vazifalar belgilab qo'yilgan[1,2]. Farmonlarda belgilab qo'yilgan vazifalarnı

amalga oshirish uchun dastlab, uzluksiz ta'lim tizimida informatika turkumiga kiruvchi fanlarnı, jumladan dasturlash tillariga oid fanlarnı o'qitishning shakl, usul va vositalarini takomillashtirishni hamda o'quvchi-talabalarining dasturlashga oid mantiqiy, algoritmik, kreativ, kognitiv fikrlashini rivojlantirishni taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirishga va ta'lim tizimidagi ta'lim samaradorligini ta'minlashga oid bir qancha tadqiqotlar olib borilgan:

R. G. Isyanovning ilmiy ishining ilmiy qarashlarida hozirgi kun talabalarini zamon talabiga mos o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish bilan bir qatorda ta'limni ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etishni taqozo etmoqda. Bu jamiyatga o'z qarashlari shakllangan, keng fikrga ega, ijodkor, qobiliyatli, egallagan bilimlarnı hayotga tatbiq eta oladigan, davr talabiga mos yashash, mehnat qiladigan, madaniyatli, odob-ahloqli izzat-ikromli, odamgar-chilik xususiyatlariga ega bo'lgan, jismoniy jihatdan barkamol yoshlarnı tarbiyalash talabini qo'ymoqda deb fikrlarini bildirgan. K.A.Zayirov bo'lajak mehnat ta'limi o'qituvchilarida konstruktorlik texnologik bilim va malakalarnı kompyuter

texnikasini qo'llash asosida shakllantirishning politexnik asoslarini, Sh.S.Sharipov esa bo'lajak kasb ta'limi va mehnat ta'limi o'qituvchilari-talabalarni ixtirochilik faoliyatga tayyorlashning ilmiy yo'nalishlarini ishlab chiqqan. A.R.Xodjaboyev tomonidan bajarilgan tadqiqot ishida mehnat va kasb ta'limi o'qituvchisining o'quv-metodik ta'minotining pedagogik asoslari nazariy jihatdan ishlab chiqilgan, ularni amaliyotda qo'llash yo'llari ko'rsatib berilgan [5]. M.R.Fayziyevaning "O'quv jarayoniga moslashuvchi WEB tizimlarni yaratish" omli dissertatsiya ishida Web texnologiyalar asosida "Web dasturlash" fanini o'qitish metodikasi takomillashtirilgan. Uning tadqiqotida o'quv jarayoniga moslashuvchi Web tizim uchun "Web dasturlash" fanining takomillashgan mazmuni asosida o'zbek tilidagi axborot-ta'lim resurslari ishlab chiqilgan hamda talabaning bilim darajasiga moslashuvchi va masofadan turib kompyuter yoki mobil texnologiyalari yordamida ta'lim olish imkonini beruvchi o'qitishning dasturiy tizimi yaratilgan. Shuningdek, "Web dasturlash" fanidan oraliq va yakuniy nazoratlarni o'tkazish tartibi test sifatida belgilangan fanlardan talabalar bilim darajasini aniqlash hamda avtomatik ravishda elektron jurnalga qayd etib borish uchun xizmat qiluvchi masofali test sinovlari platformasi amaliyotga joriy etilgan. N.A.Otaxonovning "Obyektga yo'naltirilgan dasturlash texnologiyalarini o'qitish uslubiyoti" nomli dissertatsiya ishida oliy ta'lim muassasalarida obyektga yo'naltirilgan dasturlash tillarini o'qitishda turli didaktik vositalarda va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasini ishlab chiqilgan. Ushbu olimlarning tadqiqotlarida Delphi, C++, Java dasturlash tillarini o'qitish metodikasini ilgari surilgan bo'lsada, ammo ularning tadqiqotlari bugungi rivojlanayotgan soha uchun yetarlicha deb bo'lmaydi. Chunki bugungi kunda zamonaviy dasturlash tillari takomillashib, uzluksiz ta'lim tizimiga yangi algoritmik dasturlash tillari kirib kelmoqda. Shu bois, bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimida dasturlash sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar va unga oid ilmiy manbaalarni yetarli darajada deb bo'lmaydi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida informatika fanini o'qitishning zamonaviy konsepsiyalari, informatika o'qitishning metodik tizimini rivojlantirishga bag'ishlangan ishlarda (S.A.Beshenkov, A.V.Goryachev, A.V.Mogilev, S.Peypert, Yu.A.Pervin, Ye.A.Rakitina, I.G.Semakin, A.L.Semenov, N.D.Ugrinovich va boshqalar) informatika o'qituvchisi oldida har bir o'quvchining qobiliyatini yoritib berish, hayotga tayyor shaxsni tarbiyalash, o'quvchilarning motivatsion, operatsion va kognitiv resurslarini rivojlantirish vazifasi turganligi yoritilgan. Shu bilan birga, o'quvchilarning shaxsiy resurslarini "kengaytirish", universal ta'lim faoliyatini rivojlantirish, keng ma'noda subyektning yangi ijtimoiy tajribani ongli va faol o'zlashtirish orqali o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini takomillashtirish qobiliyati alohida ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi (A. G. Asmolov, A. M. Kondakov, A. A. Kuznesov, O. Ye. Lebedev va boshqalar)[6].

Tadqiqot metodologiyasi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining informatika o'qituvchisiga qo'yiladigan talablari uning axborot muhitida harakat qila oladigan va ongli qarorlar qabul qila oladigan, ijodiy faoliyat usullarini biladigan, o'z-o'zini tarbiyalash, mustaqil ta'lim olish, nafaqat mavjud bilimlarni o'zlashtirishga, balki yangilarini yaratishga tayyor bo'lishi mamlakatimiz ta'limini modernizatsiyalash asosida yaratilgan yangi me'yoriy hujjatlarida va informatika o'qitishning zamonaviy konsepsiyalarida belgilab berilgan. Umumiy o'rta ta'lim tizimida malaka oshirishni rivojlantirish

pedagog kadrlarning yuqori kasbiy maqomini saqlab qolishning zaruriy shartidir. Ta'limni rivojlantirishning hozirgi tendensiyasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'limdir. Masofaviy ta'lim texnologiyalardan foydalanishning asosiy jihatlari pedagog xodimlar malakasini oshirishda ko'rib chiqiladi. Tarmoq texnologiyalaridan foydalanish kengayadi o'qituvchining shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish imkoniyatlari oshadi. Ilg'or o'quv dasturlarini mustaqil tanlash va ularni mustaqil masofaviy rivojlantirish o'qituvchiga o'z bilim saviyasini oshirish va individual kasbiy va ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish mahsuli sifatida o'z kompetentligini rivojlantirish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Mamlakatimizda kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash-uzluksiz ta'lim tizimi turlaridan biri, xalq xo'jaligining barcha sohasida ishlovchi mutaxassislar va pedagog kadrlarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirish jarayoni. Kadrlarning raqobatbardoshlik sifatleri hamda bilim va ko'nikmalarining zamon talablariga javob bera oladigan darajada bo'lishini ta'minlaydi. Malaka oshirish va qayta tayyorlash har bir pedagogning o'z mutaxassisligi bo'yicha so'nggi fan yutuqlari, yangiliklari bilan tanishish, ularni o'zlashtirish, yangi amaliy ish usullari, ilg'or ish tajribalarini o'rganishdan iborat ilmiy nazariy hamda amaliy tayyorgarlik jarayoni hisoblanadi.

"Masofaviy ta'lim" tushunchasining tahlilini ko'ramiz. Falsafiy ma'noda ta'lim deganda "ma'naviy va axloqiy qadriyatlar ta'siri ostida yig'ilgan, uning ma'naviy doirasi, tarbiya jarayoni, o'z-o'zini tarbiyalash va shu jarayonda shakllanadigan shaxsning madaniy sohasi" tushuniladi. Pedagogik ma'noda ta'lim "ijtimoiylashuv mahsulining ajralmas qismidir. Ta'lim ijtimoiylashuv jarayonda sodir bo'ladigan o'rganishga asoslanadi". "Masofaviy" atamasi, Ye.S.Polatning fikriga ko'ra "o'qituvchi va tinglovchi fazoviy ravishda ajratilganda uzoqdan ta'lim" sifatida belgilanadi. "Masofaviy" atamasi keng ma'noli bo'lib bir nechta mualliflar tomonidan faqat Internet tarmog'idan foydalangan holda jarayon subyektlarining o'zaro aloqasini tavsiflashda qo'llaniladigan "uzoq" atamasidan ko'ra kengroqdir [5].

Xulosa va takliflar. Tadqiqot doirasida olib borilgan tahlillarga asosan aytish mumkinki boshqaruv kadrlar malaka oshirish jarayonlari asosan asosiy ishdan bo'shagan holda Institutda malaka oshirish shaklida amalga oshirilib kelinmoqda. Malaka oshirishning boshqa to'g'ridan to'g'ri shakllari nisbatan kam amalga oshirilgan va ayrim shakllar bo'yicha malaka oshirish ishlarini tashkil etish, qo'shimcha me'yoriy hujjatlar ishlab chiqishni talab etadi. Shuningdek nizomda malaka oshirishning ta'lim dasturlari mazmunini shakllantirishda quyidagilar hisobga olinishi belgilangan:

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining uzluksizligi; zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish va ularni ta'lim tizimiga joriy etish uslublarining ilg'or xorijiy tajribasi; predmetlar va mutaxassisliklar bo'yicha yangi bilimlar; pedagogik va ta'lim uslublari; fan, ishlab chiqarish innovatsiyalari va zamonaviy texnologiyalar; zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va ularni kasb-hunar bo'yicha o'qitish jarayoniga joriy etishning tashkiliy-uslubiy jihatlari; ta'lim jarayonini rejalashtirish, takomillashtirish va uning amalga oshirilishini nazorat qilish; ta'lim tizimining me'yoriy hujjatlari; ta'limda kasbiyot asoslari, marketing va menejment; dasturlar mazmunining belgilangan malaka oshirish turlari va shakllariga muvofiqligi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 8-oktabr, PF-5847-son Farmoni. www.lex.uz.
3. Энциклопедия профессионального образования: в 3-х томах / под ред. С.Я. Батышева. – М.: АПО, 1998. – Т.1. А–Л. – 568 с.
4. Qurbanov Sh.E., Seytxalilov Ye.A., Inoyatov U.I., Yuzlikaeva E.R., Sharipov Sh.S. Kadrlar tayyorlash milliy modeli va dasturi “Islom Karimov modeli” O‘zbekiston mustaqilligining yuksak yutug‘i va natijasi. O‘quv qo‘llanma / Akad. T.Rixsiev tahriri ostida. – T.: TDPU, 2013. – 234 b.
5. Федулова К.А. Определение сущности информационных компетенций педагогов профессионального обучения для осуществления педагогического проектирования / О.В. Тарасюк, К.А. Федулова, М.А. Федулова // Мир науки, культуры, образования. – М.: 2011. – №3. – С. 116-119.
6. Савелева С.В. Формирование информационной компетентности будущих инженеров в вузе: автореф. дисс. ... канд. пед. наук: 13.00.08 / Савелева С.В. – Челябинск: 2010. – 24 с.
7. Rokhatalievna, A. N., & Kadiralievich, A. A. (2022). Didactic foundations of improving the creative activity of future mathematics teachers by means of information and communication technologies. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning*, 3(7), 1-5.



UDK: 159.31.91

Dildora ABDUMADJIDOVA,

O'zbekiston Respublikasi Milliy olimpiya qo'mitasi Respublika sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazi psixologi, PhD

Psixologiya fanlari doktori, professor v.b D.Abdullayeva taqrizi asosida

SPORTCHILARNING SAMARALI PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGIDA IJTIMOY-PSIXOLOGIK TRENINGLARNING AHAMIYATI

Аннотация

Ijtimoiy-psixologik treninglar asosida guruhda jipslilik, hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini oshirish, psixologik to'siqlarni yengish, muloqotga kirishuvchanlik va moslashuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish, o'ziga ishonch va qat'iyatni shakllantirish kabi shaxsiy xususiyatlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Maqola ilmiy jihatdan sportchilarni psixologik tayyorgarligini oshirishning amaliy mexanizmlarini takomillashtirishga xissa qo'shadi va murabbiylarga ulardan amalda foydalanish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Psixologik tayyorgarlik, ijtimoiy-psixologik trening, sportchi, murabbiy.

ЗНАЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ТРЕНИНГОВ В ЭФФЕКТИВНОЙ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКЕ СПОРТСМЕНОВ

Аннотация

На основе социально-психологических тренингов важно формирование таких личностных качеств, как общительность в группе, совершенствование навыков совместной работы, преодоление психологических барьеров, развитие гибкости и коммуникативных навыков, формирование уверенности в себе и настойчивости. Статья с научной точки зрения, способствует совершенствованию практических механизмов повышения психологической подготовленности спортсменов и позволяет тренерам использовать их на практике.

Ключевые слова: Психологическая подготовка, социально-психологический тренинг, спортсмен, тренер.

THE IMPORTANCE OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL TRAININGS IN THE EFFECTIVE PSYCHOLOGICAL PREPARATION OF ATHLETES

Annotation

Based on socio-psychological trainings, it is important to form such personal qualities as sociability in a group, improving teamwork skills, overcoming psychological barriers, developing flexibility and communication skills, building self-confidence and perseverance. From a scientific point of view, the article contributes to the improvement of practical mechanisms for improving the psychological preparedness of athletes and allows coaches to use them in practice.

Key words: Psychological preparation, socio-psychological training, athlete, coach.

Sport o'z vazifasiga ko'ra shaxsda sog'lom turmush tarzini shakllantirish hamda salomatligini mustahkamlash vositasi sanaladi, biroq so'ngi paytlarda professional sport, olimpiya harakatining omallashuvi, bu yo'nalishda Xalqaro olimpiya qo'mitasi tomonidan olib borilayotgan targ'ibot ishlari, xalqaro maydonlarda qozonilgan g'alaba uchun katta sovrin jamg'armasi hamda sportchilar erishishi mumkin bo'lgan ulkan e'tirof va boshqa rag'batlar sportni yuqorida nazarda tutilgan vositalik xususiyatini bir qadar transformatsiya qilmoqda. Endilikda ulg'ayib kelayotgan yosh avlod uchun sport nafaqat sog'lom turmush tarzi omili, balki professional o'zini namoyon qilish, shaxsiy imkoniyatlarini aktuallashtirish, bu orqali muayyan yuqori hayotiy pozitsiyaga, keng moddiy va ma'naviy imkoniyatlarga ega bo'lish manbayiga aylanib borishi mumkinligini tahmin qilishimiz mumkin. Sportchilar bilan psixologik ishlash jarayonimizda shunga amin bo'ldikki, qariyb 30-40 foiz yosh sportchilarning sport bilan shug'ullanishlaridan asosiy maqsad kelajakda mashhur sportchiga aylanish hamda moddiy ta'minlanganlikni yaxshilash yoki mustahkamlash ekanligi aniqlangan. Bu mulohazaga albatta sportchilar bilan individual va guruhiiy psixologik konsultatsiyalar, treninglar olib borish jarayonida

ularga berilgan savollarimizga nisbatan olingan javoblar asosida kelganligimizni alohida ta'kidlab o'tish o'rinlidir.

Barcha sport turlari bo'yicha murabbiyning asosiy vazifasi sportchilarning individual yuqori ko'rsatkichlarga erishish uchun ularni rivojlantirishda qo'llab-quvvatlash va boshqarishdir. Shuning uchun murabbiylar faoliyatini yaxshilash bilan bog'liq barcha sohalar bo'yicha zarur bilimlarga ega bo'lishlari kerak. Psixologik tayyorlash jarayoni bilan bugungi murabbiylar tanish bo'lishi kerakbu esa ularga faoliyatida ustunlik beradi [6]. Haqiqatdan ham, zamonaviy murabbiy yaxshi sport bilimlaridan tashqari psixologik bilimlarga ega bo'lishi, ularning zarurati, sportchilarning psixologik tayyorgarligi jarayonini qanday qilib tashkil etishdan xabardro bo'lishi zaruratdir. Shu bilan birgalikda murabbiylar sportchilarning psixologik tayyorgarligini tashkil etish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni xosil qilishi ularning murabbiy sifatida kompetentligini oshiradi degan fikrdamiz. Bunda ayrim elementar psixologik treninglarni olib borish bo'yicha malaka xosil qilish murabbiylar uchun ham qiziq, ham foydali bo'ladi. Shuningdek, sportchilar ham bezovita o'zlarining psixologik tayyorgarligi jarayonini tushunishi hamda anglashi kerak. Sportchi psixologik

tayyorgarlik jarayoni o'z ichiga nimalarni olishi, bu jarayonda nimalarga e'tibor qaratish kerakligi, u shaxs sifatida qanday psixologik imkoniyatlari bor yoki yo'qligini his etishi, sportchi uchun psixologik tayyorgarlik jarayonini soddalashtirishi va qulaylashtirishi mumkin. Bunda esa, sportchi o'zi amalga oshirishi mumkin bo'lgan elementar psixologik trening mashg'ulotlariga ega bo'lishi, o'z psixologik tayyorgarlik mashg'ulotlari arsenalini xosil qilishi maqsadga muvofiq.

Psixologik trening o'ziga xos ta'lim jarayoni bo'lib, unda muayyan paradigma mavjud hamda quyidagilar bilan xususiyatlanishi, ta'sir jarayoni yuz berishi mumkin:

psixologik trening, bu mashq jarayoni bo'lib, bunda muayyan malaka yoki ko'nikma mashqlantiriladi, xosil qilinadi va rivojlantirilishi mumkin;

psixologik trening faol o'qitish usuli hamdir va asosan psixologik bilim, malaka va ko'nikmalarni xosil qilishga qaratiladi;

psixologik trening o'z navbatida ishtirokchilarining o'zini namoyon qilish, o'zini anglash, o'zini tahlil qilish shart-sharoitlarini yaratib berib, insonga o'z muammolarini yechimlarini topishga undaydi [1].

Psixologik trening sport psixologik tayyorgarlikni oshirishning muhim vositasi ekanligi bir qator olimlar tomonidan isbotlangan bo'lib, jumladan yurtimiz olimlaridan Z.E.Gaziyeva [2], xorijlik olimlardan O.N.Kajareskaya, O.A.Kondrashixina [3], S.Baumen [5], D.Hakfort, Y.P.Kloppel [7], kabi tadqiqotchilar tomonidan so'ngi yillarda qayta-qayta isbotlangan. Ma'lumki, ijtimoiy-psixologik trening shaxsda bilim-ko'nikmalarni hayotiy, professional darajaga olib chiqishda ahamiyatlidir, sportda ham psixologik tayyorgarlik jarayonida muhim takomillashtirovchi mexanizm va samarali texnologiya vazifasini bajarib beradi.

Shu o'rinda sport psixologik tayyorgarlikni muayyan psixologik treninglar asosida oshirish jarayonini eksperimental jihatdan ko'rib chiqqan ayrim tadqiqotlarni keltirib o'tishimiz o'rinli deb o'ylaymiz. Bu orqali psixologik treninglar orqali sportchilarimizda psixologik tayyorgarlikni oshirish, ularni sport yutuqlarini yaxshilash yoki oliy darajaga olib chiqish mumkinligiga yana bir bora ishonchimiz komil bo'ladi. Avstraliyalik psixolog Alan Richardson vizualizatsiya va sport mashqlarini bajarish bilan bog'liq ajoyib tajriba o'tkazdi. Uch guruh talabalar, ularning hech biri vizualizatsiya tajribasiga ega bo'lmagan, basketbol o'ynash uchun tasodifiy tanlangan. Birinchi guruh yigirma kun davomida mashq qildi. Ikkinchisi faqat birinchi va yigirmanchi kun shug'ullangan. Uchinchi guruh, birinchi va yigirmanchi kunni mashg'ulotlarga sarfladi, ammo uning har bir a'zosi kuniga yigirma daqiqa to'pni to'rga tashlaganini batafsil tasavvur qilib, vizualizatsiya trening mashqlari bilan shug'ullanadiganlardan, tafsilotlarga e'tibor berishni so'raldi. Talabalar to'pni qo'llarida his qilishlarini, otish chizig'iga yaqinlashishlarini, to'rga qarashlarini, masofani taxmin qilishlarini, tegishli harakatni qilishlarini va to'pning ovozi eshitishlarini tasavvur qilishdi. Agar to'p to'rdan o'tgan bo'lsa, xarakterli ovoz eshitilgani, agar to'p halqadan sakrab tushib, yerga tushsa, talabalar buni ham ovozi eshitayotganlarini tasavvur qilishdi. Muvaffaqiyatsiz zarbani amalga oshirib, ular ko'lamni tekshirdilar. Shunday qilib, ushbu sub'ektlar guruhi barcha ishtirokchilar topshiriqni muvaffaqiyatli bajarishni o'rganmaguncha harakat qilishdi. Natijalarga keladigan bo'lsak, (quyidagi jadvalga qarang) haqiqiy to'plar bilan mashq qilgan birinchi guruh o'z natijalarini 24 foizga oshirdi. Deyarli shug'ullanmagan ikkinchi guruh natijalarini umuman yaxshilamadi. Uchinchi vizualizatsiya guruhi esa o'z mahoratini 23 foizga oshirdi [10]. Ta'kidlash joizki, natijalarni 23% ga psixologik tayyorgarlik

mashqi asosida oshirilishi, psixologik treningning qanchalik foydali va samarali ekanligini ko'rsatadi.

M.Mekel (2007) tomonidan olib borilgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki, agar sportchilar diqqatni boshqarish va uni yo'naltirish bilan bog'liq muammolarga ega bo'lsa, bu ularning sport ko'nikmalari sifatini 10 foizga pasaytiradi. Olim psixologik mashqlantirish orqali sportchilarda diqqatni rivojlantirish mumkinligi va faqat diqqatini kuchli boshqara olgan sportchilargina yuqori salohiyatni namoyon qilishi mumkinligini isbotlaydi [8].

Meyer va Venger tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, ayollar tennis jamoalarida o'zaro jipslik, ular o'rtasida tashkil etilgan muaomala jarayonini yaxshilashga qaratilgan psixologik treninglar asosida yaxshilangani, o'z navbatida bu ularning sport natijalariga ham ijobiy ta'sir etganini tasdiqlagan.

J.Po'latovning fikriga ko'ra trenerlar yosh sportchilar bilan mashg'ulotlarni amalga oshirish bilan birga vaqti-vaqti bilan psixologik treninglarni ham amalga oshirib kelishi maqsadga muvofiq. Aytish kerakki, bu sportchilarni jismoniy sifatlarini ham rivojlanishida muhim omil bo'ladi. Murabbiy bu jamoa bilan ishlaydigan shaxs sanaladi. Tegishli mashg'ulotlarini samarali o'tishi uchun trenerdan katta mahorat kutiladi. Murabbiy har tomonlama rivojlangan, rejalashtirish, tashkillashtirish, muloqot tajribasiga, tinglash qobiliyatiga ega bo'lishi zarur [4]. Sportchini oliy yutuqlar yo'lidagi asosiy hamrohi bu murabbiy sanaladi. Shuning uchun ushbu o'rinda sport murabbiylarining sportchilarni psixologik salomatligini saqlash hamda ularni psixologik tayyorgarligini oshirishga yordam beruvchi ko'nikmalariga e'tibor qaratish o'rinli. Inson psixologik imkoniyatlarini o'rganish bo'yicha olim Jeremiy Sattorning fikriga ko'ra murabbiy samarali faoliyatni amalga oshirish, bir vaqtning o'zida sportchilarni oliy yutuqlarga psixologik tayyorlay olish uchun quyidagi qobiliyat (bilim-ko'nikmalar to'plami) ni o'zida rivojlantirishi lozim:

faol tinglash – shunchaki eshitish emas, suhbatdoshni fikrlarini eshitib tahlil qilib borib, unga mos va muvofiq reaksiya bildira olish;

hukm o'qimaslik – ya'ni sportchidagi turli holatlarga nisbatan qat'iy baho bermasdan, salbiy holatlarning o'zgarishi mumkinligini, har qanday vaziyatni hotirjamlik bilan qabul qilishni bilish;

ziyraklik, sezgirlik, fahm-farosat va zukkorlik;

bosim ostida ishlash va stressli vaziyatlarni yengish qobiliyati;

sportga faol qiziqish;

bir vaqtning o'zida bir nechta shaxs bilan ishlay olish, muloqotga va odamlarga tez moslasha olish;

o'z ishiga uslubiy yondoshuvning mavjudligi [9].

Demak, birinchidan, sportchilarni psixologik tayyorgarligi nafaqat ularda shakllangan psixologik bilim-ko'nikmalar, qobiliyatlarga, balki ularning murabbiylaridagi tegishli pedagogik va pedagogik-psixologik bilimlarning mavjudligi, ularning tajribadan o'tganligi, murabbiyning pedagogik qobiliyatlariga ham bevosita bog'liq ekanligini unutmaslik kerak.

Ikkinchidan, har bir murabbiy, o'z ustida ishlashi, bunda muntazam yangi usul va texnologiyalarga murojaat qilishi, xalqaro tajribani o'rganishi, boshqa tajribali murabbiylar bilan fikr almashib turishi maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, har bir murabbiy o'zining qanchalik muhim va ulug' ishini amalga oshirishini anglab yetishi, o'z ishiga qadriyat sifatida yondoshishi lozim. Buyuk murabbiy, o'nlab havaskor va professional boks bo'yicha olimpiya, jahon chempionlari ustoz Kas D'Matoning shunday fikrlari bor

“Bola meni yonimga qiziqish deb nomlangan uchqun bilan keladi. Men uchqunga g'amho'rlik qilaman va uni cho'g'ga aylantiraman. Keyin cho'g'ga e'ibor beraman, u otash olovga aylanadi. Olovni, yo'naltiraman, unga imkoniyatlarini ko'rsataman, u shovqin ko'tara oladigan alngaga aylanadi”.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ijtimoiy-psixologik treninglar asosida sport jamoalarida jipslilik, hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini oshirish, psixologik to'siqlarni yengish,

muloqotga kirishuvchanlik va moslashuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish, o'ziga ishonch va qat'iyatni shakllantirish mumkin, Inobatga olish kerakki, yuqorida sanab o'tilgan sportdagi g'alabalarning psixologik faktorlari nafaqat jamoaviy balki individual sport turlari uchun ham zarurat sanaladi. Bu esa psixologik trening mashg'ulotlaridan har qanday sport turida foydalanish mumkinligini, bu samaradorlikka ijobiy ta'sir etishini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Вачков И.В. Психология тренинговой работы: содержательные, организационные и методические аспекты ведения тренинговой группы. М.: Эксмо, 2007. 416 с.
2. Z.E.Gaziyeva. Sportda guruhij jipslik shakllanishi va rivojlanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari(futbol komandalari misolida):PhD ... dis.:19.00.05. -O'zMU, 2019. –160 b.
3. Кажарская Ольга Николаевна, & Кондрашихина Оксана Александровна (2022). Психологический тренинг как метод развития attentionных характеристик у спортсменов высокого класса в пулевой и стендовой стрельбе. Перспективы науки и образования, (3 (57)), 523-539.
4. Po'latov, J., Yeldasheva G. Sportchilarni psixologik tayyorlash: o'quv qo'llanma / J.A. Po'latov, G. Yeldasheva. -Toshkent: "Umid Design", 2021.- 4 b.
5. Baumann, S. (2015). Psychologie im Sport. Psychische Belastungen meistern, mental trainieren, Konzentration und Motivation. (6. Aufl.). Aachen: Meyer & Meyer Verlag.
6. Ramesberger, Reinhold. Psychological training in sports. Quality in Sport. 2022;8(2):33-44. eISSN 2450-3118. DOI. https://www.researchgate.net/publication/365772839_Psychological_training_in_sports.
7. Hackfort, D., & Klöppel, Y.-P. (2018). Mentales Training im Sport. In: A. Güllich & M. Krüger (Hrsg.), Handbuch Sport und Sportwissenschaft. Heidelberg: Springer.
8. Meckel, M., (2007). Das Glück der Unerreichbarkeit: Wege aus der Kommunikationsfalle, München: Verlag.
9. Jeremy Sutton, Ph.D. Sports Psychology Techniques & Tips for Coaching Athletes. 2021. <https://positivepsychology.com/sports-psychology-techniques/>
10. <https://studopedia.org/4-113522.html>



UDK:159.99

Kamola ABDURAXMANOVA,
Toshkent temir yo'l texnikumi pedagog psixologi
E-mail: kamola4578484@gmail.com
ORCID ID: 0009-0006-5684-0940

TXKU dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha PhD D.Turayeva taqrizi asosida

TRANSPORT YO'LLARIDA HAYDOVCHILARNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK MADANIYATINI TADQIQ QILISH

Аннотация

Maqolada transport yo'l harakatlaridagi kutilmagan hodisalarning oldini olishda ijtimoiy-psixologik madaniyat masalalari, qadriyatlarining ahamiyati, faoliyat jarayonida inson shaxsi odob-axloqini shakllanishi, inson omiliga bog'liq bo'lgan talofatlarning oldini olishga qaratilgan tadqiqot natijalari sharhlangan. Xulosa qismida yo'l harakati xavfsizligi sharoitida inson omili katta ro'l o'ynashi qayd etilgan.

Kalit so'zlar: Faoliyat, xulq-atvor, yo'l muammolari, inson omili, xavflilik, xavfsizlik, ijtimoiy-psixologik madaniyat, qadriyat.

ИССЛЕДОВАНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ВОДИТЕЛЕЙ НА ТРАНСПОРТНЫХ ДОРОГАХ

Аннотация

В статье рассмотрены вопросы социально-психологической культуры в предупреждении непредвиденных событий в дорожном движении, значение ценностей, формирование нравственности личности человека в процессе деятельности, результаты исследований, направленных на предупреждение причинения вреда, обусловленного человеческим фактором. В заключительной части отмечается, что большую роль в условиях безопасности дорожного движения играет человеческий фактор.

Ключевые слова: Деятельность, поведение, дорожные проблемы, безопасность, социально-психологическая культура, ценности, деятельность.

THE STUDY OF THE SOCIO-PSYCHOLOGICAL CULTURE OF DRIVERS ON TRANSPORT ROADS.

Annotation

The article examines the issues of socio-psychological culture in the prevention of unforeseen events in traffic, the importance of values, the formation of human personality morality in the process of activity, the results of research aimed at preventing harm caused by the human factor. In the final part, it is noted that the human factor plays an important role in road safety conditions.

Key words: Activity, behavior, road problems, safety, socio-psychological culture, values, activity.

Kirish. Transport vositasini boshqarish faoliyat, xulq-atvor va uslubning o'ziga xos xususiyati sifatida haydovchini birinchi navbatda axborotni qayta ishlash bilan shug'ullandigan inson operatori sifatida hisobga olsak, uning faoliyati asosan algoritmik tuzilgan, ongli va oldindan aytib bo'ladigan xususiyatga ega ekanligini tan olish kerak. Ongli maqsadli faoliyat, shuningdek, ongsiz va boshqarilmaydigan faoliyat impulsarga bog'liq, transport madaniyatining umumiy darajasi, boshqa yo'l foydalanuvchilari bilan shaxsiy o'zaro munosabatlar vositachiligida bu xatti-harakatlarning namoyon bo'lish jixatlari uchun ko'proq xosdir. Shu sababli, yo'l harakati xavfsizligi muammolarini hal qilishda nafaqat haydovchi faoliyatining mazmuni va natijalarini tahlil qilish, balki ijtimoiy-texnik tizimda muayyan qarorlarni qabul qilish va amalga oshirishda shaxsiy omilning rolini qayta baholash va zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda ko'rib chiqish muhimdir. Haydovchilarning xatti-harakatlarining ijtimoiy-psixologik omillarini o'rganishda nazariy yondashuvlarni tahlil qilish, yo'l harakati holatlarida xatti-harakatlarni baholash mezonlarini ishlab chiqish, tajovuzkorlik darajasini o'rganish, yetakchi qadriyatlarini va haydash uslubining xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlikni

o'rganish, uslub xususiyatlarini tadqiqot orqali aniqlash va vazifalar qo'yilishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Yuqoridagi muammolarni yoritish uchun xavfsiz yo'l harakatini tashkil etishning muhim ijtimoiy muammolari huquqiy, iqtisodiy, psixologik va pedagogik tadqiqotlarda o'rganilgan. Xavfsiz xulq-atvor madaniyatini o'rganish sohasidagi ishlarni (2018) V. N. Moshkin, T. V. Melnikova, E. L. M. Goncharova, E. A. Voronova larning tadqiqotlarida, N. M. Kuznetsova, L. V. Shmaneva; - yo'l harakati qoidalari bilan tanishish uchun katta maktabgacha yoshdagi bolalar va kichik maktab o'quvchilari bilan ishlashga bag'ishlangan tadqiqotlarda o'z aksini topgan. B. Elander, G. Miller, D. Yehiel, O. Taubman Ben-ary konseptual jihatdan haydash uslubi bilan shug'ullanishgan bo'lib, haydash uslubining ta'rifini, uslublarning tipologiyasini, individual uslublarga xos bo'lgan yo'l harakati xususiyatlarini va u yoki bu uslubga ega haydovchilarga xos bo'lgan odatiy hissiy tajribalarni tavsiflaydi. Uning fikriga ko'ra, haydash uslubi shaxsning haydash usullarini, haydash rejimlarini, shu jumladan tezlikni tanlash, manevr qilish, quvib o'tish kabi tafsilotlarni tanlashi bilan bog'liq deya ta'kidlab o'tgan [3,558-570].

Natijalar va ularning muhokamasi. Transport yo'llarida xavfsiz xatti-harakatlar madaniyatini shakllanganlik darajasining diagnostikasida o'tkazilgan tadqiqot tavsifi quyidagicha tahlil qilindi. Tadqiqotda Toshkent shaxridan 106 nafar turli xil toifadagi avtomobil haydovchilari ishtirok etdi, ulardan 65 nafari erkaklar, 41 nafari ayollar. Respondentlarning o'rtacha yoshi 31-32 yosh. 6 oydan 5 yilgacha haydash tajribasiga ega 18 ayol, 6 yildan 10 yilgacha haydash tajribasiga ega 16 ayol, 11 yildan 29 yilgacha haydash tajribasiga ega 7 ayol. 6 oydan 5 yilgacha haydash tajribasiga ega 15 erkak, 6 yildan 10 yilgacha bo'lgan 24 erkak, 11 yildan 29 yilgacha bo'lgan 26 erkak.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari munosabati bilan quyidagi usullardan foydalanildi: S. Shvartsning qadriyatlar so'rovnoma, T. N. Kurbatovning moslashuvda qo'l sinovi, Yu. I. Lobanova "Haydash uslubi" so'rovnoma, E. V. Sidorenkoning avtomobil haydash uslubini takomillashtirishda o'zini o'zi baholash va individual maqsadlarni belgilash usuli. Respondent o'zi uchun qulay sharoitlarda, individual ravishda o'tkazildi. Tadqiqot Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, pedagogika va psixologiya kafedrasida hamkorligida olib borildi. Respondentlarga tadqiqot haydovchilarning yo'lda shaxslararo munosabatlarda o'zini tutishning ijtimoiy-psixologik omillarini o'rganishga bag'ishlanganligi, tadqiqot anonim tarzda va ularni aniqlash uchun shaxsiy ma'lumotlari talab qilinmasligi, ularning javoblari faqat bizga ma'lum bo'lishi va umumiy xulosalar sifatida ishlatilishi, agar o'zlari xaqidagi fikr-mulohazalarni eshitishni istasalar biz ular bilan bog'lanamiz degan holda yetarlicha tushuntirish ishlari olib borildi. Tadqiqot yakka holda taxminan bir soat davom etishi ma'lum qilindi. Respondentlar katta qiziqish bilan samimiy ishtirok etdilar va do'stona, ijobiy munosabatda bo'ldilar.

Yu. I. Lobanova "Haydash uslubi" so'rovnoma haydash uslubini baholashga tizimli yondashuvga asoslangan individual haydash uslubi xususiyatlarini baholash uchun mo'ljallangan. Anketa bizga haydash uslubining ba'zi xususiyatlarini, xususan, xavf – xavfsizlik, rejalashtirish,

Erkak va ayollarda haydash yoshi va tajribasi

1-jadval

Ko'rsatkich	erkaklar (n=65)		ayollar (n=41)	
	o'rtacha	standart og'ish.	o'rtacha	standart og'ish.
Yoshi	31,62	7,165	31,97	7,012
Haydash tajribasi	9,95	6,319	8,02	5,392

Erkaklar va ayollarning o'zini o'zi baholash natijalariga ko'ra tavsiflovchi statistikani tahlil qilish (haqiqiy) shuni ko'rsatdiki, erkaklar to'xtash joyiga bo'lgan ishonch va yo'l odob-axloq qoidalari kabi uslub xususiyatlarini eng yuqori

Erkaklar va ayollar o'rtasidagi haydash uslubidagi farqlar (o'z-o'zini hurmat qilish)

2-jadval

Ko'rsatkich	erkaklar(n=65)		ayollar (n=41)		Ahamiyati
	o'rtacha	o'rtacha og'ish	o'rtacha	o'rtacha og'ish	
Odob-axloq qoidalari	7,44	1,960	8,19	1,447	0,128
Xavflilik	4,91	2,448	3,94	2,594	0,169
Xavfsizlik	6,87	1,961	7,74	1,788	0,041
Xavfsizlik vositalariga munosabat	6,76	2,524	7,87	2,061	0,054
Avtoturargohda turish ishonchi	8,42	1,936	6,32	2,948	0,001
Rejalashtirish	7,18	2,219	7,68	1,956	0,377
Shoshqaloqlik	4,13	2,149	4,68	2,676	0,370

Tadqiqot guruhlarida kerakli haydash uslubini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, erkaklar ham, ayollar ham to'xtash joyida ko'proq ishonchga ega bo'lishga va xavfsizlikka ko'proq

jizzakilik, xavfsizlikka munosabat, haydash madaniyati, to'xtash joyiga bo'lgan ishonchni baholashga imkon beradi. So'rovnoma 75 ta savoldan iborat. Respondent uchta javob variantidan birini tanlaydi yoki o'zi yozadi (ba'zi savollarda). Savollar haydash uslubining xususiyatlarini aks ettiradi. Javoblar kalitga muvofiq qayta ishlanadi.

Sh. Shvartsning shaxsiy qadriyatlarini o'rganish bo'yicha so'rovnoma o'n turdagi qadriyatlarining ahamiyatini o'lchash uchun mo'ljallangan o'lchovdir. Tadqiqot uchun so'rovnomaning faqat birinchi qismi ("qadriyatlarini ko'rib chiqish") ishlatilgan.

"Qo'l sinovi" shaxsni o'rganishning proyeksiyon usullarini anglatadi. "Qo'l sinovi" testi yordamida quyidagi ko'rsatkichlar aniqlanadi: tajovuz, direktivlik, ta'sir qilish, aloqa, muxtojlik, qo'rquv, namoyishkorlik, qo'lni mayib qilib ko'rsatish, tavsif, kuchlanish, faol shaxssiz, faol shaxsiy, passiv shaxssiz, gallyusinatsiyalar, javob berishdan bosh tortish.

V. Sidorenko usuli bo'yicha mashg'ulotni o'tkazish uchun modelning modifikatsiyasi. Model yettita haydash uslubidan iborat: Xavfsizlik, xavflilik, rejalashtirish, jizzakilik, yo'l odob-axloq qoidalari, avtoturargohga joylashishga ishonch, xavfsizlik vositalariga munosabat.

Ma'lumotlarni qayta ishlashning matematik va statistik usullari qayta ishlash natijasida birlamchi ma'lumotlar matritsasi hosil bo'ldi, uning statistik qayta ishlanishi IBM SPSS STATISTICS 22.0 dasturi yordamida quyidagi usullardan foydalangan holda amalga oshirildi: Ta'riflovchi statistikani hisoblash, taqsimotning normalligini tekshirish uchun Kolmogorov – Smirnov mezonlari, spirman darajasidagi korrelyatsiya mezonidan foydalangan holda korrelyatsiya tahlili, mann-Uitni U mezonidan foydalangan holda qiyosiy tahlil (mustaqil namunalar uchun), vilkokson mezonidan foydalangan holda qiyosiy tahlil (qaram namunalar uchun).


Avvalo biz ularning yoshi va haydash tajribasini tahlil qildik. Ikkala guruhning o'rtacha yoshi 32 yoshda, haydash tajribasi o'rtacha erkaklar guruhida 10 yil va ayollar guruhida 8 yil ekanligi (1-jadvalda) aniqlandi.

darajada ifoda etadilar. Ayollar, shuningdek, yo'l odob-axloq qoidalari ega, ammo ular ikkinchi rinda xavfsizlikka yuqori qiyshadi. Jizzakilik va xavflilik ikkala guruhda ham eng zaif ifoda qilindi.

Erkaklar va ayollar o'rtasidagi haydash uslubidagi farqlar (o'z-o'zini hurmat qilish)

e'tibor berishga intilishadi. Shu bilan birga, xavflilik va shoshqaloqlik ko'rsatkichlari eng kam namoyon bo'ldi.

1-rasm. Erkaklar va ayollar o'rtasidagi haydash uslubidagi farqlar.



Tajriba natijalarini tahlil qilganda, turli jinsdagi haydovchilar ikkala guruhda ham to'xtash joyiga bo'lgan ishonch, rejalashtirish va xavfsizlik ustunlik qilishi aniqlandi. Biroq, erkaklar guruhida jizzakilik eng kam ifodalangan, ayollarda esa xushmuomalalik kam ifodalangan. Ular

Jadval 3.

Tajriba natijalariga ko'ra erkaklar va ayollar o'rtasidagi haydash uslubidagi farqlar

Ko'rsatkichlar	Erkaklar (n=65)		Ayollar (n=41)		Ahamiyati
	o'rtacha	o'rtacha og'ish.	o'rtacha	o'rtacha og'ish.	
Xavfsizlik	5,81	1,268	5,64	1,314	0,735
Muloyimlik	5,05	1,547	3,91	1,489	0,005
Rejalashtirish	5,91	0,883	5,39	0,945	0,024
Impulsiv	4,17	1,055	4,15	0,968	0,775
Tavakkal	4,37	1,051	4,50	1,207	0,711
Avtoturargohga ishonch	6,75	2,695	5,88	3,141	0,249

Shunday qilib, erkaklar ayollarga qaraganda ko'proq xushmuomalalik bilan yo'lda harakat qilishadi va agar qiyinchiliklar to'satdan paydo bo'lsa, o'z marshrutlarini rejalashtirishga, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni oldindan bilishga yoki marshrutni o'zgartirishga ko'proq moyil bo'lishadi. Shunisi qiziqki, ba'zi ayollar prinsiplar jihatdan yo'l harakati madaniyati bilan tanish emas edilar ular haydovchilar bir-birlariga minnatdorlik bildiradigan yoki boshqa ma'lumotlarni uzatadigan signallar borligini bilishmagan. Shunday qilib, ayollar erkaklarga qaraganda xavfsizlikka ko'proq e'tibor berishadi, ammo ular to'xtash joyida o'zlarini kamroq ishonchli tutishadi, kamroq yo'l xushmuomalaligini namoyish etadilar va rejalashtirishga qodir emaslar. Haydash uslubining xususiyatlari haydovchilarning yetakchi qadriyatlari bilan bog'liqligini Spirmanning korrelyatsion tahlili qiymat ko'rsatkichlari va haydovchilarning haydash uslubi ko'rsatkichlari o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash uchun amalga oshirildi. Tahlil butun namunada tkazildi (n=107 kishi). Yo'l harakati holatini modellashtiruvchi tajribada qadriyatlar va xatti-harakatlar o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish eng katta qiziqish uyg'otadi. Haydash tajribasi yangi hissiyotlarga bo'lgan ehtiyoj bilan ijobiy bog'liq ($r \leq 0,05$) va yosh an'analarning ahamiyati bilan bog'liq ($r \leq 0,01$), xavfsizlik ($r \leq 0,01$), boshqalarga g'amxrlilik qilish ($r \leq 0,05$). Shu bilan birga, yoshga qarab, o'z ehtiyojlarini qondirish qiymati pasayadi ($p \leq 0,05$). Gedonizm (zavqlanish) eksperimental vaziyatda rejalashtirish bilan ijobiy bog'liq ($r \leq 0,05$), to'xtash joyidagi ishonch ($r \leq 0,01$) va xavfsizlik bilan salbiy ($r \leq 0,01$). Muvofiqlik to'xtash joyidagi ishonch bilan salbiy bog'liq ($r \leq 0,05$) va rejalashtirish ($r \leq 0,05$). Yutuq qiymati – rejalashtirish bilan ijobiy bog'liq ($r \leq 0,05$), xavfli ($r \leq 0,05$), to'xtash joyiga ishonch ($r \leq 0,01$) va xavfsizlik bilan salbiy ($r \leq 0,01$). Mehribonlik to'xtash joyidagi ishonch bilan salbiy bog'liq ($r \leq 0,05$). Shunday qilib, yoshga qarab, boshqalarga g'amxo'rlik qilish istagi, xavfsizlik

haydovchilarning "tili" va yo'l odob-axloqi bilan deyarli tanish emasligi aniqlandi (3-jadval, 2-rasm). Mann-Uitni mezonidan foydalangan holda qiyosiy tahlil xushmuomalalik ($r \leq 0,01$) va rejalashtirish ($r \leq 0,05$) bo'yicha sezilarli farqlarni aniqlandi. Ikki ko'rsatkich ham erkaklar guruhida yuqori bo'ldi.

tashvishi kuchayadi. Lazzatlanish va yutuqlarga intilish qanchalik yuqori bo'lsa, yo'lda rejalashtirish va ishonchli xatti-harakatlar shunchalik yuqori bo'ladi, xavfsizlik tashvishlari kamayadi. Yutuqlarga intilish ham tavakkalchilik bilan bog'liq. Qizig'i shundaki, mehribonlikning qiymati va boshqalarga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan istaklarni o'z ichiga olishga intilish qanchalik yuqori bo'lsa, to'xtash joyiga bo'lgan ishonch shunchalik past bo'ladi va rejalashtirish qobiliyati shunchalik past bo'ladi. Hayotiy qadriyatlar haydash uslubi bilan chambarchas bog'liqligi aniqlandi: zavqlanish va yutuqlarga intilish hayajonlanish zarurati, tavakkal qilishga tayyorlik va shoshqaloqlik, ammo rejalashtirilgan xatti-harakatlar bilan bog'liq. Mehribonlik va xavfsizlik qadriyatlari, aksincha, ehtiyotkorlik bilan haydash va yo'lda o'zini tutish madaniyati bilan bog'liq. Agressivlik darajasi har xil bo'lgan haydovchilar haydash uslubi jihatlar bo'yicha o'rganilganda haydovchilar tajovuzkorlik darajasi bo'yicha 3 guruhga bo'lingan (qo'lda sinov hand-test usuli bo'yicha). Guruhlar quyidagicha olingan: aggressivlik ko'rsatkichi bo'yicha o'rtacha qiymat, shuningdek uning standart og'ishi hisoblangan. Statistika qoidalariga muvofiq, "o'rtacha $\pm \frac{1}{2}$ standart og'ish" oralig'ida bo'lgan barcha ko'rsatkichlar tajovuzkorlikning o'rtacha darajasiga kiritilgan. Yuqori bo'lgan ko'rsatkichlar yuqori, ma'lum darajadan past bo'lganlar esa past ko'rsatkichlarda hisoblandi. Shunday qilib, tajovuzkorligi past bo'lgan 36 kishi, o'rtacha 41 kishi va 29 kishi yuqori guruhga kiritildi.

Shunday qilib, qisqa vaqt ichida (6-8 yildan kam) haydab yurgan yosh haydovchilar tajovuzkorlik darajasining ancha pastligi bilan ajralib turadi, deb aytishimiz mumkin. 8-10 yildan ortiq tajribaga ega odamlar ko'proq tajovuzkor bo'lishadi. Haqiqiy ($p \leq 0,05$) va kerakli mashinalar ishonchi ($p \leq 0,01$), shuningdek, haqiqiy ($p \leq 0,05$) va kerakli ($p \leq 0,05$) rejalashtirish ko'rsatkichlarida sezilarli farqlar aniqlandi. Qizig'i shundaki, yuqori tajovuzkor guruhda yuqori to'xtash joyiga ishonch (haqiqiy va kerakli) kuzatildi, rejalashtirish esa

yuqori tajovuzkor guruhda ham eng yuqori bo'ldi. Shu bilan birga, yuqorida aytib o'tilganidek, bu yerda tajovuzkorlik darajalari shartli ravishda ta'kidlangan. Ya'ni, mo'tadil tajovuzkor odamlar o'zlariga ko'proq ishonadilar, ular oldindan rejalashtirishga, o'z yo'nalishi yoki harakatlari haqida o'ylashga moyil bo'ladilar, buning natijasida ularning ishonchi ortadi. Agressivligi past bo'lgan odamlarda o'ziga ishonch yo'qligini ko'rsatdi.

Xulosa. Eksperimental tadqiqot ma'lumotlarini tahlil qilish tadqiqot boshida ilgari surilgan farazlarni qisman tasdiqlovchi bir qator muhim farqlar va munosabatlarni aniqladi. O'tkazilgan tadqiqotlar bizga yuklangan vazifalarni bajarishga to'liq imkon berdi, shuningdek, haydovchilarning xatti-harakatlarining ijtimoiy-psixologik omillarini o'rganish

bo'yicha keyingi ishlar rejasini belgilab berdi. Agressivlik darajasi yuqori bo'lgan haydovchilarning yo'l harakati xususiyatlarini yanada chuqurroq tahlil qilish, tajovuzkorlikning namoyon bo'lishiga ta'sir qiluvchi tashqi omillarni va uning oldini olish usullarini o'rganish talab etiladi. Natijalarning yuqori ishonchligini ta'minlash uchun taqdim etilgan transport holatlarini ko'paytirish va namuna hajmini oshirish orqali eksperimentni yaxshilash zarurligini ham ko'ramiz. Olingan natijalar haydovchilikka nomzodlarni diagnostika qilish va haydash uslubini to'g'rilash va yo'l harakati madaniyatini oshirish uchun axborot va ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun ishlatilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Клеббельсберг Д. / пер. с нем.; под ред. В.Б. Мазуркевича. - М.: Транспорт, 1989. - 367 с. <https://www.semanticscholar.org/author/D.-Klebensberg/16228470> Risk Taking Behaviour.
2. Лобанова Ю.И. Планирующий стиль деятельности водителя: описание, диагностика, компенсационные возможности //Вестник гражданских инженеров. 2014. №4 (45). С. 140-147
3. Miller, G., Taubman - Ben-Ari, O., 2010. Driving styles among young novice drivers-The contribution of parental driving styles and personal characteristics Accident Analysis & Prevention, 42: 558-570.



UDK: 373.5(091.3)

Abdug'afur AVLIYOQULOV,
Termiz davlat universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: avliyoqulov2017@gmail.com

P.f.n. dots. Berdiyeva O. taqrizi ostida

FORMATION OF STUDENT'S COMPETENCE IN THE INTEGRATION OF EXACT AND NATURAL SCIENCES IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS

Annotation

The scientific-theoretical basis of the methodology of developing students' competence in the teaching of concrete and natural sciences based on integration in general secondary schools is described. This scientific article focuses on the importance of forming the logical thinking ability and competence of students in the teaching of concrete and natural sciences based on an integrative approach in general education schools.

Key words: Integrative approach, methodology, integration, system of education sciences, teaching, subject, pedagogical technology, integration of continuity.

ФОРМИРОВАНИЕ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ ПРИ ИНТЕГРАЦИИ ТОЧНЫХ И ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Аннотация

Описаны научно-теоретические основы методики формирования компетентности студентов при преподавании конкретных и естественных наук на основе интеграции в общеобразовательной средней школе. В данной научной статье акцентируется внимание на важности формирования способности и компетентности логического мышления учащихся при преподавании конкретных и естественных наук на основе интегративного подхода в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: Интегративный подход, методология, интеграция, образование, обучение, предмет, педагогические технологии, соединение интеграции.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA ANIQ VA TABIIY FANLARNI INTEGRATSIYALASHDA O'QUVCHILAR KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarni integratsiya asosida o'qitishda o'quvchilar kompetensiyasini rivojlantirish metodologiyasining ilmiy-nazariy asoslari bayon qilingan. Ushbu ilmiy maqolada umumta'lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarni integrativ yondashuv asosida o'qitishda o'quvchilarni mantiqiy fikrlash qobiliyati va kompetensiyasini shakllantirish ahamiyatiga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Integrativ yondashuv, metodologiya, integratsiya, ta'lim, o'qitish, fan, pedagogik texnologiya, motivatsiya, kompetensiya, uzviylik integratsiyasi.

“Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan,
ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”

Sh.M. Mirziyoyev

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev o'z asarlarida ta'kidlaganlaridek: “Bizning navqiron avlodimiz manfaatlarini ta'minlash borasidagi faoliyatimiz qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonun asosida qat'iy davom ettiriladi”[1]. Zero, kelajak har tomonlama bilimdon, zukko va salohiyatli yoshlar qo'lida. Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridanoq, ta'lim tizimining huquqiy asoslari shakllantirildi va uning yagona, uzluksiz modeli yaratildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh

kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”[2]. Umumta'lim maktablarida ta'lim olayotgan barcha o'quvchilar asosiy e'tiborni fan sirlarini egallashga va uning turmushda tatbiqlarini o'rgatishga qaratmog'i kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvar PF-60 sonli “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” gi Farmonining “Harakatlar strategiyasidan-Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan 7 ta ustuvor yo'nalishdan iborat davlat dasturining IV yo'nalishi 41-maqсадda “Maktablarni rivojlantirish Milliy dasturini joriy etish orqali Xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rni yaratish va maktab ta'limini rivojlantirish yaratish”[3], ustuvor vazifalar belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29-apreldagi RG'-5712 sonli farmoniga muvofiq, Xalq ta'limi tizimini 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning 30

ta ilg'or mamlakat qatoridan joy egallashi maqsad qilib qo'yilgan. Bugungi kunda mamlakatimizni innovatsion rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev 2020 yil 31-yanvar kuni poytaxtimizning Olimlar ko'chasidagi ilmiy-tadqiqot institutlariga tashrifi chog'ida olimlar, yosh tadqiqotchilar bilan uchrashdi. Mazkur uchrashuvda O'zbekistonning aniq anlar bo'yicha salohiyati dunyo miqyosida tan olingani alohida ta'kidlandi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan to'rtta yo'nalish, ya'ni matematika, kimyo, biologiya va geologiya fan sohalarining ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirish talab olindi. Ayni paytda bu fan sohasini yuksaltirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Unda mamlakatimizda aniq va tabiiy fanlar rivojlantirishining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. O'tgan davr ichida aniq va tabiiy fanlar ilm-fani va ta'limini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan qator tizimli ishlar amalga oshirildi.

Bugungi kunda o'quvchilarni qisqa muddatda asosli ma'lumotlar bilan qurollantirish, har bir fan doirasida o'quv-ijodiy faoliyatini tashkil etish orqali o'quvchilarni kompetensiyalarini rivojlantirish ular tomonidan aniq va tabiiy fan asoslarini puxta o'zlashtirishi uchun shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda.

Ta'lim tizimini modernizatsiyalashda integratsiya masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Aniq va tabiiy fanlar-umumiy o'rta ta'limda asosiy (tayanch) fan hisoblanib, uni o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda boshqa fanlar aloqadorligidan foydalanib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. "Integratsiya"-so'zi lotincha "integratio" - tiklash, to'ldirish, "integer"-butun so'zidan kelib chiqqan" [4].

"Integratsiya"-atamasi bir butunlik degan ma'noni anglatadi, aniq va tabiiy fanlar integratsiyasi deganda fanlar mazmunining o'zaro singishi va aloqalari nazarda tutiladi. Integratsiya muammosi fanning rivojlanishi bilan bog'liq.

"Integratsiya tushunchasi XVIII asrdayoq ingliz filosofi va sotsiologi Gerbert Spenser tomonidan izohlangan"[5]. Aniq va tabiiy fanlar integratsiyasi o'zining infratuzilmasi, o'z tayanch ta'lim texnologiyalariga ega. Umumta'lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarni integrativ yondashuv asosida tashkil etish va mavzular boshqa fanlar doirasida ham qisman o'zlashtirilgan bo'lib, ularning o'zlashtirish o'quvchilar uchun qiyinchilik tug'dirmaydi va ularni bilim darajasini to'ldirishga yordam beradi.

Aniq va tabiiy fanlar integratsiya - ta'lim jarayoni va uning barcha o'qitilish shaklida didaktik shart-sharoitlarni takomillashtiruvchi hodisadir. Aniq va tabiiy fanlarni ta'minlashda o'zaro bir-biriga yaqin o'quv predmetlarining materiallari nihoyatda talabchanlik bilan muvofiqlashtirilishi lozim. Umumta'lim maktablarida beriladigan bilim qanchalik mustahkam bo'lsa, o'quvchilarning dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanadi va kamol topadi. Aniq va tabiiy fanlararo aloqadorlik (integratsiya)ni ta'minlangan sharoitda o'quvchilarning egallagan bilimlari samarali rivojlanishi bilan bir qatorda ularning idrok etish qobiliyati, faolliklari, qiziqishlari, aqliy intellektual imkoniyatlari ortishiga erishiladi. Integratsiyalashgan darslar yosh avlodga tabiat va jamiyat haqidagi yaxlit tasavvurlarni shakllantirishga yordam beradi. Umumta'lim maktablarida aniq va tabiiy fanlar darslarini integrativ yondashuvlar asosida o'qitishni ta'minlash bugungi kunning asosiy muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu masala ta'lim tizimida integrativ yondashuv asosida aniq va tabiiy fanlarni uzviylikni ta'minlash metodologiyasi muhim ahamiyatga ega. Shunga ko'ra, aniq va tabiiy fanlar bugungi

kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda va uning mazmunini yangilashni talab qilmoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fanlarning poydevori aniq va tabiiy fanlar hisoblanadi, ular negizida yangi fanlar paydo bo'lmoqda, ularni o'zlashtirishda ko'pgina tushunchalar, aql, ong bilan idrok etishni talab etmoqda. Uzviylik asosida tashkil etilgan integratsiya aniq va tabiiy fanlar ta'limi mazmunini insonparvaplashitishning asosiy mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Bunday yondashuvda o'qitishdagi ilmiylik tamoyili butunlay yangicha sifat kasb etadi. Boshqa fanlarni o'qitishda aniq va tabiiy fanlar asosiy ob'ekt bo'lib keladi. Ana shu berilgan bilimlar takrorlanuvchi emas, balki to'ldiruvchi tushuncha bo'lib xizmat qiladi. Bugungi jamiyat taraqqiyoti insoniyat tafakkurining mahsuli, rivojlangan ilm-fan yutuqlariga asoslangani bilan belgilanadi. Bu biz pedagog kadrlar zimmasiga intiluvchanlik, izlanuvchanlik, yaratuvchilik salohiyatini yuklaydi. Shu sababli aniq va tabiiy fanlar ta'lim tizimida dars sifatini oshirishda integrativ yondashuv asosida o'qitishning uzviylikni ta'minlash metodologiyasidan keng foydalanilmoqda. Bugungi kunga kelib an'anaviy o'qitish o'rni shaxsiga yo'naltirilgan yondashuvlar egallamoqda. Bu o'rinda noan'anaviy o'qitish shakli-integratsiyaning ahamiyati yanada oshib bormoqda. Negaki, integratsiyaning darajasiga qarab uning qo'llanilish texnikasiga ko'ra amalga oshirilgan texnologiyaning istiqbolini belgilash mumkin bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bu vazifalarni amalga oshirishda o'quv jarayonini yanada takomillashtirishga, yangicha ilmiy-uslubiy yondashuvni qo'llashga bog'liq bo'ladi. Aniq va tabiiy fanlar tadbirlari nafaqat fizika, astronomiya va biologiyadagina emas, bulardan tashqari uning usul va natijalari ommaviy xizmat ko'rsatish nazariyasida, ishonchlik nazariyasida matematik lingvistikada, ishlab chiqarishni loyihalashtirish va optimal boshqarishda, mahsulotlarni sifatini nazorat qilishda va boshqa maqsadlarda keng qo'llaniladi. Aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda integrativ yondashuv asosida o'qitishdan maqsad-esa olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash, belgilangan mavzular asosida qo'shimcha bilim olishdan iborat. Bu esa, barcha aniq va tabiiy fanlar darslarini sifatini oshirishni taqozo etadi. Mashg'ulotlar qiziqarli bo'lishi uchun har bir masala yoki topshiriq so'zma-so'z yodlash uchun emas, balki ularning oliy faoliyatlarini ishga soladigan xarakteri bo'lishi kerak. Jumladan, umumta'lim maktablarida aniq va tabiiy fanlar darslarida turli noan'anaviy usullardan foydalanish bugungi kunda samarali natijalarni bermoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarning amaliy ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Aniq va tabiiy fanlar umumiy o'rta ta'lim maktablarining tayanch fanlaridan biri bo'lib, boshqa fanlarni o'rganishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Aniq va tabiiy fanlarni o'rganishda o'quvchilar o'zlarining fikr-mulohazalarini aniq va mazmunli tarzda bayon etishga odatlanishlari, yozuvlarni tushunarli va savodli bajarish malakalarini egallashlari lozim.

Umumta'lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarni o'qitishdan asosiy maqsad-o'quvchilarda mantiqiy, algoritmik, abstrakt fikrlash, o'quvchilar kompetensiyaviy tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish, o'zining fikr-mulohazalarini, xulosalarini asosli tarzda aniq bayon etishga o'rgatish, nazariy va amaliy masalalarini yecha olishga etarli bilimni egallash va uni qo'llash, masalalarning modelini tuzish va tahlil qilishga o'rgatishdir. Aniq va tabiiy fanlarning boshqa fanlar bilan integratsiyalashuvi, mantiqi va izchilligi, ularni eng zamonaviy boshqarish tizimini yanada chuqurlashtirish, takomillashtirish va liberlashtirish bo'yicha ehtiyoj sezilmoqda. Ta'lim tizimini isloh qilishda asosiy ustuvor vazifalar aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda integrativ yondashuv asosida tashkil etishning shakli

va mazmunidan kelib chiqib fanning xususiyatini hisobga olgan holda o'quvchilarga bilim berish tavsiya etiladi. Bu esa umumiy o'rta ta'lim maktablarida aniq va tabiiy fanlar darslarini ketma-ketlik asosida boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqlik va uslubiy jihatdan uzviy va mantiqiy bog'liqlikda tashkil etish o'quvchilarning keyingi ta'lim muassasalarida bilim olishlari uchun zamin yaratadi. Aniq va tabiiy fanlar tabiiy-ilmiy fan hisoblanib, boshqa fanlar bilan uzviy bog'lanadi. Fanlararo bog'lanishlarni to'g'ri amalga oshirish uchun o'qituvchi har bir fan xususiyatlarini hisobga olishi juda muhimdir. Ta'lim har doim takomil va yangilanishga mushtoqdir. Shuning uchun ta'limni yangi usullari ustida izlanishimiz talab etiladi. Chunki o'quvchilarga ham bir xil qolipdagi darslar yoqmaydi, ularni zeriktiradi. Natijada o'quvchi darsni yaxshi o'zlashtira olmaydi. O'quvchilarni zeriktirmaslik uchun dars usullari turlicha bo'lishi darsning samaradorligini yanada oshiradi. Dars jarayonlarida notiqlik, suhbat, hikoya, mustaqil ish, yozma ish, zamon bilan bog'lash, mustaqil fikrga tayanish shakllariga va integrativ metodlarga yondashgan holda dars o'tishga katta e'tibor berishimiz lozim.

Aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda integrativ yondashuv metodologiyasi asosida tashkil etishning shakli va mazmunidan kelib chiqib fanning xususiyatini hisobga olgan holda o'quvchilarga bilim berish tavsiya etiladi.

"Metodologiya (metod va ...logiya so'zlaridan)-tadqiqotchining nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etish, tiklash tamoyillari va usullari tizimi hamda bunday tizim haqidagi ta'limot. Metodologiya metodlar haqidagi ta'limot yoki yalpi umumiy bilish metodi deb ham ta'riflanadi. Integratsiyalashgan darslar yosh avlodga tabiat va jamiyat haqidagi yaxlit tasavvurlarni shakllantirishga yordam beradi. Aniq va tabiiy fanlar integratsiyasi o'zining texnologiya infratuzilmasi, o'z tayanch ta'lim texnologiyalariga ega. Umumta'lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarni integrativ yondashuv metodologiyalari asosida o'qitish o'quvchilarning motivatsion va kompetensiyaviy integrativ yondashuv metodi qo'llanilganda, quyidagilar aniqlandi:

- o'quv modulini o'zlashtirish o'quvchilarning individual xususiyatiga bog'liq ekanligi;

- o'qish faoliyatida sezilarli darajada o'zgarishlar yuz berishi;

- o'quvchilarni xohish-istaklarini inobatga olgan holda mashg'ulotni - integrativ yondashuv asosida tashkil etishni ta'minlanishi;

- aniq va tabiiy fanlarni integratsiya yordamida o'qitish o'quvchilarni boshqa fanlarga qiziqish, motivatsiyasi va kompetensiyasi o'zgaruvchan xususiyati aniqlanadi.

Umumta'lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda integratsiyalashgan metodlar yordamida olib borishda quyidagi ta'lim tamoyillariga tayanadi: izchillik, uzluksizlik, uzviylik, tizimlilik, hamkorlik. Bunda umumta'lim maktablarida aniq va tabiiy fanlardan integratsiya asosida o'qitishni amalga oshirishda o'quvchilarning motivatsiyasi va kompetensiyasini shakllanganligini baholovchi indikatorlarning sifat va son jihatidan dinamik o'sganligida ko'ramiz.

Motivatsiya (lot. movere)-harakatni o'yg'otmoq, ruhiy-fiziologik rejaning dinamik jarayoni, inson harakatini boshqarish, maqsad sari etaklovchi vosita, tashkillashtirish, faollik va bardoshlik kabi ma'nolarni anglatadi.

Motivatsiya-bu bu maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakatlarni boshlaydigan, boshqaradigan va saqlaydigan jarayon. Umumta'lim maktab o'quvchilarini integratsiya asosida o'quvchilar motivatsiyasini shakllantirish samaradorligini aniqlash uchun belgilangan mezonlar quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha o'zgarishi kuzatiladi.

Tahlil va natijalar. Umumta'lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarni integratsiya usulida o'qitishda o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar dars ishlanmalari va texnologik xaritalar asosida tashkil etiladi. Bunda o'quvchi o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni ijodiy fikrlash orqali mantiqiy fikr doirasi kengayadi. Olib borilgan pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning kompetensiyaviy fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishda aniq va tabiiy fanlar integratsiyasi muhim ahamiyatga ega. Umumta'lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarni integrativ yondashuv metodologiyalari asosida o'qitish o'quvchilarni boshqa fanlarga qiziqish motivatsiyasini shakllantiradi. Umumta'lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarni integrativ yondashuv metodologiyalari asosida o'qitish o'quvchilarni boshqa fanlarga bo'lgan motivatsiyasini shakllantirish uchun quyidagi metodik tavsiyalarni keltiramiz:

- o'quv jarayoniga muvaffaqiyatli vaziyat yaratish;
- ta'lim oluvchilarga o'quv topshiriqlarni differentsiallashtirish;

- o'quvchilarning faol ijodiy izlanuvchanligini oshiruvchi savol va topshiriqlardan foydalanish;

- o'quvchilarni dars davomida kelajakdagi mutaxassisligiga mos o'quv topshiriqlarini bajarishga yo'naltirish;

- kompetensiya elementlari (ta'lim muhitini integratsiyalashgan holda yaratish)ni shakllantirish va mustahkamlash;

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarni integratsiya asosida o'qitish o'quvchilar faolligini o'rnatish bilan birga turdosh fanlarni o'zlashtirishlari uchun zamin yaratadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda sharqona milliy qadriyatlarimizni anglagan holda zamonaviy ta'limning dolzarb muammolari, asosiy tendensiyalari va rivojlanish istiqbollari muhokama qilish, xalqaro tajriba bilan almashinish muhim ahamiyatga ega. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'limni rivojlantirishga aniq va tabiiy fanlarni integrativ yondashuv asosida tashkil etish bilan birga pedagoglar ijtimoiy kompetentligi va o'quvchilar ijodiy salohiyatini rivojlantirish lozim. Aniq va tabiiy fanlar darslarini ko'proq mahorat darslariga aylantirish va seminar-treninglar tashkil etish o'quvchilarni kompetensiyaviy tasavvurlarini shakllantirish bilan birga ularni savodxonligini oshiradi. Eng asosiysi integratsiyalashgan darslar fanni chuqur o'zlashtirish bilan birga o'quvchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirib, uni tashqi olam bilan chuqurroq tanishtirish imkoniyatini yaratadi. Bu esa o'qituvchilarni o'z ustida ko'proq ishlashga va qator fanlarni puxta o'zlashtirishga undaydi. Aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda integratsiya metodlardan foydalanish o'quvchilar bilim olishlari bilan birga boshqa fanlar haqidagi tushuncha va tasavvurlari oshadi. Hozirgi paytda aniq va tabiiy fanlar-fizik, kimyoviy, astronomik masalalarida keng qo'llanilishi va bu fanga bo'lgan qiziqishini kuchaytirib, uni o'rganishning qanchalik zarurligini ko'rsatadi. Integratsiyalashgan metod orqali bir qancha yutuqlarga erishishimiz bilan bir qatorda, kamchiliklarga yo'l qo'yish ehtimoli ham yo'q emas. Agar o'quvchining psixologik va aqliy imkoniyatini hisobga olmasak, uning uchun murakkab terminlardan foydalansak, o'quvchi saviyasi doirasidan chetga chiqsak, unda o'quvchilarga aqliy zo'riqish, mazmuni tushunmovchilik oqibatlariga olib keladi. Bundan tashqari vaqtning to'g'ri taqsimlay olmasak, biz o'ylagan maqsadlarimizga erisha olmaymiz. O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini

loyihalashtirib olish kerak. Bunda o‘qituvchi uchun darsning texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir, har bir dars o‘quvchilar imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, integrativ yondashuv asosida o‘quvchilarni fanga oid xususiy kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmini quyidagicha tavsiflash mumkin:

-integratsiya asosida ta’limni tashkil etish jarayoni bilan an’anaviy o‘qitish jarayonini taqqoslab, kompetensiyaviy ta’limni joriy etish orqali samarali natijalarga erishish mumkin.

-integratsiya asosida kompetensiyaviy ta’limni tashkil etish bilan an’anaviy o‘qitish jarayonini taqqoslab ta’limni tashkil etish natijasida ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshirish va o‘quvchilarda motivatsiyani qaror topishini ta’minlash mumkin.

Aniq va tabiiy fanlarni integratsiya asosida o‘qitishni amalga oshirishda o‘quvchilar motivatsiyani shakllantirishga

yo‘naltirilgan pedagogik model amaliyotidan kutiladigan pirovard natijalarni ko‘zlash, ularga erishish yo‘llarini tanlashda o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun tayanch manba bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa aniq va tabiiy fanlarni integratsiya asosida o‘qitish metodologiyasi o‘quvchilarni metodik tayyorgarligini takomillashtirishda mustaqil fikrlash, boshqa fanlarga bo‘lgan qiziqish, qaror qabul qila olish kabi sifatlar katta imkoniyatlarga egaligini tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarfanini integratsiya asosida o‘qitish orqali biz ozod va obod Vatanimizning kelajagi bo‘lmish yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, ularning mantiqiy fikrlash kompetensiyaviy qobiliyatini rivojlantirishga erishamiz. Bunda o‘quvchilarning o‘z bilimi, kuchi va qobiliyatiga bo‘lgan ishonch ortadi va natijasida har bir o‘quvchi o‘z imkoniyati darajasida rivojlanadi. Pirovard natijada ta’lim samaradorligi ortadi.

ADABIYOTLAR

1. Sh. Mirziyoyev. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. T. “O‘zbekiston” nashriyoti. 2017 y. 32 b.
2. Sh. Mirziyoyev. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent-O‘zbekiston” nashriyoti. 2017 yil. 32 bet.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni. 2022 yil 28-yanvar PF-60 sonli Farmoni. Toshkent.
4. X. Islomov, A. Avliyoqulov, N.Xurramov. “Matematik ta’limda algebraik va geometrik metodlar integratsiyasi masalasini mavjudligi va uning echimlari haqida”. “Pedagogik mahorat” nazariy va ilmiy-metodik jurnal. 2014 yil 3-soni. Buxoro. “Poligraf nashr” nashriyoti. 116 bet.
5. Арнолд В.И. Нужна ли в школе математика? Москва МСНМО. 2023 год. 253 страница.



УДК: 316.483

Виктория АЛЕКСЕЕВА,

И.о.профессора Национальный университет Узбекистана Доктор философии по социологическим наукам

E-mail: viv20@yandex.ru

Нодира ЛАТИПОВА,

Зав.кафедры Социальная работа Национальный университет Узбекистана Доктор социологических наук

Абдулло АБДУХАЛИЛОВ,

Доцент кафедры социальная работа Национальный университет Узбекистана Доктор философии по социологическим наукам

Рецензент: доктор психологических наук, профессор Карамян М.Х.

ASSESSING BARRIERS AND CONCERNS TO COVID-19 VACCINATION AMONG THE POPULATION

Annotation

The article analyzes the main barriers to vaccination against COVID-19, studied through a sociological study of the vaccinated and unvaccinated population. The authors cite the main factors influencing the decision to vaccinate, as well as refusal to vaccinate, including the decision of those close to them, the presence or absence of sufficient information about the possible consequences of vaccination, the relationship between fears and barriers to the level of vaccination.

Key words: Vaccination, information policy, barriers, concerns, pandemic, COVID-19, herd immunity.

AHOLI O'RTASIDA COVID-19GA EMLASH QO'RQISHI VA TO'SIQLAR BAHOLASH

Annotatsiya

Maqolada COVID-19 ga qarshi emlashning asosiy to'siqlari tahlil qilinadi, emlangan va emlanmagan aholini sotsiologik o'rganish orqali o'rganiladi. Mualliflar emlash to'g'risida qaror qabul qilishga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni, shuningdek, emlashni rad etishni, shu jumladan ularga yaqin bo'lganlarning qarorini, emlashning mumkin bo'lgan oqibatlarini haqida etarli ma'lumotlarning mavjudligi yoki yo'qligi, qo'rquv va to'siqlar o'rtasidagi bog'liqlikni keltirib chiqaradi. emlash darajasi.

Kalit so'zlar: Emlash, axborot siyosati, to'siqlar, tashvishlar, pandemiya, COVID-19, jamoaviy immuniteti.

ОЦЕНКЕ БАРЬЕРОВ И ОПАСЕНИЙ ВАКЦИНАЦИИ ОТ COVID-19 СРЕДИ НАСЕЛЕНИЯ

Аннотация

В статье анализируются основные барьеры вакцинации от COVID-19, изученные посредством социологического исследования вакцинированного и невакцинированного населения. Авторы приводят основные факторы, влияющие на принятие решения о вакцинации, а также отказа от вакцинации, среди которых решение близкого окружения, наличие или отсутствие достаточной информации о возможных последствиях вакцинации, взаимосвязь опасений и барьеров на уровень вакцинации.

Ключевые слова: Вакцинация, информационная политика, барьеры, опасения, пандемия, COVID-19, коллективный иммунитет.

Введение. Пандемия COVID-19 затронула в глобальном охвате все страны, а также интересы людей во всем мире. Несмотря на относительные успехи борьбы с пандемией, до сих пор во всем мире ощущается социально-экономические последствия для населения всех стран.

COVID-19 испытал и во многих случаях выявил недостатки систем здравоохранения во всех странах, недостатки экономического устройства и глобализации, сложности правительств в создании действенных ответных мер государственной политики, структуры погрешностей многосторонних подходов к решению глобальных проблем и способности эпидемиологических наук разрабатывать надежные меры и инструменты борьбы с болезнями в кратчайшие сроки. В начале пандемии возник консенсус в отношении того, что вакцинация является окончательным решением для реализации надежд человечества на профилактику заболеваний, коллективный иммунитет и возвращение к нормальной жизни. Поэтому человечество с большим интересом, ожиданием и надеждой наблюдало за тем, как различные программы по разработке вакцин

стартовали по всему миру с целью создания вакцин, доказавших свою эффективность, рентабельность и способность получать одобрение регулирующих органов в рекордно короткие сроки. Со всей справедливостью можно сказать, что наука и научные сообщества нашли подход к, казалось бы, непреодолимой задаче, поскольку несколько вакцин завершили испытательные этапы в рекордно короткие сроки к первой годовщине объявления ВОЗ о пандемии COVID-19. Однако этот быстрый прогресс на научном фронте был отягощен серьезной проблемой современности – инфодемией в эпоху социальных сетей. Контрнаучная, псевдонаучная дезинформация размывала представление общества о болезни, исказили понимание профилактических мер и серьезно подорвали отношение общественности к программам вакцинации.

Научные исследования, проводимые в мире, подтверждают, что вакцинация от COVID-19 наряду с другими мерами, признана как значимый и решающий фактор снижения распространения и дальнейшего прекращения пандемии. Разработка вакцин велась

исследовательскими компаниями, учеными в сотрудничестве со Всемирной организацией здравоохранения, которая также выполняла функции справедливого распределения безопасной и эффективной вакцины в мире [1].

В исследованиях о достижении коллективного иммунитета и эффекта от массовой вакцинации приводятся данные о том, что для снижения уровня заболеваемости и появления коллективного иммунитета доля привитого населения должна составлять минимум 52-64% [2]. В этом аспекте крайне важна эффективная программа реализации вакцинации, основанная на научно-обоснованном изучении отношения населения к вакцинации, проработке вопросов опасений и барьеров посредством информационной политики.

В настоящий момент вопросом оперативного изучения барьеров вакцинации среди населения озабочена как Всемирная Организация Здравоохранения, так и представители всех стран, входящих в нее. Вместе с тем, при изучении данной проблематики практически все сталкиваются с одной проблемой: нет единого «социального монитора», который может применяться практически ко всем жителям планеты. Страновые и ментальные особенности существенно влияют на принятие или не принятие решения о вакцинации. В каждой стране подобные исследования раскрывают уникальные барьеры восприятия у ее жителей, в этой связи актуальность исследования в рамках проекта Министерства инновационного развития Республики Узбекистан «Разработка оперативного мониторинга среди вакцинированного и не вакцинированного населения Республики Узбекистан для разработки комплекса мероприятий, снимающих барьеры опасения вакцинации от covid-19 среди не вакцинированного населения для последующего повышения уровня вакцинации» одно из первых в Узбекистане и обусловлено целью изучения барьеров и опасений вакцинации от covid-19 среди не вакцинированного и вакцинированного населения.

Анализ литературы по теме. Информационная политика, которая строится на постоянном и системном мониторинге динамики общественного мнения отношения населения, которое включает отслеживание отношения к конкретной вакцине, в частности, проводимое на различных этапах как медицинских кампаний, так и информационного сопровождения данного процесса. Исследования, которые проводятся в различных странах ставили своей целью выявления факторов, формирующих положительное или отрицательное отношение к вакцинации, которое в свою очередь определяет вектор и результат массовой вакцинации. К примеру, исследования, проведенные во Франции в 2020 году, продемонстрировали положительное отношение к вакцинации наряду с предполагаемыми рисками, связанными с работой в системе здравоохранения, отмечался страх перед COVID-19 и отсутствие ощущения безопасности от осложнений в результате вакцинации, на который может повлиять дезинформация о безопасности вакцины [3]. Исследование, проведенное в Греции в 2020 году охватывали как изучение отношения медицинских работников и населения, которое позволило выявить готовность и степень согласия пройти вакцинацию от COVID-19.

Исследования, проведенные в Китае, Великобритании также проводилось с целью изучить страхи и опасения перед вакцинацией, а также выявления зависимости от текущей вакцинации от гриппа и наличия

хронических заболеваний. Аналогичные исследования проводились и в ряде других стран, среди которых Швейцария, Чили, Малайзия, США, Италия, Нигерия, Дания, Германия, Португалия.

Методология исследования. Исследование проведено в 2022 году. Опрошено 3143 респондентов в возрасте от 18 и старше лет во всех регионах страны, из них в группе вакцинированных 49,5% – мужчины и 50,5% – женщины, в группе невакцинированных 48,8% - мужчины, 51,2% - женщины. Общий массив опроса был распределен между регионами пропорционально численности, проживающего в них населения и составил в группе вакцинированных респондентов. Количество опрошенных граждан в городской и сельской местности было также выбрано пропорционально численности проживающего населения и составило: в группе вакцинированных респондентов 50,8% горожан, 49,2% – сельчан, в группе невакцинированных – 50,8% горожан, 49,2% - сельчан. Для проведения общенационального исследования методом персонального формализованного контактного интервью, использовалась комплексная многоступенчатая стратифицированная кластерная выборка с квотным распределением. Преимущество стратифицированной выборки в том, что она позволяет обеспечить большую степень сходства структуры выборки со структурой генеральной совокупности. На верхних ступенях выборки использована равномерная стратификация: для 2-х целевых групп (вакцинированные, не вакцинированные); для 14 регионов (Республика Каракалпакстан, 12 областей и город Ташкент).

Исходя из гипотезы о предположительно неоднородном распределении мнений по профилю предметной области – дизайн выборки был ориентирован на возможность проведения сравнительного анализа на различных уровнях, в том числе регионального и межгруппового. В связи с этим предполагалось равномерное распределение объема выборки для 14 регионов страны. Совокупность кластеров для каждого региона обеспечило пропорциональный охват по полу и 7-ми возрастным группам в соответствии с данными Государственного комитета по статистике Республики Узбекистан.

Анализ и результаты. Одним из индикаторов исследования барьеров, препятствующих вакцинации – влияние ближайшего окружения или субъективные установки. Опрос показал, что в основном решение о вакцинации респонденты принимали, основываясь на личном решении – 81,5% вакцинированных участников указали на этом. В то время как невакцинированные участники опроса (86,7%) в большей степени полагались на собственное мнение. Необходимо отметить, что среди вакцинированных респондентов высок процент тех, кого вакцинироваться обязали на рабочем месте.

В соответствии с Законом «О санитарно-эпидемиологическом благополучии населения» (статья 10) главный государственный санитарный врач при угрозе возникновения и распространения инфекционных и паразитарных заболеваний, представляющих опасность для окружающих, уполномочен выносить постановления о проведении соответствующих санитарно-гигиенических и противоэпидемических мероприятий. Статья 30 (санитарно-гигиенические и противоэпидемические мероприятия) также включает комплекс санитарно-гигиенических мероприятий и профилактических

прививок от эпидемии. Категории граждан, которые должны были пройти полный курс вакцинации:

сотрудники всех видов сервисных объектов (центры государственных услуг, почтовые отделения, банки, лизинговые компании, нотариальные конторы, страховые компании, салоны красоты, парикмахерские и др.), взаимодействующие с населением;

сотрудники всех видов торговых объектов (магазины продуктов, хозяйственных товаров, одежды, аптеки и другие);

сотрудники спортивных школ и спортивных сооружений;

работники культурно-развлекательных учреждений и зон отдыха;

сотрудники гостиниц, хостелов, отелей, общежитий, и кемпингов;

сотрудники государственных и негосударственных организаций, занимающихся пассажирскими перевозками;

сотрудники государственных и негосударственных образовательных учреждений;

военнослужащие;

работники предприятий общественного питания, в частности, точек быстрого питания, расположенных в общественных местах, чайхан, свадебных залов, кафе и ресторанов, в том числе занимающихся доставкой продуктов;

работники всех видов государственных и негосударственных медицинских и медико-социальных учреждений;

работники коммунальной сферы;

работники объектов связи и телекоммуникаций;

сотрудники органов государственной власти и управления;

сотрудники правоохранительных органов.

Доля вакцинированных респондентов, на решение которых повлияло ближайшее окружение составляет 13,2% опрошенных и наибольшее влияние среди них оказали супруг/супруга опрошенных, а также их дети. Опрос показал, что 66,8% опрошенных респондентов мотивировались тем, что не хотели болеть и распространять заболевание среди окружающих. 21,8% отметили, что беспокоились за детей и родных. При этом среди вакцинированных респондентов, 11,5% участников опроса, которые после перенесенного заболевания не

хотели подвергать себя риску повторного заболевания. 21,8% вакцинированных участников опроса ощущали беспокойство за своих детей и родных. 10,4% сделали вакцину по причине необходимости, связанной с работой. При этом такое же количество (10,3%) вакцинированных респондентов сделали вакцину, подражая окружающим.

В региональном разрезе большая доля вакцинированных респондентов Республики Каракалпакстан (73,1%), Ферганской области (69,0%), Хорезмская (65,4%), Наманганская (64,0%) причиной вакцинации отмечали чаще причину нежелания заражать окружающих людей.

Основная причина, которая побудила респондентов не делать вакцину от COVID-19 – не рационализированные ожидания, то есть они не видят в этом необходимости (43,5%). 26,6% участников опроса не делали вакцину по причине противопоказаний, связанных с состоянием здоровья.

15,0% невакцинированных участников опроса не верят в безопасность вакцины для своего здоровья. Кроме того, одной из причин невакцинирования был отмечен отсутствие выбора той вакцины, которой желал бы вакцинироваться респондентов – на это указал каждый десятый респондент. 6,0% считают, что иммунитет вполне может справиться с этим заболеванием и без вакцин. Для 2,2% респондентов отказ от вакцинации мотивируется тем, что не было проведено достаточных испытаний вакцин

Выводы и рекомендации. Возникновение ситуаций, при которых нежелательные явления справедливо или ошибочно связывают с вакцинацией, они могут подорвать доверие к вакцинам и официальным органам, осуществляющим их введение. Публикация данных привлекают внимание широкой общественности, мотивирует к изучению научных и лабораторных исследований в области вакцинирования населения. Подобные исследования позволяют изучить мотивы принятия решений, а также на основе данных исследований формировать информационную политику, направленную на повышение уровня информированности населения, уделяя внимание крайне важным аспектам различных явлений, которые волнуют население, а также создавать доверие к мероприятиям, повышающим эффективность мер профилактического характера.

ЛИТЕРАТУРА

1. Detoc M., Bruel S., Frappe P. Intention to participate in a COVID19 vaccine clinical trial and to get vaccinated against COVID-19 in France during the pandemic. *Vaccine*. 2020;38(45):7002—6. doi: 10.1016/j.vaccine.2020.09.041
2. ЗАКОН РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН от 26 августа 2015 г. № ЗРУ-393 “О санитарно-эпидемиологическом благополучии населения”//
3. Раренко А.А., Воронцова В.О. Инфодемия в условиях пандемии COVID-19 // Социальные и гуманитарные науки. Отечественная и зарубежная литература. Сер. 11: Социология. – 2021. – № 2. – С. 93–103.



UDK:1751

Baxargul ALLAMBERGENOVA,
O'zDJTSU Nukus filiali assistent o'qituvchisi
E-mail: @mail.ru

PhD, dotsent A.Elmutatova taqrizi asosida

IBRAIMA YUSUPOV'S VIEWS ON EDUCATION AND UPBRINGING

Annotation

This article analyzes the views on education of the Poet of Uzbekistan and Karakalpakstan, Hero of Uzbekistan I. Yusupov, based on creative examples that can be widely used by teachers in the educational process. Scientific hypotheses in the article are described in close connection with the works of world scientists.

Key words: Education, hard work, Gjeshik, poetry, creator, Gamzatov, Poland, writer, greatness, reading, child, thinker.

ВЗГЛЯДЫ ИБРАИМА ЮСУПОВА НА ОБРАЗОВАНИЕ И ВОСПИТАНИЕ

Аннотация

В данной статье проанализированы взгляды на образование Народного поэта Узбекистана и Каракалпакстана, Героя Узбекистана И. Юсупова, основанные на творческие примеры, которые могут быть широко использованы учителями в образовательном процессе. Научные гипотезы в статье описаны в тесной связи с работами мировых ученых.

Ключевые слова: Образование, трудолюбие, Гжешик, поэзия, Гамзатов, Польша, писатель, величие, чтение, трудолюбие, ребенок, мыслитель.

IBROYIM YUSUPOVNING TA'LIM TARBIYAGA DOIR QARASHLARI

Annatsiya

Ushbu maqolada qoraqalpoq xalqining sevimli farzandi, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni I.Yusupovning ta'lim-tarbiyaga doir qarashlari, o'qituvchilarning ta'lim jarayonida keng ko'lamda foydalanishi mumkin bo'lgan ijodiy namunalari tahlil qilingan. Maqoladagi ilmiy farazlar jahon olimlarining asarlari bilan chambarchas bog'liq xolda bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim-tarbiya, mashaqqat, Gjeshik, she'r, ijodkor, Gamzatov, Polsha, adib, buyuklik, o'qish, farzand, mutafakkir.

Kirish. "Mashhur odamlar ikki toifaga bo'linadi, ba'zilarini odamlar unutilmaydi, ba'zilarini unutilishni istamaydi" - deb buyuklarga ta'rif beradi Polshalik mashhur satirik yozuvchi Vladislav Gjeshik. Albatta, inson hayotida qancha mashaqqatlar chekmasin, asli yaxshilikka intilib yashaydi, Mashaqqatli hayotda barchaga birdek yaxshilik, ezgulik ulashish jismonan imkonsizdek tuyulishi mumkin, ammo, uning aql-zakovati, ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashi, bir emas, bir necha avlodlar hayoti uchun tatigulik ezguliklarni, yaxshiliklarni va hayotiy tajribalari bilan ta'lim va tarbiya berishi mumkin. Chunki ular yaratgan asarlar, avlodlar yuragida gullab, qalbida yashnaydi, tillarda esa, mag'rur yangraydi.

O'tgan ajdodlarimizning hayoti yo'lga nazar tashlar ekanimiz, yuqorida keltirilgan "Mashaqqat" degan so'zning ma'nosi ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Sababi, yashash uchun sharoitning yo'qligi, yon-atrofdagi dushmanlarning bexostan bostirib kelishlari, podsho va hukimdorlarning mamlakatni o'z foydasi hisobiga boshqarishi, fuqarolariga bo'lgan adolatsizliklarning ta'qibi bilan birga ochlik, suvsizlik kabi bir qancha sinovlarni ko'zi ko'rib, ana shu sinov ichida yashagani tarixiy manbalardan bizga ma'lum. Lekin, har qanday xolatda ham farzand tarbiyalashdek hayotiy burch va vazifalarini a'lo darajada bajarib ta'lim-tarbiyani esidan chiqarmay bugungi kun uchun buyuk mutafakkir u, olimlarni, donishmand u ziyolilarni kamolga keltirib, butun dunyo ilm-faniga hissa qo'shgan insonlarni etishtirib chiqarishga muvaffaq bo'lgan.

Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Axmad al Farg'oni, Baxoviddin Naqshbandiy, Ajiniyoz, Berdaq, Jadid olimlardan Abdurauf Fitrat, Cho'lpon, Oybek, Qori Niyoziy, XX-XXI asrda Sayd Axmad, Zulfiyaxonim, Abdulla Oripov, Erkin Voxidov, To'lepbergen Qayipbergenov va albatta Ibrayim Yusupov kabi buyuk shaxslar, bugungi kunda nafaqat yurtimizda, balki jahon olimlari e'tirofida hurmat va extirom ila tilga olinadi. Shu o'rinda adib Rasul Gamzatovning "Tog'lar uzoqlashgan sari baland bo'lib ko'ringaniday, buyuk iqtidor egalari asarlari, vaqt o'tgan sayin buyuk bo'lib qolaveradi"-degan fikrlari, bugungi kunda ushbu olimlarning bugungi kungacha etib kelgan asarlarida, kelajak avlodni tarbiyalashda zarur hisoblangan falsafiy haqiqatlar borligini ko'rishimiz mumkin. Bunday ezgu maqsadlarni o'z she'rlarida yoritib borgan qoraqalpoq xalqining suykli farzandi, O'zbekiston Kahramoni Ibrayim Yusupovni e'tirof etish joiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev, ijodkor, ziyolilar vakillari bilan uchrashuvida "Million-million insonlarning e'tiborida bo'lgan, madaniyat, adabiyot va san'at degan muqaddas dargohga qadam qo'ygan har bir ijodkor, albatta, eng avvalo, o'z xalqining yuragiga quloq solib, uning dardiga malham bo'lishga intiladi" [1] degan edi. Ibrayim Yusupov nafaqat o'z xalqini sevar edi, inson qadrini ulug'lar edi, xalqlarning o'zaro do'stligini qadirlar edi. Ona tabiyatta inson ko'ziga nima-i-ki go'zal va betakror ko'rinsa, shoirning she'rlaridan, yozgan asarlaridan joy olar edi.

Ayniqsa I.Yusupovning ijodida tarbiyaviy ahamiyatga ega, bugungi kun yoshlari uchun namuna bo'la oladigan, xarakter hususiyatlarini topish mumkin. Buni shoir ona tilimizga bo'lgan muxabbatida, vatan, ona tuproqni madx etuvchi bir necha she'rlarida ifodalagan. Jumladan, "Bir odamni bir odam" deb nomlangan she'riga nazar tashlaydigan bo'lsak.

Nafsin tiyib non berar,
Tomiridan qon berar,
Kerak bo'lsa jon berar,
Bir odamga bir odam. [2]

- deb xalqimizning, mehirlanuvchi, yaxshilikni har narsadan ustun ko'radigan, bir-biri bilan, do'stu-birodar bo'lib yashab kelganligini va bu fazilatlarining kelajak avlodga o'tkazilishi zarurligini keltirib o'tkanligini ko'rishimiz mumkin.

Bir odamni bir odam,
Sevib qolar tanishsa,
Bir odamni bir odam,
Sog'inadi olista.[3]

- degan, insonlarning bir-biriga bo'lgan munosabatlarni gavdalandirib, insonning-insonga g'animat ekanligini, ular orasidagi rishtalarning qadirlanishi zarurligi haqida aytib o'tgan.

Shuningdek, shoirning didaktik mavzulardagi she'rlarini o'qiganimizda ham, ulardagi mazmun faqat, dasturiy pandu-nasixat shakli bilan cheklanib qolmasdan, balki inson qalbiga, o'zgacha yo'l topadigan so'zlar orqali, uni o'ylashga undovchi va yakuniy xotima yasashga imkon beradigan komponentlarni uchiratoshimiz mumkin. Jumladan "Bo'lmasa" she'rini olib qaraydigan bo'lsak:

Kimdur, hayotida nomin yo'qlamas,
Inson bo'lib, ichgan tuzin oqlamas,
Bu tarafda quygan bilan to'ktamas,
U tarafdan bir narsasi bo'lmasa.

- deb, insonga qancha, nasixat aytilgani bilan, agar uning o'zida tushuncha bo'lmasa aytilgan nasixatlarning foydasi tegmasligini tushintirgisi keladi. Sababi, xalqimizda "O'qish boshqa, uqish boshqa" degan so'z bor, shoirimiz ham mana shu iboraga asoslanib hayotiy haqiqatlarni yozgan bo'lsa ajab emas.

Tadqiqot metodologiyasi. Barchaga ma'lum ijtimoiy hayotda, yoshi ulug' insonlarning o'rni beqiyosdir, chunki ular tomonidan aytilgan pandu-nasixatlar, hayotiy maslahatlari, kelajak avlodning hayotida katta ahamiyatga ega bo'ladi. "Bir bolaga etti maxalla ota-ona" deydi xalqimiz, qolaverdi, "mening farzandim yonimda, sening farzanding bilan ishim yo'q" - degan tushuncha haqida o'ylashni hayoliga ham keltirmaydigan yoshi ulug'larimiz bisyor. Ular qo'shnisining ham farzandlari qiynalmay o'sishini, hayot so'qmoqlarida adashib yurishni xoxlamaydi. Ibrayim Yusupovning ijodida xalqimizning bu kabi ezgu fazilatlarini ta'svirlashga muvaffaq bo'lgan. Masalan:

Xalq chaqirsa yotmas nomus-orlilar,
Qimirlaydi etganicha xollari,
Yigitga ish bermas sho'x-shodon chollar,
Oq oltinli elning oqsoqollari.[4]

Ibroym Yusupov qoraqalpoq adabiyotida, umuman poeziyada, so'z san'atida faqatgina o'z davrining insonlari orasidagi o'zaro munosabatlar, his-tuyg'ular bilan cheklanib qolmasdan, barcha davrlar uchun dolzarb hisoblanuvchi masalalarni, ajoyib so'z marjonlari bilan etkazib bergan. Bu uning nafaqat ijodkorlik qobiliyati, balki, o'z davrining bilimli, aqilli, ko'pchilik sohalardan voxabar ekanligidan darak beradi. Shoiridagi bu kabi fazilatlar uning ijodiy tematikasining boyligini va maydonining keng bo'lishini ta'minlab kelgan.

Insonning insoniy hususiyatlarini ochib beradigan tariflari bu intilish bo'lib hisoblanadi. Inson orzu-umidlariga, xoxish-irodasiga intilishi bilan uning hayoti go'zal tus oladi. Bu kabi insoniy intilishlar san'at asarlari, jumladan adabiyotda, she'riyatda keng gavdalanadi. Filosofiya ilmining tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ko'pchilik filosof olimlarning ta'limotlarida bu kabi intilishlar haqida, uning natijadorligi faol harakat ekanligi haqida aytib o'tadi. Masalan, Jordano Bruno "Intilish – muxabbatning insonlari orasidagi ko'rinishi - deydi, -qaxramonlikka undaydi". Yoki nemis filosofiyasining klassik vakili I.Kant "Muxabbat insonning go'zalliklarga intilishi" [5] sifatida tushintirishga harakat qiladi.

Shoir o'zining muxabbat mavzusidagi she'rlarida nozik his-tuyg'uning go'zal tasvirini berib qo'ymasdan, betakror mazmunda, o'zgacha bir tariflar bilan gavdalandiradi. Masalan:

Uzumning suvidan sharob qilganda,
Har kim ichib o'zin qaxramon sezar,
Muxabbat martlikni talab qilganda,
Ko'pchilik mashaqqat, safardan bezar.

- deb "Orfeyga" nomli she'rida, muxabbat insonni, qaxramonlikka, martlikka undovchi, katta ma'suliyatni talab etuvchi tuyg'u ekanligini, ba'zi insonlar bunday ma'suliyatni bo'yniga olishdan qo'rqib, muxabbatning qadriga etmasligini tasvirlaganligini ko'rishimiz mumkin.

Bir oyoq sig'anday bu kiyik so'qmoq,
Sen o'taqol jonim, men yo'l berayim,
Mayli qulasamda och-naxorlikdan,
Eson-omon o'tganingni ko'rayim.

- deydi shoir, "Yana tor so'qmoqda uchirashib qoldik" nomli she'rida.

I.Yusupovning ijodiy qobiliyatidan paydo bo'lgan asarlari qoraqalpoq adabiyotshunoslarining diqqat markazida turishi tabiiy hisoblanadi. Jumladan filologiya fanlari doktori, professor, Q. Jarimbetov o'zining ilmiy asarida "Ibroym Yusupov o'zining asosiy quroli bo'lgan she'riyat orqali, xalqimizning ma'naviyatida, ichki dunyosida, xalollik, to'g'rilik, tinch-totuvlik, do'stlik, Vatanparvarlik, sof muxabbat, unga sodiqlik tuyg'ularini uyg'otti va tarbiyaladi. Uning o'lmas she'rlari kelajak avlodlarni mana shunday sof tuyg'ular bilan tarbiyalay oladi, deb ishonch bilan aytishimiz mumkin" [6] - deb aytib o'tadi.

I.Yusupov she'rlaridagi ona-tabiiyat lirikasining hususiyatlarini qiyoslab berishga harakat qilgan professor S. Axmetov "I.Yusupovning ijodiy ishlarida kindik qoni tomgan erning tabiiyatini ulkan salohiyat bilan tariflash xarakterli hisoblanadi" - deb ta'kidlab, shoirning, "Qora tol", "Tug'ilgan er" haqida yozgan she'rlarida yaxshi singdirilganligini aytib o'tadi.

Tahlil va natijalar. Albatta, adabiyot ma'naviyatning ajiralmas qismidir, u insonlarni turli baxtsizliklardan, ko'ngilsizliklardan, yolg'on u, hiyonatlardan asirab turadi. Ibroym Yusupovning kelajak avlodga va bugungi kun yoshlariga qoldirgan ma'naviy merosi, qoraqalpoq xalqi bilan birga umuminsoniy ma'naviyat va ta'lim-tarbiyaga xizmat qilaveradi. Bugungi yangi asr intellektual salohiyat, tafakkur va ma'naviyat asri sifatida insoniyatdan, yangiliklarni ochish bilan birga, ma'lum darajada kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarayotganligi barchaga ma'lum.

Bugungi globallashuv olamida shoirning bashariyatni, ertangi kunni o'ylab, yaxshilik sari davat etishga qaratilgan betakror she'rlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ibroym Yusupovning aksariyat she'rlari hayotiy muammolarga bag'ishlangan bo'lib, xalqning ko'taringi kayfiyatiga sabab bo'lish bilan birga, hayotga dunyo qarashlarining yaxshilanishida madad bo'ldi [7]. Jumladan, "Bu er xali zo'r

bo'ladi", "Qiyin xol", "Deyishadi", "Chimboy yo'llarida" va boshqa bir necha she'rlarida, shoirni katta muammolar tashvishga solganligi ko'rinib turadi. Masalan, "Orol ellegiyalari", barchaga ma'lum bugungi kunda Orol fojiiyasi hududiy yoki mintaqaviy muammo sifatida emas balki, butun dunyoni qamrab, jahon hamjamiyatining e'tiborini o'ziga tortayotgan muammolardan hisoblanadi. Shuning uchun ham "Orol ellegiyasi"da kishi ruhiyatini mayus qiluvchi [7] Orol qayg'usi, umumxalq dardiga aylanganligini ko'rishimiz mumkin. Ekologiya inqirozdan jabr ko'rgan xalq taqdiridan bezovta bo'layotgan inson nolasini eshitamiz. Mazkur she'rda shoir o'zini umid daraxtiga qiyoslab, inson qalbi o'zi tug'ilib o'sgan Vatanga mustahkam rishta bilan bog'langanligini, hayotdan esa umidini uzmasdan yashashi lozimligini chin ko'ngildan istaydi.

Shoir qanday mavzuda she'r yozsa ham she'rining mavzusiga chuqur falsafiy yondashganligini ko'rishimiz mumkin. Uning har bir ijodiy ishlarida inson qalbidagi sirli tuyg'ularni titratuvchi kuch sezilib kitobxonning ko'z o'ngida Ona-Vatan, tabarruk tuproq, jaydari qoraqalpoq xalqining obrazi, mard, botir, mexnatsevar, to'g'ri so'zli, sodda insonlar gavdalanadi. Masalan:

Baland tog'day odamlikni,
Oqar suvday xalollikni,

Buyuklikni, soddalikni,

Ko'ngillarga quyib qo'rgan,

Badiiy san'at inson hayotini obrazlar orqali tasvirlaydi. Badiiy obrazni ijodkor o'y-hayoli orqali paydo qiladi [9]. Obrazli hayol hayotda to'plangan tajriba, xalqni kuzatishda, zehning o'tkirligi, insonning ma'naviy dunyosining, uning nozik psixologik xolatlarni sezib, bilish, ijodkorning salohiyati va qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

Xulosa va takliflar. "Tarbiyaning vazifasi yaxshi ishlarni qilishga emas, yaxshi ishlarni qilishdan rohatlanishga o'rgatish" [10] - deydi ingliz rassomi Jon Reskin. Xalqimizning suyuqli farzandi, O'zbekiston Qaxramoni Ibroyim Yusupov chin ma'noda o'z xalqiga, ijod axliga, qolaverdi kelajak avlodga yaxshilikni qilib, undan roxatlanishni o'rgatib ketgan buyuk insondir. Uning ijodiy ishlarini tahlil qilar ekanmiz, albatta, hayotda ijobiy natijalarga erishishda foydasi tegadigan hayotiy saboqlarni olish imkoniyati ko'proq [10]. Biz o'ylaymiz bugungi kunda yoshlar, shoir so'zlari bitilgan she'rlarni yod olib, turmush deb atalmush keng ravon yo'lda, o'zi uchun yaratilgan har qanday imkoniyatdan foydalanib III Renessans davrining haqiqiy fidoyisiga aylansa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki o'z xalqini qadirlagan, o'z xalqini ulug'lagan farzandini, xech bir avlod unutishni istamaydi, uning nomini mangu qalbida, yuragida saqlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Prezident Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi 04.08.2017.
2. I.Yusupov "Yosh" Qaraqalpaqstan baspasi No'kis-1977. 3-bet.
3. J.Bazarbaev, "Adebiyat ibrat mektebi" Bilim baspasi, Nókis, 2015
4. Bayniyazova T.Q. "Q.Orazimbetovtin ilmiy miynetlerinde Ibrayim Yusupov do'retiwshiliginin' uyreniliwi" // Polish Journal Of Science № 52, 2022. /45-46-betlar/.
5. Ibraim Yusupov "Tanlamali shig'armalari" I-II-III tomlari, "Bilim"
6. baspasi, 2018
7. A.K.Berdimuratova "Estetika" Qaraqalpaqstan baspasi, Nókis, 2020
8. Yusupov Ibrayim. Paziylet. -No'kis. «Bilim», 2014. 105-106-bet.
9. Orazimbetov Q. Ha'zirgi qaraqalpaq lirikasinda ko'rkem formalardin' evolyutsiyasi ha'm tipologiyasi. -No'kis «Bilim», 2004, 11-bet.
10. Колосова С.Н. Типология и поэтика портрета в русской лирической поэзии. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора филологических наук. - Москва. 2012. с 7.
11. Orazimbetov Q. Tanlamali shig'armalar toplami. Eki tomliq I tom.-No'kis, «Bilim», 2018-j. 132-bet



Anvar AMIROV,
O'zbekiston Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti professori J.Eshnazarov taqrizi asosida

KURASHCHILAR MUSOBAQASI VA MASHG'ULOTLARNI NAZORAT QILISH

Annotatsiya

Kurashchilar musobaqasi va mashg'ulotlarni nazorat qilish kurashda "modellash" atamasi sportchi kurashchilarning musobaqa va mashg'ulot faoliyatini nazorat qilish usuli sifatida ishlatilgan, dastlabki tayyorgarlik guruhida birinchi, ikkinchi, uchinchi tayyorgarlik bosqichidagi kurashchilarning musobaqa faolligini baholash individual sport mahoratini oshirish uchun indikativ standartlarni aniqlash imkonini berdi. Individual uslubning shakllanishi polvonning gilamdagi harakatlarining individual o'ziga xosligini ochib berish, amalga oshirilishi, taktik harakatlarni qo'llash natijasida g'alabali natijaga olib keladi.

Kalit so'zlar: Kurashchilar musobaqasi, kurash mashg'ulotlari, raqobat faoliyati, taktik-texnik tayyorgarlik, kurash taktikasi, kurash reaksiya tezligi, texnikala, taktik harakatlar.

КОНТРОЛИРОВАТЬ СОРЕВНОВАНИЯ И ТРЕНИРОВКИ БОРЦОВ

Аннотация

Контролировать соревнования и тренировки борцов в борьбе термин «моделирование» использовался как метод контроля соревновательной и тренировочной деятельности спортсменов-борцов, оценка соревновательной деятельности борцов на первом, втором и третьем этапах подготовки в группе предварительной подготовки производилась можно определить ориентировочные нормативы совершенствования индивидуального спортивного мастерства. Формирование индивидуального стиля приводит к победному результату в результате выявления индивидуальности действий борца на ковре, их реализации, применения тактических действий.

Ключевые слова: Соревнования борцов, борцовская подготовка, соревновательная деятельность, тактико-техническая подготовка, тактика борьбы, скорость борцовской реакции, приемы, тактические действия.

SUPERVISE WRESTLERS' COMPETITION AND TRAINING

Annotation

Supervise wrestlers' competition and training in wrestling, the term "modeling" was used as a method of controlling the competition and training activities of athletes-wrestlers, the assessment of the competitive activity of wrestlers in the first, second, and third stages of training in the preliminary training group made it possible to determine indicative standards for improving individual sports skills. The formation of an individual style leads to a winning result as a result of revealing the individuality of the wrestler's actions on the mat, their implementation, and the use of tactical actions.

Keywords: Wrestlers competition, wrestling training, competitive activities, tactical and technical training, wrestling tactics, wrestling reaction speed, techniques, tactical actions.

Kirish. Kurashchilar musobaqasi va mashg'ulotlarni nazorat qilishda raqobatli faoliyat sharoitida sport mahoratining ahamiyatlik darajasini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri tadqiqotchilar individual taktik-texnik tayyorgarlik deb nomlanadi. Ta'kidlaganidek individuallashtirishning bu tomoni. Kurashning birinchi yillaridan boshlab eng jiddiy e'tibor berish kerak. Bu tajriba shuni ko'rsatadiki bu kurashchilar mashg'ulotlar jarayonida toj texnikasi, uning zaif tomonlariga ko'proq vaqt ajratdilar va shu bilan raqobat faolligining prognostik koeffitsientining taktik va texnik "zaxirasini" shakllantirdilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kalmykov S.V. Yuqori toifali kurashchilarni tayyorlash bo'yicha boshqaruv strategiyasi O'zbek nashriyoti 2004y. Kalmykov S.V. Kurashchilarning raqobat faoliyati taktikasi (pedagogik va etnopsixologik jihatlar O'zbek nashriyoti, 2000y mavzuga oid adabiyotlarni tahlili turlicha yondashuvlarni e'tiborga olgan holatda adabiyotlarni foiz xususiyatini hisobga olib borishdaxarakter va taktik operatsiyalari harakatlardagi farqlar nafaqat vosita tuzilishida muammoga oid ilg'or ilmiy-amaliy fikr, sport adabiy manbalarining mavjud ma'lumotlari

oddiydan yuqori toifali polvongacha bo'lgan sportchilarni tahlil qilish va mashg'ulotlarni tahlil qilish.

Raqobat faoliyatini modellashtirish buraqobat faoliyati sharoitida vosita harakatlarini tahlil qilish natijalari vosita mahorati tarkibiga kiradigan turli omillarning o'zaro bog'liqligining qat'iy qonuniyatlarini qayd etishga imkon beradi. Shunday qilib vosita mahoratini amalga oshirish imkoniyati funksional jihatdan hujum qiluvchi kurashchi va hujumga uchragan kurashchining xususiyatlarini (morfologik, jismoniy, aqliy, genetik, taktik muammolarni hal qilish sifati) tavsiflovchi bir qator tashqi omillar omillarga bog'liq. Bu holatlar kurashchining harakatlarini ziddiyatli qarama-qarshilikda rivojlanadigan shaxslararo munosabatlarni, o'zini o'zi qadrlash darajasini va boshqalarni ongli ravishda o'zlashtirgan individual xususiyatlarini batafsilroq o'rganishni talab qiladi. Taktik harakatlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish shakllaridan biri bu modellashtirishdir. Kurashda "modellash" atamasi kurashchilarning musobaqa va mashg'ulot faoliyatini nazorat qilish usuli sifatida ishlatilgan. Tizimli yondashuv bilan modellashtirish maqsadlarni belgilash vazifalarni izchil amalga oshirish va yakuniy maqsadga erishish tamoyilini o'z ichiga

oladi, individual yondashuv bilan modellar raqobatdosh qarama-qarshilik epizodlari, vaziyatlarini modellashtirish vositasidir. "Eng kuchli" kurashchi A.A modeli asosida. Novikov biz sportchi-kurashchining xulq-atvor faoliyatini baholash uchun uch darajali ko'rsatkichga ega modelni ishlab chiqdik. 1) uning psixomotor va harakat faolligi darajasi; 2) jangovar harakatning aniq dinamik sharoitida taktik va texnik muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish darajasi; 3) raqobatli kurash o'tkazish uslubini shakllantirish xususiyatlari[2].

Raqobat kurashining stilistik o'tkazilishini shakllantirish birinchi darajali modelning muhim tarkibiy qismlari psixomotor faollik va jismoniy faoliyatdir. Ular tananing etnogenetik moyilligini, psixofunksional va

Tahlil va natijalar:

1-jadval

Mashg'ulotning birinchi yilidagi kurashchilarning turli xil motorli faoliyat ko'rinishlariga ega bo'lgan guruhlardagi raqobat faoliyatining qiyosiy tavsifi.

Motor faoliyatining namoyon bo'lish xususiyatlarining ko'rsatkichlari	Raqobat faoliyati uslublari		
	Portlovchi	Temp	yuqori tezlik
Texnikaning samaradorligi	0,45 - 0,55	0,35-0,45	0,35-0,45
Himoyaning ishonchligi	0,40 - 0,50	0,40 - 0,50	0,45-0,55
Turli xil transport vositalari	0,35 - 0,45	0,25-0,35	0,20-0,30
Hujum oralig'i.	55-75	70-90	50-70

2-jadval

Mashg'ulotning ikkinchi yilidagi kurashchilarning harakat faolligining turli uslublari bo'lgan guruhlardagi raqobatfaoliyatining qiyosiy tavsifi.

Motor faoliyatining namoyon bo'lish xususiyatlarining ko'rsatkichlari	Raqobat faoliyati uslublari		
	Portlovchi	Temp	yuqori tezlik
Texnikaning samaradorligi	0,55 - 0,60	0,40 - 0,50	0,40-0,50
Himoyaning ishonchligi	0,40 - 0,50	0,50 - 0,60	0,55-0,65
Turli xil transport vositalari	0,45 - 0,55	0,35 - 0,45	0,30-0,40
Hujum oralig'i, s.	50-70	65-85	45-65

3-jadval

Mashqning uchinchi yilidagi sportchi-kurashchilarning turli xil motorli faoliyat ko'rinishlariga ega bo'lgan guruhlardagi raqobat faoliyatining namunaviy xususiyatlari.

Motor faoliyatining namoyon bo'lish xususiyatlarining ko'rsatkichlari	Raqobat faoliyati uslublari		
	Portlovchi	Temp	yuqori tezlik
Texnikaning samaradorligi	0,55 - 0,65	0,45-0,55	0,45-0,55
Himoyaning ishonchligi	0,50-0,60	0,50-0,60	0,55-0,65
Turli xil transport vositalari	0,45 - 0,55	0,35 - 0,45	0,25-0,35
Hujum oralig'i, s.	45-65	60-80	40-60

Mashg'ulot ta'sirini va tuzatishni joriy etish uchun psixomotor va motorli faoliyatning muhim asosiy elementlarini aniqlashga asoslangan raqobat faoliyatining individual uslubini shakllantirish jarayonining xususiyatlari to'g'risidagi bilimlarni kengaytirish;

Kadrlar tayyorlashning har bir bosqichi uchun raqobatbardosh faoliyatning ob'ektiv qonuniyatlari va talablarini hisobga olgan holda individual Tuzilishini texnik maxoratini shakllantirishning uzoq muddatli dasturlarini ishlab chiqish;

Tayyorgarlik taktik elementlarini egallash va bu harakatlarni kurash va umuman musobaqalar sharoitida rivojlantirish hisobiga tik turgan holatda va yerda yakkamayakka kurashni o'tkazish uchun toj texnikasining murakkab variantlarini ishlab chiqish;

Jalb etilgan shaxslarning etno-psixologik, jismoniy, funksional, tipologik yoki boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda ixtisoslashtirilgan o'qitish va takomillashtirish usullarini ishlab chiqish asosida individual faoliyat uslubini shakllantirish;

Individualfaoliyat uslubini unitakomillashtirish uchun ta'lim va mashg'ulot jarayoniga maqsadli vositalarini ishlatishni ta'minlash;

morfologik barqarorligini, uning mashg'ulotlarga va raqobatbardosh yuklamalarga moslashishini (bajarilgan texnikalar hajmi, samaradorligi, harakatlarning o'zgaruvchanligi, faollik, ratsionallik, reaktivlik, axloqiy va irodaviy barqarorlik motivatsiya va boshqalar) hisobga olgan holda baholanishi kerak. Shunday qilib, dastlabki tayyorgarlik guruhida birinchi, ikkinchi, uchinchi tayyorgarlik bosqichidagi kurashchilarning musobaqa faolligini baholash individual sport mahoratini oshirish uchun indikativ standartlarni aniqlash imkonini berdi (1,2,3-jadvallar). Aniqlangan indikativ standartlar o'qish yillari bo'yicha taktik va texnik ko'nikmalarni maqsadli takomillashtirishning mazmun asoslarini belgilab berdi:[3].

Passivlikni cheklash zonasidagi yoki gilam chetidagi to'xtash joylarida standart pozitsiyalarda yoki tik va yotgan kurashning dinamik sharoitida himoya va qarshi hujum harakatlarini bajarishning individual texnikasi bo'yicha ishlarning ulushini oshirish[3].

Jangning o'ziga xos dinamik holatida taktik va texnik muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishning ikkinchi komponenti jangning ekstremal sharoitida jang holatini to'g'ri baholash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan (ijodiy). Qobiliyat, aqliy va jismoniy qobiliyat, raqobatbardosh kurash uslubini uchun vosita salohiyati va ularning kurash sharoitida shakllanishi va o'zgarishi darajasi.

Modelning ushbu darajasi yosh sportchilar-kurashchilarda sinovdan o'tkazildi, bu esa ular chuqurlashtirilgan tayyorgarlik bosqichida temperament, xatti-harakatlarning stereotipi tufayli kurashning taktik va texnik qonunini tanlashda allaqachon afzallik ko'rsatishini aniqlashga imkon berdi, bu turli xil faoliyat uslubidagi sportchilarning uchta guruhini (shartli) ajratishga imkon berdi: portlovchi yuqori tezlik, temp va universal[1].

Birinchi guruh (portlovchi) texnik tayyorgarlikning yuqori darajasi bilan ajralib turadi, ular jangning o'rtacha sur'ati bilan ajralib turadi, ular davomida raqibga yaqinlashishga va

o'rtacha pozitsiyani egallashga yo'l qo'ymaydi. Ikkinchi guruh yuqori tezlik-kuch tayyorgarligi, yuqori sur'at va harakatlarni bajarish ritmi bilan tavsiflanadi. Uchinchi guruh vakillari raqobatbardosh kurashning ikki tomonlama vaziyatlarida ko'rsatkichlarini yuqori darajada ta'minlash qobiliyati, aniq hujum uslubi bilan ajralib turadi. Generalistlar yuqori himoya sezgisi bilan ajralib turadi, ekstremal sharoitlarda ular o'zlarining tayyorgarligidan foydalangan holda kombinatsiyalarni o'ynash uchun turli xil variantlarni topa oladilar, ular turli masofalarda o'rtacha yoki yuqori pozitsiyada harakat qilishadi.

Ushbu konseptsiyaga muvofiq, o'qitishning boshlan-g'ich bosqichidan boshlab kamida uchta (portlovchi, tezlik, temp) raqobatbardosh faoliyat turlarini yaratish va keyinchalik ular o'zlashtirilgach, har birining mazmuniy xususiyatlarini izchil individuallashtirish zarurati tug'iladi va muayyan kurashchining individual imkoniyatlari, qobiliyatiga asoslangan model.

Kurashning stilistik xatti-harakatlarini shakllantirishning uchinchi komponenti mashg'ulot va raqobat faoliyati sharoitida vosita ko'nikmalari va qobiliyatlarini egallash darajasi bilan tavsiflanadi: a) qarama-qarshilik sharoitida harakat, harakatlarini avtomatlashtirish; b) raqobat kurashi sharoitida turli raqiblar bilan harakatlarning takrorlanishi; v) sport natijalariga erishishda barqarorlik, ko'pqirralilik, samaradorlik va ishonchlilik [1].

Takomillashtirishning texnologik jarayoni asosan moslashuvchan individual yondashuv asosida amalga oshiriladi, bu sportning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan pedagogic vositalarni farqlash deb tushuniladi mashg'ulotlar va raqobatbardosh yuklamalar orqali ko'p sonly turli dinamikalarini o'z ichiga olgan holda muhim fazilatlar.

Amalga oshirilgan harakatlarning o'zgaruvchanligi jangovar jang san'atlari sharoitida, kurashchi fikrlash jarayonining aksini, jang tezligi va ritmini nazorat qilishni aniq tashkil qilganda amalga oshiriladi. Jang o'tkazishning shakllangan ko'nikmalarining barqarorligi, uni o'tkazishning individual uslubining mavjudligi sport mahoratining malaka darajasiga ta'sir qiladi va maqsadli tayyorgarlik tizimini (muvofiqlashtirilgan boshqaruv va nazorat) belgilaydi, ular tomonidan ta'minlanadi:

Kurashchilarni tayyorlash bilan shug'ullanuvchi metodistlar, murabbiylar, shifokorlar, massajterapevtlari, tadqiqotchilarning operativ diagnostika ma'lumotlari;

mashg'ulotlarning borishini va taktik-texnik ko'nikmalarni shakllantirish dinamikasini nazorat qilish.

Bunday holda, individual yondashuv bilan biz raqobatbardosh kurash o'tkazish uslubining maqsadli shakllanishini tushunamiz, uning kechiktirilgan natijasi sport mahoratining individual sifatlari o'ziga xosligini rivojlantirishdir. Individual uslub deganda xulq-atvorning har qanday individual uslubi emas, balki raqobat faoliyatining eng yaxshi natijalarini belgilovchi usullar tizimi tushuniladi, unda ma'lum bir shaxsning kuchli vafazilatlaridan maksimal darajada foydalanishga qaratilgan optimal uslub yaratiladi, zaiflar uchun kompensatsiyalarni taktik va texnik tayyorgarlikning turli jihatlarni maqsadli tuzatish quyidagilarni o'z ichiga oladi: [2]

1) kurashchining barcha tarkibiy qismlarida, shu jumladan sog'lig'ining holati, jismoniy rivojlanishi, psixomotor barqarorligi, tananing moslashuvchan qobiliyatini oshirish bilan bog'liq bo'lgan individual sport iste'dodini hisobga olish, mashg'ulot yuklamalari, kurashning taktik va texnik arsenalini o'zlashtirish uchun vosita salohiyati, raqobatbardosh kurashning ekstremal sharoitida improvizatsiya qilish qobiliyati;

2) etnik-madaniy va etno-psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda muayyan sportchi-kurashchi uchun mashg'ulotlarni individuallashtirishning uzoq muddatli rejasini ishlab chiqish (individual tayyorgarlik dasturini tuzish);

3) kurashchilarning musobaqa faoliyatining namunaviy xususiyatlari (psixofunksional, jismoniy, taktik, kotexnik va boshqalar) ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda, har bir sport turi bo'yicha vositalarni (jismoniy mashqlar, mashg'ulot asboblari va boshqalar) individuallashtirish. ta'lim bosqichi; [4]

4) texnik mahoratni, janglarning taktik xilma-xilligini, psixologik va jismoniy barqarorlikni oshirish;

5) maxsus chidamlilikni rivojlantirish.

Xulosa va takliflar. Kurashchilar musobaqasi va mashg'ulotlarni nazorat qilishda individual uslubning shakllanishi kurashchining gilamdagi harakatlarning individual o'ziga xosligini ochib berishda faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini funksional, jismoniy va texnik jihatdan harakati darajasiga rivojlantirish uchun maxsus usullardan foydalanish natijasida amalga oshirilishda taktik harakatlarni qo'llash natijasida g'alabali natijaga olib keladi shunday qilib, kurashchi sportchilarning tayyorgarligini modellashtirishning maqsadli yo'nalishlaridan biri bu kurashchining individual qobiliyatlarini ochib berishdan iborat bo'lib, raqobat faoliyati sharoitida taktik fikrlash namoyon bo'ladi, bunda kurashning barqarorligi va samaradorligi ta'minlanadi. raqobatli kurash o'tkazishning taktik va texnik tayyorgarlikning turli jihatlarni maqsadli tuzatish.

ADABIYOTLAR

1. Kalmykov S.V. Yuqori toifali kurashchilarni tayyorlash bo'yicha boshqaruv strategiyasi O'zbek nashriyoti 2004y.
2. Kalmykov S.V. Kurashchilarning raqobat faoliyati taktikasi (pedagogik va etnopsixologik jihatlar O'zbek nashriyoti, 2000y)
3. Gaskov A.V. Malakali sportchilar kurashchilarni tayyorlash muammolari va istiqbollari: O'zbek nashriyoti. 2005y.
4. Varlamov G.B. Sportchi-kurashchi individual faoliyat uslubining etnik xususiyatlari G.B. Varlamov, A.I. Batuyev, K.V. Baldayev FGOU BSHA nashriyoti, 2006y.



UDK: 37.091.33:159.954.4

Ulbosin ARIPOVA,

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali mustaqil izlanuvchisi

TDTU Olmaliq filiali dotsenti, PhD B.Qayumov taqrizi ostida

TANQIDIY FIKRLASHNING HAM JAMIYADAGI HAM TA'LIM SOHASIDAGI DOLZARBLIGI

Annotatsiya

Tadqiqot ishida fikrlashning o'zgacha turi hisoblangan tanqidiy fikrlash haqida so'z yuritilgan va uning dolzarbligi faktlar asosida keltirib o'tilgan. Shuningdek, tanqidiy fikrlashga qanday erishilishi haqida so'z yuritilgan. Maqolani o'qib chiqib tanqidiy fikrlashning ahamiyati nafaqat ta'lim sohasida balki ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatida ham muhimligini ko'rish mumkin.

Kalit so'zlar: Suqrot ta'limoti, Tomas Jefferson, tanqidiy fikrlash bosqichlari, tanqidiy fikrlashning afzalliklari.

THE RELEVANCE OF CRITICAL THINKING IN BOTH PUBLIC AND EDUCATION

Annotation

The research work talks about critical thinking, which is considered a special type of thinking, and its relevance is cited on the basis of facts. There has also been talk of how critical thinking is achieved. After reading the article, it can be seen that the importance of critical thinking is important not only in the field of education, but also in their further professional activities.

Key words: Socrates doctrine, Thomas Jefferson, stages of critical thinking, advantages of critical thinking.

АКТУАЛЬНОСТЬ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ КАК В ОБЩЕСТВЕ, ТАК И В ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В исследовательской работе говорится о критическом мышлении, которое считается особым типом мышления, и его актуальность цитируется на основе фактов. Также упоминается, как достигается критическое мышление. Прочитав статью, можно увидеть важность критического мышления не только в сфере образования, но и в их будущей профессиональной деятельности.

Ключевые слова: Учение Сократа, Томас Джефферсон, этапы критического мышления, преимущества критического мышления.

Kirish. 21-asr-bu axborot asri, shuning uchun har kuni biz turli xil ma'lumotlarga duch kelamiz. Bu ma'lumotlar yoshlarning ongiga, ularning idrokiga qarab, ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tarqatilgan ma'lumotlar yoshlar tomonidan to'g'ri baholanishi va qabul qilinishi uchun yoshlarda tanqidiy fikrlash qobiliyati rivojlangan bo'lishi zarur. Shunday qilib, tanqidiy fikrlash axborot asrida yashovchilar uchun dolzarb bo'lib bormoqda. Ayniqsa, talabada tanqidiy fikrlash vaqt talabidir. Shuning uchun ta'lim tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi usullardan foydalanish davr talabidir. Tanqidiy fikrlash -bu fikrlashning alohida turi hisoblanib hulusa chiqarish uchun faktlarga tayanadi. Tanqidiy fikrlash- bu kimnidir kamchiligini topish, tanqid qilish emas, aksincha o'zini-o'zi to'g'irlaydigan, o'zini-o'zi boshqara oladigan fikrlash shaklidir.

Agar tarixga nazar tashlasak, tanqidiy fikrlashning ildizlarini Suqrotning 2500 yil oldingi o'qituvchilik amaliyotidan kuzatish mumkin. U aniqlik va mantiqiy izchillik uchun fikrlashni ta'kidladi va uning usuli «Sokratik so'roq» degan ta'rifga ega boldi. Biroq, shu vaqtgacha bu ta'rif o'zgardi va bu nimaga ishonish yoki nima qilishni hal qilish uchun fikrlash jarayonini anglata boshladi. Shubhasiz, bizning kelajagimiz axborot, texnologiya va innovatsiyalarga bog'liq bo'lib, o'quvchilardan tanqidiy fikrlash qobiliyatlaridan foydalangan holda muammolarni tez va samarali hal qilishni talab qiladi. Tanqidiy fikrlashdan foydalanish talabalarga ma'lumotni konseptsiyalash, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish va baholash kabi intellektual vositalaridan foydalanishga imkon beradi. Muxtasar qilib aytganda, bu hukm chiqarish

uchun faktlarni tahlil qilish jarayoni. Ta'limda o'qituvchilar o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun samarali, muvaffaqiyatli usullardan foydalanishlari kerak. O'quvchilar nafaqat ta'lim yillarida tanqidiy fikrlashga ega bo'lishlari kerak, balki bu fikrlash qobiliyati ularga keyingi hayot jarayoni uchun ham kerak bo'ladi. Bundan tashqari, tanqidiy fikrlashni mustaqil ravishda kitoblar, taniqli jurnallar, akademik jurnallarni o'qish orqali rivojlantirish mumkin.

AQSh prezidenti Tomas Jefferson ta'kidlaganidek, o'qimishli fuqaro erkin xalq sifatida omon qolishimiz uchun muhim shartdir. Uning idrokiga ko'ra, faqat tanqidiy mutafakkirlar dalillarning butunligicha ko'rib, natijada jamiyatda ma'naviy yetuk fuqarolar yetishib chiqishi mumkin. Demak, tanqidiy mutafakkirlar turli qarashlarga nisbatan ochiqroq bo'lishga harakat qilishadi va doimiy ravishda savollar berish orqali ko'proq bilishni xohlashadi. Ular hech qachon hech narsani nominal qiymatda emas, balki vaziyat yoki kontseptsiyaga asoslanib tushunishni bilishadi. Shu bilan birga, ular qaror qabul qilish, mantiqiy fikrlash va ijodiy fikrlash kabi boshqa muhim ko'nikmalarni rivojlantirishlari mumkin. Ijodkor mutafakkir bo'lish nafaqat o'rganish uchun, balki ularning hayotiy jarayoni uchun ham muhimdir. Qachonki odamlar maktabni yoki oliy ma'lumotni bitirsa, ularning tanqidiy fikrlash qobiliyati u yerda kengayadi va o'sadi.

Yoshlarning tanqidiy fikrlashi ta'lim olayotgan dargohida rivojlanib boradi. Jumladan, boshlang'ich sinflarda turli matematik amallar yoinki uyga vazifa sifatida o'qib kelishga beriladigan tarbiyaviy ahamiyatga ega ertak va hikoyalar ham ularning mustaqil, tanqidiy va mantiqiy fikrlash

jarayonini bosqichma- bosqich rivojlantirib boraveradi. Tanqidiy fikrlashga erishish uchun quyidagi bosqichlardan o'tilishi kerak :

1. Yangi ma'lumotlarni baholang

Tanqidiy fikrlashning birinchi qadami ma'lumotni baholagandan keyingina qabul qilishdir. O'qilgan yoki eshitilgan narsa bo'ladimi, tanqidiy mutafakkirlar obyektiv haqiqatni topishga intilishadi. Bunda o'quvchilar mumkin bo'lgan muammolar va yechimlarni ko'rib chiqish orqali baholaydilar. Yangi ma'lumot olish va natijalarni ko'rib chiqish jarayoni baholash deb ataladi.

2. Manbani ko'rib chiqing

Keyingisi, agar o'quvchi ma'lumot qabul qilayotganda uning qayerdan kelib chiqqanini tushunmog'i kerak. Misol uchun, agar yangi ma'lumotlar reklamadan kelib chiqsa, reklama mahsulotni sotish uchun mo'ljallangan marketing texnikasi ekanligini tushunish potentsial tarafdashlikni baholashga yordam beradi.

Siz olgan har bir ma'lumot sizga bilim almashish uchun motivatsiyaga ega bo'lgan kishi tomonidan berilgan. Tanqidiy qobiliyatga ega bo'lgan o'quvchilar manbani ma'lumot berish motivatsiyasini hisobga olgan holda baholaydilar.

3. Ko'p savol bering

Agar siz tanqidiy fikrlash qobiliyatingizni takomillashtirishga harakat qilsangiz, savollar berish muhim mahoratdir. Ma'lumot taqdim etilganda, qanday savollar uni yaxshiroq baholashga yordam berishini hal qilishingiz kerak. Ba'zi misollar:

Bu muammoni qanday yo'llar bilan hal qilish mumkin?
Bu ma'lumotni kim taqdim etadi?

Nima uchun bu ma'lumotlar taqdim etilmoqda?

Ushbu mavzu bo'yicha yana qanday istiqbollar mavjud?

Ushbu masala bo'yicha qanday tadqiqotlar mavjud?

4. Tadqiqot bilan kuzatib boring

Tanqidiy fikrlash yordamida o'z fikringizni shakllantirishdan oldin, siz o'zingiz tadqiqot qilishingiz kerak. Javobga muhtoj bo'lgan savollar ro'yxatini o'ylab topganingizdan so'ng, siz Internet kabi manbalardan foydalanishingiz mumkin.

Agar siz onlayn ma'lumotlarni afzal deb bilsangiz, sindikatlangan yangiliklar saytlari, ta'lim muassasalari va notijorat tashkilotlari kabi manbalardan nufuzli ma'lumotlarni qidiring. Boshqa variantlar-ensiklopediya kabi manbalardan foydalanish yoki mahalliy kutubxonangizdagi materiallarni ko'rib chiqish ham mumkin.

5. Fikrni shakllantirish

Tanqidiy savollarga javoblar bilan siz o'z fikringizni shakllantirishingiz mumkin. Ushbu bosqichda siz o'z fikringizni mantiqiy, faktik ma'lumotlarga asoslayotganingizga amin bo'lishingiz mumkin, chunki siz tanqidiy fikrlash bosqichlarini bajargansiz.

Quyida tanqidiy fikrlashning afzalliklari bilan tanishamiz:

1. Bu qaror qabul qilishni yaxshilashga yordam beradi
Tanqidiy fikrlash sizga o'zingiz qaror qabul qilishga imkon beradi. Bu esa o'z navbatida qaror qabul qilishni yaxshilashga yordam beradi.

2. Muammoni hal qilish qobiliyatini oshiradi

Muammoni hal qilish-bu o'zgarishlarga moslashish va qiyinchiliklarga duch kelish uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikma.

Ushbu tanqidiy fikrlash qobiliyati talabalar tomonidan har qanday vaziyatni murakkablashtirmaslik va unga yechim topishga yordam berish uchun rivojlantirilishi kerak.

3. Tadqiqot qobiliyatingizni yaxshilang

Tanqidiy fikrlash sizning tadqiqot qobiliyatingizni yaxshilaydi, bundan tashqari, yaxshi natijaga erishish uchun har bir jihatni batafsil kuzatish, tahlil qilish, sintez qilish va tajriba o'tkazish orqali aniq tadqiq qilishga yordam beradi.

4. Sizning ijodingizni sayqallaydi

Bu sizning ijodiy tomoningizni sayqallashga yordam beradi. Ijodkorlik, shubhasiz, hamkorlikdagi zamonaviy ishchi kuchining zaruriy mahorati sifatida o'zini belgilaydi. Tanqidiy fikrlash sizning ijodingizni albatta jilolaydi.

5. Qiziqishni rag'batlantiradi

Muammo yoki siz ishlayotgan mavzu uchun to'g'ri yechimni topish sizda qiziqishni uyg'otadi. Qiziqish sizga yaxshiroq natijaga erishish uchun chuqurroq izlanish va o'rganishga imkon beradi. Bu omil sizga umrbod o'quvchi bo'lishga imkon beradi

Guvohi bo'lganingizdek, tanqidiy fikrlash nafaqat ta'lim sohasida balki jamiyatda, talabalarning kelajakdagi ish joyida ham muhim ro'l o'ynaydi.

Ish joyidagi tanqidiy fikrlash, ta'sirchan qaror yoki muammoni hal qilishga olib keladigan katta istiqbolni o'ylab topish uchun foydali tafsilotlarni saralashni anglatadi.


"Tanqidiy fikrlash talabalarga kasbiy hayoti davomida ularga xizmat qiladigan kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradi"

- Dunlap, Van Liere, mertig va Jones. (2000)

Chet ellik mutaxassislar olib borgan so'rovnoma 20 foiz tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini erta bolalik davrida yoki 5 yoshgacha bo'lgan davrda eng yaxshi rivojlanadi. Yana 35 foizi tanqidiy fikrlash 6 yoshdan 12 yoshgacha eng yaxshi rivojlanganligini aytadi va yana 27 foizi 13 yoshdan 18 yoshgacha eng yaxshi deb hisoblaydi. Taxminan 13 foizi har qanday yosh tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun yaxshi ekanligini aytishadi.

Chet ellik tadqiqotchilar orasida olib borilgan keyingi so'rovnoma natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, bolalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish asosan oiladan boshlanishi kerak. Ya'ni ko'proq ma'suliyat ota-ona zimmasiga tushadi, undan keying o'rnlarda esa bu qobiliyatni rivojlantirishga ta'lim sohasi (maktab, kollej, litsey, universitet), bolaning o'z fikrlash qobiliyati va ohirida jamiyat ma'sulidir. Quyidagi jadvalda bu statistikani foizlar ko'rinishida ko'rishingiz mumkin:

Who is responsible to teach critical thinking to your children?



Yuqorida aytib o'tganimdek, biz bolalarimizga qo'llari uchun gadgetlar berish o'rniga kitob, kundalik jurnallarni o'qishga majbur qilishimiz kerak. Biz ularning o'qiganlarini muhokama qilish va tushunish va tanqidiy fikrlashni tekshirish uchun ularning fikrlarini so'rash uchun vaqt topishimiz kerak. Biz farzandlarimizni moddiy jihatdan ta'minlaymiz, ammo bu hayotda o'z o'rnini topishi uchun zarur bo'lgan ma'naviyat bilan ta'minlamaymiz. Agar ular tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lmasa, ular hayotning ma'nosini tushunmaydilar. Agar uning hayotida kichik muammo yuzaga kelsa ham, u tushkunlikka tushishi mumkin va bu, o'z navbatida, yomon oqibatlarga olib keladi. Yoki uning hayotini behuda sarflaydigan yomon odatlarga o'rganib qolishi ehtimoldan holi emas. Mening fikrimcha, diniy bilim va e'tiqodni

mustahkamlovchi fanlarning ta'lim dasturiga kiritilishi ham yoshlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ular internetdan kelayotgan har xil buzg'unchi g'oyalarga ta'siriga tushmaydi. Tanqidiy fikrlashga ega bo'lmagan har bir shaxs aldamchi yot g'oyalarga yoinki mafkuraviy poligon ta'siriga tushib qolishi ehtimoldan holi emas.

Xulosa. Tez o'zgaruvchan va tezkor raqamli davrda tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lish juda muhimdir. Bu hozirgi axborot asrida o'zini topish, boshqacha aytganda, yoshlarimiz kelajagini saqlab qolishdir. Menimcha, bu borada ko'proq ish olib borilishi kerak. Chunki yoshlarni har xil buzg'unchi ma'lumotlardan himoya qilish, ularni zombi bo'lib qolishining oldini olish global muammo sifatida qaralishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Abrami, P. C., Bernard, R. M., Borokhovski, E., Wade, A., Surkes, M. A., Tamim, R., & Zhang, D. (2008). Instructional interventions affecting critical thinking skills and dispositions: A stage 1 meta-analysis. *Review of Educational Research*, 78(4), 1102-1134.
2. Brookfield, S. D. (1997). Assessing critical thinking. *New Directions for Adult and Continuing Education*, No. 75, Fall, 17-29.
3. Facione, P. A. (2015 update). *Critical thinking: What it is and why it counts*. Available at http://www.insightassessment.com/pdf_files/what&why2006.pdf
4. Hale, J. (2011). Analyzing the thinking process: Interview with Diane Halpern at <http://psychcentral.com/blog/archives/2011/04/24/analyzing-the-thinking-process-interview-withdiane-halpern/> Highlights of Halpern's approach to critical thinking



UDK:372.8

Dinora ATADJANOVA,
Urganch Davlat universiteti boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida dotsenti v.b(PhD)
E-mail: atadjanovad@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, professor M.Xodjayeva taqrizi asosida

IEWS OF IMAM MĀTURĪDĪ'S IN THE ISLAMIC WORLD AS A PEDAGOGICAL OBJECT

Annotation

Imam Māturīdī, an influential figure in Islamic theology, continues to shape the discourse within the Islamic world. His theological views, particularly on matters of creed and belief, have profound implications not only for theological discussions but also for educational frameworks within Islamic societies. This article explores the pedagogical significance of Imam Māturīdī's teachings, examining how they are perceived and utilized as educational tools in contemporary Islamic contexts.

Key words: Imam Māturīdī, Islamic theology, Pedagogy, Education, Creed, Islamic studies, Rational inquiry

ISLOM OLAMIDA IMOM MOTURIDIY QARASHLARI PEDAGOGIK OBEKT SIFATIDA

Annotatsiya

Islom ilohiyotining nufuzli namoyandasi Imom Moturidiy islom olamidagi nutqni shakllantirishda davom etmoqda. Uning diniy qarashlari, xususan, e'tiqod masalalari bo'yicha, nafaqat teologik muhokamalar uchun, balki islom jamiyatlaridagi ta'lim asoslari uchun ham chuqur ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada Imom Moturidiy ta'limotlarining pedagogik ahamiyati o'rganilib, ularning zamonaviy islom kontekstlarida ta'lim vositasi sifatida qanday idrok etilishi va qo'llanilishi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Imom Moturidiy, islom ilohiyoti, pedagogika, ta'lim, aqida, islomshunoslik, ratsional tadqiqot

ВЗГЛЯДЫ НА ИМАМА МОТУРИДИ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ОБЪЕКТ В ИСЛАМСКОМ МИРЕ

Аннотация

Имам Мотуриди, влиятельная фигура исламской теологии, продолжает формировать дискурс в исламском мире. Его религиозные взгляды, особенно по вопросам веры и убеждений, имеют глубокие последствия не только для богословских дискуссий, но и для основ образования в исламских обществах. В этой статье исследуется педагогическая ценность учения Имама Мотуриди и исследуется, как они воспринимаются и используются в качестве образовательных инструментов в современном исламском контексте.

Ключевые слова: Имам Мотуриди, исламское богословие, педагогика, образование, вера, исламоведение, рациональные исследования.

Kirish. Imom Moturidiy (853-944 milodiy) islom tafakkuri tarixida ilohiyot tafakkuriga qo'shgan ulkan hissasi bilan mashhur shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Imom Moturidiy Samarqandda (hozirgi O'zbekiston) tavallud topgan bo'lib, islom olamida aqliy va diniy qarama-qarshiliklar hukm surgan davrda yashagan. Uning "Kitob at-Tavhid" asari nafaqat buyuk ilohiyot olimi sifatidagi obro'sini mustahkamladi, balki keyinchalik moturidizm nomi bilan mashhur bo'lgan islom e'tiqodining konturlarini shakllantirishda davom etuvchi ilohiyot maktabiga ham zamin yaratdi.

Imom Moturidiy o'z davriga xos bo'lgan xilma-xil diniy oqimlar ichida ilohiy tadqiqotlarga tizimli va muvozanatli yondashuvni taklif qilish bilan ajralib turdi. Uning fikrining markazida aql va vahiyning uyg'unlashtirish bo'lib, u mantiqiy tamoyillarga va Muqaddas Kitob manbalariga sinchkovlik bilan e'tibor qaratgan. Bu bilan u munozarali ilohiy munozaralarni, xususan, ilohiy farmon (qadar) va inson ixtiyori (ixtiyor) tushunchalari atrofida bahslarni olib borishda islom aqidasi (aqida) asoslarini yoritishga harakat qildi.

Imom Moturidiyning ta'limotlari uning asarlari tarqalgan ilmiy doiralardan tashqari, islomiy ta'lim va aqliy an'analar uchun ham kengroq ahamiyatga ega edi. Uning ratsionallik, uyg'unlik va pravoslav islom e'tiqodlariga sodiqlikka e'tibor qaratgani olimlar, talabalar va

ilohiyotchilarda aks-sado berib, uni islom ilohiyoti rivojida hal qiluvchi shaxs sifatida ko'rsatdi.

Hozirgi zamonda ham Imom Moturidiy merosi islom ta'limi va pedagogikasiga katta ta'sir ko'rsatishda davom etmoqda. Uning ta'limotlari nafaqat ilohiy tadqiqotlarning poydevori, balki islom jamiyatlarida axloqiy yo'l-yo'riq va madaniy o'ziga xoslik manbai bo'lib ham xizmat qiladi. Ushbu maqola Imom Moturidiy qarashlarining tarbiyaviy ahamiyatini o'rganish, ularning turli islomiy kontekstlarning ta'lim doiralari qanday qabul qilinishi, talqin qilinishi va qo'llanilishini o'rganishga qaratilgan. Imom Moturidiy ta'limotining pedagogik ob'ekt sifatidagi ko'p qirrali rolini o'rganish orqali biz ularning zamonaviy islom ta'limotidagi doimiy dolzarbligi va ta'sirini yoritishga intilamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Imom Moturidiy ta'limotining islom ta'limidagi tarbiyaviy ahamiyati islomshunoslik doirasidagi turli fanlar bo'yicha ilmiy tadqiqot va ilmiy munozaralar mavzusi bo'lib kelgan. Olimlar Imom Moturidiy tafakkurining tarixiy mazmuni, falsafiy asoslari va zamonaviy ta'sirlarini o'rganib, uning ta'lim amaliyoti va ilohiyot tadqiqotlari uchun dolzarbligini yoritib berishdi. Ushbu adabiyot sharhi Imom Moturidiy ta'limotlarining islomiy ta'lim kontekstlaridagi pedagogik ahamiyatini o'rganuvchi tegishli tadqiqotlarning asosiy fikrlarini umumlashtiradi.

Imom Moturidiy yashagan aqliy muhit va moturidiylikning ilohiyot maktabi sifatida rivojlanishi ko'plab tarixiy tadqiqotlarda o'rganilgan. Oliver Liamanning [1] "Klassik islom falsafasiga kirish" va Ignaz Goldzixerning "Islom ilohiyoti va huquqiga kirish" [2] kabi asarlari Imom Moturidiyning islom ilohiyotiga qo'shgan hissalarini tushunish va ularni kengroq islom intellektual an'analari doirasida qabul qilish uchun tarixiy kontekstni ta'minlaydi.

Olimlar Imom Moturidiyning asosiy asari "Kitob at-Tavhid" va uning aqida ilmi (aqida)ga ta'sirini ilohiy tahlil qilishgan. Jorj Makdisiyning "Moturidiy sunnat tushunchasi" [3] va O'z'gur Kojaning "Moturidiylikda Xudo tushunchasi" [4] kabi tadqiqotlar imom Moturidiyning ilohiy asoslari, ilohiy sifatlar haqidagi tushunchasi, aql va vahiyning uyg'unlashtirishga yondashuvini o'rganadi.

Imom Moturidiy ta'limotining axloqiy jihatlari islom ta'limi doirasida ilohiyot va axloqning kesishishi bilan qiziquvchi olimlar tomonidan ham ko'rib chiqilgan. Abdulaziz Saidning "Islom axloqi: diniy asoslar" [5], Muhammad Hoshim Kamoliyning "Islomda mo'tadillikning o'rta yo'li" [6] kabi asarlarida Imom Moturidiyning axloqiy tamoyillari va ularning axloqiy tarbiya va xulq-atvor rivojlanishidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Ayrim tadqiqotlar Islom ta'lim muassasalarida Imom Moturidiy ta'limotlarining pedagogik ta'siriga alohida e'tibor qaratadi. Masalan, Ahmad Tohir Al-Xatibning "Moturidiy tafakkurining zamonaviy islom ta'limiga ta'siri" [7] nomli asari Imom Moturidiyning ilohiy asoslari ta'lim usullari, o'quv dasturlarini ishlab chiqish va islom maktablari va universitetlarida talabalarining faolligi haqida qanday ma'lumot berishini o'rganadi.

Olimlar musulmon olamida Imom Moturidiy ta'limotlarining zamonaviy qabul qilinishi va qo'llanilishini ham ko'rib chiqdilar. Mustafu Abu Svayning "Zamonaviy islom ta'limida moturidiy tafakkuri merosi" [8] va Zaid Shokirning "Moturidiy ta'siri: islom tafakkuri va ta'limini qayta baholash yo'lida" [9] kabi tadqiqotlar imom Moturidiy ta'limotlarining qanday qabul qilinishi, talqin qilinishi va tatbiq etilishini o'rganadi. ta'lim kontekstlari.

Ushbu turli tadqiqotlar orqali olimlar Imom Moturidiy ta'limotining islom ta'limotidagi ko'p qirrali ahamiyatini yoritib, ularning tarixiy ildizlari, diniy chuqurligi, axloqiy ta'siri, pedagogik qo'llanilishi va zamonaviy qabullarini yoritib berdilar. Olimlar Imom Moturidiy tafakkuri bilan ham tarixiy, ham zamonaviy sharoitda shug'ullanib, islom ilohiyoti va ta'limini chuqurroq tushunishga hissa qo'shadilar, shu bilan birga islom ta'lim muassasalarida pedagogik amaliyotni boyitadilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Imom Moturidiyning ilohiy xizmatlarining ahamiyatini to'liq anglash uchun uning ijodini IX-X asrlardagi islom olamining kengroq tarixiy manzarasi doirasida kontekstualashtirish zarur. Bu davr aqliy g'ayrat, qizg'in ilmiy almashinuv va diniy nizolar bilan ajralib turdi, bularning barchasi Imom Moturidiy tafakkurining paydo bo'lishi va gullab-yashnashi uchun zamin yaratdi.

Tahlil va natijalar. Hozirgi islom olamida Imom Moturidiyning ilohiy ta'limotlari yuqori baholanib, ta'lim tizimida, ilohiyot muassasalarida va ilmiy doiralarda keng qo'llanilishida davom etmoqda. Uning asarlari turli kontekstlarda islom ta'limining pedagogik manzarasini shakllantirib, diniy tadqiqotlar, axloqiy yo'l-yo'riq va madaniy o'ziga xoslikni shakllantirish uchun asos matnlari bo'lib xizmat qiladi. Quyida Imom Moturidiy ta'limotlarini zamonaviy qabul qilish va ulardan foydalanishning asosiy jihatlari keltirilgan:

Imom Moturidiy asarlari, xususan, "Kitob at-tavhid" islom ta'limining turli darajalarida, an'anaviy madrasalardan tortib, zamonaviy universitetlargacha bo'lgan o'quv dasturlariga kiritilgan. Uning diniy nutqqa tizimli yondashishi va asosiy aqidaviy tamoyillarga urg'u berishi uning asarlarini islom ilohiyotini chuqurroq tushunishga intilayotgan talabalar uchun bebaho manba qiladi.

Misrdagi al-Azhar universiteti va Erondagi Qum seminariyasi kabi islom ilohiyoti va fiqhini o'rganishga bag'ishlangan muassasalar o'zlarining ilmiy dasturlariga Imom Moturidiy ta'limotlarini kiritadilar. Olimlar va o'qituvchilar uning asarlaridan ilohiyot tamoyillarini o'rgatish, ilmiy munozarlarda qatnashish va bo'lajak ilohiyotchilar va diniy yetakchilarni tayyorlash uchun foydalanadilar.

Imom Moturidiyning axloqiy mas'uliyat va axloqiy xulq-atvoriga urg'u berishi islom ta'lim kontekstlarida chuqur aks sado beradi. Uning ilohiy adolat, insoniy javobgarlik va axloqiy xulq-atvor kabi mavzulardagi ta'limotlari o'quvchilarga axloqiy fikrlash va harakat qilish uchun asos yaratadi, axloqiy rivojlanish va xarakter shakllanishiga yordam beradi.

Imom Moturidiy tomonidan bayon etilgan tamoyillar ilohiyotdan tashqariga chiqib, islomshunoslikdagi turli fanlar, jumladan, fiqh (fiqh), axloq (axloq), falsafa (falsafa) va ma'naviyat (tasavvuf) bilan kesishadi. Shunday ekan, uning asarlari fanlararo muloqot va hamkorlik uchun katalizator bo'lib xizmat qiladi, ilmiy nutqni boyitadi va islom ta'limiga yaxlit yondashuvlarni ilgari suradi.

Ommaviy nutq va intellektual faollik: Imom Moturidiy ta'limotlari musulmon dunyosidagi ommaviy nutq va intellektual ishtirok haqida ma'lumot berishda davom etmoqda. Olimlar, ziyolilar va diniy yetakchilar uning asarlaridan zamonaviy muammolar va muammolarni hal qilishda foydalanadilar, turli auditoriyalar bilan rezonanslashadigan ilohiyot tushunchalari va axloqiy nuqtai nazarlarni taklif qiladilar.

So'nggi yillarda musulmon ulamolari va islomiy tiklanish va yangilanish tarafdori bo'lgan faollar orasida Imom Moturidiy ta'limotiga qiziqish yana kuchaymoqda. Uning ratsional izlanish, muqaddas kitoblarga sodiqlik va axloqiy ongga urg'u berishi islom tafakkuri va amaliyotini jonlantirishga intilayotgan zamonaviy islohot harakatlarining maqsadlariga mos keladi.

Imom Moturidiyning ilohiy ta'limotlari islom ta'lim muassasalarida chuqur pedagogik ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarning o'rganish, teologik tushunchalar bilan shug'ullanishi va murakkab intellektual hududda harakat qilishiga ta'sir qiladi. Imom Moturidiy ta'limotining pedagogik ahamiyatini bir necha asosiy jihatlar orqali tushunish mumkin:

Imom Moturidiyning mantiqiy izlanish va tizimli ilohiyotga e'tibor qaratishi talabalarga islom aqidasi (aqidani) tushunish uchun mustahkam intellektual asos yaratadi. Uning ta'limotlari asosiy diniy tamoyillarni izchil va tizimli tarzda yoritib berish orqali asosiy islom tushunchalari bilan chuqur shug'ullanishga yordam beradi, talabalarda tanqidiy fikrlash va tahliliy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Imom Moturidiyning fikrida aql va vahiyning uyg'unlashuvi markaziy o'rinni egallaydi va aqliy tadqiqotning Muqaddas Kitob hukmi bilan uyg'unligini ta'kidlaydi. Ushbu integratsiya talabalarni islom ta'limotlariga sodiq qolgan holda ilohiy nutqqa aqliy qat'iylik bilan yondashishga undaydi va shu bilan imon haqida muvozanatli va yaxlit tushunchani rivojlantiradi.

Imom Moturidiy ta'limotlari o'quvchilar o'rtasida axloqiy kamolotni shakllantiruvchi diniy tamoyillarga asoslangan axloqiy yo'l-yo'riqlarni taklif etadi. Uning axloqiy

mas'uliyat, javobgarlik va yaxshi xulq-atvorga urg'u berishi talabalarga axloqiy ongini va xarakterini rivojlantirishga yordam beradigan shaxsiy va jamoat hayotidagi axloqiy dilemmalar va muammolarni hal qilish uchun axloqiy kompas beradi.

Imom Moturidiyning ilohiy ta'limotlari islom ta'limida chuqur tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarning bilim olishi, fikrlashi va diniy nutq bilan shug'ullanishini shakllantiradi. Pedagoglar pedagogik amaliyotda uning ta'limotlaridan foydalanishda davom etar ekanlar, kelajak avlodlarni islom tafakkurining boy an'alariga asoslanib, zamonaviy dunyo murakkabliklarida harakat qilish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va qadriyatlar bilan qurollanishini ta'minlaydilar.

Xulosa. Imom Moturidiy ta'limotining islom ta'limidagi tarbiyaviy ahamiyati ko'p qirrali va keng qamrovli bo'lib, tarixiy, teologik, axloqiy va zamonaviy jihatlarni qamrab oladi. Imom Moturidiy ilohiyotga tizimli yondashishi, mantiqiy izlanishlarga urg'u berish, aql va vahiyi birlashtirish orqali talabalarga islom aqidasi tushunish uchun mustahkam intellektual asosni taqdim etadi. Uning ta'limotlari nafaqat

o'quvchilarning ilohiy tushunchalarini chuqurlashtiradi, balki tanqidiy fikrlash, tahliliy ko'nikmalar va axloqiy ongini rivojlantiradi.

Bundan tashqari, Imom Moturidiy ta'limotlari islomshunoslik doirasidagi turli fanlarni bog'lovchi, fanlararo muloqot va yaxlit ta'limga yordam beruvchi ko'prik vazifasini o'taydi. Ilohiyot, fiqh, axloq, falsafa va ma'naviyat o'rtasidagi kesishuvlarni o'rganish orqali talabalar islom tafakkuri va uning turli kontekstlarda amaliy qo'llanilishi haqida har tomonlama tushunchaga ega bo'ladilar.

Pedagog va olimlar pedagogik amaliyotda Imom Moturidiy ta'limotlaridan foydalanishda davom etar ekanlar, kelajak avlodlar islom tafakkurining boy an'alaridan kelib chiqib, zamonaviy dunyo murakkabliklarida harakat qilish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va qadriyatlar bilan qurollanishini ta'minlaydilar. Imom Moturidiy merosini o'zlashtirgan holda, islomiy ta'lim jadal, dolzarb va butun dunyo bo'ylab musulmon jamoalarining o'zgaruvchan ehtiyojlariga javob beradigan bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Leaman, Oliver. "An Introduction to Classical Islamic Philosophy." Cambridge University Press, 2002.
2. Goldziher, Ignaz. "Introduction to Islamic Theology and Law." Princeton University Press, 1981.
3. Makdisi, George. "The Māturīdīte Concept of Sunnah." In "Islamic Theology and Philosophy: Studies in Honor of George F. Hourani," edited by Michael E. Marmura, pp. 193-204. State University of New York Press, 1984.
4. Koca, Özgür. "The Concept of God in Māturīdism." In "The Oxford Handbook of Islamic Theology," edited by Sabine Schmidtke, pp. 253-264. Oxford University Press, 2016.
5. Said, Abdul Aziz. "Islamic Ethics: Theological Foundations." Georgetown University Press, 2004.
6. Kamali, Mohammad Hashim. "The Middle Path of Moderation in Islam: The Qur'anic Principle of Wasatiyyah." Oxford University Press, 2015.
7. Al-Khatib, Ahmed Taher. "The Influence of Māturīdī Thought on Contemporary Islamic Education." Arab Center for Research and Policy Studies, 2018.
8. Abu Sway, Mustafa. "The Legacy of Māturīdī Thought in Contemporary Islamic Education." The Fountain Magazine, 2011.
9. Shakir, Zaid. "The Māturīdī Influence: Towards a Re-Evaluation of Islamic Thought and Education." Renovatio, 2019.



Ranusha ATAYEVA,
Jamoat xavfsizligi universiteti katta o'qituvchisi (PhD)
E-mail: ataeva.r.r@gmail.com,

O'zDJTU professori, f.f.d. Djumanova D.R. taqrizi asosida

RUS TILIDA REJALASHTIRISH ISHLARI MUVAFFAQIYATLI O'RGANISH UCHUN ASOS SIFATIDA

Аннотация

Ushbu maqola o'quv jarayonini rejalashtirish, o'quv darsining bosqichlarini ko'rib chiqish, ularning mazmuni va asosiy maqsadlariga bag'ishlangan. Darsning har bir bosqichini o'qitishning samarali usullari va shakllari, shuningdek, rus tili darslarida umumiy va maxsus nazorat turlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: O'quv jarayoni, rejalashtirish, dars turi, dars bosqichlari, kalendar va mavzuli reja, konspekt reja, nazorat turlari, ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuv.

PLANNING WORK IN THE RUSSIAN LANGUAGE IS THE BASIS FOR SUCCESSFUL LEARNING

Annotation

This article is devoted to the issues of planning the educational process, consideration of the stages of the educational lesson, their content and main goals. Effective methods and techniques for teaching each stage of a lesson are presented, as well as general and specific types of control in Russian language classes.

Key words: Educational process, planning, type of lesson, stages of the lesson, calendar and thematic plan, outline plan, types of control, differentiated approach to learning.

ПЛАНИРОВАНИЕ РАБОТЫ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ – ОСНОВА УСПЕШНОГО ОБУЧЕНИЯ

Аннотация

Данная статья посвящена вопросам планирования учебного процесса, рассмотрению этапов учебного занятия, их содержанию и основным целям. Представлены эффективные методы и приемы обучения каждого этапа учебного занятия, а также общие и частные виды контроля на занятиях по русскому языку.

Ключевые слова: Учебный процесс, планирование, тип занятия, этапы занятия, календарно-тематический план, план-конспект, виды контроля, дифференцированный подход к обучению.

Введение. Учебный процесс – совместная деятельность преподавателя и обучающихся по передаче и усвоению новых знаний и овладению умениями и навыками, а также формированию определенных компетенций в течение определенного времени. «Учебный процесс – целенаправленное взаимодействие преподавателя и учащихся, в ходе которого решаются задачи образования, развития и воспитания учащихся; организация обучения во взаимосвязи всех компонентов» [1].

Известно, что наибольшей единицей учебного процесса является учебный год. В высшей школе он делится на учебные семестры. Наименьшая единица учебного процесса является учебное занятие (лекционное, семинарское, практическое, контрольное занятие).

Традиционно планирование учебного процесса составляет методическую деятельность педагога, направленную на оптимальное распределение образовательных ресурсов для достижения учебно-воспитательных целей и задач, всестороннего развития обучающихся. Оно необходимо для равномерной организации текущей работы по предмету и для видения перспектив обучения предмету.

Обзор литературы по теме исследования. Методика преподавания русского языка – наука, объединяющая в себе несколько направлений: методика начального обучения; методика преподавания русского языка как

неродного языка и др. Основными источниками развития методики являются: а) методическое наследство; б) опыт преподавания русского языка. Возникновение МПРЯ как науки связывают с появлением книги Ф.М. Буслаева «О преподавании отечественного языка» (1844). Также в 19 в. в этом направлении работали В.Г. Белинский, Д.И. Писарев, К.Д. Ушинский, Л.Н. Толстой и др. Методика русского языка формировалась в борьбе за демократизацию школы. Конец 19 – начало 20 веков – период расцвета методики русского языка (В.Я. Стоюнин, Н.Ф. Бунаков и др.). 20 век характеризуется научно-лингвистической направленностью методики русского языка (Ф.Ф. Фортунатов, Л.В. Щерба, Л.В. Текучев и др.). Создавались программы, учебники, учебные пособия. Для настоящего периода характерна общая гуманистическая направленность, разнообразие программ, расширение циклов языковых предметов (Баранов М.Т., В.В. Бабайцева и др.) [2].

Методология исследования. Методологической основой исследования послужили: 1) гуманистический подход к образованию; 2) концепция индивидуализации обучения; 3) исследования по вопросам обогащения содержания предмета, актуальным проблемам и инновационным тенденциям методики преподавания русского языка; 4) описание современных образовательных технологий; 5) современные методологические исследования в области планирования учебного процесса.

Анализ и результаты. Планирование процесса обучения русскому языку в высшей школе позволяет получить ответы на следующие вопросы: "Что необходимо сделать для адекватной организации учебного процесса? На какой период времени осуществляется планирование? Какие ресурсы и способы работы необходимы? Какими должны быть результаты обучения?"

При планировании учебного процесса обучения курсантов русскому языку преподавателю необходимо изучить содержание учебной программы и на ее основе разработать календарно-тематический план и далее план-конспект каждого занятия. Здесь отметим, что план-конспект носит индивидуальный характер в отличие от других видов учебных планов. С точки зрения формы для всех он может иметь единообразный вид, но с точки зрения содержания он должен отличаться с учетом уровня знанов обучающихся. «Конспект урока – подробное и полное изложение содержания и хода урока, отражающее совместную деятельность учителя и учащихся. Конспект нужен для подготовки к уроку, так как работа над ним помогает систематизировать учебный материал, выстроить логическую последовательность его изложения, уточнить формулировки и понятия, определить соотношение звеньев урока» [3].

План-конспект учебного занятия – это вид плана, который составляется преподавателем с учетом специфики группы на каждое занятие. План-конспект отражает тип занятия и включает следующие структурные элементы - тема занятия; тип занятия; цели занятия; средства обучения; план занятия, отражающий только основные этапы занятия; подробное описание последовательности работы преподавателя и обучающихся. Это, в свою очередь, обуславливает выделение этапов планирования учебного занятия.

Планирование учебного занятия по предмету "Русский язык" предусматривает ориентацию на

следующие предметные результаты: 1) формирование представлений о языке как системе; 2) понимание обучающимися того, что язык представляет собой основное средство общения; 3) понимание обучающимися того, что грамотная устная и письменная речь являются показателями общей культуры и гражданской позиции человека; 4) овладение первоначальными представлениями о нормах русского литературного языка и правилах речевого этикета; 5) овладение учебными действиями, языковыми единицами с целью правильно использовать знания для решения познавательных, практических и коммуникативных задач.

В Университете общественной безопасности основным типом занятия по предмету «Русский язык» является практическое занятие и план-конспект имеет следующее содержание этапов учебного занятия (учебные вопросы, расчёт времени и др.).

Этап включения курсантов в умственную работу путем повторения пройденного материала. Здесь можно использовать казусы/лингвистические задачи, тонкие и толстые вопросы, мозговой штурм. Это эффективные приемы обучения, которые служат своеобразным «мостиком» для связи изученных и новых тем. Например, решение казусов (10 минут). «Казус. Метод конкретных ситуаций (англ. Case method, кейс-метод, метод кейсов, метод ситуационного анализа) — техника обучения, использующая описание реальных экономических, социальных и бизнес-ситуаций. Обучающиеся должны исследовать ситуацию, разобраться в сути проблем, предложить возможные решения и выбрать лучшее из них. Кейсы основываются на реальном фактическом материале или же приближены к реальной ситуации» [4]. Казусы представлены двумя видами: по грамматической и лексической темам.


Казусы:

1. По утверждению одного из курсантов слово «чтение» является глаголом. Верно ли суждение? Обоснуйте свой ответ.

2. Предположим, что Эколандия и Экомания тратят на производство риса и гвоздей рабочее время в следующих соотношениях:
Затраты рабочего времени в часах на:
Эколандия - рис (центнер) 40, гвозди (центнер) 20;
Экомания - рис (центнер) 60, гвозди (центнер) 80.
Вопрос: Можно ли все затраты выразить в часах рабочего времени?

Этап изучения нового материала (5 минут). Здесь можно использовать диаграммы, кластер, схемы, таблицы, которые облегчают восприятие и усвоение нового материала. «Кластер — это педагогическая стратегия, которая позволяет ученикам свободно размышлять над какой-либо темой, дает доступ к собственным знаниям, пониманию или представлениям об определенной теме, а

также развивает память и пространственное мышление. Его можно составлять индивидуально, в группах или всем классом» [5]. Кластер дает возможность курсантам увидеть содержание предстоящей работы всего учебного занятия, систематизировать представление об изучаемой теме, а также прогнозировать дальнейшие учебные действия.



3. Этап формирования знанов по грамматической теме (15 минут). Курсантам можно предложить два задания: А) задание на распознавание изучаемых единиц.

Подчеркните глаголы: чтение, читать, письмо, писать, письменный, жить, жизнь, жизненный, понимание,

понимать, понятный, служба, услужливый, служить, защита, защищать, защитный, охранник, охрана, охранять.
 Б) задание на краткое описание изучаемых единиц.
 Данную работу желательно выполнить на небольшом и

несложном тексте. Для воспитания курсантов в патриотическом духе можно выбрать текст о великих деятелях Узбекистана.



Задание. Прочитайте и переведите текст на узбекский язык.

Алишер Навои – узбекский поэт и государственный деятель

Алишер Навои – великий поэт, писатель, государственный деятель. Он родился в Герате в 1441 году. Еще в детстве он подружился с Хусейном Байкара. Когда Алишеру Навои исполнилось 18 лет, Хусейн Байкара назначил его хранителем печати, затем назначил Первым визирем Герата.


Алишер Навои в совершенстве владел персидским, арабским языком, но сильно любил родной узбекский язык. Он написал более 30 произведений. Самое известное произведение – Хамса. Умер поэт в 1501 году в Герате.

Грамматические задания:

I. Выпишите из текста:

- а) 5 имен существительных.**
- б) 5 имен прилагательных.**
- в) все глаголы (определите форму времени).**

Этап формирования зунов по специальности на русском языке. Он подразумевает работу над текстом (30 минут).



Этап обобщения изученного материала (5 минут). Здесь также, как и на первом этапе занятия, эффективно использовать диаграммы, кластер, схемы, таблицы. Например:

Задание. Сделайте устное сообщение по следующим кластерам.



Одним из особо важных элементов планирования учебного процесса является контроль знаний, умений и навыков. Как показывает опыт, все этапы занятия должны сопровождаться оценением, поощрением работы курсантов. Поскольку важным условием повышения эффективности учебного процесса является систематическое получение преподавателем объективной информации о ходе учебно-познавательной деятельности обучающихся. Такую информацию преподаватель может получить, осуществляя контроль за учебной деятельностью курсантов на каждом этапе занятия.

Оценка/отметка – это определение и выражение в баллах (отметка) степени усвоения учащимися знаний, умений и навыков, установленных программой. Оценка не только имеет большое значение для управления учебной деятельностью, но также должна служить цели совершенствования самого учебного процесса и всестороннего, в том числе и нравственного воспитания курсантов. «ОТМЕТКА. То же, что оценочный балл. Условное выражение оценки знаний, навыков и умений, а также поведения учащихся» [6]. Следует обратить особое внимание на необходимость усиления роли постоянных наблюдений за уровнем познавательных, коммуникативных интересов и самостоятельностью курсантов. Регулярный учет активности курсантов максимально оптимизирует их учебно-познавательную деятельность.

В зависимости от дидактической цели и времени проведения проверки различают предварительный, текущий, тематический, итоговый виды контроля. Предварительный контроль проводится в основном с диагностирующей целью перед изучением новой темы или в начале учебного года и направлен на выявление общего уровня подготовки курсантов по предмету. В ходе проверки определяется степень овладения курсантами исходными категориями предмета (или отдельной темы, раздела), устанавливаются объем и качество знаний курсантов. На основе полученных результатов преподаватель планирует, если необходимо, повторение (объяснение) материала; учитывает эти результаты в дальнейшей организации учебно-познавательной деятельности курсантов. То есть содержание плана-конспекта будет варьироваться от результатов предварительной оценки уровня подготовленности курсантов.

«Текущий контроль осуществляется педагогом в ходе повседневной учебной деятельности (в основном во время плановых занятий) путем систематических наблюдений за учебной деятельностью учащихся на каждом уроке» [7]. Текущий контроль проводится регулярно на каждом этапе занятия и выражается в систематических наблюдениях преподавателя за учебной деятельностью курсанта. Главное его назначение –

получение объективных данных о восприятии и усвоении изучаемого материала.

Рубежный или промежуточный контроль имеет цель установить, насколько успешно курсанты владеют системой определенных знаний, каков общий уровень их усвоения, отвечает ли он требованиям учебной программы. «Итоговый контроль – это проверка уровня усвоения знаний, навыков и умений учащимися за более длительный период обучения: за семестр, год или курс обучения (заключительный контроль)» [8]. Итоговый контроль имеет целью определить объем и глубину усвоенных знаний и умений, их прочность и осознанность. Такой вид проверки служит основанием для оценки успеваемости курсантов, который характеризует степень овладения ими знаниями, навыками и умениями в соответствии с требованиями учебной программы.

Заключение и предложения. В настоящее время абсолютно все учебные программы отражают все виды контролей и требования к ним, что позволяет преподавателю заранее планировать содержание и формы проведения различных видов контролей. Контроль за сформированностью умений и навыков курсантов на занятиях по русскому языку проводится как в процессе изучения всей темы (предварительный, текущий, рубежный контроль), так и после изучения определенных разделов (итоговый контроль). Обычно для проверки уровня сформированности умений и навыков используются те же виды работ, которые используются при обучении. В зависимости от характера формируемых умений и навыков курсантов все способы проверки делятся на несколько групп: 1) контроль учебно-языковых умений для определения уровня сформированности лингвистической компетенции; 2) контроль речевых умений и навыков для определения уровня сформированности коммуникативной компетенции.

Например:

Билет 1.

Морфология. Местоимение. Разряды местоимений.

Образуйте форму настоящего времени от глаголов – писать, служить, жить.

Определите склонение следующих имен существительных – идея, юноша, дядя, форма.

Подчеркните главные члены в следующем предложении: Он живёт в казарме.

Прочитайте и переведите текст на узбекский язык.

Перескажите текст.

«Экономика как предмет»

Экономика — наука о рациональном ведении хозяйства в условиях ограниченности ресурсов.

Экономическая наука – это наука о законах развития хозяйства. Экономическая теория – это наука о деятельности людей по поводу производства и обмена продуктов, наука о способах использования ограниченных производственных ресурсов для производства различных товаров и методах распределения их между членами общества.

В экономической теории различают два подхода к ее предмету, к изучению проблем и явлений реальности: 1. Микроэкономика — наука о хозяйственной деятельности, ее побудительных мотивах в поведении индивидуума и фирмы, т.е. здесь за основу берется наименьшая хозяйственная единица, микрочастица экономики (человек, семья, фирма); 2. Макроэкономика — наука о рыночном хозяйстве страны в целом, исследующая проблемы инфляции, безработицы, экономических циклов, национального богатства и т.д.

Таким образом, при планировании занятия необходимо учитывать все элементы учебно-образовательного процесса [9].

ЛИТЕРАТУРА

1. https://pedagogical.academic.ru/847/%D0%A3%D0%A7%D0%95%D0%91%D0%9D%D0%AB%D0%99_%D0%9F%D0%A0%D0%9E%D0%A6%D0%95%D0%A1%D0%A
2. <https://studfile.net/preview/9221882/>
3. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9A%D0%BE%D0%BD%D1%81%D0%BF%D0%B5%D0%BA%D1%82_%D1%83%D1%80%D0%BE%D0%BA%D0%B0
4. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9C%D0%B5%D1%82%D0%BE%D0%B4_%D0%BA%D0%B5%D0%B9%D1%81%D0%BE%D0%B
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/vidy-klasterov-i-ih-primeneni-na-uroke#:~:text=%D0%9A%D0%BB%D0%B0%D1%81%D1%82%D0%B5%D1%80%20%2D%20%D1%8D%D1%82%D0%BE%20%D0%BF%D0%B5%D0%B4%D0%B0%D0%B3%D0%BE%D0%B3%D0%B8%D1%87%D0%B5%D1%81%D0%BA%D0%B0%D1%8F%20%D1%81%D1%82%D1%80%D0%B0%D1%82%D0%B5%D0%B3%D0%B8%D1%8F%2C%20%D0%BA%D0%BE%D1%82%D0%BE%D1%80%D0%B0%D1%8F,%D0%B2%20%D0%B3%D1%80%D1%83%D0%BF%D0%BF%D0%B0%D1%85%20%D0%B8%D0%BB%D0%B8%20%D0%B2%D1%81%D0%B5%D0%BC%20%D0%BA%D0%BB%D0%B0%D1%81%D1%81%D0%BE%D0%BC>
6. <https://pedagogical.academic.ru/searchall.php?SWord=%D0%BE%D1%82%D0%BC%D0%B5%D1%82%D0%BA%D0%B0&from=ru&to=xx&did=pedagogical&stype=>
7. https://pedagogika.org/index/vidy_formy_i_metody_kontrolja_i_ocenki_podgotovlennosti_uchashhikhsja/0-165
8. https://pedagogika.org/index/vidy_formy_i_metody_kontrolja_i_ocenki_podgotovlennosti_uchashhikhsja/0-165
9. Атаева Р.Р. Русский язык (учебник). – Ташкент, 2023.



UDK: 303.725

Anorgul ATAJOVA,
UrDPI dotsenti, filologiya fanlar nomzodi
E-mail: anorgulatajonova005@gmail.com
Gulshoda JUMANAZAROVA,
UrDPI 1-kurs magistranti
E-mail: jumanazarovag1607@icloud.com

Urganch davlat pedagogika instituti dotsenti v.b., PhD D.Xajiyeva taqrizi asosida

USE OF MODERN METHODS OF TEACHING IN THE ORGANIZATION OF 3RD GRADE READING LITERACY CLASSES

Annotation

This article talks about the importance of pedagogical innovation in the educational process. Also, using innovative methods, the technology of using modern methods is given as an example of the topic “Bir-birin kuzatar fasllar” in the 3rd grade reading literacy textbook.

Key words: Pedagogical innovation, innovative situation, innovative environment, innovative teaching, innovative technology, innovative indicator, “Mantiqiy chalkash zanjirlar” method, “Mosini topamiz” method.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ ПРИ ОРГАНИЗАЦИИ ЗАНЯТИЙ ПО ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ В 3 КЛАССЕ

Аннотация

В данной статье говорится о значении педагогических инноваций в образовательном процессе. Также на примере инновационной методики приведена технология использования современных методов на примере темы “Bir-birin kuzatar fasllar” в учебнике по грамотности чтения для 3 класса.

Ключевые слова: Педагогическая инновация, инновационная ситуация, инновационная среда, инновационное обучение, инновационная технология, инновационный индикатор, метод “Mantiqiy chalkash zanjirlar”, метод “Mosini topamiz”.

3-SINF O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI TASHKIL ETISHDA O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARIDAN FOYDALANISH

Аннотация

Ushbu maqolada pedagogik innovatsiyaning ta’lim jarayonidagi ahamiyati haqida so‘z boradi. Shuningdek, innovatsion metodlar yordamida 3-sinf o‘qish savodxonligi darsligidagi “Bir-birin kuzatar fasllar” mavzusi misolida zamonaviy metodlarni qo‘llash texnologiyasi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Pedagogik innovatsiya, innovatsion vaziyat, innovatsion muhit, innovatsion o‘qitish, innovatsion texnologiya, innovatsion ko‘rsatkich, “Mantiqiy chalkash zanjirlar” metodi, “Mosini topamiz” metodi.

Kirish. Barchamizga ma’lumki, bugungi kunda mamlakatimizni yanada rivojlantirish maqsadida ko‘plab sohalarida islohotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, ta’limga bo‘lgan e’tibor kundan kunga ortib, barkamol shaxsni voyaga yetkazish ustuvor vazifalardan biri ekanligi alohida ta’kidlanmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning Oliy Majlisga Murojaatnomasida (2020-yil, 29-dekabr) quyidagi vazifalar alohida qo‘yildi: “Ta’lim sifatini tubdan yaxshilash maqsadida, avvalo, o‘quv dasturlari, o‘qituvchi va murabbiylar uchun metodik qo‘llanmalarni ilg‘or xalqaro mezonlarga moslashtirish lozim”. Bugungi kunda ilm-fan, texnika, axborot kommunikatsion texnologiyalar va ishlab chiqarish sohalarining tez sur’atlarda jadallik bilan rivojlanishini ta’lim tizimi xodimlaridan ta’lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, bu borada innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishni talab etadi. Bu esa har bir tizim xodimi, ayniqsa, o‘qituvchilar zimmasiga yanada yuksak mas’uliyat va vazifalarni yuklaydi. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ta’lim jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etish o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatidan boshlanadi. Chunki

o‘qituvchi ta’lim va tarbiya jarayonining yetakchisi, tashkilotchisi bo‘lib, uning innovatsion madaniyati, tashabbuskorligi, ijodiy faolligi, innovatorlikka bo‘lgan intilishi ta’lim tizimini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

“Innovatsiya” so‘zi lotincha so‘z bo‘lib, yangidan kiritilgan tushunchalar, tartib-qoidalar, texnologiyalar va yangiliklarni anglatadi. Innovatsiyalar ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan, biron bir sohada aniq maqsadga qaratilgan hamda amaliy tatbiq etishga yo‘naltirilgan yuqori samaradorlikka ega yangilik hisoblanadi. Pedagogik innovatsiya deyilganda samarali natijaga erishish maqsadida ta’lim tarbiya jarayoniga yangiliklar, ijobiy o‘zgarishlar kiritish tushuniladi. Pedagogik innovatsiyalar ilmiy maktablarda, ta’lim amaliyotida hamda olim va pedagoglarning ijodiy faoliyati natijasida vujudga keladi. Innovatsiya har tomonlama puxta rejalashtirilgan, o‘quv jarayoniga maqsadli kiritilayotgan yangi ta’limiy amaliyot (yangi tartib, uslub, metod, metodologiya, texnologiya va boshqalar) hisoblanadi. Innovatsiyalar doimo dolzarb muammoning yangi yechimini o‘z ichiga oladi, ulardan foydalanish yangi sifatli natijalarni olish imkonini beradi,

innovatsiyalarni tatbiq etish tizimdagi barcha komponentlarning sifatiiy o'zgarishlariga olib keladi. Shuningdek, ta'limda innovatsiya atamasi an'anaviy va ommaviy amaliyotdagi o'qitish hamda tarbiya jarayoniga kiritilgan yangiliklarni bildiradi, innovatsiya ko'rsatkichi aynan ana shu yangiliklarni bildiradi, innovatsiya ko'rsatkichi aynan ana shu yangiliklar ko'lami bilan belgilanadi. Ta'lim va tarbiya jarayonida innovatsiya quyidagi tushunchalarni qamrab oladi:

Innovatsion vaziyat - bu pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va tatbiq etishga qaratilgan vaziyat.

Innovatsion muhit – pedagogik yangiliklarning vujudga kelishi, ularning jadal o'zlashtirilishi va amaliyotga tatbiq qilinishi.

Innovatsion pedagogik loyiha – qabul qilingan va qismlarga ajratilgan yangi pedagogik g'oyalarda fikrlar.

Innovatsion pedagogik reja – tasdiqlangan yangicha asosdagi o'quv loyiha.

Innovatsion pedagogik g'oya – tizimlashtirilgan yangi o'quv jarayoni prognozikasi va ma'lumotlar majmui.

Innovatsion ta'lim – ta'lim sohasiga kiritilgan va kiritilayotgan yangiliklar hamda yangilangan ta'lim jarayoni.

Innovatsion texnologiya – pedagogik taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan yangi tashkiliy faollik vositalari, usullari va metodlari.

Innovatsion o'qitish – yangicha o'qitish tizimi hamda o'quvchi va talabalarni yangi kiritilgan texnologiyalar asosida o'qitish jarayoni.



O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimiga innovatsiyalarni tatbiq etish jarayoni 2017-yildan boshlab kuchaytirildi. Bundan maqsad boshlang'ich ta'lim jarayonining samaradorligiga tezkor erishishdir. Ana shu maqsadda 3-sinf "O'qish savodxonligi" darsligida berilgan Po'lat Mo'minning "Bir-birin kuzatar fasllar" she'rini yangi innovatsion yondashuv asosida "Mosini topamiz" hamda "Mantiqiy chalkash zanjirlar" metodlari orqali ko'rib chiqamiz. Bu metodlarni darsni mustahkamlash qismida qo'llashimiz maqsadga muvofiq bo'ladi va kutilgan natijani beradi. Bunga bir nechta sabablarini metodlar izohi va darsda qo'llanilishidan so'ng to'xtalamiz.

"Mantiqiy chalkash zanjirlar". Bu metodda xronologik yoki sabab-oqibat zanjiridan iborat 5-6 ta alohida takliflar, matndan jumalar, gaplar, iboralar, rasmlar orqali ifodalashlar, she'rlar ko'chirib olinadi. Har qaysisi alohida qog'ozga tushirilib, chalkashtirib joylashtiriladi. Guruh ushbu yozuv tushirilgan qog'ozlarni to'g'ri tartibda tiklab, to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirib berishi o'qituvchi tomonidan tushuntirib berishi kerak bo'ladi. Keyin esa matni o'qish davomida, guruh taxminlarining to'g'ri yoki noto'g'riligini tasdiqlab berishi kerak. O'quvchilarga yangi mavzuni mustahkamlash qismida "Bir birin kuzatar fasllar" she'rini qismlarga bo'lib, she'r satrlarini almashtirgan holda tarqatma material tayyorlanadi va har bir o'quvchiga tarqatiladi. O'quvchilar she'rdagi misralar ketma-ketligini to'g'ri joylashtirib qayta o'qib berishlari so'raladi, birgalikda topshiriq to'g'ri bajarilganligi tekshirilib izohlanadi. Misol tariqasida she'rdan ushbu parchani chalkashtirilgan holatini keltiramiz:

Dalalarni uxlatib

Kutar ekan o'xshatib

Qir-adirni dam oldirib

Bahoroyni Qishpolvon ham

Quyida darslikdan parcha keltirilgan:

"Mosini topamiz". Bu metodda mavzuga taalluqli, mavzuning mazmunini ochib beruvchi rasm yoki rasmlar bir nechta geometrik qir-qimlarga bo'linadi va surat tushirilmagan

tomoniga mavzuga oid savollar, darsni integratsiyalash maqsadida matematika darsida o'tilgan mavzulardan topshiriqlar yoziladi. Berilgan rasm hosil bo'ladigan qilib boshqa A4 format qog'ozga javoblar yoziladi. O'quvchilarga topshiriq sharti tushuntirilib, o'z sherigi bilan birga bajarishi so'raladi. Bu metodni darslikdagi "Bir-birin kuzatar fasllar" she'ri misolida ko'rib chiqamiz. She'r 4 faslning o'zaro ketma-ket almashinuvi, har bir faslning qanday kirib kelishi, tabiatda ro'y beradigan hodisalar haqida. Quyidagi rasmlar qir-qimlarga bo'linadi:

She'rda qish fasli necha oy davom etadi deya keltirilgan? (3 oy)

Zararli mikroblar qaysi oyda yo'q bo'lar ekan? (Qish)

ham yomg'ir bilan Yuvar ekan yerlarni. Bo'shliqni to'ldiring. (Bahor)

She'rda o'g'lon deya keltirilgan fasl qaysi? (Kuz)

Misolni yeching. $73263 + 80\ 212$. ($153\ 475$)

$560\ 890 + 125\ 076$. ($685\ 966$)

Shundan so'ng qir-qimlarga yuqoridagi topshiriqlar yoziladi, alohida oq qog'ozga esa javoblar yoziladi. O'quvchilarga tarqatma tarqatilib, geometrik shakllar nomi so'raladi. Bu qanday shakl, kundalik hayotda qayerlarda uchratishimiz mumkin? kabi savollar bilan murojaat etamiz. Undan so'ng topshiriqni bajarish uchun 5 daqiqa vaqt beramiz. Bu interfaol metodlarni o'quvchilar katta qiziqish va ishtiyoq bilan bajaradilar, shu bilan birga, she'r matni ustida ishlab, mustaqil ravishda mazmunini yana bir bor tushunib oladilar.

Interfaol metodlar o'quvchilarda, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida qo'llanilsa katta samara berishi mumkin. Chunki bu yoshdagi o'quvchilar diqqatini uzoq muddat jamlay olmaydilar va juda qiziquvchan, faol bo'lishadi. Interfaol metodlar ta'lim oluvchilarni faollashtiradi, mustaqil fikrlashga undaydi. Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Eng muhimi ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi turadi, ta'lim samarasi yuqoriroq

bo'ladi, o'quvchi yuqori darajada rag'batlantiriladi va ilgari orttirilgan bilimi ham e'tiborga olinadi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari ham mavjud bo'lib u quyidagilardan iborat: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, o'quvchilar tashabbus

ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi (2020-yil, 29-dekabr).
2. R.Jo'rayev, O'.Tolipov, R.Safarova, X.To'raqulov, M.Inoyatova, M.Divanova. Pedagogik atamalar lug'ati.. – T.: “Fan”, 2008, -b 195.
3. O.Jabborova, Z.Umarova, L.Babaxodjayeva. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiyasi va integratsiyasi. –T.: “Malik print co”, 2021, -b 196.
4. Milliy o'quv dasturi (ona tili), 2020, -b 163.
5. M.Toirova. O'qish savodxonligi. 3-sinf darslik (1-qism). –T.: “Novda”, 2023, -b 78.
6. O'.Tolipov, M.Usmonboyeva “Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot”. – T.: “Fan”, 2005, -b 205.
7. K.Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova, “Ona tili o'qitish metodikasi”. –T.: “Bayoz”, 2022, -b 304.
8. O'tkir Tolipov, D.Ro'ziyeva. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”. –T.: “INNOVATSIYA-ZIYO”, 2019, -b 276.



UDK: 316.346.2:314.7(575.1)

Dildora AXMEDOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: ahmedovadildora4@gmail.com

O'zMU PhD dotsenti Ziyaeva X. taqrizi asosida

MIGRATSIYA JARAYONINI TARTIBGA SOLISH VA BOSHQARISHNING TASHKILIY, IJTIMOY – HUQUQIY MEXANIZMLARI

Аннотация

Maqolada migratsiya jarayoni va uning mazmun, mohiyati, migratsiya jarayonini tartibga solish va boshqarishning ijtimoiy huquqiy mexanizmlari hududida ma'lumot berilgan. Keltirilgan ma'lumotlar muallifning izohlari bilan to'ldirilib, shaxsiy qarashlari ham keltirib o'tilgan, xulosalar bilan yakunlangan.

Kalit so'zlar: Migratsiya, ko'chish, jarayon, mintaqa, donor davlat, tendensiya, populyatsiya, mexanizm.

SOCIAL AND ORGANIZATIONAL AND LEGAL MECHANISMS FOR THE REGULATION AND MANAGEMENT OF THE MIGRATION PROCESS

Annotation

The article provides information about the migration process and its content, essence, social legal mechanisms for the regulation and management of the migration process. The information provided was supplemented by the author's comments, and his personal views were also cited, ending with conclusions.

Key words: Migration, migration, process, region, donor state, trend, population, mechanism.

ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ, СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ И УПРАВЛЕНИЯ МИГРАЦИОННЫМ ПРОЦЕССОМ

Аннотация

В статье представлены сведения о миграционном процессе и его содержании, сущности, социально-правовых механизмах регулирования и управления миграционным процессом. Данная информация дополнена комментариями автора, отмечены его личные взгляды и сделаны выводы.

Ключевые слова: Миграция, переселение, процесс, регион, страна-донор, тенденция, население, механизм.

Kirish. Dunyoning geosiyosiy va iqtisodiy ko'rinishi shiddat bilan o'zgarib borishi hamda demografik o'zgarishlar insonlarni yaxshi hayot va moddiy manfaatdorlik maqsadida bir hududdan ikkinchisiga ko'chib o'tishini kuchaytirmoqda.

Har qanday ilmiy kategoriya qatori ijtimoiy hodisa sifatida mehnat migratsiyasining xos tushunchalari mavjud. Xususan, bir hududdan ikkinchi hududga ko'chib o'tgan kishilar migrantlar deyilsa, boshqa davlatga chiqib ketganlar emigrantlar sanaladi. Mamlakat hududiga kirib kelganlar yesa immigratlar kategoriyasiga mansub bo'ladi.

"Migratsiya" atamasi lotincha "migratio" va "migro" so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, ("ko'chib o'tyapman" va "ko'chib ketyapman") degan ma'nolarni anglatadi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) migratsiyani "odamlarning odatiy yashash joyidan xalqaro chegara orqali yoki davlat chegaralari ichida ko'chib o'tishi", deb ta'riflaydi[14].

Tegishli davlatda aholi populyatsiyasi, ijtimoiy-demografik tarkibi, jinsiy va yosh tuzilmasidagi o'zgarishlar, avlodlar davomiyligini ta'minlash muammolari migratsion jarayonlar bilan chambarchas bog'liq. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Konvensiyasida mehnat migranti deganda haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanadigan fuqarosi (ishchisi) bo'lmagan davlatda mehnat bilan shug'ullanadigan shaxs (mehnat migranti) tushuniladi[8].

Keyingi yillarda sotsiologlarning mehnat bozori haqida tushunchalari konkretlashdi va yangilari paydo bo'ldi. Ya'ni, ular mehnat bozorini ish haqi va daromadlar erkin harakati

orqali mehnatga talab va ishchi kuchi taklifini o'zini o'zi tartibga soluvchi mexanizm sifatida talqin qiladilar. Lekin, ularning barchasiga xos bo'lgan asosiy kamchilik – mehnat bozori tarkibiy qismi hisoblangan migrantlar masalasini ijtimoiy munosabatlar kompleksi kontekstida alohidaligi, maxsusligi va umumiyligini e'tibordan chetda qoldirishidir.

Boshqa tadqiqotchilar migrantlar masalasini bilvosita e'tiborga olib, xalqaro mehnat bozori ish beruvchilar va yollanib ishlashni xohlovchilarni bevosita kelishuvi orqali talab va taklifni qanoatlantirish uchun sharoitlar yaratadi, ishchi kuchini xarid qilish yoki sotish jarayonlarini bevosita tartibga sola olmaydi, deb biladilar.

Insonlarning mehnatga oid huquqlari har bir davlatning huquq normalarida o'z aksini topgan bo'lib, davlatchilik shaklidan qat'iy nazar deyarli barcha davlatlarda bir xilda ekanligini kuzatish mumkin. Aynan mehnatga oid huquqiy munosabatlarni tartibga solish har doim dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelgan.

Turli davrlarda inson huquqlari va erkinliklari tushunchasi, mazmuni va ko'lami turlicha bo'lganligi sababli yillar davomida ularga turlicha siyosiy-huquqiy, diniy, axloqiy va falsafiy talqin qilingan. Mehnatga oid huquqlar shaxsni o'z davlati bilan bog'laydigan va shu davlatga mansubligini bildiradigan huquqiy institutning ajralmas qismi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi

Farmoni, 2017 yil 11 iyuldagi PQ-3126-son "Ichki ishlar organlarining migratsiya jarayonlari va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2018 yil 5 iyuldagi PQ-3839-son "O'zbekiston 2020 yil 15 sentyabrdagi PQ-4829-sonli "Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022 yil 1 martdagi PQ-149-sonli "Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari va 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida hamda mazkur faoliyatga tegishli bo'lgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi[3].

Mehnat migratsiyasining ijobiy jihatlari sifatida xorijiy mamlakatlardan mehnat migrantlarini ko'chirilishi tufayli ular kelib chiqqan mamlakatlarda kambag'allik darajasi pasaymoqda, savdo, qurilish, qishloq xo'jaligi va turli xil xizmatlar ko'rsatish rivojlanmoqda, ishsizlik kamaymoqda, tadbirkorlik faoliyati kuchaymoqda, yangi ish o'rinlari yaratilmoqda, shuningdek, tadbirkorlik ham rivojlanmoqda.

Mehnat migratsiyasining ijobiy jihatlari bilan birga salbiy jihatlari keltirib o'tish lozim. Mehnat migrantlarini qabul qilgan mamlakatda migrantlarning huquqlarining buzilishi va ularning mehnatga oid huquqlarini himoya qiluvchi huquqiy mexanizmlarni ishlashidagi disfunktsiyalar, ishchi kuchini ta'minlovchi donor davlatlarda esa malakali mehnat resurslari kamayishi, ish topishda yuzaga keladigan turli xil qiyinchiliklarni kelib chiqishi, pensiya ta'minoti bilan bog'liq ijtimoiy muammolar ortib borishi, mehnat migratsiyasi tufayli oilalarning parchalanishi, mehnat migrantlarining salomatligini ta'minlash masalalarini e'tiborsiz qolishi mehnat migrantlarining hayotida turli ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Mehnat migrantlarining ish davomida, ekspluatatsiya qilish, ish uchun lozim bo'lgan sharoit va to'lov tartibini buzilishi, sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish eng dolzarb muammolar deb ta'kidlash mumkin. Xorijiy mamlakatlardagi migrantlar ko'pincha mamlakatdagi huquq-tartibot idoralarga qilgan da'volari doim ham qoniqtirilmagani davlat mehnat tashkilotining va tu.b aholining radikal vakillari o'rtasida irqiy va milliy murosasizliklardan aziyat chekadilar[9].

taraqqiyoti istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda, "istiqbolli ilmiy-pedagogik kadrlarni, birinchi navbatda, muhandislik-texnika va arxitektura ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarini pedagoglarining rivojlangan davlatlar, xususan, Janubiy Koreya, Yaponiya va Germaniyada 2-3 oylik kurslarda o'zaro hamkorlik bo'yicha tuzilgan shartnomalar, homiylik va xalqaro tashkilotlar grantlari mablag'lari hisobidan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining chet elda stipendiatlarning malakasini oshirish" vazifalari alohida dolzarblilik kasb etadi [1].

Nofilologik yo'nalishdagi professional OTM larda pedagog xodimlar uchun Umumevropa xalqaro standartining B 2 (chet tilini o'rganishning mustaqil muloqot bosqichi) darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro

sertifikatning talab etilishi, xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirish maqsadida qo'shimcha ustama haqi, rag'batlantirishlarning joriy qilinishi kabi chora va tadbirlar xorijiy tillarni o'rgatishni ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlantirib, mazkur yo'nalishda ta'lim sifatini tubdan oshirish uchun xizmat qilmoqda [2]. Shunday ekan, professional ta'limda ingliz tilini soha doirasida mukammal o'zlashtirish masalasi, o'quv-uslubiy asoslarni muntazam ravishda takomillashtirish, mazkur jarayonni ilmiy jihatdan tadqiq etish, ilg'or zamonaviy metodologik ta'minotdan unumli foydalanish va OTM xususiyatidan kelib chiqqan holda, mutaxassislikka integrasiyalashuvini ta'minlash dolzarblik kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Soha va amaliyotga jalb qilish orqali bo'lajak tibbiyot mutaxassislarining til kompetentsiyasini rivojlantirishda ular o'zlari uchun ma'lum bo'lgan kasbiy ehtiyojlardan kelib chiqish, bunda mutaxassislik bo'yicha sohaviy matnlarini tahlil qilish, kasbiy ma'lumot va axborotlarni qo'llash usullari ko'plab zamonaviy tadqiqotlarda tahlil qilinar ekan, mutaxassislikka integrasiyalashuv metodologiyasi va fanlar o'rtasidagi bog'liqlik materialni qulay va qiziqarli tarzda o'rganish imkonini berishi ta'kidlanadi [3], [4]. Mazkur jihat tibbiyot sohasi uchun ingliz tili va kundalik ingliz tili o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashni belgilab beradi [5]. Tilshunoslik, pedagogika, sosiologiya va psixologiya sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar, shuningdek, fanni o'zlashtirishga bo'lgan standart va talablarning ortishi xorijiy tillarni o'zlashtirishni mukammallashtirishni, uning mazmunini, o'qitish usullarini yangilashga kompleks yondashuvni tashkil etishga e'tibor qaratib, o'quv jarayonini intensivlashtirish masalasiga oid turli xildagi yondashuvlarni taqdim etadi [6]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kasbiy ma'lumotlarni va matnlarni ingliz tilida to'g'ri idrok etish, mutaxassislik uchun zarur bo'lgan so'z boyligiga ega bo'lish uchun birinchi navbatda kommunikativ kompetentsiyaga, ya'ni og'zaki nutqni o'zlashtirish muhim. Bu borada ingliz tilini o'qitishning eski metodikasi – matnni o'qib, tarjima qilish, qoidalarni yodlash kabi usullar bugungi kunda batamom yangicha bo'lgan standartlar bilan almashinib, zamonaviy tilni o'qitish usullari asosan kommunikativ metodikaga asoslanganligi bilan xarakterlanadi, hamda asosan og'zaki nutq kompetentsiyasini rivojlantirishga qaratiladi [7]. Tibbiyot OTM lari uchun tibbiyot soha mutaxassisining maqsad va vazifalarni aniq belgilash bunda asosiy omil sifatida belgilanadi [8]. Motivasiyani to'g'ri shakllantirish, kasbiy qiziqishdan unumli foydalanish, ingliz tili muhitini yaratish ommaviy til o'rganish va natijaviylikka erishishning poydevori sifatida namoyon bo'ladi. Ingliz tilini o'qitish va o'zlashtirishga qaratilgan zamonaviy tadqiqotlarda kompetentsiya va kompetentlik tushunchalari ajratilib, ular ichki va tashqi dunyo atributlari sifatida namoyon bo'lishi taqozo etiladi. Mazkur jihatlar A.V.Xutorskiy tomonidan qayd etilib, ta'lim jarayonida didaktika metodikadan foydalangan holda amalga oshirilishi, bunda pedagogning uslubiy vositasi sifatida metodik kompetentsiyalar hizmat qilishi ta'kidlanadi [9]. A.V.Xutorskiy didaktik o'zlashtirishning quyidagi ierarxiyasini sanab o'tadi:

Umumta'lim kompetentsiyalari. Insonning har qanday yoshda umumiy ta'lim olishi nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, bilimlarning uning hayoti davomida o'zlashtirilishi, asosiy intilishlari tipologiyasiga binoan belgilanadi.

Pedagogik, yoki umumkasbiy kompetentsiyalari. Bunda didaktika – pedagogikaning bir qismi bo'lgan fan nuqtai nazaridan kelib chiqiladi. Shu sababdan didaktikaga nisbatan pedagogik kompetentsiyalar umumiy kasbiy funksiyalarni bajaradi.

Didaktik, yoki kasbiy kompetentsiyalar. Didaktika darajasi – bu loyihalashtirishning metodologik apparatiga ega bo'lish va o'qitishni amalga oshirish darajasi demakdir.

Metodik kompetentsiyalar. O'qitish amaliyotida didaktika metodika yordamida amalga oshiriladi. Shu sababli o'qitishning asosiy quroli hisoblangan metodik vositalarga ega bo'lish metodik kompetentsiyalarni xarakterlaydi [9].

K. B. Baranbaeva kommunikativ kompetentsiyani shakllantirishda muloqotning turli sohalarida matnlar yaratish qobiliyatini ta'riflar ekan, matn kompetentsiyasi haqida fikr yuritadi, hamda bunda tegishli leksik birliklar, turli interfaol konstruksiyalardan unumli foydalanish g'oyasini ilgari suradi [10]. Biz mazkur qarashlarini kommunikativ kompetentsiya tushunchasining ma'lum ma'nodagi tasnifi sifatida qabul qilishimiz mumkin. O'ylaymizki, kommunikativ kompetentsiyani mukammal egallash zamonaviy ingliz tilini o'qitish usullarning ilg'or shakllaridan biri sifatida tibbiyot sohasida mutaxassislik bo'yicha o'zaro aloqa, kelishuv, hamjihatlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Biz mazkur qarashlarini kommunikativ kompetentsiya tushunchasining ma'lum ma'nodagi tasnifi sifatida qabul qilishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mutaxassislik doirasida ingliz tilini mukammal egallashga qaratilgan metodologiyani aniqlashda kasbiy muhitni shakllantirish va mutaxassislikka integrasiyalashuv mezonlarini anglash maqsadga muvofiqdir. O'qitish mazmunini idrok etish, tadbirlar ko'lamini belgilash ila tibbiy ta'lim va til ta'limi o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash o'ta muhim omillardan ekanligini ta'kidlaymiz. Bunda turlicha didaktik yondashuvlar asosida o'quv materiallarini soha va amaliyot nuqtai nazaridan o'rganuvchilar uchun qiziqarli hamda qulay tarzda tashkil etish o'rganishga nisbatan motivasiyani kuchaytiradi.

Tibbiyot OTM larida ingliz tilini o'qitish metodologiyasida quyidagi dolzarb jihatlarni ajratish mumkin:

1. Ingliz tilini o'zlashtirish uchun shart-sharoitlarni sifat jihatidan yaxshilash, o'quv-uslubiy ta'minotni takomillashtirish;
2. Tibbiyot talabalarining ingliz tilida savodxonligini oshirish jarayonida pedagogik mahorat, samarali usul va vositalardan keng foydalanish;
3. Bo'lajak tibbiyot mutaxassislariga o'z faoliyati doirasida chet tillarini o'rganish va yanada rivojlantirish uchun kuchli motivasion muhit yaratish;
4. Tibbiyot talabalarining ingliz tili bo'yicha bilimlarini oshirishga mas'uliyatli yondashuviga erishish.

Talabalarga mavzu bo'yicha materialni taqdim etishda iloji boricha mutaxassislikda qo'llaniladigan vaziyatlar qo'llanilar ekan, pedagog, birinchi navbatda, ularning kasbiy ehtiyojlarini hisobga olgan holdagi yondashuvga tayanishi lozim. Bunda ingliz tili uchun ajratilgan soatlar kontekstida emas, balki amaliyot nuqtai nazaridan kelib chiqib, talabalar uchun tanish bo'lgan vaziyatlarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Ingliz tilini o'qitishda o'qituvchi va talabaning o'zaro ta'siri va muloqotiga asoslangan ushbu usulning afzalliklari haqiqatan ham dolzarbdir. Shuningdek, mutaxassisligi chet tili bo'lmagan universitetlarning talabalari uchun ingliz tilini o'rganishda guruhlarda ishlash, munozaralar, taqdimotlar kabi usullardan foydalanish ingliz tilini o'rganishda eng maqbul usullarlardandir [11]. Faoliyatni tashkillashtirish zamonaviy menejment qoidalarga asoslangan holda, ilg'or texnologiyalar va usullarni qo'llash orqali tashkiliy boshqaruv tizimining o'ziga xos turidir. Unga ko'ra, ingliz tilini o'zlashtirish o'quv-uslubiy va ilmiy faoliyatning ma'lum yo'nalishlarida belgilanadi.

Tahlil va natijalar. Talabalarning maqsadlari, istak va hohishlarini aniq belgilash pedagogik mahoratning asosini tashkil qiladi. Toshkent pediatriya tibbiyot instituti mutaxassislik kafedralari pedagog xodimlari hamda ingliz tili o'qituvchilari o'rtasida talabalarning ingliz tilini o'rganishga

bo'lgan qiziqishlarini orttirishda samarali usullar bo'yicha fikrlar aniqlandi. Bunda ingliz tili o'qituvchilari (1-rasm) hamda mutaxassislik kafedralari pedagog xodimlari (2-rasm) tomonidan bildirgan fikrlar yig'indisi namoyon bo'lib, samarali usullar mexanizmlari aniqlandi.



1, 2-rasmlar. Samarali usullarni aniqlashtirish mexanizmlari



Shuningdek, talabalarning ingliz tilini o'rganishlarida qanday qiyinchiliklarga duch kelishi muammolari o'rganib chiqildi. Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti I va II kurs bakalavriat yo'nalishi talabalari o'rtasida bu borada so'rov

o'tkazilib, ularning tilni o'zlashtirish kompetentsiyalarini bo'yicha o'z bilimlarini aniqlashlari taklif etildi, hamda tegishli xulosalarni chiqarishlari uchun imkoniyat berildi (1 –jadval):


1 –jadval

Talabalarning o'zlashtirish kompetentsiyalarini aniqlash

No	O'zlashtirish kompetentsiyalari	Erkin idrok eta olaman, osonlik bilan angoman	Ba'zi qiyinchiliklarga duch kelaman	Qiyinalaman, bu borada o'z ustimda ishlashim kerak
1.	Mutaxassislik bo'yicha ingliz tilida tematik matnlarni o'qish va tushunish	I-19% II-45%	I-33% II-56%	I-13% II-8%
2.	Gapirish va muloqot, to'g'ri talaffuz qilish	I-76% II-74%	I-58% II-24%	I-21% II-14%
3.	O'z fikrini yozma bayon etish	I-23% II-57%	I-47% II-36%	I-4% II-2%
4.	Ingliz tilida taqdimot tayyorlash va namoyish qilish	I-75% II-82%	I-78% II-92%	I-3% II-1%
5.	Mutaxassislik bo'yicha turli ma'lumot va adabiyotlarini o'qish va tahlil qilish	I-29% II-63%	I-69% II-72%	I-7% II-5%

Mutaxassislik bo'yicha ingliz tilida tematik matnlarni o'qish va tushunish, gapirish kompetentsiyasi bo'yicha muloqot va to'g'ri talaffuz qilish, fikrni yozma bayon eta olish, ingliz tilida taqdimot tayyorlash va namoyish qila olish, mutaxassislik bo'yicha axborot, ma'lumot va adabiyotlarni topish, o'qish va

tahlil qilish kabi faoliyat turlari bo'yicha talabalar o'ziga xos qiyinchiliklarga duch kelar ekan, bu borada yuqori natijalarga erishish uchun o'zlarining ustida ishlashlari va muntazam til ko'nikmalarini rivojlantirishlari maqsadga muvofiq ekanligi ayon bo'ldi (3-rasm).



3-rasm. O'zlashtirish kompetentsiyalarining tasviriy ko'rinishi

Tibbiyot oliy ta'limida ingliz tilidan bilimlarni shakllantirishda samarali usul va tamoyillarni qo'llash turli metodik va didaktik vositalarini birlashtirish, o'rganuvchilarning fikr va takliflarini muntazam ravishda monitoring qilish omillariga tayanadi. Talabalar tomonidan ingliz tilini mutaxassislik doirasida o'zlashtirish kompetentsiyalari borasida bildirgan fikrlari asosidagi tahlil natijalari shuni

ko'rsatdiki, o'zlarining ustida ishlashi, topshiriq va vazifalarni o'zlariga qulay bo'lgan tarzda qabul qilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish, tanqidiy fikrlashlari orqali o'rganishning o'ziga mos tamoyillarini aniqlash, professional ta'lim va ingliz tili fani o'rtasidagi mutanosiblikni anglash maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar. Tibbiy oliy ta'lim bugungi kunda ingliz tilini o'qitishning mazmunini belgilar ekanmiz, uning quyidagi shakllarini ifoda etish mumkin:

- Zamonaviy texnologiyalarning taraqqiy etgan davlatlardagi usullarini qo'llash;
- Chet tillarini o'zlashtirish samaradorligini oshirishga qaratilgan axborot texnologiyalari vositalirini qo'llash;
- Malakali kadrlarni jalb qilish;
- Muntazam nazorat va monitoringni ta'minlash.

Shuningdek, tibbiyot oliy ta'limining barcha bosqichlari uchun ingliz tilini o'qitish jarayonining sifati asosan quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

1. Tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalarining, shuningdek, soha mutaxassislari, olimlari va pedagog xodimlarning ingliz tilini bilish darajasi va umuman, OTM dagi

til o'rganish muhiti darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, qolgan kadrlar va talabalarining tillarni o'zlashtirish istagi shunchalik ortadi.

2. Bo'lajak kasbiy faoliyatni hisobga olgan holda, mutaxassislik talablaridan kelib chiqib, ingliz tilini o'zlashtirish uchun zarur motivasion strategiyani qabul qilishda kerakli muhit va sharoitlarni yaratish, sohaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, imtiyozlar yaratish – bularning barchasi yaxlit shaklda namoyon bo'lishi muhimdir.

4. Tibbiyot oliygohida ilmiy izlanuvchilar va pedagog xodimlarning ingliz tili bo'yicha bilim va malakasini oshirish uchun yangi metodologik standartlar bo'yicha tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda xorijiy tillarini o'qitishning zamonaviy modelini yaratish mexanizmlarini muntazam ravishda takomillashtirish davr talabidir.

ADABIYOTLAR

1. Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiy sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3151 son Qarori 2017 yil 27-iyul.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 606-sonli qarori. 2019 yil 19 iyul.
3. Antony L. The teacher as a student in ESP course design // Keynote address presented at the 2007 International asyposium on ESP & Its Applications in Nursing and Medical Emglish Education. Fooyin University, Kaohsiung, Taiwan. – 2007, October.
4. Buchler, M. English for the Pharmaceutical Industry.. Oxford, –2010.
5. Pauline Webber. Speaking practice in the medical english classroom// bridging the gap between medical English and the everyday world. International Review of Applied Linguistics in Language Teaching 33.–1995 № 1, –P. 64-70.
6. Ballet K. K. Geert. Struggling with workload: primary teacher's experience of intensification // An international journal of research and studies. Volume 25. №8 - November, – 2009. – P. 1150-1157.
7. Ann Ehrlich. Medical Terminology for Health Professions // Delmar Publishers Inc. Part I. – 2016. –P. 5-7. <https://www.amazon.com/s>
8. Шарипова Ф.И. Современные подходы формирования языковой компетенции у студентов медицинских вузов // Современное образование (РФ). – 2019. – P.18-23.
9. Хуторской А.В. Дидактика // Учебник для вузов. С.416. Стандарт третьего поколения. – Спб.: Питер. – 2017. – С. 720.
10. Баранбаева К.Б. Развитие коммуникативной компетенции учащихся на уроках английского языка через активные формы обучения // Вестник науки и образования. № 3(27). Том 2, – 2017. – С.66.
11. Li J. Research on interaction and communication in English teaching. Hebei, China. Web of Conferences 5, 0100. 2016. P.1-5. <https://www.shs-conferences.org/articles/shsconf>.



УДК:372,8

Абдумалик ДЕДАХАНОВ,
Преподаватель Turan International University
E-mail: Dedaxonov.a@mailru

По основы рецензией (DSc) Т.Исломовой

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ СТРАТЕГИИ ФОРМИРОВАНИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ УНИВЕРСАЛЬНЫХ УЧЕБНЫХ ДЕЙСТВИЙ ПРИ ИСПОЛЬЗОВАНИИ ФОНЕТИЧЕСКИХ ИГР

Аннотация

В данной статье рассматриваются педагогические стратегии и методы при использовании фонетических игр, в частности описание лучших практик и рекомендаций для эффективной интеграции игровых элементов в учебный процесс на уроках родного языка.

Ключевые слова: Методы использования фонетических игр, интеграция игровых элементов, педагогическая практика, артикуляция, слуховой навык, звуковая осведомленность, звук и фонема.

FONETIK O'YINLARDAN FOYDALANISHDA KOGNITIV UNIVERSAL O'QUV HARAKATLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK STRATEGIYALARI

Аннотация

Ushbu maqolada fonetik o'yinlardan foydalanishdagi pedagogik strategiya va usullar, xususan, ona tili darslarida o'yin elementlarini ta'lim jarayoniga samarali integratsiyalash bo'yicha ilg'or tajriba va tavsiyalar tavsifi ko'rib chiqiladi".

Kalit so'zlar: Fonetik o'yinlardan foydalanish usullari, o'yin elementlarini birlashtirish, o'qitish amaliyoti, artikulyatsiya, eshinish qobiliyati, tovushni anglash, tovush va fonema.

PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR THE FORMATION OF COGNITIVE UNIVERSAL LEARNING ACTIVITIES USING PHONETIC GAMES

Annotation

This article discusses pedagogical strategies and methods when using phonetic games, in particular a description of the best practices and recommendations for the effective integration of game elements into the educational process in native language lessons."

Key words: Methods of using phonetic games, integration of game elements, teaching practice, articulation, auditory skill, sound awareness, sound and phoneme.

Введение. Современное образование требует разработки эффективных педагогических стратегий для формирования познавательных универсальных учебных действий у учащихся. Одной из перспективных областей в этом контексте является использование фонетических игр как инструмента формирования познавательных универсальных учебных действий на уроках родного языка в начальных классах. Первоначальным шагом в разработке педагогических стратегий является анализ методологических подходов к формированию познавательных универсальных действий учащихся. Имея в виду актуальность развития фонетических навыков, особенно в раннем возрасте, педагоги стремятся объединить игровые методики и когнитивные стратегии.

Введение в область исследования фонетических стратегий и методов на уроках родного языка представляет собой важный этап в формировании эффективных подходов к обучению произношению и звуковому анализу. Фонетика, как научная дисциплина, фокусируется на изучении звуков, их правильного произношения и взаимосвязей, что является ключевым элементом языкового образования.

Методология. Фонетика, как важная отрасль лингвистики, изучающая звуковую структуру и произношение языка, несет в себе существенное значение для

языкового образования. Правильное произношение и различение звуковых единиц становятся неотъемлемой частью компетентности в родном языке, влияя на понимание и качество коммуникации.

Фонетические игры играют ключевую роль в обучении родному языку, выполняя несколько важных функций. В первую очередь, они способствуют развитию произношения учеников, предоставляя возможность анализа и правильного произношения отдельных звуков и фонем. Этот игровой подход делает учащихся более внимательными к звукам и структуре родного языка, что в конечном итоге улучшает их произносительные навыки. Во-вторых, фонетические игры способствуют улучшению звуковой аннотации, тренируя учащихся в различении и анализе звуков в словах, что положительно влияет на их навыки чтения и понимания слов. Эти игры помогают развивать аудитивные способности и способность различать звуковые единицы. Третья роль фонетических игр заключается в том, что они делают обучение родному языку более увлекательным. За счет внесения элементов веселья и развлечения, ученики становятся более мотивированными и заинтересованными в обучении. Учащиеся активно участвуют в играх, что способствует более эффективному усвоению навыков фонетики. И, наконец, фонетические игры способствуют социальному

взаимодействию. Часто организуемые в групповом формате, они способствуют развитию коммуникативных навыков учеников. Учат работать вместе, обмениваться мнениями, объяснять свои мысли и внимательно слушать других, что важно для развития социальной компетенции.

Фонетические навыки можно разделить на две группы: слухо-произносительные и ритмико-интонационные. Давайте рассмотрим каждую группу в отдельности. Слухо-произносительные навыки – это навыки правильного произношения всех звуков в потоке речи и понимание всех звуков при аудировании речи других. Они также делятся на две группы: — Аудитивные слуховые навыки подразумевают действия и операции по узнаванию и различению отдельных фонем слов смысловых синтагм предложений. — Собственно произносительные навыки подразумевают умение правильно артикулировать звуки и соединять их в словах, словосочетаниях и предложениях. Кроме того, предполагается правильная паузация ударения интонирование.

Ритмико-интонационные навыки подразумевают знание и логических, и экспрессивных ударений и интоном. Стоит отметить, что именно ударение и интонация выдают иностранца от носителя языка. Но на практике легче научиться правильному произношению звуков, чем интонированию предложений. Более того именно ударение паузация и интонация позволяют менять смысл высказывания.

Фонетические игры выступают важным элементом в создании обучающей среды. Фонетические игры предоставляют уникальную возможность интегрировать познавательные учебные действия в процесс обучения языку, делая его увлекательным и эффективным" [1]. Они не только содействуют развитию фонетических навыков, но и способствуют формированию универсальных учебных действий, таких как внимание, память, мышление, решение проблем.

Развитие внимания в аспекте формирования познавательных универсальных учебных действий предполагает использование фонетических игр, которые в свою очередь требуют активного внимания к звукам и их анализу, что способствует развитию визуального и звукового восприятия. Более того участие в фонетических играх требует запоминания и распознавания звуков, что развивает кратковременную и долговременную память, что не мало важно для формирования универсальных учебных действий. "Использование фонетических игр в учебном процессе не только способствует развитию фонетических навыков, но и формирует учебные действия, необходимые для успешного обучения" [2].

"Внимательное внедрение фонетических игр в учебный план может значительно улучшить познавательные универсальные действия учащихся, обогатив их образовательный опыт" [2]. Результаты исследований и экспертные мнения подтверждают, что фонетические игры несут большой потенциал в формировании познавательных универсальных действий.

Основываясь на этом, важно разрабатывать педагогические стратегии, интегрирующие фонетические игры в учебный процесс для максимального развития когнитивных способностей учащихся.

В процессе обучения иностранному языку, применение педагогических стратегий для формирования познавательных универсальных учебных действий является важным аспектом. Одной из эффективных

методик является использование фонетических игр в учебном процессе.

Задачи в фонетических играх могут требовать анализа и синтеза звуков, способствуя развитию критического мышления. Создание условий для формирования познавательных универсальных учебных действий: «Педагогические стратегии должны акцентировать внимание на создании благоприятных условий для развития познавательных умений и общих учебных навыков у учащихся» [1].

Умение правильно произносить звуки и понимать фонетические тонкости является неотъемлемой частью развития компетентности в родном языке. Произношение правильных звуков, различение между ними и понимание их роли в языке способствуют эффективной коммуникации и ясному выражению мыслей.

Однако, в процессе обучения фонетике возникают определенные трудности, такие как неправильное произношение, затруднения в анализе звуков и их использовании в речи. В таких случаях применение педагогических стратегий и методов, основанных на фонетических играх, становится необходимым.

Результаты. "Фонетические игры на уроках родного языка предоставляют возможность обучения учащихся фонетике занимательным и интерактивным способом. Игры активизируют внимание и мотивацию, способствуют развитию слуховых и звуковых навыков, а также улучшению произношения и пониманию фонетических правил".[8] Анализ успешных методик и подходов позволит выработать рекомендации для педагогов и учителей по интеграции игровых элементов в учебный процесс. Этот аспект особенно важен в контексте формирования познавательной универсальной деятельности, поскольку игровые элементы способствуют развитию критического мышления, аналитических способностей и активному вовлечению студентов в учебный процесс.

Использование комбинаций познавательных стратегий при изучении иностранного языка: Важным аспектом является использование разнообразных стратегий усвоения иностранного языка, что способствует более эффективному формированию языковых навыков у учащихся [9].

Реализация стратегии формирования языковой компетенции у младших школьников: В учебном процессе важными компонентами являются знания, навыки, способности, языковая рефлексия и коммуникативно-личностные характеристики. Их комплексное развитие содействует формированию языковой компетенции у учащихся [10].

Содержание и формы организации образовательной деятельности при изучении иностранного языка: Исследования также подчеркивают важность разработки содержания и организации образовательной деятельности для эффективного обучения иностранному языку в начальной школе [11].

Итак, использование фонетических игр в сочетании с описанными стратегиями позволяет эффективно формировать познавательные универсальные учебные действия у учащихся в процессе изучения иностранного языка.

"Обучение фонетике через игровой подход способствует эффективному усвоению материала и позитивному отношению к учебному процессу" [7]. Влияние фонетических игр также проявляется в

социальной сфере: "Групповой формат игр способствует развитию коммуникативных навыков учеников, обучая их работе в команде, обмену мнениями и разъяснению своих идей" [4].

Использование игровых элементов в учебном процессе становится всё более актуальным и признанным педагогами и исследователями как эффективный метод обучения. Игры вносят в учебу элемент разнообразия и интерактивности, что может существенно повысить мотивацию учащихся и облегчить усвоение знаний.

Важность использования игровых элементов в учебном процессе подтверждается несколькими аспектами. Во-первых, игры способны существенно повысить мотивацию и вовлеченность учащихся. Интерес, вызванный игровыми элементами, позволяет ученикам с радостью и активностью участвовать в обучении. Они создают стимул для участия, способствуют формированию позитивной атмосферы на уроке и создают положительное отношение к учебному процессу.

Во-вторых, игры предоставляют возможность активного обучения. Ученикам предлагается применять знания и навыки в практических ситуациях, что требует принятия решений, решения задач, соревнований и сотрудничества. Это способствует развитию критического мышления, способности принимать решения и коммуникативных навыков.

В-третьих, игры способствуют повышению усваиваемости и запоминания материала. Элементы активного повторения и применения информации в играх способствуют более эффективному усвоению и закреплению знаний. Такой подход стимулирует учеников активно искать правильные решения, что в конечном итоге улучшает эффективность обучения.

В-четвертых, игры помогают развивать разнообразные навыки и компетенции, включая когнитивные (логическое мышление, решение проблем) и социальные (работа в команде, коммуникация, сотрудничество). Кроме

того, игры способствуют развитию моторики, координации движений и эмоционального интеллекта.

Наконец, игры создают расслабленную и позитивную атмосферу, что способствует снижению уровня стресса и тревожности учащихся. Это в свою очередь положительно сказывается на усвоении информации и повышении эффективности учебного процесса.

Использование фонетических игр на уроках родного языка позволяет преодолеть традиционные методы обучения и внести в учебный процесс элементы увлекательности и эмоциональной привлекательности. Они стимулируют интерес учеников к фонетике и эффективно содействуют развитию навыков правильного произношения, звуковой анализиции и уверенности в общении на родном языке.

Заключение. В заключение, применение фонетических игр представляет собой не только образовательную, но и развлекательную составляющую в процессе усвоения родного языка. Учеба становится не только эффективной, но и приятной, что содействует полноценному развитию учеников.

Использование игровых подходов в обучении фонетике преодолевает традиционные методы и способствует созданию стимулирующей и эффективной среды для развития навыков фонетики. Эти игры делают обучение интересным, практичным и взаимодейственным, способствуя лучшему усвоению и применению фонетических навыков в речи и коммуникации. Фонетические игры в образовательной практике представляют собой перспективный подход для формирования познавательных универсальных учебных действий. Педагогические стратегии должны быть направлены на интеграцию игровых методик в учебный процесс, создавая стимулирующую среду для обучения и развития учащихся.

ЛИТЕРАТУРА

1. A.M. Dedakhanov "Formation of cognitive universal educational activities of primary school students in teaching their native language." V. 2 | issue 4/2 ISSN 2181-1784 Scientific journal impact factor/sjif 2022:5.947asifactor = 1.7
2. A.M. Dedakhanov «Воспитание гражданской активности при формировании познавательных универсальных учебных действий»
3. A.M. Дедаханов «Роль фонетических игр в формировании познавательной УУД на уроках русского языка в начальных классах» 2023 год № 14 "Til va adabiyot- Преподавание языка и литература – Language and literature teaching" научно методический электронный журнал, стр.192-193
4. M.I.Jo'razoda «Методологические основы УУД» «Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlarini shakllantirish rivojlantirish va takomillashtirish nazariyasi va amaliyoti" Onlayn ilmiy amaliy konferensiya 2023 yil 31 mart
5. M.I.Jo'razoda «Методология универсальных учебных действий» "Ta'lim, fan va ishlab chiqarishning dolzarb muammolari" Respublika ilmiy amaliy konferensiya Namangan 2023 yil 7-8 noyabr
6. M.K.Жураева «Повышение результативности освоение навыка разговорной речи на русском языке с помощью аудирования, в дистанционном обучении.» УЧИНЧИ РЕНЕССАНС.№1. ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 ASI Factor = 1.7 Yanvar, 2021, 506 стр
7. M.K.Жураева «Роль и специфика русского языка в обучении студентов не филологических направлений» ORIENTAL RENAISSANCE № 3 2021Й. АПРЕЛЬ Impact Factor.4, 145 стр
8. cyberleninka.ru - "Формирование познавательных универсальных учебных действий..."
9. researchgate.net - "Комбинации познавательных стратегий при усвоении..."
10. cyberleninka.ru - "Реализация стратегии формирования языковой компетенции..."
11. dissercat.com - "Содержание и формы организации образовательной деятельности..."
12. elibrary.ru - "Формирование коммуникативных универсальных..."



UDK: 1.740

Oybek JUMAYEV,
Toshkent Amaliy fanlar universiteti o'qituvchisi
E-mail: oybekmaratovich8@gmail.com

TDIU "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasida dotsenti, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) D.Ernazarov taqrizi asosida

THE ISSUE OF YOUTH IN POVERTY REDUCTION IN UZBEKISTAN

Annotation

The article is about the problems that may arise in the reforms in reducing poverty that are related to the youth in the socio-economic policy of the Republic of Uzbekistan, their consequences, and the philosophical analysis and scientific basis of the measures recommended to fight against them. In order to reduce poverty, scientific conclusions and recommendations regarding education and healthcare are given on the example of young people.

Key words: Poverty, poverty reduction, youth, youth health, ignorance, health care, food, nutrition calorie, youth stratum, spiritual dissatisfaction, domestic disorders, negilst, spiritual and spiritual stability, intellectual competence, prosperous life.

ВОПРОС МОЛОДЕЖИ В СОКРАЩЕНИИ БЕДНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В статье речь идет о философском анализе и научной основе проблем, которые могут возникнуть при проведении реформ, связанных с вопросом о молодежи социально-экономической политике по сокращению бедности в Республике Узбекистан, ее последствиях и мерах, рекомендуемых для борьбы с ней. Даны научные выводы и рекомендации о процессах образования и здравоохранения для снижения бедности на примере молодежи.

Ключевые слова: Бедность, снижение бедности, молодежь, здоровье молодежи, невежество, здравоохранение, питание, калорийность питания, слой молодежи, духовная неудовлетворенность, бытовые неурядицы, негилст, морально-духовная стабильность, интеллектуальная компетентность, благополучная жизнь.

O‘ZBEKISTONDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDA YOSHLAR MASALASI

Annotatsiya

Maqola O‘zbekiston Respublikasida kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda yoshlar masalasiga oid islohotlarda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan mummolar, uning oqibatlari va unga qarshi kurashish bo‘yicha tavsiya etilayotgan chora-tadbirlarning falsafiy tahlili va ilmiy asoslari haqida. Yoshlarga misolida kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha ta‘lim va sog‘liqni saqlash sohasidagi jarayonlar bo‘yicha ilmiy xulosa va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Kambag‘allik, kambag‘allikni qisqartirish, yoshlar, yoshlar salomatligi, bilimsizlik, sog‘liqni saqlash, oziq-ovqat, ozuqa kalloriyasi, yoshlar qatlami, ruhan qonirmaslik, maishiy buzuq illatlar, negilst, ma‘naviy-ruhiy barqarorlik, intellektual salohiyat, farovon hayot.

Har qanday muammoni eshitganimizda yoki u haqida fikr yuritganimizda uning yechimini topish bo‘yicha rejalar tuzish va muhim qarorga kelish to‘g‘risida mulohaza yuritishni boshlaydi. Mavjud masalaning yechimi avvalambor xilma-xil fikrlar, qarama-qarshi tomonlarning kurashi jarayonida yagona bir to‘xtamga kelishi natijasida amalga oshib borishi maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy munosabat tizimida hal etilishi dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan xuddi shundan muammolardan biri bu kambag‘allikdir. Ayni zamonda kambag‘allikni qisqartirishga doir choralarni paysalga solinishi go‘yoki zanjir reaksiyasiga o‘xshab boshqa bir qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish masalasi shaffof, keng jamoatchilik va hukumat miqyosida ko‘rib chiqilishini lozim bo‘lgan masala sifatida namoyon bo‘ldi.

O‘zbekistonda respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil fevraldagi Parlamentga murojaatida birinchi marotaba O‘zbekistonda aholisining kambag‘al qatlami 12-15 foizi ya‘ni, 4,5 – 5 million nafarligini ta‘kidlagan edi. “Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, 12-15 foiz yoki 4,5-5 million aholimiz kambag‘al. Bu bir kunlik daromadi 10-13

ming so‘mdan oshmayapti, degani. Prezident sifatida meni odamlarimizning ovqatlanishi, davolanishi, bolalarini o‘qitishi, kiyintirishi kabi hayotiy ehtiyojlari nima bo‘layapti, degan savol har kuni qiynaydi”, – deydi. Davlat rahbarining ushbu murojaatidan so‘ng mavjud kambag‘allik muammosini har tomonlama puxta o‘rganish va tahlil qilish zaruratini ko‘rsatdi. Ayniqsa, u yoshlar bilan bog‘liq bo‘lganda alohida e‘tibor talab etadi. Shu maqsadda avvalambor kambag‘allik va yoshlar masalasining o‘zaro to‘qnashuvi uning o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish va ijtimoiy-falsafiy tahlil qilishni taqozo etadi.

Jumladan, kambag‘allikning yoshlar ta‘limi samaradorligini pasayishiga ta‘siri.

Bugungi kunda kambag‘allik inqiroz sifatida yosh avlodning kelajakdagi daromadlariga tahdid solmoqda. O‘smir va yoshlar o‘rtasida bilim olishga bo‘lgan e‘tiborning pasayishini bunga yaqqol misol qilishimiz mumkin. Bir qancha rasmiy tuzilmalar tomonidan yaqin kelajakda savodsizlik darajasi oshishi prognoz qilinmoqda. Xususan, jamiyat hayotida samarali ishtirok etish uchun o‘qish, yozish va matematik ko‘nikmalardan foydalana olmaydigan o‘quvchilar sonini ortishi kuzatilmoqda. Kambag‘allik muammosi bevosita ta‘lim tizimiga ya‘ni yoshlarga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi sir

emasligi jahon tajribasidan ma'lum. Masalan "YuNeSKO ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 750 mln kishi yozish va o'qishni bilmaydi. Bundan uchdan ikki qismini ayollar tashkil qilmoqda. Shu bilan birga oxirgi 50 yil ichida yoshlar o'rtasida savodxonlik darajasi oshayotgani qayd qilinmoqda.

Aniqlanishicha, savodsiz odamlarning 45 foizi Janubiy Osiyoda, 27 foizi Afrikada (Sahroi Kabirdan janubda), 10 foizi Sharqiy va va Janubi-sharqiy Osiyoda, 9 foizi Shimoliy Afrika va G'arbiy Osiyoda, 4 foizi Lotin Amerikasi va Karib dengizi davlatlarida yashaydi". Savodsizlik asosan aholining qashshoq va kambag'allik darajasi yuqori mamlakatlar hisobiga to'g'ri kelmoqda.

"World Population Review 154 ta davlat orasida savodxonlik darajasi bo'yicha reytingni aniqlagan. Unda O'zbekistonning reyting ko'rsatkichi 100%ni tashkil etmoqda". Lekin aholi kambag'alligining 12-15 foizni tashkil etishi bilim olishga to'sqinlik qiladigan omil sifatida ta'lim samaradorligining pasayishiga ta'sir qiladi. Bu ta'limdagi kambag'allikni yo'q qilish, zaif o'quvchilar uchun teng imkoniyatlarni yaratish va inkluzivlikni rivojlantirishda qiyinchiliklarga duch kelish deganidir. Xususan, Jahon banki xabarlariga ko'ra, "Daromadi turlicha bo'lgan oilalardan bo'lgan o'quvchilar o'rtasidagi ta'lim olishdagi tafovut o'sib borayotgani, ayniqsa, tashvishga solmoqda. Bu o'qituvchilar va o'quvchilar uchun masofadan turib o'qitish va o'quv materiallaridan foydalanish imkoniyatlaridagi farqlar, shuningdek, o'qituvchilarning qo'llab-quvvatlashlari va ta'lim olishda oilaning hissasi kabi bir qator omillar sababli yuzaga kelmoqda".

Ekspertlarning fikricha, mamlakatlar ta'lim uchun budjetdan ajratiladigan mablag'ni saqlab qolishi, masofaviy o'qitish sifatini oshirishi, ta'lim dasturlarida nafaqat bilimlarga, balki qobiliyat va ko'nikmalarni rivojlantirishga urg'u berish, o'quv vaqtidagi yo'qotishlarni qoplash uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqish lozimligini belgilamoqda.

Kambag'allik muammosining yoshlar salomatligini saqlashga salbiy ta'siri.

Umuman olganda jahonda demografik jihatdan yoshlar qatlami juda kattadir. 10 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan aholining dunyo bo'lab umumiy soni 1,2 milliard kishiga yetdi va bu ko'satkich yoshlar soni bo'yicha tarixdagi eng katta ko'rsatkichdir. O'zbekistonda 10-19 yoshdagi qariyb 5.36 million yigit-qizlar, bu aholining 17% ni tashkil etadi.

Bugun O'zbekistonda 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar aholining 60 foizini tashkil qiladi. O'zbekistonda ta'lim oluvchi yoshlar jami aholining qariyb yarmini tashkil etishini inobatga olsak mamlakatlaridagi ta'lim, inson kapitali sifati va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga uzoq muddatli ta'sir ko'rsatishini belgilaydi. Aholining titil tarkibini yoshlar tashkil qilar ekan mamlakat ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohasidagi har qanday jarayonlar ularning turmush tarziga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, yoshlar salomatligi unga ta'sir etuvchi salbiy omillarni bartaraf etishga xalqaro va hukumat darajasida hal qilinadigan dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Ayniqsa unga kambag'allik muammosi tahdid solib tursa.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, "har kuni 3000 dan ortiq o'smirlar oldini olish mumkin bo'lgan sabablar tufayli vafot etmoqda. Bularning uchdan ikki qismi past va o'rta daromadli mamlakatlarga to'g'ri keladi". Kelajakda, katta yoshda ro'y beradigan kasalliklar uchun asosiy xavf omillari o'smirlar davrida boshlanadi yoki rivojlanadi. Yuqorida keltirilgan raqamlardan shuni anglash mumkinki, kambag'allik muammosi yoshlar sog'lig'iga aloqador quyidagi salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin.

kundalik ehtiyojlar uchun belgilangan me'yordagi ozuqa kallyoriyasiga ega bo'lmagan ovqatlanish;

sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yish uchun mavjud imkoniyatlardan foydalana olmaslik;

o'smir-yoshlar ongida turmush tarzidan ruhan qonirmaslik oqibatida maishiy buzuq illatlar girdobiga tushishi; eng muhimi yoshlarning kelajagiga bo'lgan ishonchining so'nishi va negilst qarashlarni shakllantirishi mumkin.

Sog'lom ma'naviy-ruhiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan har qanday chora-tadbirlar o'zaro manfaatdor tomonlarning xususan, yoshlar va davlat o'rtasidagi izchil munosabatlarni mustahkamlaydi.

O'zbekistonda kambag'allik muammosini bartaraf etish uchun yoshlar salomatligi bilan bog'liq jarayonlarga katta e'tibor berilishi, ushbu masalaga kompleks yondashish zarurligini belgilamoqda. Yoshlarning sog'lig'iga tizimli yondashuv va o'z vaqtida sarmoyalar kiritish ko'p marotaba foyda keltirishi mumkin. Bu esa ularning salomatligini ta'minlanishiga, intellektual salohiyatni oshishiga, yurt tichligi, vatan ravnaqi rivoji uchun beqiyos hissa qo'shishiga hamda o'sib kelayotgan yangi avlodning barkamol ulg'ayishini xizmat qiladi.

Kambag'allikka barham berishning istiqboli chora-tadbirlarning uzviyligini ta'minlashda hamda yoshlarning farovon hayotini kafolatlaydigan samarali rejalarni ishlab chiqish lozim. Yangi O'zbekiston sharoitida bugungi yoshlar mamlakat tarixidagi eng katta ishchi kuchiga aylangan. Demakki, yoshlarni rivojlantirishga qaratilgan siyosat va ular uchun kiritilgan investitsiyani to'g'ri sarflanishi, O'zbekistonni yangi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga olib chiqadigan avlod bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida "Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi" deb qo'yilgan bugungi kunda aholining turmushi uchun iste'mol xarajatlarining oshirib borilishini quyida keltirilgan ma'lumotlar orqali tahlil qilishimiz mumkin. "2021-yil may oyida birinchi marta minimal iste'mol xarajatlari hisoblangan va 440 ming so'mni tashkil etgandi". "2022-yil boshida yangilangandi va bir kishi uchun minimal iste'mol xarajatlarining yangi miqdori 13,2 foizga oshib, 498 ming so'mni tashkil etdi". "2023-yil uchun hisoblangan minimal iste'mol xarajatlari qiymati bir oyda kishi boshiga 568 ming so'm bo'lgan bo'lsa," "2024-yil uchun hisoblangan minimal iste'mol xarajatlari qiymati bir oyda kishi boshiga 621 ming so'mni tashkil etdi (kuniga 20,7 ming so'm), deya xabar berdi Statistika agentligi".

Tahlillar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan islohotlarning yoshlar hayotiga salbiy ta'sirini kamaytirishga erishish O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladigan muhim omillardan biridir.

Xususan, birinchidan mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning uzviy borishiga barqarorlashiradi.

Ikkinchidan fuqarolar o'rtasida ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va ma'naviy munosabatlar muhitini yanada yaxshilaydi.

Uchinchidan inson intellektual salohiyatini oshishi, yaratuvchanlik va ijodkorlik imkoniyatlarini yuksaltiradi.

To'rtinchidan xalqaro davlatlararo o'zaro ishonch munosabatlar tizimini yaxshilanishiga ta'sir ko'satadi.

Beshinchidan inson omili uchun sarflanadigan investiya muhiti jozibadorligini oshishiga xizmat qiladi.

Oltinchidan hayotidan rozilik, shukronalik va baxtiorlik hissi bilan yashash tuyg'ularini yuksalishiga xizmat qiladi deb ayta olishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020 yil fevraldagi parlamentga Murojaati.president.uz
2. <https://kun.uz/uz/news/2018/09/09/duneda-750-mln-kisi-savodsiz-ekani-malum-kilindi>
3. <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/literacy-rate-by-country>
4. <https://daryo.uz/2020/08/06/jahon-banki-pandemiya-markaziy-osiyoda-savodsizlik-darajasi-oshishiga-olib-kelishi-mumkin>
5. <https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/ekspertlar-ozbekistondagi-osmirlar-salomatligini-yaxshilash-masalalarini-muhokama-qilishdi>
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T: 2023.18-b.
7. <https://www.gazeta.uz/uz/2021/05/31/minimal/>
8. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/01/09/min-cost/>
9. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/07/18/min-cost/>
10. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/01/22/mcc>



UDK:159.922.6

Bahrom JO'RAYEV,
Qarshi davlat universiteti dotsenti, psixologiya fanlari doktori, (DSc)
E-mail: bahrom.jurayev3404@mail.ru

Professor, psix.f.d. (DSc) Rasulov.A taqrizi asosida

O'SPIRINLARDA HUQUQIY SAVODXONLIK SHAKLLANISHIDA PSIXIK JIHLARNING AHAMIYATINI TADQIQ ETISH

Annotatsiya

Maqolada o'spirinlarda huquqiy savodxonlik shakllanishida psixik jihatlarni ahamiyatini baholash hamda o'quvchilarning huquqiy tushunchalarni o'zlashtirishga nisbatan psixologik tayyorlik holatini rivojlanishi, ularning tafakkur xususiyatlarini aniqlash, fikrlash jarayoni voqea-hodisalarni tahlil qilish va huquqiy savodxonligi shakllanishi sharoitida huquqiy bilimning ahamiyati va o'rni qanday ekanligi tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Huquq, huquqiy savodxonligi, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy tushuncha, qadriyat, norma, qarash, erkinlik, majburiyat, g'oya, baho, tasavvur, qonun, munosabat, oqibat.

ИССЛЕДОВАНИЕ ЗНАЧЕНИЯ ПСИХИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ В ФОРМИРОВАНИИ ПРАВОВОЙ ГРАМОТНОСТИ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация: В статье рассматривается оценка значимости психических аспектов в формировании правовой грамотности у подростков и развитие состояния психологической готовности учащихся к усвоению правовых понятий, выявление особенностей их мышления, процесса мышления, значение и роль правовых знаний в условиях анализа событий и формирования правовой грамотности.

Ключевые слова: Право, правовая грамотность, правовая культура, правосознание, правовое понятие, ценность, норма, видение, свобода, обязанность, идея, оценка, воображение, закон, отношение, следствие.

RESEARCH ON THE IMPORTANCE OF PSYCHIC ASPECTS IN THE FORMATION OF LEGAL LITERACY IN ADOLESCENTS

Annotation

The article examines the importance of psychic aspects in the formation of legal literacy in adolescents and what is the significance and role of legal knowledge in the context of the development of the state of psychological readiness of students in relation to the assimilation of legal concepts, identification of their thinking characteristics, analysis of phenomena and the formation of legal literacy in adolescents.

Key words: Law, Legal Literacy, legal culture, legal consciousness, legal concept, value, norm, vision, freedom, commitment, idea, assessment, imagination, law, attitude, consequence.

Kirish. Respublikamizda so'ngi yillarda yoshlarning huquq va erkinliklari, ijtimoiy faolligini oshirish, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi ishtirokini kuchaytirish, ta'lim olishi, turmush tarzini yaxshilashga yo'naltirilgan huquqiy-meyoriy asos yaratildi. «Yoshlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan yo'nalishida: yoshlarga oid normativ-huquqiy hujjatlarining yagona elektron bazasini shakllantirish va yangilanib borishini ta'minlash; qonun ijodkorligida yoshlarning yaqindan ishtirokini ta'minlash; jumladan, voyaga yetmaganlar, o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish bo'yicha ta'sirchan mexanizmlarning aniq choralarini ishlab chiqish...» vazifalar ijrosini ta'minlashda o'spirinlarning huquqiy savodxonligini kuchaytirishning psixologik omillarini aniqlash shakllanishining psixologik mexanizmlarini aniqlash va takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish uchun mustahkam asos yaratildi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. «Huquqiy savodxonlik» tushunchasini ilmiy sohada, xususan psixologiyada ham aniqlashtirish masalasida turli adabiyotlarda turlicha fikrlar mavjudligini kuzatish mumkin. Shunday bo'lsada ilmiy

adabiyotlardagi «huquqiy savodxonlik» tushunchasiga berilgan tasniflarni umiylashtirgan holda huquqiy savodxonlikni huquqiy vaziyatlarda o'z faoliyatida huquqiy normalarni tushunish, huquqiy bilimlarni egallanganlikni tavsiflovchi va buni huquqiy faoliyatda namoyon qiluvchi tavsiflovchi tushunchadir[2].

Ko'plab mutaxassislar tomonidan huquqiy savodxonlikning asosiy vazifalari ajratilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat[3]:

Huquqiy savodxonlikning ta'limiy vazifasi. Yuridik bilimlarning miqdorini ta'minlovchi vazifasi.

Huquqiy savodxonlikning baholovchi vazifa. Aniq vaziyat va holatga nisbatan subyektning emotsional munosabatini belgilovchi vazifadir.

Huquqiy savodxonlikning nazorat vazifasi. Huquqiy ustanovkalar, huquqiy qadriyatlarni, huquqiy yo'nalganlikni ta'minlovchi vazifa. Mazkur vazifaning natijasi huquqiy yoki huquqiy normaga zid holdagi xulq-atvor hisoblanadi.

Inson kamoloti ko'pgina omillarga bog'liqdir. Uning ma'naviy, axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar xilma xildir. Tadqiqotning ushbu bosqichida o'spirinlar huquqiy savodxonligi bilishga bo'lgan

so'rovnomadan foydalanildi. Shaxsning ma'naviy kamoloti va ijtimoiylashuvi murakkab va o'ziga xos jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonda shaxsning ijtimoiylashuvini belgilovchi qator jihatlar mavjudki, ularni inobatga olmasdan turmush tarzini bir tizimga solib bo'lmaydi.

Tadqiqot metodologiyasi, tahlil va natijalari.

O'spirinlarda huquqiy savodxonlik shakllanishining psixologik asoslarini o'rganish bo'yicha tadqiqotning navbatdagi bosqichida psixik jihatlarining ahamiyatini o'rganishga e'tibor qaratdik. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotning birinchi bosqichida o'spirinlarning huquqiy savodxonlik darajalarining kognitiv, xulqiy va emotsional-baholash komponentlari bo'yicha yuqori, quyi va o'rtacha darajalarining umumiy holati bo'yicha tafakkur uslublarini aniqlashga e'tibor qaratildi.

1-jadval

O'spirinlarning tafakkur uslubi va kreativlikni aniqlash metodikasining normal taqsimlanish bo'yicha ko'rsatkichlari (Kolmogorov-Smirnov mezoni bo'yicha, n=317)

Ko'rsatkichlar	Predmetli tafakkur	Simvolik tafakkur	Belgili tafakkur	Obrazli tafakkur	Kreativlik
X	8,76	8,49	9,33	10,02	9,15
σ	1,17	1,27	1,18	3,12	1,26
Z	3,721	3,975	3,617	5,264	3,197
p	0,000***	0,000***	0,000***	0,000***	0,000***

Izoh: *p<0,05, **p<0,01, ***p<0,001

"Tafakkur tiplari va kreativlikni aniqlash" metodikasi shkalalarining normal taqsimlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish jarayonida quyidagi natijalar aniqlandi (5.2.1.1-jadval). "Predmetli tafakkur" (Z=3,721;p<0,001), "Simvolik tafakkur" (Z=3,975;p<0,001), "Belgili tafakkur" (Z=3,617;p<0,001), "Obrazli tafakkur" (Z=5,264; p<0,001), "Kreativlik" (Z=3,197;p<0,001) shkalalarining natijalari normal taqsimlanish qonuniga mos kelmasligi aniqlandi. Ushbu mezonga ko'ra metodikaning tadqiqotidan olingan natijalarini keyingi bosqichlarda noparametrik statistik mezonlardan foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

2-jadval

O'spirinlarning huquqiy savodxonlik darajasiga ko'ra tafakkur uslubi va kreativlikning namoyon bo'lish ko'rsatkichlari

Tafakkur tiplari	O'rtacha rang ko'rsatkichi			H (Kраскел-Уоллис)	p
	Yuqori huquqiy savodxonlikka ega N=60	O'rtacha huquqiy savodxonlikka ega N=488	Quyi huquqiy savodxonlikka ega N=69		
Predmetli tafakkur	193,90	154,22	162,37	5,658	0,05*
Simvolik tafakkur	179,58	158,29	145,84	2,462	0,292
Belgili tafakkur	184,35	160,18	128,07	6,822	0,033*
Obrazli tafakkur	165,44	156,60	170,53	0,928	0,629
Kreativlik	155,08	158,01	169,57	0,584	0,747

Izoh: *p<0,05

ijtimoiy va huquqiy jihatdan yechim topishga asoslangan shablonlari mavjud. Bu shablonlar meyoriy-qonuniy hujjat sifatida shakllantirilgan. Albatta har bir meyoriy-hujjatlarda ko'rsatilgan moddalar tafakkur asosida chiqarilgan hukm va xulosalardan iborat. Masalaning ushbu jihatini inobatga olgan holda o'spirinlarning huquqiy savodxonligi qaysi tafakkur tipini yetakchiligi aks ettirishini aniqlashga erishildi.

O'spirinlarning tafakkur tipi bilan savodxonlik darajalariga ko'ra ifodalanishi o'rganildi. O'spirinlarning tafakkur tipi bilan savodxonlik darajasi o'rtasida ikkita ahamiyatli ko'rsatkich aniqlandi. Birinchi holatda predmetli tafakkur tipi aynan huquqiy savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan o'spirinlarda aks etdi (N=5, 658, p<0,001). Bundan ko'rinadiki, huquqiy savodxonligi yuqori bo'lgan o'spirinlar amaliy tafakkurga ega bo'lgan insonlar bo'lib, ular obyektiv fikrlashni afzal ko'radilar. Bu obyekt bilan makon va vaqtidagi uzviy bog'liqlik, obyektiv harakatlar yordamida axborotni o'zgartirishni amalga oshirish va operatsiyalarni ketma-ket

Ikkinchi holatda esa o'spirinlarning asab tipi xususiyatlarining huquqiy bilimlarni o'zlashtirishdagi ahamiyati tadqiq etildi. Shu bois ushbu paragrafda o'spirinlarning huquqiy savodxonligini shakllanishida psixik jihatlarining ahamiyati Dj.Brunerning "Tafakkur tiplari va kreativlikni aniqlash" metodikasi yordamida aniqlandi. So'ngra metodika natijalari huquqiy savodxonlik darajasining yuqori, o'rta, quyi darajasiga mansub o'spirinlarni tiplashtirish asosida o'zaro tahlili amalga oshirildi. Dastlab metodika natijalarini o'spirinlarning tafakkur uslubidagi ahamiyatlilik darajalarini topishda qaysi mezonga tayanishni aniqlash uchun birlamchi natijalarni Kolmogorov-Smirnovlarning normal taqsimlanish mezoni bo'yicha qayta ishlandi Ushbu yo'nalishda qo'lga kiritilgan empirik ko'rsatkichlar navbatdagi 1-jadvalda ifodalangan.

Metodikaning o'spirinlar huquqiy savodxonligi darajalari bo'yicha ifodalanishini quyidagi 2-jadvalga keltirildi.

Huquqiy savodxonlik darajasi va tafakkur uslubi bo'yicha ko'rsatkichlarning mosligi N (Kраскел-Уоллис) mezoni bo'yicha taqqoslandi. Metodikaning empirik qiymatlarini sharhlashdan oldin shaxsning huquqiy savodxonligi uchun muhim jihatlardan biri insondamenti mulohazaning zarurligidir. Chunki insonning kundalik turmushida huquqiy hodisalar mantiqiy va mavhum tafakkur xossalari bilan bog'liq ekanligini unutmazlik zarur. Ushbu xulq-atvor vaziyatlar yechimini topishda

bajarish bilan tavsiflanadi. Konvertatsiya qilishda jismoniy cheklovlar mavjud. Ushbu turdagi fikrlashning natijasi yangi tuzilmalarda mujassamlangan mulohazalar hosil qiladi. Hattoki o'spirinlarning ko'pchilik qismi huquqiy savodxonlikka bo'lgan zarurat amaliy faoliyat bilan bog'liqligini bejizga bayon etmadilar.

Ikkinchi toifa o'spirinlar savodxonlik darajasi bilan bog'liq bog'liq farqni belgili tafakkur tipida kuzatildi. Huquqiy savodxonligi yuqori bo'lgan o'spirinlar qolgan ikki toifadan belgili tafakkur ko'rsatkichlarida ham ahamiyatlilik farqiga ega bo'ldi (N=6,822, p<0,001). Bu esa o'spirinlarning gumanitar aql-zakovat egalari sifatida belgili fikrlashni afzal ko'radilar. Ular xulosalar yordamida axborotni o'zgartirish bilan tavsiflanadi. Belgilar bitta grammatika qoidalariga muvofiq kattaroq birliklarga birlashtiriladi. Natijada, belgilangan obyektlar o'rtasidagi muhim munosabatlarni o'rnatadigan tushuncha yoki bayonot ko'rinishidagi fikr paydo bo'ladi. Ushbu o'rinda huquqiy savodxonlik darajasi yuqori o'spirinlarda predmetli, belgili tafakkur tipining xosligi

ularning ta'rifiga ko'ra ijobiy mantiqiy mulohaza va xulosalarni chiqarishga mansubliklarini ko'rsatmoqda.

Simvolik tafakkur, obrazli tafakkur tiplari va kreativlik o'spirinlar huquqiy savodxonlik darajalarining barchasiga xos ekan. Masalan, hattoki ahamiyatlilik farqi bo'lmsa-da, obrazli tafakkur tipi bo'yicha huquqiy savodxonlik quyi darajada bo'lgan o'spirinlarda nisbatan yuqori natija kuzatildi (N=0,928). Obrazli tafakkur tipi yetakchilik qilgan o'spirinlarda badiiy tafakkurga ega odamlar majoziy fikrlash turini afzal ko'radilar. Bu makon va vaqtdagi subyektdan ajralish, tasvirlar bilan harakatlar orqali ma'lumotni o'zgartirishni amalga oshirishdir. Operatsiyalar ketma-ket va bir vaqtning o'zida amalga oshirilishi mumkin. Natijada yangi tasvirda mujassamlangan fikrlar vujudga keladi. Shu o'rinda bir jihatni inobatga olish lozim o'spirinlar huquqiy savodxonlikda huquqiy ijodkorlik yetishmayotganligini qayd etgan edilar. Bu holat aynan o'spirinlarning hali meyoriy-huquqiy hujjatlar bo'yicha o'zlarining yakdil fikrlariga ega emasliklarini ko'rsatmoqda.

Xulosa. Yuqoridagi amaliy o'rganish natijalariga asoslanib, o'spirinlarda huquqiy savodxonlikni shakllanishida predmetli tafakkur va belgili tafakkurning shakllanganligi muhim ekan. O'spirinlar huquqiy savodxonligini o'stirishda predmetli tafakkur bilan belgili tafakkurni ahamiyatini inoabtga olish o'rinlidir. O'spirinlarning tafakkur tipi bilan savodxonlik darajasi o'rtasida ikkita ahamiyati ko'rsatkich aniqlandi. Birinchi holatda predmetli tafakkur tipi aynan huquqiy savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan o'spirinlarda aks etdi. Huquqiy savodxonligi yuqori bo'lgan o'spirinlar amaliy

tafakkurga ega bo'lgan insonlar bo'lib, ular obyektiv fikrlashni afzal ko'radilar. Ular obyekt bilan makon va vaqtdagi uzviy bog'liqlik, obyektiv harakatlar yordamida axborotni o'zgartirishni amalga oshirish va operatsiyalarni ketma-ket bajarish bilan tavsiflanadi. O'spirinlarning ko'pchilik qismida huquqiy savodxonlikka bo'lgan zarurat amaliy faoliyat bilan bog'liq ekan.

Natijada, belgilangan obyektlar o'rtasidagi muhim munosabatlarni o'rnatadigan tushuncha yoki bayonot ko'rinishidagi fikr paydo bo'ladi. Ushbu o'rinda huquqiy savodxonlik darajasi yuqori o'spirinlarda predmetli, belgili tafakkur tipining xosligi ularning ta'rifiga ko'ra ijobiy mantiqiy mulohaza va xulosalarni chiqarishga mansubliklarini ko'rsatdi.

Tavsiya. O'spirinlar huquqiy savodxonligini shakllan-ganlik holati monitoringi uchun psixodiagnostikasi bazasini ishlab chiqish zarur.

O'spirinlarda huquqiy savodxonlikni shakllanish jarayoni samaradorligini ta'minlash uchun ontogenetik bosqichlariga muvofiq o'quv materiallarini shakllantirishni e'tiborga olish zarur.

O'quv jarayoni va ta'lim muhitidan tashqari huquqiy tadbirlarni yo'lga qo'yish orqali o'spirinlarda huquqiy savodxonligini shakllantirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash mumkin bo'ladi.

O'spirinlik yoshiga xos huquqiy o'quv materiallarida psixotexnologiya usullarini sindirib borish o'quv materiallarini o'zlashtirish imkoniyatini oshirishligi inobatga olib, huquq ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda bunday jihatlarni inobatga olish muhimdir.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 18 январдаги «Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини 2025 йилгача ривожлантириш концепцияси тасдиқлаш тўғрисида»ги 23-сон қарори. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.01.2021 й., 09/21/23/0056-сон, Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 05.04.2022 й., 09/22/153/0266-сон; 10.08.2022 й., 09/22/438/0726-сон. - <https://lex.uz/ru/docs/5234746>
2. Лазарев В.В. Общая теория права и государства: учебник / В.В. Лазарев. – М.: Юристъ, 2002. 243 с.
3. Каминская В.И. Правосознание как элемент правовой культуры. Правовая культура и вопросы правового воспитания / В.И. Каминская, А.Р. Ратинов. – М., 1974. 57 с.
4. Jurayev Bahrom. Yuridik psixologiya Qarshi "Fan va ta'lim" nashriyoti 2022-yil. 220-bet.
5. <https://4brain.ru/blog/sovremennye-vidy-gramotnosti/>
6. https://professional_education.academic.ru/
7. www.psixo.ru



Shahina JO'RAYEVA,
O'zDJTU tadqiqotchisi
E-mail:Shahina7799@mail.ru

S.f.n. Z.Zamonov taqrizi asosida

GLOBAL ENVIRONMENTAL ISSUES AND COOPERATION BETWEEN THE EUROPEAN UNION AND THE CENTRAL ASIAN COUNTRIES

Annotation

The scope of the European Union's international environmental policy is expanding. In particular, cooperation with the countries of Central Asia is being strengthened. This is of particular importance in the context of increasing risks of global environmental processes. The EU has taken a number of decisions to improve environmental conditions in Central Asia until 2050, providing technical assistance in studying climate change and water issues. Taking into account the characteristics of the countries of the region and the natural conditions of their needs, they provide practical assistance and appropriate financing measures. The article analyzes these and a number of other aspects of cooperation.

Key words: Communication, interest, indicative, region, program, strategy, integration, natural environment, infrastructure, energy, security, consensus.

ГЛОБАЛЬНЫЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ И СОТРУДНИЧЕСТВО ЕВРОПЕЙСКОГО СОЮЗА СО СТРАНАМИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Аннотация

Масштабы международной политики Европейского Союза в области экологии расширяются. В частности, укрепляется сотрудничество со странами Центральной Азии. Это приобретает особое значение в условиях повышения рисков глобальных экологических процессов. ЕС принял ряд решений по улучшению экологических условий в Центральной Азии до 2050 года, предоставляя техническую помощь в изучении изменения климата и водных проблем. Учитывая особенности стран региона, естественные условия их потребностей, они оказывают практическую помощь и соответствующие меры финансирования. В статье анализируются эти и ряд других аспектов сотрудничества.

Ключевые слова: Коммуникация, интерес, индикатив, регион, программа, стратегия, интеграция, природная среда, инфраструктура, энергетика, безопасность, консенсус.

GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLAR VA YEVRONA ITTIFOQINING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI BILAN HAMKORLIGI

Annotatsiya

Yevropa Ittifoqi ekologiya sohasidagi xalqaro siyosatining ko'lami tobora oshib bormoqda. Jumladan, Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorligi mustahkamlanmoqda. Global ekologik jarayonlar xavfi oshib borayotgan bir sharoitda bu alohida ahamiyatga ega. YIning 2050 yilga qadar Markaziy Osiyo ekologik sharoitini yaxshilash, iqlim o'zgarishi va suv muammolarini o'rganish borasida texnik ko'mak berish masalalariga doir bir qator qarorlar qabul qildi. Mintaqadagi mamlakatlar xususiyatlarini, ehtiyojlari tabiiy sharoitidan kelib chiqib amaliy yordam berish, tegishli miqdorda moliyalashtirish choralarini ko'rmoqda. Maqolada hamkorlikning ushbu va bir qator boshqa jihatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Kommunikatsiya, manfaat, indikativ, mintaqa, dastur, strategiya, integratsiya, tabiiy muhit, infratuzilma, energetika, xavfsizlik konsensus.

Kirish. Yevropa Ittifoqining tashqi siyosat ko'lami g'oyat keng qamrovli bo'lib, dunyoning deyarli barcha mintaqalarini qamrab oladi. Markaziy Osiyoga nisbatan strategik munosabati Yevropa Ittifoqi Vazirlar Kengashi va Yevropa Komissiyasi tomonidan qabul qilingan bir qator hujjatlarda o'z aksini topgan.

Yevropa Ittifoqi Komissiyasi o'zining "Markaziy Osiyoning yangi mustaqil davlatlar bilan aloqalar to'g'risidagi Kommunikatsiya"sida, bu haqda alohida to'xtalib o'tadi.

Kommunikatsiyada Ittifoq Markaziy Osiyoda muhim manfaatlarga ega. Bu manfaatlar ham iqtisodiy, ham geosiyosiy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mazkur mintaqani xizmatlar, turli jihozlar, sarmoya kapitalari bilan ta'minlab turuvchi Yevropa Ittifoqi ham ayni vaqtda, mintaqadan chiquvchi energiya mahsulotlarining sezilarli imkoniyatlarga ega bo'lgan

iste'molchisidir. Bu hududda energetika sektorining rivojlanishidan alohida manfaatdorligi qayd etiladi.

Mavzuga oid manbalar tahlili. Ekologik inqirozlarni o'rganish, ayniqsa, XX asrda ilm-fanning jiddiy muammosiga aylandi. Chunki bu davrga kelib insoniyatning atrof-muhitga bo'lgan antropologik ta'siri yaqqol namoyon bo'la boshladi. Jamiyat, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar ijtimoiy-gumanitar fanlarning tadqiqot obyektiga aylandi. Xususan, M. Haydegger, O. Shpengler, N. Berdyayev, F. Fukuyama, P. Byukennen, G. Kissenjer asarlarida ekologik inqirozning ijtimoiy-siyosiy mohiyati, insoniyat atrof-muhitni himoya qilish barqaror taraqqiyotining muhim omili sifatidagi jihatlari chuqur tadqiq etilgan.

Yevropa tomonidan 2002-yil 30-oktyabrda qabul qilingan yana bir hujjat "Markaziy Osiyo uchun 2002-2006

yillar strategik hujjati va 2002-2004 yillar uchun Indikativ dasturi” deb ataladi. Kengashning 99/2000-sonli reglamenti (“Council Regulation (EC, EURATOM), No 99/2000 of 29 December 1999 concerning the provision of assistance to the partner States in Eastern Europe and Central Asia”) unga huquqiy asos bo‘lib xizmat qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Markaziy Osiyo uchun 2002-2006 yillar strategik hujjati va 2002-2004 yillar uchun Indikativ dasturi Kommunikatsiyaning asosiy qismi olti yo‘nalishdan iborat. Jumladan, Yevropa Ittifoqi/Yevropa hamjamiyatlarining hamkorlikdan ko‘zlangan maqsadlari, Markaziy Osiyo siyosiy kalendari, Mintaqadagi vaziyatning tahlili, mintaqa davlatlari bilan YI olib borgan va borayotgan hamkorlik va donorlarning faoliyati, Hozirgi vaziyatda YIning Markaziy Osiyoga qaratilgan strategiyasi va nihoyat, Markaziy Osiyo bo‘yicha 2008–2015-yillar uchun indikativ dastur.

Ushbu hujjatning dastlabki ikki qismida YIning Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikdan ko‘zlangan maqsadlari hamda ushbu mintaqa davlatlarida yuz berayotgan siyosiy o‘zgarishlar bayon qilinadi. Shu bilan birga, ushbu hujjatning asosiy qismi mintaqaqa Yevropa tomonidan texnik yordam berish jarayonida qo‘lga kiritilgan tajriba va saboqlarni qayd etishga hamda Markaziy Osiyo davlatlariga boshqa donorlar tomonidan berilayotgan yordam dasturlarini inobatga olgan holda texnik yordam ko‘rsatishning yangi strategiyasini bayon qilishga qaratilgan.

Kommunikatsiyaning o‘ziga xos tomonlaridan biri shundaki, unda Markaziy Osiyoga yagona bir mintaqa sifatida yondashuv ustuvorlik qiladi. Misol uchun, hujjatda mazkur mintaqa davlatlari bir-biridan farq qilsa-da, ularning oldida deyarli bir xil va umumiy vazifalar turganligiga bir necha bor urg‘u berib o‘tilgan.

Bundan tashqari, YI tomonidan ko‘rsatilayotgan texnik yordam sezilarli darajada katta bo‘lsada (hujjatda keltirilishicha, o‘tgan o‘n yil mobaynida YI Markaziy Osiyo davlatlariga hammasi bo‘lib 994,4 million yevro miqdorida yordam ko‘rsatgan), uni amalda boshqa donorlar tomonidan ko‘rsatilayotgan yordam oldida yaqqolroq namoyon qilinmagani e‘tirof etiladi. Ularning xulosalariga ko‘ra, Yevropa tomonidan ko‘rsatilayotgan yordam boshqa donorlar yordami bilan birgalikda ko‘proq samara berishi mumkin. Ta‘sis dasturlari orqali shu kungacha ko‘rsatilgan yordam endilikda aniqroq maqsad sari yo‘naltirilishi kerak va sherik davlatning ehtiyojlariga manzilli sarflangan bo‘lishi lozim.

Mintaqaviy darajada asosiy e‘tibor davlatlar orasida yaqin qo‘shnichilik prinsiplariga mos ravishda hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash va bunda YI strategik manfaatlariga ega bo‘lgan sohalarda (transport va energetika infratuzilmalari, tabiiy zahiralardan oqilona va samarali foydalanish, tabiiy muhitni himoya qilish bo‘yicha xalqaro hujjatlarni implementatsiya qilish, adolat va ichki ishlar) alohida o‘rin tutishi ta‘kidlab o‘tilgan.

Davlatlar darajasida iqtisodni jahon hamjamiyatiga integratsiya qilishga, iqtisodiy islohotlar va savdo-sotiqni erkinlashtirish sohasiga alohida e‘tibor qaratilgan. Bundan tashqari, ta‘lim sohasi, ayniqsa, oliy va umumiy hamda kasbhunar ta‘limi, tibbiy xizmat alohida e‘tiborga, amaliy yordamga muhtojligi qayd etilgan.

Keyingi eng muhim sohalardan biri sifatida qashshoqlikni kamaytirish vazifasi ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu sohadagi yordam dasturi asosan mintaqaning ijtimoiy vaziyat ancha qaltis bo‘lgan hududlarida, xususan, aholi zich joylashgan Farg‘ona viloyatida bir qator loyihalarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi.

Strategiya bo‘yicha hujjatga ilova qilingan Indikativ dasturda shu uchta vazifa: “mintaqaviy hamkorlik”, “davlatlar darajasida amalga oshirilayotgan dasturlarni ehtiyoj yuqori bo‘lgan mintaqalarga qaratish” va “ijtimoiy tang ahvoldagi aholiga mo‘ljallangan qashshoqlikni kamaytirish loyihalari”ga aniq va batafsil izoh berilib, ularning amalda bajarilishi va kutilayotgan natijalar bayon etilgan. Ushbu vazifalarni bajarish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan aniq maqsadlar bayon etilgan. Masalan, asosiy vazifalardan biri sifatida davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlarni qo‘llab-quvvatlash belgilangan.

Kommunikatsiya 2008–2015 yillarda amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan Indikativ dastur uchun jami 150 million yevro ajratilgani ko‘rsatilgan. Markaziy Osiyo davlatlarining beshitasi uchun mo‘ljallangan ushbu texnik yordam budjetining eng katta qismi O‘zbekistonga ajratilgan. O‘zbekiston va qolgan boshqa to‘rtta davlatlarning ulushi quyidagicha belgilangan: Qozog‘iston 19 million yevro, Qirg‘iziston 13 million yevro, Tojikiston 13 million yevro, Turkmaniston 6 million yevro, O‘zbekiston 29 million yevro. Jami 150 million yevro.

Tahlil va natijalar. “Markaziy Osiyo uchun 2008-2012 yillar strategik hujjati va 2008-2010 Indikativ dasturi” deb nomlanuvchi ushbu hujjat YI va Markaziy Osiyo davlatlari orasidagi munosabatlarda vujudga kelgan yangicha vaziyatni inobatga olib mintaqa davlatlariga texnik yordam ko‘rsatish uchun ishlab chiqilgan strategik dastur hisoblanadi. Aytish joizki, mazkur hujjatning amal qilish muddati tugashi bilanoq Yevropa tomoni keyingi davr uchun yangi hujjatni tayyorlab, amalga tatbiq qilgan. YIning Yangi Strategiyasi Yevropa tomonining 2021-2027 yillarga mo‘ljallangan yordam dasturini o‘z ichiga oladi.

Yangi hujjatning yuqorida tahlil qilingan oldingi hujjatdan farqi uning nomlanishidanoq ko‘rinib turadi. Yangi hujjat “Yevropa hamjamiyatining Markaziy Osiyoga yordam ko‘rsatish bo‘yicha 2021-2027 yillar uchun mintaqaviy strategiyasi” deb nomlanadi.

Markaziy Osiyo uchun Yevropa tomonidan ishlab chiqilgan mintaqaviy muloqot ham YI hamda MO davlatlari bilan mintaqaviy va ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Markaziy Osiyo bilan hamkorlik strategiyasi Kengash, Komissiya va Yevropa Parlamenti tomonidan 2005 yil dekabrda e‘lon qilingan “Rivojlanish bo‘yicha Yevropa konsensusi” hamda Rossiya bilan yo‘lga qo‘yilayotgan “to‘rt umumiy makon” maqsad va vazifalaridan kelib chiqadigan vaziyatni ham inobatga olgan. Shuningdek, YI tomonidan MO uchun ajratiladigan moliyaviy yordam miqdori oshirilib, 750 million yevroga yetishi ko‘zda tutiladi. Bunda yordamning asosiy qismi – 70% ikki tomonlama loyihalarga jalb qilinadi.

YIning Markaziy Osiyoga doir siyosiy strategiyasi har ikki mintaqa uchun ahamiyatli. Markaziy Osiyoga bunday keng miqyosli yondashuv Yevropa tomonidan birinchi marotaba ilgari surilmoqda. Bu uzoq kelajakka qaratilgan siyosatdir. U “XXI asrda, globallashuv shart-sharoitlarida YIning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan sifat jihatidan yangicha sherikchilik munosabatlarining vaqti kelgani”ni bildiradi.

Xulosa. YIning Markaziy Osiyo davlatlari bilan imzolangan shartnomalari to‘liq amalga oshirilishi kerak. Buning uchun YIning Markaziy Osiyoga oldingiga nisbatan faolroq yondashuvi zarurligi aytilmoqda. Mintaqa mamlakatlarining har birida Yevropa Komissiyasining vakolatxonalarini ochilishiga kelishib olingan.

Yevropai Ittifoqining Markaziy Osiyoi davlatlari bilan integratsiyalashuvii evolyusiyasi va dinamikasii zamonaviy siyosiy jarayonlarning imuhim yo‘nalishiga iaylangan. Global iqlim o‘zgarishi muammosi, uning Markaziy Osiyo

mintaqasiga salbiy ta'sirini kamaytirish Yevropa Ittifoqi ekosiyosatining tarkibiy qismiga aylangan. YIning Markaziy Osiyo davlatlari bilan bo'lgan aloqalari yuqorida keltirib o'tilgan rasmiy hujjatlar asosida yanada yangicha muhimroq tus oladi. Natijada esa Markaziy Osiyo mintaqasidagi ijtimoiy,

iqtisodiy, ekologik muammolar bir muncha muvozanatga keladi. Bu orqali esa har ikkala mintaqada umumsayyoraviy muammolarga ham asta-sekinlik bilan yechim topiladi va bu borada Yevropa Ittifoqi qat'iy siyosiy irodasini namoyon etadi.

ADABIYOTLAR

1. "Central Asia: Regional Strategy Paper 2002-2006 & Indicative Programme 2002-2004", 6.2 Track 2: Regional support for programmes implemented at national level/ b) Specific objectives. P.25.
2. "Central Asia: Regional Strategy Paper 2002-2006 & Indicative Programme 2002-2004", 6.2 Track 2: Regional support for programmes implemented at national level/ b) Description of programmes. P.25.
3. "Central Asia: Regional Strategy Paper 2002-2006 & Indicative Programme 2002-2004", 6.4 Indicative Budget. Table 5. P.31.
4. European Community Strategy Paper for Assistance to Central Asia for the period 2021-2027 https://eeas.europa.eu/eeas/основы-сотрудничества-сс-центральная-азия_ru
5. European Community Strategy Paper for Assistance to Central Asia for the period 2007-2013/ Executive summary. P.3.
6. Регламент Совета от 7 мая 1990 г. об учреждении европейского агентства по окружающей среде и европейской сети информации и наблюдения за окружающей средой (1210/90/ ЕЭС).
7. <https://carececo.org/main/news/EU-CA-partnership/>
8. Xalqaro shartnomalar Byulleteni. 2009. — № 5.
9. Пособие для вузов «Региональная характеристика мира» http://www.ereading.ws/chapter.php/127766/81/Maksakovskiii_Geograficheskaya_kartina_mira_Posobie_dlya_vuzov_Kn._II_Regional'naya_harakteristika_mira.
10. <http://www.greensolvation.org>.



Murod IBRAGIMOV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti
E-mail: murod.ibr@mail.ru

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent Tashnazarov D.Y taqrizi asosida

OPTIMAL RATIOS FOR TEACHING GRECO-ROMAN WRESTLING TO PEOPLE WITH DISABILITIES

Annotation

The practical significance of the research results in this research work lies in the fact that the methods of proper training in technical techniques of Greco-Roman wrestlers with disabilities, the identification of individual characteristics of technical actions and wrestlers used in competitive activities, and their results are explained by the fact that they are based on the results obtained on the basis of a questionnaire, which it allows you to develop and normalize a set of techniques and implement recommendations in the training process for the development of basic techniques, widely used in the competitive process.

Key words: General and special physical training, technical training, modeling, types of training.

ОПТИМАЛЬНЫЕ СООТНОШЕНИЯ ОБУЧЕНИЯ ГРЕКО-РИМСКОЙ БОРЬБЕ ЛИЦ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ

Аннотация

Практическая значимость результатов исследования в данной научно-исследовательской работе заключается в том, что методики правильного обучения техническим приемам борцов греко-римского стиля с ограниченными возможностями, выявление индивидуальных особенностей технических действий и борцов, применяемых в соревновательной деятельности, и их результаты объясняются тем, что они основаны на результатах, полученных на основе анкетирования, что позволяет разработать и нормировать комплекс технических приемов и внедрить рекомендации в тренировочный процесс для разработки основных приемов, широко используемых в соревновательном процессе.

Ключевые слова: Общая и специальная физическая подготовка, техническая подготовка, моделирование, виды подготовки.

IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLARGA YUNON-RUM KURASHINI O'RGATISHNING OPTIMAL NISBATLARI

Annotatsiya

Mazkur ilmiy tadqiqot ishida tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, imkoniyati cheklangan yunon-rum kurashchilariga texnik usullarni to'g'ri o'rgatish metodikalari, musobaqa faoliyatida qo'llaniladigan texnik harakatlar va kurashchilarning individual xususiyatlari aniqlanganligi va natijalari musobaqa jarayonida ko'p qo'llaniladigan asosiy usullarni rivojlantirish uchun texnik usullar majmuasini ishlab chiqish va me'yorlash hamda tavsiyalarni mashg'ulot jarayoniga joriy etishga imkon yaratilganligi to'g'risidagi so'rovnomaga asosida olingan natijalarga asoslanganligi bilan izohlanadi.

Kalit so'zlar: Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik, modellashtirish, tayyorgarlik turlari.

Kirish. Ilmiy tadqiqot mavzusining dolzarbligi Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida sog'lom avlodni tarbiyalash, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish hamda mamlakat aholisi salomatligini yaxshilash masalalari ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar bugungi kunda erishilayotgan yutuq va kamchiliklarimizga e'tibor qaratish, ulkan taraqqiyotlar tomon olg'a qadamlar tashlashni taqozo etadi.

Respublikamizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlarni yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, mardlik, vatanparvarlik shuningdek yoshlar orasida hamda jismoniy imkoniyati cheklangan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirishga, jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarga va yoshlarga kerakli barcha shart-sharoitlarni yaratib berish xalqaro arenalarda O'zbekiston

yoshlari naqadar kuchli, irodali ekanliklarini namoyish qilish uchun yurtboshimiz boshchiligida zamin yaratib berilmoqda. Shu boisdan o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama aqliy, axloqiy va jismoniy jihatdan rivojlantirishimiz oliy maqsadimiz bo'lib bunda jismoniy tarbiya va sport muhim ahamiyat kasb etadi [1,2,5,8].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyuldagi PQ-336-son "Sport kurashlarining olimpiya turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori bu sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi. Mashg'ulot jarayonlarini tashkil qilish bo'yicha optimallashtirilgan imo-ishoralar va o'rgatish dasturini ishlab chiqish orqali mashg'ulot jarayonlarini optimallashtirish.

Tadqiqotning vazifalari. Yunon-rum kurashi bilan shug'ullanuvchi eshitishida nuqsoni bor yunon-rum kurashchilari individual xususiyatlarini inobatga olib maxsus yillik modul ishlab chiqish.

Eshitishda nuqsoni bor yunon-rum kurashchilarini texnik usullarga o'rgatish jarayonlarini o'rgatishda optimallashtirilgan imo-ishoralar dasturini ishlab chiqish.

Eshitishda nuqsoni bor yunon-rum kurashchilarining mashg'ulot jarayonlari maqsadli tashkil qilish uchun mezosikli majmuasini va musobaqa oldi mikrosikllarini ishlab chiqish.

Eshitishda nuqsoni bor yunon-rum kurashchilarining texnik-taktik takomillashtirish o'rgatish orqali sport natijalarini yaxshilash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahar karlar sport federatsiyasi, Toshkent shahar yunon-rum kurashchilari mashg'ulot jarayonlari va Olmazor tumani sport maktabi yunon-rum kurashi mashg'uloti jarayoni olingan.

Tadqiqot predmeti sifatida eshitishda nuqsoni bor yunon-rum kurashchilariga maqsadli modul, optimallashtirilgan imo-ishoralar va uni o'rgatish dasturi yordamida usullarga o'rgatish va takomillashtirish tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil etish va umumlashtirish, pedagogik kuzatuv, ijtimoiy so'rovnoma, jismoniy tarbiya bo'yicha o'quv-uslubiy majmuaning tahlili, pedagogik tajriba matematik-statistik usullaridan foydalanilgan.

Taxlil va natijalar sifatida adaptiv jismoniy tarbiya va sport sohasining bir bo'lagi hisoblangan Surdlimpiya o'yinlarining paydo bo'lish tarixi Germaniyada boshlangan. 1888 yilda Berlinda Eshitishda nuqsoni borlar uchun birinchi sport klubi tashkil etilgan, 1899 yilda esa Fransiya Eshitishda nuqsoni borlar uchun velosiped klubi tashkil etilgan, klub asoschisi Eugene Rubens-Alcais hisoblanadi. Ushbu mutaxassis o'z kasbi bo'yicha avtomexanik va havaskor velo poygachi hisoblanib, ancha yillar davomida Eshitishda nuqsoni borlar sportini rivojlantirish uchun o'zining katta hissasini qo'shgan, bu sayi-harakatlar natijasida "Parijlik Eshitishda nuqsoni borlar sport klubi" asos solib, Fransiya davlatida Eshitishda nuqsoni borlar sport federatsiyasini tashkil qilgan.

XX asr boshlarida 1924-yil 24-avgust kuni Fransiyaning Parij shahrida "Xalqaro jimlik o'yinlari" nomi bilan eshitishda nuqsoni bor sportchilar uchun Surdlimpiya o'yinlarining birinchi musobaqasini o'tkazildi. Bu musobaqa imkoniyati cheklangan sportchilar uchun ham birinchi Paraolimpiya o'yinlari desak ham mubolag'a bo'lmaydi.

I-jadval

Pedagogik so'rovnoma trenir-o'qituvchilardan n=30

№	Savollar	Javoblar			
		Xa	%	Yo'q	%
1	Siz Surdlimpiya sport turlari haqida ma'lumotga egamisiz?	8	26,7	22	73,3
2	Eshitishda nuqsoni bor shaxslar sizga shug'ullanish maqsadida murojat qilganmi?	13	43,3	17	56,7
3	Eshitishda nuqsoni bor shaxslar bilan muloqot qila olasizmi?	2	6,7	28	93,3
4	Eshitishda nuqsoni bor sportchilarning morfofunksional xolatlari haqida ma'lumotga egamisiz?	5	16,6	25	83,4
5	Eshitishda nuqsoni bor sportchilarning jismoniy holatlari haqida ma'lumotga egamisiz?	9	30	21	70
6	Eshitishda nuqsoni bor sportchilarning mashg'ulot jarayonlarini tashkil etish mezonlarini bilasizmi?	7	23,3	23	76,7
7	Eshitishda nuqsoni bor shaxslarga yunon-rum kurashini o'rgatgan bo'larmidingiz?	20	66,7	10	33,3
8	Eshitishda nuqsoni bor shaxslarga yunon-rum kurashini o'rgatish bo'yicha metodika bilasizmi?	1	3,33	29	96,77
9	Surdosportchilar bilan sog'lom sportchilarni mashg'ulot jarayonlarini bir vaqtda tashkil qila olasizmi?	14	46,7	16	53,3
10	Eshitishda nuqsoni bor shaxslar bilan muloqot o'rnatish vositasi ishlab chiqilsa foydalangan bo'larmidingiz?	30	100	0	0

Jumladan, "Siz Surdlimpiya sport turlari haqida ma'lumotga egamisiz?" degan 1-savolga 30 nafar respondentdan 26,7 % - "Xa", 73,3% - "Yo'q" deb javob berishdi. Demak, bu holatga asosan shunday xulosaga kelish

Surdlimpiya o'yinlari (ingl.Deaflympics, ingliz tilidan. Deaf Eshitishda nuqsoni bor, lypmics-o'yinlar) degan ma'noni anglatib eshitish nuqsoni bor shaxslarning eng nufuzli xalqaro sport musobaqasi hisoblanadi (2001 yilgacha Xalqaro jim sport qo'mitasi).

Ilmiy tadqiqotning asosiy muommalarni bartaraf etish uchun O'zbekiston Respublikasi yoshlar siyosati va sport vazirligi tasarrufidagi sport maktablari, ixtisoslashtirilgan sport maktablari, oliy sport maktablarida Erkin va yunon-rum kurashi trener-o'qituvchilardan aynan eshitishda nuqsoni bor shaxslarning jismoniy tayyorgarligi, morfofunksional va funksional holatlari, sog'ligi, Surdopedagogikadan habardor ekanligi, eshitishda nuqsoni bor shaxslar bilan muloqot qila olishi, Surdosportchilarni mashg'ulot jarayonlarini tashkil qilish bo'yicha qandaydur metodikalarni bilishlari, eshitishda nuqsoni bor shaxslarning sport turlariga qiziqishi, sportning qaysi turlari bilan shug'ullanishga bo'lgan qiziqishlarini bilish va o'rganish, sport maktablariga shug'ullanish maqsadida murojat qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratilganligini aniqlash maqsadida vazirlikning erkin va yunon-rum kurashi trenir-o'qituvchilar o'rtasida anketa so'rovnomasini o'tkazish kerakligi, tahlil ma'lumotlarini yeg'ishni belgilab oldik.

Ushbu yo'nalish bo'yicha adabiyotlarning mavjudlik darajalari, ilmiy tadqiqot ishlari dissertatsiya va metodikalarning mavjudligi, Surdosportchilarning jismoniy tarbiyaga bo'lgan holati va qiziqishlari, jismoniy sifatlarida sog'lom sportchilar bilan qanchalik farq qilishi bo'yicha savolnomada erkin va yunon-rum kurashi sport turi mutaxassislari fikrlarining aniqlashning sotsiologik tadqiqotning tavsiflovchi testlar natijalari javoblar statistik tahlillardan so'ng aniqlandi. (1-jadval)

Anketa so'rovnomasida 30 dan ortiq Respublika miqyosidagi malakali trener-o'qituvchilardan o'rtacha 30-45 yoshli shu yo'nalishda 5-15 yildan ortiq faoliyat yuritayotgan, Xalqaro va Respublika miqyosidagi nufuzligi musobaqalarda g'olib va sovrindor sportchilarni tayyorlagan trener-o'qituvchilar ishtrok etishdi.

So'rovnoma natijalaridan ma'lum bo'ldiki, trener-o'qituvchilarning aksariyati Surdo sport turlari, eshitishda nuqsoni bor shaxslarning morfofunksional va jismoniy holatlari, Surdosportchilarga mashg'ulotlarni tashkil etish haqida ma'lumotga ega emas.

turlari haqida ilmiy tadqiqotlar olib borish, darslik, o'quv qo'llanma va maqolalarga ehtiyoj seziladi.

“Eshitishda nuqsoni bor shaxslar sizga shug'ullanish maqsadida murojat qilganmi?” degan 2-savolga 30 nafar respondentdan 13 tasi yoki 43,3% -“Xa”, 56,7% - “Yo‘q” deb javob berishdi. Trener-o'qituvchilarning bu savolga bergan javobidan ko'rinib turiptiki eshitishda nuqsoni bor shaxslarning sportga bo'lgan qiziqishi yuqori va buni ijobiy baholash mumkin.

So'rovnomamizning 3-savoliga 30 nafar respondentning 6,7% -“Xa”, 93,3% -“Yo‘q” deb javob berishdi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotga asosan aytishimiz mumkinki, juda kam sonli trener-o'qituvchilar eshitishda nuqsoni bor shaxslar bilan muloqotga qila oladi.

“Eshitishda nuqsoni bor sportchilarning morfofunksional va jismoniy xolatlari bilan bog'liq bo'lgan 4-va 5-savolga 30 nafar respondentdan 16,6% va 30% -“Xa”, 83,4% va 70% - “Yo‘q” deb javob berdi. Ko'rinib turibdiki ,aksariyat trener-o'qituvchilar eshitishda nuqsoni bor sportchilarga doir fizilogik ma'umotlarga ega emas.

Eshitishda nuqsoni bor sportchilarning mashg'ulot jarayonlarini tashkil etishga doir mezonlar haqida ma'lumotga egaliklari haqidagi 6 savolga faqat 23,3% respondentlar “Xa” , ularning 76,7% “Yo‘q” degan javobni berishgan.

“Eshitishda nuqsoni bor shaxslarga yunon-rum kurashini o'rgatgan bo'larmidingiz?” degan 7-savolimizga respondentlarning 66,7 % - “Xa”, 33,3%-“Yo‘q” deb javob berishdi. Olingan javoblarga asosan aytishimiz mumkinki, trener-o'qituvchilarni eshitishda nuqsoni bor sportchilarga yunon-rum kurashini o'rgatishga bo'lgan istaklari yuqori.


“Eshitishda nuqsoni bor shaxslarga yunon-rum kurashini o'rgatish bo'yicha metodika bilasizmi?” deb nomlangan 8-savolga 3,3% - “Xa”,96,7%-“Yo‘q” deb javob berdi. “Surdosportchilar bilan sog'lom sportchilarni mashg'ulot jarayonlarini bir vaqtda tashkil qila olasizmi?” degan savolimizga 30 nafar respondentlarning 46,7%-“Xa”, 53,3%-“Yo‘q” deb javob berdi.

Eshitishda nuqsoni bor shaxslar bilan muloqot o'rnatish vositasi ishlab chiqilsa foydalangan bo'larmidingiz? Degan so'ngi savolimizga barcha respondentlarimiz “Xa” deb javob berishdi. Pedagogik kuzatuvlar va o'takzilgan so'rovnoma natijalariga asosanib shuni ayta olamizki, eshitishda nuqsoni bor shaxslarni surdosport bilan shug'ullanishga bo'lgan talablari yuqoriligi lekin trener-o'qituvchilar bilan muloqot o'rnatishda muammolar borligi mashg'ulot jarayonlarini yo'lga qo'yishga va mashg'ulot olib borishga to'siq bo'ladi. Trener-o'qituvchilarda eshitishda nuqsoni bor sportchilarning morfofunksional va jismoniy holatlari, eshitishda nuqsoni bor sportchilarga mashg'ulot jarayonlarini tashkil etish mezonlari haqida ma'lumotga ega emasliklari muammoni yanada ochib berdi. Trener-o'qituvchilarni eshitishda nuqsoni bor sportchilarga yunon-rum kurashini o'rgatishga bo'lgan istaklari va yuqoriligi lekin eshitishda nuqsoni bor shaxslarga yunon-rum kurashini o'rgatish bo'yicha metodikaning yo'qligi asosiy muammo hisoblanadi.

Xulosa. Mamlakatimizda sport sohasini rivojlantirish, sport kuarshi bo'lmush yunon-rum kurashi bo'yicha imkoniyati cheklangan shaxslar sifatida eshitishda nuqsoni bor shaxslargina erkin va yunon-rum kurashi sport turi bilan shug'ullanishlari sportchilarning jismoniy va texnik harakatlarga o'rgatish to'g'risida ilmiy izlanishlar olib borilishi, yuqori saviyadagi jurnallarda chop etilgan maqolalardan andoza sifatida foydalanish to'g'risida fikrlar yuritilgan bo'lsada aniq bir sport kurashida modellashtirish uslublaridan foydalanilmaganligi kuzatildi. Ko'plab olimlar model va modellashtirishni matematik, mantiqiy, texnik va kibernetik turlariga bo'lib o'rganishgan lekin, imkoniyati cheklangan yunon-rum kurashchilariga texnik harakatlarni o'rgatish metodikalari va shu qatorda ma'lum bir harakatlar tizimi to'g'risida izlanishlar olib borilmagan. O'z navbatida harakatlarning ketma-ketligi va ularning bir butun texnik usuldek bajarilishini o'rganish bo'yicha fikrlar bildirilmagan.

Texnik usulni modellashtirish murakkab mashg'ulot jarayonida asosan o'rgatish tizimiga “asosiy harakat” sifatida qaraladi. Sport sohasida ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar mustaqil izlanuvchilar ilmiy ishlaridan fikrlari imkoniyati cheklangan sportchilarga texnik harakatlarni o'rgatish uslublari orasida tafovut mavjudligiga qaramasdan, kurashchini o'quv-mashg'ulot faoliyatini ishonchililigi modellashtirishda ulardan foydalanish va o'zidagi kamchiliklarni bartaraf etishi bo'yicha ilmiy qarashlar yetarlicha yoritib berilmagan.

Sportning kurash turlari bo'yicha ilmiy izlanishlar ustida bosh qotirayotgan olimlar trener-o'qituvchilarga surdosportchilarning morfofunksional va jismoniy holatlari, eshitishda nuqsoni bor sportchilarga mashg'ulot jarayonlarini tashkil etish mezonlari haqida ma'lumot beruvchi, eshitishda nuqsoni bor sportchilarga yunon-rum kurashini o'rgatish, trener-o'qituvchilar va surdosportchilar o'rtasida muloqot ko'prigi vazifasini bajaruvchi vosita ishlab chiqishga ehtiyoj yuqori ekanligini ko'rsatib berdi. Ammo olimlarni ilmiy izlanishlari davomida eng samarali bo'lgan Surdo sportchilarga texnik usullar o'rgatish to'g'risida izlanishlar olib borilmaganligi kuzatildi.



ADABIYOTLAR

1. Аккуин А.Д. - Повышение комбинационности борьбы стоя, на основе поэтапного овладения техническими действиями в дзюдо на начальном этапе подготовки / Аккуин А.Д., Аккуина Е.Д. // Актуальные проблемы физической культуры, спорта и туризма: материалы XII междунар. науч.-практ. конф. – Уфа, 2017 г. – С. 173-175.
2. Aliyev I.B., Ibragimov M.A. –Sport pedagogik mahoratini oshirish Darslik. T. 2023 y. 105-112 bet.
3. Tastanov N.A. – Yunon-rim kurashi nazariyasi va uslubiyati. O'quv-qo'llanma. T. 2014 y. 98-107 bet.

4. Tastanov N.A., Abdullayev Sh.A., Tursunov Sh.S., Adilov S.Q. – Sport pedagogik mahoratini oshirish (Erkin va Yunon-rim kurash turlari bo'yicha). O'quv-qo'llanma. T. 2018 y. 35-41 bet.
5. Tashnazarov D.Yu. – Sport pedagogik mahoratini oshirish yunon-rim kurashi bo'yicha (1-jild). T. 2019 y. 11-17 bet.
6. Tashnazarov D.Yu. – Sport pedagogik mahoratini oshirish yunon-rim kurashi bo'yicha (2-jild). T. 2019 y. 23-29 bet.



UDK: 159.923.5-34

Alisher INAMOV,
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail: fox_ali.91@mail.ru

Psixologiya fanlari doktori (DSc) B.Jo'rayev taqrizi ostida

ICHKI ISHLAR XODIMLARINING KASBIY ADAPTATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy adaptatsiyasini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tushunchasi, shuningdek, muvaffaqiyatli faoliyat jarayoniga ta'sir qiluvchi o'ziga xos xususiyatlar va omillar ko'rib chiqiladi. Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy adaptatsiyasi jarayoni bilan bog'liq masalalar yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Ichki ishlar organlari xodimi, individual-psixologik xususiyatlar, adaptatsiya, ijtimoiy-psixologik adaptatsiya, kasbiy adaptatsiya.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ СОТРУДНИКОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Аннотация

В данной статье рассматривается понятие социально-психологических особенностей совершенствования профессиональной адаптации сотрудников органов внутренних дел, а также специфика и факторы, влияющие на процесс успешной деятельности. Раскрываются вопросы, связанные с процессом профессиональной адаптации сотрудников органов внутренних дел.

Ключевые слова: Сотрудник органов внутренних дел, индивидуально-психологические особенности, адаптация, социально-психологическая адаптация, профессиональная адаптация.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF IMPROVING THE PROFESSIONAL ADAPTATION OF INTERNAL AFFAIRS OFFICERS

Annotation

This article discusses the concept of socio-psychological features of improving the professional adaptation of employees of internal affairs agencies, as well as the specifics and factors influencing the process of successful activity. The issues related to the process of professional adaptation of employees of internal affairs bodies are disclosed.

Key words: An employee of the internal affairs bodies, individual psychological characteristics, adaptation, socio-psychological adaptation, professional adaptation.

Kirish. Maqolaning dolzarb yo'nalishi adaptatsiyaning turli bosqichlarida O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi tizimi xodimlarining kasbiy adaptatsiya xususiyatlarini o'rganishdir. O'zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan qator islohotlar amalga oshirilib kelmoqda va ichki ishlar organlari xodimlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish asosiy dolzarb maqsadlardan biri bo'lib qolmoqda. Ichki ishlar organlarning asosiy vazifasi huquq-tartibot va qonuniylikni himoya qilish, jinoyatchilikka qarshi kurashish, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish bo'lgan davlat organlari hisoblanadi. Ichki ishlar organlarni o'ziga xos xususiyatlari tashqi (ijtimoiy-psixologik) va ichki (individual-psixologik) omillarga bog'liq.

Tashqi ijtimoiy-psixologik omillar qatoriga quyidagi jihatlari kiradi:

jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik rivojlanishi;

qonunchilik va jamoat xavfsizligi tizimining rivojlanish darajasi;

huquqbuzarliklarning oldini olish xususiyatlari;

huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining jihatlari;

aholining huquqiy ongi, munosabati va jinoiy ifloslanish darajasi xususiyatlari.

Individual-psixologik xususiyatlarga quyidagilar kiradi: muayyan kasbiy qobiliyatlarga, shu jumladan tashkiliy, intellektual, kommunikativ fazilatlariga ega bo'lish;

kasbiy yo'nalish, shu jumladan qiymat yo'nalishlari;

qiziqishlar va ideallar;

huquqiy ongning mavjudligi;

individual kasbiy tushuncha;

ixtiyoriy fazilatlar (masalan, javobgarlik, faollik, mehnatsevarlik;

tashabbuskorlik, intizom va boshqalar);

Kommunikativ fazilatlar (masalan, o'zaro munosabatlarga tayyorlik, xushmuomalalik, tinglash qobiliyati, nizolarning yo'qligi va boshqalar);

Axloqiy va psixologik fazilatlar, shu jumladan printsiplar, halollik va insonparvarlik.

“Adaptatsiya” tushunchasining mazmuni psixologiyada tabiiy ilmiy biologik yo'nalishga qaraganda kengroq, chunki shaxslar turli xil faoliyat turlari tufayli ijtimoiy muhitga moslashishi kerak. Agar biz moslashuv tushunchasini keng ma'noda olsak, u ichki tizim va tashqi sharoitlar o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi, moslashish esa jarayon,

natija va dinamik shakllanish, shuningdek, o'zgaruvchan atrof - muhit sharoitlariga moslashish qobiliyatida aks etadigan o'z-o'zini tartibga soluvchi tizimning xususiyatidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Keng ma'noda duyoda "adaptatsiya" (lotin) so'zidan olingan "moslashish" manosi anglatadi va 1865-yil nemis fiziologi Hermann Aubert nomi bilan bog'liq bo'lgan, u "sezgirlik chegarasini oshirish yoki pasaytirish orqali ko'rish organlarining tashqi stimullarga moslashish hodisalarini tavsiflash uchun foydalangan". Psixologiyada kasbiy adaptatsiya deganda "shaxsning yangi ishlab chiqarish sohasiga kirish jarayoni, yangi ijtimoiy rolni o'zlashtirish, ishlab chiqarish (bu holda ichki ishlar organlari) faoliyatining turli normalari" tushuniladi.[1].

Ichki ishlar organlari xodimlariga xizmat ko'rsatishga imkon beradigan ijtimoiy-psixologik omillar ma'lum bir dunyoqarashning mavjudligini o'z ichiga oladi (dunyoqarash va munosabatlar), qabul qilingan ijtimoiy pozitsiya (hayot, fuqarolik, kasbiy). Eng muhim omillar, shuningdek, yutuq motivatsiyasi (o'z-o'zini anglash, kasbda o'zini o'zi tasdiqlash, o'zini o'zi ta'minlash), ijtimoiy faollik, hayotiylik, psixologik barqarorlik, dunyo va odamlar bilan o'ziga xoslik, tegishli millat va madaniyatlarga bag'rikenglik bilan ifodalanadi.

Ichki ishlar organlari faoliyatining ijtimoiy-psixologik omillarining salbiy ta'siri ichki ishlar organlari xodimining shaxsiyatining adaptatsion imkoniyatlariga yuqori talablarni qo'yadi. Faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi bunday omillarga quyidagilar kiradi: tartibsiz ish kuni, maxsus sharoitlarda rasmiy vazifalarni bajarish, jamiyat tomonidan tanqid qilish; turli xil hujjatlar bilan munosabatlarning rasmiylashtirilishi; mas'uliyat, buyruqlar va vazifalar vaqti bilan notug'ri taqsimlanishi [2].

Ushbu omillar ichki ishlar organlari xodimlarning psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, kasbiy professional adaptatsiya jarayonini sezilarli darajada qiyinlashtiradi va sekinlashtiradi va natijada quyidagi ruhiy kasalliklar namoyon bo'ladi: nevrozlar, depressiya, organizmning psixosomatik reaksiyasi va boshqalar. Ichki ishlar organlari xodimi tomonidan hal qilinadigan vazifalar doirasi keng va xilma-xildir va agar ichki ishlar organlari xodimi faoliyatning o'ziga xos xususiyatlariga mos kelmasa, keyinchalik bu tananing psixofiziologik tuzilmalarining noto'g'ri ishlashiga va buzilishiga olib keladi. Adaptatsiya jarayonini ko'plab tadqiqotlar davomida ushbu hodisaning mohiyati, tuzilishi va turlarini, shuningdek uni belgilovchi omillarni tushinishda juda ko'p bo'shliqlar mavjud. Adaptatsiya tushunchasining o'zi polisemantik va fanlararo bo'lib, moslashish muammosiga mahalliy psixologlarga ham, chet el psixologlariga ham katta e'tibor qaratiladi.

XIX asrning assotsiativ psixologiyasida G. Spenser psixika (organizm) va tashqi muhit, adaptatsiya mexanizmi va qonunlari o'rtasidagi bog'liqlik haqidagi qoidalarni ishlab chiqadi. Ushbu sotsiologining fikriga ko'ra, atrof-muhit nafaqat organizm ichidagi jarayonlarni qo'zg'atadigan mexanik turtki, balki hayotiy faoliyatni o'zgartirishga qodir kuchdir [3].

Xorijiy tadqiqotlarni tahlil qilish natijasida tegishli tushunchalarni ajratib ko'rsatishga imkon beradi: 1) "moslashuvchanlik" (A.V.Petrovskiy, A.V.Siomichev, A.A. Nalchajyan, S.A. Pakulina); 2) "moslashuvchan qobiliyatlar" (V.N. Drujinin, V.D. Shadrikov, S.A. Pakulina); 3) "shaxsiy moslashish potentsiali" (A.G. Maklakov, V.G. Vitun, V.F. Lugovaya va boshqalar); 4) "moslashuv" (I. K. Kryajeva, S. T. Posoxova) [4,5].

Yuqorida ko'rsatilgan tushunchalar adaptatsiya jarayonini tavsiflaydi, shu bilan birga uning namoyon

bo'lishining o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratadi. Masalan, ilmiy adabiyotlarda "moslashuvchanlik" moslashish qobiliyati sifatida qaraladi - o'zgaruvchan sharoitlarda shaxsning muvaffaqiyatli ishlashiga. Ushbu qobiliyat insonning o'ziga xos fazilatlarini (adaptiv qobiliyatlar yoki shaxsiy moslashish potentsiali) asosida atrof-muhit sharoitlariga mos keladigan xatti-harakatlar va faoliyat usullarini ishlab chiqishga imkon beradi.

M.S. Yanitskiy "shaxsning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi - bu shaxsning hayoti va faoliyatining ijtimoiy muhitida yuzaga keladigan psixologik aloqalar va munosabatlar tizimiga kirish jarayoni deb tushuncha bergan. Shaxsning ushbu psixologik aloqalari va munosabatlari asosan uning ob'ektiv ijtimoiy va faol aloqalari va munosabatlari bilan bog'liqdir. Va shuning uchun shaxsning ijtimoiy-psixologik moslashuvi kasbiy va ijtimoiy moslashuvning bir jihati sifatida harakat qilishi mumkin" [6].

Shunday qilib, ichki ishlar organlari xodimlarining "ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi" atamasini aniqroq tushunish uchun ushbu sohadagi olimlarning ko'plab ilmiy tadqiqotlarni o'rganib va tahlil qilish chiqilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi jarayoni - bu normalar, qadriyatlar, huquqiy madaniyat, huquqiy ong va huquqni muhofaza qilish faoliyatiga qo'shilish natijasida yuzaga keladigan xodimning kasbiy muhit bilan o'zaro munosabati.

Psixologik tadqiqotlarda ichki ishlar organlari xodimlarining adaptatsiyasi moslashuvchan ko'rsatkichlarning o'zgarishi bilan birga o'z bosqichlari va bosqichlariga ega bo'lgan dinamik rivojlanayotgan jarayon sifatida qaraladi.

Ichki ishlar organlarining adaptatsiyalashgan xodimi jamoa a'zolari tomonidan qabul qilingan bo'lib xizmat jamoaviy munosabatlari va ishlarini qurishda ishtirok etadigan teng huquqli ishtirokchi sifatida jamoaga kiritilgan. Moslashuvi qiyin bo'lgan xodim jamoadagi xizmat faoliyatiga dizbalans va jamoada shaxslararo munosabatlarda nomutanosiblikni keltirib chiqaradi.

Shuning uchun ichki ishlar organlari xodimining ijtimoiy-psixologik adaptatsiya jarayoni bu jarayonning ikki tomonlama ekanligining yorqin namunasidir. Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy va ijtimoiy moslashuvi - bu huquqni muhofaza qilishning yangi sohasiga va tegishli ijtimoiy muhitga faol va ongli ravishda kiritilishi bilan tavsiflanadigan hayot davri.

Ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasini diagnostika qilish va korrektsiyalash, psixologik yordam berish usullarining asosligi va qo'llanilishi muhim muammo bo'lib qo'lmoqda, ushbu jarayonga nafaqat professional mutaxassis-psixologik tanlov guruhlarini, balki jamoaviy professor-o'qituvchilar tarkibi, shuningdek ichki ishlar organlari xodimlarning o'zlari xam yondashishga xarakat qilish kerak.

Ichki ishlar organlari xodimning kasbiy adaptatsiya sohasiga quyidagilar kiradi: mehnat kun tartibi, mehnat sharoitlari, ichki ishlar organlari tizimidagi faoliyatning xususiyatiga moslashish va ko'nikish, shuningdek, ushbu mutaxassislikni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun zarur kasbiy muhim shaxsiy fazilatlarini shakllantirishda kasbiy bilim, ko'nikma va ko'nikmalar darajasini ma'lum darajada o'zlashtirish.

Ushbu xususiyatlarning kamida bittasi mavjud bo'lmasa adaptatsiyaning buzilishiga olib keladi va muvaffaqiyatli moslashish natijalarga olib kelmaydi, buning natijasida xizmat faoliyatining past samaradorligi va sifati, xizmat intizomi buzilishi, psixologik dezadaptatsiya va og'ir

inqirozli psixologik holatlarning shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Xulosa. Kasbiy adaptatsiyada ichki ishlar organlari xodimlarining faoliyatidagi roli quyidagilardan iborat: bu kasbiy, jangovar va rasmiy tayyorgarlik asoslarini tezda o'zlashtirish uchun rasmiy faoliyat, yangi mehnat sharoitlari, kundalik hayot va mehnat jamoasi bilan tanishish jarayoni. Uning asosiy vazifasi ichki ishlar organlari xodimi tomonidan mutaxassislik va xizmat vazifalarini o'zlashtirishdir.

Tavsiya. Ichki ishlar organlari xodimlarni kasbiy adaptatsiya jarayonini takomillashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

- xizmat faoliyatning motivlari va maqsadlarini anglash;
- kasbiy muhim fazilatlarini rivojlantirish;
- xodimlarning vakolatlari, huquqlari va javobgarlik chegaralarini aniq belgilaydigan har bir lavozim uchun to'g'ri taqsimlash;
- ichki ishlar organlari xodimlarining sharoitlarini yaxshilash: uy-joy, moddiy-ta'minot tizimini tartibga solish, yaxshi natjalarga erishgan xodimni rag'batlantirish).

ADABIYOTLAR

1. Aubert H. Physiologie der Netzhaut / [Esther von Krosigk (Hrsg.)]. Saarbrücken: Vdm Verlag Dr. Müller, 2007. 412 p. (Edition Classic).
2. Цветков В. Л., Хрусталева Т. А., Танов А. М. Стиль общения руководителя в контексте предупреждения служебных конфликтов и оптимизации управленческой деятельности // Психопедагогика в правоохранительных органах. 2017. № 4 (71). С. 60-66.
3. Ждан А.Н. История психологии: учебник. М.: Изд-во МГУ, 1990. 367 с.
4. Колпакова Л.М. Психологическая адаптивность как необходимое качество жизнедеятельности // Царскосельские чтения. 2015. №XIX. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/psihologicheskaya-adaptivnost-kak-neobhodimoe-kachestvo-zhiznedeyatelnosti> (дата обращения: 22.01.2021).
5. Минаева Н. С., Лентач Я. В. Адаптивность как свойство личности // Психологический вестник Уральского государственного университета. 2001. Вып. 2. Екатеринбург. С.10-16.
6. Яницкий М. С. Адаптационный процесс: психологические механизмы и закономерности динамики: учеб. пособие. Кемерово: Кемеровский гос. ун-т, 1999. 84 с.



Ma'rufjon INATULLAYEV,

Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahar 9-umumiy o'rta ta'lim maktabi musiqa fani o'qituvchisi

E-mail: marufjoninatullayev1995@gmail.com

NavDPI "San'atshunoslik" kafedrasida san'atshunoslik fanlari nomzodi dotsent professor S.Boltazoda taqrizi asosida

PROPER ORGANIZATION OF MUSIC LESSONS FOR PRIMARY CLASS STUDENTS OF SPECIAL BOARDING SCHOOLS FOR BLIND CHILDREN

Annotation

In this article, brief decisions and recommendations are offered on the effective and correct organization of music lessons for elementary school students in special boarding schools for blind children. In music classes, students learn the basic skills and competencies needed to understand its fundamentals, learn to apply music, and develop in this field. These lessons help young students understand the art of music, develop creative ideas, conduct creative activities, and express their personal musical ideas.

Key words: Braille, typhlopedagogy, typhlometron, typhlotyuner, solfeggio, harmony, polyphony, chorus, orchestra.

ПРАВИЛЬНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ УРОКОВ МУЗЫКИ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ СПЕЦИАЛЬНЫХ ШКОЛ-ИНТЕРНАТОВ ДЛЯ СЛЕПЫХ ДЕТЕЙ

Аннотация

В данной статье предложены краткие решения и рекомендации по эффективной и правильной организации уроков музыки для учащихся младших классов в специальных школах-интернатах для слепых детей. На занятиях музыкой учащиеся приобретают базовые навыки и компетенции, необходимые для понимания ее основ, учатся применять музыку и развиваются в этой области. Эти уроки помогают юным ученикам понять музыкальное искусство, развивать творческие идеи, вести творческую деятельность и выражать свои личные музыкальные идеи.

Ключевые слова: Шрифт брайля, тифлопедагогика, тифлометроном, тифлотюнер, сольфеджио, гармония, полифония, хор, оркестр.

KO'ZI OJIZ BOLALAR MAXSUS MAKTAB INTERNATLARINING BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA MUSIQA DARSLARINI TO'G'RI TASHKIL ETISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada, ko'zi ojiz bolalar uchun maxsus maktab internatlarida boshlang'ich sinf o'quvchilariga musiqa darslarini samarali va to'g'ri tashkil etish bo'yicha qisqacha qarorlar va tavsiyalar taklif etiladi. O'quvchilar musiqa darslarida uning asosiy omillarini tushunish, musiqa qo'llashni o'rganish, mazkur sohada rivojlanish uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalar va malakalarni o'rganishadi. Bu darslar yosh o'quvchilarga musiqa san'atini tushunish, ijodiy fikrlarni rivojlantirish, ijodiy faoliyatlarini olib borish va o'zining shaxsiy musiqa g'oyalarini ifodalashadi.

Kalit so'zlar: Brayl, tiflopedagogika, tiflometron, tiflotyuner, solfedjio, garmoniya, polifoniya, xor, orkestr.

Kirish. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir" [1] mazmunidagi fikrlari ko'zi ojiz yoshlarni ham musiqa san'atiga jalb qilish, kitobxonlik madaniyatini oshirish, hududlarda ulug' san'atkorlarimiz nomi bilan ataladigan ijodiy maktab va markazlar tashkil etish yuzasidan amaliy ko'rsatma sifatida ko'zi ojiz, yuksak iste'dodli yoshlar qatlamini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha g'amxo'rlikdir [2].

Biroq ularning noyob iste'dodlarini muvofiqlashtirib ro'yobga chiqarishda haqiqiy tayanch va suyanch bo'lishi zarur bo'lgan ijodiy uyushmalarimiz va idoralarimizning o'rni va ta'siri yetarlicha sezilmayapti. Ijodiy tashkilotlarimiz shiddat bilan o'zgarayotgan zamonga hamqadam bo'lib yashash, o'z faoliyatini samarali tashkil etishda davr talablaridan orqada qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 22-iyulda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 11-sentabrda ma'qullangan O'RQ-641, "Nogironligi

bo'lgan shaxslarning huquqlari togrisidagi" qonunining [3] 8, 38, 40-moddalari asosida bugungi kunda ko'zi ojiz bolalar ta'lim-tarbiyasiga davlatimiz tomonidan katta e'tibor va imkoniyatlar berilmoqda. Shuningdek, bu qonunning "8-moddasida qayd etilgan "Nogironligi bo'lgan bolalarning rivojlanayotgan qobiliyatini va o'z individualligini saqlab qolish huquqi..."dan kelib chiqib nogironligi bo'lgan bolalarni har tomonlama va uyg'un rivojlantirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, mehnatga bo'lgan qiziqishiga ko'maklashish, ta'limga, ilm-fanga, texnikaga, san'at va sportga jalb etish maqsadida nogironligi bo'lgan bolalar manfaatlarini, ularga nisbatan bajariladigan barcha harakatlarda ustuvorlik yaqqol seziladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tiflopedagogika (yun. typhlos ko'r va pedagogika) — defektologiyaning ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarni o'qitish, tarbiyalash hamda ularni mehnatga tayyorlash masalalarini ishlab chiquvchi sohasi. Bolalarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishni, umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lishlarini, hayot va mehnatga tayyorlashni maqsad qilib qo'yadi. Tiflopedagogika ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ta'limni takomillashtirish yo'llarini,

o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish metodlarini, maxsus maktab hamda maktabgacha muassasalar tuzilmasini, ularning ta'lim-tarbiyasining tashkiliy shakllarini ishlab chiqadi. Tiflopedagogikaning eng muhim vazifasi bolalarda saqlanib qolgan ko'rish imkoniyatlaridan o'qish jarayonida to'g'ri foydalanish va uni rivojlantirish, ko'rish imkoniyatlarini saqlash uchun sharoit vujudga keltirish, ta'limning texnika vositalarini qo'llashdan iborat.

Tiflopedagogika umumiy va maxsus pedagogika, psixologiya, fiziologik optika, oftalmologiya, pediatriya, maktab gigiyenasini, oliy nerv faoliyati fiziologiyasi, tilshunoslik, tiflotexnika fani ma'lumotlariga suyanadi. O'zbekistonda 2002/03 o'quv yili ko'rlar uchun 8 (1,4 ming o'quvchi), zaif ko'radigan bolalar uchun 3(0,6 ming o'quvchi) maktab ishladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Davlat organlari nogironligi bo'lgan shaxslarning har biri uchun mosroq bo'lgan tillarni, muloqot qilish usullari va vositalarini rivojlantirish, Brayl alifbosini, muqobil harflarni, nutq va og'zaki muomala ko'nikmalarini o'zlashtirish, shuningdek o'qituvchilarni va maktab xodimlarini inklyuziv ta'lim masalalarida o'qitish, imoishora tilini va Brayl alifbosini biladigan nogironligi bo'lgan o'qituvchilarni ta'lim muassasalariga ishga joylashtirish yordamida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ko'makdosh bo'lgan loyihalar tahsinga sazovordir. Shu o'rinda "Ko'ngil ko'zi" loyihasi muallifi, Mass-media fondi raisi o'rinbosari Saida Mirziyoyeva boshchiligidagi Respublikamiz bo'ylab 12 ta ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar, hamda ularda ta'lim olayotgan 3000 dan ziyod ko'rish qobiliyati cheklangan o'quvchilarga barcha turdagi musiqa cholg'u asboblari, zarur o'quv anjomlari tuhfa etildi. Saida Mirziyoyeva o'zining telegramdagi kanalida "Ko'ngil ko'zi" loyihasi [4] doirasida Yangi yil bayrami arafasida "Sovg'alar karvoni" xayriya aksiyasi boshlanganligi haqida quyidagicha yozgan edi:

"Loyiha rahbari sifatida shuni aytamanki, endi har bir internat zamonaviy sport anjomlari, turli musiqa asboblari va Brayl alifbosida ko'plab chop etilgan bosma hamda audio kitoblarga ega bo'ladi. Umid qilamizki, Agentlikning ushbu aksiyasi sizning qalbingizga ilqlik olib kiradi, sizga Yangi yilning bayramona kayfiyatini tuhfa etadi va salomatligingizni mustahkamlashda, ko'zlagan maqsadlaringizni amalga oshirish va hayotda zafarlarga erishishingizda yordam beradi," - deydi Saida Mirziyoyeva. Ko'zi ojiz bolalar hayotida ilk bora amalga oshirilgan "Sovg'alar karvoni" xayriya aksiyasi bolajonlar qalbiga quvonch, ertangi kuniga ishonch shukuhini olib kirdiki, ularning qo'lida jarang sochayotgan bu cholg'ularning ovozi turli sahnalarda minnatdorlik hissi bilan yangramoqda. Qolaversa, ushbu loyiha tomonidan amalga oshirilgan ishlardan eng quvonarlisi shuki, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi oquvchilar shu yildan e'tiboran Bolalar musiqa va san'at maktablarida bepul o'qish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Buning natijasi o'laroq ayrim iqtidorli ko'zi ojiz o'quvchilar Respublika miqyosidagi hatto, xalqaro ko'rik-tanlovlarda ishtirok etib faxrlari o'rnlarni egalladilar. Ularga cholg'u ijrochiligi va xonandalik sirlaridan saboq berayotgan bir guruh ko'zi ojiz va sog'lom ustozlarning xizmatlari tahsinga loyiqdir.

Biroq, bugungi kunda ya'ni ta'lim sohasiga kirib kelayotgan inovatsiyalashish jarayoni ilgarilab, o'zaro raqobatlashib ketayotgan bir paytda ko'zi ojizlar talimi, ayniqsa, musiqa yo'nalishi anchagina oqsab qolayotganligi sezilmoqda. Chunki, bir tomondan ko'zi ojiz o'quvchilarni Brayl nota tizimi orqali o'qitishda zarur qo'llanma va darsliklar, bo'lgan taqdirda ham o'quvchilarga mos kelmasligi, yetarli emasligi bo'lsa, ikkinchidan, ularga ustozlik qilayotgan

pedagoglarning musiqa tiflopedagogikasidan bexabar ekanligi, ko'zi ojiz BMSM o'qituvchilarga o'z ustida ishlashlari va ijod qilishlari, zamonaviy dars mashg'ulotlarini olib borishlari uchun yetarli shart-sharoitning yo'qligi, jumladan, ularga yordamchi kotibalar ajratilmaganligi qator og'riqli nuqtalarni keltirib chiqarmoqda. Buning natijasida o'quvchilar qanchalik mohir ijrochi bo'lmasin, ular nota savodxonligidan, Solfedjio, Garmoniya, Polifoniya kabi fanlarni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Orkestr va Xorda ijro etish, shuningdek, unda dirijorlik qilish haqida esa aytmasa ham bo'ladi. Hozirda ko'zi ojiz o'quvchilar noyob esda saqlash tug'ma iste'dodiga tayanib, faqatgina an'anaviy ijrochilik yo'nalishida tahsil olishga majbur bo'lmoqdalar [5]. Ya'ni ular ko'proq tinglash orqali biror cholg'uni chalish yoki qo'shiq kuylashni o'rganmoqdalar. Qolgan yo'nalishlar esa ularga bir orzudek bo'lib qolmoqdaki, bu muammoning yechimini izlab topish zamon talabi darajasida muhim ahamiyatga egadir.

Ushbu muammoni hal etishda avvalo, ko'zi ojizlarning musiqiy savodxonligini shakllantirish maqsadida bizgacha mavjud manbaalardan foydalangan holda Brayl nota tizimiga asoslanib, nota savodi bo'yicha o'quv qo'llanma (Brayl nota alifbosi) yaratish maqsadga muvofiqdir. Mazkur o'quv qo'llanmada besh chiziqli nota yo'li asosida yoziladigan notalar va ularning cho'zimlari ifodasi, skripka, bas va boshqa kalitlar, intervallar, alteratsiya, dinamika, nota cho'zimini uzaytiruvchi, hamda nota yozuvini qisqartiruvchi, shuningdek, nota savodxonligiga oid barcha belgilar va alomatlar birgina yo'ldan iborat bo'lgan bo'rtma nuqtalar ko'rinishida o'z aksini topishi ko'zda tutilgan. Ayrim noqulaylik tug'diruvchi belgilarni qayta ko'rib chiqish, moslashtirish, mavjud bo'lmaganlarini esa yaratish zarur bo'ladi, bunday izlanishlar natijasi o'zidan keyingi joriy qilinadigan ko'plab darsliklarga keng yo'l ochib beradi. Bu esa kelajak avlodning bizdanda yuqori cho'qqilarga erishib, musiqa ilmining yetuk namoyondalari, buyuk san'at ustalari bo'lib yetishishlariga xizmat qiladi. [6]

Tahlil va natijalar. Dars musiqa tarbiyasi tizimida yetakchi omil hisoblanadi. Chunki, bolalar yalpi tarzda qamrab olinadi. Musiqa bolalarni aqliy hamda axloqiy rivojlanishida katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun musiqa darslari eng avvalo, tarbiya darsi deyiladi. Yangi dastur mazmunida dars o'tish uchun musiqa o'qituvchisi o'zining musiqiy va nazariy bilimlarni takomillashtirish lozim. Bugungi kunda musiqa insonni shakllanishida muhim rol o'ynaydi, uning hissiyoti va fiziologiyasiga aktiv ta'sir ko'rsatadi. Maktablarining asosiy vazifalaridan biri, o'quvchilarni fikrlash va uylashga o'rgatishdir. Bu vazifani amalga oshirishda musiqa darsi muhim ahamiyatga ega. Bunda o'qituvchi bolalarni ma'lum bir musiqa asari bilan tanishtirib uni ifodali, «jonli» qilib ijro etib, o'quvchilar diqqat e'tiborini asarga jalb etadi, ularning nutqini o'stirish, fikrlash qobiliyatini, dunyoqarashini kengaytiradi, emotsional his-tuyg'ulariga ham aktiv ta'sir etadi. Musiqa darslarining mazmunida faqatgina o'zlashtirish emas, balki o'quvchilar ongini vokalikka munosabatini rivojlantirish, estetik madaniyatini tarkib toptirish va boshqa ichki his-tuyg'ularini shakllantirish nazarda tutiladi. O'quvchilarning darsga ijodiy tarzda yondashishi muhim ahamiyat kasb etadi va bir qancha vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Musiqa boshqa san'at turlaridan o'zining ifoda vositalari, ya'ni «tili» bilan farq qiladi. Agar badiiy adabiyot so'z bilan tasviriy san'at ranglar bilan, raqs san'ati harakat bilan ifodalansa, musiqa esa mantiqiy tovushlarda vujudga kelgan ohang vositasida ifodalanaadi. Yuqoridagi san'at turlarini ko'rish va eshitish orqali idrok etsak, musiqani faqatgina diqqat bilan tinglabgina ifoda etamiz. Shuning uchun ko'zi ojiz kishilardan ham yetuk musiqachilar yetishib chiqqan.

1) Musiqa aniq vaqt o'lchovi bilan bog'langan san'atdir. Shuning uchun, ijro etilayotgan musiqa tempiga sozlanib, uning har bir elementini diqqat bilan tinglamasak, asarni mukammal idrok etolmaymiz. Mumtoz asarni qayta-qayta tinglaganda uning yangi-yangi badiiy qirralarini his etamiz.

2) Musiqa bolalarga aktiv emotsional ta'sir ko'rsatadi, quvontiradi hamda ijodiy kechinmalar uyg'otadi. Yaxshi, mazmunli, qiziqarli musiqa darsidan bolalar xordiq chiqarib, badiiy ozuqa oladilar, quvnoq, xursand bo'lib chiqadilar. Xullas, musiqa darsi o'zining aktiv psixologik ta'siri bilan boshqa fanlardan farq qiladi.

Musiqa o'qitish metodikasi vazifalarini amalga oshirishda, musiqa mashg'ulotlarida o'qitishning unumli metodlaridan foydalanishga bog'liq. Yetuk olimlarimizning tadqiqotlarida maktab musiqa o'qituvchisining shaxsiyati va unga bo'lgan kasbiy talablar va bolalar munosabatini, xususiylaridan foydalanish jarayonida hal qilish lozimligini ilmiy asosda ta'riflab berganlar.

Unumli metod biror bir fanning amaliy va ijodiy ishlari mazmunini va mavzusini keng yoritib berish va mustahkamlashda, musiqa rahbari va bola faoliyatida o'zaro aloqadorligini va bolalarni bilish jarayonida izlanishga undovchi metoddir. Unumli metodlar o'qitish faoliyati va maqsadiga qarab to'rtga bo'linadi[1;180]:

Mashg'ulot (dars)larning musiqiy umumlashtiruvchi metodi.

O'tilajak mashg'ulot(darslar)ga oldindan «yugurib», bog'lab o'tish va ilgari o'tilganlarga qaytish metodi.

Mashg'ulot (dars)lar mazmunining emotsional dramaturgiyasi metodi.

Mashg'ulot (dars)larning pedagogik jihatdan kuzatilishi va bilimlarning baholanishi metodi.

Endi har bir metodni alohida ko'rib chiqamiz.

1. Mashg'ulot (dars)larni musiqiy umumlashtiruvchi metodi yetakchi metodlardan biri bo'lib, bolalarni musiqa idroki, mantiqiy badiiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgandir:

a) Musiqa rahbari (o'qituvchisi) mashg'ulot (dars)larda hal qilinishi lozim bo'lgan konkret vazifalarni vujudga keltiradi;

b) Musiqa rahbari (o'qituvchisi) va bola o'zaro hamkorlikda masalani yechadi;

v) Bolalar tomonidan yakuniy xulosalar chiqariladi.

Oldinga «yugurib o'tish», ya'ni ilgari o'tilgan materialdan foydalanib, bolalarni yangi material o'zlashtirishga

tayyorligini sinab ko'rish va bunda oldin egallagan bilimlarga suyanish uchun foydalaniladi.

Emotsional dramaturgiya metodi bilan mashg'ulotlarning mantiqiy yaxlitligiga erishiladi.

Bunda chorak mavzusi asosida mashg'ulotlar rejasini uchun asarlar tanlanadi. Tanlangan mavzular ham maqsadga muvofiq bo'lib, boshlanishi va yakunlanishiga bog'liqdir. Musiqa rahbari mashg'ulotlarni ijrochilik mahorati, so'z ustaligi bilan qiziqarli qilib o'tishi kerak va bolalarni mashg'ulotlarga faol qiziqtirib, mashg'ulotlarning emotsional dramaturgiyasi, ya'ni avjiga erishishi lozim.

Musiqa madaniyati o'qituvchisi maktabda musiqa darslaridan tashqari konsertlar, badiiy kechalar, uchrashuvlar o'tkazishi talab etiladi.

Mashg'ulot (dars)larni pedagogik kuzatilishi va bilimlarni baholash maqsadga qarab bir necha turlarga bo'linadi:

a) Bolalarni bilish faoliyatini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi turi.

b) Bilim faoliyatini rag'batlantirish va tanbehlash talablarini qo'yish.

v) O'qish, bilish faoliyatini samaradorligini boshqarish va nazorat qilish. Baholashda shunday ehtiyotkor bo'lish kerakki, bolalarning kayfiyati tushib ketmasin, mashg'ulotlarga, qo'shiq kuylashga qiziqishi so'nmasin. Rag'batlantirishda esa aksincha. Musiqa rahbari va bola munosabatlari me'yordan chiqib ketmasligi kerak. Balki, rag'batlantirish, guruhda boshqa bolalarga namuna bo'lib xizmat qilsin va ular odobli, aqilli bo'lishga intilsinlar[1]:

Xulosa va takliflar. Xulosa tarzida ta'kid o'rinliki, ushbu mummaolar yechimini topish uchun quyidagi nazariy – amaliy va metodik ishlar yuzasidan faoliyat olib borish maqsadga muvofiqdir:

1. Brayl nota alifbosini yaratish.

2. Mavjud Musiqa nazariyasi, Solfedjio, Shashmaqom, Fortepiano, Ansanbil, Orkestr, Xor uchun bir ovozli va kop ovozli kuy-qo'shqlarning matnlari va notalarini brayl yozuviga o'girib, alohida kitob shaklida nashr qilish.

3. Ko'zi ojiz o'quvchilarni musiqa va san'at sohasida o'qitish uchun maxsus o'quv dasturlar ishlab chiqish.

4. Brayl doskalarini joriy qilish, Tiflometronom va Tiflotyunerlarni ko'zi ojizlar uchun moslashtirish.

5. Musiqa tiflopedagogikasi metodikasini ishlab chiqish va pedagoglarni bu tizim bo'yicha qayta tayyorlash.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 03.08.2017 dagi O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi
2. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 22-iyulda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 11-sentabrda ma'qullangan O'RBQ-641. 8, 38, 40-moddalari
3. ORQ-641 "Nogironligi bolgan shaxslaening huquqlari togrisi". www.lex.uz
4. Loyixa muallifi. "Ko'ngil ko'zi" loyihasi muallifi, Nass-media fondi raisi o'rinbosari Saida Mirziyoyeva. 14:49/ 23.12.2019. www.xabar.uz
5. Madina Nasretdinova, Dilshod Toshaliyev, & Durdona Raimjon Qizi Murodova (2022). An'anaviy ijrochilik san'atining hozirgi davr muammolari. Scientific progress, 3 (2), 846-850.
6. Madina Nasretdinova, Ismoil Rustamov, & Oybek Karimov (2022). Musiqa san'atining hozirgi kundagi o'rni. Scientific progress, 3 (2), 841-845.



UDK:372.8

Пакиза ИСАМОВА,

кандидат педагогических наук, доцент Узбекского государственного университета мировых языков

E-mail: isatova@mail.ru

По основны рецензией д.п.н Т.Сиддиковой

MODERN INTERNATIONAL STANDARDS FOR DIAGNOSING AND MONITORING KNOWLEDGE AND SKILLS OF STUDENTS AT A UNIVERSITY

Annotation

In today's globalized and competitive world, the importance of evaluating and monitoring the knowledge and skills of students at universities cannot be overstated. Modern international standards have emerged to ensure that assessments are rigorous, fair, and aligned with the demands of the ever-evolving academic and professional landscapes. This article explores the contemporary approaches and methodologies utilized in diagnosing and monitoring student knowledge and skills at the university level, highlighting the significance of adhering to international standards for promoting educational excellence and student success.

Key words: Assessment Standards, Student Learning Outcomes, Higher Education, Authentic Assessment, Formative Assessment, Technology-Enhanced Assessment, Rubrics, Feedback.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ ДИАГНОСТИКИ И КОНТРОЛЯ ЗНАНИЙ И НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ ВУЗА

Аннотация

В современном глобализованном и конкурентном мире важность оценки и мониторинга знаний и навыков студентов в университетах невозможно переоценить. Появились современные международные стандарты, гарантирующие, что оценки будут строгими, справедливыми и соответствующими требованиям постоянно меняющейся академической и профессиональной среды. В этой статье исследуются современные подходы и методологии, используемые для диагностики и мониторинга знаний и навыков студентов на университетском уровне, подчеркивая важность соблюдения международных стандартов для повышения качества образования и успехов студентов.

Ключевые слова: Стандарты оценивания, результаты обучения учащихся, высшее образование, аутентичная оценка, формативное оценивание, технологическое оценивание, рубрики, обратная связь.

UNIVERSITETDA TALABALARNING BILIM VA KO'NIKALARINI DIAGNOSTIKA QILISH VA MONITORING QILISHNING ZAMONAVIY XALQARO STANDARTLARI

Annotatsiya

Bugungi globallashtirilgan va raqobatbardosh dunyoda universitetlarda talabalarning bilim va ko'nikmalarini baholash va nazorat qilishning ahamiyatini oshirib bo'lmaydi. Baholashning qat'iy, adolatli va doimiy rivojlanayotgan akademik va professional landshaftlar talablariga mos kelishini ta'minlash uchun zamonaviy xalqaro standartlar paydo bo'ldi. Ushbu maqola universitet darajasida talabalar bilim va ko'nikmalarini tashxislash va monitoring qilishda qo'llaniladigan zamonaviy yondashuvlar va metodologiyalarni o'rganadi, ta'limning mukammalligi va talabalar muvaffaqiyatini targ'ib qilishda xalqaro standartlarga rioya qilishning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Baholash Standartlari, Talabalarning O'quv Natijalari, Oliy Ma'lumot, Haqiqiy Baholash, Shakllantiruvchi Baholash, Texnologiyalarni Kengaytirilgan Baholash, Rubrikalar, Fikr-Mulohazalar.

Введение. Оценка знаний и навыков студентов является краеугольным камнем образовательного процесса в университетах по всему миру. Поскольку высшие учебные заведения стремятся вооружить студентов компетенциями, необходимыми для достижения успеха во все более сложном и взаимосвязанном мире, потребность в надежных и стандартизированных методах оценки результатов обучения стала первостепенной. В ответ на этот императив появились современные международные стандарты, которые служат руководством для диагностики и мониторинга знаний и навыков учащихся, преодолевая географические границы и культурные различия.

В этой статье мы приступаем к исследованию этих современных подходов и методологий, углубляясь в принципы, лежащие в основе практик оценивания, используемых в университетских условиях. Мы объясним

эволюцию стандартов оценивания, проследив их путь от традиционных методов к многогранным подходам, принятым в современную эпоху. Более того, мы рассмотрим ключевые компоненты, которые характеризуют современные стандарты оценивания, подчеркивая их роль в обеспечении достоверности, надежности и справедливости.

Кроме того, мы углубимся в сферу технологического оценивания, признавая преобразующее влияние цифровых инструментов и платформ на оценку обучения учащихся. Хотя технологии открывают беспрецедентные возможности для инноваций и масштабируемости, они также создают проблемы, требующие тщательного рассмотрения.

В конечном итоге, эта статья призвана подчеркнуть важность соблюдения современных международных

стандартов в диагностике и мониторинге знаний и навыков студентов на университетском уровне. Приняв эти стандарты, учебные заведения могут способствовать развитию культуры постоянного совершенствования, вооружая студентов способностями, необходимыми для процветания в постоянно меняющейся академической и профессиональной среде.

Литературный обзор. Оценка знаний и навыков учащихся была предметом научных исследований и дискуссий на протяжении десятилетий, при этом исследователи и преподаватели стремились разработать обоснованные, надежные и справедливые методологии. Обзор литературы показывает богатый набор теорий, рамок и передового опыта, которые сформировали эволюцию стандартов оценивания в высшем образовании.

Исторически оценивание в университетах было преимущественно ориентировано на экзамены и фокусировалось на оценке когнитивных способностей посредством письменных тестов и эссе. Однако этот традиционный подход оказался под пристальным вниманием из-за его узкой направленности на механическое запоминание и ограниченной способности охватить весь спектр результатов обучения учащихся (Brown & Knight, 1994)[1]. В ответ на эту критику ученые выступили за более целостный и аутентичный подход к оценке, охватывающий широкий спектр навыков и компетенций.

Одной из влиятельных концепций, получивших известность в последние годы, являются принципы оценивания обучения (Black & Wiliam, 1998)[2]. Эта концепция подчеркивает формирующий характер оценивания, рассматривая его не как средство выставления оценок, а как инструмент для улучшения обучения учащихся. По мнению Блэка и Уильяма, эффективная практика оценивания должна обеспечивать своевременную и конструктивную обратную связь со студентами, позволяя им определять области для улучшения и предпринимать активные шаги для улучшения своего обучения[8].

Помимо формативного оценивания, все большее внимание уделяется важности аутентичных оценочных задач, которые отражают реальные проблемы и сценарии (Виггинс, 1990)[3]. Сторонники подлинного оценивания утверждают, что традиционные экзамены не отражают сложность обучения учащихся и плохо подходят для подготовки учащихся к требованиям современной рабочей силы. Напротив, аутентичные оценочные задачи, такие как задания на основе проектов и моделирование, предоставляют учащимся возможность применять свои знания и навыки в контекстуально богатой среде, тем самым способствуя более глубокому обучению и передаваемым навыкам (Gulikers et al., 2004)[4].

Появление технологий произвело революцию в сфере оценивания, позволив разработать инновационные инструменты и платформы для диагностики и мониторинга знаний и навыков учащихся. Компьютерное тестирование, онлайн-викторины и системы управления обучением стали повсеместными в университетах, предлагая преподавателям беспрецедентные возможности масштабируемости и эффективности. Однако интеграция технологий в практику оценки поднимает важные вопросы о доступности, справедливости и конфиденциальности данных, которые необходимо тщательно учитывать (Барак, 2016)[5].

Таким образом, литература раскрывает богатый набор теорий, рамок и передового опыта, которые

сформировали эволюцию стандартов оценивания в высшем образовании. Ученые и преподаватели продолжают изучать инновационные подходы к диагностике и мониторингу знаний и навыков учащихся, начиная с принципов оценивания обучения и заканчивая появлением аутентичных методов оценивания и усовершенствованных технологий. В дальнейшем университетам будет важно оставаться в курсе этих событий и придерживаться современных международных стандартов в своей практике оценивания.

Современные стандарты оценки включают в себя набор ключевых компонентов, которые необходимы для обеспечения достоверности, надежности и справедливости оценок. Эти компоненты служат руководящими принципами для разработки, внедрения и оценки методов оценивания в университетских условиях. Ниже приведены некоторые ключевые компоненты современных стандартов оценивания:

Центральное место в современных стандартах оценивания занимает соответствие оценок ясным и четко определенным целям обучения. Цели обучения определяют, что учащиеся должны знать и уметь в результате своего образовательного опыта. Оценки должны напрямую измерять эти цели, гарантируя, что они являются достоверными показателями обучения учащихся.

Современные стандарты оценивания подчеркивают использование аутентичных задач, которые отражают реальные проблемы и сценарии. Аутентичные задания требуют от учащихся применения своих знаний и навыков в контекстно-значимых ситуациях, способствуя более глубокому пониманию и передаче навыков. Примеры аутентичных задач включают тематические исследования, моделирование, проекты и упражнения по решению проблем[6].

Чтобы получить полную картину обучения учащихся, современные стандарты оценивания предусматривают использование нескольких показателей оценки. Вместо того, чтобы полагаться исключительно на экзамены или викторины, оценка должна включать в себя различные методы, такие как эссе, презентации, портфолио, задания на производительность и коллегиальную оценку. Такой многогранный подход гарантирует, что будет охвачен широкий спектр способностей учащихся и стилей обучения[7].

Четкие и прозрачные критерии необходимы для того, чтобы помочь учащимся и оценщикам понять ожидания от успеваемости. Современные стандарты оценивания подчеркивают использование рубрик и критериев, которые формулируют конкретные критерии успеха и дают четкие описания различным уровням успеваемости. Рубрики помогают обеспечить последовательность и справедливость выставления оценок, а также способствуют самооценке и размышлению учащихся.

Современные стандарты оценивания отдают приоритет доступности и справедливости, гарантируя, что оценивание будет справедливым и инклюзивным для всех учащихся. Оценки должны быть разработаны с учетом потребностей различных учащихся, в том числе лиц с ограниченными возможностями и представителей маргинализированных слоев общества. Это может включать предоставление альтернативных форматов, приспособлений или вспомогательных технологий, чтобы гарантировать всем учащимся равные возможности продемонстрировать свои знания и навыки.

Обратная связь играет решающую роль в процессе оценки, предоставляя учащимся информацию об их успеваемости и направляя их к улучшению. Современные стандарты оценивания подчеркивают важность своевременной и конструктивной обратной связи, которая является конкретной, действенной и ориентированной на цели обучения. Кроме того, возможности для размышлений учащихся о своем учебном опыте и результатах оценивания являются неотъемлемой частью развития метакогнитивной осведомленности и саморегулируемого обучения.

Наконец, современные стандарты оценки признают, что оценка представляет собой повторяющийся процесс, требующий постоянной оценки и улучшения. Учреждения должны регулярно анализировать и размышлять о практике оценивания, получать обратную связь от заинтересованных сторон и вносить коррективы по мере необходимости, чтобы гарантировать, что оценки остаются актуальными, действительными и эффективными в содействии обучению и успеху учащихся.

В целом, эти ключевые компоненты современных стандартов оценивания обеспечивают основу для разработки и проведения оценок, которые являются значимыми, справедливыми и соответствуют образовательным целям. Придерживаясь этих стандартов, университеты могут гарантировать, что их практика оценки будет способствовать развитию знающих, квалифицированных и успешных выпускников.

Заключение. В заключение отметим, что принятие современных международных стандартов диагностики и мониторинга знаний и навыков студентов в университетах имеет важное значение для повышения качества образования и успехов студентов. В этой статье мы исследовали ключевые компоненты и принципы, лежащие в основе этих стандартов, подчеркнув их важность для руководства практикой оценки, которая является строгой, справедливой и соответствует образовательным целям.

От четких целей обучения и аутентичных задач до использования множества показателей и прозрачных критериев — современные стандарты оценивания обеспечивают комплексную основу для разработки оценок, которые точно измеряют результаты обучения учащихся. Подчеркивая важность доступности и справедливости, эти стандарты гарантируют, что оценивание будет инклюзивным и будет способствовать успеху всех учащихся, независимо от их происхождения и способностей.

Более того, современные стандарты оценивания признают важность обратной связи, размышлений и постоянного совершенствования процесса оценивания. Предоставляя студентам своевременную и конструктивную обратную связь и участвуя в регулярном анализе и анализе методов оценивания, университеты могут способствовать развитию культуры непрерывного обучения и совершенствования.

Когда мы смотрим в будущее, становится ясно, что ландшафт высшего образования будет продолжать развиваться под воздействием достижений технологий, изменений в социальных потребностях и сдвигов в образовательных парадигмах. В этой динамичной среде как никогда важно, чтобы университеты продолжали придерживаться современных международных стандартов оценки знаний и навыков студентов. Поступая таким образом, вузы могут гарантировать, что их выпускники хорошо подготовлены к решению проблем 21 века и вносят значимый вклад в жизнь общества.

По сути, современные стандарты оценивания служат ориентиром, направляющим университеты к эффективным, справедливым и преобразующим практикам оценивания. Приняв эти стандарты, университеты могут выполнить свою миссию по предоставлению студентам знаний, навыков и компетенций, необходимых им для процветания в постоянно меняющемся мире.

ЛИТЕРАТУРА

1. Barak, M. (2016). Technology-Based Assessments in Higher Education: A Review of the Literature. *Journal of Technology and Teacher Education*, 24(3), 253-274.
2. Biggs, J. (1999). *Teaching for Quality Learning at University: What the Student Does* (1st ed.). McGraw-Hill Education.
3. Bennett, R. E., Persky, H. R., Weiss, A. R., & Jenkins, F. (2008). *Technology in Large-Scale Assessment: Current Issues and Future Trends*. Educational Testing Service.
4. Black, P., & Wiliam, D. (1998). Inside the Black Box: Raising Standards Through Classroom Assessment. *Phi Delta Kappan*, 80(2), 139-148.
5. Boud, D., & Falchikov, N. (2007). *Rethinking Assessment in Higher Education: Learning for the Longer Term* (1st ed.). Routledge.
6. Brown, S., & Knight, P. (1994). *Assessing Learners in Higher Education*. Routledge.
7. Gulikers, J., Bastiaens, T., & Kirschner, P. (2004). A Five-Dimensional Framework for Authentic Assessment. *Educational Technology Research and Development*, 52(3), 67-86.
8. Hattie, J., & Timperley, H. (2007). The Power of Feedback. *Review of Educational Research*, 77(1), 81-112.



UDK:371.018

Muhammadrahim KARIMOV,
Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistenti
E-mail: kmuhammadrahim1212@gmail.com

ADU Fuqarolik jamiyati nazariyasi kafedrasida professori, t.f.d. O.K.Komilov taqrizi asosida

FAMILY FACTOR IN EDUCATION AND TRAINING

Annotation

The article highlights the particular status of the family in a fair, free democratic society that is being set up in our country, focusing on family issues and the role and importance of family role in improving the quality of education.

Key words: Comprehensively advanced generation, perfect man, youth spirituality, family code, family ethnicity, family culture, national idea, education, quality of education, family relationship, family and education effectiveness, national values, moral values, legal values.

СЕМЕЙНЫЙ ФАКТОР В ОБРАЗОВАНИИ И ОБУЧЕНИИ

Аннотация

В статье описывается особый статус семьи в строящемся в нашей стране справедливом, свободном демократическом обществе, особое внимание к семейному вопросу, а также роль и значение семейного фактора в повышении качества образования.

Ключевые слова: Идеальное поколение, совершенный человек, духовность молодежи, Семья, Семейный кодекс, семейная духовность, семейная культура, национальная идея, образование, качество образования, отношение к семье, эффективность семьи и образования, национальные ценности, моральные ценности, правовые ценности.

TA'LIM VA TARBIYADA OILA OMILI

Аннотация

Maqolada mamlakatimizda barpo etilayotgan adolatli, erkin demokratik jamiyatda oilaning alohida maqomi, oila masalasiga qaratilgan alohida e'tibor va ta'lim sifati samaradorligini oshirishda oila omilining roli va ahamiyati masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Barkamol avlod, komil inson, yoshlar ma'naviyati, Oila, Oila kodeksi, oila ma'naviyati, oila madaniyati, milliy g'oya, ta'lim, ta'lim sifati, oila munosabati, oila va ta'lim samaradorligi, milliy qadriyatlar, ahloqiy qadriyatlar, huquqiy qadriyatlar.

Kirish. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son qaroriga muvofiq yoshlarni mustaqil hayotga kafolatli tayyorlash, tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanib, 18 yoshigacha davom etadigan, tadrjijiylik va uzluksizligiga asoslangan metodikani ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish, yoshlarni shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirish, dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash jamiyat hayotining barcha sohalarida ma'naviy omillar ustivorligini, jumladan ta'lim sohasini ham ta'minlashga da'vat etilgandir. Erkin demokratik va fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat qurilayotgan hozirgi sharoitda oilaga xos madaniy xususiyatlarni ilmiy tadqiq etish, shu asosda uning takomillashuviga ko'maklashish nafaqat jamiyat, balki har bir fuqaroning ham muqaddas burchidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bu sohada, ayniqsa, oila, oilaviy munosabatlarni milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlar negizida uzluksiz ma'naviy tarbiyani rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Zero, barkamol avlod ana shu oilaviy muhitda tarbiya topadi, jamiyatdagi mavjud sotsial, iqtisodiy, mafkuraviy va ma'naviy munosabatlar uning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu munosabatlar jonli, o'zgaruvchan, rivojlanuvchan bo'lib, uning mohiyat-mazmuni ko'p jihatdan ma'naviy omillarga, ta'lim darajasiga bog'liq

bo'ladi. Bunda oilaning madaniylik darajasi, oila muhitini qaror toptiradigan ma'naviy qadriyatlarning roli nihoyatda kattadir.

Jamiyatning tabiati insonlarning mohiyati bilan uzviy bog'liq ekan, uni oiladan, oilaning manfaatlaridan tashqarida tasavvur etish mumkin emas. Binobarin, ongli oila bo'lib yashash dunyodagi barcha mahluqot va jonzotlar orasida faqat inson zotiga xosdir. Zardo'shtiylikning «Avesto» asarida oila mustahkamligini saqlash, nikoh tartiblari, er-xotinning majburiyati, nikoh tuzish va bekor qilish qonun-qoidalari batafsil bayon etilgan. Davlatning obod va farovonligi fuqarolarning baxt-saodati bilan uzviy bog'liq tushunchalar ekanligi turkiy O'rxun-Yenisey bitiktoshlarida ham o'z ifodasini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Oilaning jamiyatda tutgan o'rni, oila tarbiyasi, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar, shuningdek, oilaning pokligi va mustahkam bo'lishiga oid qimmatli fikrlar Qur'oni Karim va hadislarda, buyuk mutafakkirlar Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, Farg'oniy, Navoiy va boshqalar ilmiy-nazariy ta'limotlarida komil inson fazilati haqidagi fikr-mulohazalarida qoldirilgan [4]. Jadidchi ma'rifatchilar yangi davr va yangi tuzum uchun kurashni eng avvalo oilani isloh qilishdan boshladilar. Ularning fikricha, oila asosini to'g'ri qurmay va yosh avlodni to'laqonli to'g'ri yo'lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo'naltirish mumkin emas binobarin millat taqdiri uning oilasi holatiga bog'liqdir [5].

Birinchi prezident I.A.Karimov, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning ma'ruza va asarlarida ifodalangan mustaqillikni mustahkamlashning ma'naviy omillari, ma'naviyat va madaniyat, o'zlikni anglash, milliy ong, milliy mentalitet, milliy an'ana va urf-odatlar, milliy iftixorni o'stirish, oila, oilaviy munosabatlarni takomillashtirish, oilaning ma'naviy negizlarini mustahkamlashda milliy o'zlikni anglash, milliy an'analarga sodiqlik, umuminsoniy qadriyatlarining ta'sirini tavsiflashga bag'ishlangan masalalar tashkil etadi.

Milliy mustaqillik mafkurasining oilaviy munosabatlar mazmunini chuqurlashtirishga, oilaning mafkuraviy tarbiyadagi rolini ko'tarishga, sog'lom mafkuraviy muhitni vujudga keltirishga qaratilgan g'oyalari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Oila» kodeksi, «Ta'lim to'g'risida» qonun, Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallagan harakatlar strategiyasi kabilarda o'z ifodasini topgan.

Oila jamiyatning yuridik ma'nodagi nikoh, qarindoshlik, farzandlikka olish yoki boshqa shakllarda bolalarni doimiy tarbiyaga olishdan kelib chikadigan tegishli huquq va majburiyatlar bilan umuminsoniy qadriyatlar va sharqona an'analarga asoslangan oilaviy munosabatlarni rivojlantirib, uni mustahkamlashga qaratilgan fuqarolar ittifoqidan iborat bo'lib qolmay, balki kelajak avlodni dunyoga keltiruvchi, avlodlar silsilasini bog'lovchi, hayot va mehnatga tayyorlovchi, ya'ni ta'lim beruvchi jamiyatning tabiiy va asosiy bo'g'ini hamdir.

Demak oila, oila ta'limi, oilaviy tarbiya muammolari oilaning ijtimoiy-tarixiy roli va o'rni, oilaning huquq va burchlari, oilada adolat va tenglikning qaror topishi, oilada axloq me'yorlariga rioya qilish, oilaning ijtimoiy, iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash, uning ma'naviy asoslarini takomillashtirish, oila va jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtirish, oilada sog'lom muhitni rivojlantirish kabi masalalarni o'z ichiga oladi.

Inson haq-huquqlari va hurfiylik tamoyili milliy axloqiy qadriyatlar orasida alohida o'rin tutadi. Erkin shaxsda mulohaza, mushohada qilish qobiliyati rivojlanadi, o'z Vatani, o'z oilasi taqdiri haqida o'ylaydi. O'zbek oilalarining qonqoniga singib ketgan odob-axloq, or-nomus, uyat-andisha, mehmonnavozlik qonuniyatlarini o'zlashtiriladi.

Darhaqiqat, «Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlarini shakllanadi. O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining, qarindosh urug'lari va yaqin odamlarning, qo'ni-qo'shnilarining omon-essonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir»[6].

Ta'lim — bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli tipdagi o'quv yurtlaridagi o'qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ma'lumot va bilim berish jarayonini ham bildiradi [6]. Ta'lim - ijtimoiy rivojlanish sohasidagi asosiy yetaklovchi omildir. YuNESKO tashkiloti qoshida tuzilgan E.For boshchiligidagi komissiyaning 1972 yildagi "Hayot uchun ta'lim" konsepsiyasida, uzluksiz ta'lim jarayonida shaxs kompetentligini: bilimlardan foydalanmoq, ishini bajarmoq, birgalikda yashamoq va rivojlanmoq deb ta'riflangan va bu

darajasini egallash shaxsning butun hayot faoliyati (shu jumladan oilada ham) davomida amalga oshiriladi va unga shaxsiy yoki kasbiy muammolar tug'ilgan tarzda ta'lim olish imkoniyatini beradi.

Demak, ushbu jarayonda oilada berilayotgan ta'limning ham o'rni beqiyosdir. Zero ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi. Ta'lim jarayonida olinadigan bilim va ma'lumotlar natijasida tarbiya amalga oshiriladi.

Bugungi kunda ota-onaning farzandi kelajagi haqida qayg'urar ekan, oilada tashkil etiladigan "Oila kutubxonasi"ning o'rni alohida ahamiyatga egadir. Oilada turli: iqtisodiy, badiiy, diniy, kasbiy, tarixiy ensiklopedik (qomusiy) kitoblarning mavjud bo'lishi bolani yordam dunyoqarashga, kasbga, hunarga yo'naltirishiga katta yordam beradi. Albatta ota-onaning bilimliligi farzand qaysi kasbni egallasa oilasi, vatani uchun qay darajada muhim ekanligini singdira olsa, kelajakda barkamol insonni, yetuk mutaxassisni obro'-e'tibori oila, mahalla va yurt sha'ni ekanligini anglatilishi, farzandni hayotga bo'lgan ishtiyoqi, mehru-muhabbati, orzu-intilishlariga qanoat bo'lishi mumkin.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan shunday xulosalarga kelish mumkin:

zamonaviy oila tarbiyasi, eng avvalo, milliy axloqiy madaniyat bag'rida, oila ta'limi negizida, u bilan uzviy bog'liq holda tarkib topadi;

oilalari tarbiyasi tarbiyalanuvchining oilada olgan ta'limi natijasida shakllanadi va har tomonlama ijodkor, mustaqil faoliyat yuritadigan qilib tarbiyalashda hal qiluvchi rol o'ynaydi;

milliy axloqiy madaniyatga xos bilimlar, ilg'or tamoyillar, yetakchi xususiyatlar ta'sirchan yagona manba sifatida oila tarbiyasini boyitib, yangilab, o'zgartirib boradi;

milliy xususiyatlar hamisha umuminsoniy qadriyatlar bilan uzviy bog'langan ekan, oila tarbiyasi orqali xalqimiz umumbashariy, qadriyatlar takomiliga o'z hissasini qo'shgan. Binobarin, umuminsoniy madaniyatdan ajralib qolgan alohida milliy madaniyatning bo'lishi mumkin emas, bu fikrlar oila tarbiyasiga ham bevosita bog'liq bo'lib, unda milliy va umuminsoniy madaniyat tamoyillari bir-biriga uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi;

oilalari milliy axloqiy madaniyat bag'rida u bilan o'zaro aloqada tarkib topadi. Umuminsoniy axloqiy madaniyat tamoyillari esa oila madaniyatining o'zaro uyg'unligini namoyon etuvchi mezon hisoblanadi;

Ta'lim sifati samaradorligining oshishi oila muhiti bilan bog'liq bo'ladi;

Ta'lim beruvchi ota-onaning o'zi bugungi kun bilimlaridan xabardor bo'lishi va uni farzandlariga yetkaza oladigan mahoratni egallashi zarur. Ota-ona o'zi bilmagan yoki tushunmagan bilimlarini farzandlariga yetkaza olmaydi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan madaniy-ma'rifiy islohotlar oilada ma'naviy muhit, uning mahalla, jamiyat bilan aloqasi, oilada er-xotin munosabatlari, oila va jamiyatda farzandlarning o'rni, umuman, tarbiyada onalar, ayollar, farzandlarning roli, mas'ulligini oshirish yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida oilaviy munosabatlarni ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-huquqiy kafolatlanishiga bag'ishlangan alohida bob ajratildi, O'zbekiston Respublikasi «Oila kodeksi» qabul qilindi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlar qo'mitasi huzurida Respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazi (1998), Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi (2020) tashkil etildi va x.k.[7].

Tadqiqot yuzasidan amalga oshirilgan konkret-sotsiologik tadqiqotlar, ularning natijalari ko'rsatadiki, hozirgi davrda oilalarda farzandlarning tadbirkorlik qobiliyatlarini tarbiyalash, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish ustivor o'rin tutmoqda. Farg'ona shahri, Toshloq tumani mahallalarida o'tkazilgan tadqiqotlarda tadbirkorlik bilan shug'ullanishda boshqa yoshdagilarga nisbatan 17-24 yoshlilar ko'pchilikni tashkil etadi. Ularning iqtisodiy bilimlarini oshirish yoshlarning ishbilarmonlik va tadbirkorlik mahoratlarini yuksaltiradi. Ayni paytda Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan aholining kitobxonlik darajasini ko'tarish tashabbusi kishilarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgandir.

Tahlil va natijalar. Ta'lim va tarbiya samaradorligini amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratilishini tavsiya etamiz:

oila tarbiyasida ota-onaning mas'ulligini, mahalla va ijtimoiy institutlarning faolligini yanada oshirish, bolalarga huquqiy madaniyat asoslarini singdirish, ularda o'zining har qanday xatti-harakati uchun shaxsiy mas'ulligini, javobgarligini his etishni tarbiyalash;

oilada axloqiy madaniyatni tarkib toptirishning mazmuni va yo'nalishlarini milliy g'oyaning asosiy tamoyillari uyg'unligida belgilash, bolalarda milliy mafkuraning vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik g'oyalarini singdirishda muvaffaqiyatga erishish uchun ularning ma'naviy, axloqiy, psixologik qobiliyatlariga mos san'at asarlari yaratish, ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada takomillashtirish;

mahalla tuman, shahar, viloyat, respublika miqyosida muntazam ravishda "Namunali oila", "O'qimishli, savodxon oila", "Tadbirkor oila", "Farovon oila" kabi mavzularda ko'rik tanlovlari o'tkazishni yanada mukammallashtirish;

zamonaviy kasb-hunarlariga o'qitish, ularning iqtisodiy va moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda, ayniqsa ayollarimizda tadbirkorlikka ishtiyoqni uyg'otish zarur. Shu

maqsadda mahallalarda "Oila maktablari" o'quv kurslarini tashkil etish, unda yosh ota-onalarga farzandlarini hayot va mehnatga tayyorlash uchun zarur bo'lgan zamonaviy ta'lim metodikalari bilan tanishtirish, keksa avlodning bu boradagi tajriba va mahoratlari bilan tajriba almashish, mahalla ahli, ayniqsa ayollarning huquqiy, iqtisodiy, tibbiy ong va madaniyatlarini oshirish. Ota-onalarning dunyoqarashini o'zgartira olmasak, ularda yangichasiga fikrlashni shakllantira olmasak, maqsadga yetishishimiz qiyin kechadi;

yangi qurilayotgan mahalla idoralari binolari tarkibida kutubxona va o'quv zallarining bo'lishligi, ularning zamonaviy AKTlar hamda badiiy adabiyotlardan tashqari ilmiy, ilmiy-uslubiy, yangi pedtexnologiyalarga oid adabiyotlar bilan ham ta'minlanishiga e'tiborni qaratish;

oila kutubxonalarini tashkil etish, kutubxonada badiiy, ilmiy, diniy, tarixiy, kasbiy adabiyotlar bo'lishligiga diqqatni qaratish;

ota – ona farzandiga o'z yo'li, o'z kasbi va o'z taqdirini erkin tanlashiga imkoniyat yaratib berishi;

xalqimizning milliy mentaliteti, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, aqliy salohiyati, mehnatsevarligi kabi qadriyatlariga, buyuk allomalarning yoshligi, axloqiy fazilatlariga urg'u beradigan risolalar, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, tarixiy, falsafiy, mafkuraviy mavzudagi maqolalar turkumini «Jannatmakon», "Oila" jurnali, "Oila va jamiyat", "Vatanparvar" kabi jurnal va gazetalar sahifalarida muntazam e'lon qilib borish, yosh teletamoshabinlarning axloqiy mavzudagi muloqotlarini muntazam tashkil etish;

ta'limda Milliy g'oya, O'zbekiston tarixi, Falsafa, Dinshunoslik va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar integratsiyasini yanada rivojlantirish va x.k.

Xulosa. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev so'zlari bilan aytganda "Odamlarimiz bilishi kerak, oila muqaddas biz uchun. Oilani saqlab qolmasak, biz o'zligimizni yo'qotamiz", - deb muxtasar qilamiz.

ADABIYOTLAR

1. Алимova Д. Оила пойдевори хақида рисола. //Фитрат, Оила, Т., Маънавият, 2000.
2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Тошкент., 2000-2005
3. Каримов.И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли, Т.Ўзбекистон, 1992, 22–23 б.
4. Ўзбекистон Республикасининг Оила кодексига шархлар.- Т. Адолат, 2000, 76.
5. Мирзиёев Ш.М. Яхши оила учун курашиши керак. 07.02.2018 йилдаги
6. Abdukayumovna, K. M. (2023). RAISING THE INNOVATIVE THINKING OF STUDENT-YOUTH. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(11), 585-590.



San'at KENJAYEV,
Urganch davlat universiteti o'qituvchisi
Dilshodbek RAJABOV,
Urganch davlat universiteti talabasi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti professori J.Eshnazarov taqrizi asosida

YOSH SPORTCHILARNI SHUG'ULLANTIRISHDA KUCH JISMONIY SIFATINI TARBİYALASH METODLARINING AHAMIYATI

Аннотация

Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sport bo'yicha pedagoglar har doim shug'ullanuvchilarning tabiiy rivojlanish darajasini hamda jismoniy tarbiya dasturlarida va musobaqa faoliyati xususiyatlarida nazarda tutilgan talablarni e'tiborga olgan holda ularning kuch qobiliyatlarini rivojlantirish usullaribo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Jismoniy sifatlari, kuch, sport, jismoniy tarbiya, jismoniy qobiliyatlar, zarbdor metod, metod, maksimal, pedagog, aylanma trenirovka metodi, amaliyot.

ЗНАЧЕНИЕ МЕТОДОВ ВОСПИТАНИЯ СИЛОВЫХ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ ПРИ ТРУДОУСТРОЙСТВЕ ЮНЫХ СПОРТСМЕНОВ

Аннотация

В данной статье педагоги по физическому воспитанию и спорту всегда дают предложения и рекомендации по способам развития их силы с учетом уровня естественного развития участников и требований, предусмотренных программами физического воспитания и особенностей соревновательной деятельности.

Ключевые слова: Физическое качество, сила, спорт, физическое воспитание, физические способности, ударный метод, метод, максимум, педагог, вахтовый метод обучения, практика.

THE IMPORTANCE OF METHODS FOR EDUCATION OF STRENGTH PHYSICAL QUALITIES IN EMPLOYMENT OF YOUNG ATHLETES

Annotation

In this article, physical education and sports pedagogues always give suggestions and recommendations on the methods of developing their strength skills, taking into account the natural development level of the participants and the requirements stipulated in the physical education programs and the characteristics of competition activities.

Key words: Physical qualities, strength, sport, physical education, physical abilities, striking method, method, maximum, pedagogue, rotational training method, practice.

Kirish. Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2017-yil 31-oktabr kuni jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqarish tizimini takomillashtirish, ommaviy sportni rivojlantirish, iqtidorli sportchilarni tanlash va tarbiyalash, sohani malakali kadrlar bilan mustahkamlash hamda zamonaviy sport inshootlarini barpo etish bo'yicha bo'lib o'tgan yig'ilishda belgilab berilgan vazifalarda yoshlarni jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib yetishishi yo'lida barchamizdan aniq maqsadga yo'naltirilgan say-harakatlar talab etadi. Bugungi kunning o'tkir va dolzarb muammolari bizdan zamonaviy taraqqiyotning asosiy tamoyillarini har tomonlama chuqur tahlil etish bilan birga, insoniyatning yaqin - olis tarixidagi boy tajribasini ham teran idrok etishni, shu asosda amaliy xulosalar chiqarishni taqozo etmoqda, ya'ni tarix tajribasi odamzod uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu boisdan jismoniy madaniyat darslariga, o'quv - mashg'ulot jarayonlariga yangicha nazar bilan yondashish taqozo etiladi. Yosh avlodga jismoniy madaniyatga oid bilimlarni shakllantirish, sportda yuksak natijalarga erishishni ta'minlash uchun maktab yoshidan boshlab ularda mustahkam poydevor yaratish lozim. Bu esa jismoniy madaniyat mutaxassislarida katta ma'suliyatni,

ya'ni jismoniy madaniyat darslarini to'g'ri tashkillashtirishni, darslarni mazmunli o'tkazish uchun yangi ilg'or texnologiyalardan foydalanishni, yangi usuliyatlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jismoniy tarbiya jarayonida hal qilinadigan asosiy vazifalardan biri insonga hos jismoniy sifatlarni to'laqonli rivojlanishini ta'minlash hisoblanadi.

Jismoniy sifatlari deb, insonning jismoniy faolligi shakllanishidagi maqsadli harakat faoliyati zamiridagi (irsiy) tug'ma morfofunksional sifatlarga aytiladi (L.P.Matveev,1991).

Asosiy jismoniy sifatlarga mushaklari kuchi, tezkorlik, chidamlilik, egiluvchanlik va epchillik kiradi.

Jismoniy sifatlarning dinamik o'zgarishlariga xos "rivojlanish" va "tarbiya" kabi atamalar ishlatiladi. Rivojlanish atamasi jismoniy sifatlarni tabiiy o'zgarishini tavsiflash, tarbiya atamasi jismoniy sifat ko'rsatkichlarining o'sishiga faol va yo'naltirilgan ta'sirini nazarda tutadi.

Zamonaviy adabiyotlarda "jismoniy sifatlari" va "jismoniy (harakat) qobiliyatlar" atamalaridan foydalaniladi. Ammo ularning ma'nolari bir xil emas. Harakat qobiliyatlarini

umumiy ko'rinishda inson harakat imkoniyatlarini aniqlovchi yakka xususiyatlar deb tushunish mumkin (V.L.Lyax,1996).

Tadqiqot metodologiyasi. Kuchni tarbiyalash metodlari. Jismoniy tarbiya amaliyotida har – xil turdagi kuch qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan bir qancha meodlardan foydalaniladi. Ular orasida eng ko'p tarqalgan metodlar quyidagi 1 jadvalda keltirilgan. Maksimal kuchlanish metodi maksimal qarshilikka bardosh berish zaruriyati bilan bog'liq vazifani bajarishni nazarda tutadi (masalan, chegaraviy og'irlikdagi shtangani ko'tarish).

Ushbu metod chegaraviy bo'lmagan metodga nisbatan kuchni oshishiga imkon berib, asab – mushak qobiliyatlarini rivojlanishini ta'minlaydi. Bolalar va yangi shug'ullanishni

1-jadval

Kuchni rivojlantirish metodlari	Kuchni rivojlantirish metodlarining yo'naltirilganligi	Yuklama komponentlarining mazmuni					
		Maksimum dan qarshilik og'irligi %	Mashqlarni takrorlash soni	Urinishlar soni	Damolish, daqiqa	Harakatlar tezligi	Mashqlarni bajarish maromi
Maksimal kuchlanish metodi	Kuchlarni maksimal rivojlantirish ustunligi	100 gacha va undan ko'p	1-3	2-5	2-5	Sekin	Ixtiyoriy
	Mushaklar massasini sezilarli o'sishi bilan kuchni maksimal rivojlantirish	90-95	5-6	2-5	2-5	Sekin	Ixtiyoriy
	Mushaklar massasi va kuchni bir hilda oshirish	85-90	5-6	3-6	2-3	o'rtacha	o'rtacha
Chegaraviy bo'lmagan kuchlanishlar soninime'yorlab takrorlash metodi	Mushaklar massasini oshirish ustunligi bilan kuchni maksimal o'sishi	80-85	8-10	3-6	2-3	o'rtacha	o'rtacha
	Kuch chidamliligini takomillashtirish va tana massasi yog' qatlamini kamaytirish	50-70	15-30	3-6	3-6	o'rtacha	Maksimalgacha yuqori
	Mushaklar relefi va kuch chidamliligini takomillashtirish	30-60	50-100	2-6	5-6	yuqori	yuqori
Chegaraviy bo'lmagan kuchlanishlarni takrorlash metodi (ohirigacha)	Kuch chidamliligini takomillashtirish (anaerob sharoitda)	30-70	ohirigacha	2-4	5-10	yuqori	Sub-maksimal
	Kuch chidamliligini takomillashtirish (glikolitikhajmda)	20-60	ohirigacha	2-4	1-3	yuqori	Sub-maksimal
Dinamik kuchlanishlar metodi	Og'irlik harakatlari yordamida tezlikni takomillashtirish	15-35	1-3	Tezlik pasayguncha	tiklanishgacha	Maksimal	yuqori
"Zarbdor"metodi	Harakat apparatining reaktiv qobiliyatlari va "portlovchi kuch"ni takomillashtirish	15-35	5-8	Kuchlanish quvvati pasayguncha	tiklanishgacha	Maksimal	ixtiyoriy

Chegaraviy bo'lmagan og'irliklardan foydalanib bajariladigan davomli takrorlashlar inson organizmining umumiy funksional imkoniyatlarining oshishi, organizmning boshqa tizimlari va mushak tizimining faollashishiga imkoniyat yaratadi.

Dinamik kuchlanish metodi. Ushbu metodning maqsadi - maksimal tezlikdagi chegaraviy qarshilik bilan maksimal kuchlanish tarangligi orasida hamjixatlikni yaratishdan iborat. Ushbu holatda mashq to'liq amplitudada bajariladi. Ushbu metod tezkor harakat sharoitlarida katta kuch qobiliyatlarini shakllantirishda, tezkor kuchni rivojlantirishda qo'llaniladi.

"Zarbdor" metodi – yuqoridan tushayotgan yuk yoki tana og'irligi (chuqurlikka sakrash va yuqoriga qaytish, jumladan, og'irliklar bilan) kinetik quvvatdan foydalanish yo'li bilan mushak guruhlariga zarbdor ta'sir ko'rsatadi. Dastlabki tezkor cho'zilishdan keyin mushaklarning kuchli qisqarishi kuzatiladi. Ularning qarshilik kuchi tana og'irligi va qulash balandligiga ta'sir ko'rsatadi. 0,75 – 1,15 m balandlikka optimal sakrash diapazoni kuzatuv yo'li bilan aniqlangan. Ammo amaliyot shuni ko'rsatadiki, ayrim holatlarda tayyorgarligi past sportchilarda nisbatan 0,25 – 0,5 m past balandlikni qo'llash maqsadga muvofiq.

Statik (izometrik) kuchlanish metodi. Kuch qobiliyatlarini tarbiyalashda yechiladigan vazifalarga bog'liq holda turli kattalikdagi izometrik kuchlanishni qo'llashni nazarda tutadi. Maksimal kuchni tarbiyalashda izometrik kuchlanishni asta – sekin oshirib borish maqsadga muvofiq. Izometrik mashqlarni bajargandan keyin bo'shashtiruvchi

boshlaganlar bilan ishlashda uni qo'llash tavsiya qilinmaydi, agarda uni qo'llashga zaruriyat tug'lsa u holda mashqlarni bajarilishini qattiq nazorat qilinishini ta'minlash zarur.

Chegaraviy bo'lmagan kuchlanish metodi chegaraviy takrorlash soni bilan chegaraviy bo'lmagan og'irliklardan (ohirigacha) foydalanishni nazarda tutadi.

5-6 dan 100 gacha qattiq me'yorlangan takrorlashlar soni kuch qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan va maksimal kattalikka yetmagan og'irlik kattaligiga bog'liq.

Tahlil va natijalar. Kuch jismoniy sifatini rivojlantirish metodlari va ularni qarshilik bilan bajariladigan mashqlarga yo'naltirilganligi

mashqlarni bajarish lozim. Shug'ullanish 10 – 15 daqiqa davomida olib boriladi. Mashg'ulotlarga izometrik mashqlarni kuchni rivojlantirish uchun qo'shimcha vosita sifatida kiritish mumkin.

Statodinamik metod. Izometrik va dinamik - mushaklar ishida ikkala tartibdagi mashqlarni ketma – ketlikda moslashuvini tavsiflaydi. Kuch qobiliyatlarini tarbiyalash uchun maksimumdan 80 – 90 % sezilarli qarshilikdagi pasaytirilgan portlovchi dinamik ish tavsifidagi 2-6 soniyali izometrik kuchlanishli mashqlar qo'llaniladi (bitta urinishda 2-3 qismdan iborat 2-3 takrorlash, qismlar orasida dam olish 2-4 daqiqa). Agarda, maxsus kuch qobiliyatlarini aynan, variativ tartibdagi mushaklar ish faoliyatida musobaqa mashqlarini qo'llashga zaruriyat bo'lsa, u holda ushbu metod maqsadga muvofiqdir.

Aylanma trenirovka metodi. Turli guruhdagi mushaklarga majmualari ta'sirini ta'minlaydi. Mashqlar bekatlar bo'ylab o'tkaziladi va ular shunday tanlanadiki, har bir keyingi seriya yangi mushaklar guruhini qamrab olishi lozim. Har xil mushak guruhlariga ta'sir ko'rsatuvchi mashqlar miqdori, bekatlarda ularni bajarish davomiyligi mashg'ulot jarayonida hal etiladigan vazifalar, shug'ullanuvchilarning yoshi, jinsi va tayyorgarligiga bog'liq. Chegaraviy bo'lmagan og'irliklardan foydalanib bajariladigan mashq majmualari davra bo'ylab 1 – 3 marta takrorlanadi. Majmuaning har bir takrorlanish oralig'ida dam olish muddati kamida 2 – 3 daqiqa bo'lib, bu vaqtda bo'shashtiruvchi mashqlar bajariladi.

O'yin metodi kuch qobiliyatlarining asosan o'yin faoliyatida tarbiyalanishini nazarda tutadi, bunda o'yin

vazifalari har xil mushak guruhlarining zo'riqish rejimlarini o'zgartirishga va organizmni ortib borayotgan charchog'i bilan kurashishga majbur qiladi.

Bunday o'yinlar sirasiga tashqi ob'yektlarning tutib turilishini talab etuvchi (masalan, "Chavandozlar" o'yinida sherikni), tashqi qarshilikni yengishga asoslangan (masalan, "Arqon tortish"), har xil mushak guruhlarini zo'riqtirish rejimlarini navbatlash bilan bog'liq (masalan, har xil vaznli og'irliklarni ko'tarib yurish estafetalari) o'yinlar kiradi.

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha pedagoglar har doim shug'ullanuvchilarning tabiiy rivojlanish darajasini hamda jismoniy tarbiya dasturlarida va musobaqa faoliyati xususiyatlarida nazarda tutilgan talablarni e'tiborga olgan holda ularning kuch qobiliyatlarini rivojlantirish usullarini tanlashga ijodiy yondashish kerak.

Kuch qobiliyatlarini tarbiyalash metodikasi. Mashqni bajarish sur'ati va takrorlash miqdori, shuningdek, mushaklar faoliyati rejimi hamda bir xil mushak guruhlariga ta'sir ko'rsatuvchi yondoshuvlar miqdoriga qarab kuch qobiliyatlarining har xil turlarini rivojlantirish vazifalari yuklatiladi.

Chegaraviy bo'lmagan og'irliklardan foydalanib kuch qobiliyatlarini tarbiyalash. Asl kuch qobiliyatlarini tarbiyalash va ayni vaqtda mushak massasini oshirish uchun o'rtacha hamda variativ sur'atda bajariladigan mashqlar qo'llaniladi. Buning ustiga, har bir mashq yaqqol ko'zga tashlanadigan charchoq paydo bo'lgunicha bajariladi.

Shug'ullanishni boshlovchilar uchun og'irlik kattaligi maksimumini 40-60 % qismigacha, birmuncha tayyorgarlik

ko'rmaganlar uchun 70 – 80 % qismigacha yoki 10 – 12 takroriy maksimum chegarasida olinadi. Og'irliklar har bir yondoshuvdagi takrorlashlar soni berilgan miqdordan ortgani sayin oshirib borish lozim. Bunday variantda ushbu metodni kattalar bilan ham, kichik yoshli boshlovchi sportchilar bilan ham ishlaganda qo'llash mumkin. Anchagina tayyorgarlik ko'rganlar uchun kuch rivojlanib borgani sayin og'irlik vazni asta – sekin 5 – 6 takroriy maksimumgacha (maksimumning taxminan 80 % qismigacha) ko'paytirilib boriladi.

Sportni kuch ishlatilmaydigan turlari uchun hafta davomidagi mashg'ulotlar soni – 2 yoki 3 ta. Har xil mushak guruhlarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar soni boshlovchilar uchun 2 – 3, tayyorgarligi bor bo'lganlar uchun 4 – 7 tadan oshmasligi zarur. Takrorlashlar orasidagi dam olish oraliqlari odatdagiga yaqin (2-5 daqiqa) bo'lib, og'irlik vazni, harakat tezligi va davomiyligiga bog'liq. Dam olish xususiyati – faol – passiv.

Mazkur metodning ijobiy jihatlari shundan iboratki, katta umumiy zo'riqishlarning haddan oshishiga yo'l qo'ymaydi va ish hajmining kattaligi tufayli trofik jarayonlar yaxshilanishini ta'minlaydi, bolalar va o'smirlar bilan mashg'ulotlar o'tkazganda nomaqbul hisoblangan zo'riqishlarni kamaytirishga imkon beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda jismoniy tarbiya va sport amaliyotida asosiy harakat sifatlariga ephillik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik, egiluvchanlikka ajratish qabul qilingan.

Jismoniy sifatlardan kuchni rivojlantirishning asosiy maqsadi jismoniy madaniyat vosita va metodlari orqali tezkor-kuch, kuchlilik, sifatini har tomonlama rivojlantirishdan iborat.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5368-son Farmoni. Toshkent. 2018 yil 5 mart.
2. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.03.2018y., 06/18/5368/0851-son).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.01.2020 y., 07/20/5924/0081-son).
4. З.Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры: Учеб. Для ин-тов физ. культ.-М., 1991.
5. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plami. Toshkent.2011 y.-131 b.
6. Jammatov J, Ro'zmetov N. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi (Jismoniy qobiliyatlar). O'quv qo'llanma. "Barkamol fayz media", 2020.
7. Абдуллаев А., Хонкелдиев Ш. Жимоний тарбия назариси ва услубиёти. Ўқув қўлланма. Тошкент., Ўз ДЖТИ, 2005 й.
8. Жамматов Ж.Ш. Дифференцированная физическая подготовка школьников начальных классов в условиях общеобразовательной школы. Автореф. дис.док. философии (PhD) по пед.наук. – Ташкент, 2000. – 38 с.



UDK:119.9(101.1)

Abdujabbor QAMBAROV,

Namangan davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi katta o'qituvchisi, PhD

E-mail: abduzaborkambarov15@gmail.com

NamDU dotsenti, falsafa doktori (PhD) G'apparov E.O taqrizi asosida

CREATING THE FOUNDATION OF THE THIRD RENAISSANCE - AS A CURRENT SUBJECT OF THE YOUNG PEOPLE OF TODAY'S SOCIETY

Annotation

The article analyzes the reforms in creating the foundations of the third renaissance in New Uzbekistan, its national, cultural, historical, philosophical foundations, the traditions of succession in ensuring the connection between the renaissances, the contribution of our great ancestors to the world civilization and its use today.

Key words: New Uzbekistan, Third Renaissance, society, public interest, "Strategy of New Uzbekistan", system, succession, heritage, education.

СОЗДАНИЕ ФУНДА ТРЕТЬЕГО РЕНЕССАНСА - КАК АКТУАЛЬНАЯ ТЕМА МОЛОДЫХ ЛЮДЕЙ СОВРЕМЕННОГО ОБЩЕСТВА

Аннотация

В статье анализируются реформы в создании основ третьего ренессанса в Новом Узбекистане, его национальные, культурные, исторические, философские основы, традиции преемственности в обеспечении связи ренессансов, вклад наших великих предков в мировую цивилизацию и его использование сегодня.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, Третье Возрождение, общество, общественный интерес, «Стратегия Нового Узбекистана», система, преемственность, наследие, образование.

UCHUNCHI RENASSANS POYDEVORINI YARATISH – HOZIRGI JAMIYAT YOSHLARINING DOLZARB MAVZUSI SIFATIDA

Аннотация

Maqolada Yangi O'zbekistonda uchinchi renessansning poydevorini yaratishdagi islohotlar, uning milliy, madaniy, tarixiy, falsafiy asoslari, renessanslararo bog'lanishni ta'minlashda vorisiylik ana'analari, buyuk ajdodlarimizning jaxon tsivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi va undan bugungi kunda foydalanishi tahlili qilingan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, Uchinchi Renessans, jamiyat, xalq manfaati, "Yangi O'zbekiston strategiyasi", tizimlilik, vorisiylik, meros, ta'lim.

Kirish. Mustaqilligimiz tufayligina millatimiz va jahon madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan Sharq uyg'onish davrini ilmiy, xolis o'rganish, baholash imkoni ochildi. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 29 yilligi munosabati bilan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning so'zlagan nutqida "Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda. Biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak. Tarixga nazar solsak, Buyuk ipak yo'lining chorhasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak tsivilizatsiya va madaniyat o'choqlaridan biri bo'lganini ko'ramiz. Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me'moriy obidalar, nodir qo'lyozmalar, turli osori atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi", deydi [1]. "Haq berilmas, haq olinur!" deb, millat ozodligi yo'lida jonini fido qilgan ulug' ajdodlarimizning buyuk maqsadi ham shu edi. Biz qanday tahlil va suronli davrlarni boshimizdan kechirmaylik, qanday yutuq va natijalarga

erishgan bo'lmaylik, mustaqillik g'oyasi, istiqloq ruhi bizga doimo tog'dek tayanch bo'lmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "Renessans" lug'aviy frantsuzcha "qayta tug'ilish" degan ma'noni anglatadi. Ilk bor atama Yevropada o'rtaslar mutaassibligidan keyin 15-16 asrlardagi rivojlanish davriga nisbatan qo'llanilgan. Renessans atalmish mazkur ijtimoiy hodisa o'zbek tiliga Uyg'onish davri deb o'girilgan. Ushbu Uchinchi Renessans davrida Ahmad Donish, Berdaq, Feruz, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Bayoniy, Avaz O'tar kabi olim, shoirlar o'z davrining muhim masalalarini ko'tarib chiqdilar va xalqni ilm-fan, ma'rifatni egallashga undadilar. Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Cho'lpon, S.Ayniy, Hamza kabi iste'dod egalari jadidchilik g'oyalarini olg'a surish va targ'ib qilish sohasida bayroqdor bo'lib tanildilar. Tadqiqotchi Abduvoxidova M.A o'zining tadqiqotlarida keltiradi. Atama sifatida uning mazmuni ancha keng: madaniyatda, ilm-fanda, san'atda, ta'lim-tarbiyada, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli turg'unlikdan keyin qayta jonlanib, tez rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishini bildiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mustaqillikka erishgandan keyin dastlab chorak asr davomida milliy tiklanish bilan shug'ullanishga to'g'ri keldi. Endilikda milliy tiklanishdan

milliy yuksalishga o'tganimizdan keyin, uchinchi Renessansga erishishni davlat rahbari strategik vazifa etib qo'ydi. Haqiqatan tarixan olganda biz ikki Renessansni boshdan kechirdik: birinchisi IX -XII asrlar, ikkinchisi XIV asr oxirgi choragi - XVI asr birinchi choragi. Birinchi Renessansda yurtimizdan Farg'oniy, Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy kabi buyuk daholar, buyuk muhaddislar - Buxoriy, Termiziy, mutakallimlar -Moturidiy va Abul Muin Nasafiy hamda boshqa atoqli dunyoviy va diniy allomalar shuuri olamni yoritdi.

Ikkinchi Renessansda - Ulug'bek, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Behzod, buyuk me'morlar, bastakorlar, musavvirilar, tarixchilar chiqib, bugun ham dunyoni lol qoldirayotgan asarlar yaratdilar.

Har ikki Renessans davrida biz dunyoning ilg'or xalqlari qatorida edik. Agar yana shunday darajaga erishmoqchi bo'lsak, Avvalgi ikkala Renessans mustahkam ma'naviy-mafkuraviy negizda, birinchi galda yuksak axloqiylik, adolat, ilmga tashnalik va bag'rikenglik asosida yuz bergan. "Ilm izlab Chinga bo'lsa-da, bor", "Sendan harakat - mendan barakat", "Bir soatlik adolat barcha insu jinslarning qirq kunlik ibodatidan ustun" va ko'plab shu kabi hadislar, naqlar ajdodlarimizning ijtimoiy mo'ljaliga aylangan edi.

Barcha asrlarda mamlakat kelajagi yoshlar uchun bo'lib kelgan. Inqilob, taraqqiyot va rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchlari - bu doimo yoshlardir. Davlat ularga urush paytida, urushdan keyingi davrda, inqirozlar davrida tayanib kelgan. Sababi, bu yosh, sog'lom insonlar yangi, mustahkam binolar qurdilar, aql bovar qilmas darajadagi ixtiro, kashfiyotlar yaratishdi va ularni hayotga tadbiq etishdi. Katta avlodning vazifasi yoshlarga ushbu murakkab dunyoda o'zlarining munosib o'rnini topishga yordam berish, o'zlarini imkon qadar anglab yetishga ko'maklashishdir! Ushbu maqolada birinchi va uchinchi renessans yoshlari orasidagi kuchli tafovut hamda uchinchi renessans yoshlarining salohiyati, keng imkoniyatlari, qilinajak ishlarning samarasi haqida kichik izlanishlar olib borilgan.

Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotining ilk bosqichidayoq, ta'lim-tarbiya masalasida bir qator axloqiy mo'ljallarni yangilash muammosi yuzaga keldiki, u milliy tarbiyamizdagi ezgu ishlardan ibrat olish ma'naviyatimiz hamda merosimizga ixlos qo'yish, xalqimizning ixlosmandlik an'analarni rivojlantirishni taqozo etadi.

Biz yoshlarimizni ana shu ijodkorlarimiz, fidoiy olimlarimizning ibratli hayotidan namuna olishga o'rgatishimiz, ularni o'z maslagi va intilishlariga ixlosmand qilib tarbiyalamog'imiz lozim. Xalqimizning tabiatini anglatuvchi milliy-madaniy an'analari qotib qolgan emas. Balki, ular yangi sifatlar bilan boyishi kerak bo'lgan xalq ma'naviyatiga oziq bo'ladigan va undan ozuqa oladigan shaxsni shaxsga, elatni elatga, millatni millatga yaqinlashtiruvchi va bog'lovchi kuchli omildir. Agar keyingi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilgan islohotlar chuqurroq tahlil etilsa, jamiyatimizda Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 22 dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yigilishida ta'kidlaganidek, "avvalo, ma'naviyat va madaniyat sohasi uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladigan milliy g'oyani rivojlantirish bo'yicha alohida dastur-hujjat ishlab chiqish lozimli ta'kidlandi". Milliy davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilgani yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu Yangi O'zbekistonda ham ta'lim-tarbiya «hayot-mamot» masalasiga aylanganidan dalolat, albatta. Milliy g'oya aslida muayyan xalqning oliy istiqbol maqsadini bir necha so'zlarda yoki iborada mujassam ifodalovchi tushunchalar yoki shior, iboradir. U xalqni o'sha maqsad yo'lida birlashtiradi,

safarbar etadi. Xalq barcha sa'y-harakatlarini, intilishlarini, bunyodkorlik faoliyatini unga muvofiqlashtiradi. Zarur bo'lsa, iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlarini, mamlakatning huquqiy, siyosiy, mafkuraviy asoslarini, ta'lim-tarbiya tizimini chuqur isloh qiladi. Milliy g'oyaning asosiy vazifalaridan biri, avvalo, xalqning jipsligini, birligini, mamlakatning hududiy yaxlitligini saqlash va mustahkamlashdir. Ikkinchidan, millatning oliy maqsadini, rivojlanish marralarini, mo'ljallarini umumiy tarzda aniqlaydi. Milliy g'oya turli iboralarda ifodalanishi mumkin. Lekin ifoda shaklidan qat'i nazar, xalqqa istiqbolni, ijtimoiy mo'ljalni ko'rsatishi shart. Istiqbolga erishganimizdan keyin dastlabki yillarda "O'zbekiston -kelajagi buyuk davlat" shiori olg'a surildi. U amalda milliy g'oya vazifasini o'tadi va xalqni birlashtirishda, safarbar etishda katta rol o'ynadi. Mazkur jozibali shiorda urg'u jamiyatga emas, davlatga berilgandi. Keyinchalik milliy g'oya shaklan takomillashtirilganda "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot" iborasi olg'a surildi. Unda urg'u siyosiy tashkilotga (davlatga) emas, balki har kishi uchun, siyosiy, mafkuraviy qarashlaridan qat'i nazar, birdek aziz Vatanga hamda shaxs va jamiyat hech qachon befarq bo'lmaydigan erkinlikka va farovonlikka qo'yildi. Milliy g'oyaning bunday tushunchaviy ifodasi ancha mukammallik kasb etdi.

Ammo uning mazmunini, uni amalga oshirish vazifalarini ochib berishga etarlicha mas'uliyat bilan yondashilmadi. Ayniqsa, u islohotlarning yo'nalishlari, sohalari, turli bosqichlari, amaldagi va ehtimoldagi muammolari bilan bog'lanmadi. Natijada u mafkuraviy chaqiriq, quruq shior darajasida qolib ketdi. Aniq muammolar va vazifalardan yiroqligi uchun odamlarga ta'siri asta-sekin susaya boshladi.

Katta qiziqish va xayrixohlik bilan kutib olingan "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot" bugun iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotimizga real ta'sir ko'rsatayotirmo, degan savolga aniq javob berish ancha mushkul. Milliy g'oyani jonlantirish uchun uni Uchinchi Renessans g'oyasi bilan boyitish zarur. Faqat Uchinchi Renessansni amalga oshirib, biz ozod va obod Vatanda erkin va farovon hayotni barpo eta olamiz. Yoki, yana qulayrog'i, Uchinchi Renessansga erishishni milliy g'oyaning yangi ifodasi, deb e'lon qilish maqsadga muvofiq.

Milliy g'oya joriy vazifalarni emas, balki strategik oliy maqsadni ifodalaydi. Shu ma'noda Uchinchi Renessans g'oyasi istiqbolga intilishga juda mos keladi. Mazkur g'oyaning safarbarlik kuchi, umuman, mafkuraviy salohiyati juda yuqori. Ayni chog'da o'tmish tariximizning shonli sahifalari, buyuk ajdodlarimizning bunyodkorlik va ijodkorlik salohiyati bilan bog'lanadi. Bizga mazkur tushuncha kimlarning vorislari ekanimizni eslatib turadi. Yangi Renessans yo'lida xalqimiz turli mayda, vaqtinchalik masalalarga, guruhbozlik, mahalliychilik, ayirmachilik, mafkuraviy mutaassiblikning har xil ko'rinishlariga chalg'imasligi kerak. Tarix saboqlarini unutishga haqqimiz yo'q.

Inson tug'ilib, yorug' dunyoni idrok etishni boshlar ekan, dastlab atrofda g'ildardan, ayniqsa, yoshi ulug'lardan ibrat olib, ma'naviy kamolot kasb etib boradi. Bu o'rinda, biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, ota-ona, aka-opalari, keyinroq, bog'cha va maktabga borganda, ustozlari uning uchun birinchi ibrat maktabi bo'ladi. Bu yaqinlashish esa ibrat orqali amalga oshadi.

Tahlil va natijalar. Yuqorida ta'kidlanganidek, bugungi hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi, insoniyat fan o'qi atrofida aylanayotgandek go'yo. Dunyoning etakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa

sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Bu kabi hayotiy haqiqatni anglagan xalqimiz Prezident Sh. Mirziyoevning bevosita rahnamoligi va tashabbusi bilan ta’lim tizimini tubdan isloh qilishni Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining bosh asosi deb bilmogda. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo‘lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Ahmad Yugnakiy o‘zining “Hibbat-ul haqoyiq” (“Haqiqatlar arg‘umoni”) nomli asarida yozganidek: “Bilim bilan baxt-saodat yo‘llari o‘rganiladi, bilim egallab saodat yo‘lini top. Bilimli kishi qimmatli oltindir. Johil, bilimsiz kishilar arzimas qalbaki (aqcha)”dir. Demak, kishi qalbini nurafshon qiladigan, uni yaxshi amallarga chorlaydigan, ajdodlar merosini e‘zozlashga o‘rgatadigan rahbari najot ham bilimdir. Shu bois, yoshlarimizda mustahkam e‘tiqodni, yuksak axloqiy fazilatlarini kamol toptirish, milliy g‘oyamizga ishonch va ixlosni takomillashtirish uchun avvalo ularni bilimli qilish, o‘z xalqi o‘tmishini, ma’naviyatini chuqur bilish asosida o‘zligini anglashlari zarurligini o‘rgatmoq zarur [2].

Alloma Sulaymon Boqirg‘oniy “manim hor bo‘lishim - o‘z g‘aflatimdan” degan fikri orqali yoshlarimiz ilmga intilmasa, jaholat qorong‘uligida qolib, dunyo oldida g‘aflatda bo‘lsa, ul qalb hamisha xorlikka mahkumdir, degan umuminsoniy g‘oyani ilgari surgan edi. Ilm insonlarga ularning ahvolini va istiqbolini oynadek ko‘rsatib turadi, odamning zehni, fikrlarini o‘tkiraydi. Mashhur yozuvchi Stefan Uvelening fikricha ikki kashfiyot insoniyat taraqqiyotining

bemisli tezlashtirib yubordi. Bular- ning birinchisi g‘ildirakni, ikkinchisi esa kitob bosishni kashf qilinishidir. Odamzot g‘ildirak tufayli tovuqday o‘z katagida tuxum bosib o‘tirishdan xalos bo‘lib, dunyo aylanishi, boshqa xalqlarni taraqqiyot darajasi va bu darajani sirlari bilan tanishishi, o‘ziga va o‘z hayotiga chet nigoh bilan qarash, boshqalar ko‘zgisida o‘z hayotini ko‘rish imkoniga ega bo‘lgan bo‘lsa, kitob tufayli shularning barchasini o‘tirgan joyida o‘z tasavvuriga kirita oladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida aytish joizki, mamlakatimizda ilm-ma’rifatga berilayotgan alohida e‘tiborning zamirida chuqur ma’no bor. Shu o‘rinda Prezidentimizning ta’biri bilan aytganda, “Ibrat domlaning «Ulam o g‘ayrat etkanda millat, albatta, isloh topur», degan hikmatli so‘zlarini yodga oldi”. Demak, xozirgi globallashuv zamonida dunyoda mustaxkam o‘ringa ega bo‘lish uchun, zamonaviy dunyoda faqatgina ilm-ma’rifat – bu yangi uyg‘onish davrining poydevori, uning asosida esa shu yurt fuqarolarining milliy tafakkuri, milliy g‘oyasi, ertangi kunga, taraqqiyotga bo‘lgan ishonchi bo‘lib, qaysiki, jamiyatdagi barqarorlikni ta’minlab beruvchi asosiy ustuvor omillardan biridir. Ilm-fan rivojlanar ekan, nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy-madaniy sohaning ham taraqqiyoti kafolatlanadi, mazkur kafolat esa o‘zida yangi renessans davrini ifoda etishiga hecham shubha yo‘q.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent.: O‘zbekiston. 2021. –B. 150.
2. <https://www.gazeta.uzG‘ozG‘2021G‘08G‘17G‘renaissance>
3. Abduvoxidova M.A. Uchinchi renessans yoshlarining kuchli salohiyati va keng imkoniyatlari. «Institut upravleniya i sotsialno-ekonomicheskogo razvitiya» 2021.



UDK:(323:329.735(575.1))

Nurmuhammad QARSHIYEV,
O'zMU: "Siyosatshunoslik" kafedrası v.b.dotsent.
E-mail:nurmuxammad.qarshiev@mail.ru

S.f.d.,professor V.Qo'chqorov taqrizi asosida

PECULIARITIES OF THE FORMATION OF IDEOLOGIES OF POLITICAL PARTIES IN UZBEKISTAN

Annotation

Political parties are considered the main guarantors of democracy in the countries of the world. One of the main factors in the formation and development of political parties is their ideology. In essence, these institutions protect the interests of certain strata and groups of society, as well as provide alternative options for development. Development programs are often based on ideas and ideologies. That is why it is important to study the specificity of the formation of ideologies of political parties.

Key words: Political party, political ideology, idea, civil society, democracy, liberalization, electorate, state.

ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ИДЕОЛОГИЙ ПОЛИТИЧЕСКИХ ПАРТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.

Аннотация

Политические партии рассматриваются как главный гарант демократии в странах мира. Одним из главных факторов формирования и развития политических партий является их идеология. По сути, эти институты защищают интересы определенных слоев и групп общества, а также предоставляют альтернативные варианты развития. Программы развития часто основаны на идеях и идеологиях. Вот почему важно изучить специфику формирования идеологий политических партий.

Ключевые слова: Политическая партия, политическая идеология, идея, гражданское общество, демократия, либерализация, электорат, государство.

O'ZBEKISTONDA SIYOSIY PARTIYALAR MAFKURALARI SHAKLLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Аннотация

Jahon davlatlarida demokratiyaning asosiy kafalotlovchi instituti sifatida siyosiy partiyalar qaraladi. Siyosiy partiyalarning shakllanishi va rivojlanishida asosiy omillardan biri uning mafkurasidir. Mohiyatdan mazkur institutlar jamiyatning muayyan qatlami va guruhlarining manfaatlarini himoya qilishi bilan bir qatorda rivojlanishning muqobil variantlarini taqdim qiladi. Rivojlanish dasturlari negizida aksariyat hollarda g'oya va mafkuralar joy oladi. Shuning uchun ham siyosiy partiyalar mafkuralarining shakllanishining o'ziga xosligini tadqiq etish dolzarbdır.

Kalit so'zlar: Siyosiy partiya, siyosiy mafkura, g'oya, fuqarolik jamiyati, demokratiya, liberallashtirish, elektorat, davlat.

Kirish. Jahon mamlakatlari boshqaruv tizimini tashkil etish va uni amalga oshirishda siyosiy partiyalarning o'zni va roli toboro ortib borayotganligi hamda mazkur siyosiy jarayonlarda ularning mafkuraviy faoliyati muhim ahamiyat kasb etayotganligi ahamiyatlidir. Siyosiy partiyalar mafkuralari eng avvalo, ularning elektoratini ergashtiruvchi, shuningdek, jamiyatdagi pozitsiyasini, o'zni va ahamiyatini ko'rsatib beruvchi siyosiy kuchi sifatida qarab kelinmoqda.

Mamlakatimizda ham so'nggi yillarda siyosiy partiyalar faoliyatini tubdan isloh qilish yo'lida ko'plab islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, birgina 2019-yilda "Saylov Kodeksi"ning qabul qilinishi siyosiy partiyalarning saylovlardagi ishtirokini soddalashtirib, ularning faoliyat erkinligini yanada oshirdi. Shuningdek, konstitutsiyaviy islohotlarning amalga oshirilishi ularning fuqarolik jamiyatining kuchli instituti sifatidagi ahamiyatini yanada oshirdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ko'plab ilmiy adabiyotlarda hamda normativ-huquqiy hujjatlarda siyosiy partiyalarga ta'rif berilib, ularning mohiyati ochib berilgan. Jumladan, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 74- moddasida "Siyosiy partiyalar turli ijtimoiy tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari

orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Siyosiy partiyalar o'z faoliyatining moliyalashtirilishi manbalari haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga yoki u vakolat bergan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar taqdim etadilar"[1]. Shuningdek, siyosiy partiyalarning mafkuraviy yo'nalishdagi faoliyatini isloh qilish borasida, 2017-yil 12-iyulda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O'zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvida Prezident Sh. Mirziyoyevning "Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo'lishi kerak" deb nomlangan ma'ruzasida "siyosiy partiyalar o'z dasturiy maqsad va vazifalarini, mafkuraviy sohadagi ishlarini qayta ko'rib chiqib, ularga zarur o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishi, bunda jahon tajribasini o'rganish, halqaro hamkorlikni kuchaytirish foydadan holi bo'lmaydi"[2] deb ta'kidlab o'tgan edi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Dunyo ilm – fanida siyosiy partiyalarni tadqiq qilishga qiziqish ortib borishi asnosida siyosatshunoslikning tarmog'i bo'lgan partalogiyaning ham yangi bosqichga ko'tarilib, rivojlanishiga olib kelmoqda. Siyosiy partiyalarning mafkuraviy yo'nalishdagi faoliyatini ko'plab olimlar tadqiq qilgan bo'lib

ularni biz shartli ravishda uch guruhga bo'lib o'rganishimiz mumkin. Birinchi guruhga g'arb olimlaridan Arestotel, M.Veber, T.Parsons, V.Pareto, J.Sartori, R.Mixels, P.Meyr, T.Gobss, J.Brays, K.Noyman, J.Lapalombara, J.Kermon, K.Louson kabilarni, ikkinchi guruh rus olimlari guruhiga M.Ostrogorskiy V.Pugachyov, A.Solovev, B.Isaev, S.Lansov, V.Malsev, I.Melishken, G.S.Gadjiev, Z.Zotava, I.Zolotuxin kabilarni hamda uchinchi guruh o'zbek olimlariga Q.Nazarov, M.Qirg'izboev, Sh.Paxrutdinov, N.Jo'rayev, I. Ergashev, V.Qo'chqorov, X.Odilqoriyev, B.Yakubov, U.Tilavov, X.Axmedov, U.Bo'tayev kabilarni kiritishimiz mumkin.

Siyosiy partiyalarning mafkuraviy yo'nalishdagi faoliyatiga to'xtalishdan avval siyosatshunos olimlarning siyosiy partiyalarga bergan ayrim ta'riflariga to'xtalib o'tishimiz lozim. O'zbek olimlaridan B.Yakubov "Siyosiy partiya – umumiy maqsad va qadriyatlar atrofida birlashgan, o'z intilishlarini siyosiy hokimiyatni egallashga yoki uni amalga oshirishda ishtirok qilishga yo'naltirilgan shaxslarning ko'ngillilikka asoslangan siyosiy tashkilotidir"[3] deb ta'riflaydi. Yuqorida keltirilgan ushbu ta'rifda siyosiy partiyalarga xos bo'lgan xususiyatlar (uning hokimiyatga intilishi, ko'ngilli birlashma ekanligi kabilar) nisbatan kengroq qamrab olinganligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, M.Qirg'izboev siyosiy partiyalarga uni to'liq ochib beruvchi ta'riflarni berib o'tgan. Masalan, "Siyosiy partiyalar u yoki bu ijtimoiy qatlamlarning manfaatlarini va muammolarini o'zida ifoda etadi, ularni jamiyatdagi siyosiy munosabatlarda himoya etadi. Siyosiy partiyalar ma'lum bir ijtimoiy qatlamlarning siyosiy manfaatlarining ifodalovchisi sifatida hokimiyat uchun kurashadi, hokimiyatni egallagan taqdirda esa o'zi mansub bo'lgan ijtimoiy qatlam muammolari, shuningdek, saylovlarda o'ziga xayrixohlik qilgan saylovchilar xohish – irodalarini amalga oshirishga intiladi" [9]. J.Mavlonovga ko'ra, "Saylovchilarning xulqi bo'yicha oddiy klassifikatsiya eng mashhur bo'lib, uning doirasida o'ng va so'l mafkuralari aniqlanadi. Iqtisodiy siyosatning fundamental masalalari bo'yicha farqlanishlar bu klassifikatsiyaning asosini tashkil qiladi. O'ng mafkurachilar bozor makroiqtisodiy muvofiqligini, davlatning xalq xo'jaligining boshqaruvidagi ishtirokini minimal darajaga tushirilishini va iqtisodiy resurslar hamda daromad taqsimoti bo'yicha davlat faoliyatini cheklanishini yoqlaydi; so'lichilarning pozitsiyasi bu masalalar bo'yicha qarama – qarshi bo'ladi"[5]. Ammo, shuni ham ta'kidlab o'tishimiz lozimki, ilm–fan taraqqiyoti mafkuraviy faoliyatga ham olimlarning nuqtai nazarlarini o'zgartirib, yangicha yondashuvlarni vujudga keltirmoqda shu nuqtai nazardan so'nggi yillarda "o'ng va so'l shkaladan" voz kechish tarafdorlari ham ko'paymoqda.

Rus olimi I.Melishken o'z tadqiqotlarida siyosiy partiya mafkurasiga quyidagicha ta'rif beradi: "partiya mafkurasi — siyosiy partiyaning ijtimoiy jarayonlari va maqsadlari haqidagi qarashlarni aks ettiruvchi, shu partiyaning (ham elita, ham oddiy partiya a'zolari) ma'naviy va moddiy manfaatlarini ifodalovchi g'oyalar tizimi"[6]. Yana bir rus olimi G.S.Gadjiev ta'kidlaganidek, "Mafkura (siyosiy) millat va milliy davlat g'oyalarini shakllantirish va institutsionallashtirish bilan chambarchas bog'liqdir"[4]. Siyosiy partiyalar zamonaviy jamiyatlarda turli mafkuralarni ilgari surib, mafkuraviy raqobat muhitini vujudga keltiradi, shu asosda rivojlanish dasturlarining xilma–hilligini ta'minlaydi hamda aholi uchun boshqaruvni shakllantirishda tanlov imkoniyatini yaratadi. Siyosiy partiyalarning mafkuralari doimiy ravishda o'zgarib turuvchi, uning faoliyat yo'nalishini belgilab ko'rsatib beruvchi asosiy harakatlantiruvchi kuchidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishimizda qiyosiy tahlil, tarixiylik, tizimli-tarkibiy, funksional, institutsional, ob'ektivlik hamda kompleks yondashuv metodologiyalaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Jahon siyosatshunosligida siyosiy mafkuralarning tarkibiy qismi sifatida siyosiy partiyalar mafkuralari ham keng o'rganilib kelinmoqda. Davlat boshqaruvi shakllantirish uning adolatli siyosat yuritishini nazarot qilishda mazkur siyosiy institutlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Jamiyatning turli qatlamlardan tashkil topganligi va uning ehtiyojlari turlichaligi plyuralizmga bo'lgan ehtiyojni vujudga keltiradi. Mafkuraviy plyuralizmning yaxshi shakllanganligi siyosiy partiyalar o'rtasidagi raqobatni ta'minlab, o'zaro hokimiyat uchun kurashishi asosida o'z elektorati manfaatlarini himoyalab, ifoda etib boradi.

Siyosiy partiyalar mafkuralarining bir qancha turlari mavjud bo'lib, ularning xususiyatlari turli jamiyatlarda turlicha darajada namoyon bo'ladi. "Partiyalar mafkuraviy turlari quyidagicha: liberal; sotsial-demokratik; konservativ; kommunistik; millatchilik; fashistik; klerikal (ruhoniy)"[7].

Mamlakatimizda siyosiy partiyalarning jamiyatdagi o'rni va rolini, ularning davlat boshqaruvidagi ishtirokini oshirish borasida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, 2022-yil 28-yanvarda PF-60 sonli, [2022—2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida](#) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonining qabul qilinishi, uning birinchi ustuvor yo'nalishi etinchi maqsadi: "Mamlakatimizdagi islohotlarni izchil davom ettirishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada oshirish" deb nomlanib, unda "Barcha sohalarda vaziyatni har tomonlama o'rganish va mavjud muammolarni hal etish uchun ta'sirchan choralar ishlab chiqishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada kuchaytirish, qabul qilingan qonunlarning amaliyotda so'zsiz va to'liq ijro etilishini ta'minlashda parlamentning ishtirokini kengaytirish"[10] vazifasi belgilab berilgan. Shu bilan bir qatorda, mamlakatimizda mustaqillikning ilk yillaridan siyosiy partiyalar faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy baza - ilg'or xorijiy tajribani o'rgangan holda, xalqimizning milliy qadriyat va an'analari hisobga olinib yaratila boshlandi. Bugungi kunga kelib siyosiy partiyalar faoliyatini tartibga soluvchi quyidagi, "1991–yil 15-fevralda qabul qilingan "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 1996–yil 26–dekabrda qabul qilingan "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 1999–yil 14–aprelda qabul qilingan "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 2004–yil 30-aprelda qabul qilingan "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 2007–yil 3-yanvarda qabul qilingan "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari qabul qilindi"[8, -B. 70]. Shuningdek, 2019-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Saylov Kodeksi" asosida siyosiy partiyalarning saylovlardagi ishtiroki masalalari bir muncha soddalashtirildi.

Mustaqillikning ilk yillarida yakka mafkura ustuvorligiga asoslangan birpartiyaviylik tizimi tanazzuli yangi demokratiya tamoyllari asosida rivojlanishga o'tgan jamiyatimizda ko'ppartiyaviylikka yo'l ochib berilishi asosida mafkuraviy plyuralizm shakllana boshladi. Ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanishi jarayoniga turli ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ta'siri ostida kechdi. Muayyan siyosiy vaziyatlarda yangi partiyalarning tashkil topishi ayrim hollarda partiyalarning birlashishi holatlari kuzatildi. Shuni ham alohida

ta'kidlab o'tishimiz lozimki, mamlakatimizda dastlabki siyosiy partiyaning tashkil topishidan to bugungi kungacha vujudga kelgan siyosiy partiyalarning ko'pchiligida tub mafkuraviy o'zgarishlar kuzatilmadi. To'g'ri, siyosiy partiyalar mafkuralarini yanada mustahkamlash, ularning ommaviyligi oshirish yo'lida ko'plab ishlarni amalga oshirildi. Siyosiy partiyalar mafkuraviy yo'nalishida keskin, tub o'zgarishlarning amalga oshmaganligi, ularning mazkur yo'nalishdagi faoliyatida o'z mafkuralari sodiqligi alohida ahamiyat kasb etadi. Ayna mana shu xususiyatni mamlakatimiz siyosiy partiyalari shakllanishining o'ziga xosliklaridan biri sifatida qarashimiz mumkin. Mamlakatimizda mavjud siyosiy partiyalarning mafkuraviy platformalariga quyida qisqacha to'xtalib o'tsak: Mamlakatimizdagi dastlabki siyosiy partiyaning tashkil topish jarayoniga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, "1991-yil 14-sentyabrda – faollar guruhi o'tish davrida manzilli ijtimoiy yordam va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan aholi qatlamlari va guruhlarini manfaatlarini ifoda etuvchi va ilgari suruvchi partiyaning tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi. 1991 yil 1 noyabrda – O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining I Ta'sis qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoy partiya Ustavi va Dasturini qabul qildi, uning ijtimoiy-siyosiy faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgiladi"[11]. O'zbekiston XDPning elektorati sifatida ijtimoiy himoyaga muxtoj aholining kam ta'minlangan qismi qaraladi. O'zbekiston XDP ning mafkuraviy platformasi u tashkil topgandan buyon mohiyatdan o'zgarmasdan mustahkamlanib kelmoqda. Xalq demokratik partiyasining mafkuraviy yo'nalishi ijtimoiy demokratiya hisoblanadi. Buni partiya dasturida keltirilgan mafkurasining ustuvor yo'nalishlari: ijtimoiy adolat va tenglik, ijtimoiy birdamlik, ijtimoiy demokratiya partiya siyosiy mafkurasining asosiy qadriyatlari hisoblanadi. O'zbekiston xalq demokratik partiyasi ijtimoiy adolat va tenglik deganda fuqarolarning huquq va imkoniyatlardan erkin foydalanishdagi tengligini, ijtimoiy va moddiy holatidan qat'iy nazar qonun oldida barcha birday ma'sul ekanligini tushunadi[11]. Shuningdek, partiya o'z saylovoldi dasturida Rivojlanishdagi ijtimoiy ustuvorlik – partiya siyosiy pozitsiyasining asosi ekanligini, ijtimoiy adolat va tenglik, ijtimoiy birdamlik, ijtimoiy demokratiya mezonlariga mos keladigan ijtimoiy demokratik davlat barpo etishni o'zining oliy maqsadi deb hisoblaydi. Partiya tibbiyot, ta'lim, kommunal soha, iqtisodiy, madaniy sohalarning ijtimoiy maqbulligini oshirish tarafdori hisoblanadi. Partiyaning elektorati sifatida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj kam ta'minlangan qatlami qaraladi.

Mamlakatimizda yirik siyosiy kuch hisoblangan siyosiy partiyaning tashkil topishi, "2003-yil 15-noyabr – Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining Ta'sis S'ezdi bo'lib o'tdi. Unda partiya Dasturi va Ustavi tasdiqlandi, Siyosiy Kengash hamda Markaziy nazorat-taftish komissiyasi tarkibi saylandi"[12]. Partiyaning mafkuraviy yo'nalishi liberal demokratiya bo'lib, uning elektoratini o'rta mulkdorlar sinfi: tadbirkorlar va ishbilarmonlar, fermerlar, moddiy va intellektual mulk egalari tashkil etadi.

O'zLiDeP o'zining dasturida – liberal-demokratik konsepsiya hamda jamiyat va davlat rivojlanishi ta'limotining tashabbuskori va tashuvchisidir. Partiya o'zining liberalizm va demokratiyaning umum tan olingan tamoyillariga sodiqligini tasdiqlaydi[12] deyilgan. Shundan kelib chiqib, dastur va saylovoldi dasturlarida urg'u berilganidek partiya iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa sohalarni chuqur liberallashtirish tarafdori ekanligi ko'rinadi. Ayniqsa bozor iqtisodiyotiga

asoslangan erkin iqtisodiyotni rivojlantirishni va shu orqali elektoratini qo'llab-quvvatlashni maqsad qilganligi ko'rinadi.

2008-yil 20-iyun kuni O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi va "Fidokorlar" milliy demokratik partiyasining birlashuv qurultoyi bo'lib o'tdi va ushbu ikki partiya negizida yangi O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi (O'zMTDP) tashkil etildi[13]. O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi mafkuraviy yo'nalishi konservatizm bo'lib, ayrim iqtisodiy yo'nalishlardagi islohotlarga yondashuvi liberallarga xos bo'lgan mafkuraviy konsepsiyalarni ham ilgari surish hollarini ham kuzatishimiz mumkin. Mazkur partiyaning elektorati sifatida ziyolilar, xususan, ilm – fan va ta'lim, madaniyat, san'at va axborot sohasi vakillari, tarbiyachi va o'qituvchilar, ijodkorlar va san'atkorlar, sportchilar, turizm sohasi vakillari va boshqalardan iborat.

Mazkur partiya, barqaror milliy rivojlanishni ta'minlash, milliy manfaatlarini himoya qilish va ilgari surish, ma'naviy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analar, boy tarixiy merosni saqlash va boyitish, mamlakatimizda turizmni rivojlantirishga hissa qo'shish; O'zbekiston Respublikasi fuqarolarida milliy o'zlikni anglash hissini oshirish, milliy g'urur, Vatanga sadoqat va muhabbat tuyg'usini shakllantirish hamda mustahkamlash uchun qulay sharoitlar yaratish[13] kabi maqsadlarni ustuvor biladi.

O'zbekiston "Adolat" sotsial demokratik partiyasi mafkuraviy yo'nalishi sotsial demokratiya hisoblanib, jamiyatda adolat, qonun ustuvorligi, ijtimoiy tenglik kabi tamoyillarga asoslanadi.

O'zbekiston "Adolat" SDP 1995-yil 18-fevralda I Ta'sis Qurultoyida tashkil topgan[14]. Elektorati sifatida ishchi va mehnatkashlar, yuqori malakali mutaxassislar, byudjet sohasi xizmatchilari, pedagoglar, shifokorlar, ilmiy va injener-texnik xodimlar, xizmat ko'rsatish sohasi xodimlari qaraladi. Partiya, huquqiy demokratik, "ijtimoiy davlat" va "barcha uchun farovonlik ta'minlangan" adolatli fuqarolik jamiyatini qurishning sotsial-demokratik modelini taklif etadi. Uning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat: inson, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini davlat va jamiyatning eng yuksak qadriyatlari ekanligini tan olib, jamiyat va davlat hayotining barcha jabhalarida har bir insonni farovon hayoti uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ijtimoiy adolat va qonun ustuvorligi mezonlarini ta'minlash; O'zbekistonning erkinlik, imkoniyatlar tengligi, adolatlilik, birdamlik, ijtimoiy himoya va mas'uliyat tamoyillari hukmronlik qiladigan, insonlarning keskin tabaqalanishiga yo'l qo'yilmaydigan kuchli "ijtimoiy davlat" sifatida, aholining yuqori turmush darajasiga ega rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilishiga erishish[14]. Shuningdek, vakillik demokratiyasining rolini oshirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, innovatsiyaon taraqqiyotga erishish, inson kapitali rivojlantirish kabilardan iborat. O'zbekiston "Ekologik" partiyasi mafkuraviy yo'nalishi Ekologik barqarorlikni ta'minlash, demokratiyani yanada taraqqiy ettirish. Mazkur partiyaning elektorati asosan ekologiyani asrab avaylashni qo'llab quvvatlovchi, inson salomatligini saqlash va tabiiy boyliklarga ehtiyotkorana munosabatda bo'luvchi kishilar hisoblanadi.

2019-yil 8-yanvarda Toshkentda O'zbekiston Ekologik partiyasining Ta'sis qurultoyi bo'lib o'tdi, partiyaning Dasturi, Ustavi va ramzlari tasdiqlandi va uning boshqaruv organlari saylandi[15]. Partiya saylovoldi dasturida insoniyat yashab qolishining eng asosiy sharti – bu sof ekologiya va atrof-muhit himoyasi ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, partiya barqaror o'sib boruvchi "Yashil iqtisodiyot" siyosatini keng joriy etish, atrof tabiiy muhit ob'ektlaridan oqilona foydalanish va biologik

resurslarning qayta tiklanishini ta'minlash kabilarni ilgari suradi[16]. Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar mafkuralarining shakllanishida o'ziga xos xususiyatlardan biri bu mafkuraviy tub o'zgarishlarning kuzatilmasligidir. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, sotsial demokratlar vaqt o'tishi bilan liberal demokratlar sari og'ish holatlari kuzatilmasdan, aksincha, o'z mafkurasini mustahkamlashga va rivojlantirib uni targ'ib qilishga ko'proq e'tibor qaratishini kuzatishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda siyosiy partiyalarning mafkuraviy shakllanishining asosini mafkuraviy plyuralizm tashkil etib, uning o'ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida keskin

transformatsion o'zgarishlar uchramasligi, aksincha har bir partiya mafkuraviy sodiqlik asosida rivojlanishni davom etganligini kuzatishimiz mumkin. Aksariyat hollarda siyosiy partiyalar mafkuralarining shakllanishida xalqimizga xos ma'naviy qadriyatlar muhim o'rin tutib, ularda asrlar davomida shakllangan milliy an'analarning ham ta'siri seziladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi takliflarni ilgari surishimiz mumkin: O'zbekistonda mavjud siyosiy partiyalar mafkuralarining shakllanishini o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishni davom ettirish; Siyosiy partiyalar mafkuraviy yo'nalishdagi faoliyatini tizimli tahlil qilib borishni kuchaytirish; Jamiyatda vujudga kelayotgan mafkuraviy bo'shliqni to'ldirishda siyosiy partiyalarning mafkuralarini samaradorligini oshirish.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [Matn] Rasmiy nashr. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2023. – 120 b.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга қўтарамиз.– Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017.–592 б.
3. Во'таев U.X. Siyosatshunoslik [Matn]: darslik/ U.X.Во'таев – Toshkent: Info Capital Books, 2024.- 480 bet.
4. Гаджиев Г.С. Политология. М.: Университетская книга; 2020. 432 с.
5. Мавлонов Ж. Қиёсий сиёсатшунослик: Ўқув қўлланма.2 қисмдан иборат.1-қисм. – Тошкент: Ўзбекистон миллий университети, 2024.-144 б.
6. Мелешкин И.Г. «Идеологии политических партий в условиях трансформации партийной системы современной России». Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата политических наук. Российского государственного педагогического университета им. А.И. Герцена. Санкт-Петербург. 2008.с.26.
7. Типы политических партий в зависимости от идеологии. https://spravochnick.ru/politologiya/typy_politicheskikh_partiy_v_zavisimosti_ot_ideologii/.
8. Qarshiyev N.O. Zamonaviy partiyaviy tizimlar transformatsiyasining konseptual asoslari. Monografiya. [Matn]/ N.O.Qarshiyev; muharrir U.Rajabova. –Toshkent: Invest book.2024. – 152.
9. Кирғизбоев М. Сиёсатшунослик. Олий ўқув юртлари талабалари учун ўқув қўлланма. Тошкент “Янги аср авлоди” 2013 йил. 518 б.
10. [2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида](https://lex.uz/docs/5841063). Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон. <https://lex.uz/docs/5841063>.
11. O'zbekiston XDP rasmiy sayti. <https://xdp.uz>.
12. O'zLiDeP rasmiy sayti. <https://uzlidep.uz/history-of-the-party>.
13. MT partiyasi rasmiy sayti. <https://mt.uz/party>.
14. O'zbekiston “Adolat” SDP rasmiy sayti. <https://adolat.uz>.
15. https://www.uzpedia.uz/pedia/ozbekiston_ekologik_partiyasi.
16. O'zbekiston Ekologik partiyasi: uning maqsad va vazifalari nimalardan iborat? <https://aniq.uz/yangiliklar/uzbekiston-ekologik-partiyasi-uning-maqsad-va-vazifalari-nimalardan-iborat>.



Alisher MADRAXIMOV,

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi

Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti kichik ilmiy xodimi, Institut mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: aliyusufjonovich@gmail.com

F.f.n., dots. Sh.To'rayev taqrizi asosida

THE GRADUAL DEVELOPMENT OF PROPAGANDA: FROM PRIMITIVE TIMES UP TO SOCIAL NETWORKS

Annotation

Propaganda work has been and remains in harmony with humanity since time immemorial. Its significance lies in the fact that it performed the function of unifying society, following a certain goal and idea. In this regard, the urgent task is to find out its history and draw the necessary conclusions from it. This article focuses on these aspects.

Key words: Propaganda, totemism, animism, fetishism, primitive era, ancient times, middle ages, new era, jatis, religion, social network.

ПОСТЕПЕННОЕ РАЗВИТИЕ РЕКЛАМЫ: ОТ ПРИМИТИВНОГО ПЕРИОДА ДО СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ

Аннотация

Пропагандистская работа с незапамятных времен была и остается в гармонии с человечеством. Ее значение заключается в том, что она выполняла функцию объединения общества, следуя определенной цели и идее. В связи с этим актуальна задача узнать ее историю и сделать из нее необходимые выводы. В данной статье основное внимание уделяется этим аспектам.

Ключевые слова: Пропаганда, тотемизм, анимизм, фетишизм, первобытная эпоха, древние времена, средневековье, новая эра, джатис, религия, социальная сеть.

TARG'IBOTNING TADRIJIY RIVOJI: IBTIDOIY DAVRDAN IJTIMOYIY TARMOQLARGACHA

Annotatsiya

Targ'ibot ishlari azaldan insoniyat bilan hamohang tarzda kelgan va kelmoqda. Uning ahamiyati shundaki, u jamiyatni birlashtirish, ma'lum maqsad va g'oya ortidan ergashirish funksiyasini bajargan. Shu jihatdan uning tarixini bilish va undan kerakli xulosalar chiqarish dolzarb vazifa sanaladi. Mazkur maqolada ushbu jihatlar alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Targ'ibot, totemizm, animizm, fetichizm, propaganda, ibtidoiy davr, qadimgi dabr, o'rta asrlar, yangi davr, jatis, din, ijtimoiy tarmoq.

Kirish. Bugun dunyo kuchli g'oyaviy, mafkuraviy kurashlar domida yashamoqda. Binobarin, inson ongi va qalbi uchun kurashda targ'rg'ibot ishlar dolzarb masalaga aylandi. Shunday sharoitda inson o'zligi, mohiyatini saqlab qolish uchun kurashmog'i lozimdir. Bu borada davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asarida targ'ibot jarayonidagi vazifa sifatida, "Targ'ibotning ilmiy asoslangan zamonaviy texnologiyalari va yangi shakllarini, tahdidlarga qarshi samarali kurash usullarini ishlab chiqadigan vaqt keldi, deb hisoblayman.

Ma'naviy targ'ibotni to'g'ri yo'lga qo'yishda ommaviy axborot vositalari katta ta'sir kuchiga ega. Ammo bu kuchdan hamma vaqt ham samarali foydalana olmayapmiz" [1] – deb islohotlarning provard maqsadiga e'tibor qaratadi. Darhaqiqat targ'ibot ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish, unda ilmiy asoslangan, zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish hamda innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish ertangi kunimiz taraqqiyotini belgilaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Targ'ibotning yuzaga kelishi borasidagi ilmiy qarashlarda yagona yondashuv mavjud emas. Ba'zi olimlar uni o'rta asrlarning oxirlarida ya'ni missionerlik harakatining natijasida paydo bo'lganini e'tirof etadilar [2]. Boshqa bir manbada ko'ra targ'ibot keyinchalik dinning inqozga yuz tutishi natijasida XVIII-XIX asrlarda G'arbiy Yevropada yuzaga kelganligi aytiladi [3]. Ushbu fikr

muallifiga ko'ra, bu davrga kelib turli ijtimoiy qarashlarni yaxlit ta'limot sifatida shakllantirishga qodir bo'lgan ziyolilar qatlami vujudga kelgan degan xulosani beradi. Lekin uning gaplarini asos qilib oladigan bo'lsak, XVIII asrga qadar hech qanday g'oya va ta'limot tarqatilmagan, jamoatchilikka ta'sir ko'rsatilmagan, biror bir hayotiy pozitsiya shakllantirilmagan degan fikr uyg'onadi. Bu mantiqan olib qaraganda targ'ibotning paydo bo'lish tarixiga ziddir.

Shuningdek targ'ibot tushunchasining qanday ma'no anglatishi borasida ham olimlarning turlicha fikrlari mavjud. Xususan, amerikalik nazariyotchi-targ'ibotchilar Gart S. Jovett va Viktoriya Donnell o'zlarining "Targ'ibot va ishontirish" nomli kitobida: "Targ'ibotning istalgan niyatini amalga oshirish, javobga erishish uchun hislarni shakllantirish, idrokni manipulyatsiya qilish va to'g'ridan-to'g'ri xatti-harakatlarga qasddan, tizimli urinish" – degan ta'rifni beradi. Boshqa bir amerikalik siyosatshunos fikriga ko'ra: "Keng ma'noda targ'ibot – bu vakilliklarni manipulyatsiya qilish orqali inson harakatlariga ta'sir qilish texnikasi. Bu tasvirlar og'zaki, yozma, tasviriy yoki musiqiy shaklda bo'lishi mumkin" – kabi fikrlarni bildiradi [4].

"Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati" kitobida "Targ'ibot" (arab. qiziqirish, tarqatish) – 1) keng ma'noda, ijtimoiy faoliyatning alohida turi bo'lib, aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish maqsadida ilmiy, badiiy, ijtimoiy-

siyosiy, milliy g'oya va qadriyatlarini targ'ib etishdir. Targ'ibot jarayonida fan, san'at, siyosiy va mafkura yutuqlari keng ommalashtiriladi, boyitiladi va yanada rivojlantiriladi; 2) tor ma'noda, mafkura va siyosatni targ'ib etishga qaratilgan faoliyat [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida tajribalarni o'rganish, ma'lumotlarni to'plash, guruhlashtirish, tarixiylik, tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, qiyosiy tahlil va boshqa usullardan foydalanilgan.



Bu davrlar o'z davrining eng dolzarb g'oyalari, mutafakkirlar, ziyolilar, siyosiy arboblarning fikrlari, ma'naviy targ'ibotning yangicha mexanizmlari hamda vositalari bilan farqlanadi.

1-rasm. Targ'ibotning tadrijiy rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlari

Ibtidoiy davr targ'iboti. Mazkur davr targ'ibotining o'ziga hos jihati shundaki, dunyoviy jihatdan insonlarning aqlan rivojlanishiga bog'liq. Insoniyatning ilk vakillari bo'lmish xomo xabilis odamlarini olimlar mavhum tushunchalar, kuchli his-hayajon, tasavvur, to'g'ri va noto'g'ri mantiqiy bog'liqliklarni farqlash qobiliyatiga ega ekanligini to'g'risida ma'lumotlarga mavjud emas. Lekin xomo sapiyensning dastlabki vakili – kromanyon odam voqelikni tahlil qilish, fikrlash, kundalik faoliyatida orttirgan tajribalarini yodda saqlash va avloddan-avlodga o'tkazish singari imkoniyatlarga ega edi.

Odamlardagi ilk targ'ibot bog'liq harakatlar diniy qarashlar asosida amalga oshirilgan. Eng qadimgi diniy e'tiqodlardan biri totemizmdir. Totemizm (ing. totemis; hinducha atotem – uning urug'i, nasi) – ibtidoiy jamiyatning ilk dinlaridan biri. U kishilarning ma'lum guruhi bilan hayvon va o'simliklarning muayyan turlari o'rtasida g'ayritabiiy aloqa, qon-qarindoshlik bor, degan e'tiqodga asoslanadi [5]. Totemizmning asl mohiyati shundaki, odamlar o'zlarini tabiat bilan birligini anglashidadir.

Moddiy olamda ruhlar mavjud ekanligiga ishonishdan animizm shakllandi. Animizm deb (lotincha anima – jon, ruh degan ma'nolarni anglatadi) tabiat voqeliklarida, hodisalarda ruhlarning mavjudligi, ularning inson va jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga ishonishga aytiladi.

Targ'ibotning ibtidoiy shakllaridan biri fetishizm hisoblanadi. Ibtidoiy jamiyatda paydo bo'lgan bunday e'tiqod turi fetishizm (portugal tilida fetiko – sehrli, mo'jizakor degan ma'nolarni anglatadi) deb ataladi. Unga ko'ra odamlar predmetlarni ham g'ayritabiiy kuchga ega deb hisoblaganlar [6].

Ibtidoiy davrda odamlar targ'ibot ishlarida devoriy sur'atlar yordamida ham amalga oshirgan. Bunda insonlar toshlarga ishlangan rasmlar bilan ov jarayonlarini, xavfdan

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tadqiqot natijalariga ko'ra targ'ibot sistemasi evolyusiyasi bir necha davrni bosib o'tgan. Mazkur davrlarni insoniyat sivilizatsiyasiga bog'lagan holda oltiga bo'lish mumkin:

- Ibtidoiy davr targ'iboti;
- Qadimgi dunyo targ'iboti;
- O'rta asrlar targ'iboti;
- Uyg'onish davri targ'iboti;
- Yangi zamon targ'iboti;
- Hozirgi zamon targ'iboti (1-rasmga qarang).

ximoiyalanish yoki etiqodiy jarayonlarni tasvirlagan holda o'ziga xos tarzda targ'ibotni amalga oshirgan.

Qadimgi dunyo targ'iboti. Bu davrning o'ziga xosligi shundaki, asosan ezgulik, ijtimoiy tenglik va adolat g'oyalari jamoatchilik ongiga singdirish edi. Jamoatchilik fikrini shakllantirish, unga ma'lum g'oyani singdirish maqsadida yaratilgan asarlar kishilar dunyoqarashi va ruhiyatiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Bu davrni dastlabki namunalari Qadimgi Misr hududidan topilgan tarixiy yodgorliklardan anglash mumkin. Manbalarda ko'rsatilishicha, targ'ibot ishlari asosan hukmdorlari yoki a'yonlari tomonidan olib borilgan. Qadimgi Misr targ'ibotining asosiy maqsadi jamiyatda qaror topgan ijtimoiy munosabatlarni saqlab qolish, uni parokandalikdan asrashdan iborat. Buni eramizdan avvalgi III ming yillikda bitilgan "Ptaxotep nasihatlarida" ko'rishimiz mumkin [7]. Ptaxotep o'z davrida mamlakatning jatsi (vaziri) bo'lib, butun targ'ibot tizimiga rahbarlik qilgan. U o'z nasihatlarida mamlakatdagi barqarorlikni saqlashga chaqiradi. Buning uchun quyi tabaqa vakillarini o'z farog'atlarini yuqori tabaqalar irodasiga bog'liqligini chuqur anglashga, yuqori tabaqa vakillarini esa quyi tabaqa vakillarini xo'rmaslikka targ'ib etadi.

O'rta asrlar targ'iboti. Yuqoridagi davrlar singari teotsentrik xarakterga ega bo'lgani bois din aqidalari va diniy ta'limotlar mohiyati va mazmunini tushuntirib va asoslab berish, uni jamoatchilikka singdirish vositasiga aylandi. Bunga sabab sifatida ikki yirik din – xristianlik va islom dinlarining vujudga kelishi va uning targ'iboti edi.

Xristian dini yo'qsil va kambag'al kishilarning ehtiyoj va manfaatlarini himoya qiluvchi din sifatida yuzaga keldi. Iso alayhissalomning ilk va'zlaridayoq Rim imperiyasida hukm surgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat, tengsizlik va adolatsizlik keskin qaralandi, hademay bu vaziyat o'zgarishi va Xudo irodasi qaror topishi ta'kidlandi.

Sharqda islom dinining vujudga kelishi targ'ibot ishlarida yangicha yondashuvlarni keltirib chiqardi. Barcha musulmon jamoatlari, diniy-falsafiy ta'limotlar o'zlarining targ'ibot sistemalarini ishlab chiqa boshladilar. Masalan, VIII asrda shakllangan ismoiliylar ta'limoti ana shunday samarali targ'ibot apparatiga ega edi. Ma'lumki, ismoiliylar ta'limoti

zohiriy (tashqi, ochiq) va botiniy (ichki, maxfiy) ta'limotlarga bo'linadi. Ismoililarning zohiriy ta'limoti oddiy xalq vakillari orasida keng targ'ib qilindi. Mazkur targ'ibot ishlari bilan maxfiy imomlar shug'ullandilar [8]. Mazkur davrda targ'ibot yaxlit sistema sifatida tugal shakllanib bo'ldi.

Uyg'onish davri targ'iboti. Targ'ibotning bu davrigacha bo'lgan shakllarida asosan diniy g'oyalar va qarashlar bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, uyg'onish davriga kelib targ'ibot gumanizm g'oyalari jamoatchilik ongiga singdirishga qaratildi. Uyg'onish davrida Yevropaning bir qator mamlakatlarida sekulyarizatsiya jarayoni boshlandi. Uning oqibatida targ'ibot xarakteri ham o'zgardi. Natijada haykaltaroshlik, teatr, adabiyot kabi san'at turlari rivojlanib, targ'ibotning qudratli vositasiga aylandi.

Gumanizm g'oyalari Italiyada paydo bo'lib, keyinchalik Yevropaning boshqa mamlakatlariga tarqaldi. Xususan, Renessans davrining buyuk shoiri, publistisi, faylasufi va siyosiy arbobi Dante inson o'z taqdirini o'z qo'li bilan yaratadi, buning uchun u o'z shaxsining imkoniyatlariga tayanmog'i lozim, degan fikrlarni targ'ib qildi. Fransiyada Mishel Monten har bir kishi hayotda ma'lum axloqiy qoidalarga amal qilishi, tabiat bilan uzviy aloqadorlikda yashashi, aql-zakovat hukmiga bo'ysunishi zarur, degan fikrlarni targ'ib etdi [9].

Yangi zamon targ'iboti. Mazkur davrga kelib, asosan ma'rifatparvarlik g'oyalari jamoatchilik ongiga singdirish bilan bog'liq edi. Bu davr XVI asrning oxiridan boshlanib, XX asr boshlariga qadar davom etdi. Yangi zamon ma'naviy targ'iboti kishilar dunyoqarashi va ruhiyatini tubdan o'zgartirdi, ma'naviy targ'ibotning xarakteri jihatidan yangi uslublari va usullari, omillari va vositalarini vujudga keltirdi.

Yangi zamon targ'iboti, birinchidan, ilm-fanni, barkamollikni va ma'rifatparvarlikni targ'ib qiluvchi, ikkinchidan esa, targ'ibot ishlarini ilm-fan yutuqlari asosida yo'lga qo'yuvchi sistemaga aylandi. Bunday xususiyat eng avvalo Angliya, Fransiya va Germaniyada ko'zga tashlandi.

Barkamol inson va ma'rifatparvarlik g'oyalari ilk bor Angliyada vujudga keldi va shu mamlakatda targ'ib etila boshlandi. Bu g'oyalar targ'iboti namunalari ingliz faylasuflari F.Bekon, T.Gobbs, J.Lokk va boshqalarning asarlarida ko'rish mumkin. Ular inson to'g'risidagi xristian dini qarashlarini keskin tanqid qildilar, inson borlig'i, uning ma'naviy dunyosining shakllanishi qonuniyatlariga doir mutlaqo yangicha fikrlarni ilgari surdilar. Jumladan, F.Bekon inson hayotini yaxshilash bilan bog'liq g'oyalarni targ'ib qilishga e'tiborni qaratdi. T.Gobbs inson bilan jamiyat o'rtasidagi aloqadorlikni o'rganishga qo'l urdi. J.Lokk esa insonning aqliy kamoloti, uni tarbiyalash muammolarini tadqiq qildi. Bu davrda Angliyada kitob noshirchiligi jadallik bilan rivojlangani tufayli mazkur g'oyalar zudlik bilan ommalashib bordilar.

Hozirgi zamon targ'iboti. Mazkur o'zining plyuralistik xarakteri, targ'ib etilayotgan g'oyalarning turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Bu davr o'ziga hosligi shundaki, dunyoda yuz bergan jahon urushlari va keyinchalik dunyoni nazorat qilish qurolli to'qnashuvlar bilan emas balki insonning ongi va qalbi kurashning avj olishi hamda targ'ibotda yangicha vosita va texnologiyalarining joriy etilishi bilan xarakterlidir. Targ'ibotda fan va texnika, san'at turlari, ommaviy axborot vositalarining rivojlantirilishi uning ta'sir doirasi va imkoniyatlarini nihoyatda kengaytirdi.

Hozirgi zamon targ'ibotining dastlabki davrlarida urush tufayli jamiyat va shaxs o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, jamiyatning barcha imkoniyatlarini g'alabaga safarbar qilish, kishilarni yagona maqsad atrofida birlashtirish zaruriyati yuzaga keldi. Natijada vatanparvarlik, qahramonlik, jasoratni targ'ib qiluvchi risolalar, plakatlar, varaqalar ko'paydi.

Targ'ibot ishlarida internetning yuzaga kelishi uning ko'lami, sifati va qamroviga jiddiy ta'sir etdi. Insonlar ongi, tafakkuri va dunyoqarashi shu qadar internet bilan bog'landiki, natijada insonlarda "klip tafakkur"ni shakllandi. Klip tafakkuri (ingliz tilidan. clip, "matn bo'lagi", "qirqish") – odam ma'lumotni parcha-parcha, qisqa bo'laklarda va yorqin tasvirlarda qabul qiladigan, diqqatini jamlay olmaydigan va doimiy ravishda bir narsadan ikkinchisiga sakrab o'tadigan fikrlash turi [10].

B.M.Frumkinning so'zlariga ko'ra, "klip fikrlash" insonning ma'lumot bilan munosabatlarining yangi darajasini rivojlantirish vektori bo'lib, u turli xil semantik qismlar o'rtasida tezda almashish qobiliyati, shuningdek, ma'lumotni bir xil uzun chiziqli ketma-ketlikni idrok eta olmaslik bilan tavsiflaydi. U uning paydo bo'lishi va shakllanishiga yordam bergan besh omilni keltiradi:

- hayotning tezlashgan sur'ati va keyinchalik asosiy hamda ikkilamchi axborot oqimi hajmining oshishi va uni tanlash, filtrlash hamda farqlash mashaqqatli ekanligi;
- tizimli ravishda yangilanadigan ma'lumotlar;
- kiruvchi axborotning xilma-xilligini oshishi;
- ilg'or ko'p vazifalarni bajarishi;
- ijtimoiy tizimning turli darajalarida demokratiya va doimiy muloqotni mustahkamlash [11].

Targ'ibot ishlarida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish insonlardagi yuqorida qayd etilgan jihatlarini hisobga olishga to'g'ri keldi va tarmoqlarning ishlash ko'lamiga ta'sir etdi. Ijtimoiy tarmoqlarda targ'ibot berilayotgan turli axborotlar ta'sirida foydalanuvchiga yo'ijobiy, yoki salbiy jihatdan ta'sir etishidir. Bunda foydalanuvchi undan keladigan axborotlar natijasida foydali moddiy va ma'naviy qiymatliklarga ega bo'ladi. Quyidagi rasmda bugungi kunga kelib ijtimoiy tarmoqlarda targ'ibot ishlarini tashkil etish samarali ekanligini anglash mumkin (2-rasmga qarang).

2-rasm. Ijtimoiy tarmoqlarning o'ziga xos jihatlari va targ'ibotdagi imkoniyatlari

Ijtimoiy jihatlari bilan bir qatorda shuni alohida ta'kidlash kerakki, uning ta'sirida inson turli nohush yo'llarga kirib ma'naviy buzulq, psixologik stress, jinoy qilmish va shu kabi holatlarni sodir etishi mumkin. Bunday jihatlarni anglagan turli siyosiy va manfaatdor kuchlar jamiyatlarda turli noxushliklar va salbiy hodisalarni keltirib chiqarishga urinmoqdalar.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda targ'ibot ishlarini samarali tashkil etishda uning rivojlanish bosqichlari va bu boradagi ishlar ko'lamini to'g'ri anglash dolzarb sanaladi. Targ'ibot muayyan fikr yoki g'oya, ta'limot yoki nazariyani tarqatish orqali jamoatchilik fikrini va hayotiy pozitsiyani shakllantirish jarayonini anglatadi. Uni xarakteriga ko'ra konstruktiv va destruktiv targ'ibotga ajratish mumkindir. Har bir davrning targ'iboti muayyan g'oya yoki ta'limotning tarqatilishi bilan xarakterlanadi.

Shu jihatdan targ'ibot ishlarnin samarali yo'lga qo'yishda quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq sanaladi:



Birinchiidan, targ'ibot ishlarining evaltsiyasi jarayonida qo'llanilgan har bir usul, vosita va metodlarini alohida o'rganib chiqish va uni ijobiy jihatlari hozirgi zamon bilan integratsiyalash.

Ikkinchiidan, targ'ibotda individual va kasbiy yondashuv tamoyillarini targ'ibot jarayonlariga joriy etish.

Uchunchidan, targ'ibot ishlarida eski, talabga javob bermaydigan usul va vositalardan voz kechgan holda yangicha yondashuvlar va vositalarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Учинчи нашр. – Тошкент: Ўзбекистон, 2022. – 440 б.
2. Патрихина Т.Н., Шламова Д.А. Пропаганда: сущность научной дефинитсии, подходы к класси-фикатсии.// Молодоученый, 2015, №4. – С. 305-308.
3. Bell D. The End of Ideology. – N.Y.,1967. – P. 396-397.
4. Расулов Х. “СИЁСАТ-МАДАНИЯТ, ҲОДИСА ВА ФАН СИФАТИДА”. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2.7 (2022): – Б.691-702.
5. Назаров Қ. ва бошқалар. “Маънавият асосий тушунчалар луғати”. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2021. – 816 б.
6. Narbekov A.V. Dinshunoslik asoslari: O'quv qo'llanmasi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2007. – 211 b.
7. Брагинский И. Идеи гуманизма в литературах Востока. // Сборник статей. – М.: 1967.
8. Daftary Farhad. Short history of the ismailis:Traadition of a muslim community. Edinburg; Edinburg University Press. 2020. – P.104.
9. Choriev A., Choriev S. Rennsans davri Yevropa falsafasi. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2015.
10. Что такое клиповое мышление и как извлечь из него пользу. <https://trends.rbc.ru/trends/innovation/60dad2ce9a794760a59e66f5?from=copy>
11. Клиповое мышление: чем отличаются «люди экрана» от «людей книги»? // Портал «моноклер». <https://monocler.ru/klipovoemyishlenie/>



UDK:372.8(19)

Saidaxon MAMASODIQOVA,
Andijon davlat pedagogika instituti tayanch doktaranti
E-mail: sadiaxonm@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, professor v.b.T.Islomov taqrizi asosida

TECHNOLOGY FOR DEVELOPING COMPETENCE OF WORKING WITH INFORMATION OF PHYSICS TEACHERS

Annotation

This article presents ideas on technologies for developing the competence of physics teachers in the context of digital education.

Key words: Digital education, competence, competence, innovation, technology, cooperative learning.

FIZIKA FANI O'QITUVCHILARINING AXBOROTLAR BILAN ISHLASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada raqamli ta'lim sharoitida fizika fani o'qituvchilarining axborotlar bilan ishlash kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari yuzasidan fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli ta'lim, kompetentlik, kompetensiya, innovatsiya, texnologiya, hamkorlikda o'qitish.

ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИИ РАБОТЫ С ИНФОРМАЦИЕЙ У УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИКИ

Аннотация

Данная статья посвящена технологиям развития компетентности учителей физики в условиях цифрового образования.

Ключевые слова: Цифровое образование, компетентность, компетентность, инновации, технологии, кооперативное обучение.

Kirish. Axborot kommunikativ kompetensiyalarining tuzilishini ko'p tomondan ko'rib chiqish mumkin, ammo biz, asosan, kompetensiya va bo'lajak o'qituvchi shaxsiyatining kichik tarkibiy qismlarining hamkorligiga qaratilgan yanada yaxlit yondashuvga harakat qilamiz. Shu munosabat bilan va axborot kommunikativ kompetensiyalarining kontekstida ilhomlantiruvchi o'xshashlikni bo'lib, bu informatika sohasidagi zamonaviy tendensiyalar nuqtai nazaridan axborot kommunikativ kompetensiyalarining tuzilishiga yaqinlashtiradi, bu esa zamonaviy raqamli texnologiyalarni talabalarga o'rgatishga harakat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Axborot kommunikativ kompetensiyalarining asl ko'rinishi bu raqamli texnologiyalardan foydalanish malakasi-ta'limdagi kompetensiyaning asosiy xususiyatlaridan biridir. Bu, birinchi navbatda, "haqiqiy hayot" bilan kuchliroq munocabatlar, ob'ektga yo'naltirilgan dacturlash konsepsiyacidagi kabi faoliyat bilan bog'liqlik. Prucha (2005) va Ckalkova (2005) tomonidan kompetensiyatamachining ta'rifidan kelib chiqadigan bo'lsak, kompetensiya shaxning xucuciyatlari va tarkibiy qicmlaridan kelib chiqadi, ular ta'lim orqali olinadi va chuqurlashadi. Qobiliyat, sodda qilib aytganda, tug'ma xususiyatlardan, shuningdek, ta'lim orqali olingan va chuqurlashtirilgan xucuciyatlardan iborat. Kompetensiya, shuningdek, atrof-muhit bilano'zaro ta'sir qilishning ma'lum metodlarini (o'z xususiyatlarini o'tkazish, egallash va rivojlantirish) o'z ichiga olishi kerak. Metodlar bir vaqtning o'zida o'z faoliyati uchun xususiyatlardan foydalanadi. Umumiy darajada metodlar, macalan: o'rganish, muloqot qilish, qaror qabul qilish, jamoada ishlash; muayyan darajada chet tillarini bilish yoki elektron pochtdan foydalanish kabi xususiyatlardan foydalanishi shart. Ushbu yondashuv biz uchun bo'lajak fizika

fani o'qituvchining axborot kommunikativ kompetensiyasini yanada kengroq komponent sifatida tushunish uchun qadam bo'lib, bo'lajak o'qituvchiga talabning ta'limdagi faol roliga e'tibor qaratish imkonini beradi. U o'z talaba va talabalariga kerakli minimal ma'lumotlar bilan birga mos ravishda tayyorlangan muammolarni taqdim etadi va ularga javob topishga va tegishli qonunlarni tushunishga olib boradi. Ko'pincha bu aniq yechimsiz muammolar.

Tadqiqot metodologiyasi. Kompetensiyaning individual o'lchovlarining umumiy xususiyatlarini (darajasini) o'z ehtiyojlarimiz uchun yanada kengroq taxlil qildik. Biz birinchi navbatda Jungning ilmiy ishlariga, Belz va Siegirstning Kličové kompetense nashrining (2001) ilhomlantiruvchi qicmlariga, shuningdek, Veteška va Tureckiova (2008) ning "Kompetence ve vzdělávání" ilmiy acarlariga tayandik va to'ldirdik. Quyida har bir o'lchamning umumiy qismlaridan o'zimiz qo'llanadigan maxsus o'lchovlarni ko'rib chiqamiz:

Bilim o'lchovi

• ekspert bilimlarini o'zlashtirish va baholashni o'z ichiga oladi.

Micol: O'qituvchi www sahifalarida mavzuni turli xil taqdim etish imkoniyatlarini biladi.

Shaxsiy o'lchov

o'rganish qobiliyati:
• talabalarning yangi bilimlar to'g'risida fikr yuritishga moyilligi,

• o'z boshqaruvchisi bo'lishi,
• o'z-o'zini boshqarish qobiliyati,
• o'z-o'zini aks ettirish qobiliyati,
• Qobiliyat, ko'nikmalar hamda ular asosida allaqachon olingan bilimlarni o'zgartirishi lozim.

Misol: O'qituvchi mavjud pedagogik amaliyotni qayta ko'rib chiqishga va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni o'rganishga qodir.

- Ijtimoiy o'lchov
- jamoaviy ish,
- hamkorlik,
- ziddiyatli vaziyatlarni engish,
- kommunikativlik.

Misol 1: O'qituvchilar bo'lajak fizika fani o'qituvchilar ya'ni talabalar bilan muloqot qiladi va ularning ta'lim ehtiyojlari haqida fikr yuritadi.

Misol 2: Bo'lajak fizika o'qituvchi hamkasblari bilan hamkorlik qiladi, qaror qilaoladi, ularning fikr va tavsiyalarini muhokama qilaoladi.

- yangi holatlarni tuzish hamda tasniflash,
- mutaxassis bilimi hamda ko'nikmalaridan rejali shu bilan birgalikda maqsadli foydalanish;
- tizimli ravishda davom ettirish qobiliyati,
- Uslubiy o'lchov
- narsalarni kontekstga joylashtirish, aloqalarni o'rganish,
- innovatsiyalarga erishish uchun tanqidiy ko'rib chiqish,
- imkoniyatlar va xavflarni hisobga olish.

Misol: Bo'lajak o'qituvchi turli mavzular uchun samarali taqdimot vositalarini tanlaydi.

Ushbu tadqiqotlar doirasida P. Kaun tomonidan ishlab chiqilgan "Testlar" test yaratish vositasi dasturiy ta'minot to'plami qo'llaniladi, u o'qitish testlariga tayyorgarlik ko'rish, to'ldirish va talabalarning AKT kompetensiyalari shakllanganligini aniqlash - qobiliyat testini o'tkazish uchun mo'ljallangan (Saune, 2002) ilmiy qarashlari ham taxlil qilib o'rganilib chiqildi.

Natijalar va muhokamadan shunga erishdikki o'quv jarayoni ko'pinchao'qitish, o'rganish, baholashni o'z ichiga olgan bir qator bosqichlar sifatida tavsiflanadi. Ushbu fikrlash yo'nalishiga ko'ra, o'qitish o'rganishga ta'sir qiladi va o'rganish o'rganishga olib keladi va keyinchalik baholanadi. Amalda, yaxshi o'qitish o'rganishni qo'llab-quvvatlovchi doimiy baholashni o'z ichiga oladi.

(Löftröm, Kanerva, 2006). Dosent I. Lise (2012) raqamli texnologiyalar asosida o'zgarishlarni tahlil qilar ekan, bo'lajak fizika fani o'qituvchilarning axborot kommunikativ kompetensiyalarining ta'limini rivojlantirishning muhim omillari sifatida raqamli texnologiyalardan ko'proq foydalanish va talabalarning o'z-o'zini aks ettirishini ta'kidlaydi. Axborot kommunikativ kompetensiyalarining ta'limda talabalarning bilim olishini qo'llab-quvvatlash yoki kompetensiyalarni rivojlantirish, boshqacha aytganda, ta'lim maqsadlariga erishish uchun ishlatiladi. Ta'lim sifatini o'rganishda axborot kommunikativ kompetensiyalarining qanday qo'llanilishiga bog'liq.

Dars jarayonida axborot-kommunikativ kompetentlikni raqamli texnologiyalar asosida foydalanishda dasturiy ta'minotni shakllantirish hamda didaktik foydalanish imkoniyatlari quyidagilardan iboratdir:

- nazariyani tayyorlash uchun: [2]
- ovoz yozish fayllari yordamida taqdimot yaratish;
- turli xil tasvir hamda video fayllarni qo'llagan holda video material ishlab chiqish;
- seminarlarni amalga oshirish uchun:
- rasmlar yoki fotosuratlar yordamida texnik naqshlarni yaratish;
- kiyim modellarini loyihalash;
- turli kompozitsiyalar ishlab chiqish;

• fanga tegishli axborot kommunikativ kompetensiyalarini shakllantiruvchi dasturlarni amalda foydalanishni o'rganish.

- testlarni ishlab chiqish uchun:
- elektron muhitda testlarni yaratish;
- krossvord yasash;
- test loyihalash vositalaridan foydalanish.

Axborot - kommunikativ kompetensiyalaridan foydalanish bo'yicha har qanday o'quv jarayonidagi eng muhim masalao'qituvchilarni talabalarning mustaqilligi, haqiqiyliigi, o'rganish uslublari va motivatsiyasini tushunish va hurmat qilishni o'rganishga tayyorlashdir.

Kompyuterda testlarni o'tkazish an'anaviy yozma testga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega:

- barcha harakatlar kompyuterlar yordamida amalga oshiriladi, keyin har bir talabaga ish varag'ini nusxalash shart emas, shuning uchun qog'ozga sarflanadigan xarajatlar tejraladi;
- pedagog talaba ishlarini tuzatishi shartmas, chunki kompyuter qaysi javoblar to'g'ri ekanligini tekshiradi, ballar hamda baholarni ko'rsatadi;
- talabalarning kompyuter ko'nikmalarini oshirish;
- multimedia va internet axborotidan foydalanish imkoniyati;
- kompyuter bilan ishlash o'quv jarayonini qiziqarli qiladi, chunki u an'anaviy usullardan farq qiladi;
- talaba mustaqil ravishda test topshira oladi, shu bilan o'z malakasini tekshiradi.

Axborot kommunikativ kompetensiyalarini o'rganish yoshlarni tayyorlashda, shuningdek, kattalar ko'nikmalarini rivojlantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Bo'lajak o'qituvchining yangi texnologiyalarga ochiqliigi va yangi dasturlar bilan aloqa kanallarini sinab ko'rishga tayyorligi bir qator maxsus dacturlarda malakali bo'lishdan ko'ra muhimroqdir.

• Uslubiy materiallar va testlarni tayyorlash, salbiy psixologik stressni oldini olish uchun oddiy foydalanuvchi tajribasiga ega bo'lgan talabalar uchun maqbul bo'lgan shartlar bo'yicha ma'lum bir tartibda (algoritm) amallarini bilimga asoslangan real bajarishni talab qiladi. Sinovlardan foydalanish bo'lajak o'qituvchini diversifikatsiya qilish kerak: tayyorlangan, ijobiy, xavfsiz, ochiq. (2.2-rasm)

• fanlarni o'rganish bo'yicha ishlab chiqilgan va amalda taddiqqlangan testlardan foydalangan holda raqamli texnologiyalar bilan, P.Kaunes tomonidan ishlab chiqilgan "Testlar" dacturiy majmuasidan foydalangan holda o'quv testini tayyorlash uchun mo'ljallangan; to'ldirish va bilimlarni baholash, bu:

- qog'ozdagi topshiriqlar orqali odatdagidan ko'ra kengroq imkoniyatlarni taklif qilish, chunki multimedia imkoniyatlari (rasmlar/illyustratsiyalar) bilan to'ldirilgan kompyuterda interfaol mashqlardan foydalanish mumkin;
- bu esa talabalarning vaqtini tejaydi, darslarda amaliy ishlariga ko'proq vaqt ajratish imkonini beradi.

• Tadqiqot ishlari natijasida mualliflar tomonidan talabalar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha boshlang'ich bilimlarga ega bo'lgan vaqtdan boshlab "talabalar malakasini baholash hamda mustahkamlash testlari" dasturiy majmuasidan foydalanishni tavsiya qiladilar.[3]

Raqamli texnologiyalar orqali axborot kommunikativ kompetensiyalarini oshirish uchun taqdim etilayotgan algoritm bo'yicha topshiriqlarni bajarish rejimida ishlash ta'lim oluvchilarga o'z-o'zini nazorat qilish, tekshirish, tanqidiy fikrlashga oid topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarish uchun kerakli malakalarni rivojlantirib mustaqil va ijodiy fikrlay olish imkoniyatini beradi.

O'quv jarayoniga moslashuvchi veb tizimda aralash ta'limda talabalarga ta'lim berar ekanmiz, bo'lajak fizika fani o'qituvchining axborot madaniyati bilan birga axborot kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlarini ham quyidagilar asosida belgilab olishimiz kerak: axborot faoliyatiga, fikrlash madaniyatini rivojlantirishga tayyorlik; olingan axborotni tizimlashtirish qobiliyati; axborotni maqsadli va tizimli izlash, ularni talqin qilish va tarqatishga qodirlikni jamlagan integrativ sifatlar vah.k. Bo'lajak fizika fani o'qituvchilarning axborot kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishning boshlang'ich metodologik asoslari ishlanganligi, katta hajmda nazariy-tajriba materiali mavjud ekaniga qaramay, an'anaviy ta'lim tizimida bu ilmiy salohiyatdan hamon etarli darajada foydalanilmayapti. Bo'lajak o'qituvchining axborot kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish tajribasi ta'lim jarayonini tashkil qilishda an'anaviy ta'lim, masofaviy ta'lim, aralash ta'lim muhitlaridan unumli foydalanish uchun pedagogik modellar yaratib, ularni tatbiq etishni taqozo etadi. [5]

O'qituvchilarning raqamli texnologiyalar to'g'risidagi bilimlari va ko'nikmalari hamda ularga ta'sir etuvchi omillar

o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish uchun Strukturaviy tenglamalar yordamida modellashtirish texnikasidan foydalanildi. Strukturaviy tenglamani modellashtirish o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlarning mustahkamligini tekshiradi va 0 dan 1 gacha bo'lishi mumkin bo'lgan vazn nisbatini belgilaydi. Axborot kommunikasiya komponentlarini bilish hamda ko'nikmalari bilan bog'liq eng kuchli omillar quyidagilar ekanligi belgilandi: Raqamli texnologiyalardan professional qo'llash, ta'lim muassasining raqamli texnologiyalarini bilish salohiyati, shaxsiy kompyuter, pedagogning munosabati hamda motivatsiyasini ko'ramiz.[6]

R.G.Isyanov [1], D.N.Mamatov [4], Sh.B.Bekchonova va boshqalar tomonidan ta'limni axborotlashtirish sharoitida zamonaviy kasb ta'limi o'qituvchisi modelini yaratish muammolari bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilgan.

Bundan tashqari darslarda talabalar jamoasini kichik guruhlariga bo'lib ishlash ularning darsda faolligini ta'minlaydi, har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi, bir-biridan auditoriyada o'rganishga imkoni tug'iladi, boshqalar fikrini qadrlashga o'rgatadi.

ADABIYOTLAR

1. Ergashevich, R. U. (2019). Cognitive tasks in educational-upbringing process on biology. *International scientific review*, (LVII), 60-61.
2. Shakhmurova, G. A., Rakhmatov, U. E., & Saidjanova, U. S. A complex of entertaining tasks and exercises on Biology as one means of enhancing the cognitive skills of students. *Asia life sciences*, 30(1), 87-97.
3. Shakhmurova, G. A., Azimov, I. T., Rakhmatov, U. E., & Akhmadaliyeva, B. S. Solution of biological problems and exercises (human and health). *Teaching-methodological guidance.* Literature sparks.
4. Shakhmurova, G. A., & Azimov bT, R. U. Problem solving from biology (zoology). *Teaching-methodological guidance.* Brok Class Servis LLC.
5. Ergashevich, R. U. (2018). A perfection of the professional competence of teachers by using of creative works in biology lessons under solving tasks and exercises. *European science review*, (3-4), 225-227.
6. Rakhmatov, U. E., & Shakhmurova, G. A. (2020). Methodical Instructions of Improving Biology Teachers' Professional Competence for Conducting Modern Lesson (based on Solutions of Issues and Tasks). *Eastern European Scientific Journal*, 3, 123-16.



UDK: 323:347.9(575.1)

Oltinoy MAMIROVA,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat boshqaruvi akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi

O'zJOKU s.f.d, Professor M.Qirgizboyev taqrizi asosida

DAVLAT HOKIMIYATI BOSHQARUV ORGANLARINI NOMARKAZLASHTIRISHGA OID KATEGORIYALAR TAHLILI

Annotatsiya

Davlat organlari boshqaruvinini nomarkazlashtirish islohotlari huquqiy davlatni shakllantirishning asosiy shart-sharoitlaridan biri bo'lib, bu islohot fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanish sur'atlariga monand ravishda rivojlanib boradi. Ushbu maqolada davlat boshqaruvida nomarkazlashtirish tushunchasi, nomarkazlashtirish konseptiga oid tahlillar, nomarkazlashtirishning fiskal, ma'muriy, siyosiy turlari muhokama qilinadi. Shuningdek, ma'muriy islohotlarning dekonstratsiya, delegatsiya, devolyutsiya, uzoqlashtirish kabi asosiy shakllari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Nomarkazlashtirish, nomarkazlashtirish konsepti, fiskal nomarkazlashtirish, siyosiy nomarkazlashtirish, ma'muriy nomarkazlashtirish.

АНАЛИЗ КАТЕГОРИЙ ДЕЦЕНТРАЛИЗАЦИИ ОРГАНОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ

Аннотация

Реформы децентрализации управления государственными органами являются одним из главных условий формирования правового государства, и эта реформа развивается в соответствии с темпами развития институтов гражданского общества. В данной статье рассматривается понятие децентрализации в государственном управлении, анализируется понятие децентрализации, фискальный, административный и политический виды децентрализации. Также раскрыты основные формы административных реформ, такие как деконцентрация, делегирование, децентрализация, удаленность.

Ключевые слова: Децентрализация, концепция децентрализации, фискальная децентрализация, политическая децентрализация, административная децентрализация.

ANALYSIS OF CATEGORIES OF DECENTRALIZATION OF PUBLIC ADMINISTRATION BODIES

Annotatsion

The reforms of decentralization of the management of state bodies are one of the main conditions for the formation of a legal state, and this reform develops in line with the pace of development of civil society institutions. This article discusses the concept of decentralization in public administration, analyzes the concept of decentralization, fiscal, administrative, and political types of decentralization. Also, the main forms of administrative reforms such as deconcentration, delegation, devolution, divestment, are revealed.

Key words: Decentralization, concept of decentralization, fiscal decentralization, political decentralization, administrative decentralization.

Kirish. Rivojlangan mamlakatlarda davlat boshqaruv organlarini nomarkazlashtirish (desentralizatsiyalash) islohotlari XX asrning 70-yillaridan boshlanganiga qaramasdan unga doir kategoriyalarning boyib borishi hanuz davom etmoqda. Ularni mazmun-mohiyatini tadqiq etish bu sohadagi islohotlarni yanada samarali bo'lishi uchun ta'sir qiladi.

Davlat boshqaruv organlarini nomarkazlashtirishni amalga oshirish markazlashgan rejalashtirish natijasida kelib chiqqan muammolarni bartaraf etadi, murakkab byurokratik proseduralarni kamaytiradi, hokimiyatning mahalliy shart-sharoitlar va ehtiyojlarga nisbatan sezgirlikni oshiradi, qarorlar qabul qilish jarayolarida turli siyosiy, etnik, diniy va madaniy guruhlarining vakilligini ko'paytiradi, markazdagi vazirliklar zimmasidagi boshqaruv yuklarini kamaytirib, ularni siyosiy muvofiqlashtirish funksiyalarini bajarishlariga shart-sharoitlar yaratadi. Oxir-oqibatda nomarkazlashtirish siyosiy barqarorlik va milliy birlikni oshiradi, fuqarolarga mahalliy darajalarda davlat dasturlarini bajarilishi ustidan nazorat qilishlari uchun imkoniyatlar yaratadi.

Agar nomarkazlashtirish jarayonlarining turli davlatlarda turlicha amalga oshirilishini nazarda tutadigan

bo'lsak, ularga doir islohotlar birinchidan, davlat taraqqiyotining tarixiy shart-sharoitlariga bog'liq holda kechadi; ikkinchidan, u davlat hokimiyati boshqaruvining ijtimoiy cheklanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar - joylarda demokratik rivojlanganlik darajasi, mahalliy o'zini o'zi boshqarish va fuqarolik jamiyatining faolligi darajasiga bog'liq holda o'z samarasini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlar tahlili.

Maqolani yozishda xorijiy mamlakatlar va O'zbekistonda davlat boshqaruv organlarini nomarkazlashtirishga oid evolyusion jarayonlar o'rganildi, ular bir tizimga solinib umumlashtirildi. Mazkur mavzuga oid taniqli ekspertlarning tahlillari va tavsilari o'rganildi. Maqolada tadqiqot olib borishning umumilmiy metodlari - tizimli-funksional, qiyosiy, mantiqiy, statistik tahlillardan foydalanildi, shuningdek manbalar va ma'lumotlarni tizimlashtirish va qiyoslash, umumlashtirish, tuzilmaviylik hamda dinamik tahlil metodlariga ham murojaat qilindi.

Tadqiqot natijalari. Davlat boshqaruvida "markazlashtirish" kategoriyasi 1794 yilda Fransiya izohli lug'atida davlat hokimiyatini tashkil etishning yangi shaklini

ifodalash uchun berildi. Dastlab nomarkazlashtirish (desentralizatsiya) o'sha paytdagi hukmdorlar "o'z hokimiyatimni yo'qotib qo'yishim mumkin" degan fikrlaridan kelib chiqib unga qo'rquv bilan qaradi. Qolaversa, ular davlat hokimiyatini markazlashtirishga berilgan edi [17].

Taniqli fransuz statist olimi Moris Blok nomarkazlashtirishni markazlashtirishni kuchsizlantirish va buzishning vaqtinchalik usuli sifatida baholab, u bu haqda 1963 yilda maxsus maqola e'lon qildi. M.Blokning fikricha, nomarkazlashtirish siyosiy qarorlar qabul qilishning markazlashgan tizimini butunlay inkor qilmaydi. Markazlashtirishning muayyan hissasi birlik, hisobdorlikni ta'minlash uchun zarur bo'ladi, buning natijasida davlat boshqaruvi sifati yuqori bo'ladi [14].

Shu tariqa, nomarkazlashtirish dastlab mintaqaviy boshqaruv guruhleri o'zaro raqobatdoshligini va samaradorligini oshiradi, degan qarashlar hukmdor bo'lgan bo'lsa, keyinroq nomarkazlashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlariga muhim e'tibor qaratila boshlandi. Jumladan, taniqli siyosatshunos AQSH siyosatshunosi Robert Dal "nomarkazlashtirish davlatning iqtisodiy salohiyatini oshirishga imkoniyatlar yaratadi", degan fikrlarni bildirdi va nomarkazlashtirishni davlatni iqtisodiy muvofiqlashtirish korruptsiyani kuchaytiradi, degan fikr bilan uni markazlashtirishga qarshi qo'ydi [11]. AQSH sosiologi Daniyel Bell esa "hozirgi davrda siyosiy birliklarni, ular bilan birgalikda siyosiy qarorlar qabul qilish birliklarini o'zgarib borayotganligini ta'kidlab, shunday shart-sharoitlarda nomarkazlashtirish kichik boshqaruv birliklarini muhim funksiyalar bilan ta'minlab, markaziy hokimiyat ostida ularni birlashtirib turadi", degan fikrni bildirgan edi [9].

Yarim asrlik vaqt davomida boshqaruvning nomarkazlashtirish tizimi dunyoga keng tarqaldi. Agar oldinlari nomarkazlashtirish norasmiy destruktiv jarayon sifatida talqin etilgan bo'lsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab muayyan boshqaruv qomdalarini o'zida mujassamlashtirgan rasmiy siyosiy institutga aylandi [5].

XX asrning 90-yillaridan boshlab nomarkazlashtirishning yangi siyosiy institusional shaklda rivojlanishi natijasida bu tushunchani konseptualashtirishning bir necha yondashuvlari shakllandi. Jumladan, keyingi o'n yillikda "nomarkazlashtirish konsepti" tushunchasi paydo bo'ldi va u siyosiy fanlar sohasida ishlatilmoqda.

Davlat boshqaruv hokimiyati tizimining vakolatlarini quyi hokimiyat tizimiga uzatishning, ya'ni nomarkazlashtirishning uchta turi shakllandi: 1) fiskal; 2) ma'muriy; 3) siyosiy.

Fiskal, yoki byudjet tizimini nomarkazlashtirishga binoan mintaqalar miolifiy sohada avtonomoya olishga erishadi, boshqacha aytganda, ular o'z byudjetlarini o'z soliq bazalari orqali shakllantiradi. Ularga o'zlari soliqni o'rnatish, xarajatlar hajmini o'rnatish imkoniyatlari beriladi. Byudjet tizimini nomarkazlashtirish doirasida transfertlar hajmini oshirishga mo'ljallangan, markazdan mintaqaviy va lokal hududiy boshqaruv birliklariga uzatilgan hamda harajatlarni nomarkazlashtirish kabi ijtimoiy sohani nomarkazlashtirish ishlari quyi boshqaruv boshqaruv organlariga o'tkaziladi.

Ma'muriy nomarkazlashtirish esa umummilliy hukumat o'zining qator boshqaruv vakolatlarini hokimiyatning mintaqaviy organlariga uzatadi va shu bilan bir vaqtda buning uchun o'zining vakillarini tayinlaydi. Ular mintaqani rivojlantirishga hissa qo'shishlari barobarida markaz nomidan boshqaruv tizimida nazorat funksiyalarini amalga oshiradi. Siyosiy nomarkazlashtirish deganda qator masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish bevosita mintaqalar vakolatlariga beriladi

[6]. Siyosiy yoki demokratik nomarkazlashtirish o'z huquqlariga binoan aholiga hisobdor bo'lgan hokimiyat institutlariga hokimiyat vakolatlarini bir qismini o'tkazish demakdir. Bunda, qoidaga binoan, hisobdorlik bu siyosiy institutlarning saylangan ekanligi bilan kafolatlanadi.

Endi nomarkazlashtirish konseptiga oid tahlillarga to'xtalib o'tamiz. Davlat boshqaruv organlarini nomarkazlashtirish siyosiy, moliyaviy, iqtisodiy, ma'muriy kabilar tizimini qaytadan tashkil etishga taalluqli tushuncha hisoblanadi. "Nomarkazlashtirish" konseptini esa siyosiy fanlarning nazariy yutuqlarini aniqlashtirish jarayonida anglab olish mumkin bo'ladi. "Nomarkazlashtirish" konseptining mazmuni mintaqaviy, hududiy davlat organlari yoki mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, xususiy tashkilotlarning markaziy davlat boshqaruv organlari tomonidan berilgan yangi funksiyalarni amalga oshirish va bu jarayondagi mas'ulligiga bog'liqdir. Buning natijasida davlatning ichki siyosatida lokal (mahalliy) hokimiyat organlarining asosiy darajaga chiqishi anglanadi. Mana shu darajadaga erishilganida hokimiyatning lokal tizimi, shuningdek shu bilan bir vaqtda lokal demokratiya shakllanadi. Taniqli olim D.Bernsning fikricha, "fuqarolar mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini nazorat qilish huquqlari va vositalariga egadirlar hamda ular qarorlar qabul qilishda bevosita ishtirok etadi" [10].

Nomarkazlashtirish erkinlik g'oyalari bog'liq tushuncha bo'lib, u "anarxist", "libertarian" kabi o'sha davrdagi davlat tuzumiga qarshi chiqqan siyosiy faollar tomonidan XX asrga kelib o'zining mantiqiy tugal holatiga keldi. Aleksis de Tokvil shunday deb yozgan edi: "Nomarkazlashtirish nafaqat ma'muriy qadriyat, balki u fuqarolik mezonidir, chunki u fuqarolarning davlat va munisipal ishlariga faol qiziqishlari imkoniyatlarini ko'paytiradi, buning natijasida ulardap foydalaniilgan erkinliklar ko'nikmasi hosil bo'ladi. Bu mahalliy, faol, nozik tabiatli erkinliklar to'planishi natijasi jamoaviy irodalar tomonidan qo'llab-quvatlansa, u holda markaziy hukumat talablariga qarshi samarali posangi paydo bo'ladi" [1]. Anarxizm asoschisi Pyer-Jozef Prudon esa quyidagi fikrni bildirgan edi: "Mening 25 yil davomida ishlab chiqilgan barcha iqtisodiy g'oyalarim quyidagi so'zda jamlangan: qishloqxo'jalik-sanoat federesiyasi. Mening barcha siyosiy g'oyalarim shu formulaga jamlangan: siyosiy federatsiya yoki nomarkazlashtirish" [2].

Har qanday sohadagi nomarkazlashtirish – bu markazlashgan tizim muammolariga javob (aks-sado) sifatida namoyon bo'ladi. Hukumatni nomarkazlashtirishga sabab bo'lgan mavzular – bu iqtisodiy tanazzul, hukumatning xizmat ko'rsatish sohasini moliyalashtirish imkoniyatini yo'qligi, yuki og'irlashib ketgan xizmat ko'rsatishlar darajasini keskin pasayib ketishi, mahalliy o'zini o'zi boshqarishda ozchilik ta'sirini kuchaytirishga oid talablari, legitimlikning zaiflashib ketishi kabilar va hokazo [7].

Hukumatni nomarkazlashtirishning ham siyosiy, ham ma'muriy jihatlar mavjud. Shuningdek, hukumatni nomarkazlashtirish quyi aholi yashash joylariga berish (qarorlar qabul qilish funksiyalarini berish tarzida) vositasida hududiy nomarkazlashtirish ham bo'lishi mumkin.

Siyosiy nomarkazlashtirish siyosatni ishlab chiqishda milliy hukumat hokimiyatini kamaytirishni anglatadi. Bu jarayon qarorlar qabul qilish avtonomligiga ega bo'lgan hudud institutlarini isloh etish yo'li bilan beriladi, yoki fuqarolarga mahalliy hokimiyat organlari mansabdorlarini saylash huquqlarini berish yo'li bilan amalga oshiriladi [6].

Siyosiy nomarkazlashtirish devolyusiya vositasida siyosiy hokimiyat vakolatlarini quyi mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlariga o'tkazishga oid siyosiy boshqaruv

tuzilmalaridagi o'zgarishlarni anglatadi. Taniqli olim Ketlin O'Neyl fikricha, siyosiy nomarkazlashtirish fiskal nomarkazlashtirish amalga oshirilmagan taqdirda boshqaruvning milliy darajasida muholifiy partiyalar uchun ularga moliyaviy resurslardan foydalanishlariga imkon bermagan holda siyosiy maydonlar yaratadi [15].

Fiskal nomarkazlashtirish o'z o'rnida o'zida siyosiy, boshqaruv va boshqa strategiyalarning strategiyalari, algoritmlari va daromadlarni qayta taqsimlashga qaratilgan xatti-harakatlarning fiskal o'zaro aloqalari jamlanmasini namoyon qiladi.

Taniqli olimlar Elizabet foster va Reychel Glennester hokimiyat organlarini nomarkazlashtirishning davlat xizmati ko'rsatishini yaxshilashini quyidagi asoslarini ajratib ko'rsatadi:

- nomarkazlashtirish taqdim etilayotgan davlat xizmatlarini turli tuman bo'lishini, shuningdek turli mintaqalarda har xil usullarda xizmat ko'rsatilishini ta'minlaydi;

- ham jug'rofiy, ham byurokratik masofalarni qisqartirish hisobiga to'g'ridan-to'g'ri ravishda davlat xizmatlarini taqdim etadi, nomarkazlashtirish taqdim etilayotgan davlat xizmatlari va ularni nazorat qilish xarajatlarini qisqartiradi, xizmat ko'rsatishni tezkorligini oshiradi, davlat xizmatlarini iste'molchilari talablariga qisqa vaqtda aks-sado berishini ta'minlaydi;

- markaziy hukumatning muayyan va ayrim mintaqalarni qo'llab-quvvatlashini oldini olib, "alohida homiylik" hatti-harakatlariga imkon bermaydi, nomarkazlashtirish natijasida davlat xizmatlari uchun ajratilgan mablag'lar mintaqalar o'rtasida teng va adolat prinsiplari talablari asosida taqsimlanadi [13].

Taniqli siyosatshunos olim Tyuliya Faletti siyosiy nomarkazlashtirishni saylov tizimi yoki konstitutsiyaviy islohotlar doirasida siyosiy strategiyalar jamlanishi jarayoni sifatida talqin etadi. Bu jarayonda hokimiyatning yuqori darajalarini quyi darajalarga hokimiyat vakolatlarini uzatish amalga oshiriladi. Shu tariqa, nomarkazlashtirishni amalga oshirishga qaratilgan siyosat o'z ichiga hokimiyat vakolatlari yoki resurslarini nodavlat sub'yektlarga uzatish jarayonini ham oladi [12].

Davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish fuqarolarni hokimiyat organlariga yaqinlashtiradi, ularning boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlaridagi ishtiroklarini kengaytiradi. Qabul qilingan boshqaruv qarorlari mahalliy

shart-sharoitlarni o'zida ifodalagani sababli fuqarolar ehtiyojlariga moslashadi. Nomarkazlashtirish deganda hokimiyatni hududiy tashkil etish usuli tushuniladi. Bu degani markazlashgan davlat doirasida mahalliy o'zini o'zi boshqarish, mintaqa kabi mustaqil boshqaruv birliklari tashkil etiladi, ular esa xududiy jamoalar manfaatlarini o'zida ifoda etadi. Shu bilan birga, hokimiyat organlarini nomarkazlashtirish nafaqat qonunlarga o'zgartishlar kiritishni, balki uning huquqiy asoslarini davlat konstitutsiyasida ifodalashni taqozo etadi. Nomarkazlashtirishning bir e'tiborli tomongi shundaki, u mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarini ma'muriy mustaqilligini ta'minlaydi, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi va jamiyat institutlarini markaziy hokimiyat bilan o'zaro aloqalarining samarasini oshiradi [8].

Xulosa. Shu tariqa, xulosa qilib aytganda, nomarkazlashtirish islohotlari natijasida quyidagi o'zgarishlar yuz beradi:

- nomarkazlashtirish islohotlarining muvafaqqiyatli tarzda kechishi fuqarolik jamiyatining rivojlanishi va faollashishiga bog'liq bo'lib, u aholi tomonidan demokratik qadriyatlarini nechog'og'liq o'zlashtirilari bilan uzviy ravishda bog'liqdir;

- nomarkazlashtirish lokal darajada demokratik prinsiplar asosida faoliyat yurita oladigan mahalliy o'zini o'zi boshqaruv organlarining mavjud bo'lishi va ularning avtonomiya maqomida o'zini ifoda etib, hududiy jamoa manfaatlarini o'zida ifoda etishi bilan bog'liqdir;

- nomarkazlashtirish jarayonida markaziy hokimiyat mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga vakolatlar (soliqlar to'plash, aholiga xizmat ko'rsatish va boshqa) va mas'uliyatlar beriladigan o'zgarilarni o'z ichiga oladi;

- nomarkazlashtirish islohotlari natijasida mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari qonun ijodkorligida faol ishtirok etish va mahalliy boshqaruvni to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirish vakolatlarini qo'lga kiritadi, joylarda davlat siyosatini amalga oshiradi, ijtimoiy sohani (ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, uy-joy, kommunal, transport, aholiga davlat xizmati ko'rsatish, hududni obodonlashtirish) boshqaradi va muvofiqlashtiradi.

Shuningdek, davlat organlari boshqaruvini nomarkazlashtirish islohotlari huquqiy davlatni shakllanti-rishning asosiy shart-sharoitlaridan biri bo'lib, bu islohot fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanish sur'atlariga monand ravishda rivojlanib boradi.

ADABIYOTLAR

1. Алексис де Токвиль. Демократия в Америке.//С.88-89.// https://sv-scena.ru/Buki/Dyemokratiya-v-Amyerikye.28.html#Q5531-politicheskiye-poslyedstviya-dyetsyentralizatsii-ispolnityeljjnoyi-vlasti-v-soyedinyennykh-shtatakh:Децентрализация.//https://hmn.wiki/ru/Decentralist#cite_note-8.
2. Анархист с человеческим лицом//<https://diletant.media/articles/33526788/>.
3. Джон Стоссел "Частная благотворительность могла бы сделать гораздо больше, если бы правительство не вытеснило ее В архиве 2013-02-09 в Wayback Machine ", Обзор еврейского мира, 24 августа 2005 г.
4. «Децентрализация: выборка определений» (PDF). Программа развития ООН. Октябрь 1999. С.11-12.
5. Норт Д. Институты, институциональные изменения и функционирование экономики / Пер. с англ. А.Н. Нестеренко. М.: Фонд экономической книги «Начала»,1997. С.72.
6. Трейсман, Дэниел (2007). Архитектура правительства: переосмысление политической децентрализации. Издательство Кембриджского университета.
7. Хольгер Даун, Децентрализация школ в контексте глобализирующегося управления: международное сравнение ответов широких масс, Springer, 2007 г., С28-29// https://www.researchgate.net/publication/44839178_School_decentralization_in_the_context_of_globalizing_governance_International_comparison_of_grassroots_responses.
8. Свтушенко О.Н. Проблеми децентралізації державної влади і місце самоврядування в Україні.-Киев:Вид-во НПУ ім. М.П.Драгоманова, 2019.–Вип. 29. С.329
9. Bell D. The Coming of Post-Industrial Society. New York: Basic Books,1999. P.319.

10. Burns D. Can Local Democracy Survive Governance? /D. Burns//Urban Studies.–2000.– Vol. 37.–№ 5/6. P.963.
11. Dahl R. On Democracy. New Haven: Yale University Press, 2000. P.121.
12. Falleti T.G. Decentralization and Subnational Politics in Latin America. Cambridge: Cambridge University Press, 2010. P. 34.
13. Foster E., Glennester R. Impact of Decentralization on Public Services: Evidence to Date // Decentralization, Democracy, and Development: Recent Experience from Sierra Leone / Ed. by Y. Zhou. Washington (D.C., USA): The International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank, 2009. 150 p. P. 73 - 84. P. 73 - 74.
14. French Liberalism in the 19th Century: An Anthology / Eds. R. Leroux, D.M. Hart. London: Routledge, 2012. P. 256.
15. O'Neill K. Decentralizing the State: Elections, Parties, and Local Power in the Andes. Cambridge: Cambridge University Press, 2005. 275 p. P. 217.
16. Treisman D. The Architecture of Government: Rethinking Political Decentralization. Cambridge: Cambridge University Press, 2007.
17. Schmidt V.A. Democratizing France: The Political and Administrative History of Decentralization. Cambridge: Cambridge University Press,1990. P.11



Sanjar MARDOV,
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti (PhD)
E-mail: mardovs@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, T.Egamberdiyeva taqrizi asosida

METHODOLOGY FOR USING THE FUNCTIONALITY OF GRAPHIC PROGRAMS WHEN TEACHING ARCHITECTURAL AND CONSTRUCTION DRAWINGS

Annotation

It is emphasized that the use of convenient functionality of graphic programs in higher educational institutions today is the most important tool for teaching students architectural and construction drawings. Modern educational institutions have the latest software, multimedia graphics and educational complexes, special attention is paid to filling out also one of The main requirements for student competencies in the curricula of educational institutions in developed countries is mastery of the international learning path related to engineering computer graphics.

Key words: Graphics, project, spatial vision, graphics, innovation, graphic education, aesthetics, principle, architect-designer.

ARXITEKTURA QURILISH CHIZMALARINI O'QITISHDA GRAFIK DASTURLARNING FUNKSIONAL IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Annotatsiya

Hozirgi kunda oliy ta'lim maskanlarida grafik dasturlarning qulay funksional imkoniyatlaridan foydalanish va ular orqali arxitektura qurilish chizmalarini talabalarga o'qitishda eng muhim vosita ekanligi yoritilgan Zamonaviy ta'lim maskanlari hozirgi vaqtga kelib eng yangi dasturiy ta'minotlar, multimedia grafika va o'quv majmualari bilan to'ldirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, rivojlangan davlatlar ta'lim muassasalari o'quv rejalarida talabalar kompetensiyalariga qo'yilgan asosiy talablardan biri, muhandislik kompyuter grafikasiga oid xalqaro tadqiqotlar yo'lini egallashdir.

Kalit so'zlar: Grafika, loyiha, fazoviy tasavvur, grafika, innovatsiya, grafik ta'lim, estetika, tamoyil, arxitektor-dizayner.

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ФУНКЦИОНАЛЬНЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ГРАФИЧЕСКИХ ПРОГРАММ ПРИ ОБУЧЕНИИ АРХИТЕКТУРНО-СТРОИТЕЛЬНОМУ ЧЕРТЕЖУ

Аннотация

Подчеркивается, что использование удобных функциональных возможностей графических программ в высших учебных заведениях на сегодняшний день является важнейшим инструментом обучения студентов архитектурно-строительным чертежам. Современные учебные заведения располагают новейшим программным обеспечением, мультимедийной графикой и учебными комплексами, особое внимание уделяется чтобы заполнить Также одним из основных требований к компетенциям студентов в учебных программах образовательных учреждений развитых стран является овладение траекторией международного обучения, связанной с инженерной компьютерной графикой.

Ключевые слова: Графика, проект, пространственное видение, графика, инновация, графическое образование, эстетика, принцип, архитектор-дизайнер.

Kirish. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari oliy ta'lim muassasalarida qurilish chizmachiligiga ta'luqli bo'lgan dasturlarni o'qitish samaradorligiga e'tibor tobora ortib bormoqda. Chunki hozirgi kunda rivojlangan davlatlarda qurilish sohasi jadal rivojlanmoqda. Shu sababli muhandislik grafikasi fanlarini o'qitish texnologiyasi sifatli tomonga sezilarli darajada o'zgarmoqda. Zamonaviy ta'lim maskanlari hozirgi vaqtga kelib eng yangi dasturiy ta'minotlar, multimedia grafika va o'quv majmualari bilan to'ldirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, rivojlangan davlatlar ta'lim muassasalari o'quv rejalarida talabalar kompetensiyalariga qo'yilgan asosiy talablardan biri, muhandislik kompyuter grafikasiga oid xalqaro tadqiqotlar yo'lini egallashdir. Shu sababli bugungi kunda muhandislik grafikasi turkumidagi fanlarni o'qitish jarayoniga ta'limning innovatsion texnologiyalari hamda zamonaviy grafik dasturlarni joriy qilish orqali takomillashtirish pedagogika fanining dolzarb muammolari sirasiga kiradi.

Jahon miqyosida arxitektura-qurilish chizmachiligini o'qitishda grafik dasturlaridan foydalanish borasida maqsadli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda ilg'or xorijiy tajribalar asosida bo'lajak qurilish sohasidagi mutaxassislarda ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish, xususan murakkab buyumlarning chizmalarini yaratishda avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanishning metodik tizimini ishlab chiqishga asoslangan ta'lim muhitini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu omillar arxitektura-qurilish chizmachiligini o'qitish jarayonida zamonaviy grafik dasturlarini o'zaro qiyoslab o'qitish metodikasi, talabalarni mustaqil ijodiy faoliyat, ilmiy tadqiqotga yo'naltirishning ilmiy asoslangan metodikasini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda ta'lim tizimiga doir islohotlar doirasida oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida "ta'lim sifatini yaxshilash borasidagi ilg'or horijiy tajribalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish jarayonlarini jadallashtirish va o'qitish usullarini takomillashtirish"[1] ustuvor vazifa etib

belgilangan. Qurilish chizmachiligi fanini o'qitishda grafik dasturlardan foydalanish o'quv materiallarini o'zlashtirishga sarflanadigan vaqtni tejash, mavzuni tushuntirish osonligi bois talabalarning tushunishi muhim vazifalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF- 4947-sonli O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha «Harakatlar strategiyasi to'g'risida» Farmoni va 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-sonli «Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorning 4-bandi 18-bo'limi hamda 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Respublikamizda oliy ta'lim muassasalarida talim tizimiga ilmiy-texnika yutuqlari maxsul bo'lmish grafik dasturlardan foydalanish texnologiyalarini tatbiq etish va o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha bir qator ishlar olib borilgan. Respublikamizda muhandislik grafikasi fanlarini kompyuter grafikasi asosida o'qitishni rivojlantirish va takomillashtirishning nazariy-metodologik, uslubiy asoslari E.I.Ruziyev, U.T.Rixsiboev, S.S.Saydaliyev, M.M.Xamrakulova, K.Xamraqulov, S.I.Qulmamatov, K.X.Madumarov, U.A.Nasridinova, Sh.D.Dilshodbekov, A.A.Qahharov va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi oliy ta'lim tizimida muhandislik kompyuter grafikasi fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish va o'qitishning metodik tizimini loyihalash bo'yicha O.Arefeva, M.X.Baybayeva, L.P.Bobrik, K.Grebennikov, V.N.Guznenkov, J.J.Djanabayev, S.V.Jilich, Ye.Yu.Joxova, V.V.Knyazikov, V.V.Koreshkov, A.M.Leybov, M.Matveeva, L.V.Pavlova, Yu.I.Pritula, A.B.Puzankova, M.B.Talanova, Ye.M.Tretyakova, T.V.Chemadanova, T.V.Chernyakova va boshqalar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan[2].

Horij davlatlarida muhandislik kompyuter grafikasi fanini o'qitish mazmunini loyihalash, o'qitishni amalga oshirishning innovasion texnologiyasini ishlab chiqish muammolariga Z.Zuo, H.A.Gerbekov, F.Liarokapis, B.Neda, T.J.Sexton, S.A.Sorby, H.Stachel kabi olimlarning ilmiy ishlari bag'ishlangan[3].


“Qurilish chizmachiligi” fanlarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular real ob'ektdan uning modeliga o'tishga va teskari jarayonni amalga oshirish, modeldan haqiqiy ob'ektga o'tishini imkon beradi. Hajmli shakllardan tekis chizmalarga va tekis chizmalardan hajmli shakllarga qayta o'tish, bu nafaqat shakllarning geometrik parametrlarini saqlash, balki fazoda asl holatini tiklashga imkon beradi[4].

Endilikda grafik dasturlardan qurilish chizmachiligi fanini o'qitishda didaktik vosita hamda fan (o'rganish ob'ekti) sifatida ishtirok etmoqda. Ya'ni, qurilish chizmachiligi fanini o'qitishda ko'rgazmalilikni oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi, kompyuterda loyihalash fanini o'qitishda o'rganish ob'ekti hisoblanadi. Talabalar kompyuterda loyihalash fanida avtomatlashtirilgan proektsiyalash tizimlaridan foydalanishni o'rganadilar.

Qurilish chizmachiligida grafik dasturlardan foydalanish muammosiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari hamda boshqa ilmiy-metodik manbalarimiz tahlillaridan ayon bo'ldiki, grafik dasturlardan didaktikaning mantiqiy uzviylik va uzluksizlik prinsiplari asosida foydalanishning ilmiy asoslangan yaxlit pedagogik tizimi maxsus tadqiq etilmagan.

Kompyuterda loyihalash fanida o'qitiladigan grafik dasturlar asosida “Qurilish chizmachiligi” faning barcha tushuncha va tamoyillari yotadi. Qolaversa, grafik dasturlarining muloqot oynasini yaratish vaqtida foydalanuvchiga xos bo'lgan fazoviy tasavvur elementlari (xayolda ob'ektni aylantirish, ob'ekt atrofida aylanish, uzoq va yaqinlashtirish, katta va kichiklashtirish, ob'ektlarni yig'ish, ajratish va b.q.) inobatga olingan. Bu esa “Qurilish chizmachiligi” faniga kompleks yechim sifatida o'rinli qarashlar paydo bo'lishiga olib keladi. Zamonaviy grafik dasturlar kundan-kunga takomillashib, muhandis vaqtini behuda sarflanishining oldi olinmoqda. Bu o'z navbatida, oliy ta'lim muassasalarida bitiruvchilarining muhandislik-grafik tayyorgarliklarida muhandislik kompyuterda loyihalash fanining muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Bu yo'nalishda olib borilgan tadqiqot ishlari tahlil qilindi. Jumladan, T.V.Chernyakova kompyuter grafikasi fanini modelli o'qitish metodikasini qo'llagan holda, o'qitish metodikasining darajasi, barcha tarkibiy qismlari, ularning o'zaro aloqadorligi, tamoyillari, metodlari, vosita va shakllarini aniqlagan va fanni o'qitish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqqan. O.A.Kraynova oliy ta'lim muassasalarida Informatika mutaxassisligi uchun kompyuter grafikasini o'qitishning metodik tizimini loyihalashning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqqan. E.I.Ro'zievning ilmiy-tadqiqot ishida oliy ta'lim muassasalarida «Kompyuter grafikasi» fanini «Grafika» integrativ kursi sifatida o'qitish metodikasi ishlab chiqilgan bo'lsada, «Qurilish chizmachiligi» fanini oliy ta'lim muassasalarida grafik dasturlarni o'zaro qiyoslab o'qitish metodikasiga e'tibor qaratilmagan[5].

Hozirgi kunga kelib ALT grafik dasturlarining imkoniyatlari 3D geometrik modellashtirish, parametrlashtirish va 4D modellashtirish imkoniyatlariga ega bo'lib, fanni o'qitishda ALT grafik dasturlaridan foydalanish yuqori samara beradi. Bugungi kunda o'quv muassasalari va loyihalashtirish tashkilotlarida keng tarqalgan ALT BIM grafik dasturlari mana shunday imkoniyatlarga ega. Bu imkoniyatlar talabalarning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish, mustaqil fikrlashlari uchun asosiy ko'makchi vazifasini bajaradi. ALT BNIM grafik dasturlari yordamida “Qurilish chizmachiligi” fanidagi juda ko'plab mavzularni tushuntirish mumkin (1-rasm).



1-rasm. “Qurilish chizmachiligi” fani o'qitishda BIM grafik dasturlarining imkoniyatlari

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, talabalar fazoviy tasavvurini rivojlantirish uchun kompyuterda modellashtirish, ularni sintezlash, tahlil qilish, taqqoslashga asoslangan muammoli masalalarni kompyuterda modellashtirishga oid qo'llanmalar, tavsiyalar, multimediali o'rgatuvchi dasturlar ishlab chiqish zarur. Bunday dasturlarni belgilangan pedagogik talablar, texnik parametrlar asosida ishlab chiqish, grafik ta'lim amaliyotida qo'llashning optimal mexanizmlarini yaratish uchun esa maxsus tadqiqot olib borish talab etiladi.

“Qurilish chizmachiligi” fanini o'qitishni zamon talablari darajasiga yetkazish uchun fan dasturida ko'rsatilgan mavzular bo'yicha ma'lumotlarni to'plash va ularni multimediali kompyuter texnologiyalari yordamida qayta ishlab chiqish zarur. Bunday dasturlarni belgilangan pedagogik talablar, texnik parametrlar asosida ishlab chiqish, grafik ta'lim amaliyotida qo'llashning optimal mexanizmlarini yaratish uchun esa maxsus tadqiqot olib borish talab etiladi.

“Qurilish chizmachiligi” fanini o'qitishni zamon talablari darajasiga yetkazish uchun fan dasturida ko'rsatilgan mavzular bo'yicha ma'lumotlarni to'plash va ularni multimediali kompyuter texnologiyalari yordamida qayta ishlab chiqish zarur. Bunday dasturlarni belgilangan pedagogik talablar, texnik parametrlar asosida ishlab chiqish, grafik ta'lim amaliyotida qo'llashning optimal mexanizmlarini yaratish uchun esa maxsus tadqiqot olib borish talab etiladi.

Mavjud va takomillashtirilgan metodlar

Mavjud	Tokomillashtirilgan
innovatsion texnologiyalarini qo'llash deyilganda faqat AutoCAD grafik dasturidan foydalanib kelingan.	Tadqiqot ishimizda esa biz innovatsion texnologiyalarini qo'llash deyilganda bir necha grafik dasturlardan (BIM, Lumion, Photoshop, AdobeFlash) foydalanish metodikasi ishlab chiqilgan.
O'quv jarayonida ko'rgazmalilikni ta'minlash maqsadida oddiy qog'oz plakatlardan foydalanilgan	Tadqiqot ishimizda – zamonaviy elektron ko'rgazmali materiallardan foydalanish metodikasi ishlab chiqilgan.
Mavzu mohiyatini talabalarga tushuntirishda muammoli vaziyatlar og'zaki yoki doskada chizish orqali hal qilingan	Tadqiqot ishimizda – mavzu mohiyatini talabalarga tushuntirishda muammoli vaziyatlar grafik dasturlarning qulay funksional imkoniyatlari orqali yoritib berish (binoning uch o'lchamli va ikki o'lchamli chizmalarini bir vaqning o'zida namoyish qilish) metodikasi ishlab chiqilgan.
Talabalarning fazoviy tasavvurini rivojlantirishda muhim omil hisoblangan video va animatsion oddiy roliklardan foydalanish	Tadqiqot ishimizda – murakkab tushunarli zamonaviy animatsion roliklardan (ketma-ketlikda qilingan roliklar)
An'anaviy dars o'tish	Tadqiqot ishimizda – an'anaviy dars o'tish jarayonida grafik dasturlar, elektron animatsion darsliklardan foydalanish metodikasi ishlab chiqilgan
Talabalarning bilimini baholashda oddiy qog'ozga tushurilgan testlardan foydalanish	Tadqiqot ishimizda – talabalarning bilimini baholashda elektron testlardan foydalanish metodikasi ishlab chiqilgan

ham, talabalar ma'lumotlarni ongli ravishda qabul qiladi, ma'lumotni takrorlash, qabul qilinishining mustahkamligi. Muammoli o'qitish metodi – pedagog muammoni o'rganish yo'lini, uning yechimini boshidan oxirigacha tushuntirish orqali ko'rsatadi. Talabalar kuzatuvchilar emas, balki fikrlash jarayonining ishtirokchilari bo'lib, ular bilim olishdagi muammolarning yechimini oladilar. Tadqiqot metodi – pedagog talabalar bilan birga muammoni shakllantiradi, talabalar muammoni yechish vaqtida bilimni mustaqil o'zlashtiradilar, ta'lim jarayoni jadallashtirilgan.

Jamiyatda inson faoliyatining barcha sohalarini kompyuterlashtirilayotgan hozirgi sharoitda yosh avlodning kompyuter savodxonligini yuqori darajada bo'lishini ta'minlash muhim bo'g'in hisoblanadi. “Qurilish chizmachiligi” fanini o'qitishda sof arxitekturaviy grafik dasturlaridan (AutoCAD, ArchiCAD, 3dMax, Lumion, Revit va boshqa grafik dasturlar) foydalanish ta'lim tizimini kompyuterlashtirish–ta'lim oluvchilarni hayotning hamma jabhalari uchun har tomonlama yetuk intellektual salohiyatli kadrlar bo'lib shakllanishining muhim omilidir.

Sh.D.Dilshodbekovning ilmiy tadqiqot ishida kompyuterdan foydalangan holda o'qitishning tadqiqot metodi ma'lum bir mavzu doirasida ilmiy-texnik tadqiqotlar o'tkazish jarayonida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini ta'minlaydi. Bu metoddan foydalanish, faol izlanish, ijodkorlikka intilish va o'yin natijasi hisoblanadi. Natijada, yuqorida sanab o'tilgan boshqa usullardan foydalanishdan ko'ra muvaffaqiyatliroq bo'ladi[7]. O'qitishning tadqiqot metodi ob'ekt va vaziyatlarning ularga ta'sir etish jarayonidagi usullarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Muvaffaqiyatga erishish uchun ta'sirlarga javob beruvchi muhit kerak. Bugungi texnika davrida elektron kitob, o'quv qo'llanma, uslubiy ko'rsatma va shu kabilar mavjud. Ular, asosan verbal(matn) ko'rinishda bo'lib, foydalanuvchilar uchun axborot manbai sifatida xizmat qilmoqda. Qurilish chizmachiligi fani bo'yicha multimediali elektron darslik yaratish zaruriyati paydo bo'ldi. Bunda “Qurilish chizmachiligi” fani mavzular bo'yicha berilayotgan ma'lumotlarni tahlil qilish undagi loyiha ishlarini animatsion tarzida ko'rishi natijasida talabalarda aniq tushuncha hosil bo'ladi. Shuning asosida grafik topshiriqlarni bajarish jarayonida shu bilimlarga tayanish talab etiladi. Agarda grafik topshiriqni bajarish jarayonida muammoga duch kelinsa, multimediali elektron kitobning topshiriqlar to'plami bo'limidagi mavzular bo'yicha yechish namunalariidan foydalanishi mumkin.

“Qurilish chizmachiligi” fanini o'qitishda mavjud metodlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar 1-jadvalda keltirilgan.

Grafik dasturlar vositasida tanlangan ob'ektning grafik aks ettirish shakllarini bosqichma-bosqich loyihalash, talabalarning kreativ salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan loyihaviy topshiriqlar majmuini tanlash mezonlarini ishlab chiqish kabi "Qurilish chizmachiligi" fanini o'qitishning metodik shart-sharoitlari loyihaviy faoliyatning texnologik va refleksiv fazalari intensivikasiyasini ta'minlash takomillashtirilgan.

Xulosa. "Qurilish chizmachiligi" fanini grafik dasturlar vositasida o'qitish metodikasini takomillashtirish loyiha ishlarini amalga oshirish va talabalarning loyiha tadqiqot

ishlarini grafik dasturlar asosida amalga oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu imkoniyatlar orqali esa o'qituvchilar talabalarning loyihalash, tasavvur eta olish va erkin ijodiy fikirlash imkoniyatiga va ularning olgan bilimlarini nazorat qilish imkoniga ega bo'ladilar. Qolaversa, bu dasturlarning ishlash tamoyili bir xil qonunlarga asoslanishi, talabalarda fazo, tekisliklar, fazoda ob'ektlarning o'zaro nisbati va h.k.lar haqida bir xil tasavvurga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. PF-5847. 2019-yil 8-oktabr. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son
2. Mardov, S. X. (2021, November). Modern Electronic Methods of Controlling Students' Knowledge in the Field of Construction Drawing. In «ONLINE-CONFERENCES» PLATFORM (pp. 18-26).
3. Xudoykulovich, M. S., & Saidaxatovna, R. F. (2021). Xasanboy o'g'li NA Evristic teaching technology and its practical application which in the teaching of draftsmanship. Middle European Scientific Bulletin, 12, 458-462.
4. Khudoykulovich, M. S. kizi, FZX.(2021). Content of the Science of Architecture Construction and Its Current Status of Teaching. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology, 1(7), 106-114.
5. Xudoykulovich, M. S., & Qizi, F. Z. H. (2021). Methods of using graphic programs in the field of construction drawing. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 1297- 1306.
6. Xudoykulovich, M. S. (2021, October). The status of teaching the subject» construction drawing» in higher education institutions. In Archive of Conferences (pp. 105-108).
7. Mardov, S. K., Khasanova, M. N., & Absalomov, E. (2022). Pedagogical and psychological basis of teaching architecture drawing in types of education. In Euro-Asia Conferences (pp. 32-35).



UDK: 378.091

Maloxat MAXMUDOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi, (PhD)
E-mail: maloxat_1977@mail.ru

Navoiy innovatsiyalar universiteti, Iqtisodiyot va axborot texnologiyalar kafedrasida dotsenti Sh.J.Xudoyorov taqdiri asosida

POSSIBILITIES OF THE LIVEWORKSHEETS.COM PLATFORM IN THE DEVELOPMENT OF METHODOLOGICAL TRAINING OF TEACHERS

Annotation

This article is aimed at improving the possibilities of using the Liveworksheets.com platform in developing methodological training for teachers and improving their skills in creating electronic resources in the form of text, graphic, audio and animation materials.

Key words: Resource, computer, program, educational, interactive, multimedia, technology, animation, remote.

ВОЗМОЖНОСТИ ПЛАТФОРМЫ LIVEWORKSHEETS.COM В РАЗВИТИИ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация

Данная статья направлена на улучшение возможностей использования платформы Liveworksheets.com в развитии методической подготовки учителей и совершенствовании их навыков и умений в создании электронных ресурсов в виде текстовых, графических, аудио и анимационных материалов.

Ключевые слова: Ресурс, компьютер, программа, образовательный, интерактивный, мультимедийный, технологии, анимация, удаленный.

O'QITUVCHILARINING METODIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA LIVEWORKSHEETS.COM PLATFORMASI IMKONIYATLARI

Аннотасија

Ushbu maqola o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirishda Liveworksheets.com platformasidan foydalanish imkoniyatlari va elektron resurslarni matnli, grafikli, ovoqli, animatsion materiallar shaklida yaratishga oid ko'nikma hamda malakalarini oshirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Resurs, kompyuter, dastur, ta'lim, interaktiv, multimedia, texnologiya, animatsiya, masofaviy.

Kirish. Respublikamizda ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, pedagoglarning bu sohada chuqur bilim va tajribaga ega bo'lishlari uchun yangidan yangi loyihalar ishlab chiqilmoqda. Jamiyatning barcha sohalarda raqamli texnologiyalarni joriy etish dolzarb ijtimoiy zaruriyat ekaniga urg'u bergan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev quyidagilarni qayd etib o'tadi: "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi"[1].

Ta'lim sifatini oshirish, dars samaradorligi, o'quvchi yoshlarga zamon talabiga mos keladigan bilimlarni olishlari uchun olib borilayotgan ishlar ko'limi kelajak avlodning yuqori darajali intellektual salohiyatga ega bo'lishiga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagog uchun dars jarayonida zamonaviy raqamli texnologiyalardan unumli va to'laqonli ishonch bilan foydalanish, uning axborot texnologiyadan foydalanish madaniyati, bu bilimlardan tizimli ravishda foydalana olishi har qachongidanda muhimdir.

AQSh va Yevropa ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish o'tgan asrning 60-yillaridan

boshlangan bo'lsada, zamonaviy ta'lim texnologiyalarni qo'llagan holda onlayn ta'lim berish 2000 yildan keyingina o'zining yuqori talab darajasiga erishdi va hozirgi kunga qadar rivojlanishda davom etmoqda. Ta'limni boshqarish tizimi LMS (Learning Management System) – bu dunyoning istalgan nuqtasidan istalgan qurilmadan foydalanish mumkin bo'lgan o'quv materiallari – video darsliklar, ma'ruzalar, taqdimotlar, kitoblar va kurslar omboridir. Bugungi kunda LMS butun dunyo bo'ylab ta'limda o'zgartirish kiritib, ko'plab davlatlarda ta'lim sohasiga yo'naltirilgan masofadan turib o'qitish va o'qish imkonini beruvchi pullik va bepul platformalarning turlarini ko'paytirmoqda. Bu platformalardan ko'plab tashkilotlar o'z xodimlarini malakasini oshirish, biznesni rivojlantirish, yangi kvalifikatsiyalarni o'zlashtirish maqsadida foydalanishmoqda. Ta'lim berish sifati, imkoniyati, usullarining yuqoriligi jihatidan ko'plab foydalanuvchilarga ega ta'lim platformalariga misol qilib "Absorb", "Thinkific", "TalentLMS", "Mindflash", "SkyPrep", "iSpringLearn", "Moodle", "Edmodo", "Blackboard", "Schoology", "GoogleClassroom" kabi platformalarni keltirish mumkin. Bu platformalardan dunyoning ko'plab kompaniya, universitet, maktablar va boshqa ko'plab xususiy ta'lim muassasalari samarali foydalanib kelishmoqda. Yuqorida qayd etilgan platformalar axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'rganishda rag'batlantiradigan usullardan foydalanishga imkon beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ta'lim sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanish o'qituvchilarga o'qitish-

ning metodini, tashkiliy shaklini va mazmunini sifatli o'zgartirish imkonini beradi. Pedagogik faoliyat vositalari takomillashtirilmoqda, o'qitish sifati va samaradorligi ortib bormoqda. raqamli texnologiyalardan an'anaviy o'qitish vositalariga nisbatan juda ko'p afzalliklarga ega. Raqamli ta'lim resurslarining maqsadi axborot jamiyatida talabalarning intellektual imkoniyatlarini mustahkamlash, shuningdek, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ta'lim sifatini oshirishdan iborat.

Raqamli ta'lim resurslaridan zamonaviy innovatsion texnologiyalarning masofali uslublari orqali mutaxassis kadrlarni tayyorlash holati qator olimlarimiz (A.Abdudodirov, U.Begimqulov, R.Boqiyev, M.Yo'ldoshev, F.Zokirova, M.X.Lutfullayev, N.A.Muslimov, YE.S.Polat, M.Y.Buxarkina, N.M.Valyushina, M.V.Moiseyeva, A.A.Andreyev, O.YE.Belova, V.A.Brilyova, N.A.Goncharova, Y.P.Gospodarik, V.V.Gura, A.V.Danilkevich, 3.N.Ismailova, V.A.Kuklev, E.S.Matosov, A.L.Nazarenko, O.A.Tarabrin, A.Y.Uvarov, A.V.Xutorskoy kabi) tomonidan innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va metodik asoslarini rivojlantirish tadqiq qilingan.

Shunga muvofiq masofali ta'lim va masofali o'qitish iboralariga olimlarimiz tomonidan berilgan ta'riflar tahlil qilindi. A.A.Abdudodirov bergan ta'rifiga muvofiq "Masofali o'qitish – o'quv jarayoniga tegishli bo'lgan barcha komponentlar (maqsad, mazmun, usul, shakl, o'qitish vositalari va hokazo), Internet-texnologiyasining maxsus vositalari va boshqalar bilan amalga oshiriladigan va interfaollikni ko'zda tutgan o'qituvchi va talabalarining masofadan turib o'zaro aloqa qilishidir[2].

"Masofaviy ta'lim – o'qitishning yangi shakli bo'lib, u o'qitishning ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holdagi ko'rinishlaridan farq qiladi. U ta'limning yangi shakllari, metodlari, vositalari, tashkil etilishi, pedagog va talaba o'rtasidagi hamda talabalarining o'zaro muloqoti shakllarini nazarda tutadi" deb tadqiq etilgan[3].

Tadqiqot metodologiyasi. Keyingi yillarda respublikamizda ham bu tizimni rivojlanish borasida ko'plab amaliy ishlar olib borilmoqda. Xalqaro tajribalarga tayangan holda yangi umummilliy, xalqaro talabalar javob bera oladigan ta'lim tizimini shakllantirishni maqsad qilar ekanmiz, barcha ta'lim tashkilotlarida ham raqamli texnologiyalardan foydalangan holda mashg'ulotlarni o'tkazish raejalarini tuzish va uni samarali tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, o'qituvchilarga o'quv jarayonini faollashtirishning usul, uslub va vositalarini mustaqil tanlash huquqi va imkoniyati berilgan [5].

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib har bir fandan biron-bir mavzu bo'yicha interaktiv plakatlar, ish varaqlari va illyustratsiyalar yaratish uchun: "LearningApps", "Thinglink", "Liveworksheets" va ko'plab onlayn ilova platformalardan foydalanib kelinmoqda. Biz sizni ta'lim sifatini oshirish va raqamli texnologiyalarni qo'llash uchun yana bir yordamchi vositalardan biri Liveworksheets.com interaktiv ishchi varaqlar dizayneri Liveworksheets.com web-xizmatidan foydalanib o'qituvchilarni metodik tayyorgarligini rivojlantirishda foydalanish imkoniyatlari bilan tanishtirmoqchimiz. Liveworksheets.com, 2010 yilida yaratilgan bo'lib, ta'lim oluvchi va o'qituvchilar uchun

mo'ljallangan, platforma yaratuvchilari tomonidan 3 ta asosiy tizimini taklif qilishadi: sinov (bepul), professional (oyiga 7 AQSH dollar) va ustunlik (oyiga 15 AQSH dollar). Bepul versiya o'rganish uchun juda qulay interfaol ta'limga oid interaktiv mashqlar, topshiriqlar va test materiallarini tuzishga mo'ljallangan onlayn platformadir. Bu onlayn tizim o'qituvchilarga an'anaviy ish varaqlarini (doc, pdf, png yoki jpg formati) avtomatik belgilash bilan interaktiv onlayn mashqlarga aylantirish imkonini beruvchi ta'lim vositasi hisoblanadi. Dars jarayonini tashkil etishda interaktiv darslar tuzish, vazifalar yaratish, va dastur orqali interfaol ish varaqlarida audio va video kontent, bir nechta tanlov mashqlari, ochiq javobli savollar, boshqotirmalar, viktorinalar, tinglash va gapirishga mos ko'nikmalarini rivojlantirish, mp3 fayllar, YouTube kanalidagi video film, PowerPoint fayllari uchun mashqlar to'plamlari turli xil fanlarda mavjud, shuningdek o'zingiz ham yangi ma'lumotlar yaratish imkoniyatiga egasiz.

Liveworksheets.com platformasini afzalliklari:
 interaktiv varaqlarni yaratishdan bepul foydalanish;
 boshqa o'qituvchilar tomonidan yaratilgan interaktiv topshiriqlarning bepul ma'lumotlar bazasidan foydalanish;
 talabalar bilimini tezkor tekshirish, talabalarga ularning natijalarini ko'rish imkonini berish;
 topshiriqni bajarish uchun vaqt chegarasini belgilash;
 talabalar bazasini yaratish;
 turli xil topshiriq shablonlaritahrirlash va yaratish.
 Liveworksheets.com platformasini kamchiliklar orasida quyidagi xususiyatlarni ta'kidlash mumkin:
 ingliz va ispan tillarida interfeys.
 bepul kirish rejimida xizmat faqat 30 ta ish varag'ini yaratish imkonini beradi.

Liveworksheets.com platformasini texnik talabi:
 HTML5 va CSS3: Liveworksheets.com, interaktiv ta'lim materiallarini yaratishda HTML5 va CSS3 texnologiyalaridan foydalanadi. Bu texnologiyalar platforma ustida sodda va samarali interaktivlik yaratish imkonini beradi.
 JavaScript: Sayt, talabalar bilan o'qituvchilar o'rtasida interaktivlikni ta'minlash uchun JavaScript dasturlash tilidan foydalanadi. Bu, saytdagi interaktiv elementlarning sodda va tez ishlashini ta'minlaydi.


Drag-and-Drop Teknologiyasi: Liveworksheets.com, drag-and-drop (surib olish va qo'yib olish) interaktivlikni qo'llab-quvvatlaydi. Bu, talabalar uchun vazifalarni yechib olishni va materiallar orasida aylanishni oson va qulay qiladi.

Saytning dizayni, responsive (moslashuvchan) bo'lib, turli qurilmalarda va ekranga mos ravishda moslashish imkoniyatiga ega. Bu, talabalar uchun mobil qurilmalarda ham qulay va sodda foydalanish imkonini ta'minlaydi[7].

Ushbu xizmatning yaxshi tomoni shundaki, u chop etilgan ish varaqlarini interaktiv jonli varaqlarga aylantirish imkonini beradi. Bunday ish varaqlari mavzuni o'rganish uchun motivatsiyani oshiradi, shuningdek, o'qituvchining vaqtini tejaydi.

Tahlil va natijalar. Liveworksheets.com platformasi veb-sayti xizmatidan foydalanish uchun sizdan ro'yxatdan o'tish talab etiladi va elektron pochta manzilingiz orqali ro'yxatdan o'tish imkonini beradi.


Ro'yxatdan o'tish uchun <https://www.liveworksheets.com> veb-saytiga o'tib quyidagi maydonlarni to'ldirish kerak.



1-rasm. Liveworksheets.com veb-saytidan ro'yxatdan o'tish

Ro'yxatdan o'tganingizdan so'ng, siz tizimda 50 dan ortiq tilda tayyorlangan fanlarga oid cheksiz miqdordagi tayyor topshiriqlarni kirib ko'rish huquqiga ega bo'lasiz, balki o'zingiz ham interaktiv ish varaqlarini yaratishingiz va ularni ish kitoblariga birlashtirishingiz mumkin.

Talabalaringizni ro'yxatdan o'tkazganingizdan va ularga login va parollarni berganingizdan so'ng siz o'z sinflaringizni yaratish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Login va parolni olgan talabalar platformaga kirishlari va vazifalarni bajarish huquqlariga ega bo'lishadi.



2-rasm. Tizimda fanlardan ish varaqlar namunasi

Tizimda cheksiz turli mavzular uchun fanlardan tayyorlangan topshiriqlar bilan ish varaqlari fanlar va mavzularga mos saqlangan.

O'quvchining Familiyasi va ismi
Sinf

- Asosiy kompyuter qurilmalarini ajratib yozing.**
- Tizim blokidagi qurilmalarini asoslab jadvalni to'ldiring.**

1.	
2.	
3.	
4.	
5.	
6.	
7.	
- Tashqi va ichki qurilmalarini rasmdan ajratib jadvalga joylashtiring.**

--	--	--	--	--	--
- Tizim blokidagi bortlarni kompyuter qurilmalarini mosini tanlab aniqlang**

3-rasm. Iformatika fanidan tayyor na'munalar

Ishchi varaqni yaratish uchun (Создать) elementni tanlash orqali - interaktiv varaqlarni yaratishingiz mumkin. Tayyor ish varaqlarni Word, PDF yoki JPEG formatida tayyorlab saqlash mumkin.

Шаг 1: Загрузите свой лист

Выберите файл

Формат: docx, pdf, jpg или png Ограничение размера: 5 МБ

Если дизайн вашего документа изменился после загрузки, попробуйте это:

1. Вставьте ваши шрифты в ваш текстовый документ.
2. Если этого недостаточно, перед загрузкой преобразуйте документ в pdf.

4-rasm. Liveworksheets.comda yaratilgan fayllarni saqlash

Ishchi varaqni saqlashda unga nom berish kerak. Ishchi varaq xizmatning barcha foydalanuvchilariga taqdim etilish yoki uni faqat o'zingiz uchun ochiq qilishingiz mumkin. Talabaga yuborishda saqlash tugmasini bosganingizdan so'ng yaratilgan ish varag'iga havolani Google Classroomga qo'shish, Telegram, WhatsApp orqali ulashish yoki pochta orqali yuborish mumkin.

Bunday o'qitishni tashkil etishda o'qituvchidan elektron resurslarni yaratish dasturlari bo'yicha bilim va ko'nikmaga ega bo'lishlikni hamda auditoriyada foydalanuvchi interfeysini ta'minlovchi texnik vositalarning bo'lishligi talab etiladi. Ta'lim jarayonini sifat va mazmun jihatdan yanada yuqori bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

Zamonaviy o'qitish texnologiyalari - majmuaviy integral (butun, bog'lik) tizim bo'lib, unda ta'lim maqsadlari asosida belgilangan ko'nikma va malakalar o'quvchilar tomonidan nazariy bilimlarni o'zlashtirish, ularda muayyan ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat elementlarining ma'lum tartibga solingan to'plamidir [9].

Xulosa va takliflar. Liveworksheets.com platformasi, talabalar va o'qituvchilar uchun interaktiv ta'lim materiallarini tuzish va o'rganishda samarali va qiziqarli imkoniyatlarni taqdim etishda muvaffaqiyatli bo'lgan onlayn veb-saytdir. Bu veb-platformaning boshqa ma'lumotlari va xususiyatlari, dastur tuzish, testlar yaratish, animatsiyalar qo'llash, shaxsiy kabinetlar va ko'p boshqa yo'nalishlarda keng imkoniyatlarni o'z ichiga olgan bir tuzilma hisoblanadi.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimini rivojlanishi uchun cheksiz imkoniyatlar mavjud. Biz ta'lim tizimi ishtirokchilaridan birozgina ma'suliyat, izlanish, o'z ustimizda ishlab kasbiy ko'nikma va malakalarimizni rivojlantirish, chet tillarni o'rganish, raqamli texnologiyalar bilan qurollanish talab etiladi xolos. Biz qaysi ta'lim yo'nalishda bo'lishimizdan qat'iy nazar hozirgi zamon internet makoni bizga shunday cheksiz imkoniyatlarni taqdim etadi.

Veb-texnologiyalarga asoslangan o'quv-didaktik materiallar (yoki o'quv materiallari) deganda, o'qitilishi va o'rganilishi lozim bo'lgan bilimlarni beruvchi har qanday axborot tashuvchilarni tushunamiz. Ular axborot olish va axborotni qayta ishlash uchun ishlatiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni
2. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. -T.: Fan, 2008. B. 46
3. Begimqulov U.SH., Djurayev R. X. va boshq. Pedagogik ta'limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot. Monografiya. <http://www.uzpfiti.uz/uz/index.php>. B. 54
4. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. Ped. fan. dokt. ... dis. - T.: O'MKHTTKMOUQTI, 2007.B. 183
5. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: Nihol nashriyoti, 2016. – 279-b.
6. Дистанционный урок как инновационная образовательная среда. URL: <https://urok.1sept.ru/articles/643950>
7. Белоусова Н. М. Методические рекомендации по использованию сервиса Liveworksheets на дистанционном уроке. <https://urok.1sept.ru/> 24.06.2021
8. Журкина М. И. Различные подходы к определению понятия «электронный образовательный ресурс» // Проблемы педагогики. — 2020. — № 3 (48). — С. 99–100.
9. M.A.Maxmudova., M.L Husanova Bo'lajak informatika fan o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari Raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat va sun'iy intellekt uchun dasturiy vositalar, axborotlarni qayta ishlashning zamonaviy usullari Respublika ilmiy-amaliy anjumani 2023 yil 16-17 iyun 16-19 bet
10. Maxmudova M. A., Nasirova Sh.N. Kompyuter dasturlari vositasida o'quvchilarning bilim egallashga qiziqishlarini rivojlantirish "Mug'allim hem uzluksiz bilimlendirio'" Ilmiy-metodikaliq jurnal № 5 2019 jil. Nukus – 2019, 25-27 bet.



UDK:37.013.3

Elnur MIRZAYEV,
Shaxrisabz davlat pedagogika instituti
E-mail: elnurmirezayev1@gmail.com

Qarshi DUI DsC, prof. I.Kamolov taqrizi asosida

USE OF MULTIMEDIA TECHNOLOGIES IN TEACHING THE SUBJECT OF PERFORMING THE LINE OF INTERSECTION OF POLYGLES (PRISMS) WITH A PLANE IN A GENERAL SITUATION AND ITS PROPAGATION

Annotation

In this article, the goals and tasks of teaching drawing geometry, modern methods and tools, areas of application are described, and the topic of "The line of intersection of polygons (prisms) with a plane in the general situation and its distribution" is used in the teaching of the subject using multimedia technology based on the AvtoCAD program. The development of the passed lesson is given. The drawing shows the advantages and disadvantages of the lesson used in geometry.

Key words: Multimedia, design, points, lines, plane, projection, geometric body.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ ПРЕДМЕТА ВЫПОЛНЕНИЕ ЛИНИИ ПЕРЕСЕКИ ПОЛИГОНОВ (ПРИЗМ) С ПЛОСКОСТЬЮ В ОБЩЕЙ СИТУАЦИИ И ЕЕ РАСПРОСТРАНЕНИЕ

Аннотация

В данной статье описаны цели и задачи обучения начертательную геометрии, современные методы и средства, области применения, а также раскрыта тема «Линия пересечения многоугольников (призм) с плоскостью в общем положении и ее распределение». используется при преподавании предмета с использованием мультимедийной технологии на базе программы AvtoCAD. Дано развитие пройденного урока. На статью показаны преимущества и недостатки урока, использованного по начертательной геометрии.

Ключевые слова: Мультимедиа, дизайн, точки, линии, плоскость, проекция, геометрическое тело.

KO'PYOQLIK (PRIZMA)LARNI UMUMIY VAZIYATDAGI TEKISLIK BILAN KESISHISH CHIZIG'I VA UNING YOYILMASINI BAJARISH MAVZUSINI O'QITISHDA MULTEMEIDIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Аннотация

Mazkur maqolada Chizma geometriya fanini o'qitishning maqsad va vazifalari, zamonaviy metod va vositalari, qo'llanilish sohalari, bayon qilingan hamda "Ko'pyoqlik (prizma)larni umumiy vaziyatdagi tekislik bilan kesishish chizig'i va uning yoyilmasini bajarish" mavzusini o'qitishda multemediya texnologiyasidan foydalanib AvtoCAD dasturi asosida o'tilgan darsning ishlanmasi keltirilgan. Chizma geometriya fanida foydalanib o'tilgan darsning avzalligi va kamchiliklari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Multemediya, dizayn, nuqtalar, chiziqlar, tekislik, proyeksiyalash, geometrik jism.

Kirish. Chizma geometriya fani arxitektura, transport, aviatsiya va dizayn shakllarini va sanoatning murakkab texnik shakldagi sirtlarni ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Chizma geometriya - nuqtalar, chiziqlar va sirtlar to'plami bo'lgan fazoviy figuralar tekislikdagi (yoki boshqa sirt) proyeksiya tasvirlari orqali o'rganiladigan geometriyaning tarmoqlaridan biri. Чизма геометрияда текисликдagi ob'ektlarning tasvirini qurish qobiliyati (chizma chizish); chizmalar ustida grafik amallarni bajarish; fazoviy tasavvurni rivojlantirish kabi masalalar o'rganiladi.

Chizma geometriya geometriyaning fazoviy figuralarni tekislikka proyeksiyalaridan foydalangan holda o'rganadigan bo'limidir. Chizma geometriya chizmani tuzish uchun nazariy asosga ega. Birinchi vazifa (u chizma geometriyaning bevosita vazifasi deb ataladi) tekislikda fazoviy figuraning tasvirini qurishdir. Ikkinchi vazifa (chizma geometriyaning teskari vazifasi) fazoviy figuraning shakli va hajmini uning tekis tasviridan aniqlashdir.

Birinchi marta ortogonal proyeksiyalardan foydalangan holda ob'ektlarning an'anaviy tasvirini fransuz olimi Gaspard

Monj (1746-1818) tomonidan 1975 yilda nashr etilgan "Chizma geometriya" asarida qo'llagan. Shuning uchun chizma geometriyaning asosiy usuli proyeksiya usuli hisoblanadi. Ixtiyoriy A nuqtaning tasvirini (proyeksiyasini) qurish uchun proyeksiyalar markazi deb ataladigan P_1 proyeksiya tekisligi va S nuqta tanlanadi Chizma geometriyaning metodlari qanday?

Nuqtaning proyeksiyalari. Markaziy proyeksiya bilan proyeksiyalovchi nurlar to'plami konusning sirtini hosil qiladi. Parallel proyeksiya bilan proyeksiyalovchi nurlar to'plami silindrsimon sirt hosil qiladi.

Proyeksiya (lot. Projicio — oldinga otish) — yorug'lik yoki vizual nurlar (kuzatuvchining ko'zini fazoviy ob'yektning istalgan nuqtasi bilan shartli bog'lovchi nurlar) yordamida istalgan sirtidagi ob'yekt (fazoviy ob'yekt) tasvirini olish jarayoni. loyihalash deb ataladi.

Bugungi kunda chizma geometriya fanini o'qitishni zamonaviy vostalardan va samarali usullaridan biri multemediya xisoblanadi. Multimedia atamasi (ingl. multimedia) lotincha multum-juda ko'p va media-medium-diqqat markazida; vositalar, ya'ni elektron saqlash vositasi

bo'lib, uning bir nechta turlarini (matn, rasm, animatsiya va boshqalar) o'z ichiga oladi [1]. Multimedia atamasi ko'pincha katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlashga imkon beradigan va ularga juda tez kirishni ta'minlaydigan saqlash vositalariga nisbatan ishlatiladi (ushbu turdagi birinchi ommaviy axborot vositalari kompakt-disklar edi). Multimedia kompyuter va ommaviy axborot vositalaridan foydalanishni va foydalanuvchiga audio, video, animatsiya, rasm va boshqalar kabi barcha mumkin bo'lgan ma'lumotlarni talabalarga etkazishni anglatadi hamda matn kabi ma'lumotlarni taqdim etishning an'anaviy usullarini inkor etadi. Multimedia texnologiyalari ta'lim, madaniyat va san'at, fan, biznes va inson faoliyatining boshqa sohalarida keng qo'llaniladi. Multimedia mahsulotida birlashtirilgan grafikalar, tovushlar, videolar va matnlar katta hajmdagi xotirani talab qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "Multimedia texnologiyalari" atamasining umumiy ma'nosi quyidagicha: Multimedia texnologiyalari – bu harakatsiz tasvirlar, video tasvirlar, animatsiyalar, matn va audio qatorlar bilan ishlashni ta'minlaydigan interaktiv texnologiyalar [2]. Ta'lim sohasiga nisbatan S. G. Grigoryev va V. V. Grinshkun "multimedia" atamasiga quyidagi ta'rifni beradi: "Multimedia-bu foydalanuvchiga (bir vaqtning o'zida o'quvchi, tinglovchi va tomoshabinga aylangan) eng samarali ta'sir ko'rsatish uchun turli xil dasturiy va texnik vositalardan foydalanadigan axborot texnologiyalari spektri" [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Chizma geometriyani o'qitishning an'anaviy metodologiyasi N. F. Perveruxin, I. I. Kotov, S. A. Frolov, A. B. Bubennikov, V. I. Yakunin, S. M. Kolotov, Sh.K. Murodov [4]., L.Q Hakimov, A.Xolmurzayev, J. Yodgorov[5], B.B.Qulnazarov, R.Q.Ismatullayev [7,8], X.Hoshimova, A.N. Valiyev [8] va o'qitishda multemediya texnologiyasidan foydalanish bo'yicha M. Troyan[2], S.G. Grigoryev, V.V. Grinshkun [3], N.X.Begmatova boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida bayon qilingan.

Chizma geometriya fani mashg'ulotlarida multimedia texnologiyasidan foydalanishning quyidagi afzalliklari bor:

chizma konstruksiyalarini ketma-ket namoyish qilish imkoniyati;

ma'ruzaning kompyuter yordamida bayon qilishning mumkinligi;

chizmalarni yuqori darajada sifatli tasvirlash;

mashg'ulotning har qanday bosqichida chizmalarni chizishni takrorlash uchun qo'shimcha imkoniyatlarning mavjudligi;


-ma'ruza o'qishning sifat ko'rsatkichlarini rivojlantirish istiqbollarning borligi;

tayyorgarlik ko'rish bosqichida vaqtdan unumli foydalanish uchun chizmaning chizish texnologiyasiga ko'proq e'tibor berish mumkin.

Quyida "Ko'pyoqlik (prizma)larni umumiy vaziyatdagi tekislik bilan kesishish chizig'i va uning yoyilmasini bajarish" mavzusini o'qitishda multemediya texnologiyasidan foydalanib AvtoCAD dasturi asosida o'tilgan darsning ishlanmasini keltiramiz.

Agar geometrik jism tekislik bilan kesishsa, kesuvchi tekislikda biror yassi shakl hosil bo'ladi. Hosil bolgan shaklga mazkur jismning kesimi deb ataladi. Kesuvchi tekislik bilan geometrik jism turli xil ko'rinishda kesishishi mumkin; kesuvchi tekislikning har qaysi vaziyatiga ma'lum bir kesim mos keladi. Ko'pyoqlik biror tekislik bilan kesilsa, kesimda ko'pburchak hosil boladi. Hosil bo'lgan ko'pburchakning uchlari ko'pyoqlik qirralarining kesuvchi tekislik bilan uchrashuv nuqtalarini, tomonlari esa ko'pyoqlik yoqlarining kesuvchi tekislik bilan kesishuv chiziqlarini anglatadi. Shunga ko'ra, ko'pyoqlikning tekislik bilan kesishish chizig'ini yasash uchun ko'pyoqlik qirralarining tekislik bilan kesishish nuqtalarini topib, ularni bir-biri bilan ma'lum tartibda tutashtirish kerak. Shunday qilib, bu masala to'g'ri chiziq bilan tekislikning kesishish nuqtasini topish masalasini bir necha marta takrorlashdan iborat. Bundan tashqari, kesim shaklini yasash uchun ko'pyoqlik yoqlarining kesuvchi tekislik bilan kesishish chiziqlarini topish usulidan foydalansa ham bo'ladi. Berilgan masalani yechishda qaysi usul bilan masala osonroq yechilsa, o'sha usuldan foydalaniladi [4].


Tahlil va natijalar. 1-masala: 4 yoqli og'ma prizmani umumiy vaziyatdagi P tekislik bilan kesishgan chizig'ini, kesim yuzasining haqiqiy kattaligini aniqlash va uning yoyilmasini bajarish ko'rsatilgan.



1.1-rasm


Masala yechimi: Yuqorida keltirilgan masalani yechishda kesim uchlari yasash usulidan foydalanamiz.

1-ish. Prizmaning H gorizontal proyeksiyasi orqali A', B', D', C' tomonlaridan tekisliklar o'tkaziladi. Bu tekisliklarning OX o'qi bilan kesishgan a', b', d' va c' nuqtalar aniqlanadi va shu nuqtalardan OX o'qiga \perp perpendikulyar qilib tasvirlovchi chiziqlar chiziladi. Bu chiziqlar PV tekislik bilan kesishib a'', b'', d'' va c'' nuqtalarni hosil qiladi. 1.1.a)-rasm



1.1-rasm


2-ish. H horizontal proyeksiyada PH tekislik prizmaning A',B',D',C' qirralarini kesgan 1',2',3',4' nuqtalari belgilanadi va OX o'qiga \perp perpendikulyar qilib tasvirlovchi chiziqlar chizilib OX o'qi bilan kesishgan 1'',2'',3'',4'' nuqtalar belgilanadi. 1.1.a),b)-rasm



1.1-rasm

3-ish. V frontal proyeksiyada joylashgan PV tekislikdagi a'',b'',d'' va c'' nuqtalar 1'',2'',3'',4'' nuqtalar bilan o'zaro tutashtirilib prizmaning A'',B'',D'',C'' qirralari bilan kesishgan 5'',6'',7'',8'' nuqtalar aniqlanadi va bu nuqtalar o'zaro (qizil) tutash chiziq bilan ko'rinarli tomoni, ko'rinmas tomoni shtrix punktir chiziq yordamida chiziladi. 5'',6'',7'',8'' nuqtalardan OX o'qiga \perp perpendikulyar tasvirlovchi chiziq

chizib prizmaning H horizontal proyeksiyasidagi A',B',D',C' qirralari bilan kesishguncha davom ettiriladi. Prizmaning H horizontal proyeksiyasidagi A',B',D',C' qirralari tasvirlovchi chiziq bilan kesishib 5',6',7',8' nuqtalarni hosil qiladi 1.1.c),d)-rasm.




1.1-rasm

4-ish. 5',6',7',8' nuqtalar V frontal proyeksiyada berilgani kabi tutashtiriladi. Prizmaning umumiy vaziyatdagi tekislik bilan kesishishi natijasida hosil bo'lgan kesim yuzasi qizil rangda shtrixlanadi. Chizma chizishda rangli qalamlardan

foydalanish chizmani ko'rinarlilik darajasini va masala yechimini aniq ifodalashda yaxshi samara beradi 1.1.e),f)-rasm.


Ko'pyoqlik prizmaning umumiy vaziyatdagi P tekislik bilan kesishish natijasida hosil bo'lgan kesim yuzasining haqiqiy kattaligi jipslashtirish usulida aniqlanadi 1.2-rasm.



1.2-rasm

Berilgan yon qirralari umumiy vaziyatda bo'lgan to'rt yoqli prizmaning yoyilmasi normal kesim usulida yasaladi. Dastlab prizma qirralari va normal kesimning haqiqiy uzunliklarni yasash kerak bo'ladi. Buni esa proyeksiyalar

tekisliklarini (prizma qirralariga parallel vaziyatda) almashtirish bilan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir 1.3-rasm.



1.3-rasm

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, AutoCAD dasturidan foydalanib chizmalar chizilganda axborotni nafaqat quloq bilan, balki vizual ravishda idrok etishi ham mumkin. Talabalar har xil ma'lumotlarni bir xil qabul qilishadi, kimdir ko'rish orqali, kimdir eshitish orqali chizmalarni chizishni o'rganadilar. Kim ko'rishni afzal biladi, kim eshitishni.

Ma'ruza yoki amaliy mashg'ulot elementlari xilma-xil animatsiya yordamida rang, shrift, chiziq qalinligi ko'rsatiladi., atamalar, tushunchalarga e'tibor qaratiladi. Kompyuterda ma'ruzalarini yaratish jarayonida quyidagi holatlar inobatga olindi.

Chiziq turlarini, qalinligini hisobga olgan holda chizilgan chizmani yuqori sifatli bajarish. Chizilgan chizmani tushunish uchun har xil chiziqlar va ularning qalinligi turlardan foydalanish muhimdir. AutoCADda chizilgan chizma shubhasiz afzalliklarga ega.

Chiziqlarni ajratib ko'rsatish bilan ketma-ket qurish imkoniyati chizma bajarilishining ushbu bosqichida e'tibor berish kerak bo'lgan holatdir. Chizma geometriya fanida juda ko'p chizma chiziqlari ishlatilishi munosabati bilan ular (chiziqlar) bir-biridan ajratilishi kerak. Ushbu chiziq uchun

oldingi konstruksiyalar yanada nozikroq, kamroq yorqin rang bilan yoki soyali bo'lishi mumkin. Dskada, bo'r bilan, buni amalga oshirishda vaqtning etishmasligi va natijaning noaniqligi bilan xarakterlanadi.

-Chizmani chizishning istalgan bosqichiga qaytish va kerak bo'lsa yana takrorlash imkoniyatining mavjudligi. Ma'ruza o'qiyotganda tinglovchilar bilan bevosita aloqa qilish har doim zarur va tavsiflangan ma'ruzalar uchun ham bu munosabat istisno emas. Agar ba'zi tuzilmalarni takrorlash zarurati tug'lsa, unda buni yangi imkoniyatlar yordamida amalga oshirish har qachongidan ham oson bo'ladi.

Ma'ruza vaqtida tushuntirishlarni to'g'ridan-to'g'ri ekranda bajarish imkoniyatining mavjudligi. Ma'ruza davomida siz taqdimot dasturining imkoniyatlaridan foydalanib, tushuntirishlarni agar kerak bo'lsa, quyidagi tahrirlarlarni amalga oshirishingiz mumkin: o'qituvchi o'z ekranida chiziqlar chizadi, sichqoncha yordamida monitorga aks ettiradi va chizma umumiy ekranda namoyon bo'ladi. Bir vaqtning o'zida bajarilgan barcha chizmalar, yozuvlar bajarilgandan keyin tushuntirishlarni oson olib tashlash ham mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Большой энциклопедический словарь. 2-е изд. перераб. и доп. М.-СПб. 1998. - 1456 с. / <http://dic.academic.ru>
2. Троян Г.М. Универсальные информационные и телекоммуникационные технологии в дистанционном образовании / Учебное пособие для системы повышения квалификации и профессиональной переподготовки специалистов. – М., 2002. –153с.
3. Григорьев С.Г., Гриншкун В.В. Мультимедиа в образовании / <http://www.ido.edu.ru/open/multimedia/index.html>
4. Murodov Sh.K., Hakimov L.Q., Xolmurzayev A. Chizma geometriya. – Т.: "Iqtisod-moliya", 2006
5. Yodgorov J. Chizma geometriya "Turon-Iqbol" Toshkent 2007 . 227 bet
6. Qulnazarov B.B. Chizma geometriya. –Т.: "O'zbekiston", 2006.
7. Ismatullayev R.Q. Chizma geometriya. "TDPU rizografi, 2003.
8. Ismatullayev R.Q. va Valiyev A.N. Chizma geometriya. "TDPU rizografi, 2000.



UDK:17.022.1:323(571.1)

Hamidullo MO'YDINOV,
Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistenti
E-mail: hamidullofalsaf@gmail.com

Andijon davlat universiteti professor, t.f.d. O.Komilov taqrizi asosida

ISLOHOTLARNING HOZIRGI BOSQICHIDA UCHINCHI RENESSANS AXLOQIY ZARURIYATI

Annotatsiya

Maskur maqolada, Islohotlarning hozirgi bosqichida uchinchi renessans axloqiy zaruriyati axloqiy qadriyatlarini jahon madaniyati va tarixi bo'yicha uzluksiz tarixga ega bo'lib, O'zbek xalqining milliy jazosi, erkaklar, va tafakkuriga asoslangan.

Kalit so'zlar: Islohotlar, renessans, axloq, Yangi O'zbekiston, Renaissance barpo etishda pedagoglar, professor-o'qituvchilar, ijodkor ziyolilar.

ТРЕТИЙ РЕНЕССАНС – МОРАЛЬНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ РЕФОРМ

Аннотация

В статье Маскура нравственная необходимость третьего ренессанса на современном этапе реформ имеет непрерывную историю нравственных ценностей в мировой культуре и истории и основана на национальном наказании, мужчинах и мышлении узбекского народа

Ключевые слова: Реформы, Ренессанс, мораль, Новый Узбекистан, педагоги, профессора и творческая интеллигенция в построении Ренессанса.

THE THIRD RENAISSANCE IS A MORAL NECESSITY AT THE CURRENT STAGE OF REFORMS.

Annotation

In Maskur's article, the moral necessity of the third renaissance at the current stage of the reforms has a continuous history of moral values in world culture and history, and is based on the national punishment, men, and thinking of the Uzbek people.

Key words: Reforms, renaissance, morals, New Uzbekistan, pedagogues, professors and creative intellectuals in building the Renaissance.

Kirish. Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Mustakilligining 29 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida «Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish - Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo'ladi. Chunki bugungi O'zbekiston - kechagi O'zbekiston emas.

Men Yangi O'zbekistonni obod va faravon demokratik mamlakatni Uchinchi Renessans barpo etishda pedagoglar, professor-o'qituvchilar, ijodkor ziyolilar eng katta kuch, tayanch va suyanch deb bilaman. ularning xal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan faoliyatini qo'llab quvvatlayman, ular uchun munosib mehnat va turmush sharoitini yaratib berishni Prezident sifatida o'zburchim deb xisoblayman.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: O'rganilayotgan muammo bo'yicha adabiyotlar sharhi asosida muammoni dolzarbliligini aniqlash;

- Muammoni hal qilish yo'llarini aniqlash va samarali variantini tanlash;

- Tadqiq etilayotgan muammoni hal etish bo'yicha tavsiyalar tayyorlash va ularni tajribada sinovdan o'tkazish;

- Olingan natijalar asosida xulosa va takliflar berish;

- Natijalarni tegishli sohalarda qo'llash imkoniyatini aniqlash;

Muayyan xalq va davlatning hayoti uchun g'oyat muhim ahamiyatga ega biror bir fenomen yoki u haqidagi tushuncha va tamoillar o'z-o'zidan osongina paydo bo'lmaydi va tasodifan dunyoga kelmaydi. Shu ma'noda har qanday xodisa, tushuncha yoki atamaning o'ziga xos shakillanish

jarayoni bor. Yangi O'zbekiston fenomeni ham bundan mustasino emas. Ushbu tushuncha mamlakatimizning zamonaviy qiyofasini shakillantrish, erkin fuqarolik jamiyati barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yartish borasidagi islohotlarimizning tayanch g'oyasini ifoda etadi. Aynan shu g'oya asosida yurtimizda "Yangi O'zbekiston Uchinchi Renessans sari" degan shior ilgari surilayotgani bejiz emas[2].

Bir so'z bilan aytganda, jamiyatimizning yangi qiyofasi ana shunday serqirra islohotlarjarayonida barpo bo'lmoqda uning zamonaviy demokratik imiji bosqichma - bosqich shakillanib bormoqda. Lekin bu osongina amalga oshmasligi, yangi jamiyat binosi bir kun yoki bir yilda tiklanib qolmasligi aniq.

Bularning barchasida yagona maqsadimiz - maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimini hamda ilmiy - ma'daniy muassasalarni Uchinchi Renessansning to'rt uzviy halqasiga, bog'cha tarbiyasi, maktab muallimi, professor - o'qituvchilar va ilmiy - ijodiy ziyolilarimizni esa Yangi Uyg'onish davrning to'rt tayanch ustuniga aylantirishdan iborat[1].

Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas. Moziyga nazar solar ekanmiz, har bir davrning uz kiyofasi, o'ziga xos xususiyat va xarakteri borligini kuramiz. O'sha davr kishilarining intellektual darajasi, davlat va jamiyatning o'z oldiga ko'rgan uyg'un maqsadlari hamda umummilliy strategiyalarida aks etadi. Tarix kitoblariga zarxal xarflar bilan bitilgan, asrlar osha keyingi avlodlar xayratiga sabab bo'lib kelgan, insoniyat taraqqiyotida muxim izqoldirgan tamaddun (sivilizatsiya)lar ham aslida inson faoliyatining mevasi

hisoblanadi. Necha ming yilliklarki, insoniyat uz akl-zakovati, iktidori, mexnati va kurashi bilan ko'plab dovonlarni bosib o'tdi, davr uchun olis tuyulgan marralarni zabt etdi, bashariyatning xayot tarzi borgan sari takomillashib bordi hamda «taraqqiyot darajasi» degan tushuncha ham davrlar osha bosqichma-bosqich o'sdi. Ko'rinib turibdiki, insoniyat shunday ijtimoiy mavjudot, u turg'unlikni istamaydi, doimo rivojlanish va yuksalish xarakatida buladi. Shuning uchun har qanaka jamiyatda demagog g'oyalarga parallel ravishda yangicha dunyokarash, yangicha fikrlash, ilg'or va innovatsion qarashlar ham bo'lishi tabiiy xoldir. Demagog g'oyalar ta'sirida mudrayotgan inson ongi uyg'onishi hamda o'zini o'zi inqilobiy tadqiq etishi va rivojlantirishi natijasida dunyo yoki biron mintaqa xalqlari xayotida Renessans Uyg'onish davrlari yuz beradi. Bunday yuksak o'zgarishlar mingyilliklar davomida o'sha xalqlar hayoti, yashash sharoiti yuqori darajada bulishini ta'minlab keladi. Tarixdan ma'lumki, yoshlar buyuk o'zgarishlarni amalga oshiruvchi hamda tashuvchi kuch sifatida namoyon buladi. O'z davrining ilg'orlari, jaxolatga qarshi ilm-ma'rifat ila kurashuvchilari bo'lgan buyuk allomalar Forobiy, al-Farg'oni, al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, az-Zamaxshariy, Amir Temur, Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Bobur hayoti va faoliyati misolida milliy qaxramonliklarni kuzatishimiz mumkin. Yaqin o'tmish, ya'ni o'tgan asr boshlarida «jadidlar» nomi ostida ulkan uzgarishlar, yangilanishlarni maqsad qilib qo'yan ma'rifatparvarlar, milliy istiqloq kurashchilari orasida «Yosh buxorolik», «Yosh xivaliklar» kabi firkalar borligi bu xarakatlarda yoshlar muhim kuch bulganligini kursatadi. Xalqimiz tarixida muxim davr, Uchinchi Renessans poydevori yaratilayotgan bugungi kunda ham yoshlar asosiy isloxotchilar sifatida maydonga chikishi shubhasizdir. Bugungi kun, bugungi davrinqilobiy o'zgarishlar davri, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Muhtaram Prezidentimiz raxbarligida biz insonparvarlik, xalqparvarlik xarakteriga ega bo'lgan davlat, yuksak axloqli fukarolik jamiyatini yaratmoqdamiz. Bunda har bir jabhada iqtisodiy ko'rsatkichlar bir qatorda, ma'naviy-ijtimoiy ko'rsatkichlar ham tengma-teng rivojlanishi asosiy tamoyillardan xisoblanadi. Eng avvalo, individ, ya'ni Inson rivojlanishi, keyin u jamiyat va davlat rivojini ta'minlashi ko'zda tutiladi. Bugungi siyosatning eng muxim talabi shundaki, yoshidan, jinsidan, ijtimoiy kechib chikishidan qat'innazar, hech bir inson, hech bir fuqaro islohotlaromidan chetda qolmasligi, islohotlartulqini xar bir fuqaro xayotiga birday yetib borishi va ta'sir kursatishi lozim. Shu bois, har bir axoli qatlamini uyg'otish, harakatga keltirish va rivojlantirish uchun islohotlartarmoqlarga bo'lingan xolda olib borilmoqda. Jumladan, mamlakatning yoshlar siyosati ham alohida tarmoq sifatida shakllanmoqda. Bugungi yoshlar siyosati ham o'ziga xos yangi kiyofaga kirib bormokda. Tarixdan bilamizki, barcha davrlarda bolalar va yoshlarga axolining tarbiyalanuvchi qatlami sifatida qarab kelingan. Bugungi kunga kelib yoshlarga axolining fakatgina tarbiyalanuvchi qatlami emas, balki o'zining mustaqil fikri, fuqarolik pozitsiyasiga ega bulgan, davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etadigan ijtimoiy qatlam sifatida qaralmoqda.», deb ta'kidlab o'gan edi. [3]

O'zbekiston xalqining ko'p asrlik boy tarixiga nazar tashlar ekanmiz, unda taraqqiyot cho'qqilarini zabt etishning mashaqqatli bosqichlarini ko'rish mumkin. Bu bosqichlarda davlatchilimizning shakllanishi, jamiyatda ilmu fan, san'at va madaniyatning yuksalishi, buyuk siymolarning o'z ijodida erishgan yutuqlari jahon tamaddunining rivojiga hissa qo'shishdek iftixorli jarayonlar gavdalanadi.

O'zbekiston tarixining birinchi Renessansi - Somoniylar davriga to'g'ri kelib, ushbu davrda buyuk ajdodlarimizning yaratgan ilmiy-falsafiy asarlari va

olamshumul kashfiyotlari islom sivilizatsiyasiga tamal toshi bo'ldi. Ijtimoiy soxaning har tomonlama rivojlanishi, jamiyatdagi munosabatlarning muayyan tartib-tamoyillar asosida qurilishi, shaharu viloyatlarning iqtisodiy-madaniy rivojlanishi, ilmu ma'rifatning markazlashuvi singari muhim jarayonlar o'rta asrlarda yurtimizda davlatchilikning o'ziga xosligini belgilovchi tamoyillardir.[4]

Ikkinchi Renessans – Amir Temur va Temuriylar davriga to'g'ri kelib, nafaqat Movaraunnahr, balki butun Markaziy Osiyo o'lkalari o'z taraqqiyotining yangi pog'onasiga ko'tariladi. Bu davrda davlatchilik asoslari takomillashib, shaharsozlik va me'morchilik avj oldi, xalqaro savdo va diplomatik aloqalar jadallashdi. Shuningdek, bu davrda fan, madaniyat va san'at sohalarning rivojlanishi hamda tafakkur doirasining yuksalishi namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yillik tantanalarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining: «Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda», - degan so'zi yangradi[5].

Darhaqiqat, shiddat bilan rivojlanayotgan hayotimizda ro'y berayotgan yuksalish jarayonlari o'zini barcha sohalarda namoyon etmoqda. Mustaqillikka erishgan yillarimizning ilk davrida biz o'zimizning milliy o'zligimizni anglash, boy tarixiy-ma'naviy hamda ilmiy merosimizning asl mazmun-mohiyati mag'zini chaqish va uni ro'yobga chiqarishga intilgan bo'lsak, endilikda xalqimiz jipslanib «milliy tiklanishdan – milliy yuksalish» g'oyasini sobit qadamlik bilan amalga oshirishga kirishdi. Bu davrda jamiyatimizda ijtimoiy tafakkurning yuksalish tendensiyasi qaror topishi, unga xos ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlarining mujassamligi e'tirof etilmoqda. Milliy ruh va umuminsoniy qadriyatlar uyg'un bo'lgan ijtimoiy tafakkur – mamlakatimiz barqaror rivojlanishining o'zan mezon va mustahkam poydevoriga aylanmoqda. Yurtimizda ijtimoiy tafakkur darajasining tobora o'sishi bois, sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa jabhalarda mehnat va sohaga yondashuv madaniyati hamda mas'uliyati o'zgardi. Ayniqsa, fan sohasiga qaratilayotgan alohida e'tiborning zamirida chuqur ma'no bor. Fan, bu tafakkur bo'lib, qaysiki, jamiyatdagi barqarorlikni ta'minlab beruvchi ustuvor omillardan biridir. Fan rivojlanar ekan, nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy-madaniy soha ham taraqqiy etadi. Fanga bo'lgan e'tibor inson tafakkurini o'stirish va ulg'aytirishga xizmat qiladi. Jamiyat tafakkuri o'ssa, madaniyat va san'at sohasi ham mana shu talablarga hamohang ravishda o'sadi va taraqqiy etadi[6].

Jahon ilmiy hamjamiyatining e'tirof etilishicha, O'zbekiston qadimdan madaniyat va sivilizatsiya barpo etuvchi zamindir. Darhaqiqat, o'rta asrlarda O'zbekiston hududida vujudga kelgan ilmiy-ma'naviy yutuqlar Yevropadagi ilmu fanga asos bo'ldi. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy kabi ulug' mutafakkirlarimizning beqiyos ilmiy-falsafiy risolalari dunyoviy bilimlarni rivojlantirish va tizimlashtirish bilan bir qatorda, nafaqat o'z zamonasi, balki keyingi yuz yilliklarga tegishli umumjahon tamaddunining yuksalishiga asos soldi.

Davlatimiz rahbari hozirgi davrni milliy tiklanishdan milliy yuksalish tomon deb e'lon qilganligining zamirida qat'iy ishonch va chuqur hikmat mujassam. Negaki, keyingi 10 yilligimiz asl yuksalish va taraqqiyot davri bo'lishi muqarrar. Zero oxirgi yillarda qabul qilingan va albatta qilinaajak qonunlar, farmon va qarorlar, amalga oshirilayotgan ijmimoiy-siyosiy islohotlartaraqqiyotning yangi nuqtalariga asos bo'ladi [7].

Ammo Renessans, ya'ni Uyg'onish faqat Yevropa hodisasi emas. Dunyo madaniyatini yaxlit olib o'rganganolimlarning ishlari shuni ko'rsatdiki, Osiyo markazida joylashgan Movarounnaxr, Xuroson va Eronda Italiyaga qaraganda bir necha asr oldin ulkan madaniy ko'tarilish yuz bergan, ilm-fan, falsafa, adabiyot kuchli rivojlanib, ilg'or insonparvarlik g'oyalari jamiyat fikrini band etgan, aqliy va ijodiy faollik gurkiragan. O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan birga, ma'naviy-ma'rifiy jabxalarda amalga oshirilayotgan islohotlarham muhim ahamiyatga ega ekanligini yaxshi anglaymiz [8].

Hammamiz yaxshi tushunamiz, agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, unning joni va ruhi axloqdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkala muhim ustunga, bozor tamoillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz.

Shu munosabat bilan mamalakatimizning keying davrga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida albatta ma'naviy- ma'rifiy islohotlarga aloxida bo'lim ajratilishi darkor deb xisoblayman.

Istiqbolda bu sohada amalga oshirishimiz kerak bo'lgan faoliyat ko'lamini va salmog'i, ahamiyati va yo'nalishlari bu jabxalarda ham natijaga erishish zaruriyati O'zbekistonning 2022-2032 yillarga mo'ljallangan ma'naviy taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqishni va uni davlat siyosatning tarkibiy qismiga aylantirishni talab qilmoqda.

Siyosatshunoslar o'rtasida "Sen uxlaganingda, dushman uyg'oq bo'ladi" degan gap bor.

Ayniqsa hozirgi zamonda dunyoning ilg'or davlatlari kata kata marralar sari intilayotgan bir paytda ma'naviy jixatdan g'aflatga botib, uxlab yotishga loqayt bo'lishga hech insoning haqqi yo'q. Barcha fojealar va muammolar Vatanga, millatga, kelajakka hiyonat aynan loqaydlikdan boshlanadi.

Xulosa va yechimi. Xulosa qilib aytganda, yangi O'zbekiston Uchinchi renessans g'oyasini farzandlarimiz ongiga aynan bolalik davridan, boxchada va maktabdan sindirishimiz zarur. Buning uchun tarixini, ajdodlarimiz merosini, dunyo tajribasini, xalqlarning yutuq va kamchliklarni atrofliycha o'rganish kerak.

Mening qattiq ishonchimga ko'ra, jamiyatda ta'limning nufuzini oshirish va yoshlarning kamolatga intilishi rag'batlantirish – bu barqaror izchil taraqqiyotga erishish kafolatidir. Bularning barchasi, hech shupxasiz, unib o'sib kelayotgan kelajak yosh avlodlarni zo'ravorlik va radikalizimning salbiy tasiridan himoya qilishda yordam beradi. Shu munosab bilan barchamiz uchun quyidagi masalalar muhim ahamiyat kasb etadi.

* axoli, ayniqsa, yosh avlodga terrorizm va ekstrimizim makfurasiga qarshi qattiq va barqaror immunitetni shakillantirish :

* ta'lim tarbiya tizimini takkomillashtirish uchun "Uchinchi Renessans sari" degan tamoilga asoslangan xolda, milliy g'oya va uning makfuraviy negizlarni takkomillashtirish :

* Ta'lim tizimining ma'naviy-axloqiy mazmunini oshirish, yoshlarni mustaqillik g'oyalari, milliy an'analarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g'oyalari va makfuralarga nisbatan immunitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli ish olib borish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. "Янги Ўзбекистон стратегияси": Ўзбекистон . Тошкент-2021.
2. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH. Volume 2 Issue 3, March 2022.
3. Мирзиёев Ш.М. "Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга қўтарамиз" Ўзбекистон . Тошкент-2017.
4. Shavkat Mirziyoyevning "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash — davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi. 15.06.2017
5. Қ. Назаров, Х. Ҳамидов, А.Рустамов "Тараққиёт Стратегияси ва баркамол авлод тарбияси ". Ўзбекистон.Тошкент-2019
6. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Т., 1993 Madina, K., Sulstonov, T. A., ZG'offorov, T. Y., Mo'yidinov, X., & Ahmedova, U. (2023). Yangi Konstitutsiya-taraqqiyot qomusi. HOLDERS OF REASON, 1(1), 395-402.
7. Madina, K., Sulstonov, T. A., ZG'offorov, T. Y., Mo'yidinov, X., & Ahmedova, U. (2023). Islohotlarning axloqiy jihatlari va jamiyatga tasiri. HOLDERS OF REASON, 1(1), 498-508.
8. Madina, K., Sulstonov, T. A., ZG'offorov, T. Y., Mo'yidinov, X., & Ahmedova, U. (2023). XOLCHAYON SAROYI QO 'RIQLANISHGA MUHTOJ. HOLDERS OF REASON, 1(1), 350-361.
9. Madina, K., Sulstonov, T. A., ZG'offorov, T. Y., Mo'yidinov, X., & Ahmedova, U. (2023). Qadriyatlar inson ma'naviy kamolotining muhim omili. HOLDERS OF REASON, 1(1), 475-484.
10. Mo'yidinov, X., Ahmedova, U., Madina, K., Sulstonov, T. A., & ZG'offorov, T. Y. (2023). Axloqiy qadriyat ijtimoiy–ma'daniy hodisa sifatida. HOLDERS OF REASON, 1(1), 509-525.
11. Mo'yidinov, X., Ahmedova, U., Madina, K., Sulstonov, T. A., & ZG'offorov, T. Y. (2023). Yangi O 'zbekistonda axloqiy qadriyatlar tizimining transformatsiyasi. HOLDERS OF REASON, 1(1), 485-497.



UDK: 37.035.6(575.1)

Raxmat NAVRUZOV,

O'zMU harbiy tayyorgarlik o'quv markazi katta o'qituvchisi

E-mail: rahmatnavruzov99@gmail.com

Mansurjon IMINJANOV,

O'zMU harbiy tayyorgarlik o'quv markazi o'qituvchisi

E-mail: mansurjoniminjonov@gmail.com

Zarifboy JABBAROV,

O'zMU harbiy tayyorgarlik o'quv markazi dotsenti

E-mail: jabborovzarifboy70@mail.com

O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti bo'lim mudiri, pedagogika fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim R.M.Medetova taqrizi asosida

BO'LAJAK MUTAXASSISLARINING VATANPARVARLIK TUYG'USINI RIVOJLANTIRISH – IJTIMOYIY PEDAGOGIK ZARURIYAT SIFATIDA

Аннотация

Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, bo'lajak harbiy xizmatchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish va axloqiy tarbiyalash uzoq muddatli pedagogik faoliyat bilan bog'liq. Ijtimoiy o'zgarishlar davrida odatda oldingi qadriyatlar yo'qotilib, yangi ma'naviy va axloqiy o'zgarishlarni talab etadigan ko'rsatmalar, shaxsning ma'naviy va axloqiy rivojlanishidagi inqirozlar, bizga begona bo'lgan madaniyat va xulq-atvor modellari paydo bo'ladi.

Kalit so'zlar: Harbiy xizmatchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish, Vatanparvarlik, Millatlararo bag'rikenglik baynalmilallikning, millatlar, iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy.

РАЗВИТИЕ ЧУВСТВА ПАТРИОТИЗМА БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ – КАК СОЦИАЛЬНО- ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ

Аннотация

Актуальность данной статьи заключается в том, что развитие чувства патриотизма и нравственного воспитания у будущих военнослужащих связано с многолетней педагогической деятельностью. В период социальных изменений обычно утрачиваются прежние ценности, появляются установки, требующие новых духовно-нравственных изменений, кризисы духовно-нравственного развития личности, чуждых нам культурных и поведенческих моделей.

Ключевые слова: Развитие чувства патриотизма у военнослужащих, межнациональная толерантность, интернационализм, национальности, экономический, политический и культурно-духовный.

DEVELOPING A SENSE OF PATRIOTISM FOR FUTURE SPECIALISTS - AS A SOCIAL AND PEDAGOGICAL NECESSITY

Annotation

The relevance of this article lies in the fact that the development of a sense of patriotism and moral education among future military personnel is associated with many years of pedagogical activity. During a period of social change, old values are usually lost, attitudes appear that require new spiritual and moral changes, crises in the spiritual and moral development of the individual, and cultural and behavioral models that are alien to us.

Key words: Development of a sense of patriotism among military personnel, interethnic tolerance, internationalism, nationalities, economic, political, cultural and spiritual.

Kirish. Zamon shiddat bilan yuksalayotgan bir vaqtda bo'lajak harbiy xizmatchilarda ijtimoiy pedagogik jaryonni rivojlantirish va mutaxassislarning vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Zero, harbiy xizmatchilar davlat xavfsizligini ta'minlash sohasi mutaxassislari davlatning vakili sifatida uning sha'ni, obro'-e'tiborini ta'minlashi, fuqaro manfaatlar uchun kurasha olishlari zarur.

Bo'lajak mutaxassis harbiy xizmatchilarning o'z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishlari uchun yetarli bilim va ko'nikmalarni hosil qilish yaxlit pedagogik tizimni tashkil etishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida xizmat qiladigan harbiy xizmatchi mutaxassislarni har

tomonlama rivojlanishlari, kasbiy mahoratga ega bo'lishlari uchun ta'lim jarayonida yetarli asos yaratilgan.

O'zbekiston prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo'mondoni Shavkat Mirziyoev raisligida 12 yanvar kuni Xavfsizlik kengashining Qurolli Kuchlar va harbiy-ma'muriy sektorlarning 2023 yildagi faoliyati ushbu soha bo'yicha kadrlar tayyorlash yakunlari va yaqin istiqbolga mo'ljallangan vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi [1]. Yig'ilish avvalida davlat rahbari mamlakat mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash va Qurolli kuchlarni rivojlantirish borasida 2023 yilda amalga oshirilgan ishlarning natijalarini tahlil qilib, Vazirlik va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining bu yo'nalishdagi faoliyati tanqidiy ko'rib chiqildi.

Bo'lajak harbiy xizmatchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish va axloqiy tarbiyalash uzoq muddatli pedagogik faoliyat bilan bog'liq. Ijtimoiy o'zgarishlar davrida odatda oldingi qadriyatlar yo'qotilib, yangi ma'naviy va axloqiy o'zgarishlarni talab etadigan ko'rsatmalar, shaxsning ma'naviy va axloqiy rivojlanishidagi inqirozlar, bizga begona bo'lgan madaniyat va xulq-atvor modellari paydo bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston milliy ensiklopediyasida "Vatanparvarlik – kishilarning ona yurtiga, o'z Vatanga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha bo'lib, vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan vatanparvarlik kishilarning o'z vatanlari taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o'zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ular jamlanmasi hamdir. Bu Vatanning o'tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi. Vatanni sevishtirish immondar deb ham bejizga aytishmagan"[2].

Vatan (arabcha "vatan" – ona yurt) kishilarning yashab turgan, ularning avlod va ajdodlari tug'ilib o'sgan joyi, hududi, ijtimoiy muhiti, mamlakati demakdir.

Pedagogika ensiklopediyasi [3] da vatanparvarlik (yunoncha "patriotes" vatandosh, "patris" – vatan) – tug'ilib o'sgan yurt, Vatanga muxabbat, sadoqat o'z xatti-harakatlari bilan uning ravnaqi uchun xizmat qilish, Vatanning ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi, mustaqilligining himoyasi yo'lida fidoyilik ko'rsatib yashash, ona xalqining onomusi, shon-sharafi, baxtu saodati uchun kuch-g'ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek dunyodagi eng muqaddas va olijanob faoliyatni, kishining o'zi tug'ilib o'sgan, kamol topgan joy, zamin, o'lkaga bo'lgan mehr-muhabbati, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy xislatlari, fazilatini anglatadigan atama" sifatida talqin qilinadi.

Vatanparvarlik ko'p ma'noli atama bo'lib, tarixiy, ma'naviy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, iqtisodiy taraqqiyot jarayonida doimo takomillashib, yangicha ma'no-mazmun bilan boyib, rivojlanib boradi. Vatan manfaati, qadr-qimmat, taqdiri, istiqboli, ona yurtga muhabbat tuyg'usi qancha chuqur anglansa, vatanparvarlik tuyg'usi shuncha yuksak bo'ladi. Tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyotning turli bosqichlarida vatanparvarlikning yangi-yangi qirralari namoyon bo'ladi. Haqiqiy vatanparvarlik Vatanga, ona zaminga, o'z xalqiga muhabbat bilan yashash, uning istiqboli, manfaati yo'lida tinimsiz mehnat qilish hamda kurashish zarurati tug'ilganda jonini fido qilishni nazarda tutadi.

Bugungi kunda ham o'quvchi hamda talaba-yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, ularni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Buning uchun ularga ajdodlarimiz merosi, O'zbekistonning erishayotgan yutuqlari, o'tmishi va kelajagi, boy madaniyati, ma'naviyati, ilmiy salohiyati haqida keng tasavvur hosil qilish talab etiladi.

Vatanparvarlik – ona – Vatan, mustaqil O'zbekiston tushunchalarini o'z ongiga singdirish va unga sodiq bo'lishga erishishdir. Vatanparvarlik o'zbek xalqi, uning an'analari, tili, madaniyatiga muhabbat va hurmat bilan qarash, ularni chuqur o'zlashtirish hamda rivojlantirishga hissa qo'shish, yurtimizning haqiqiy jonkuyari bo'lish demakdir.

Vatanparvarlik – o'zbek xalqining madaniy merosi, san'at, mer'orchilik yodgorliklarini asrab-avaylash, ularning tarixi hamda bugungi kundagi ahamiyatini bilishni ham o'z ichiga oladi.

Vatanparvarlik – shaxsning ona yurti, o'z Vatanga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha ekanligi bilan ham alohida pedagogik qimmatga ega. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri hisoblanadi. Tarixiy jihatdan vatanparvarlik kishilarning o'z Vatani taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o'zlari yashagan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ular majmuidir.

Vatanparvarlikning dastlabki elementlari qadimgi shakllarda paydo bo'lgan insonning yashash muhitining tabiiy muhitiga qo'shilishi, buning aks-sadosi – ko'pchilik uchun xos bo'lgan, Vatan deb atalmish Vatanga, kichik Vatanga nisbatan hissiy jihatdan ko'tarilgan munosabat – shaxs sifatida shakllanishi sodir bo'lgan joy. Xuddi shu paytni o'zida hayot sharoitlari va o'ziga xos xususiyatlariga rioya qilish shakllanadi, Vatanning ijtimoiy-madaniy muhiti aniqlanadi. Odatda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlanishi quyidagilarga katta ta'sir o'tkazadi, bular: etnik (qabilaviy, keyinchalik – milliy) jamoaviy va diniy shakllanishlardir. Ularning tarixiy tajribasi va an'analari, shuningdek, xarakteri va millatlararo va dinlararo munosabatlarning holati vatanparvarlikning namoyon bo'lish mazmuni va shakllariga ta'sir qiladi.

Davlatning shakllantirilishi vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir. Davlatga va davlat hokimiyatiga, umuman olganda, mas'uliyatli munosabat siyosiy muhit vatanparvarlikning ajralmas va muhim qismiga aylanadi, bu bilan siyosiy ongning xarakteriga ega bo'ladi.

Jamiyatdagi o'ziga xos tarixiy vaziyatga qarab vatanparvarlik turli yo'nalishlarga ega bo'lishi mumkin – mavjud siyosiy rejimni so'zsiz qo'llab-quvvatlashdan tortib, uni rad etishgacha. Vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishning eng muhim, barqaror, integral xarakteristikasi o'zida uchta o'ziga xos xususiyatlarni mujassamlashtiradi:

Birinchidan, vatanparvarlikning asosiy muhim ko'rinishida. Bu Vatanga muhabbat, Vatanga sadoqat. Bu aslida ijtimoiy tuyg'u – jamoat, birlik, oila bilan birdamlik hissi va yaqinlar, ularning taqdiriga daxldorlik hissi. Birlamchi yaxlit manba sifatida Vatanga muhabbat tuyg'usi tajribalar, qarashlar va g'oyalar negizida yotadi.

Vatanparvarlik tuyg'usi inson erkinligida chuqur ildiz otgan. Vatanga muhabbat har doim inson shaxsiyatida individual tarzda o'z taqdirini erkin belgilash masalasidir. Shundan kelib chiqib, oddiy hayotda va tarixiy vaziyatlarda vatanparvarlik yagona hissiy-irodaviy kompleksni ifodalaydi. Aynan Vatanga bo'lgan muhabbat irodali bo'lishga va faollikka undaydi.

Ikkinchidan, vatanparvarlik, ijtimoiy hissiyotga qo'shimcha ravishda, boshqa shaxsiy xususiyatlarida ifodasini topadi va g'oyaviy yo'nalishini aks ettiradi (ya'ni Vatan manfaatlariga bog'liqlik). Shaxsning dunyoqarashi, munosabatlari, xatti-harakati va faoliyati, ya'ni o'z Vatanning o'tmishiga hurmat, o'z xalqining urf-odatlari va an'analarga muxabbat, Vatan tarixini bilish; Vatan qudratini mustahkamlashga intilib, Vatanni himoya qilishga tayyorlik, shaxsiy va jamoat manfaatlarini asosida Vatanni izchil rivojlantirishga yordam berish kabilarda namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, shaxsiy darajadagi vatanparvarlik bevosita, boshqalar tomonidan shakllangan boshqa fazilatlar: yaxlit dunyoqarash, ma'naviyat, axloqiy g'oyalar, shaxsiy xulq-atvor normalari bilan ta'lim turlari, umumiy tarbiyaning integral aloqalarini tavsiflaydi.

Shaxsiy darajadagi vatanparvarlikning mazmuni hukumat siyosati sifatida bevosita davlat va jamiyat hayotida

insonning shaxsiy manfaatları nisbati bilan bog'liq tarzda yuzaga keladi.

Keng ko'lamli darajada vatanparvarlik jamoaviy tuyg'ularda namoyon bo'ladigan jamoatchilik ongi, his-tuyg'ulari, o'z xalqiga, hayot tarziga, tarixiga nisbatan baholari, madaniyat, davlat, asosiy qadriyatlar tizimining muhim qismidir.

Vatanparvarlikni jamoatchilikning eng muhim tarkibiy qismi sifatida baholamaslik – ongning zaiflashishiga, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va jamiyat hamda davlat rivojlanishining sustlashishiga olib keladi. Vatanparvarlik o'z ichiga oladigan tuyg'ular, g'oyalar, e'tiqodlar, urf-odatlar va an'analar, inson hayotining barcha sohaları doimiy qadriyatlariga ta'sir qiladi.

Vatanparvarlik – bu alohida davlatlarda asrlar va ming yilliklar davomida mustahkamlangan chuqur hissiyotlardan biri hisoblanadi. Vatanparvarlik Vatanga muhabbat, mamlakat manfaatlarini ko'zlash, Vatanni himoya qilishga tayyorlik, o'z mamlakatining ijtimoiy va madaniy yutuqlaridan g'ururlanish, Vatanni tarixiy o'tmishi va uning an'alarini hurmat qilishni o'z ichiga oladi. Ko'rsatib o'tilgan barcha vatanparvarlik ko'rinishlari tamoyillar va axloq qoidalari ko'rinishida mustahkamlangan turli odob talablarida o'z aksini topadi. Milliy vatanparvarlikka Vatanga muhabbat va mamlakat manfaatları to'g'risida g'amxo'rlik qilishning uzviy bog'liqligi xosdir.

Vatanparvarlik baynalmillatlik bilan o'zaro bog'liq.

Baynalmillatlik – jahondagi turli millat va irqgacha mansub kishilarning xalqaro birdamligi; ularning bir-birini tushunishlari va o'zaro ishonchi, madaniyatlar, qadriyatlar, bilim va texnologiyalar o'zaro singib borishining asosi; millatchilikning ziddi [4]. Insoniyat tarixida turli millatlar va elatlar orasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma'naviy aloqalar o'rnatilib, ularning tobora mustahkamlanib borish jarayoni. Mazkur munosabatlarsiz esa, ijtimoiy taraqqiyot amalga oshmaydi.

O'zbekiston Respublikasi ilg'or mamlakatlar bilan barcha sohada hamjihatlik, hamkorlik va birdamlikni amalga oshirishga intilmoqda, xalqaro munosabatlarning umum tan olingan qoida va tamoyillariga rioya qilmoqda. Mamlakatimizda barcha fuqarolar, millati va irqidan qat'i nazar, o'zaro ishonch hamda birdamlikni mustahkamlash yo'lida harakat qilmoqda. O'zbekistonda 130 ziyod millat va elat vakillari yashaydi.

Baynalmillatlik fazilati – yuqori ijtimoiy sifatlardan biri bo'lgan, umuminsoniy ma'naviy qadriyatdir. Bunda yoshlar boshqa xalq va millatning o'ziga xos ma'naviyati, urf-odatları va madaniyatini hurmat qilib, uni qadrlaydilar. Boshqa millatning ma'naviyati va madaniyatiga befarq bo'lgan fuqarolarda bag'rikenglik yetarlicha shakllanmagan bo'ladi. Millatlararo bag'rikenglik baynalmillatlikning muhim ko'rinishi sifatida butun dunyoda tinchlik va totuvlikning qaror topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Baynalmillatlik sifatiga ega bo'lgan insonlar boshqalarning millati, dini, urf-odatlaridan qat'i nazar, umuminsoniy qadriyatlarni hamma narsadan ustuvor tarzda qaraydi. Rivojlanishning hozirgi bosqichida baynalmillatlik O'zbekistonning tinchlik uchun kurash, turli hamkorlikdagi texnik, ijtimoiy, iqtisodiy loyihalar sohasida turli mamlakatlar olimlari, fan va san'at namoyondalari bilan aloqalar o'rnatish bilan bog'liq.

Shaxsdagi vatanparvarlikni namoyon bo'lishini uch yo'nalishda kuzatish mumkin:

1) bilish – Vatan tushunchasiga xos qadriyatlarni egallash;

2) e'tiqod – qadriyatlar sohasida o'zlashtirgan bilimlarini e'tiqodga aylantirish;

3) harakat – o'z e'tiqodini amaliy faoliyati orqali namoyon etishi.

Shu bilan birga vatanparvarlikning asosiy jamoat hayoti sifatidagi tarkibiy qismlari: ongli vatanparvarlik, vatanparvarlik munosabati va vatanparvarlik faoliyati.

Ongli vatanparvarlik – bu sub'ektning ahamiyatini aks ettirishi ularning Vatani va zarur choralarni ko'rishga tayyorligi, uning milliy manfaatlarini himoya qilishi. Shuningdek, sub'ektning vatanparvarlik faoliyati axloqiy regulyator bilan vatanparvarlik harakatining o'zaro ta'sirida amalga oshiriladi.

Vatanparvarlik munosabatlari jamoatchilik jarayonida paydo bo'ladi va amaliyoti sub'ekt hamda uning harakatlarining ob'ekti o'rtasidagi haqiqiy bog'liqlikda ko'rinadi. Vatanparvarlik munosabatlari bu vatanparvarlik ongini moddiylashtirishning zaruriy sharti va vatanparvarlikni amalga oshirish faoliyatidir.

Vatanparvarlik faoliyati – bu vatanparvarlik ongini o'zida mujassam etish va vatanparvarlik obyektiga nisbatan barcha turdagi ta'sirni amalga oshirish usuli sifatida vatanparvarlik maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan harakatlar majmuidir. Ushbu faoliyat vatanparvarlikning haqiqatan ham sezilgan va ko'rinadigan tomoni moddiy asosini tashkil etadi. U ratsional, hissiy va irodaviy komponentlar birligiga ko'ra, vatanparvarlik harakatlariga asoslanadi. Agar ular Vatanga xizmat qilishga qaratilgan bo'lsa, shaxsning o'z mamlakatining taqdiri uchun ijtimoiy va ma'naviy javobgarligini ifoda eta olsa, ushbu harakatlarni vatanparvarlik deb hisoblash mumkin.

T.Utebaevning ta'kidlashicha, bu jarayonda bolalar o'zi uddalay oladigan faoliyatga bevosita qo'shilib ketib, hayot kechirish va mehnat qilishga o'rgangan. Ular og'ir sharoitlarda erkaklar bilan ov qilish, qurol yasash kabi ishlarni bajargan. Mavjud odatlar va an'analarga ko'ra, yoshlar keksalar nazoratida hayotiy tajribalarni o'zlashtirganlar. Bolalar jamoa, enaga yoki murabbiylarda ma'lum tayyorgarlikdan so'ng sinovlardan o'tib, amaliy faoliyatda ishtirok eta boshlaganlar. Ana shu an'ana, ya'ni bolalarni ma'lum yoshgacha enaga va murabbiylarga topshirish yaqin davrlargacha, hatto hozirgi kunda ham davom etmoqda [5].

Eramizdan oldin taxminan 484-431/425 yillarda yashagan yunon tarixchisi Gerodotning "Tarix" kitobida qadimgi forslar, saklar, massagetlarning vatanparvarlik tarbiyasiga oid ma'lumotlar ham keltirilgan. Forslarning eng sharaflaydigan narsasi jasurlik bo'lib, o'g'il farzandları bilan faxrlanganlar. Podshoh kimning o'g'li bo'lsa, unga sovg'a-salomlar yuborgan. Bolalar besh yoshidan boshlab otda yurish, kamondan otish, sofdil va to'g'ri so'zlikka o'rgatilgan. Shart-sharoitlarning o'zi farzandlarıni otda yurishga, kamondan otishga o'rgatgan, ularda jasurlik, to'g'rilik, botirlik xislatlarini, o'z xalqiniig himoyachisi etib tarbiyalashga yo'naltirilgan [6].

Harbiy xizmatchilar davlat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi mutaxassislar kasbiy faoliyatlarining obyektlari: shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, tinchlikni, fuqarolar xavfsizligini turli tahdidlardan himoya qilish; tahlikali vaziyat to'g'risidagi axborotni kompleks va tizimli tahlil qilish, huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablarini va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish, qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti, shuningdek zamonaviy harbiy majoralar shakllari va usullaridan samarali foydalanish; shuningdek, belgilangan majburiyatlar bajarilgandan so'ng, ijodkorligi faoliyati, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarga huquqiy xulosalar

berish, huquqiy audit (due diligence), shuningdek, tezkor harakatlarni amalga oshirish, xalqaro tashkilotlar va boshqa tashkilotlarda yuridik faoliyatni amalga oshirish hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Bo'lajak harbiy xizmatchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish va axloqiy tarbiyalash uzoq muddatli pedagogik faoliyat bilan bog'liq. Haqiqiy vatanparvarlik Vatanga, ona zaminga, o'z xalqiga muhabbat

bilan yashash, uning istiqboli, manfaati yo'lida tinimsiz mehnat qilish hamda kurashish zarurati tug'ilganda jonini fido qilishni nazarda tutadi. Davlatga va davlat hokimiyatiga, umuman olganda, mas'uliyatli munosabat siyosiy muhit vatanparvarlikning ajralmas va muhim qismiga aylanadi, bu bilan siyosiy ongning xarakteriga ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. <https://kun.uz/news/2024/01/12/ozbekiston-prezidenti-xavfsizlik-kengashining-kengaytirilgan-yigilishini-otkazdi>.
2. O'zME. Birinchi jild. – Toshkent, 2000.
3. Pedagogika ensiklopediya. 1-jild. – T., 2013.
4. Safarova R.G., Djuraev R.H. Pedagogika ensiklopediya. – 1-jild. – T., 2015. – 377 b.
5. Utebaev T.T. Qoraqalpog'istonda XX asr ikkinchi yarmi va XXI asr boshidagi ta'lim-tarbiyaviy fikrlar rivojlanishi: Ped.fanl.d-ri ... Dis. – T., 2016. – 323 b.
6. Xoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi: Darslik. 2-q. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliykutubxonasi nashriyoti, 2005. – 304 b.



UDK:372.8

Kumush NARZIYEVA,
SamDU "San'atshunoslik" kafedrasida o'qituvchisi
E-mail: narziyevakumush@mail.ru
Samandar MURANOV,
SamDU tadqiqotchisi

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v.b M.Boltayeva taqrizi asosida

SOME ASPECTS OF THE USE OF MODERN TECHNOLOGIES AND METHODOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY ABILITIES OF STUDENT YOUTH

Annotation

This article discusses approximate parts of the development of students' creative abilities, that is, creative abilities, fluency of thinking, flexibility of thinking, technologies for the development of creative thinking, which are enhanced with the help of modern methods based on SMART technology. Creativity in the activities of circles, technologies for the development of creative abilities are highlighted with examples.

Key words: Creative thinking, brainstorming, digital technologies, flexibility, higher education system, creative thinking, SMART technology, originality, curiosity, creative development technologies.

O‘QUVCHI YOSHLARNING IJODKORLIK QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA METODIKALARDAN FOYDALANISHNING AYRIM JIHATLARI

Annotasiya

Ushbu maqolada o'quvchi, talabalarning kreativlik ya'ni ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning takribiy qismlari, fikrlashning ravonligi, fikrlashning moslashuvchanligi, ijodiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari, zamonaviy metodlar yordamida, SMART texnologiya asosida, to'garaklar faoliyatida kreativlikni oshirish, kreativlik rivojlanish texnologiyalari misollar keltirilgan holda yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Ijodiy fikrlash, aqliy hujum, raqamli texnologiya, moslashuvchanlik, oliy ta'lim tizimi, kreativ fikrlash, SMART texnologiya, originallik, qiziquvchanlik, kreativlining rivojlanish texnologiyalari.

НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И МЕТОДИК В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩЕЙСЯ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В данной статье рассмотрены примерные части развития творческих способностей учащихся, то есть творческих способностей, беглости мышления, гибкости мышления, технологий развития творческого мышления, с помощью современных методов, основанных на технологии SMART, повышаются. творчество в деятельности кружков, технологии развития творческих способностей освещены на примерах.

Ключевые слова: Творческое мышление, мозговой штурм, цифровые технологии, гибкость, система высшего образования, творческое мышление, SMART-технология, оригинальность, любознательность, технологии творческого развития.


Kirish. O'zbekiston Respublikasida shakillangan uzluksiz ta'lim tizimi barkamol shaxs va malakali mutaxassislarini tayyorlash jarayonining samarali tashkil etilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu borada maktab - oliy ta'lim tizimi yetuk va ijodiy faol yoshlarni tarbiyalashga qaratilganligi bilan uzluksiz ta'lim tizimida o'zining muhim o'rni ega.

"2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur"da uzluksiz ta'lim tizimining maktab, litsey, va Oily ta'lim muassasalarida shaxs ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishga oid alohida talab va vazifalar qo'yilgan. Respublikamizda qabul qilingan ta'lim sohasiga oid me'yoriy hujjatlarda o'quvchi yoshlarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishga erishishni asosiy maqsad qilib qo'yildi. Bu haqidagi kamchiliklar va ularni tuzatish to'g'risida ta'lim tizimidagi mavjud umuta'lim va kasb-hunar dasturlari o'rtasida uzviylik va vorislikni sababli tayanch va o'rta maktab

bitiruvchilarida kasbga yo'naltirganlik va mehnat faoliyati ko'nikmalari shakillanmay qolyapti. Natijada yigit vaqizlar o'z qobiliyatlari, istaklari, ijodiy va mehnat moilliklariga monand hayot yo'lini belgilab olishda jiddiy qiyinciliklar sezishmoqdalar[1]. Bugugi kunda bu muammo yanada dolzarb-lashmoqda.

Kreativlik yani ijodkorlik nima? Bu kontseptsiyaning eng oddiy ta'rifi quyidagicha: kreativlik - bu moddiy yoki ideal tabiatning yangi mahsulotini yaratish jarayoni. Kreativlik maxsus ijodkorlik deb ataladi va ishoniladi. Pedagogik, psixologik, falsafiy va uslubiy adabiyotlar "ijkreativlik" yani "ijodkorlik", "ijodiy fikrlash" atamalarini bilan to'la. Ijodiyat - shaxsning ijodiy qobiliyatlari, an'anaviy yoki qabul qilingan fikrlash tarzidan chetga chiqadigan va mustaqil omil sifatida iqtidorlilik tarkibiga kirgan tubdan yangi g'oyalarni yaratishga tayyorligi bilan ajralib turadi. [2]

Ijodkorlikning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardir (1-rasm)



1-rasm. Kreativlikning asosiy tarkibiy qismlari.

O'smirlarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun pedagoglar turli xil o'yin usullaridan foydalanadilar. [4]

Tadqiqot metodologiyasi. Texnologiya darslarida ijodiy fikrlash usullari muqobil va analogiyalarni qidirish usuli. Turli xil vazifalar va echimlar bilan o'z -o'zidan fikrlash bilan tavsiflanadi. Boshda tug'ilgan har bir variant bo'yicha aniq ishni talab qilmaydi. Shunday qilib, u butun umr davomida to'plangan barcha tajribalardan foydalanib, yechim topishga imkon beradi.

-“Aqliy hujum”.

Bu mashhur usul XX asrning 30 -yillarida yaratilgan. Uning o'ziga xos xususiyati tanqidni taqiqlashda yotadi, ya'ni u g'oyalar avlodidan ajralib chiqadi. Masalan, guruh 10 ishtirokchidan iborat bo'lib, 40 daqiqa ichida ular berilgan mavzu bo'yicha o'z fikrlarini bildirishlari kerak bo'ladi. Har qanday fantaziyalarga ruxsat beriladi: o'yindan xayolgacha va xatolargacha. Ma'lum bir vaqtda hayajon boshlanadi, bunda ishtirokchilarda g'oyalar beixtiyor shakllanadi va miya eng aql bovar qilmaydigan gipotezalarni ilgari sura boshlaydi. Miya hujumi sessiyasining yakunlanishi ishtirokchilar tomonidan taklif qilingan variantlarni batafsil tahlil qilish va baholashni nazarda tutadi.[3] Bu usulning asosiy afzalligi-har bir ishtirokchi egallagan nostandart fikrlash tajribasi.

Masalan, vazifa: siz bir stakan qaynoq suvni tezda sovutishingiz kerak. Qanday bo'lish kerak? Yechim talab qilinadi. Aniqlash: - Muammo bayonotida nima bor? Bir stakan, qaynoq suv, siz, oshxona va oshxonadagi hamma narsa muammoni hal qilish uchun manba. Biz texnikadan foydalanamiz: vositachi + jismoniy ta'sir (issiqning sovuqdan jisimga o'tishi).

Talabalarning mumkin bo'lgan javoblari:

1. Sovuq suv, choy barglari yoki sut qo'shing.
2. likopchaga, katta idishga quyung.
3. Bir -biridan juda uzoq masofada tutib, stakandan ko'p marta to'kib tashlang.
4. Ko'p murabbo yoki shakar qo'shing.
5. Ortiqchasini to'kib tashlang.
6. Sovuq qoshiqlarni botirib aralashtiring.
7. Muzlatgichga, sovuq suv idishga, ... va hokazolarni joylashtiring.

Boshda qarorlar qabul qilish, yangi ma'lumotlarni yozish yoki fikrlarni tartibga solish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan ajoyib kreativ fikrlash texnikasi.


SMART xaritalar bilan qanday ishlash kerak:

- varaq katta bo'lishi kerak (A4 - minimal);
 - markazda paydo bo'lgan muammo yoki vaziyat tasvirini chizish kerak;
 - imzo qo'yilgan filiallar (muammoning asosiy kalit so'zlari) markazdan chiziladi, undan kichikroq "shoxlar" chiqadi; [5]
- blokli harflar, har xil rangli markerlar va boshqalarni ishlatish kerak.

Texnika ulanish sxemasini tuzishga, muammoning muhim nuqtalarini eslashga va muammoning vizual qiyofasini tiklashga yordam beradi.

Asosiy, stereotipli fikrlashga e'tibor bermaslikni, o'ziga ishonishni va o'z fikrining kuchiga ishonishni o'rganish!

Ijodiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari: (2-rasm)



2-rasm. Kreativ fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari.

Demak, kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

- an'anaviylikni o'rgatish uslubida, kundalik hayotda, monotonlikda, talabning shaxsiy tajribasidan ajralishdan saqlash;
- ortiqcha ish va ta'lim yuklanishining oldini olish;

- raqamli texnologiyalar yordamida turli usullar bilan kognitiv qiziqishni rag'batlantirish; - SMART faoliyat va tarbiyaviy ishlarning texnikasini maxsus o'rgatish, o'qitishning muammoli-qidiruv usullaridan foydalanish.



3-rasm. O'quvchi yoshlarda kreativlikni oshirishda SMART texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlaydigan shart-sharoitlar

Kreativ faoliyat talabaning shaxsiyatini rivojlantiradi, milliy va axloqiy me'yorlarni o'zlashtirishga yordam beradi. Kreativlikni yaratib, o'quvchi talaba ularda hayotiy qadriyatlar, uning shaxsiy xususiyatlari haqidagi tushunchasini aks ettiradi. Voyaga etgan, ko'pincha o'z ijodiy qobiliyatini tanqidiy baholab, ularni ko'rsatishga ikkilanadi. Va olimlardan V. A. Suxomlinskiyning fikricha "Insonlar go'zallik, o'yinlar, ertaklar, musiqa, rasm, fantaziya, ijod olamida yashashi kerak". Xulosa qilib aytgancha har bir insonda kreativlik bo'ladi. Biz pedagoglarning raqamli texnologiyalar asridagi vazifamiz esa ushbu ichki kreativlikni uyg'otib to'g'ri yo'lni ko'rsatishdir.

O'quvchi shaxsi ijodkorligini rivojlantirish izchil ravishda biri ikkinchisini o'rni to'ldiruvchi bosqichlardan iborat uzluksiz jarayon bo'lib ushbu jarayonning sifati muayyan pedagogik-psixologik shart-sharoitlarga bog'liqdir. Bu jarayonda o'quvchi o'g'il qizlarning aqliy va ruhiy rivojlanishida xarakterli o'zgarishlar yuz beradi, mehnat va o'rganishga bo'lgan ongli munosabat ham oshadi. Ruhiy va biologik taraqqiyotning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki o'smir mustaqil rivojlanib boradi, lekin bu rivojlanish ko'plab qarama qarshiliklarni o'z ichiga oladi. Bu taraqqiyot o'quv jarayonida kechgani uchun ham to'g'ri tashkil etilgan o'quv faoliyati o'quvchi ruhiyati muvozanatiga ta'sir ko'rsatib uning turli fikr o'ylaridan chalg'ishga zamin yaratadi. Ayniqsa bu davrda diqqat, xotira, tafakkur jarayonlari rivojlanadi. Ayni shu davrda o'quvchi mustaqil fikrlashga intiladi. Shuning uchun ham ta'limda berilayotgan mustaqillik va to'g'ri tashkil etilgan o'qish va o'rganish sharoitlari samimiylik muhiti, mustaqil fikrlashga – ijod qilishga o'quvchining o'zi asos solgan ijodiy faoliyatiga imkoniyat yaratib berish va undagi ijodiy tafakkurni rivojlantirish mumkin.

Bu jarayonni esa maktab va sinfdan tashqari ta'lim ya'ni, to'garaklarda ham amalga oshirish juda yaxshi samara berib kelmoqda. Chunki, to'garaklarning asosiy vazifasi o'qituvchining o'quvchi bilan individual shug'ullanishiga uning ijodkorlik xususiyatlariga erkinlik berib mustaqil fikrlarni tajriba qilib ko'rish imkoniyatini beradi. To'garak darslarida o'quvchining erkin fikrlashiga, erkin ijod qilishiga keng sharoit yaratib berilgan. O'quvchiga berilgan ixtiyoriylik imkoniyatida o'quv darslaridan farqli o'laroq u o'z xohishi

bilan o'sha mashg'ulotlarni mustaqil o'zlashtirishga intiladi. Tabiiyki, sevimli mashg'ulotida talabaning qiziqishlari yanada ortadi. Buning natijasida u yangilikka intiladi. O'quvchi togarakda o'qituvchidan tashqari boshqa manbaalardan ham o'zi uchun kerakli bo'lgan ma'lumot yo'l-yo'riq va tajribalarini va tajribalarni izlash va o'zlashtirish imkonini beradi. Bu manbaalarga tajribali ustozlar tajribasi, bundan avval bajarilgan ishlar, internet tarmoqlaridan ma'lumotlar va shu kabi mustaqil izlanishlar misol bo'la oladi. Bu olgan ma'lumotlarni amaliyotda qo'llashga imkoniyat ochiladi. To'garak mashg'ulotlarida o'quvchi barcha yiqqan malumot va tajribalarni amaliyotda mustaqil qo'llab ko'radi. Erisholmagan bosqichlariga ustozlari, yon atrofidagi o'zidan yuqori tajribaga ega bo'lgan o'quvchilar tajribalaridan o'rganib erishish imkonini ham mavjud. Demakki, dars jarayonidagi ta'lim tizimiga qo'shimcha, "to'ldiruvchi" sifatida to'garak sifatida to'garak mashg'ulotlari eng samarali vosita deb aytishimiz mumkin.

Xulosa. Har bir o'quvchining qiziqishlari keng bo'lishiga qaramay ma'lum bir faoliyatga layoqatli bo'ladi. Bu layoqatni o'quvchi o'zi hohlagan o'zi qiziqqan sohalarida ko'proq ko'rishimiz mumkin. Shunday ekan o'quvchilarni qiziqish va layoqati bo'lgan to'garaklardagina ijodkorlik xislatlarini to'liq rivojlantirishga erishish mumkin. Ijod qilish jarayonida o'quvchining to'g'ri va noto'g'ri g'oyalari fikrlari bir biriga taqqoslab o'quvchi uning noto'g'riligini ko'guncha imkon berish lozim. O'quvchi o'z xato-kamchiliklarini o'zi anglash darajasiga yetgandagina ijod qilishga, yangilik yaratishga erishadi. U o'zlashtirgan har bir elementlarni birlashtirib mujassamlab, mukammallashtirib dast avval o'zi uchun ya'ni, o'ziga ham yangilik bo'lgan yangilik yaratadi. Yaratgan ijod maxsuli boshqalar uchun katta taassurot o'yg'otmasada lekin bola uchun katta yutuq, qadirlil, shu bilan bir qatorda ijodiy ruhiyat ham bag'ishlaydi. Bu yangilikdan keyin o'quvchi mahalliy yangilik yaratishga erishadi ya'ni, o'z atrofidagi o'rtoqlari tengxo'rlari, jamoasi, oilasi orasida yangilik yaratadi. O'quvchining bu harakati samarasi u ulg'ayib e gallagan kasbini davom ettirishi jarayonida kuzatishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR

1. 2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur 2022yil
2. "Formation of students' creative thinking" A Multidisciplinary International Scientific Conference Hosted online from, Rome, Italy www.econferenceglobe.com November 25 th 2021
3. K.K.Narziyeva "Miniatura" o'quv qo'llanma. SamDU 2022yil
4. "Bo'lg'usi tasviriy san'at o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashning ayrim masalalari" SamDU ilmiy axborotnoma 2021-yil, 4-son (128) Pedagogika/48-52betlar
5. "Oliy ta'lim talabalariga smart texnologiyalarni amalda qo'llashni tadbiiq etish uchun qo'yiladigan talablar". "Ta'lim, fan va innovatsiya" Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. 2021/4-son.....48-52betlar



UDK: 372.874

Dildor NORQULOVA,
Samarqand davlat universiteti Pedagogika ta'limi fakulteti assistenti
dildor.norkulova@mail.ru

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v.b M.Boltayeva taqrizi asosida

TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINI PORTRET RANGTASVIRI ORQALI KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashdagi murakkab muammolari, Ayniqsa, ta'limni modernizatsiyalash bilan bog'liq islohotlarning joriy bosqichi, kasbiy faoliyatga moslashish muammosi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, portret, pedagogik faoliyat, DTS, darsliklar, didaktik materiallar, laboratoriya, individual, ijodiy faoliyat, an'anaviy ta'lim, kasbiy faoliyat, tasviriy san'at.

ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ И ПРАКТИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГОВ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА ПОСРЕДСТВОМ ПОРТРЕТНОЙ ЖИВОПИСИ

Аннотация. В данной статье рассматриваются сложные проблемы развития профессиональных компетенций при подготовке будущих учителей изобразительного искусства, особенно на современном этапе реформ, связанных с модернизацией образования, проблема адаптации к профессиональной деятельности.

Ключевые слова: Компетентность, портрет, педагогическая деятельность, ГОСТ, учебники, дидактические материалы, лаборатория, личность, творческая деятельность, традиционное образование, профессиональная деятельность, изобразительное искусство.

THE THEORETICAL AND PRACTICAL SITUATION OF THE PROBLEM OF DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FINE ART TEACHERS THROUGH PORTRAIT PAINTING

Annotation

This article discusses the complex problems of developing professional competences in the training of future teachers of fine arts, especially at the current stage of reforms related to the modernization of education, the problem of adaptation to professional activity.

Key words: Competence, portrait, pedagogical activity, SES, textbooks, didactic materials, laboratory, individual, creative activity, traditional education, professional activity, visual arts.

Kirish. Yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning jadal amalga oshirilishi, ta'lim tizimining bosqichma-bosqich isloh qilib borilishi, murakkab ijtimoiy hodisa sifatida umum e'tiborli va ma'naviy qiziqishga molik jarayonga aylanib bormoqda. Ta'lim tizimining umumiy maqsadi teng huquqli va demokratik davlat talabiga javob beradigan barkamol jamiyat a'zolarini tarbiyalab berishdan iborat bo'lmoqda. Kasbiy faoliyatga pedagogik moslashish yordamida inson hayotiga, shaxs tarbiyasiga, ijtimoiy munosabatlar rivojlanishiga ma'lum ta'sir ko'rsatish mumkin. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga moslashishining ijtimoiy uyg'unlashuvi esa ta'limni taraqqiy ettirishning muhim omili hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Muslimovning fikricha, Kompetentlik – bu talabaning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo'llay olishi bilan ifodalanadi. Mazkur o'rinda «kompetentlik» tushunchasining mohiyati ham to'la ochiladi, u quyidagi ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi: kompetentlik talabalarning shaxsiy sifatleri to'plami hamda kasbiy sohaning tayanch talablari sifatida [1]. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga

tayyorgarligining ko'p qirrali va murakkabligi tadqiqotchilardan "tayyorlik" tushunchasining mohiyatiga yanada oydinlik kiritishni talab etadi. Masalan, K.K.Platonov pedagogik faoliyatga kasbiy tayyorgarlikni shaxsiyatning ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqadi, uning shakllanishining boshlanishi tajriba substruksiyasiga to'g'ri keladi, ya'ni avvalo bilim, mahorat va ko'nikmalarga bog'liqdir [2] degan xulosaga kelgan. M.T.Mirsolieva kasbiy tayyorgarlikka professionalning o'ziga xos va jamoaviy ilmiy ishlarni tashkil etish qobiliyati, innovatsion kelajakni ko'rish, o'zini o'zi tashkil etish va o'zini rivojlantirish qobiliyati kabi fazilatlarni kiritish mumkinligini qayd etib o'tgan [3]. O'.Q.Tolipov "Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat hamda kasbiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari" [4] mavzusida tadqiqot ishlarini olib borib, bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning o'zni hamda uni ta'lim jarayonida qo'llashning muhim tomonlarini tadqiq qilgan.

Talaba yoshlarda kasbiy xislatlarni shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari pedagog olim N.A.Muslimov tomonidan ishlab chiqilgan. N.A.Muslimov ishida: "Oliy ta'lim tizimida amalga oshiriladigan muhim tadbirlar qatorida mutaxassislarining yangi avlodini shakllantirish, ma'naviy-

axloqiy jihatdan yetuk, mustaqil dunyoqarashga ega, ijodiy fikrlovchi, boy milliy meros, shuningdek, umuminsoniy va milliy qadriyatlariga sadoqatli barkamol shaxsni tarbiyalab, voyaga yetkazish vazifalari belgilangan"-deb ta'kidlab o'tgan [5].

M.N.Skatkin tomonidan o'qituvchilarning shaxsiy modelini tuzish va uning asosida kasbiy pedagogik tayyorgarlikni takomillashtirish muammosini tadqiq etgan bo'lib, bu bevosita bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisiga ham tegishlidir.

Pedagog olim V.M.Blinovning fikricha, ta'lim-tarbiya ishlarida yuqori samaradorlikka erishish talabalarning individual qobiliyatlari, layoqatlarini e'tiborga olib tabaqalashtirilgan topshiriqlar berishni taqozo etadi [6]. Bugungi kunda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samaradorligini oshirish ta'lim tizimidagi o'quv materiallarining mazmuniga bog'liqdir. Olimlardan A.A.Kiveryalg o'quv fanlar majmuini talabalarining pedagogik va kasbiy tayyorgarligiga, ularning o'quv jarayonidagi vazifalariga qarab guruhlarga bo'ladi, ya'ni

- direktiv (ko'rsatma beradigan) - me'yoriy hujjatlariga (o'quv rejalari va o'quv dasturlari);

- dars o'tish uchun uslubiy ma'lumotlarga (xususiy uslubiy tavsiyanomalar);

- bo'lajak o'qituvchilar uchun chop etilgan qo'llanmalarga (darsliklar, didaktik materiallar, laboratoriya va amaliy ishlar bajarish uchun uslubiy qo'llanmalar) hamda o'qitish ko'rgazmali materiallariga bo'ladi.

Umumiy ta'lim maktablarida o'quv materiallarining asosiy bo'g'ini deb - darslikni hisoblaydi [7]. Taniqli olim V.M.Rozin faoliyatga nisbatan bunday yondashuvni samarali bilib, «Insonning, bu munosabatlarni belgilaydigan shaxs tipining munosabati faoliyatning asosiy o'zagi sifatida maydonga chiqadi», - deb ta'kidlaydi. U faoliyatning o'ziga mosligini dunyoning, insonning interpretatsiya tipi va ularning o'zaro hamkorligi usuli sifatida belgilaydi [8]. Pedagog olim M.Ochilov "O'qituvchilik hammaga ham nasib etavermaydigan noyob xislat. Ko'p narsani bilish, o'quvchilar bilan muomala qila olish, o'qitishning turli usullarini egallab olish mumkin, hatto tashqaridan qaraganda o'z ishining ustasi bo'lish mumkin, biroq o'quvchilarga nisbatan doimiy jonli qiziqish bo'lmasa, ularning fikrlashlari bilan qiziqmasang, ular bilan munosabatda bo'lishga ehtiyoj, intilish sezmasang, qalban o'quvchilardan yiroq bo'lsang - sen pedagog emassan". "Bizga faqat intellekt asosida emas, balki his-tuyg'u asosida ham harakat qiladigan odamlar kerak. Bizga boshqalarni tushunadigan, o'zini hurmat qiladigan va his qiladigan, javobgarlikni sezadigan odamlar kerak, ya'ni mutaxassislarni o'qitishdan maqsad avtomatlar yoki intellektuallarni emas, balki har tomonlama rivojlangan insonparvar odamlarni tarbiyalashdan iboratdir", - deb yozadi [9].

S.V.Panyukova «Zamonaviy vositalar va axborot tizimlar axborot almashinuvini, axborot kiritilishini avtomatlashuvini ta'minlovchi, yig'uvchi, saqlovchi, qayta ishlovchi, uzatuvchi va axborotlarni operativ boshqaruvchi texnik, dasturiy-apparat, dasturiy vositalar, tizim va qurilmalarni elektron hisoblash mashinalar bazasidagi faoliyati»ga axborot va kommunikatsion texnologiyalar (AKT) deb ta'rif bergan [11]

Tadqiqot metodologiyasi. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashdagi murakkab muammolar qatorida o'ziga xos o'rin tutadi. Ayniqsa, ta'limni modernizatsiyalash bilan bog'liq islohotlarning joriy bosqichida kasbiy faoliyatga moslashish muammosi yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bo'lajak

tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashning mazmuni kasbiy, amaliy, psixologik, metodik, tadqiqotchilik faoliyat turlari bilan bir qatorda kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bilan boyib bormoqda.

Tahlil va natijalar. Kasbiy kompetensiyaning rivojlantirishning ijtimoiy jihatdan tadqiq qilinayotganiga hali ko'p vaqt bo'lgani yo'q, shunga qaramay yildan-yilga tadqiqotchilar tomonidan unga qaratilayotgan e'tibor kuchayib bormoqda. Bugungi kunda kasbiy kompetensiyani rivojlantirish muammolari jamiyat hayotida alohida ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Olib borilayotgan tadqiqotimizga ko'ra bizni ta'limni standartlashtirishning mantiqiy jihati qiziqtiradi. Tadqiqotni amalga oshirishda Ispaniya, Polsha, Fransiya, Germaniya va boshqa mamlakatlarda bo'lib, amalda bo'lgan ta'lim tizimi mazmunini o'rganib chiqish natijasida, evropa mamlakatlarida asosiy o'rinni mutaxassisning kompetentlik malaka darajasi egallashiga amin bo'ldik.

Inglizcha «competence» tushunchasining lug'aviy ma'nosi «qobiliyat» demakdir, biroq kompetensiya atamasi bilim, ko'nikma, mahorat va qobiliyatni ifoda etishga xizmat qiladi.

G'arb mamlakatlarida shakllangan an'anaga muvofiq mutaxassisning kasbiy malakasi uning kompetentlik, ta'lim tizimi esa - bilim, ko'nikma va malakalar darajasi bilan o'lchanadi.

Xorijiy mamlakatlarda, o'zida faqatgina erishilishi lozim bo'lgan natijani aks ettiruvchi, mutaxassis bilim va malakalarini mujassamlashtiruvchi malakaviy standartlar asosida ish yuritiladi. Agarda «kompetent» va «kompetentlik» tushunchalarining etimologik tahliliga nazar tashlasak, ular tasodifan yuzaga kelmaganligini anglash mumkin.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'limning samarali shakl va usullarini izlab topish, o'quv rejasini, dasturlar mazmunini zamon talablariga moslashtirish, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining o'quv-uslubiy tayyorgarlik hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va pedagogik faoliyatni kuchaytirish, ularning pedagogik mahoratini oshirish shart-sharoitlarini to'g'ri yo'naltirish ta'lim tizimi oldidagi birinchi galda, hal qilinishi lozim bo'lgan, ishlardan ekanligi aniqlandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning samaradorligi yuqori bo'lishi uchun davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlarning tizimlilik hamda izchilligiga e'tibor qaratishni tadqiqotimizning asosiy vazifalaridan biri deb belgiladik.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishni tashkil etish va amalga oshirishning mazmuni davlat ta'lim standartlari (DTS)da, o'quv reja, o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar hamda tavsiyanomalarda o'z ifodasini topgan.

Davlat ta'lim standartlari ta'limning zarur va etarli darajasi hamda o'quv yuklamalari hajmiga qo'yiladigan asosiy davlat talablarini belgilab beradi. Ta'lim oluvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni davlat ta'lim standarti belgilab beradi. Standartda: "Belgilangan darajaga erishilmasa yohud ta'lim oluvchilarda muayyan miqdordagi bilim, ko'nikma, malakani shakllantira olmagan pedagogikani mukammal deb bo'lmaydi"

Xulosa. Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish sifatida rangtasvir fanini bilish ushbu mutaxassislik fanini prinsipial farqlashni yagona tuzilma tarkibida tushunish imkoniyati yaratiladi. Ularning tadqiqot mavzusiga yangicha yondashuv shundan iboratki, predmet biz tushungan ma'nodagi ob'ekt

bo'lishdan to'xtaydi, chunki javob berishga majbur qilinmaydi, balki javobgarlik uyg'otadi, turli faoliyatlar oralig'ida va ular bilan hamkorlikda, faoliyat ichidagi vertikal va gorizontal aloqalar ham shular jumlasiga kiradi, ishonchli va bu bilan konstruktiv suhbatga, muloqotga rag'bat uyg'otadi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida o'quv ma'lumotlarini o'zlashtirish hamda fikrlash jarayonlarining samaradorligi, shu o'quv ma'lumotlaridan mutaxassislik

yo'nalishlari bo'yicha zarur bo'lgan xulosalarni chiqara bilishi, o'quv ma'lumotlarini umumlashtira olishi, maqsadiga erishuvchanligi, o'z fikrida qattiq turishi kabi xislatlarni tarbiyalashi zarur. Shuning uchun o'quv ma'lumotlarning ilmiy, ta'limiy-didaktik va axloqiy talablar nuqtai nazaridan tanlanishi talabalar bilim saviyasining oshishi, kelajakda amaliyotdagi yutug'i, shaxs sifatidagi takomili majmuasini ta'minlashi ko'rsatib berildi.

ADABIYOTLAR

1. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: Педагогика фанлари доктори. ... дисс. – Т., 2007. – 315 б.
2. Петрюк О.П. Династия Платоновых и проблемы психиатрических нейронаук: профессор Константин Константинович Платонов – выдающийся отечественный ученый-экспериментатор, психолог, невропатолог и бывший сабурянин. Сообщение 3 / О.П. Петрюк, П.Т. Петрюк, Л.И. Бондаренко // Психичне здорова. – 2010. – № 4. – С. 68–78.
3. Мирсолиева М.Т. Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг касбий компетентлигини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш: педагогика фанлари бўйича фан доктори (DSc). ...дисс. – Тошкент, 2019. – 225 б.
4. Толипов Ў.Қ. Олий педагогик таълим тизимида умуммехнат ва касбий кўникма ва малакаларни ривожлантиришнинг педагогик технологиялари. Дис. ... пед. фан. док. -Т.: 2004й. –314 б.
5. Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантириш. -Т.: Фан нашриёти, 2004. -130 б., -3 б
6. Блинов В.М. Эффективность обучения. -М.: Педагогика, 1976.-191 с.
7. Кыверялг А.А. Вопросы методики педагогических исследований. Часть I и II. - Таллин.: Валгус, 1971. 41-135 с.
8. Розин В.М. Обучение, образование, культура// Вестник высшей школы. 1987. – №2. – С. 20-26.
9. Очилов М. Янги педагогик технологиялар. – Қарши: Насаф, 2000. – 118 б.
10. Роберт И.В. Современные информационные технологии в образовании: Дидактические проблемы; перспективы использования. - М.: Школа – Пресс, 1994. - С. 205 13 б.
11. Панюкова С.В. Концепция реализации личностно-ориентированного обучения при использовании информационных и коммуникационных технологий. - М.: Изд-во РАО, 1998. – 120 с., 7 б.



UDK:321:124.5(575.1)

Ravshanjon OMONOV,
O'zMU Jurnalistika fakulteti dekani o'rinbosari, s.f.f.d (PhD)

Siyosiy fanlar doktori, professor F.N. Jo'raqulov taqrizi asosida

EASTERN APPROACH AND PRINCIPLES ON THE THEORY OF SEPARATION OF POWERS

Annotation

The article analyzes and explores the socio-philosophical aspects of the principle of separation of powers, systematically studies some features of national values and ongoing work in Eastern philosophy. Also, the scientific and philosophical foundations and national-historical aspects of the problem of separation of powers in Uzbekistan are considered.

Key words: State power, separation of powers, Eastern philosophy, national characteristics, historical foundations, national-spiritual heritage, jurisprudence, historicity, community, national values.

ВОСТОЧНЫЙ ПОДХОД И ПРИНЦИПЫ ТЕОРИИ РАЗДЕЛЕНИЯ ВЛАСТИ

Аннотация

В статье проанализированы и исследованы социально-философские аспекты принципа разделение властей, системно изучены некоторые особенности национальных ценностей и осуществляемые работы в восточной философии. Также, рассмотрены научно-философские основы и национально-исторические аспекты проблемы разделение властей в Узбекистане.

Ключевые слова: Государственная власть, разделение властей, восточная философия, национальные особенности, исторические основы, национально-духовное наследие, правоведение, историчность, общность, национальные ценности.

HOKIMIYAT BO'LINISHI NAZARIYASIGA DOIR SHARQONA QARASH VA TAMOYILLAR

Аннотация

Maqolada hokimiyat bo'linishi tamoyilining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini, Sharq falsafasida bu borada amalga oshirilgan ishlarning ayrim o'ziga xos xususiyatlari hamda mavzu doirasida shakllangan sharqona qadriyatlar tizimini o'rganish tahlil qilingan. Qolaversa, dunyo hamjamiyati va O'zbekiston hayotida tub o'zgarishlar ro'y berayotgan hozirgi sharoitda bu masalaning milliy-tarixiy jihatlarini va ilmiy-falsafiy asoslari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Davlat hokimiyati, hokimiyat bo'linishi, Sharq falsafasi, milliy xususiyatlar, tarixiy asoslar, milliy-ma'naviy meros, fiqh, huquqshunoslik, tarixiylik, umumiylik, milliy qadriyatlar.

Kirish. Har bir davlatning o'z qiyofasi, tuzilishi, tarkibiy qismlari mavjud bo'lishi tarixiy zaruratdir. Muayyan davlatni boshqarish, uning hayotiga xos bo'lgan yashash va taraqqiy etish sohaslarini tashkil etishning ham o'ziga xos xususiyatlari bor. Shu bilan birga, mazkur mavzu to'g'risida Sharq falsafasi, uning ayrim xususiyatlari, bu borada shakllangan sharqona qadriyatlar tizimini o'rganish hokimiyat bo'linishi tamoyilini amalga oshirishni ilmiy tashkil etish imkonini beradi.

Ayniqsa dunyo hamjamiyati va O'zbekiston hayotida tub o'zgarishlar ro'y berayotgani hozirgi davrda bu masala alohida ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz alohida qayd etgani kabi, mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar, qonunlar va qarorlar, "...davlat qurilishi sohasida qabul qilingan boshqa qator qonunchilik hujjatlari davlat hokimiyatining asosiy sub'yektlari – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis, mamlakat hukumati vakolatlarini, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati mexanizmlarini yanada rivojlantirish va optimallashtirishni ta'minladi"[1].

Alohida ta'kidlash joizki, mamlakatimizda bappo etilayotgan fuqarolik jamiyati va unga mos davlat hokimiyatining konstitusion asosdagi bo'linishi tamoyili xalqimizning boy tapixiy-madaniy tajribasiga tayanadi, undagi

zamon va tapaqqiyot talablariga mos keladigan jihatlapni o'zlashtirish opqali amalga oshmoqda. Aynan shu maqsad nuqtai nazarpidan o'tmish mutafakkiplapining davlat va jamiyat haqidagi ijtimoiy-siyosiy va falsafiy-huquqiy qapashlapini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sharq ijtimoiy tafakkuri tarixida bu mavzuga doir turlicha qarashlar, g'oyalar va ta'limotlar mavjud. Ular qadimgi avlodlarimizdan qolgan "Avesto" va "O'rxun-Yenesey toshbitiklari"da, Al-Xorazmiy, Al-Buxoriy, Al-Beruniy, Najmiddin Kubro, Mirzu Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa allomalarimiz merosida yorqin ifodasini topgan. Xususan, "Temur tuzuklari"da qayd etilgani kabi: "... saltanat qurish, davlat tutish ishlarini bir tuzukka bog'ladim va saltanatni boshqarish haqida qo'llanma (dastur ulamal) yozib qoldirdim, toki farzandlarim va avlodimdan bo'lganlarning har biri unga muvofiq ish yuritsin"[2]. Shuningdek, Sharq siyosatshunosligida bu mavzu bilan bog'liq masalalar Konfusiy, Kaykovus, Nizomulmulk, Mirxond, Xondamir, Sharafiddin Ali Yazdiy kabi ko'plab allomalar ijodidan o'rin olgan. Hozirgi davrda ham ushbu masalaga doir ko'plab kitoblar, risolar va qo'llanmalar chop etilmoqda.

Ma'lumki, o'lkamiz va xalqimiz hayotiga oid ilk yozma tapixiy manbalardan biri - "Avesto" bo'lib, unda nafaqat xalqimiz tapixi, balki biz yashayotgan zaminda o'sha davrda

mavjud bo'lgan davlatlarning siyosiy tizimi va tapaqqiyot manbalari ham ko'psatib bepilgan. Unda, keyinchalik Konfusiy va Aflotun ta'limotida aks etgani kabi, adolatli jamiyat va insonparvar tuzum haqida eng qadimgi davpda mavjud bo'lgan tafakkur tarzi aks etgan. Shu bilan birga, "Avesto"da kelgusi jamiyatda adolat, haqiqat, ezigulik qapop topishi mumkinligi ta'kidlanadiki, bunday optimizm Konfusiy va Aflotun qapashlapidagi tarixiylikdan fapq qiladi. Asarda bayon qilingan adolatli, baxt-saodatli va insonparvar jamiyat qurish g'oyasi keyingi asrlarda yashagan mutafakkiplarning ijtimoiy-siyosiy va falsafiy-huquqiy qapashlapiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Masalaning bu jihatini o'rganishga kirishar ekanmiz, alohida ta'kidlash joizki, epamizdan avvalgi VII aspgacha mansub "Avesto" zamonidan eramizning VII aspigacha bo'lgan ulkan bip davp, unda mavjud bo'lgan davlatlar, ularning tuzumi va boshqaruv tizimiga oid manbalari asosan tapixiy-apxologik xapaktepga ega bo'lib, ijtimoiy-siyosiy hayot, huquq institutlari, inson – jamiyat – davlat munosabatlari asosan zapdushtiylik ta'limoti misolida talqin qilinib kelinmoqda. Keyingi yillapda bu borada muayyan izlanishlar olib borilayotganiga qaramasdan, chop etilgan asarlapda ham o'sha davplapga oid manbalari kam ekanligiga e'tibor qaratiladi. Bunda keyingi ming yilliklarda Makedoniyalik Iskandar, arab, Chingiz va rus bosqinlari ta'sirida xalqimizning ko'plab osori-atiqalari yo'qotib yuborilgani, bosqinchilarning har biri esa, ulkamiz tarixini o'ziga xos o'zgartirishga harakat qilgani biz o'rganayotgan mavzu bilan aloqador jarayonlarga ham o'z ta'sirini o'zkazganini alohida ta'kidlash joiz, albatta.

Qariyb "Avesto" bilan bir zamonda shakllangan turkiy bitiklar va toshyozuvlar, qadimgi tupkiy adabiyot, undagi kosmologik va mifologik syujetlapda davlat, uning tuzilishi va jamiyat talqini uch qatlamli olam modeli (Osmon – Yep – Odam) opqali namoyon bo'ladi, deb hisoblangan. Bundan ma'lum bo'ladiki, kosmogonik-diniy qapashlap inson va jamiyat hayotidan mutlaq ajpalmagan, demak, inson – jamiyat – davlat munosabatlari qandaydip vositalap va tasviplap bilan kosmogonik tasavvuplapda ko'zga tashlanadi.

Xuddi shunday, davlat tuzilishi va jamiyat hayotiga Sharqona subordinatsiya va iyerarxiya tamoyillari orqali yondashgan donishmandlardan biri, epamizdan avvalgi VI-V asplapda yashagan qadimgi Xitoy faylasufi Kun-syu (Konfusiy)ning davlat tuzilishi va jamiyatni boshqapish bopasidagi qapashlari "Avesto"dagi Osmon – Yep – Odam uyg'unligi kosmologik konsepsiyasini davom ettiradi. U o'z ta'limotini "li" – "jamiyatni boshqapish, pasm-pusumlap va napsalap taptibi" deb atagan. Bu ta'limotga ko'ra, jamiyat va davlat muayyan bip taptib-qoida asosida boshqapiladi, bapchabapcha ijtimoiy bopliqda o'z o'pniga, subopdinasiyada o'z mavqeiga ega. Jamiyatda sodip bo'ladigan g'alayonlap, boshboshdoqlik va betaptiblik ana shu qoidalapning odamzod tomonidan buzilishi natijasi sifatida qapaladi. "Li" konsepsiyasi Osmon – Yep – Odam, hoqon – oliyjanob kishilap – xalq, boshqapuv – insoniylik – adolat pog'ona-tizimlapini o'z ichiga oladi. Hap bip tizim oliy, o'pta va quyi qismlapga ega. Ulapning bip-bipi bilan uyg'unligi davlat va jamiyatni maqsadli boshqapish imkoniyatini yapatadi. Bu borada davlat va jamiyatni boshqapishda subopdinasiyaga qat'iy amal qilish lozim. Buning uchun hukmdop-hukmdop, xizmatkop-xizmatkop, ota-ota, o'g'il-o'g'il bo'lishi kepak. Hap kimning o'z funksional vazifalapini bajapishigina jamiyatda taptib o'pnatilishi, ya'ni Osmon ostida gapmoniyaning qapop topishiga olib keladi.

Xullas, Konfusiyning siyosiy falsafasi insonparvarlikka, ezgu amallapni ko'paytipishga, Osmon bilan

Yep, hukmdop bilan fuqapo, davlat bilan jamiyat o'ptasidagi munosabatlarda gapmoniyaga epishishga qapatilgan. "Avesto"dan boshlangan mana shu papadigma Shapq xalqlapining boshqapuv haqidagi tasavvuplapiga, mentaliteti va ijtimoiy-puhiy holatiga, opzu tilaklapiga mos keladi. Xolbuki, Fapb siyosiy institutlapni tinmay o'zgapitish konsepsiyasini qo'llab-quvvatlagan, hatto ijtimoiy inqiloblap bilan siyosiy hayotni o'zgapitishga hapakat qilgan bo'lsa, Shapq o'z diqqatini inson ma'naviyatiga, e'tiqodiga qapatdi. Jamiyatdagi o'zgapishlapga insonning ichki dunyosi, ma'naviy-puhiy hayoti, dunyoqapashi daxldop bo'lishini Shapq xalqlapiga xos tapixiy-madaniy papadigma deyish mumkin.

Eng muhim jihati shundaki, davlat va uning tuzilishi muammolap hap qanday davpda ham ilm va tafakkup ahlining diqqat mapkazida tupgan. Bunday mifologik-diniy yondashuv qadimgi tupk afsonalari, xalqimizning qadimgi yodnomalari (Upxun-Yenisey bitiklari)dan tortib, O'rta asrlar davrida ham asosiy uslub sifatida namoyon bo'ladi. Bu masalada mutafakkiplapimizning bapchasi tangpini yapatuvchi sifatida tan oladi va boshqapuv ishlapida mifologik-diniy yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi. Hozipgi tadqiqotlapda bunday yondashuv "tangpiizm" deb atalmoqda. Bunda tangpi faqat yapatuvchi emas, "tangpi-el", "tangpi-yep", "tangpi-davlat" ma'nolapida ham keladi va kishilap hayotini: inson – jamiyat – davlat munosabatlari taptibga soladi, boshqapadi va muvofiqlashtiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'lkamiz mutafakkirlarining yurtimizni arablar istilo qilganidan keyingi davlat va jamiyat haqidagi qarashlari aksapiyat hollapda islom aqidalari doipasidan chiqmagan bo'lsa-da, lap huquq ustivor bo'lgan davlat va adolatli jamiyat bappo etishga oid ko'plab original g'oyalapni ilgapi suganlap. Ushbu yo'nalishdagi qapashlapda ideal jamiyat, komil podshoh va adolat ustivor bo'lgan davlat g'oyasini Abu Nasr Forobiy (873-950 yy.) ham ilgapi sugan va bu g'oya o'rta asrlarda jahon falsafasiga nihoyatda katta ta'sir ko'rsatgan.[3] Bunday jamiyat va davlat Fopobiy nazapida "Ilm al-Madina" (shahapni boshqapish ilmi), "Ilm al-Fiqh" (huquqshunoslik, qonunchilik ilmi) va "Ilm al-Kalom" (kalom ilmi) opqali boshqapiladi. Bu ilmlapga tayanib boshqapiladigan davlat va jamiyatni mutafakkip "Fozil kishilap shahpi" deb ataydi. Faylasuf jamiyat haqida so'z yuritir ekan, unga egalik qiladigan siyosiy hokimiyati, uning tuzilishi, siyosatni amalga oshirish yo'llari va tartiblari, boshqaruvchi amaldorlarning shaxsiy va kasbiy xususiyatlari haqidagi mulohazalarini bayon qiladi.

Ta'kidlash joizki, Forobiy va undan boshqa o'sha davr mutafakkiplapining mavzuimizga doir falsafiy-huquqiy qapashlapida ham bunday yondashuv mustahkam o'pin egallaydi. Mintaqamiz, ayniqsa mamlakatimiz tarixida keyingi ming yillikda hokimiyatlar bo'linishi, xususan sud-huquq tizimi amaliyoti masalalari islom huquqi va shariat ahkomlari asosida tashkil qilinib kelingani ma'lum. Bu borada nafaqat bizning yurtimiz, balki butun Sharq olamida tan olingan manba'lardan biri Imom Burhoniddin al-Marg'ioniy (1123 yil Rishton - 1197 yil Samarqand) tomonidan yozilgan "Al-Hidoya" asari bo'lib, u VIII asrdan buyon eng muhim va mo'tabar qo'llanma sifatida musulmon mamlakatlari madrasalari va islomiy oliy o'quv yurtlarida o'qitib kelinmoqda. Marg'ioniy Sharq uyg'onish davrining birinchi bosqichi bo'lgan IX-XII asrlar, ya'ni jamiyat taraqqiyoti uchun huquqshunoslik ilmiga katta zarurat tug'ilgan bir davrda, fiqh ilmi bo'yicha eng ulkan ahamiyatga molik ushbu asarni bitish orqali, o'sha zamonning dolzarb huquqiy muammolarini yechib berishga eng katta hissa qo'shgan edi. U 8 asrdan buyon butun islom dunyosi, ayniqsa, Markaziy Osiyo mamlakatlari, Hind

yarim oroli, Turkiya va ko'p Arab mamlakatlari uchun eng mo'tabar huquqiy qo'llanma va ishonarli manbalardan biri sifatida qadrlanadi. Mazkur asar Misr Arab respublikasidagi eng qadimiy dorulfunun "Al-Azhar", Afg'oniston Islom dorulfununi, Hindiston Aligarx universiteti, "Devband" doru-lulumi, boshqa islom mamlakatlari oliy o'quv yurtlarining o'quv dasturlariga kiritilgan. Hatto Afg'oniston va Hind yarim orolida Kanz va al-Quduriy kitoblaridan keyin, "Al-Hidoya"ni yetuk ustozdan o'qib tamomlamagan tolib, haqiqiy fiqh olimi hisoblanmasligi ham asarning qadri va ahamiyatidan darak beradi.

Xuddi shunday, Nizomulmulkning "Siyosatnoma", Kaykovusning "Qobusnoma", Zohipiy Samapqandiyning "Sindbodnoma" asaplapida ham masalaga subordination yondashuvlap yaqqol aks etadi. Xuddi shunda Mahmud Koshg'apiyning "Qutadg'u bilig" asapida davlat va jamiyatni boshqapishda subopdinasiya va iyepapxiya Aql (O'g'dulmish) timsolida namoyon bo'ladi. Mutafakkip Aqlni (O'g'dulmish) asap mapkaziga qo'yap ekan, aynan u opqali, aytish mumkinki, shapqona davlatchilik va hokimiyat bo'linishining o'ziga xos konsepsiyasini bayon qiladi. Shu bilan bipga, mutafakkip bayon qilgan davlatchilik qadimgi an'anaga muvofiq dunyoviy xapaktepni ham ko'rsatadi. Ya'ni, asapda Ruh (O'zqupmish) qatnashsa-da, u Aql (O'g'dilmish) va Adolat (Kuntug'di) ustidan hukmpo emas. Ushbu konsepsiyada shoh amaldoplap, maslahatchilap, elchilap, kotiblap, xizmatkoplap va fuqapolapdan fapq qiluvchi sifatlapga ega shaxs sifatida tasviplanadi. Aynan mana shu vaziplap, lashkapboshilap, kotiblap, xizmatkoplap va fuqapolapni unga hupmat, izzat, sadoqat ko'psatishga, subopdinasiya va iyepapxik munosabatlapga muvofiq bo'ysunishga undaydi. Bunga tapixda misollap ko'p.

Tahlil va natijalar. Ilmiy tadqiqot nuqtai nazaridan bunday holat dinamik xususiyatga ega bo'lgani uchun uni "ijtimoiy hapakatlap dinamikasi" qonunlari asosida samarali o'rganish mumkin. Lekin ushbu dinamik holat butun tapixiy japayonlap uchun mutlap andoza bo'lmay, hap bip davn uchun alohida, o'ziga xos xususiy ahamiyat kasb etadi. Bu o'pinda Chingiz avlodlarining nohaqligi va zo'pavonligiga qapshi chiqqan sapbadoplapning (XVI asp) xalq demokpatiyesi asosidagi turli iyerarxiyalarga bo'lingan, ammo kuchli jamoatchilik nazorati o'pnatilgan davlat barpo etish bopasidagi hapakatlapini eslash o'pinlidip. Ulap xalqni umumiy tenglikka, bipodaplikka, ijtimoiy adolat qapop topgan yangi jamiyat qupishga safarbar qildilap, kuchli davlatni tashkil etib, uni uzoq vaqt saqlap tupdilap. Ushbu davlatda hukmdoplap boshqa davlatlapdagidek, nafaqat oliy tabaqa naslidan, balki xalq saylovi asosida boshqa tabaqalardan ham saylangan. Hokimiyatning qaysi bo'g'inida xizmat qilishidat qat'iy nazar, subordinatsiya va iyerarxiya talablariga rioya qilingan. Lekin bu holat, har qanday tabaqaning istagan bip vakili maxsus puxsatnomasiz sapoyga kipishi, davlatni boshqapish ishlapini muhokama qilishda qatnashishi va hatto amipni ham tanqid qilishi mumkinligi davlat yuritishning muhim tamoyili sifatida qaralishiga halaqit bermagan. Bu misol xalqimiz o'tmishida davlat tuzumi va jamiyat tarkibida muayyan subopdinasiya va iyepapxik pog'onalap bo'lmaganidan dalolat bermaydi. Balki, yurtimiz davlatchiligi tuzilishida va uni tashkil etishda ham davlat va jamiyatning bip-bipiga dialektik boqliqligi va bip-bipini taqozo etishi, ammo tupli funksional xususiyatlapga, mavqelapga ega subopdinasiya va iyepapxik pog'onalapopqali boshqapilishi yaxshi anglanganini yana bir bor ko'rsatadi.

Xuddi shunday, davlat tuzilishi va jamiyat hayotiga Sharqona subordinatsiya va iyerarxiya tamoyillari orqali

yondashgan Sohibqiron Amir Temurning g'oyaviy-falsafiy merosiga bag'ishlap ko'plap tadqiqotlap amalga oshirilgan. Ularda "suverenitet" tushunchasini baholash, ma'muriy islohotlar va hokimiyatni markazlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari, Sharq musulmon davlatlarida milliydavlat qurilishiga qanday ta'sir ko'rsatganiga alohida e'tibor qaratilgan.[1] Amir Temurga nisbat beriladigan "Temur tuzuklari" XIV-XV asrlarda 27 davlatni o'zida birlashtirgan ulkan hududning hokimiyat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi bosh qomusi sifatida yaratilgan edi. Mazkur asar o'z davrida mukammal qonunlar, davlat va hokimiyatni tashkil etish qoidalari, davlat xizmatidagi amaldor va mansabdorlapga qo'yilgan talab mezonlarini o'zida mujassam etgan dasturlamal vazifasini o'tagan edi. "Tuzuklar" o'tgan ming yillikda davlat boshqaruvi va siyosiy hokimiyatni tashkil etish, jamiyat boshqaruvi va davlatchilik an'analari sohasida to'plangan hamda saralangan tajribalarni mujassamlashtirishdan tashqari bu sohadagi bilimlar va prinsiplarni mukammal ravishda rivojlantirgan edi.

Xalq pedagogikasi orqali o'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlaridan biri madaniyatga singdirishga e'tibor berishdir. Madaniy an'analar haqida shunchaki ta'lim berish o'rniga, o'qituvchilar o'quvchilarga an'anaviy amaliyotlar, marosimlar va urf-odatlarda faol ishtirok etish imkonini beradigan chuqur o'rganish tajribasini yaratishga intiladi. Ushbu amaliy yondashuv talabalarga o'zlarining madaniy merosi va uning shaxsiyatini shakllantirishdagi ahamiyatini chuqur tushunishga imkon beradi. Masalan, talabalar an'anaviy raqs chiqishlari, an'anaviy tomlar tayyorlash yoki madaniy festivallarda qatnashish kabi faoliyat bilan shug'ullanishlari mumkin, bu esa o'z milliy o'ziga xosligi bilan faxrlanish va bog'liqlik tuyg'usini rivojlantirishi mumkin.

Xalq pedagogikasida markaziy o'rinni og'zaki ijodning madaniy bilim va qadriyatlarini yetkazish vositasi sifatida singdirishdir. O'qituvchilar tarixiy hikoyalar, axloqiy ta'limotlar va madaniy afsonalarni o'quvchilarga yetkazish uchun hikoyalar, xalq qo'shiqlari va og'zaki rivoyatlardan foydalanadilar. Og'zaki an'analar bilan shug'ullanish orqali talabalar o'zlarining madaniy merosi haqida faktik bilimga ega bo'libgina qolmay, balki ularning madaniy hikoyalaridagi hikmat va boylikni chuqur qadrlashadi. Interfaol hikoyalar va og'zaki tarix loyihalari orqali o'qituvchilar o'quvchilarga o'zlarining madaniy ildizlari bilan bog'lanishlari va milliy ruhning qadriyatlari va axloqlarini o'zlashtirishlari uchun imkoniyatlar yaratadilar.

O'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalashning yana bir muhim xususiyati – ta'lim jarayoniga mahallaning faol jalb etilishidir. Maktablar o'quvchilarning bilim olish tajribasini boyitish uchun mahalliy madaniyat tashkilotlari, oqsoqollar va jamoatchilik vakillari bilan hamkorlik qiladi. Madaniy almashuvlar, tarixiy joylarga sayohatlar va avlodlararo muloqotlar kabi jamoaviy tashabbuslar talabalarga ularning madaniy merosi bilan bevosita tanishish imkonini beradi va ularning madaniy hamjamiyatiga daxldorlik hissini uyg'otadi. Kengroq hamjamiyat bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali o'qituvchilar o'quvchilarni milliy o'ziga xoslikni qadrlaydigan va ulug'laydigan qo'llab-quvvatlovchi muhitga cho'mishlarini ta'minlaydi.

An'anaviy san'at va hunarmandchilik madaniy o'ziga xoslikning yorqin ifodasi bo'lib xizmat qilib, o'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Pedagoglar o'quvchilarga o'zini ijodiy namoyon etish va madaniy izlanish imkoniyatlarini yaratish maqsadida rassomlik, kulolchilik, to'quvchilik va hunarmandchilik kabi an'anaviy san'at turlarini o'quv dasturiga kiritadilar. Amaliy mashg'ulotlar va badiiy mahorat darslari orqali talabalar nafaqat amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradilar, balki o'z xalqining badiiy merosini chuqurroq qadrlashadi. O'z san'at asarlarini namoyish etish va madaniy ko'rgazmalarda ishtirok etish orqali talabalar o'zlarining madaniy o'ziga xosligini nishonlaydilar va an'anaviy san'at va hunarmandchilikni saqlab qolishga hissa qo'shadilar.

Bayramlar va marosimlar ulkan madaniy ahamiyatga ega bo'lib, umumiy bayram va mulohaza yuritish uchun imkoniyat sifatida xizmat qiladi. O'qituvchilar akademik taqvimga bayram tantanalarni kiritib, o'quvchilarga an'anaviy marosim va urf-odatlarda faol ishtirok etish imkonini beradi. Milliy bayramlar, diniy bayramlar yoki madaniy marosimlarni nishonlashdan qat'i nazar, talabalar ushbu tadbirlar bilan bog'liq quvonch va do'stlikni his qilishadi. Bayram tantanalari umumiy meros va jamoaviy o'zlikni anglash tuyg'usini tarbiyalash

orqali o'quvchilarning madaniy ildizlari bilan bog'liqligini chuqurlashtiradi va milliy ma'naviyatdan faxrlanish tuyg'usini uyg'otadi.

Xalq pedagogikasi asosida o'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash ko'p qirrali yondashuvni o'z ichiga oladi, ularda madaniyatga singdirish, og'zaki ijod, jamoatchilik ishtiroki, an'anaviy san'at turlarini uyg'unlashtirish, bayramlarni nishonlashga urg'u beradi. Ushbu o'ziga xos xususiyatlarni o'zlashtirgan holda, o'qituvchilar o'quvchilarning madaniy merosini hurmat qiladigan va milliy o'ziga xoslik va daxldorlik hissini kuchaytiradigan ta'lim muhitini yaratadilar. Tajriba asosida o'rganish va madaniy an'analari bilan mazmunli shug'ullanish orqali o'quvchilar o'z milliy ma'naviyatini kelajak avlodlar uchun asrash va targ'ib qilishda faol ishtirokchilarga aylanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Xulosa. Xalq pedagogikasi asosida o'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash madaniy merosni chuqur qadrlash, milliy o'zlikni anglash tuyg'usini tarbiyalashning yaxlit yondashuvidir. Madaniyatga singdirish, og'zaki an'analar, jamoatchilik ishtiroki, an'anaviy san'at va bayram tantanalarini integratsiyasi orqali o'qituvchilar o'quvchilarning hayotiy tajribalari va qadriyatlarini bilan rezonanslashadigan dinamik o'quv muhitini yaratadilar.

Pedagoglar o'quvchilarni o'zlarining madaniy an'alariga singdirish orqali ularga o'z merosi bilan faol shug'ullanish, milliy o'zlikni chuqur anglash imkoniyatini yaratadi. An'anaviy marosimlarda, hikoya qilish sessiyalarida va jamoat loyihalarida ishtirok etish kabi amaliy tajribalar orqali talabalar nafaqat faktik bilimlarga ega bo'ladilar, balki

o'zlarining madaniy merosining qadriyatlarini va axloqini ham o'zlashtiradilar.

Bundan tashqari, o'qituvchilar jamiyatni ta'lim jarayoniga jalb qilish orqali o'quvchilarning madaniy o'ziga xosligini qadrlaydigan va nishonlaydigan qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlar bilan o'ralganligini ta'minlaydi. Mahalliy madaniyat tashkilotlari, oqsoqollar va jamoatchilik vakillari bilan hamkorlik o'quvchilarning bilim olish tajribasini boyitadi va ularning madaniy hamjamiyatiga mansublik tuyg'usini uyg'otadi.

An'anaviy amaliy san'atning o'quv dasturiga kiritilishi o'quvchilarning madaniy ildizlari bilan bog'lanishini yanada kuchaytiradi. Ijodiy ifoda va badiiy izlanish orqali o'quvchilar o'z xalqining badiiy merosini chuqurroq anglaydilar va an'anaviy san'at turlarini saqlab qolishga hissa qo'shadilar.

Va nihoyat, festival va marosimlarni nishonlash madaniy o'ziga xoslikni mustahkamlash va talabalarda g'urur va daxldorlik tuyg'usini rivojlantirishning kuchli vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bayram tantanalarida faol ishtirok etib, o'quvchilar o'zlarining madaniy an'alarini bilan bog'liq quvonch va do'stlik hissini his etadilar, milliy ma'naviyat bilan rishtalarini mustahkamlaydilar.

Xalq pedagogikasi asosida o'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash faqat bilim berishdan iborat emas; bu madaniy g'urur, o'ziga xoslik va tegishlilik tuyg'usini tarbiyalash bilan bog'liq. Ushbu maqolada keltirilgan o'ziga xos xususiyatlarni o'zlashtirgan holda, o'qituvchilar o'quvchilarga o'zlarining madaniy merosini kelgusi avlodlar uchun saqlash va targ'ib qilishda faol ishtirokchilarga aylanish imkoniyatini beradigan ta'lim muhitini yaratishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Freire, Paulo. "Pedagogy of the oppressed. Continuum." New York (1970).
2. Dewey, J. (1986, September). Experience and education. In *The educational forum* (Vol. 50, No. 3, pp. 241-252). Taylor & Francis Group.
3. Seymour, D. *Learning for life in the 21st century: Sociocultural perspectives on the future of education*. Blackwell Publishing.2000
4. Ong, W. J. *Orality and Literacy: The Technologizing of the Word*. Methuen.1982.
5. Goody, J. *The Domestication of the Savage Mind*. Cambridge University Press.1977
6. Baldwin, J. *Education through the Heart: A National Identity Perspective*. Education Research International, 2007.
7. Illich, I. *Deschooling Society*. Harper & Row.1971



UDK:8.82.821.111

Nilufar OCHILOVA,
BDPI Xorijiy tillar kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: nilu.2018@inbox.ru, ochilovanilufar@buxdupi.uz
Firangiz MUXAMADIYEVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti talabasi
E-mail: muxamadiyevafirangiz@gmail.com

Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD M.Axmedova taqrizi asosida

O'ZBEK VA INGLIZ ADABIYOTIDA "SARKAZM" G'OYALARIGA YO'G'RILGAN HIKOYALAR (A. QAHHOR VA K. MENSFILD HIKOYALARI MISOLIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqolada badiiy adabiyotning ijtimoiy va ma'naviy hayotga ta'siri va muhimligi haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, hikoya janrining o'ziga xos xususiyatlari va adabiyotda tutgan o'rni haqida ma'lumot beriladi. O'zbek va ingliz hikoyanavisligida "sarkazm" badiiy uslubi uchraydigan hikoyalar qiyoslanib, tahlil etiladi. Shu jumladan, o'zbek hikoya janrining tengsiz ustasi bo'lgan Abdulla Qahhor va ingliz mashhur hikoyanavisi Ketrin Mensfild ijodidagi o'xshashli va farqli tomonlari yoritib beriladi. Ikki ijodkorning nodir asarlaridan biri misol qilib olinib, uning tag mazmuni va asosiy g'oyalari taqqoslanadi.

Kalit so'zlar: Sarkazm, mentalitet, hikoyanavislik, epik, nasr, zaharxanda, istehzoli, kinoya, aforizm, satira, syujet.

Аннотация

В данной статье говорится о влиянии и значении художественной литературы на общественную и духовную жизнь. Также дается информация об уникальных особенностях жанра рассказа и его месте в литературе. В узбекских и английских рассказах сравниваются и анализируются рассказы, имеющие художественный стиль «сарказм». Среди них будут выделены сходства и различия творчества Абдуллы Каххора, уникального мастера жанра узбекского рассказа и известной английской писательницы Кэтрин Мэнсфилд. В качестве примера взято одно из популярных произведений двух авторов, сопоставлено его содержание и основные идеи.

Ключевые слова: Сарказм, менталитет, повествование, эпопея, проза, ядовитый смех, саркастический, ирония, афоризм, сатира, сюжет.

Annotation

This article reveals that the influence and significance of literature on social and spiritual life. Information is also provided about the unique features of the short story genre and its place in literature. In Uzbek and English story writing with the artistic style of "sarcasm" are compared and analyzed. Among them, the similarities and differences between the works of Abdullah Khahhor, a unique master of the Uzbek short story genre, and the famous English writer Katherine Mansfield will be highlighted. As an example, one of the popular works of two authors was taken, its content and main ideas were compared.

Key words: Sarcasm, mentality, story writing, epic, prose, toxic laugh, sarcastic, irony, aphorism, satire, plot.

Kirish. Ma'lumki, dunyoda juda ham ko'p millatlar va xalqlar mavjud. Har bir millat o'z an'analari, mentaliteti, yashash tarzi va dunyoqarashiga ega. Badiiy asarlar orqali yozuvchilar ko'pgina ma'lumotlarni yetkazishadiki, kitobxon qaysidir ma'noda kerakli ma'lumotlarga ega bo'ladi. Chunki, yozuvchilar o'z xalqining yashash tarzi va dunyoqarashidan kelib chiqib, asarlar yaratishadi. Shu boisdan, har bir millatning badiiy olamida o'ziga xos xususiyati aks etadi. Shu o'rinda badiiy adabiyot ijtimoiy-ma'naviy bilimlar jamlanmasi sifatida jamiyat hayoti va uning taraqqiyotida muhim o'rin tutishini ta'kidlab o'tishimiz lozim. Ma'lum bir davrda yozib qoldirilgan badiiy asar o'sha davr hayotining muhim qirralarini va voqealarini qamrab oladi. Shuningdek, inson ma'naviy olamining shakllanishida so'z san'ati, jumladan badiiy adabiyotning o'rni beqiyos. Sababi, adabiyot inson ichki dunyosi, his-tuyg'ulari, tafakkurini, ma'naviy dunyoqarashini boyitishda eng kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. Adabiyot - ruhiy va tarbiyaviy yuksalishga zamin yaratadigan tengsiz manba hisoblanadi. Asarlarda mohirona tavsirlangan obrazlar orqali inson yaxshilik va yomonlik, haqiqat va yolg'on kabi

tushunchalarni anglay boshlaydi. Bundan tashqari, insonning so'z boyligini boyitadi, adabiy tilni va turli badiiy texnikani o'zlashtirish qobiliyatini rivojlantiradi. Badiiy adabiyot millat ruhini, shuurini tarbiyalab, didini yuksaltiradigan, elning o'z Vatani bo'lgan muhabbatini, vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otadigan ilohiy jarayondir.

Asosiy qism. Birinchi prezidentimiz Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida badiiy adabiyotning o'ziga xos jihatlari va boy imkoniyatlari haqida so'z yuritgan: "Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Nega deganda, ulug' adib Cho'lpon aytganidek, adabiyot yashasa, millat yashaydi", - deb ta'kidlaydilar.

Adabiyotda hikoya janri paydo bo'lib, u jamiyatni yuksaltirish, ma'naviy va ruhiy olamini mustahkamlash uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, ijtimoiy yo'nalishda yozilgan hikoyalarni bamisoli jamiyat hayotining ko'zgusi deb

atasak mubolag'a bo'lmaydi. Jahon va o'zbek badiiy nasrida hikoya janri saviyasi yuqori, mazmuni lo'nda, real voqealikka asoslanga asar hisoblanadi. Norvegiya adabiyotshunosi Xuan Rulfo aytganidek, hikoya yozish ancha-muncha mashaqqat talab etuvchi mas'uliyatli jarayon hisoblanadi. Chunki, qisqa hikoya ichida yozuvchi ham voqeani, ham qahramonning ichki dunyosi, his tuyg'ularini, ham hikoya maqsadini lo'nda tarzda ifodalash yuksak mahoratni talab qiladi. Hikoyada asosiy qahramon masalasi, ijtimoiy jamiyatning hayot tasviri, xarakterlar talqini asarning asosiy qismini tashkil etadi. Bu epik janr azaldan didaktik mazmunga ega bo'lib, kitobxonga o'zgal turmushi orqali xulosa chiqarish va ularni yaxshilikga yetaklash, umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirish uchun xizmat qilib kelgan. Shu boisdan, hikoya janri badiiy adabiyotda tarbiyaviylik, madaniy-ma'rifiy jihati ustuvorligi bilan ajralib turadi. Dunyo adabiyoti tarixidan ma'lumki, hikoya prozaning keng tarqalgan va shunga mos ravishda kuchli taraqqiy etgan janrlaridan biridir. Adabiyot tarixida bor mahoratini ishga solib, hikoya janrining eng go'zal namunalarini yaratgan adiblar ko'p uchraydi. Aytish mumkinki, J.London, S.Sveyg, P.Merime, H.Hesse, O.Genri, G.Mopassan kabi adiblarni yirik hajmi asarlaridan ko'ra hikoyalari ko'proq mashhur qilgan.

Hikoyanavislikda sarkazm g'oyalarining aks etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Sarkazm g'oyalarini dastlab XIX asrning boshlarida o'zbek adabiyotining yirik namoyondalari, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Abdulla Qodiriy kabi ijodkorlar mohirona o'z asarlarida aks ettirgan. Sarkazm — badiiy uslub vositalaridan biri bo'lib, mas'haralab murosasiz kulgi asosiga qurilgan fikr-mulohaza sanaladi. Zaharxanda, istehzoli achchiq kinoyalar qo'llanilib, asar tag zaminida achchiq haqiqatni aks ettiradi. Biroq sarkazmda obyektga munosabat kinoyadagidek "yuvosh, beozor, hazil" tarzida bo'lmaydi, aksincha qahr-g'azab, nafrat ohangi sezilib turadi. Bu turdagi yumor uslubi ko'pincha sotsialistik, siyosiy muammo va adolatsizliklarni ifodalash maqsadida asarlarda qo'llanilgan. Sarkazm lirik va dramatik janrlarda, publitsistika, yumoristik va hajviy asarlarda, hatto notiqlik san'atida ham keng qo'llaniladi. Shuningdek, Abdulla Qahhor ham hikoyalarida sarkazm g'oyalarini ilgari surgan adiblar qatoridadir.

Adabiyotimizning yirik vakili, o'zbek prozasining oyoqqa turishida tinimsiz mehnat qilgan yozuvchi Abdulla Qahhor ijodi necha o'n yillardan buyon xalqimizning ongu shuurini band etib kelmoqda. Ayniqsa, uning qisqa hajmli hikoyalari chuqur ma'noga ega bo'lib, o'quvchini mushohada qilishga undaydi. Abdulla Qahhor adabiyotga shoir sifatida kirib kelgan, keyin hikoyanavis sifatida shuhrat qozongan ulkan adib bo'libgina qolmay, publitsist, qissa va romannavis, satirik komediya va lirik dramaturg, jurnalist va tarjimon hamda so'z san'atkoridir. Adibning badiiy mukammal hikoyalari, takrorlanmas xarakterlar talqini joy olgan qissa, roman va pyesalari, aforizm darajasidagi "tesha tegmagan" fikrlari hali uzoq yillar ko'p avlodlar uchun mulohaza obyekt bo'lib qolishi shubhasizdir. Abdulla Qahhor hayotdagi odamlarning tovushi eshitilib, qiyofasi yaqqol aks etib turgan, ularning ichki dunyosini oynaday ko'rsatib bera olgan adabiyot olamini rus mumtoz adabiyotida o'chmas iz qoldirgan Anton Pavlovich Chexov ijodida topgan. U o'qigan kitoblar orasidan Chexov asarlari Abdulla Qahhorga shu darajada ta'sir etadiki, hatto bugungi kunda adibni "O'zbek adabiyotining Chexovi" deya e'tirof etishadi. Chexov hikoyalarida asosan, asarlarida jamiyatdagi adolatsizliklarni, ijtimoiy muammolarni yoritib berishga harakat qiladi. Shu tomondan ham A. Qahhor o'z hikoyalarida Chexov an'alarini davom ettiradi. Uning bir

qancha hikoyalarida Chexov hikoyalarig o'xshash jihatlarini uchratishimiz mumkin. Jumladan, A. Qahhorning "Millatchilar" hikoyasi mavzu jihatidan ham, hikoyaning qurilishi, yozilish uslubi jihatidan ham Chexovning "Xameleon" hikoyasiga o'xshab ketadi. Ikkala hikoya ham yumoristik uslubda yozilgan bo'lib, voqealarni ifodalashda dialoglardan foydalanilgan. "Xameleon" hikoyasida voqealar asosan Ochumelov ismli chinovnikning nutqiga asoslangan bo'lib, uning o'zidan yuqori mansabdorlarga "yaltoqlanish"ning ko'rinishlarini ko'rishimiz mumkin. Hikoyadagi voqea davomida bir yo'lovchini kuchuk tishlab oladi va butun gap ana shu kuchukni jazolash ustida boradi. Ochumelov kuchukni qattiq jazolamoqchi bo'lib turganda, kimdir itning generalniki ekanligini aytib qoladi va u shu zahotiyuq, xuddi buqalamun o'z rangini o'zgartirgandek, o'z fikrini o'zgartiradi va itni maqtab ketadi. Hikoyadagi butun bahs-munozara shu xususida ketadi va Ochumelov itning generalniki yoki generalniki emasligiga qarab fikrini o'zgartiraveradi. Shu tariqa Chexov hikoyasida rus chinovniklarining o'z vaqtida qanchalik tilyog'lamalik qilganliklarini mahorat bilan ko'rsatib bergan. A. Qahhorning "Millatchilar" hikoyasida esa voqealar yuqoridagi hikoya voqealariga birmuncha o'xshash, faqat yozuvchi hikoya qahramonlari sifatida shoir Tavhidiy hamda muharir Mirza Bahromni tasvirlaydi. Ular ko'chadan o'tib ketayotganlarida bir boyning iti ularga tashlanmoqchi bo'ladi va ular mana shu itning laqabi "Arslon" yoki "To'rtko'z" ekanligi ustida bahslashishadi. Bu bilan ular o'zlarining boyya qanchalik yaqin ekanliklarini uning uyiga tez-tez kelishlarini bir-birlariga isbotlab bermoqchi bo'lishadi. Bunda ham yozuvchi millat manfaati uchun xizmat qilamiz deb fidoyilik qilmoqchi bo'lgan shoir va muharrirni tanqid qiladi, ularning ustidan kuladi. Ularning tilyog'lamaliklaridan hatto it ham bezor bo'lib, uyiga kirib ketadi. A. Qahhor ham o'sha zamon odamlarining mansabdor, boy shaxslarga qanchalik laganbardor bo'lganini, hatto ularning itining oyog'iga yiqilishga ham tayyor bo'lganliklarini mahorat bilan yoritib bera olgan. Ehtimol bu ikki hikoya o'xshashligi sababi ular yashagan tuzumning, ijtimoiy muhitning bir-biriga o'xshash bo'lganligidadir, "Abdulla Qahhorning shunday hikoyalari borki, ularni jahon novelistik adabiyotining eng yaxshi namunalarini bilan bir qatorda qo'yish mumkin", —deb yozgan edi, rus tanqidchisi V. Smirnova. Bular qatorida "Xotinlar", "Asror bobo", "Ming bir jon", "Mahalla", "Dahshat", "O'g'ri" va "Bemor" kabi hikoyalar kiradi. Misol sifatida "Bemor" hikoyasini tahlil qiladigan bo'lsak, urush yillarida moliyaviy ahvoli og'irlashib qolgan bir oila taqdiri va norasida bir go'dakning nolalari va kechinmalari ifodalab berilgan hikoya hisoblanadi. Hikoya hajmi jihatdan qisqa bo'lishiga qaramay, uning mazmuni keng ko'lamliligi bilan adibning iste'dodini yorqin namoyon qilib beradi. "O'g'ri" hikoyasi ham chuqur ma'noga ega hisoblanib, asarda o'zgalarning kulfatlari, baxtsizligi orqali kun ko'radigan amaldor obrazi yoritib berilgan. Qobil bobo ho'kizini topaman deb amaldorlar tomonidan talanishi, xonavayron qilinishi ochib berilgan. O'g'ri obrazi sifatida yozuvchi xalq molini kuppakunduzi talovchi amaldorlarni nazarda tutadi. Bir ho'kiz yo'qolganiga bir qator mansabdor shaxslar, jumladan, ellikboshi, yuzboshi, amin, mingboshi kabi o'z manfaatlari ko'zlaganlar turli nayranglar qilishadi. Molidan ayrilgan oddiy chol iztiroblari aks ettirilgan hikoya hech bir kitobxonni larzaga solmay qo'ymaydi.

Jahon adabiyotida hikoya janri taraqqiyoti haqida so'z yuritadigan bo'lsak, albatta, avvalambor, ingliz adabiyoti ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Charlz Mey izlanishlariga ko'ra, ingliz adabiyotida hikoya janrining ilk novdalari Rennessans

davriga borib taqaladi va XXasrga kelib, mustaqil janr sifatida tashkil topadi. Bu janr rivojida, ayniqsa, Ketrin Mensfeldni alohida o'rni bor. Ketrin Mensfeld qisqa umr ko'rgan bo'lsa-da, Yangi Zelandiyaning vatanparvar farzandi sifatida o'chmas iz qoldirdi. Ketrin Mensfeldning ijodiy yo'nalishida asosan, ijtimoiy-psixologik muammolarni ko'proq yoritganligini kuzatamiz. Mensfeldning ijodida, xayot tendensiyalarining qarama-qarshiliklarini uchratishimiz mumkin. Uni doim damlar o'rtasidagi munosabat, emotsional holat, oila a'zolari o'rtasidagi ziddiyatlar, boylik hamda qashshoqlik, yaxshilik va yomonlik, sinfiy tabaqalar o'rtasidagi qarama - qarshiliklar kabi jumboqli mavzular qiziqtirgan. Misol qilib, "The garden party" va "The doll's house" hikoyalarda o'sha davrning dolzarb muammolaridan biri bo'lgan sinfiy tabaqalanish, ya'ni oq suyak zodagonlar va past tabaqali, oddiy odamlarning bir-biriga bo'lgan munosabatlari aniq ifodalangan. Midlton Murrining e'tirof etishicha, Mensfeld ingliz klassikasidan farqli ravishda yangi yo'nalishda ijod qilgan. U o'zining ijodida chuqur lirizm bilan inson ichki his tuyg'ularini ochib beradi. "Yarim tun" hikoyasining chuqur poetik kechinmalaridan ruhanib, Mensfeld "Qo'g'irchoqlar uyi", "Kichik qizim", "Quyosh va Oy" hikoyalarni yaratib, farishta kabi beg'ubor bolalar psixologiyasini va ularning kichkina miyasidagi o'y-hayollarini mohirona yetkazib beradi. Bundan tashqari, serqirra ijodkor sifatida Mensfeld psixologiyaga bog'liq bilimlarni egallaydi va asarlarida ham namoyon qiladi. Ijodkorning fikricha, insonning tashqi dunyodagi hayoti emas, balki ichki olami va hissiy holati muhimdir.

Umuman olganda, ikkala yozuvchi ijodi davomida juda ko'p jamiyat muammolarini ochib beruvchi hikoyalar yaratgan va bu hikoyalarni satira, ya'ni hajviy usulda yoza bilgan. Abdulla Qahhorning "Dahshat" hikoyasi va Ketrin Mensfeldning "The little Governess" (Yosh gubernantka) ijod namunalari qiyoslanganda, ikkala hikoya asosida qo'rquv va dahshat tuyg'usi tavsirlanganligini guvohi bo'lamiz. Masalan, Mensfeld hikoyasida yosh qizni yolg'izlik kechinmalari va xavotir tuyg'ulari chulg'ab olgan bir paytda, bir notanish chol bilan tanishib, bolalarcha beg'uborligi tufayli ishonib qolganligi va bu ishonchi unga insoniyat axloqining jirkanch tomonlarini ko'rsatib berganligini ko'rishimiz mumkin. Hikoyada hayot dahshati, yosh qizning bolalarcha beg'ubor qarashlarining chilparchin bo'lishi ishonchli va ta'sirchan ko'rsatib berilgan. Asarda yozuvchi hayotda uchraydigan beg'uborlik, ko'ngli tozalik va samimiylikni shuning aksi bo'lgan yolg'on, firibgarlik va qalloblikka zid qo'yadi. Hayotda nur va soya bir-biri bilan bog'liq. Soya bor ekan, nurning yorug'ligini, uning qadrini, afzalligini his etamiz.

Ta'kidlash lozimki, "Dahshat" hikoyasi adibning yozuvchilik mahorati cho'qqisida yaratgan eng nodir asarlaridan biri bo'lib, yana bir yosh qizning zulm va johillik olamida azob chekib, ozodlik yo'lida kurashishiga guvoh bo'lamiz. Abdulla Qahhor bu hikoyada o'tgan zamondagi oddiy, sodda o'zbek ayollarining boshiga tushgan xo'rlik, musibat, kulfatlarni tasvirlaydi. Asosiy qahramon sifatida gavalangan Unsin ismli qizning ozodlik uchun kurashi va bu kurash yo'lida vujudiga jasorat va qudrat bag'ishlagan tuyg'ular kichik tafsiloti bilan detallar vositasida hayotiy aks

ettirilgan. Darhaqiqat, "Dahshat" hikoyasini yaratishda Abdulla Qahhor xalq og'zaki ijodidan foydalangan. Chunki xalq orasida keng yoyilgan afsonalardan biri erkaklar orasida kechasi qabristonda biror ishni bajarib kelish mardlik va kuchlilik hisoblangan. Ammo, bu mardlik va kuchlilikni erkaklar amalga oshirmaydi, balki tutqinlikda yashaydigan, har doim ozodlik xom xayollarida ko'milib yuradigan yosh bir qiz bajaradi. Albatta, bu ish Unsin uchun oson bo'lgani yo'q. Yarim kechada qorong'u qabristonda yolg'iz yosh qizning samovarda choy damlashi va uyiga qaytishi, bu dahshatli qo'rquv edi. Darhaqiqat, azoblarga, tahqirlarga ko'nib yashagan qiz erkinligi evaziga bu ishni uddaladi. Lekin, ozodlikka erishishi uchun bir necha soatlar va daqiqalar qolganida, Unsin bu ulamdan ko'z yumadi va uning kafani o'zi xohlagan erkinlik, ya'ni ota-onasi uyi tomon jo'natiladi. Asarda o'sha davrning chirkin tomonlari, adolatsizlik, ayollarga nisbatan hurmatsizlik, boy tabaqa vakillarining kambag'allar toyifasini inson sifatida tan olmasligi, inson haq - huquqlari poymol bo'lishi kabi hodisalarni guvohi bo'lamiz. Hikoyada bosh qahramonning ichki kechinmalari ya'ni ota-ona sog'inchi, mo'jzagina qishlog'ini yana ko'rish umidi, o'zi xohlagandek hayotini boshlashi kabi his tuyg'ulari adib tomonidan tasvirlangan. Hikoya syujeti murakkab badiiy dalillash va tafsilotlash asosiga yaratilgan. Mazkur asarlarni qiyoslaganimizda, mualliflarning bir-biriga yaqin jihatlari va asarlaridagi farqli, ya'ni o'ziga xos xususiyatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Ikkala hikoyada ham kitobxon e'tibori dahshat tushunchasiga qaratiladi. Dahshat bu nima, degan so'roqqa javob izlanadi. Hikoyalardagi mazmun chuqur, falsafiy, ko'p qatlamli ma'noga ega bo'lib, ikkala asarda ham voqea "kichkinagina jamiyat"da, bir oila doirasida bo'lib o'tadi. Tashqaridan qaraganda, sokin, muvozanatdagi hayot qa'rida butun insoniyatni tanazzulga yetaklash kuchiga ega bo'lgan qudratli to'fon g'alayoni mavjudligini ikkala ijodkor ham mohirona ifodalab bera oladi. Hikoyalardagi "Yosh gubernantka" va Unsin obrazlari ma'naviy pokiza, insofli, vijdonli va beg'ubor insonlar sifatida gavalantiriladi. Ular yashayotgan jamiyatlarida o'zlari kabi musaffo muhitni izlashadi. Pokiza olamdan, toza havodan nafas olishni orzu qilishadi. Ammo har qadamda buning aksiga duch kelishadi. Atrofdagi, jamiyatdagi chirkin muhit ularni qo'rquvga soladi. Tiniq ko'ngillarida dahshat tuyg'ularini uyg'otadi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytilish mumkinki, adabiyot olami insonni yetuklik sari boshlaydi va bitib qoldirilgan asarlar bebaho durdonalardir. Badiiy janrlardan biri bo'lmish hikoya, qisqa bo'lishiga qaramay, mazmun jihatda keng qamrovdagi mavzularni o'z ichiga oladi. Shuningdek, hikoya yozishda "sarkazm" g'oyalarning qo'llanilishi, uning o'tkir ma'noga ega bo'lishi uchun yo'l ochib beradi. Ikki ijodkor mahoratining natijasida yaratilgan qisqa hikoyalar va ularning g'oyalari, har bir insonga ma'naviy ozuqa sifatida xizmat qiladi. Abdulla Qahhor "Dahshat" hikoyasida tutqunlikda yashashdan qo'rqish, erkinlik uchun kurashish, irodalilikni, qat'iylilikni va ruhan bo'lsa-da, ozodlikka erishish jarayonini yoritib bergan bo'lsa, Ketrin Mensfeld esa qo'rquvni, ishonuvchanlikni, soddalikni, poklikni, irodasizlikni va buning natijasida insonning hayotga bo'lgan qarashlari va ishonchi poymol bo'lishini guvohi bo'lishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". -T.: Ma'naviyat, 2008
2. Matyoqub Qo'shjonov. Abdulla Qahhor mahorati: Monografiya. -T.: Adabiyotvasan'atnashriyoti, 1988. 232 b. 85-bet.
3. Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat Universiteti. Adabiyotshunoslik Nazariyasi Fanidan Ma'ruzalar matni. 271-bet. Samarqand. 23.
4. Smith A. Katherine Mansfield: a literary life. Houndmill; New York : Palgrave, 2000

5. Katherine Mansfield's men// Ed. by Charles Ferrall, Jane Stafford. Wellington: Katherine Mansfield Birthplace Society; Steele Roberts Publishers, 2004
6. Burgan M. Illness, gender, and writing: the case of Katherine Mansfield. Baltimore: Johns Hopkins UP, 1994
7. Saydulla Mirzayev. XX asr o'zbek adabiyoti. Toshkent, Yangi asr avlodi, 2005.
8. А.Қаҳҳор. Асарлар. Т.: 1989, 5-жилд,22-бет
9. Izzat Sulon . Adabiyot nazariyasi. –Т.: –1980. –307б.
10. <http://cheloveknauka.com/mezhkulturnye-svyazi-novoy-zelandii-i-rossii-ketrinmensfild-i-russkaya-kultura>
11. https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdulla_Qahhor
12. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Hikoya>
13. Ochilova N.O'. The image of "horse" in the work of Chingiz Aitmatov "Farewell, Gulsari" // BuxDU ilmiy axboroti, 2020-yil, 6-son. – B. 222-227. (10.00.00; № 1)
14. "Ruhlar isyonlari" asaridagi shoir taqdiridagi chizgilar. "Yosh olimlar" respublika ilmiy-amaliy konferensiya, Toshkent, 2023, 7-son. B.120-122.
15. Mansfield K. Journal of Katherine Mansfield, ed. by J. M. Murry. The Albatros, Hamburg, Paris, Bologna, 1933.



UDK:372.8

Odil PARPIYEV,

Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrasida katta o'qituvchisi

E-mail: odilparpiyev71@gmail.com

Filologiya fanlari doktori, dotsent T.Kuchkarov taqrizi asosida

APPROACHES TO THE EXPRESSION OF WRITTEN OPINION IN PRIMARY CLASS STUDENTS

Annotation

The article contains information about writing, the history of Uzbek writing, the development of Uzbek spelling, the relationship between sounds and letters in the written expression of thought, and the approaches of scientists in the field to the expression of written thought in elementary school students.

Key words: Primary education, writing, types of writing, written speech, sound, letter, husnikhat, written thought, analysis, synthesis, exercise.

ПОДХОДЫ К ВЫРАЖЕНИЮ ПИСЬМЕННОГО МНЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация

В статье содержатся сведения о письменности, истории узбекской письменности, развитии узбекской орфографии, соотношении звуков и букв при письменном выражении мысли, а также подходах ученых в данной области к выражению письменной мысли у учащихся младших классов.

Ключевые слова: Начальное образование, письмо, виды письма, письменная речь, звук, письмо, уснихат, письменная мысль, анализ, синтез, упражнение.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA YOZMA FIKRNI IFODALASHGA BO'LGAN YONDASHUVLAR

Annotatsiya

Maqolada yozuv, o'zbek yozuvi tarixi, o'zbek imlosi taraqqiyoti, fikrni yozma ifodalashda tovush va harf munosabati, soha olimlarining boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma fikrni ifodalashlariga bo'lgan yondashuvlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, yozuv, yozuv turlari, yozma nutq, tovush, harf, husnixat, yozma fikr, analiz, sintez, mashq.

Kirish. Yozma nutq nutqning asosiy turlaridan biri bo'lib, u kishilik jamiyati taraqqiyotida ehtiyoj tufayli paydo bo'lgan. Yozma nutq tufayli avlodlar o'rtasidagi aloqa almashinuvi ta'minlanib, odamlar o'z bilimlari, fikr va ko'nikmalarini manbalarda, ilmiy ishlarda, san'at asarlarida amalga oshirib kelgan. Jumladan, Markaziy Osiyoda qadimda yashagan ajdodlarimiz o'z yozuviga ega bo'lib, tarixiy manbalarda keltirilishicha, yozuv madaniyatini shakllantirganlar. O'rta Osiyo hududida shu kunga qadar fonografik yozuvning oromiy (miloddan avvalgi III – I asrlarda), so'g'd (I – VI asrlarda), xorazm (II – III asrlarda), o'rxun-enasoy (V – VIII asrlarda), uyg'ur yozuvi (VI – VII asrlardan XII asrgacha), arab yozuvi (VII – VIII asrlardan 1929-yilgacha), lotin yozuvi (1929 – 1940-yillarda), kirill yozuvi (1940-yildan), lotin yozuvi (1996-yil sentabridan) kabi turlaridan foydalanilgan.

Professor N.Mahmudov bu haqda shunday deydi: "Qadimdan har bir qabila, elat o'z yozuvini muqaddas deb bilgan, o'z tilini ulug'lab kelgan. Ajdodlarimiz oromiy, so'g'd, run, uyg'ur, arab yozuvlaridan foydalanib, boy tarixiy, madaniy meros qoldirishgan. Qoraxoniylar hukmronligi davrida turkiy tilda davlat yozishlari olib borilgan, uning maqomi mustahkamlangan. Qoraxoniylar podshohlar o'z turkiy tillarini "hoqoniya tili" deb e'lon qilishgan. Buyuk tilshunos Mahmud Koshg'ariy bu tilni uchqur tulporga, adib Yusuf Xos Hojib tog'ohusiga qiyos qilishgan. Hazrat Alisher Navoiy turkiy tilni o'n sakkiz ming olamdan ham oliy olamga o'xshatganlar"[1].

Xalqimiz ming yildan ziyod vaqt davomida arab, keyin esa lotin va kirill yozuvlaridan foydalangan bo'lsa-da, Nodir Jonuzoq ta'biri bilan aytganda: "garchi ona tilimiz boshqa xalqlarning imloviy libosini kiygan bo'lsa-da, o'z ziyatini yo'qotmadi, ruhini asrab qoldi"[2].

Adabiyotlar tahlili. XX asr boshlarida ilg'or fikrli, ma'rifatparvar ziyolilarimiz avval arab, keyin esa lotin yozuvini ona tilimiz talablariga moslashtirishga harakat qilishgan, Jumladan, atoqli adib, olim Abdurauf Fitrat boshchiligidagi 1919-yilda "Chig'atoy gurungi" jamiyati tuzildi va arab yozuvini o'zbek tiliga moslab isloh qilish uchun takliflar ishlab chiqildi. Chunki jamiyatning asosiy vazifasi til-imlo masalalari bilan shug'ullanish bo'lib, uning peshqadam a'zolari imloni takomillashtirish bo'yicha harakatlar qildi. Bu takliflar barcha tomonidan birdek ma'qullanmagach, 1921-yilning 1-5-yanvar kunlari Toshkentda bo'lib o'tgan birinchi o'lka o'zbek tili va imlosi qurultoyida Fitrat ularga qarata shunday deydi: "Yangi imlochilarimiz huzuringizga chiqib, o'z asoslarini arz etdilar hamda aytalarkim: eski imlo bilan yoxud eski imlosizlik bilan savodsizlikni bitirish, bilimni umumlashtirish mumkin emasdir. Savodsizlikni bitirmak istasalar, qoidali bo'lg'on asoslarimiz qabul etilsin!"[2] Shu yig'ilishda qatnashgan Botu esa quyidagicha taklifni kiritadi: "Madaniyatda ortda qolg'on millat – yozuvi ortda qolg'on millat demakdir... Mana shuning uchun butunlay hozirgi arab harflarini tashlab, ko'b millatlar tomonidan qabul bo'lg'on lotin yozuvini tilimizdagi

tovushlarga muvofiq bir holg'a kelturub qabul qilish kerakdir"[3].

Fitrat millat jonkuyari sifatida tilimiz taraqqiyotiga hissa qo'shdi. U "Yopishmagan gajaklar" maqolasida shunday deydi: "Chig'atoy gurungi" 20-yillarg'acha davom qildi. Bu vaqtg'acha uning o'z oldig'a qo'yg'an ilmiy yumushlari bajarilgan edi. Yangi imlo sho'ro maorif komissarligi tomonidan maktablarga kirgizilgan sho'ro hukumati tomonidan "Har millatning maktab tili o'z ona tilida bo'lsin" deb e'lon etilgan asos bilan o'zbek tili ta'min etilgan edi..."[3].

Fitratning o'zbek tilshunosligi tarixidagi ulkan xizmatlaridan biri u tomonidan grammatikaga bag'ishlangan kitobning yaratilishidir. Bu haqda tilshunos olim T.Tog'ayev quyidagi ma'lumotni keltirib o'tadi: "O'zbekiston jumhuriyatining Maorif komissarligi huzuridagi Bilim o'zagi tomonidan maktablarda o'qumoq uchun muvofiq ko'rilgan "Sarf" (morfoloqiya) darsligi ilk marta 1925-yilda bosib chiqarilgan. Fitratning o'zi bu kitobni kamtarlik bilan "O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba" deb nomladi".[4.1]

O'tgan davr mobaynida o'zbek imlosi taraqqiyoti uchun bir qator islohotlar qilindi: 1928-yilda lotin yozuvi davlat alifbosi sifatida qabul qilindi, 1934-yilda isloh qilindi, 1940-yilda esa kirill yozuviga o'tildi, 1993-yilda lotin yozuviga o'tdik, 1995-yilda yozuvimiz isloh qilindi. Yangi yozuvga o'tish muddati 2005-yil etib, keyin esa 2010-yil deb ko'rsatildi. Lekin shu kunga qadar bu yozuvimizga to'liq o'tilmadi. Tilshunos olimlar va fuqarolarning ommaviy axborot vositalari va anjumanlardagi maqolalarida mazkur masalaga turlicha yondashuvlari ifodalanganining guvohi bo'lamiz. Agar A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professorlari Z.Xolmonova, M.Qurbonova, dotsent T.Tog'ayevlar joriy alifboni o'zgartirilishiga qarshi chiqib, fikrlarini xalqimizning ta'lim-tarbiya va savod chiqarishda alifboga ko'nikma hosil qilganini ta'kidlasalar, boshqa bir tilshunos olimlar guruhi esa alifbo o'ziga islohdan muhtoj ekanligi haqida fikr bildiradilar. Jumladan, professor N.Mahmudov

jo'ra, jo'ja, jahon, rivoj kabi so'zlarda til oldi jarangli qorishiq undoshni ifodalash uchun C c (dj) harfini olish, jurnal, tiraj, maxraj, ajdar kabi so'zlarda til oldi jarangli sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun J j (j) harfini belgilash taklifini bergan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida" 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son Farmonida ta'kidlanganidek: "Eng avvalo, ona tilimizning qo'llanish doirasini kengaytirish, uning tarixiy ildizlarini chuqur o'rganish va ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish bugungi kunda o'ta dolzarb masalaga aylanmoqda..."[5].

Garvard universiteti professori metodist olim Uilga M.Rivers shunday deydi: "Savodli bo'lish - o'qish va yozuvni bilish degan ma'noni anglatadi"[6].

Yozuv jarayoni og'zaki nutq jarayonidan o'zining harakati va rivojlanishi, psixologik mazmuni va jarayonni amalga oshirishga xizmat qiladigan psixologik operatsiyalar jihatidan farq qiladi. Ma'lumki, og'zaki nutqni o'zlashtirish bola hayotining ikkinchi yilida kattalar bilan amaliy muloqot jarayonida sodir bo'ladi. Hayotining birinchi yilida bola doimo unga aytilgan nutqni eshitadi, atrofdegilarning nutqini idrok etish uning eshitish qobiliyatini rivojlantiradi va mustaqil artikulyatsiyani tayyorlaydi. Ushbu amaliy mashg'ulot ikkinchi yil o'rtalarida bola nutq tovushlarini takrorlashni va alohida ob'ektlarni nomlashni boshlashga olib keladi. Vaqt o'tgan sayin so'zlarni nomlash qobiliyati tez rivojlanadi, nutq asta-

sekin batafsil, izchil xarakterga ega bo'ladi va 4-5 yoshga kelib, kattalar bilan ko'p muloqot qiladigan bolaning og'zaki nutqi ancha boy va to'liq bo'ladi. Yozma nutqning rivojlanishi esa butunlay boshqacha bo'ladi. Agar og'zaki nutq sof amaliy jihatdan kattalar nutqiga jonli moslashish orqali o'zlashtirilsa va uning artikulyatsiyasi uzoq vaqt davomida ongsiz xatti-harakatga asoslansa, yozish esa boshidanoq maxsus ongli harakatlar jarayonida amalga oshiriladi. Demak, og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishning asosiy yo'llari boshqa-boshqa hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida qobiliyatning rivojlanishi bilan yozishning psixologik tuzilishi o'zgaradi. Bola harflarning butun kombinatsiyasini, keyin esa butun so'zlarni osongina yozishni o'rganadi. Alohida tovushlarni ta'kidlash, kerakli grafik belgilarni topish va harflarni yozish - bularning barchasi uning diqqatini jalb qilishni to'xtatadi, avtomatlashiriladi, umumiy bir butunga bo'ysunadigan alohida operatsiyalarga aylanadi; bola bu operatsiyalarni avtomatik ravishda bajarishni boshlaydi. So'z, ibora va ba'zan bir qator fikrlarni yozadi. Elementar yozuv harakatlari birlashtirilib, murakkabroq faoliyatga - yozma nutqqa aylanadi. Bu haqda tilshunos olim A.R.Luriya shunday deydi: "Ilgari to'liq ongli harakatlar natijasi bo'lgan narsa endi bir qator avtomatlashtirilgan, ko'pincha deyarli ongsiz operatsiyalarga aylanadi. Faqat alohida holatlarda, masalan, tovush tarkibida murakkab bo'lgan so'zni yozishda yoki yozma matnни tekshirishda bola so'zni tovushlarga tizimli ravishda ajratishga qaytadi; individual operatsiyalar yana ongli bo'ladi va yozuvchi o'zi uchun faqat yordamchi sifatida sodir bo'lgan jarayonlarni (tovushli tahlil, harfni qidirish, uning grafik tasviri) aniq anglay boshlaydi".[7.352]

Materiallar va usullar. Kichik yoshli maktab o'quvchilarining yozish jarayonini sinchkovlik bilan kuzatish va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bolada yozuv mahoratining rivojlanishi uning tarkibini tashkil etuvchi alohida elementlarning asta-sekin birlashishi, harflarni tanlay olish va yozish bo'yicha alohida harakatlar murakkab va yaxlit "yozma nutq" bilan almashtiriladi. Masalan: 2-sinf o'quvchisi kitob so'zini o'qiganida tovushlarni baland ovozda talaffuz qiladi, so'zni bo'g'inlarga bo'ladi va yaxlit o'qishni amalga oshiradi. Agar kitob so'zini yozsa, kitob so'zi tarkibidagi tovushlarni tinglash muhim emas. Bolalarda yozish jarayoni o'zlashtirilgach, har bir so'zning baland ovozda talaffuzi butunlay yo'qoladi va uning o'rnida avval shivirlangan nutq, so'ngra yozma so'zning qisqartirilgan "ichki eshitishi" paydo bo'ladi. Harflarning alohida elementlarini alohida ehtiyotkorlik bilan yozish ham yo'qoladi, qo'shma vosita ko'nikmalari rivojlanadi va yaxshi rivojlangan yozish qobiliyatiga ega bo'lgan o'quvchi bir vaqtning o'zida bir motor harakati bilan butun harflar majmuasini, ba'zan esa butun bir qisqa so'zni yozadi. Yozish tobora rivojlangan sayin murakkab tus ola boshlaydi va ba'zida so'zning tovushli tahlili asta-sekin orqa fonga o'tib, yozuv jarayoni avtomatlashgan mahoratga aylanadi. O'quvchilarning yozish jarayonini sinchkovlik bilan o'rganish juda muhim bo'lib, bu esa yozish jarayonida o'quvchi uchun nima qiyinchiliklar tug'dirishini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Yozma nutq sharoitida har doim o'quvchi uchun shakllantiriladigan fikr va yoziladigan so'z (ibora, gap) esda saqlanishi muhimdir.

Savod o'rganish jarayonidagi amaliy mashqlar sirasiga analiz, sintez, tovush ustida ishlash mashqlari kiradi va bu mashq turlari kichik yoshli bolalar fikrini yozma ifodalashda asosiy vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Jumladan, Qo'qon shahridagi 6-, 46-umumiy o'rta ta'lim maktablarida olib borilgan so'rov, kuzatuv ishlari bolalarda yuqoridagi mashq

turlaridan foydalanishning afzalligini ko'rsatdi. Analiz mashqlari bolalarni imlo xatolarisiz yozishga o'rgatsa, sintez mashqlari esa o'quvchi fikrlarini yozma ifodalashga ko'maklashadi. Ayniqsa, so'zning boshiga yoki oxiriga bir harf qo'shib yangi so'z hosil qilish, so'z o'rtasiga harf qo'shib, yangi so'z hosil qilish, bo'g'inlarni almashtirib yangi so'z hosil qilish va yozish, tovushlarning o'rnini almashtirib yangi so'z hosil qilish va yozish, tovushni yoki bo'g'inni tushirib yangi so'z hosil qilish va yozish, bo'g'in qo'shib yangi so'z hosil qilish va yozish kabi sintetik mashq usullari qiziqarli bo'lib, yarim o'yin holatini vujudga keltirishga imkoniyat yaratdi. O'yin asosidagi ta'lim bolalarda berilayotgan topshiriqni bajarishga qiziqish uyg'otdi.

1. Qo'qon shahar 6-umumiy o'rta ta'lim maktab 26-nafardan iborat 1-sinf o'quvchilari bilan olib borilgan kuzatuvlarimiz yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. O'quvchilarga quyidagi sintetik mashqni bajarish taklif qilindi: Berilgan so'zlarga bo'g'in qo'shib, yangi so'z hosil qiling: gul - ..., paxta - ..., qo'l - ..., lola - Belgilangan vaqt ichida 26 nafar o'quvchilardan 12 tasi (46%) mashqni to'liq bajardi, 10 tasi (38%) yarmini bajardi, 4 tasi (15%) esa bajarishga qiynaldilar.

2. Qo'qon shahar 46-umumiy o'rta ta'lim 3-sinflarda o'tkazilgan quyidagi tajribada o'quvchilarning yozma fikr ifodalashlari tahlil qilindi.



1-rasm. M.E.Toirova. Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. -88b.12-bet.

Yaxlit matn tuza olganmi?	Rasmdagi predmet tasviridan unumli foydalanganmi?	Nechta o'quvchida yangi fikr mavjud?	Uslubiy xatoga yo'l qo'rganmi?	Kreativ fikr mavjudmi?
8 ta (28%)	16 ta (57%)	5 ta (17)	9 ta (32%)	7 ta (25%)

2-rasm. Jadval muallifniki.

O'quvchilarning yozgan matnlarini tahlil qilib, ulardagi fikrni yozma ifodalash usullariga e'tibor qaratdik. 28 nafar o'quvchilardan 8 tasi yaxlit matn tuza olgan bo'lib, qolgan 20 ta o'quvchilarning yozma ishlarida kamchiliklar kuzatildi, bu esa bolalarning yozma nutqiga e'tiborni kuchaytirishni talab qiladi. Rasmdagi narsalar tasviridan matn tuzishda foydalana olish bo'yicha 16 ta (57%) o'quvchilar ijobiy natija ko'rsatgan bo'lsa, 12 nafar (42%) o'quvchilar bu imkoniyatdan samarali foydalanmadilar.

Tadqiqot natijalari. O'quvchi gapni to'g'ri yozish tartibini saqlashi kerak, har doim yozgan va yozilishi kerak bo'lgan narsalarga yo'naltirilishi kerak. Bularsiz yozma nutqdagi har bir pauza kerakli ketma-ketlikni buzadi va rejaning buzilishiga olib keladi. O'quvchi uchun tasodifiy lahzalar fikr izchilligiga xalaqit beradi yoki so'z yoki gapni noto'g'ri yoza boshlaydi, yoki bo'g'inlar, so'zlar takroriga yo'l qo'yadi. Bu o'quvchida so'zlarning ketma-ketligiga rioya qilish qobiliyati yo'qolganda sodir bo'ladi.

Tilshunos olim A.R.Luriya[7.215] yozish jarayonini 3 bosqichdan iborat ekanligini ta'kidlaydi:

1. So'zning tovush tarkibini tahlil qilish.
2. Tovushni harfga aylantirish.
3. Husnixat qoidalariga rioya qilish.

1. So'zning tovush tarkibini tahlil qilish. Ushbu bosqich bir nechta maxsus operatsiyalarni o'z ichiga oladi. Diktant yozayotgan o'quvchi idrok etilgan tovushlar oqimidan,

birinchidan, birinchi yoziladigan, ikkinchidan esa keyin yoziladigan tovushlarni ajrata olishi kerak. Bu jarayonda o'quvchilar uchun sodda, ochiq bo'g'inlardan iborat so'zlar talaffuzi qulay va oson. Lekin yopiq bo'g'inlardan tuzilgan, ko'p bo'g'inli undoshli, urg'usiz unilardan tashkil topgan so'zlarni yozish o'quvchilar uchun qiyin vazifaga aylanadi.

2. Tovushni harfga aylantirish. Ajratilgan fonemalar va ularning komplekslari grafemalarda ifodalanishi kerak. Agar dastlabki tovush tahlili yetarlicha aniq amalga oshirilgan bo'lsa, unda nutq tovushlarini harflarda ifodalash hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi.

3. Husnixat qoidalariga rioya qilish. Yozish jarayonining uchinchi bosqichi yozilishi kerak bo'lgan harflarni husnixat talablariga mos bo'lishini ta'minlashdir. E. V. Guryanov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham aynan shu narsa tilni o'zlashtirishning turli bosqichlarida yozishni tavsiflovchi tengsiz tuzilmani aniq aks ettirishi ta'kidlanadi. Tadqiqotimiz davomida olib borilgan kuzatishlar, olingan xulosalar asosida biz ham A.R.Luriya va E.V.Guryanovning fikrlarini qo'llab-quvvatlaymiz hamda bunga qo'shimcha ravishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqni rivojlantirishda interaktiv usullardan ham foydalanishni ma'qul deb hisoblaymiz.

Muhokama. Professor J.Jalolov esa quyidagi fikrlarni aytgan: "Yozma nutq boshqa reproduktiv nutq faoliyati turi – gapirish zaminida, ya'ni uning lisoniy materiali va mavzulari

doirasida shakllanadi. Yozma nutq tegishli xususiy malakalarga asoslanadi. Yozuv (ya'ni yozma nutq) malakalari quyidagi ko'nikmalardan tashkil topadi: husnixat ko'nikmasi, imlo ko'nikmasi, tuzish (yozma fikr bayon etish maqsadida gaplarni biriktirish) ko'nikmasi, yozuvning leksik va grammatik ko'nikmalari".[8.29]

Rus metodist olimi B.A.Lapidus yozma nutq mashqlarini quyidagicha tasniflaydi:

vazifasiga ko'ra: tayyorlov va asosiy;

nutq faoliyatining xususiyatiga ko'ra: retseptiv va reproduktiv;

o'quv amallariga ko'ra: til strukturalarini nutqda taqlidan qo'llash, o'zgartirish, biriktirish;

til materialiga munosabat yuzasidan: nutqda aniq bir maqsadda va turli maqsadlarda qo'llash.[9.152]

Rus metodik adabiyotlarda yozuvni o'qitishga doir mashqlarning: ko'chirish, eshitib yozish, erkin diktant, ijodiy

diktant, devoriy gazetaga maqola yozish, hikoya matnini yoki rejasini tuzish kabi turlari keltirilgan.

Xulosa. Olib borilgan kuzatishlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqlarini shakllantirish bo'yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1.Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrni yozma ifodalashlari uchun qulay pedagogik vaziyat yaratish ta'limiy maqsadni amalga oshirish vositasidir.

2.Yozma nutqni shakllantirishda an'anaviy usullar bilan interaktiv usullardan foydalanish o'quvchilar yozma fikrlarini ifodalashda yaxshi samara beradi.

3.Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida ota-onalar bilan hamkorlikda keng kitobxonlikni rivojlantirish, bolalar yoshi, saviyasiga mos adabiyotlarni tavsiya qilish o'quvchilar badiiy tafakkuri va so'z boyligini oshirishda yaqindan yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. N.Mahmudov, A.Rafiyev, I.Yo'ldoshev. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. Darslik.- T.:Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013, 144 b.
2. Nodir Jonuzoq: Tilimiz mukammal alifboga munosib. 29.03.2021. <https://kun.uz/uz/12750235?q=%2F12750235>.
3. Ozod Sharafiddinov. Fitrat va uning ikki maqolasi ("Tilimiz", "Yopishmagan gajaklar"). Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 1-jild. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/ozod-sharafiddinov-fitrat.html>
4. Tog'ayev To'lqin Mamanazarovich. "Chig'atoy gurungi" faoliyati to'g'risida ba'zi mulohazalar. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 2.
5. H.Dadaboyev. O'zbek terminologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 136 b.
6. Wilga M.Rivers. Teaching Foreign-Language Skills. 2nd ed. – Chicago and London: The university of Chicago Press, 1981, p.291.
7. Лурия А.Р. Письмо и речь: Нейролингвистические исследования. Учебное пособие для студ. психол. фак. высш.учеб. заведений. – М.:Издательский центр "Академия", 2002. - 352 с.
8. J.Jalolov. Chet til o'qitish metodikasi. Darslik. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2012.
9. Б.А.Лapidус. Интенсификация процесса обучения иностранной речи (Пути и приёмы). – М.: Высшая школа, 1970.
10. A.G'ulomov, H.Ne'matov. Ona tili ta'limi mazmuni. Metodik qo'llanma. Toshkent. "O'qituvchi", 1995-yil.



Dilfuza RAKHMONOVA,
Teacher of Pedagogy department Bukhara State University
E-mail: dilfuza.rahmonova77@gmail.com

Martina MARTAUSOVA,
Associate professor, PhD Pavol Josef Šafarik University, Slovakia

Under the review of Akhmedova Mehrinigor Bahodirovna, associate professor, PhD in English literature and translation studies department, BukhSU

THE ROLE OF FICTION IN THE INTELLECTUAL DEVELOPMENT OF YOUNG SCHOOL STUDENTS

Annotation

Применение в различных областях знаний: Имитационное моделирование может быть применено в различных областях образования, включая науку, технику, экономику, медицину, социологию и другие, что делает его универсальным инструментом обучения.

Интерактивное обучение: Имитационные модели обычно представлены в виде интерактивных приложений или сред, что делает обучение более привлекательным и увлекательным для студентов.

Решение реальных проблем: С помощью имитационного моделирования студенты могут решать реальные проблемы и проводить виртуальные эксперименты для предсказания результатов различных стратегий и решений [6].

Анализ и результаты. Вот несколько способов, которыми имитационное моделирование вносит вклад в образование:

Обучение концепциям и принципам: Имитационные модели могут помочь студентам понять сложные концепции и принципы, например, в экономике, биологии, физике и других областях, позволяя им экспериментировать и визуализировать различные сценарии.

Развитие критического мышления: Работа с имитационными моделями требует анализа, оценки и принятия решений на основе полученных данных. Это

способствует развитию критического мышления и умению применять теоретические знания на практике.

Эксперименты и исследования: С помощью имитационного моделирования студенты могут проводить виртуальные эксперименты и исследования, которые могут быть недоступны в реальной жизни из-за стоимости, времени или этических ограничений.

Проектирование и оптимизация систем: Студенты могут использовать имитационное моделирование для проектирования и оптимизации различных систем, таких как транспортные сети, производственные процессы и т.д., что позволяет им понять влияние различных параметров на результаты и эффективность системы.

Обучение сотрудничеству и коммуникации: Работа в команде над имитационными моделями способствует развитию навыков сотрудничества, коммуникации и решения проблем в группе.

Применение в мультидисциплинарном обучении: Имитационное моделирование часто позволяет объединить знания из различных областей науки и применить их к решению комплексных проблем.

Подготовка к реальной жизни: Работа со сложными имитационными моделями помогает студентам развить навыки анализа данных, принятия решений и управления рисками, что может быть полезным в их будущей карьере и в реальной жизни.

Развитие имитационного моделирования в образовании происходит в нескольких направлениях:

Технические инновации: Вместе с развитием информационных технологий появляются новые программные средства и инструменты для создания и анализа имитационных моделей. Это включает в себя специализированные программы для моделирования процессов в различных областях знаний, такие как экономика, управление, медицина и т.д.

Интеграция с другими методами обучения: Имитационное моделирование часто используется в сочетании с другими методами обучения, такими как проблемно-ориентированное обучение, проектное обучение и т.д. Это позволяет создавать более полные и интерактивные образовательные программы.

Развитие междисциплинарных курсов: В связи с тем, что реальные ситуации обычно не ограничены рамками одной предметной области, имитационное моделирование становится важным инструментом для обучения в междисциплинарных курсах. Оно позволяет студентам понять взаимосвязь различных аспектов реальных проблем и их решений.

Акцент на практическом применении: Стремление к практическому применению знаний является одним из ключевых трендов в образовании. Имитационное моделирование позволяет студентам применять свои знания и навыки на практике, решая реальные проблемы и ситуации.

Выводы. Имитационное моделирование в образовании продолжает развиваться и эволюционировать, становясь все более доступным и эффективным инструментом обучения. Его использование способствует более глубокому пониманию материала, развитию аналитических навыков и подготовке студентов к реальным вызовам и требованиям современного мира.

ЛИТЕРАТУРА

1. Агафонов, С. В. Методика профессионально- прикладной физической подготовки студентов управленческих специальностей вузов на основе имитационной игровой технологии / С. В. Агафонов, М. М. Шестаков // Педагогико-психологические и медико- биологические проблемы физической культуры и спорта. – 2016. – № 4. –С. 53–60.
2. Буланова, Л. Н. Антикоррупционное образование студентов средствами профессионально- ориентированного иностранного языка (на примере имитационного моделирования в рамках темы «Контракт») / Л. Н. Буланова // Russian Journal of Economics and Law. – 2014. – № 4 (32). – С. 20–25.
3. Веремчук, Н. С. Применение методов имитационного моделирования в процессе профессиональной подготовки специалистов в област дорожного строительства / Н. С. Веремчук, О. М. Куликова // Вестник СИБИТа. – 2022. – № 4. – С. 17–23.
4. Гитман, Е. К. Мультидисциплинарный кейс в профессиональной подготовке студентов вуза / Е. К. Гитман, Л. Р. Лизунова, Л. А. Гущина // Вестник ПНИПУ. Проблемы языкознания и педагогики.–2022. – № 1.– С. 86–96.
5. Гущина, А. А. К вопросу об имитационном моделировании /А. А. Гущина, Б. К. Кемалов // НиКа. – 2009. – № .16. – С. 340–342.
6. Ермилов, А. В. Роль ситуационного моделирования в приобретении курсантами опыта профессиональной деятельности на месте пожара / А. В. Ермилов, Л. В. Мардахаев, О. И. Воленко, И. В. Багажков // Современные проблемы гражданской защиты. – 2022. – № 3 (44). – С. 12–21.



UDK:140.8

Hakima SALOMOVA,
Buxoro davlat universiteti professori, falsafa fanlari doktori
E-mail: salomova.h@mail.ru

SamDU professori, f.f.d., J.Yaxshilikov taqrizi asosida

KOINOT HADDI YOXUD TABIAT BORLIG‘INI ASRASH OMILLARI

Annotatsiya

Tabiat borlig‘i odatda tabiatdagi narsalar (jismalar), jarayonlar, holatlar borlig‘i sifatida, insonning ishtirokisiz mavjud bo‘lgan va inson madaniyatini o‘z ichiga oladi. Ushbu maqolada koinot va tabiatdagi bugungi kundagi jarayonlar, xususan uni asrash omillari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ontologiya, borliq, tabiat borlig‘i, jism, jarayon, holat, narsa-buyumlar, madaniyat, olam, makon va vaqt.

ФАКТОРЫ СОХРАНЕНИЯ СУЩЕСТВОВАНИЯ ВСЕЛЕННОЙ ИЛИ ПРИРОДЫ

Аннотация

Бытие природы обычно включает в себя как бытие вещей (тел), процессов, состояний в природе, так и человеческую культуру, существующую без участия человека. В этой статье рассматриваются современные процессы во Вселенной и природе, в частности факторы ее сохранения.

Ключевые слова: онтология, бытие, бытие природы, тело, процесс, состояние, вещь-вещи, культура, вселенная, пространство и время.

FACTORS OF PRESERVING THE UNIVERSE TERM OR THE EXISTENCE OF NATURE

Annotation

The being of nature usually includes objects (bodies), processes, States as being in nature, existing without human participation, and human culture. This article covers today's processes in the universe and nature, in particular the factors that preserve it.

Key words: Ontology, being, being of Nature, body, process, state, thing-objects, culture, universe, space and time.

Kirish. Tabiat – insoniyat yashaydigan birdan-bir makon. Tabiat insonsiz, jamiyatsiz mavjud bo‘la oladi, ammo inson, jamiyat-chi? Aslo, insoniyat tabiat ne‘matlarisiz aslo yashay olmaydi. Biosferaning imkoniyat chegaralarini insoniyat bilarmikini? Tabiat ne‘matlaridan qancha olib, foydalanilsa, unga zarar yetkazilmaydi, qancha olsak to‘g‘ri bo‘ladi?

Tabit borlig‘i xilma-xil, jonli hamda jonsiz, suv, havo, tuproq, Quyosh, minerallar... ammo ular orasida inson ko‘zlari anglamaydigan o‘zaro bog‘liqlik, ajoyib bir uyg‘unlik, mutanosibliklar mavjud. Masalan, olmaxonlar miqdorini archa g‘uddalarining miqdori belgilaydi; asalarilar oilasining salomatlik, biologik faolligini atmosferaning toza havosi, gulshirasida 4,25%dan ko‘p bo‘lgan glyukozali gullar, botqoqliklar miqdori belgilaydi. Tabiatni yaratgan mohir chevar Haq, uning hamma tarkibini o‘z tabiiy-ekologik me‘yorida yaratgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Biosferadagi tog‘lar balandligining chegaraviy me‘yori 10 kilometr, Yer sayyoramiz aslo 10 kilometr dan yuqori tog‘ni “ko‘tara” olmaydi. O‘zbekistondagi ekologik muvozanatni saqlab qolish uchun vatanimiz hududining beshdan bir qismi tog‘li hudud bo‘lishi lozim. Asalari nektarida 4,25%dan glyukozasi ko‘p bo‘lgan gullargagina qo‘nadi. Undan kamiga aslo qo‘nmaydi.

Yer sayyorasidan 15-40 kilometr orasidagi ozonning tabiiy-ekologik me‘yori 300 D.B. (Dobson birligiga teng, boshqacha iboralar bilan aytganda ozon qobig‘ining tabiiy qalinligi atigi 3 millimetrga teng). Aynan ushbu “nozlik qobiq” biosferani Quyoshdan keladigan ultragunafsha nurlardan himoya qiladi. Ozon qobig‘i o‘z me‘yoridan kamaysa, Yerda

yashovchi insonlar orasida teri saratoni ko‘payadi. Suv ekotizimlarida yirtqich va tinchliksevar (sudak:zag‘ora; har doim 1:30) baliqlar miqdoriy mutanosibligi aynan shu proporsiyada doimo saqlanadi. Boshqacha iboralar bilan aytganda, yirtqich baliq 1 dona sudakka 30 dona zog‘ora (tinchliksevar) baliq suv ekosistemasidagi mutanosiblikni tashkil etadi. Biologik iborada aytganda 10 dona sudakka 300 dona zog‘ora to‘g‘i kelsa ekologik mutanosiblikka aslo putur yetmaydi. Yuqoridagi fikrlar xulosasi shunga olib keladiki, yashil iqtisodiyotning moddiy poydevorini tabiat borlig‘idagi qonunlar tashkil etadi. Tabiat borlig‘idagi qonunlarga sayyora ahli rioya etsa, aslo ekologik tangliklar ro‘y bermaydi.

2021 yilda O‘zbekiston Osiyo mintaqasida birinchi bo‘lib Global Yashil Iqtisodiy O‘sish institutiga qo‘shildi. Global Yashil O‘sish instituti bosh direktori Frank Reysberman tayinlangan. Jahon miqyosida tabiatga antropogen ta‘sirni me‘yorlashtirish, tabiiy-ekologik qonunlarga rioya qilish, ekologik asoslangan yangi texnologiyalarni amaliyotga qo‘llash, biosferaning imkoniyat doirasidan chetga chiqmaslik, turlar xilma-xilligini saqlash, har bir ekologik komponentning ekologik qiymatiga putur yetkazmaslik asosida iqtisodiyotni boshqarish XXI asr talabi bo‘lib qoldi. Bu esa yashil iqtisodiyot orqaligina amalga oshadi. Shu sababli ham O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ekologik asoslangan iqtisodiyot muammolarini davlat siyosati darajasiga ko‘tardilar.

Radiatsiya – tabiiy hodisa. Ammo bu tabiiy radioaktivlik hech bir insonni halokatga mahkum etmagan. Radiatsiyaning tabiiy manbalari - bular yer qobig‘ida (uran, radiy, toriy), havoda (radon) va boshqa atrof-muhit ob‘yektlarida tarqalgan radioaktiv elementlar, kosmik

nurlanishlar hisoblanadi. Tabiiy radiatsiya odam uchun tabiiy va biologik zaruriy ham. Lekin nurlanishning tabiiy me'yoridan oshishi albatta xavfli. Biz Parasels fikriga qo'shilamiz. Paraselsning "Hamma narsa zahar va hamma narsa dori hamdir, hammasini doza (me'yor-aniiq miqdor –S.X.) hal qiladi", - degan gapni barcha ekologik - biotik, abiotik, antropogen omillarga xuddi shu singari radiatsiyaga ham taalluqlidir.

Radiatsiya ta'sirida tirik organizm hujayralaridagi muhim biologik atom va molekularlarning, jumladan, DNKning

Doza (me'yor-S.X.) diapazonlari chegaralarini eslab qolish juda oson. Bu:

Zivert	Nurlanish kasalligi darajalari
< 0, 1 zivert	Nojo'ya ta'sirlar aniqlanmaydi
> 1 zivert	Nurlanish kasalligining yengil shakli
> 10 zivert	Nurlanish kasalligining o'ta og'ir shakli

AES ning me'yoriy ish rejimidagi holati uchun xodimlar olishi mumkin bo'lgan nurlanish dozasi yiliga 0,2 zivert deb belgilandi.

Shunga qaramay, atom elektr stansiyasida ishlaydigan ishchilarning amaldagi ko'rsatgichlari oxirgi o'n yil ichida barqaror ravishda yilga 0,002 zivertdan past ko'rsatgichda bo'lib kelmoqda (ya'ni, avariya normatividan yuz marta past-S.H.).

Yuqorida keltirilgan misollar biosferaning tabiiy-ekologik me'yorlariga oid misollar edi. Insoniyat tabiat va uning zahoralari, ne'matlari bilan "muomala" qilayotgan payt albatta yukoridagi me'yorlarga amal qilishi shart.

Tahlilva natijalar. Endi kaftlarimizni yozib, bir qo'limizda inson, ikkinchi kaftimizda Sayyoramizni qo'yib diqqat bilan qaraylik.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 2017 yil 25 dekabrda №777-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 207 –raqamli tibbiy hujjat shakli[1] – Qonning umumiy tahlilida qonning hayot ko'rsatgichlari – me'yorlari ko'rsatilgandek, biosfera uchun ham xuddi shu kabi hayotiy ko'rsatgichlar mavjud. Insoniyat aynan mana shu me'yor chegarasidan o'tmasligi shart. Pol Bergg fikriga ko'ra, inson salomatligi besh ko'rsatgichga bog'liq:

Qonning arterial bosimi;

Qondagi qand (glyukoza) miqdori;

Insonning tana og'irligi;

Xolesterin ko'rsatgichi - me'yordagi xolesterin darajasi 5,1 ni tashkil qiladi. 6,2 dan baland ko'rsatkich (mazkur ko'rsatkich me'yorning yuqorigi chegarasi hisoblanadi-S.X.) xolesterin ko'tarilganidan darak beradi.

Tananing yog' miqdori hamda qondagi prebet, betalipoproteid ko'rsatgichlari va trigliserinlarning miqdoriy ko'rsatkichlari[2] - bulari bari salomatlikni ko'rsatuvchi ichki tabiiy me'yorlardir. Aynan mana shu ko'rsatkichlar o'z me'yorida bo'lganda inson salomat bo'la oladi. Xuddi shunday ko'rsatkichlar – biosfera uchun ham mavjud. Bu- biosferaning hayot ko'rsatgichlari yoxud biosferaning salomatlik ko'rsatkichlari deyiladi. Mutaxassislar ma'lumotlariga ko'ra, sayyoramizda har yili 15 milliard tupga yaqin daraxt kesiladi, ekiladiganlarining soni esa besh milliarddan oshmaydi. Shu bois, xalqimizda shunday aqida bor: "Birni kessang, o'nmi ek!" Ushbu qoidaga amal qilindimi? Atmosferada kislorodning tabiiy ko'lamining o'z me'yoridan kamayishi biosferaning hayot (salomatlik) ko'rsatkichiga albatta manfiy ta'sir qiladi.

Aynan xuddi shu fikrni bir necha asr oldin Yusuf Hamadoni tomonidan yozilgan "Inson va koinot haqida risola" Risola ("Fi annal – kavna musaxxarun lil-inson") jazzi risolasida uchratamiz: "...Sen tabiat borlig'ida yashaysan, koinotdan foydalanasan, koinotdaga har bir zarra, har bir jonivor-u, nabotot, har bir suv, har bir olov, har bir tuproq "sen

ionlashuvi sodir bo'ladi. Bundan yuzaga keladigan zararlanishlarning ma'lum miqdorgacha bo'lgan darajasini hujayralarning o'zi bartaraf etadi oladi. Me'yordan oshib ketssa, zararlanishni bartaraf qilishning imkoni bo'lmay qoladi va hujayra nobud bo'ladi yoxud mutatsiyaga uchraydi. Yengil va o'rta darajadagi nurlanish kasalligida osamni davolab olsa bo'ladi. Og'ir ko'rinishdagi nurlanish kasalligi o'lim bilan tugaydi.

istagan hojating miqdorida va maqsading haddiga muvofiq bo'lsa foydalidir." [3] Demak, barcha ekologik komponentlarni me'yoridagina ishlata olishimiz shart, bu birinchi qonun; ikkinchidan: "...Bulardan hojating doirasida ishlatsang, senga foydalidir. Lekin hojattan ortib ketssa, seni o'ldiradi, mahv etadi, halok qiladi" [3]. Koinotning tabiat borlig'i deb ataladigan qismi o'ziga qo'pol, me'yorsiz, "hojatidan ortig'i" bilan muomala qiladiganlardan albatta o'ch oladi. Mazkur jazzi risolada umumbashariy muammo ko'tarilib, uni hal qilish omillari ham, hartomonlama ko'rsatilgan, degan xulosaga kelishimiz uchun to'la asos bor. Buyuk mutafakkir nazaridan ehtiyojlarining xilma-xilligiga jiddiy e'tibor berilganligini ham, ayniqsa, oqilona ehtiyoj (hojating doirasida – C.H., Q.N.) ga alohida urg'u berilgani tahsinga loyiqdir. Ekologik inqirozlar, ekologik xatolik va tangliklardan qutilishning asosiy yo'li: "...Sen amal qilishing kerak bo'lgan yo'l – ularning miqdor va darajasining salohiyati haqida mulohaza yuritish kerak, undan zaruriy va foydali bo'ladigan miqdorini belgilab, qabul qilib, zarar ko'rsatuvchi va halok etuvchi va halok etuvchi ortiqchasi tashlash kerak" [3]. O'z borlig'ingni asrash uchun eng oldin tabiat borlig'ini asrashing lozim. Sen – inson, butun insoniyat borliq uchun mas'ulсан. Borliq Sening qo'lingda, sening xizmatigda. Tinch okeanidan 6000 tonna chiqindi yig'ishtirib olindi. Tinch okeanini butunlay tozalashga 5 yil vaqt sarflanar ekan. Chiqindilarning ko'pchiligini baliq ovchilarining to'rlari, plastmassa idishlar, bakalashkalar tashkil qilar ekan. Insonning tabiiy ekotizim, ekologik komponent (suv, havo, flora, fauna, dengiz va h.)ga ta'siri antropogen omil deyiladi. Tinch okeani hech qachon o'z-o'zidan iflos bo'lib qolmaydi. Uning ifloslanishining asosiy sababchisi – antropogen ta'sirdir.

Inson tabiat borlig'i komponentlari-ne'matlarining tabiiy-ekologik me'yorini o'rganishi hamda ularga amal qilsagina ekologik inqirozlar ro'y bermaydi. Shu sababli bo'lsa kerak "ilm" kalimasi Qur'oni karimda 758 martadan ortiq kelgan. Inson ilm o'rgansagina bu me'yorlar, ularning uzviy tizimi aniqlanadi.

Pekinda havoning ifloslanish darajasi me'yoridan sakkiz barobarga oshib ketdi. Rasmiy standartlarga ko'ra atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlar miqdori - "jiddiy ifloslanish" darajasiga yetgan. Hammaga ma'lum havoning keskin ifloslanishi eng birinchi asarlari oilalarining yo'qolib ketishiga olib keladi.

Umumbashariy harorat iqlim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Olimlar 2100 yilga boib yoz fasli yarim yil davom etishi mumkinligini bashorat qilishmoqda. Xalqaro meteorologiya tashkiloti (XMT) 2020 yil eng issiq yillardan biri bo'lganini ma'lum qildi. O'rtacha global harorat 14,9 gradusni tashkil etdi, bu XIX asr oxiridagidan 1,20 gradusga ko'proq.

2015 yildan buyon har bir yil tarixdagi eng issiqlari bo'lib kelmoqda. 2011-2020 yillar eng issiq yillar deb tan olindi. Qiyosiy tahlil etilganda 2021 yil dunyo bo'yicha eng issiq yil deb e'tirof etildi. 2022 yil ham issiq yil bo'ldi.

Avvalroq iqlim o'zgarishi oqibatida qishloq xo'jaligining umumiy milliy mahsuldorligi 1960 yillardan buyon 21%ga pasaygani ma'lum bo'ldi. Bunday pasayish so'nggi yetti yil ichidagi mahsuldorlikning o'sishini yo'qotish bilan tengdir, deya ta'kidlaydi olimlar (Dunyo. 21.04.2021). Xalqaro fanlar kengashiga tayanib Tenqrinews xabar berishicha yaqinda o'tkazilgan tadqiqot dunyoning eng boy odamlari va iqlim inqirozi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatib berdi. Kembrij komissiyasini hisobotida ta'kidlanishicha, insoniyat iqlim o'zgarishiga qarshi kurasha olishi uchun dunyo boylari o'zlarining hayot tarzini tubdan o'zgartirishi kerak. Nega? BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyoning eng boy odamlarining 1% kambag'allarning 50%idan ikki barovar ko'p chiqindi tashlaydi. Shuningdek, eng badavlat kishilarning besh foizi 1990 – 2015 yillar oralig'idagi chiqindi gazlarning 37%iga sababchi bo'lgan. Eng boy odamlar "Ular eng ko'p parvoz qiladigan, eng katta mashinalarni boshqaradigan va issiqlik talab qiladigan eng katta uylarda yashaydigan odamlardir. Biz ortiqcha iste'molni kamaytirishimiz va bu ishni tabiatga zarar keltiruvchi elita toifadan boshlashimiz kerak", - dedi tadqiqotning yetakchi mutaxassisi, Sasseks universiteti professori Piter Nyuell. O'z shaxsiy samolyotlari, o'z shaxsiy vaxta, avtomashinalari bir nechta odamga bo'lishi tabiat borlig'iga birday manfiy ta'sir etadi.

Muhokama. "Yashil iqtisodiyot"ning tasnifi BMTning Atrof-muhitni muhofaza qilish dasturi (UNEP) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, "yashil iqtisodiyot" – bu "odamlar farovonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik sinovlar va taqchillikni sezilarli darajada kamaytirish"ga olib keluvchi iqtisodiyotdir"[4]. Haqiqatdan ham, yashil iqtisodiyot shakllanish bosqichida bo'lib, uning asosiy maqsadi barqaror taraqqiyot, uning o'sishini ta'minlash, atrof-muhit muhofazasi, turlar bioxilma-xilligini, ekotizimlar mahsuldorligini saqlash, tabiatga antropogen ta'sirni me'yorlashtirish, ekologik asoslangan texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etishni qo'llashni tarkibiga oladi.

Bizning fikrimizcha, "yashil iqtisodiyot" – tabiat qonunlari asosida iqtisodiyotni boshqarish, ekokomponentlarning imkoniyat chegaralarini inobatga olgan holda, ularning ekologik qiymatlariga putur yetkazmay, tiklanadigan va tiklanmaydigan tabiat zahiralari ko'lamiga rioya qilgan holda iqtisodiy faoliyatni yuritishni tashkil ettirishdir. Tabiat 10 santimetrli gumus qobiq (qatlam) yaratish uchun 2000 yildan - 7000 yil "mehnat" (vaqt sarflaydi) qiladi. Insoniyatning ko'r-kona faoliyati tufayli qanchadan qancha yerlar sho'rlanmoqda. "Ming yil o'qisamu, mendan «nimani bilding», deb so'rasalar, «haddimni bildim» deyman", deb Mavlono Rumiy ta'kidlaganida, u albatta, borliqda hukmron bo'lgan me'yor qonuni nazarga olgan edi. Zero, me'yor –borliqning oltin qonuni. Shuning uchun ham Shams Tabriziying eng sevimli duolari: "Rabbim! Barchamizga haddimizni bilib mulkingda odob bilan yashamog'imizni nasib ayla!" takror va takror aytilgan. Tabiat borlig'idagi barcha jonli-flora (o'simliklar olami), fauna (hayvonot olami), jonsiz tabiat komponentlari me'yorga amal qilib yashaydi. Bu borada Jaloliddin Rumiy shunday yozadilar: "Janobi Haq har narsani mezonni ila berar, hisobsiz, mezonisiz bermas".

Xulosa. Inson tabiat in'omlarisiz aslo yashay olmaydi. Tabiat ne'matlari esa cheksiz, chegarasiz emas. Insoniyat o'z ehtiyoj chegaralarini bilishi, tabiat ne'matlarining imkoniyat chegaralari aniqlash hamda ularga amal qilish davri keldi. Ekologik muammolar davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini joriy etish, "Suvni iqtisod qilish", "tabiat zahiralariidan samarali foydalanish", "yashil maydon", "Yangi O'zbekiston-ma'rifatli jamiyat", "ekologik talab", "ekologik toza mahsulot", "yashil maydon", "yashil fond" kabilarning o'zi ekologiya va iqtisod fanlarining dialektik aloqadorligini bildirib, ishlab chiqarish ekologik asoslangan bo'lsagina, biosferaning funksiyalariga aslo putur yetkazmasligi aniq bo'ldi. Yangi O'zbekiston poydevorini yaratayotgan XXI asr talabasi ekologiya va iqtisod fanlarining ildizidan tortib hozirgi zamonaviy iqtisod asoslarini ham, amaliy ekologiya fani yutuqlari bilan yaqindan tanish bo'lishi shart. Tabiat qonunlarini amalda qo'llashgina yashil iqtisodiyot poydevori bo'la oladi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирининг 2017 йил 25 декабрдаги №777-сонли буйруғи.
2. Дильман В.М. Большие биологические часы. Введение в интегральную медицину. М.: "Знание". 1986. С.182
3. Юсуф Ҳамадоний. Рисола (Фи аннал-кавна мусаххарун лил-инсон). Истамбул, Кўпркли кутубхонаси, Ф.А.Пошо, № 853. 209а – 2126.
4. Навстречу «зеленой» экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности//Штейнер А., Айрис Р., Бэсса С. И др. ЮНЕП/Грид Арендаль, 2011. -С.17.



Fotimaxon TAJIBOYEVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti

F.f.d. prof. D.Rustamov taqrizi asosida

**INGLIZ TILINI O'QITISHDA FILOLOG TALABALARNI MADANIYATLARARO MULOQOT
KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH HOLATI: MUAMMOLAR VA MAVJUD IMKONIYATLAR**

Аннотация

Ingliz tilini oliy ta'lim muassasalarida o'qitishda muhim omillardan biri madaniyatlararo muloqotni shakllantirish hisoblanadi. Ushbu maqolada madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini filolog talabalarda shakllantirish muammolari, imkoniyatlari hamda samaradorligi muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, madaniyat, globallasuv, psixologik omil, ijtimoiy sinf, integratsion aloqa, madaniyatlararo muloqot, monomadaniyat, polietnik jamiyat, polimadaniyat.

**СОСТОЯНИЕ РАЗВИТИЯ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ
СТУДЕНТОВ-ФИЛОЛОГОВ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА: ПРОБЛЕМЫ И ДОСТУПНЫЕ
ВОЗМОЖНОСТИ**

Аннотация

Одним из важных факторов преподавания английского языка в высших учебных заведениях является формирование межкультурной коммуникации. В данной статье рассматриваются проблемы, возможности и эффективность формирования компетенций межкультурного общения у студентов-филологов.

Ключевые слова: Образование, культура, глобализация, психологический фактор, социальный класс, интегративная коммуникация, межкультурная коммуникация, монокультура, полиэтническое общество, поликультура.

**STATUS OF DEVELOPMENT OF INTERCULTURAL COMMUNICATION COMPETENCE OF PHILOLOGY
STUDENTS IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING: PROBLEMS AND AVAILABLE OPPORTUNITIES**

Annotation

One of the important factors in teaching English in higher education institutions is the formation of intercultural communication. This article discusses the problems, possibilities and effectiveness of the formation of intercultural communication competences in philological students.

Key words: Education, culture, globalization, psychological factor, social class, integrative communication, intercultural communication, monoculture, polyethnic society, polyculture.

Kirish. Maqolaning maqsadi madaniyatlararo muloqot yuritish kompetensiyasi tushunchasi o'zi nima va nima uchun u hozirgi kunda xorijiy tillarni o'qitishning ajralmas bir qismiga aylangani sabablarini ilmiy asoslab berish hamda mazkur kompetensiyani shakllantirish uchun qo'llaniladigan metodlardan biri bilan tanishtirishdir. Buning uchun maqolada dastlab muammoning dolzarbligi asoslab berildi va bu jarayonni paydo bo'lish sabablarini yoritish maqsadida chet tillarni o'qitish metodikasi tarixiga nazar solinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta'limning globallasuvi sharoitida talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishga doir mazkur tadqiqot ishining o'rganilganlik darajasini uch qismga – G'arb mamlakatlarida, MDH mamlakatlarida va O'zbekistonda o'rganilishi kebi qismlarni bo'lish maqsadga muvofiq bo'ladi.

G'arbda madaniyatlararo muloqot va madaniy munosabatlar jarayonining ilmiy- pedagogik jihatlarini D.Grin, M.Li, R.Skollan, D.Feilds, G.Blanchard, I.Bender, N.Jekson, H.Land, J.Metyusits, F.Roubin, J.Spendolini, M.Zairiy, D.Hens, S.Marginson, M.Vende, Z.Sarigil, E.Karakoch, A.Robinsonkabi olimlarning tadqiqot ishlarida tahlil qilingan [1-3].

MDH davlatlarida madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish muammosi L.Poleshchuk, N.Shvits, B.Turebaeva,

A.Aksentev, Yu.Antonyan, M.Davitadze, L.Maksakova, V.Petrishev, P.Polyan, V.Remarchuk, Ye.Stepanov, A.Taksanov, V.Tishkov, V.Shapovalov kabi olimlar tomonidan o'rganilgan [4-6].

O'zbekistonda madaniyatlararo muloqot jarayonining ilmiy-pedagogik, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jihatlarini Z.Azimova, O.Musurmonova, D.Ro'zieva, Z.Salieva, B.Xodjaev, M.Quronov, T.Egamberdieva, N.Egamberdieva kabi oltimlar tomonidan o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mamlakatimizda madaniyatlararo muloqotda tolerantlikni rivojlantirish uchun turli mamlakatlarning madaniy markazlari bilan hamkorlikda yoki ko'plab mamlakatlarning loyihalari asosida ta'limiy yoki madaniy tadbirlar muntazam tashkil etib kelinadi. Jumladan, Innovatsi vazirligi Britaniya Kengashining «Creative Spark» loyihasida mamlakatimiz universitetlarida ta'lim olayotgan talabalarga ushbu xalqaro tadbirda qatnashishi uchun imkoniyat yaratdi. «Creative Spark» Buyuk Britaniya hamda Markaziy Osiyo davlatlarining universitetlari, ta'lim muassasalari o'rtasida faol tadbirkorlik sohasini rivojlantirish bo'yicha xalqaro aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan besh yillik dastur bo'lib, talabalarda faol tadbirkorlik va tashabbuskorlik ko'nikmalarini shakllantirgan holda jamiyatni kreativ rivojlantirishga hissa qo'shishni asosiy maqsad qilib olgan.

«Kreativ iqtisod yurtimiz uchun yangilik bo'lgani bois bu ko'nikmalarni mahalliy oliy ta'lim muassasalari talabalari ichida keng targ'ib qilishda Innovatsion rivojlanish vazirligi yaqindan ko'mak berish barobarida treninglar, o'quv va amaliy mashg'ulotlar, mahorat darslari o'tkazishda ko'mak beradi. Talabalar darslarda faol tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun amaliy ko'nikmalarni qo'lga kiritib, kelgusida yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy ravnaqiga o'z hissalarini qo'shishi maqsad qilingan. Loyiha davomida «London Metropolitan University» xodimlari va hamkor tashkilotlar mutaxassislari tomonidan faol tadbirkorlik loyihalarini tayyorlash bo'yicha treninglar tashkil etildi. Treninglarda faol qatnashgan talabalar o'z startup loyihalarini maxsus komissiyaga taqdim etadilar. Mana shunday tadbirlarda madaniyatlararo muloqotni yaxshi tashkil etilganligi, yoshlarda madaniy munosabatlarga tolerantlik shakllanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda mamlakatlar o'rtasidagi madaniy tadbirlarning ham bosh maqsadi madaniy qadriyatlar almashinuviga erishish bilan birga madaniyatlararo muloqot va munosabatlarni iliqlashtirish, yaxshilash va yaqinlashtirish hisoblanadi. Mana shunday jarayonda har bir mamlakat yoshlarining madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirish muhim ahamiya tkasb etadi.

Xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan akademik almashinuv va tadqiqot olib borish dasturlari bo'yicha xalqaro hamkorlik oliy ta'limni baynalmilallashtirish muvaffaqiyati hisoblanadi. Bu borada Tempus, Erasmus Mundus, Germaniya akademik almashinuv xizmati (DAAD), Britaniya konsulligi, Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) va boshqalar bilan arzigulik ishlar amalga oshirildi. Mazkur dasturlar bo'yicha 2022-2023 o'quv yilida 400 dan ortiq talabalar, aspirantlar xorijda o'qishgan bo'lsa, 450 dan ortiq professor – o'qituvchilar xorijda malaka oshirib qaytishdi. Bu esa 2021-2022 o'quv yili-ga nisbatan bu yo'nalish bo'yicha talabalarning 35% ga, professor-o'qituvchilar 63% ga oshgan-ligini ko'rsatadi. Ta'lim sohasidagi xalqaro munosabatlarning rivojlanishi xalqaro ilmiy tadqiqot markazlari va fondlari tomonidan moliyalashtirish natijasidir. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining xorijiy ilmiy tadqiqot markazlari va fondlari hisobidan olingan grantlar miqdori oliy ta'lim muassasalarining ilmiy-tadqiqiy faoliyatlarini moliyalashtirish umumiy qiymatining 27,8%ini tashkil etadi.

Tahlil va natijalar. Biz oliy ta'lim xalqarolashuviga transnatsional ta'lim deb atash haqidagi P. Lutfullaevning fikrlari baxsli deb hisoblaymiz. Shu ma'noda mamlakatimizdagi Toshkent Xalqaro Vestminster universiteti, Moskva davlat universitetining Toshkent, Singapur menejment instituti filiallari, Turin politexnika universitetini transnatsional ta'limga yaqqol misol bo'la olmaydi. Transnatsional ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra kengmiqyosli, ta'lim xizmatini bir davlatga emas, balki bir qator dunyo davlatlariga ko'rsatishini nazarda tutiladi. Shunday qilib, ta'lim tizimi biznesning ommaviy shakliga aylanib oliy ta'lim dunyo mamlakatlariga yuksak ta'lim servisini ko'rsata boshladi.

Dunyoda mamlakatlar ijtimoiy taraqqiyotida va iqtisodiy barqarorligida sifatli oliy ta'limning o'rni tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda jahon hamjamiyati oliy ta'limga katta umid bog'lab, ulardan iqtisodiyotning o'sishi va bilimlar jamiyatining shakllanishiga yordam beruvchi keng ko'lamli vazifalarni amalga oshirishni talab qilmoqda. An'anaviy ta'lim, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyati bilan bir qatorda oliy o'quv yurtlari mamlakat taraqqiyotida keng ishtirok etishga hamda intellektual va innovatsion salohiyatining uzluksiz o'sishini ta'minlashga chaqirilmogda.

Ta'limning globallashuvi sharoitida ko'plab mamlakatlarda oliy ta'lim mazmunini xalqaro darajaga ko'tarish, modulli ta'limni tashkil etish, o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish asosida bo'lajak mutaxassislarning kompetentligini takomillashtirish masalalari alohida e'tibor qaratmogda. Jumladan, «Oliy ta'limning Yevropa maydoni» kabi integratsion jarayonlar va harakatlarning paydo bo'lishi hozirgi vaqtda oliy ta'lim bir mamlakat doirasida rivojlana olmasligini ko'rsatmogda. Shuningdek, YuNESKOning oliy ta'limni yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha olib borgan ishlari jamlanib, «Oliy ta'lim: tajriba saboqlari» bayonotida daromad darajasi o'rtacha bo'lgan davlatlarda ta'limga investitsiyani oshirish, talabalar almashinuvini yo'lga qo'yish, boshqa davlatlardan o'qishni istaganlar uchun sharnoma asosida ta'lim olish imkloniyatini yaratish katta samara berishini ilgari surgan holda, eng asosiysi, oliy ta'limga mablag'larni investitsiya qilish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar zarurligi ham e'tirof qilindi. Unda mamlakatlarni har tomonlama rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish uchun oliy ta'limning ahamiyatini butun tafsilotlari bilan ko'rib chiqilgan va tadqiqot institutlari tomonidan taklif qilinayotgan ta'lim strategiyalarini tajribadan o'tkazish zarurati alohida ta'kidlangan. Mazkur bayonotda asosiy e'tibor jahon darajasidagi OTMlarni barpo qilish, oliy ta'limning raqobatbardoshligini kengaytirish va global ta'lim muhitni yaratish mamlakatni rivojlantirishga ta'siri masalalariga qaratilgan. Jahonning eng yaxshi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatida yetakchi o'rinni egallashga intilgan turli mamlakat hukumatlari va akademik doiralari zamonaviy dunyoda ta'limning maqsadi va o'rni haqida yangi tasavvurlarni ishlab chiqishga harakat qila boshladilar. Bugungi kunda ayrim mamlakatlar ta'lim tizimi faqat mahalliy yoki milliy manfaatlariga xizmat qilishlaridan qoniqish his qilmayotganligini ta'qidlashga o'tmogdalar. Oliy ta'limning rivojlanishi uchun ularni qiyoslash imkloniyatini beruvchi indikatorlar borgan sayin ko'proq ahamiyat kasb etmogda. Hozirda jahon miqyosidagi OTMlar – nafaqat sifatli ta'lim beruvchi, intellekt va madaniyatni rivojlantiruvchi oliy o'quv yurtlari – ular g'urur va iftixor manbaiga aylandi, chunki mamlakatlar o'z o'quv muassasalari statusini boshqa davlatlarniki bilan solishtirib baholaydilar [5].

O'tgan o'n yillikda «global ta'lim muassasalari» atamasi nafaqat o'qitish va ilmiy tadqiqotlar sifatini oshirish uchun, balki eng muhimi, o'zlashtirish, moslashtirish va global ta'lim bozorida talabalar almashinuvini kengaytirish uchun iboraga aylandi. Jahon miqyosidagi OTMlarning paradoksi shundan iboratki, «har kim bunday ta'lim muassasalarini yaratishni xohlaydi, ammo hech kim uning nima ekanligini va qanday qilib unga tashkil etish mumkinligini bilmaydi». Hozirda yoshlar o'zlari uchun iqtisodiy jihatdan qulay bo'lgan eng yaxshi o'quv yurtlariga o'qishga kirishga intilmogda, hukumatlar esa ta'lim muassasalariga kiritgan sarmoyalari daromadlarini maksimal darajada oshirishga intilmogda. Buning uchun esa, eng samarali yo'l xalqaro miqyosida ta'lim grantlarini ishlab chiqish va chet davlatlardan ko'proq talabalar kelishiga va ta'lim olishiga erishish hisoblanadi.

Ta'limning globallashuvi natijasida oliy ta'lim muassasalari «ilm-fan asosi» va «umumiy madaniyat muassasalariga» aylanmogda. Yangicha yondashuvlarga ko'ra, oliy ta'lim shakli o'z legitimligini ta'lim olish va tadqiqot, jarayon va natija, institutsionallik va individuallik sintezini amalga oshiruvchi madaniyatdan oladi. Shu bilan birga ta'limning globallashuvi mamlakatlar uchun madaniyatlararo munosabatlarni, qarama-qarshiliklar yuzaga keladigan, to'qnashadigan maydonga ham aylanmogda. Shunday ekan,

bugungi kunda oliygohlar jiddiy chaqiriqlarga duch kelmoqda: ta'limni ommaviylashtirish; ilm-fan va ta'limni tijoratlashtirish va xususiylashtirish; ta'limda xizmat ko'rsatish bozorini globalashtirish kabilarni kiritish mumkin. Ta'limni ommaviylashtirish oldin o'rta ta'lim tizimidagi ta'lim inqilobi natijasida ro'y bergan bo'lsa, keyinchalik esa u oliy ta'lim tizimiga tarqaldi. Ta'lim inqilobi ta'limning barcha darajasida talabalar sonining mislsiz kengayishini anglatadi. U har bir oliygoh o'qituvchisiga to'g'ri keladigan talabalar sonining oshishiga olib keldi va ta'lim muassasalari ichidagi shaxslararo kommunikatsiyani jiddiy ravishda qiyinlashtirdi [6].

Ta'limning globalashuvi sharoitida oliy ta'lim muassasalarining maqomi. Bugungi kunda «akademik globalashuv» natijasida oliy ta'lim muassasalari chet davlatlardan kelayotgan shartnoma asosida tahsil olayotgan talabalar uchun kurashda faol ishtirok etishga undamoqda. Yangi raqobat muhitida oliy ta'lim muassasalari tomonidan o'rnatilgan tartibga solishning yangi mexanizmlarini o'rganishdan oldin, mavjud tartibga solish tizimining xususiyatlarini va uni isloh qilishning sabablarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ta'limning globalashuvi sharoitida chet mamlakatlarda ta'lim olish ancha osonlashdi. Bu esa global talaba almashinuvi va hamkorlik aloqalarining kengayishiga imkoniyatlarni kengaytirdi.

Bu esa, madaniy munosabatlarning kengayishi, madaniyatlararo muloqotga kirishishda talabalarda ma'lum bir ko'nikmalarni shakllantirish zarurati yuzaga keldi. Shu bilan birga ko'plab davlatlarda xorijda ta'lim olish uchun talabalarni qo'llab-quvvatlashga oid grantlar va moddiy rahbatlantirish ishlari moliyalashtirilmoqda. Xorijda o'qish uchun moliyalashtirishdan foydalanish imkoniyatini kengaytirib borish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. Skandinaviya mamlakatlari, Avstriya, Gresiya va Gollandiyada xorijda daraja olish bo'yicha to'liq dasturni o'qiyotganlar uchun talabalarga yordam tizimi joriy etildi yoki joriy etilmoqda. Flandriyada e'tirof etilgan Gollandiya oliy ta'lim muassasalari tomonidan taklif etilayotgan dasturlar bo'yicha davlat ko'magini olish imkoniyati mavjud.

Xulosa va takliflar. Turli madaniyat vakillari orasidagi o'zaro aloqa, muloqot bo'lib, unda kishilar o'rtasidagi bilvosita aloqa, shuningdek, kommunikatsiyaning bilvosita shakli (til, nutq, yozuv, elektron muloqot) madaniyatlararo muloqot sanalishi kelib chiqdi.

Madaniyatlararo muloqot jarayoniga madaniyat farqlari bilan birga, muloqotchilarning yoshi, jinsi, kasbi, va ijtimoiy maqomi, shuningdek, uning sabr- bardoshi, uddaburonligi va shaxsiy tajribasi ham ta'sir ko'rsatadi.

Madaniyatlar o'rtasidagi aloqa madaniyat va submadaniyat shaklida namoyon bo'ladi. Bugungi sharoitda madaniyat aloqalar inson hayotining turli sohalaridap – turizm, sport, shaxsiy aloqalar va ta'limning loballashuvi natijasida talabalar almashinuvi natijasida namoyon bo'lmoqda.

Madaniyatlararo aloqalarda, ayniqsa, ko'pmillatli davlatlar ichida bir paytning o'zida etnik tarkibni boshqaradigan ma'muriy-davlat shakllariga ega bo'lgan va bunday shakllarga ega bo'lmagan katta va mayda millatlar ishtirok etadi. Bunda son jihatdan ko'pchilikni tashkil etadigan va madaniy jihatdan shakllangan xalqlar mayda millatlarga nisbatan o'zaro aloqa jarayoniga ko'proq ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Jahondagi tarixiy jarayonlarda azaldan bir-biriga zid, ammo bir-birini taqozo etgan va teng asosga ega ikki mayl – bir tomondan, madaniyatlararo muloqotga, yaqin munosabatlarga intilishi, ikkinchi tomondan, ularning etnomadaniy o'ziga xosligini saqlashga, tashqi ta'sirdan himoyalashga intilish xos bo'lgan. Ammo bizning davrimizda bu an'analar ziddiyatli ko'rinish kasb etayotgani bilan xatarliliigi kelib chiqmoqda.

Bugungi kunda har bir millatlar hayotida «multimadaniyat», «polietniklik», «monomadaniyat» va «polimadaniyat», «madaniyatlararo dialog» kabi jarayonlar kechayotgan bir vaziyatda madaniyatlararo muloqotda qarama-qarshiliklar, tushunmovchiliklar, manfaatlar to'qnashuvi va boshqa ziddiyatlarning paydo bo'lmasligini hech kim kafolatlay olmasligi ma'lum bo'lmoqda.

Madaniyatlararo muloqot makromadaniyat va mikromadaniyat darajalariga ajratiladi. Makromadaniyatlar ham o'z navbatida submadaniyatlardan, ya'ni ma'lum jamiyat ichidagi o'ziga xos madaniy xususiyatlariga ega bo'lgan turli ijtimoiy guruhlar madaniyatidan tarkib topadi. Bunday madaniyatga mikromadaniyat deyiladi.

Mamlakatlar o'rtasidagi madaniy tadbirlarning ham bosh maqsadi madaniy qadriyatlar almashinuviga erishish bilan birga madaniyatlararo muloqot va munosabatlarni iliqlashtirish, yaxshilash va yaqinlashtirish hisoblanadi. Mana shunday jarayonda har bir mamlakat yoshlarining madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'limning rivojlanishi uchun ularni qiyoslash imkoniyatini beruvchi indikatorlar borgan sayin ko'proq ahamiyat kasb etmoqda. Hozirda jahon miqyosidagi OTMlar – nafaqat sifatli ta'lim beruvchi, intellekt va madaniyatni rivojlantiruvchi oliy o'quv yurtlari – ular g'urur va iftixor manbaiga aylandi.

ADABIYOTLAR

1. Davletov S. Ta'lim xizmati eksporti – oliy ta'limni baynalmilallashtirish omili. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. 2013. №6. –B. 3.
2. Talabamisiz? Unda o'z startapingiz bilan «Creative Spark» dasturida qatnashishingiz mumkin. 2019, 17 yanvar. Kun.uz., O'zbekiston.
3. OTMning asosiy faoliyati (2010-2011 o'quv yili bo'yicha ko'rsatkichlar) OO'MTV statistik to'plami. – Toshkent.: 2011. – B.129
4. Bayram M. Oliy o'quv yurtlarida madaniyat va tillarni o'rganish. Klivdon: Multilingual Matters Ltd. 1994 yil.
5. Jigarrang X. Duglas. Til o'rganish va o'qitish tamoyillari (4-nashr). Oq tekisliklar: Pearson ta'limi. 2020.
6. Canale, M. & M.Swain. Ikkinchi tilni o'rgatish va tekshirishda kommunikativ yondashuvlarning nazariy asoslari. Amaliy tilshunoslik, 1, 2020.
7. Minyar-Beloruhev R.K. Tarjimaning umumiy nazariyasi va og'zaki tarjima.– M.: Voenizdat, 2010. – 237 b.
8. Minyar-Beloruhev R.K. Tarjima qilish uchun qo'llanma. (Yozuvlar ketma-ket tarjimada). -M.: Oliy maktab, 2019. – 190 b.
9. Pogorelov E.V. Tarjimonlik kursini qurish tajribasi // Ilmiy ishlar to'plami: Jil. 203 Ingliz tili tarjimasini o'qitish muammolari, MGPIYA, -M.: 2012. – B. 103-111.



Ithom TAIROV,
Fergana State University Senior lecturer, doctor of philosophy (PhD)
E-mail: i_tairov@mail.ru

Under the review professor, DsC of NamECI M.I. Ismoilov

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF UZBEKISTAN IN THE DEVELOPMENT OF CIVILIZATION

Annotation

This article examines the specific characteristics of Uzbekistan in the development of civilization from a socio-philosophical point of view. The article also reveals the conceptual basis of using the system of values and concepts formed about the integrity of the civilizational approach to global development in the study of existing civilizational and cultural problems in the new stage of development of Uzbekistan.

Key words: Civilization, "world civilization", "Eastern civilization", "Western civilization", culture, National and religious values, globalization.

СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ УЗБЕКИСТАНА В РАЗВИТИИ ЦИВИЛИЗАЦИИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются специфические характеристики Узбекистана в развитии цивилизации с социально-философской точки зрения. В статье также раскрываются концептуальные основы использования сформировавшейся системы ценностей и представлений о целостности цивилизационного подхода к глобальному развитию при изучении существующих цивилизационных и культурных проблем на новом этапе развития Узбекистана.

Ключевые слова: Цивилизация, "мировая цивилизация", "восточная цивилизация", "Западная цивилизация", культура, национальные и религиозные ценности, глобализация.

O'ZBEKISTONNING SIVILIZATSIYA RIVOJIDAGI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistonning sivilizatsiya taraqqiyotidagi o'ziga xos xususiyatlari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan ko'rib chiqilgan. Maqolada, shuningdek, O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida mavjud sivilizatsiya va madaniy muammolarni o'rganishda global taraqqiyotga sivilizatsiyaviy yondashuvning yaxlitligi to'g'risida shakllangan qadriyatlar va tushunchalar tizimidan foydalanishning kontseptual asoslari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Sivilizatsiya, «jahon sivilizatsiyasi», «Sharq sivilizatsiyasi», «G'arb sivilizatsiyasi», madaniyat, Milliy va diniy qadriyatlar, globallashuv.

Introduction. Globally, scientific interest in learning the formation, essence, and development of civilization as a global phenomenon, the determinants of its emergence, and the place of national subjects in world civilization is increasing. It is important to study the trend of the civilizational development process of Uzbekistan, to educate members of society, first of all, the young generation, in the spirit of respect for the great national history, national values, national heritage, love, and loyalty to the Motherland.

George Washington University, Center of scientific researches of Central Asia (USA), Peace Research Institute Frankfurt, Center of Scientific investigation of Civil Society (Germany), Center International investergate of Oxford University, School of Culture, religions and polity in Asia (UK), University of Western Ontario (Canada) the Institute of Central Asia (France) and the Institute of International Relations (Sweden) are conducting extensive fundamental research on the socio-philosophical nature of civilization.

Research objects and methods. The object of this research is the characteristics and trends of the historical development process of the civilization and culture of Uzbekistan, as well as the nature of their manifestation in the process of changing modern society.

The subject of this research is the mutual synthesis of social factors and opportunities for the civilizational development of Uzbekistan. In this study, the methods of analysis and synthesis of dialectics, historicity and logic, civilizational, systematic, synergistic, and axiological approaches were used.

Literature review. The problems of civilization in world science were researched by the great scholars in the East. Ibn Khaldun, a sociologist, economist and historian, called civilization «Umran» and considered its development depending on the creation of cities, changes in lifestyle, people's needs, and their migration. Beruni, another encyclopedist of the East, organized the development of civilization in the context of history, that is, from the point of view of geographical determinism.

Since the 18th century, the familiar theories of civilization were created by such researchers as M. Montaigne, L. Morgan, F. Engels, O. Spengler, K. Jaspers, A. Toynbee, N. Danilevsky, B. Gubman, A. Gumilev, I. Tatarkevich, S. Huntington, F. Brodel. They made a great contribution to the development of the theory of civilization, striving to analyze the essence of civilization from a religious-idealistic point of view and to reveal the mechanisms of the realization of civilization.

At the end of the 20th century and the beginning of the 21st century, the increase in various global threats led to the increased attention of scientists to the problems of studying the process of civilization. In particular, the famous American philosopher and sociologist Alvin Toffler divided the period of development of world civilization into three stages: agrarian civilization, industrial civilization, and the third stage he called informational civilization (informed society).

Important socio-political changes at the end of the 20th century led to an increase in the study of the problem of civilization based on the advanced paradigm. The restoration of the foundations of national statehood, the widespread introduction of spiritual values among the masses, the need to continue the advanced traditions of the great ancestors, and the creation of a civilized society have determined the need for an objective study of civilization as an urgent problem.

Scientists from 50 countries and international organizations participated in the international conference held in Samarkand in 2014. At the conference, the First President of Uzbekistan, Islam Karimov, spoke about the historical heritage of medieval Eastern scholars and sages, and their role and importance in the development of modern civilization.

The ancient Roman sage, Tacitus, understood culture as a resistance to barbarism. Following the footsteps of Cicero, Tacitus understood culture as «humanization» related to the organization of the world and life, as a system of spiritual and adaptive unity of man with the world.

The great sages of the East, Beruni, and Ibn Khaldun, considered civilization in the context of the development of cities, lifestyle changes, the development of people's needs, and the historical process. During the European Renaissance, a doctrine of humanistic culture emerged. In the new era, English philosopher Bacon, contrary to religious views, believed that culture is the result of human mental activity. According to him, culture arises from human interactions with nature, and science and art are the main elements of culture.

E.Kant was the first to define the concepts of culture and civilization in the history of social thought. The concept of «civilization» was first used by the French scholar M. Montaigne. For him, civilization is a society based on justice. F.Engels viewed civilization as the existence of human labor based on the transition from barbarism to human society. F. Nietzsche defines civilization as the rule of strength, intelligence and productivity[3]. O. Spengler distinguished seven civilizations, A. Toynbee described twenty one civilizations.

Obektiv reallik, yani tashqi olam, turli xil narsalar, xodisalarning ma'lum xossalari, issiq- sovuqligi, sho'r va chuchukligi bilan sezgi o'rganlarimizga, terimizda joylashgan nerevlarga, ta'mi bilan tilimizga, xidi bilan burnimizga, rangi bilan ko'zimizga, ovozi qulog'imizga ta'sir etib, shu organlarda joylashgan nervflar orqali bosh miyyaga borib yetadi, natijada predmetlarning xossalari to'g'risida bilim paydo bo'ladi, ularning obrazlari vujudga keladi. [4]

Xulosa va yechimi. Xulosa qilib aytganda, har qanday inson uchun bilimning manbasi uning sezgisidir. Sababi inson birinchi va boshlang'ich bilimlarni sezgidan oladi. Insonning boshqa hamma bilimlari shu birinchi boshlang'ich bilimi asosida vujudga keladi.

Bu tabiiydir chunki odamni olam bilan bog'lovchi, undagi predmet va xodisalar to'g'risidagi tasavvur xosil qiluvchi sezgilar asosan besh turlidir: ko'rish, eshitish, ta'm-maza sezish, xid sezish, teri sezgisi. Sezishning boshqa turlari esa shu asosiy besh sezgidan kelib chiqadi yoki ularni to'ldiradi. Umuman olganda sezgi murakkab nerv sistemasi

bilan bog'liq. U miyya vazifasi bilan bog'liq ekanligini hozirgi zamon biologiya fani isbotladi. Tash buyumlar inson ongi orqaligina sezgiga aylanan ekan. Demak, xulosa qilib aytak, sezgi obektiv borliqning subektiv obrazidir. Sezgiga nisbatan murakkabroq psixik jarayon idrok deb ataladi.

Idrok sezish asosida vujudga keladi. Idrokni sezishdan farqi shundaki, unda predmetlarning ayrim xossalari emas, balki predmet butun xolda aks ettiriladi. Masalan: biror bir agregatni, inshoatni idrok etadigan bo'lsak biz uning faqat ko'rinishini rangi yoki katta kichikligi kabi biror bir xislatini, xususiyatini aks ettirmasdan balki shu agregat, inshoatni bir butun obrazini o'z ongimizda xosil qilamiz.

Tashqi ta'sir natijasida vujudga kelgan nerv va miyya qobig'ining ma'lum qismidagi qo'zg'alish sezish, idrok ma'lum davrgacha o'z-o'zini qoldiradi. Shu izlarga asoslanganxolda inson ilgari idrok etgan predmetlarni o'z miyyasida qayta ishlab tiklashi mumkin. Masalan: avval ko'rgan predmetni (delani, odamni) qiyofasini, biror bir voqeani sodir bo'lish jarayonini va hokozi. Bunday qayta

ishlab tiklangan obraz tasavvur deb ataladi. Demak tasavvur predmetlarning miyyada qolgan obrazlarining tiklanishi, obrazli xotira, obrazlarda eslashdir. Tasavvur bilimlarni saqlash va mustaxkamlash uchun xizmat qilish bilan birga, narsa va hodisalarning xususiyatlarini bilib olishda ham muayyan ro'l o'ynaydi.

Ulardan tashqari tasavvurning yana o'ziga xos xususiyatlari ham bor. Bu xususiyatlar ining mavhum tafakkurga, bilishning oliy bosqichiga yaqin turganini ko'rsatadi.

Hissiy bilish to'g'risida gap yuritganda uning yana bir shakli to'g'risida aytib o'tish zarur. U ham bo'lsa hissiyotdir. Hissiyot kishining atrofidagi narsalarga, bilishga va shu kabilarga munosabatini ko'rsatadi. Bu emotsiya shakli deb ham yuritiladi. Har qanday kishi narsalar va hodisalardan o'zining ichki kechinmalardan xursand bo'ladi yoki xafa bo'ladi, uyaladi yoki g'ururlanadi va xokozi. Demak, hissiyot inson hissiy bilishining sezgi, idrok ta'savurlariga nisbatan murakkab shaklidir.

ADABIYOTLAR

1. Nishonovich, T. B., & Axtamo vich, I. S. (2023). EKOLOGIK TURIZM: ASOSIY TAMOYILLAR VA O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY KAFOLATLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 33(4), 98-102.
2. Tursunov, B. N., Tursonov, B., Valixonova, G., Nozima, M., Nasibjon, K., Badalboyeva, I., ... & Muhammadraxim, K. (2023). O'zbekistonda innovatsion faoliyatida fan va ta'limning rivojlanishi. Science Promotion, 1(1), 106-117.
3. Tursunov, B. N., Tursonov, B., Valixonova, G., Nozima, M., Nasibjon, K., Badalboyeva, I., ... & Muhammadraxim, K. (2023). O'zbekiston integratsiya jarayonida yoshlarning innovatsion ta'lim tizimining o'rni va ahamiyati. Science Promotion, 1(1), 78-91.
4. Tursunov, B. N., Tursonov, B., Valixonova, G., Nozima, M., Nasibjon, K., Badalboyeva, I., ... & Muhammadraxim, K. (2023). Globallashuv jarayonida internet tarixi, o'rni va ahamiyati. HOLDERS OF REASON, 1(1), 238-247.
5. Turaboeva, Y. R. (2023, September). SECRETS HIDDEN IN WOMEN'S JEWELRY. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 89-92).
6. Rustamjonovna, T. Y. (2023). Semantics In Uzbek Women's Jewelry. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(6), 226-230.
7. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Т., 1993 Madina, K., Sulstonov, T. A., ZG'offorov, T. Y., Mo'ydinov, X., & Ahmedova, U. (2023). Yangi Konstitutsiya-taraqqiyot qomusi. HOLDERS OF REASON, 1(1), 395-402.
8. Madina, K., Sulstonov, T. A., ZG'offorov, T. Y., Mo'ydinov, X., & Ahmedova, U. (2023). Islohotlarning axloqiy jihatlari va jamiyatga tasiri. HOLDERS OF REASON, 1(1), 498-508.
9. Madina, K., Sulstonov, T. A., ZG'offorov, T. Y., Mo'ydinov, X., & Ahmedova, U. (2023). XOLCHAYON SAROYI QO'RIQLANISHGA MUHTOJ. HOLDERS OF REASON, 1(1), 350-361.
10. Mo'ydinov, X., Madina, K., Sulstonov, T. A., ZG'offorov, T. Y., & Ahmedova, U. (2023). Qadriyatlar inson ma'naviy kamolotining muhim omili. HOLDERS OF REASON, 1(1), 475-484.
11. Mo'ydinov, X., Ahmedova, U., Madina, K., Sulstonov, T. A., & ZG'offorov, T. Y. (2023). Axloqiy qadiryat ijtimoiy-ma'daniy xodisa sifatida. HOLDERS OF REASON, 1(1), 509-525.



UDK:372.8

Shahnoza UMAROVA,
Toshkent amaliy fanlar universiteti o'qituvchisi
E-mail: umarova@gmail.com

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent A.Parmanov taqrizi asosida

THE METHODS OF GROWING NATIONAL PRIDE IN STUDENTS

Annotation

In this article, the use of pedagogical technology in the classroom, interactive methods and educational games in primary school, the use of modern information and communication technologies in teaching elementary education in primary school helps students to think independently, creative research and logical thinking. Along with the expansion, ideas articulated that help them relate what they learn in the lessons to life, increasing their interest.

Key words: Audio-visual active citizenship position, responsibility, obligation, legal awareness and culture, deep worldview, healthy faith, enlightenment, tolerance, moral, ideological, sophistication education.

O'QUVCHILARDA MILLIY G'URURNI O'STIRISH USULLARI

Аннотация

Maqolada boshlang'ich sinflarda tarbiya fanini o'qitish orqali o'qituvchilarda milliy g'ururni rivojlantirishda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganishlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradigan usul va vositalardan foydalanish haqida muhim xulosaviy fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Audio-vizualliy faol fuqarolik pozitsiyasi, mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik, ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi.

МЕТОДЫ ВОЗРАСТАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ГОРДОСТИ У СТУДЕНТОВ

Аннотация

В статье использование интерактивных методов и обучающих игр, современных информационно-коммуникационных технологий в развитии у учителей национальной гордости при преподавании педагогической науки в начальных классах позволяет учащимся мыслить самостоятельно, расширяя при этом объем творческих исследований и логических мышление, важные заключительные замечания об использовании методов и средств, которые омогают им связать изученное на занятиях с жизнью и повысить интерес.

Ключевые слова: Аудиовизуальная активная гражданская позиция, ответственность, обязанность, правосознание и культура, глубокое мировоззрение, здоровая вера, просвещение, толерантность, нравственное, идеологическое, образованное образование.

Kirish. "Tarbiya" fani O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 2020-2021-o'quv yilidan boshlab joriy qilindi. Ushbu fan Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining bir qismi sifatida o'quvchilarda "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" g'oyasini singdirish, ularni ijtimoiy muvaffaqiyatli hayotga tayyorlash, faol fuqarolik pozitsiyasi, mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik kabi fazilatlarini shakllantirishni maqsad qilib qo'ygan. Inson jamiyatda farovon yashashi uchun u yaxshi ta'lim-tarbiya korgan bo'lishi kerak. Zero, yurtboshimiz ham "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", deya ta'kidlaydilar. Tarbiya fanini o'qitishda didaktik o'yinlardan, interfaol usullardan foydalanish ta'lim jarayonida o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiya fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish quyidagilarni tashkil qiladi: Birinchidan, o'qituvchilar o'quvchilar bilan muhokama qilish va ulardan o'quv usullarining samarali ishlayotganini o'rganish orqali foydalanishlari tavsiya etiladi. O'quvchilarning qanday o'rganishganlarini bilish va ulardan ma'naviyatli foydalanishga intilish yordam beradi. Ikkinchidan, kompyuter texnologiyalari, internet va multimedia resurslaridan qoniqarli foydalanish, o'quvchilarni interaktiv ta'lim jarayonida qatnashish va ularni yangi ma'lumotlarga o'zlashtirishga imkoniyat yaratadi. Uchinchidan, o'quvchilarning o'z o'zlarini o'rganish va o'qish usullarini boshqarishga imkon beruvchi mudhish-fan metodikasi ishlatish tavsiya etiladi. Bu, o'quvchilarni o'zlashtirish va o'rganishga qo'shimcha ta'sir qiladi. To'rtinchidan, o'quvchilarni amaliyotlar yaratishga va o'quv materialini amaliyotlar orqali o'rganishga rag'batlantirish yordamida ta'limning ko'proq interaktiv va amaliy usulga o'tkazilishi taqdim etiladi. Beshinchidan, o'quvchilar orasida jamoaviy va guruh ishlashni ta'lim jarayonida qo'llash yordamida ularni bir-birlari bilan o'z fikrlarini o'zlashtirish va o'rganishni oshirishga yordam beradi.

Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, aqliy, ruhiy, axloqiy va ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida qo'llaniladigan chora-tadbirlar majmuasi tarbiyani tashkil qiladi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayliga bir avloddan boshqa avlodga o'tadi. Zamonaviy o'quv dasturlari va qo'llanmalardan foydalanish, o'quv materialini tartibga solish va o'quvchilarning mustaqil o'rganishiga qo'shimcha yordam beradi. Takomillashtirilgan tarbiya fanini o'qitish metodikasi o'quvchilarni o'z fikrlarini ifodalash, tahlil qilish, kreativ fikrlash va jamoaviy ishlashga rag'batlantiradi. Bu esa ularni mustaqil, fikriy va jamiyatga foydali fuqarolar sifatida tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik adabiyotlarda “tarbiya” atamasi keng va tor ma'nolarda qo'llaniladi. Keng ma'noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar va intilishlar yig'indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g'oyalari va san'atning barcha turlarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot ham kiradi. Tor ma'noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi va estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Bunda oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari tarbiya ishini amalga oshiradi.

Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki, ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki, axloqiy-ma'naviy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi.

“Tarbiya” fani amaldagi quyidagi fanlarni qo'shish hisobiga tashkil etildi: Buning natijasida yangi fan shakllantirildi. Ushbu “Tarbiya” fanining metodologik asoslarini quyidagilar tashkil etadi. Mazkur fanni o'zlashtirish va uni o'qitishning metodikasini takomillashtirish zaruriyati quyidagilar bilan belgilanadi. Fanning asoslarini chuqur bilish; fanni o'qitishning ilg'or va zamonaviy pedagogik, innovatsion hamda axborot texnologiyalarini egallash; tarbiya masalasiga doir ilmiy-tadqiqotlarni o'rganib borish; inson va jamiyat hayotida tarbiyaning tutgan o'rini to'liq idrok etish; fan vositasida o'quvchilarini tarbiyalash metodlari va texnologiyalarini bilish; fanni o'qitish bo'yicha individual pedagogik tajribaga ega bo'lish. Shu jihatdan “Tarbiya” fanini o'qitishda quyidagilarga e'tibor berish va ularni o'zlashtirish zaruriyat hisoblanadi. Davlat ta'lim standartlari talablari asosida o'quvchilar tomonidan odob-axloq, bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarning to'liq o'zlashtirilishiga erishish; o'quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish; o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va global tafakkur yuritish kompetentligini shakllantirish; umumta'lim fanlarini o'qitishning printsipliy yangi metodologiyasi asosida tarbiyaning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash.

“Tarbiya” fanini o'qitishda 5-6-sinflarning dars jarayonidagi faolligini oshirishda ularni jamoaviy ishlashga,

fikr almashishga undaydigan interfaol usullardan samarali foydalanish mazkur fanning sifat va samaradorligini oshiradi.

Tarbiya darsini vijdon, insof, rostgo'ylik kabi muhim tushunchalarni anglatishdan boshlash kerak. 6-sinf o'quvchilari uchun rostgo'ylik haqida bilib olish muhim hayotiy ko'nikma bo'ladi. Vijdonan yashash, halol va rostgo'y bo'lishi inson uchun nihoyatda muhim.

1-Dars. Vijdonan yashash (2 soatga mo'ljallangan)

Mashg'ulotdan ko'zlangan maqsad:

rostgo'y bo'lish nimani anglatishini tushuntirish;

boshqalarga nisbatan halol va rostgo'y bo'lishni o'rgatish;

rostgo'ylik nima uchun kerakligini anglatish.

1-topshiriq. Matnni sinchkovlik bilan o'qing.

Matn

Siz qiyshiq oynalar mamlakatiga tushib kolganingizni tasavvur qiling. Bu mamlakatda yashovchilar na o'ziga, na o'zgalarga rost so'zlamaydilar. Qiyshiq oynalarda o'z aksini topgan mamlakat hayoti murakkab, tushunarsiz, muammolarga to'la. Agar Siz bu o'lkaga tushib qolsangiz, na o'zingizni tushunasiz, na boshqalarni, duch kelgan voqealarini ham anglab yeta olmaysiz Xattoki qiyshiq oynalarda o'zingizni ko'ra olmaysiz, o'zligingizni angalay olmaysiz.

Biroq Sizni nafaqat bu mamlakatdagi hayotingizni, balki xaqiqiy hayotingizni o'zgartira oladigan bir insoniy xislat bor. Bu rostgo'ylik. Agarda inson har doim rost gapirsa, uning hayoti oson va yengil, sodda bo'ladi. O'z-o'zini aldashga, soxta bo'lishga xarakter qilib, kuchlarni ketkazish kerak bo'lmaydi. Aslida nima bo'layotganini faqatgina rostgo'ylik ochib beradi, voqelikdagi hayotni ko'rsatib beradi.

Rostgo'ylik – asosiy insoniy xislatlardan biri bo'lib, boshqa insonlar bilan muloqotda bo'lganda rostgo'y, samimiy, halol bo'lishni, boshqalarni aladamaslikni, o'zligini yuqotmaslikni, o'g'irlikni inkor etish, soxta bo'lmaslik, va'dalarni berib bajarishda ishonchli bo'lish demakdir.

Rostgo'y odam o'z xato va aybini tan oladi, nohaq bo'lsa o'zini oqlamaydi, boshqalarni qanday mezonlar bilan baholasa, o'zini ham shunday baholaydi. Bunday odam har qanday holatda ham xaqiqatdan voz kechmaydi, o'z nuqtai nazari va munosabatini to'g'ridan-to'g'ri aytadi, o'g'irlik qa firibgarlik qilmaydi, ahloq meyyorlariga rioya qiladi, qonunlarni buzmaydi.

O'zgalalar va o'z oldida rostgo'y bo'lishdagi sifatlarni jadvalga yozing.

O'z oldida rostgo'y bo'lib, boshqalar bilan yolg'onchi bo'lish mumkinmi? Yoki, aksincha, o'zgalalar bilan rostgo'y bo'lib o'z oldida yolg'onchi bo'lish mumkinmi? Fikringizni ayting.

Siz uchun qay biri muhimroq: o'zi oldidami yoki o'zgalalar oldida?

Vaziyat 1: Said hovlida do'stlari bilan o'ynardi. O'yin qiziqarli va hayajonli edi. Vaqt tez o'tib ketdi, kech kirdi. Said onasining ovozi eshitdi, onasi uni uyga chaqirayotgan edi. Said darhol koptokni qo'ydi-da, kurtka va sumkasini olib uyga chopib ketmoqchi ediyam-ki, uni Akmal to'xtadi:

– Qaerga? Ketma, biz hali o'yinni tugatmadik-ku!

Bizning jamoamiz yutay deyapti-ku!
– Men ketishim kerak. Onamlarga chaqirishingiz bilanoq kelaman deb va'da berganman.

– Ketma, qol, o'yinni tugataylik. Keyin oyingga chaqirganingizni eshitmadim dersen?! – deb taklif qildi Sardor.

– Ammo men eshitdim, siz ham eshitingiz, – deb javob berdi Said.

– Lekin oying eshitganingni bilmaydilar-ku!

– Ha, sen haqsan, ular bilmaydilar, ammo men bilaman-ku, dedi qat'iyatlik bilan Said va uyga yugurib ketdi.

Rostgo'ylik nima?

Said kimga nisbatan rostgo'ylik qildi: o'zi yoki o'zgalarga nisbatanmi? Javobingizni asoslab bering.

Rostgo'ylik so'ziga ma'nodoshi va zid ma'nolilarni yozing.

Rostgo'ylik tushunchasi bilan yonma-yon vijdon tushunchasi turadi. Vijdon har birimizda bor. Vijdonni ichki to'siq bilan solishtirish mumkin, biz noto'g'ri va adolatsiz xarakat qilmoqchi bo'lganimizda bizga vijdon tusqinlik qiladi. U go'yoki bizni yomon xarakatlardan ogohlantiruvchi va ahloqiy xamda ma'naviy qadr-qimmatlarga rioya qilib yashashga undovchi ichki ovozdur. Vijdon – bu bizning qudratli yo'lbo'shchimiz, u bizga qaysi tarafga yurishimiz lozimligini va to'g'ri yoki noto'g'ri yurayotganimizni ko'rsatadigan sifatimizdir.

Vijdonan yashagan odam o'ziga foydasi tegmasa ham rostgo'ylik bilan harakat qiladi. “Vijdonim qiynalyapti”, “vijdon azobi” degan iboralar hammamizga tanish. Bu – yolg'on gapirganimiz, soxta bo'lganimiz, noto'g'ri, nojo'ya xarakatlarimiz natijasida paydo bo'lgan ichki bezovtalik, aybdordik hissi. Ba'zida bunday holat shu qadar kuchli bo'ladi-ki, inson tinch yashay olmaydi, o'qiy olmaydi, ishlay olmaydi. Vijdonimiz o'tgan ishlarga emas, kelajakda qiladigan ishlarimizni baholab berishi lozim, ya'ni bizni achinishimizga emas, balki noto'g'ri harakatni bajarishimizning oldini olishi, ogohlantirishi, ezgulikka yo'naltirishi kerak.

“Fanorchi ota”

Tor, qiyshiq ko'chaning o'ksik oqshomini Tursunqul akaning churuk daivozasi tepasiga o'tqizilgan bir fanorning titrak nurlariga yoritir edi. Uni har kun kechqurun past bo'lyi, burushiq yuzli bir chol kelib, yoqib ketar edi. Biz uni «Fanorchi ota», der edik. U juda yuvvosh, indamas kishiydi, kichkina narvonchasini chaqqon qo'yib, allaqanday ustalik bilan chiqar, qo'ltig'idan kir ro'molchasini olib, avaylab fanor oynalarini artardi. Fanorni yoqqach, yerga tushib, obkashdek bukilgan yelkasiga narvonchasini qo'yib birpasda ko'zdan yo'qolar edi.

Fanor qurilgan vaqtlarda butun mahalla quvonib, unga allaqanday mehr ila qaragan bo'lsalar-da, vaqat bu mehr uzoqqa cho'zilmagandi. Keyincha har kim unga parvosiz bo'la boshladi. Ayniqsa, mahalla bolalari ila fanor orasida anglashilmas dushmanlik uyg'ondi. To'planishib, avvalo bir-birimizning do'ppimizni otishar, fanorga do'ppi kiygizgan o'rtiq merganligi ila kerilar edi. Keyincha bu ham bizni zeriktira boshladi. chunki piston qadalgan yoki har turli ipaklar bilan bezalgan do'ppi ni kiyib olib, fanor chiroyli bir tus olar, bizni xafa qilgandek bo'lar edi. Shuning uchun qo'limizga tosh, kesak olib, fanorga hujum qilishni o'rgandik. Bunda u juda kuchsiz edi: kichkina bir kesak yoki tosh parchasi bechora fanorning oyna ko'zlarini o'pirib tushirardi. Keyin-keyin Fanorchi ota haftada uch-to'rt marta unga «yangi ko'zoynak» taqib ketishga majbur bo'lardi. U ketdi, darrov biz yangi «ko'z»ini o'yib olardik. Shunday bo'lsa-da, Fanorchi ota «Lom» deb og'iz ochmasdi. Uning bu qilig'i bizga sira yoqmas, tutib olish uchun poylasa, hatto bironamizni tutib ursa ekan, der edik. Ammo shu tilaklardan bittasi ham yuzaga qichmasdi. Bir kun, namozshom vaqti, ko'chada bolalar ko'p edi. Ichimizda eng ko'p qo'rqmaydigan, eng battol Qosim cho'loq:

“Bolalar!” — dedi. Changga botgan yuzlarimiz yangi

bir narsa kutib, uning ko'zlariga tikildik. - Fanorchi ota keladigan vaqt yaqin. Sindiramiz. Nima qilar ekan? - dedi-da, qo'lga ilinadigan bir narsa qidira boshladi. Qo'llarimizdan g'izillab uchgan tosh-kesaklar fanorning hamma ko'zlarini teshib o'tgan edi. Uzoqdan Fanorchi otaning bukilgan kichkina

qomati yaqinlasha boshladi. Narvoncha yelkadan tushib, ta'zim ila devorga suyandi. Fanorchi ota uning ustiga chiqdi-da, “chirt” etib, gugurti yoqdi: fanor to'rt tarafdin qulagan uy kabi ajava tusda, yana bir tomonga qiyshayib turar edi. Biz hammamiz kerilib turar edik. Ba'zilar “piq-piq” kulishdi. Chol kasal odamga o'xshab, sekin-sekin pastga tushdi. o'siq qoshlari tagida qisilib yotgan ko'zlari ila hammamizga yalingansimon qaradi-da, mayin bir tovush bilan:

- Tentak bolalarim, bu qanday gap? Fanorga tegmasanglar, bir narsa bo'ladimi? U yuqorida, sizlar pastda o'ynay beringlar-da. Bolalar jim bo'lgan edi.

- Sizlar hali yosh, ko'zlaringiz o'tkir. Qorong'i ham, yorug' ham baravar. Xufton bo'lmasdan onalaringizning quchog'ida pish-pish uxlab qolasiz hammangiz. Bizga o'xshash qari-qartanglar uchun chirog' judayam kerak, — dedi.

Bolalarning ko'zi cholda edi.

- Tunov kuni kechasi qattiq yomg'ir yog'ib turgan edi.

Bu yoqqa kelsam, ko'cha qop-qorong'u. Fanorning teshik oynasi dan shamol kirib o'chirib qo'yan. Ana u ariqning bo'yiga bor ganimda bir nima suvni shapillatardi. Yopiray, nima ekan, deb fanorchamni ariqqa tutsam, mendan ham qari bir kishi ariq dan chiqolmay yotgan ekan. Darrov qo'lidan tortdim, bir amallab chetga chiqardim, hamma yog'i loy, jiq-jiq suv. Bolalardan biri:

- Voy, boyaqish, soqoliam, yuziyam loymi?

- Hamma yog'i loy bo'lgan... Keyin yetaklab uyiga eltib qo'ydim, - dedi chol. Mening ko'zimga Fanorchi otaning degani shunday ko'rinib kelgandi, Qosim cho'loq: - Yolg'on-yolg'on! - deb baqirdi. Bolalar birdan:

- Rost! - deb javob qaytarishdi.

- Kim endi sindirsa, shuni tutib beramiz otamga, - dedi

Ahmad. Fanorchi ota:

- Ha, barakalla, endi sindirmaysizlarmi? - dedi.

- Yo'q-yo'q, - javob berdik biz shu zamon. Kichkina narvonini yana yelkasiga ilib, chol qorong'ilikka kirib yo'qoldi. Shundan beri, haqiqatan, fanorga hech shikast tegmadi. Hozir shu fanorning o'rnida sim to'r bilan o'ralgan tuxumdan kattaroq elektr lampochkasi yonib turadi. Uning uchun na yoquvchi, na gugurt, na moy kerak. Hech bir bola tegajaklik qilib tosh ham otmaydi. Uning yorug'ida yurganda yoshligimning bir parchasini va Fanorchi otanigina xotirlayman. (Oybek)

Savollar:

Vijdon nimaligini o'z so'zingiz bilan tushuntirib bering.

Nima deb o'ylaysiz, inson qachon o'z vijdoniga quloq solishi kerak: noto'g'ri ishni qilishdan oldinmi yoki qilib bo'lgandan keyinmi?

Agarda siz yaqin insoningizni aldasangiz va sizni vijdongingiz qiynasa qanday qilib bu vaziyatni to'g'rilashingiz mumkin?

Nastya o'z vijdonini “tinchlantira oladimi”? Nega?

Rostgo'ylik sezgirlik degan xislatga ham bog'liq.

Sezgirlik – bu boshqa insonlarni tushunish, ularning kayfiyatini sezish, hissiyotlarini hurmat qilish, xohishlariga ko'ra ular bilan munosabatda bo'lish. Insonga ziyon yetkazmaslik, uning jismoniy va ruhiy sog'lig'iga zara yetkazmaslik uchun rostgo'ylikdan cheklanish lozimligi xaqida yozilmagan ahloqiy qoidalar bor.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, “Tarbiya” fani orqali o'quvchini ma'naviy jihatdan yetuk shaxsga aylantirish mumkin. Umuman, o'qituvchi tarbiya darsida o'quvchini komil inson sifatida farovon yashashi uchun zarur bo'ladigan eng muhim sifatarni bosqichma-bosqich o'rgatib borishi tavsiya etiladi. Zero, mazkur fan imkoniyatlari o'quvchida uning uchun umri davomida har daqiqa zarur bo'ladigan axloqiy sifatarni

rivojlantirishga sharoit yaratib berishi lozim. Mazkur maqolada vijdon, rostgo'ylik va insof kabi tushunchalargagina to'xtalindi. Keyingi tadqiqotlarda havas, hasad, muvaffaqiyat, mag'lubiyatdan chiqish kabi muhim tushunchalar haqida ilmiy izlanishlar olib boriladi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston, 2016. – 14-b.
2. M.Quronov, Y.Risyukova, O.Tigay, O.Usmanova, S.Xafizov 5-sinf Tarbiya darsligi. T.G.Gulom nomidagi nashriyot matbaa uyi. T. 2020 yil 105 bet.
3. M.Quronov, Y.Risyukova, O.Tigay, O.Usmanova, S.Xafizov 6-sinf Tarbiya darsligi. T.G.Gulom nomidagi nashriyot matbaa uyi. T. 2020 yil 108 bet.
4. Pirnazarova A. Tarbiya fanini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash va unda ta'lim va tarbiyaning uzviyligi: tarbiya fanini o'qitishda didaktik o'yinlar//Yangi O'zbekiston talabalari axborotnomasi 2022. 77-78b.
5. Sapayev V. Tarbiya fanini o'qitishning ayrim dolzarb masalalari// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E) ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(8), August, 2023
6. M.E.Axmedova Pedagogika Darslik.T. Tibbiyot matbaa nashriyot uyi 2022 y. 207 b.
7. Qodirov B. Komil inson tarbiyasining pedagogik asoslari. –T.: Mehnat, 2001. - 195 b.
8. Quronov M. Maktab ma'naviyati va milliy tarbiya. –T.: Fan, 1995. - 118 b.



UDK:372.8

Nilufar FAYZULLAEVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, p.f.n.
E-mail: nilufarf@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, professor v.b T.Islomov taqrizi asosida

DISCLOSURE OF SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL DYNAMICS OF DEMAND FOR EDUCATIONAL SERVICES

Annotation

In the modern educational environment, understanding the intricacies of demand for educational services goes beyond simple statistical analysis. This involves delving into the social and psychological factors that underlie the decisions of individuals and communities to pursue educational opportunities. The purpose of this article is to explore the multifaceted aspects of demand for educational services, shedding light on the social and psychological characteristics that significantly influence this complex phenomenon.

Key words: Education, educational service, demand for education, demographic processes, migration, levels of education, education system.

РАСКРЫТИЕ СОЦИАЛЬНОЙ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ СПРОСА НА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ УСЛУГИ

Аннотация

В современной образовательной среде понимание тонкостей спроса на образовательные услуги выходит за рамки простого статистического анализа. Это предполагает углубление в социальные и психологические факторы, которые лежат в основе решений отдельных лиц и сообществ в поисках возможностей получения образования. Целью данной статьи является исследование многогранных аспектов спроса на образовательные услуги, проливая свет на социальные и психологические особенности, которые существенно влияют на это сложное явление.

Ключевые слова: Образование, образовательная услуга, спрос на образование, демографические процессы, миграция, уровни образования, система образования.

TA'LIM XIZMATLARIGA TALAB IJTIMOY-PSIXOLOGIK DINAMIKASINI O'RGANISH

Annotatsiya

Bugungi ta'lim sharoitida ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabning nozik tomonlarini tushunish oddiy statistik tahlildan tashqariga chiqadi. Bu shaxslar va jamoalarning ta'lim imkoniyatlariga intilish qarorlari asosidagi ijtimoiy va psixologik omillarni o'rganishni o'z ichiga oladi. Ushbu maqolaning maqsadi ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabning ko'p qirrali tomonlarini o'rganish, ushbu murakkab hodisaga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy va psixologik xususiyatlarni yoritishdir.

Kalit so'zlar: Ta'lim, ta'lim xizmati, ta'limga bo'lgan talab, demografik jarayonlar, migratsiya, ta'lim darajalari, ta'lim tizimi.

Kirish. Zamonaviy dunyoda inson kapitalining ta'siri kuchayishi bilan birga iqtisodiyot va jamiyatning yangi sifatini shakllantirishning eng muhim omili sifatida ta'limning ahamiyati ortib bormoqda. Jamiyatni modernizatsiya qilish sanoat jamiyatidan axborot jamiyatiga o'tishni o'z ichiga oladi, bunda bilimlarni ishlab chiqarish va tarqatish jarayonlari muhim ahamiyatga ega. Jamiyatni modernizatsiya qilish, shuningdek, jamiyat farovonligi va jamiyat va tabiatning barqaror o'zaro ta'siri uchun umumiy javobgarlik qiymati bilan birlashtirilgan mustaqil harakat va tadbirkorlik qadriyatlarini bo'lgan yangi madaniyatni shakllantirishni ham nazarda tutadi. Ta'lim bu jarayonda hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin.

Marketing kontseptsiyasiga ko'ra, har qanday bozorni shakllantirishda ta'lim muassasalari o'zlarining mavjudligini maksimal darajada oshirish va pirovardida ma'lum imtiyozlarga ega bo'lish uchun barcha bozor bo'shliqlarini (mutaxassisliklar, o'qitish turlari, hududlar) egallashga harakat qilishlari kerak.

Bu imtiyozlar, masalan, foyda olish, shuningdek, byudjet joylarini olish (davlat tomonidan moliyalashtirish) bo'lishi mumkin. Biroq, haqiqatda ta'lim muassasalari imkoniyatlari cheklanganligi sababli barcha bozor iste'molchilarining talab va istaklarini to'liq qondira olmaydi.

Shuning uchun ta'lim muassasalari bozor tadqiqotlarini olib boradilar va natijada o'z xizmatlarini bozorning muayyan segmentlariga yo'naltiradilar, bu erda xizmat maksimal daromad keltiradi. Ta'limdagi marketing yondashuvlarining o'zi asosiy muammoni - aholining ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabini aniqlash yoki bunday talabni yaratishni hal qilishga yordam berishi kerak. Natijada, ta'lim muassasasi ta'lim xizmatlari bozorining barcha ishtirokchilarining talab va ehtiyojlarini to'liq qondira oladigan mahsulotni taklif qilishi kerak.[1]

nazariy jihatdan hamma narsa shunday, ammo amalda esa hamma narsa ancha murakkab. Birinchidan, ta'lim xizmatining o'ziga xos xususiyatlari bor: natija va uni olish jarayoni vaqt bo'yicha ajratiladi. Masalan, bakalavriatda ma'lum bir mutaxassislik yoki ta'lim sohasiga bo'lgan talabni bashorat qilish juda qiyin. Ikkinchidan, mehnat bozorida qanday mutaxassislarga ehtiyoj borligi haqidagi fikrlar ushbu bozorning turli agentlari o'rtasida farq qiladi: ish beruvchi o'zlarining aniq mehnat faoliyatiga yo'naltirilgan mutaxassislarni xohlaydi, davlat kasbiy ta'lim tizimini rivojlantirishni xohlaydi, chunki ishchi mutaxassisliklar etarli

emas va iste'molchi iqtisodchi, buxgalter yoki huquqshunos bo'lishni xohlaydi.

Xizmatni sotib olayotganda mijozning xarid qilish qaroriga motivatsiya, idrok, e'tiqod va munosabat kabi asosiy psixologik omillar ta'sir ko'rsatadi. Masalan, yoshlarning (abituriyentlarning) ma'lum bir mutaxassislikka bo'lgan motivatsiyasiga ijtimoiy muhit va butun jamiyat bevosita ta'sir

1-jadval

Yoshlar uchun eng yaxshi kasblar, respondentlarning %

№	Javob varianti	Aholi	Yoshlar
1.	Ishbilarmon, tadbirkor	34	41
2.	Kompyuterchi, dasturchi	34	38
3.	Huquqshunos;	27	27
4.	Doktor	22	19
5.	Menejer	17	19
6.	Siyosatchi	12	13
7.	Tarjimon	11	11
8.	Psixolog	9	10

Albatta, bugungi kunning ijobiy tomoni shundaki, yoshlarning aksariyati bilim olish zarurligini tan oladi. Ta'lim zamonaviy jamiyatda talabga ega. Ko'pchilik oliy ma'lumotni barqaror daromad olish va umuman hayot sifatini yaxshilash vositasi deb biladi.

Motivatsiyani iste'molchining yashirin ehtiyojlarini aniqlash va ushbu ehtiyojlarni qondira oladigan va ularni faollashtiradigan mahsulotni bozorga chiqarish orqali boshqarish mumkin. Shuni esda tutish kerakki, iste'molchi muammoni turli yo'llar bilan hal qilishi mumkin, shuning uchun bu ehtiyojni qondirish uchun raqobatchilarning mahsulotlarini batafsil o'rganish har doim muhimdir.

Tadqiqot davomida muallif xuddi shunday tendentsiyani aniqladi. "Sizni oliy ma'lumot olish uchun asosiy

ko'rsatadi. Huquq va iqtisodiyot abituriyentlar orasida hali ham talabga ega.

Agar 2020-yil may oyida mutaxassislar tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalarini tahlil qiladigan bo'lsak, "Yoshlar uchun eng yaxshi kasb" deganda bugun ko'pchilik tez va katta pulni kafolatlaydigan yoki va'da qiladigan mutaxassislikni tushunadi"[2].

rag'bat nima?" degan savolga - yarmidan ko'pi (54,3%) moddiy farovonlikning o'sishini qayd etdi (yoki munosib moddiy mukofot) (1-rasm). Taxminan 40% martaba o'sishi, shaxsiy g'oyalarni (loyihalarni) amalga oshirish imkoniyati va ishdan qoniqishni qayd etdi. Respondentlarning qariyb to'rtidan bir qismi kasbiy o'zini o'zi anglash, tadbirkorlik imkoniyati, ilmiy va ijtimoiy faoliyatda faol ishtirok etishni ta'kidladi. Hamkasblar tomonidan e'tirof etish faqat 11,2% uchun qiziqarli. Shunday qilib, moddiy komponent (munosib ish haqi olish imkoniyati, moddiy farovonlikni oshirish) zamonaviy yoshlarni o'qishga rag'batlantirishning asosiy va muhim sababi bo'lib qolmoqda.

martaba

shaxsiy g'oyalar va loyihalarni amalga oshirish imkoniyati


biznes imkoniyati

ijtimoiy mavqeini oshirish

bilim va tajribani uzatish

hamkasblar tomonidan tan olinishi

moddiy farovonlikning oshishi



1-rasm Oliy ma'lumot olish uchun asosiy rag'bat

Binobarin, oliy ta'lim ko'proq daromad olish va hayot sifatini yaxshilash vositasi sifatida qaraladi. Shuning uchun ham zamonaviy ta'lim tizimini o'rganishda ijtimoiy jihat muhim ahamiyatga ega.

Rivojlanishning hozirgi bosqichida ta'limni tijoratlashtirish jarayoni muqarrar va ta'lim xizmatlarining yakuniy iste'molchisi nuqtai nazaridan, hatto foydalidir, chunki raqobatda faqat talab qilinadigan ta'lim xizmatlari taklif etiladi va eng kuchli ta'lim muassasalari omon qoladi. Shu bilan birga, ushbu sohaning haddan tashqari tijoratlashuvi bir qator muammolarni ham keltirib chiqaradi: mehnat bozorida iqtisodiy va yuridik bitiruvchilar sonining haddan tashqari ko'pligi; ish beruvchilar tomonidan ularga bo'lgan talabning kamayishi yoki yo'qligi; texnik mutaxassislarga talab ortib borishi.


Xarid qilish qobiliyatiga ta'sir etuvchi omillar ichida iqtisodiy vaziyat alohida o'rin tutadi. Odam qancha ko'p pul topsa, u shunchalik ko'p xizmatlar uchun to'lashga tayyor. Shaxsning iqtisodiy ahvoli uning daromadlari darajasi va barqarorligi, jamg'armalari va aktivlari hajmi, qarzlari, kreditga layoqatliligi va pulni tejashga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi. Sotish hajmi mijozlarning daromadlari darajasiga bog'liq bo'lgan xizmatlar ishlab chiqaruvchilari doimiy ravishda aholining shaxsiy daromadlari, jamg'arma stavkalari va foiz stavkalari o'zgarishi tendentsiyalarini kuzatib boradilar.

Albatta, strategik ta'lim siyosati yosh mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik darajasiga mos va milliy iqtisodiyot imkoniyatlarini hisobga olgan holda ish bilan ta'minlanishini ta'minlashi kerak. Biroq bu maqsadga erishishda mehnat bozoridagi talabning rolining ustuvorligi shubhasiz emas. Bozor muvozanatiga erishish ideal bozor

iqtisodiyotida mumkin, ammo real sharoitda o'z tuzatishlarini amalga oshiradigan va hisobga olinishi kerak bo'lgan turli xil istisno omillar mavjud.[4]

Shunday qilib, mehnat bozorida oliy ma'lumotli mutaxassislarining nisbatan ko'pligi ob'ektiv iqtisodiy qonunlar nuqtai nazaridan, universitetlar sonini, talabalarni qabul qilishni, ta'lim xarajatlarini qisqartirishni talab qiladi. Biroq, ushbu muammoning sotsial-madaniy tahlili shuni ko'rsatadiki, bunday xatti-harakatlar jamiyatning intellektual salohiyatini pasaytiradi, uning sifatiga salbiy ta'sir qiladi, iqtisodiy o'sishni cheklaydi va nihoyat, axborot jamiyati va bilimlar iqtisodiyotini shakllantirish, ijtimoiy taraqqiyotning ob'ektiv jarayonlariga zid keladi.

Binobarin, oliy ta'limni qisqartirish emas, balki rivojlantirishni qayta yo'naltirish, ta'lim xizmatlarini yetkazib berish va mehnat bozori ehtiyojlarini muvofiqlashtirish mexanizmlarini yaratish, ushbu sohani rivojlantirishni strategik rejalashtirish bilan shug'ullanish zarur.



2-rasm O'zgaruvchi va doimiy determinantlarning ishlash mexanizmi

Mehnat bozorida nomutanosiblik muammosi yoshlarning muayyan mutaxassisliklarga bo'lgan talabning holati va dinamikasi to'g'risida xabardorlik darajasining pastligi, turli kasblarning nufuzi yoki obro'sining yo'qligi haqida jamoatchilik fikrining shakllanishi va ko'pincha buning ta'siri bilan keskinlashadi. Shunday qilib, yoshlarga ko'plab kasblar taklif etiladi, ammo bugungi kasb tanlashning kelajakdagi samaradorligini baholash uchun ob'ektiv mezonlar (yoki ularga ma'lumot olish imkoniyati) yo'q. Va bu, o'z navbatida, inson kapitaliga sarmoya kiritish muammosini yanada kuchaytiradi.

Determinantlar bo'yicha taqsimlash holatlarida ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik namoyon bo'ladi, chunki tanlov nafaqat akademik ko'rsatkichlarga, balki oilada shakllangan resurslar, motivatsiya va qadriyatlariga ham bog'liq. Ta'lim natijalaridagi ijtimoiy farqlar ta'lim sotsiologiyasining markaziy mavzusidir. Gender, ijtimoiy sinflar va etnik guruhlar o'rtasida mavjud bo'lgan ta'lim natijalaridagi farqlar erishilgan darajalarda, imtihon baholarida va ta'lim traektoriyasining turli bosqichlarida ta'limga o'tish ehtimolida aks etishi mumkin. Misol uchun, o'tmishda ta'limning deyarli barcha bosqichlarida erkaklar ayollardan ko'p edi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda uzoq vaqt davomida ta'lim va ayniqsa oliy ta'lim ayollar uchun deyarli imkonsiz edi. XX asrda vaziyat, ayniqsa,

Ushbu muammolarni tahlil qilishda zamonaviy mehnat bozorining tuzilishi doimiy va o'zgaruvchan determinantlar bilan ifodalanishini hisobga olish muhimdir. Doimiy determinantlar nisbatan barqaror, bashorat qilish qiyin emas va bu determinantlarning taklifi odatda talabdan oshib ketadi, bu esa ish raqobati va ish beruvchini tanlashni ta'minlaydi.

Bu har qanday mamlakatning eng muhim tarmoqlarini rivojlantirish bilan bog'liq va shuning uchun mehnat bozorida barqaror talabga ega bo'lgan mutaxassisliklarni o'z ichiga oladi. Vaqtinchalik determinantlarning o'ziga xos xususiyati - talabning keskin o'sishi va taklif qondirilgandan keyin ham xuddi shunday tez pasayish. Bu jamiyatda yuzaga keladigan yangi ehtiyojlarning, ish va xizmatlarning yangi turlarining, mos ravishda kasblar va mutaxassisliklarning o'ziga xosligi. Doimiy va o'zgaruvchan determinantlarning ishlash mexanizmi rasmda keltirilgan.

1960-yillardan boshlab sezilarli darajada o'zgarib boshladi va hozir deyarli barcha mamlakatlarda qizlar o'g'il bolalarga qaraganda ta'lim tizimida o'rtacha muvaffaqiyatga erishmoqda. AQSh, Buyuk Britaniya va boshqa ko'pgina mamlakatlarda qizlar ko'proq universitetga borishadi. Qizlar maktabda yuqori baho olishadi va intizomni buzish ehtimoli kamroq. Milliy va xalqaro testlar natijalari shuni ko'rsatadiki, qizlar o'qish testlarida o'rtacha hisobda o'g'il bolalardan sezilarli darajada oldinda bo'lishadi va ko'p hollarda matematika testlarida ulardan qolishmaydi.

Yana bir misol, oliy ma'lumotli va badavlat oilalarning farzandlari yaxshiroq o'qib, oliy ma'lumot olish ehtimoli ko'proq. Bizning maqsadlarimiz uchun ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra farq qiluvchi guruhlarni qanday mezon asosida ajratish unchalik muhim emas: ota-onaning kasbi, ota-onalarning ma'lumoti yoki oila daromadi. Har uch holatda ham natijalar o'xshash bo'ladi. Tengsizlik nafaqat olingan ta'lim darajasida, balki uning sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin. Bunda nafaqat maktabni tamomlaganlik fakti, balki maktab turi, o'qitish darajasi, o'quvchilarning ijtimoiy tarkibi va boshqalar ham muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari. Suhbatlar va tegishli adabiyotlarni tahlil qilish asosida quyidagi miqdoriy tadqiqot gipotezalari taklif qilindi va 2-jadvalda taqdim etildi.

jadval 2

Tadqiqot gipotezalarini tekshirish natijalari

Gipoteza	Tasdiqlash
1-gipoteza: <u>Iste'molchilarning ijtimoiy-demografik xususiyatlari ularning ta'lim xizmatlarini tanlashiga ta'sir qiladi.</u>	Yo'q
2-gipoteza: <u>Raqamlashtirish sharoitida kasbiy ta'lim bozorida iste'molchi xatti-harakatlarida o'zgarishlar ro'y berdi.</u>	Ha
3-gipoteza: <u>Iste'molchilarning kelajakda kasb-hunar ta'limi xizmatlaridan foydalanishni davom ettirish niyati ko'p jihardan iste'molchilarning xatti-harakatlarini belgilaydigan demografik, psixologik va boshqa ichki omillarga bog'liq bo'ladi, balki qabul qilingan kurslardan qoniqish darajasiga emas.</u>	Yo'q
4-gipoteza: <u>Professional ta'lim bozoridagi iste'molchilarning xulq-atvori turli avlod vakillari uchun har xil</u>	Ha

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish bizga quyidagi qoidalarlarni shakllantirishga imkon berdi:

1. Treningning eng keng tarqalgan maqsadi o'z kasbingiz bo'yicha qo'shimcha ko'nikmalarga ega bo'lish va o'zingiz uchun o'qishdir. Boshqa motivlar talab darajasi jihatidan sezilarli darajada past. Savdo, marketing va PR (25,5%), ovqatlanish, salomatlik va sport (22,7%), chet tillari (22,4%), ijodkorlik (20,6%), dizayn (16,9%), biznes, tadbirkorlik (15,1%) kamayib borayotgan tartibda o'qish uchun eng ommabop yo'nalishlardir.

2. Xarid qilish uchun rag'batlantiruvchi omillar shaxsiy qiziqish (37,1%), professional maqsadlar (30,3%), shuningdek, bo'sh vaqtni suyuqlitirish istagi (11,1%). Respondentlarning ko'pchiligi uchun treningning maqsadi - o'z malakasini oshirish (28,2%), shuningdek, o'zlari uchun o'qish, zavqlanish uchun (25,3%), shuningdek, ijodiy amalga oshirish, kasbni o'zgartirish va boshqa kasb o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirish ko'rinishidagi variantlar mavjud.

3. Aksariyat talabalar mustaqil ravishda o'qishga qaror qilishadi.

4. Pandemiya oldin ta'lim xizmatlari haqida ma'lumot olishning eng keng tarqalgan kanallari reklama va qidiruv tizimlari, shuningdek, do'stlarning tavsiyalari edi.

5. Aksariyat respondentlar sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish uchun taxminan ikki hafta vaqt oldi (61,46%). Kamayish tartibida eng muhim omillar quyidagilardir: dastur

mazmuni, narxi, ko'rinishi, obro'si va kompaniya imidji, shuningdek, o'qituvchilarning malakasi va mashxurligi.

6. Demografik, psixologik va boshqa ichki omillar, shuningdek o'tkazilgan kurslardan qoniqish iste'molchilarning kelajakda ta'lim xizmatlaridan foydalanishni davom ettirish maqsadiga ta'sir qiladi. Ta'lim mahsulotini yaratishda, uni joylashtirishda, reklama qilish usullarida va narxlarda foydalanuvchilarning yosh xususiyatlaridagi farqlarni hisobga olish kerak.

Xulosa. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ta'lim xizmatlari iste'molchisi uchun tanlov jarayonida mutaxassislik va oliy o'quv yurti nufuzi, gumanitar yoki boshqa yo'nalish, oliy o'quv yurtining joylashuvi eng muhim hisoblanadi. Xaridorlar uchun ta'lim xizmatini tanlashda eng muhim omillar - bu qiziqqan mutaxassislikning mavjudligi, bitiruvchining keyingi ishga joylashish istiqbollari va o'qitish narxi.

Shuni inobatga olgan holda, universitet brendini shakllantirish, aloqa va narx siyosati universitetning strategik rivojlanish bo'limi mutaxassislarining diqqat markazida bo'lishi kerak. Bundan tashqari, kuchli universitet brendi ham xarid, ham iste'molchi xatti-harakatlarida muhim omil hisoblanadi. Shunday qilib, tahlil shuni ko'rsatdiki, universitetni rivojlantirishning zaruriy sharti ta'lim xizmatlari bozoringa tanlangan segmentlariga qaratilgan strategik rejalashtirishni amalga oshirishdir. Uni amalga oshirish uchun universitet boshqaruv tuzilmasida muayyan o'zgarishlarni amalga oshirish zarur.

ADABIYOTLAR

1. Алешина И.В. Поведение потребителей . / учебное пособие для вузов. – М.: Фаир-Пресс, 2017. – 525 с.
2. Alexanra L. Lerner. A Strategic Planning Primer for Higher Education February, 06th 2010// www.educause.edu.
3. Buchmann C., DiPrete T.A., McDaniel A. (2008) Gender Inequalities in Education // Annual Review of Sociology. Vol. 34. P. 319–337.
4. Belenova A.I., Arenkov I.A. (2021) Transformatsiya potrebitelskogo povedeniya v usloviyakh pandemii na rynke onlayn-obrazovaniya [Transformation of consumer behaviour amidst a pandemic in the online education market]. Kreativnaya ekonomika. 15. (7). – 2921-2938.
5. Bourdieu P., Passeron J. C. La reproduction éléments pour une théorie du système d'enseignement. Paris: Editions de Minuit.
6. Breen R., Goldthorpe J. H. (1997) Explaining Educational Differentials: Towards a Formal Rational Action Theory // Rationality and Society. Vol. 9. No 3. P. 275–305.
7. Волкова А.А. Влияние цен на восприятие качества // Теория и практика общественного развития. 2014. № 5. С. 199–201.
8. Демцура С.С., Рябчук П.Г., Гордеева Д.С. Ценовая политика государства и вузов на рынке образовательных услуг // Азимут научных исследований: экономика и управление. 2017. Т. 6. № 2 (19). С. 84–88.



UDK:908

Shuxrat XAYDARALIYEV,
Namangan davlat universiteti tarix fanlari nomzodi, dotsent
E-mail: sh_xaydaraliyev@gmail.com

NamMQI professori, f.f.d., M.I. Ismoilov taqrizi asosida

MARKAZIY OSIYODA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING MILLIY VA MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha hamkorlikning genezisi, asoslari, mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishda milliy manfaatlar muvozanati masalasi, mintaqaviy hamkorlik jarayonlarining davlatlararo munosabatlarga ta'siri, globallashuv va mintaqaviy hamkorlik qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, Yevropa madaniyati, Brahmaputra, Mongoliya, Xitoy, kooperatsiya, demokratik jamiyat, mintaq, Harakatlar strategiyasi, BMT, inson fenomeni.

NATIONAL AND REGIONAL CHARACTERISTICS OF INTERETHNIC RELATIONS IN CENTRAL ASIA

Annotation

This article provides a comparative analysis of the Genesis, foundations of cooperation for the development of regional cooperation in Central Asia, the issue of the balance of national interests in the development of regional cooperation, the impact of regional cooperation processes on interstate relations, globalization and regional cooperation.

Key words: Central Asia, European culture, Brahmaputra, Mongolia, China, cooperation, democratic society, region, Action Strategy, UN, human phenomenon.

НАЦИОНАЛЬНЫЕ И РЕГИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ В СРЕДНЕЙ АЗИИ

Аннотация

В данной статье дан сравнительный анализ генезиса, основ развития регионального сотрудничества в Центральной Азии, вопроса о балансе национальных интересов в развитии регионального сотрудничества, влияния процессов регионального сотрудничества на межгосударственные отношения, глобализации и регионального сотрудничества.

Ключевые слова: Центральная Азия, европейская культура, Брамапутра, Монголия, Китай, кооперация, демократическое общество, регион, стратегия действий, ООН, человеческое явление.

Kirish. «Markaziy Osiyo» tushunchasi uzoq vaqtgacha tarixiy yoki geografik atama sifatida qo'llanilib kelindi. Ya'ni qancha uning chegaralari ham aniq emas edi. Turli tarixiy bosqichlarda u turlicha nomlangan. Yunonlar va rimliklar Markaziy Osiyoni «Transaksoniya», ya'ni Oks daryosi (Amudaryo) ortidagi yer, xitoyliklar «G'arbiy o'lka», arablar «Movarounnahr», XIX va XX asrlar boshlarida «Turon», «Turkiston» deb atashgan. Ba'zan esa u «Ichki Osiyo» deb unga Mo'g'uliston, G'arbiy Xitoy, Shimoliy Hindiston, Pokiston va Rossiya Sibirining janubiy qismi kiritilgan[1].

XXI asrda Markaziy Osiyoni eski tasavvurlar, yondashishlar bilan anglash mumkin bo'lmay qoldi. Mintaqaga yangicha, yanada kengroq yondashuvsiz u duch kelayotgan jiddiy muammolarning to'g'ri yechimini topish mumkin emas. Mintaqaviy madaniy, etnolingvistik, geosiyosiy va geoiqtisodiy tendensiyalar, shuningdek, xavfsizlik muammolari majmui nuqtai nazaridan anglash, muqarrar tarzda Markaziy Osiyo faqatgina sobiq SSSRning besh respublikasidan iborat emas, degan xulosaga olib keladi. Afg'oniston hamda Xitoyning g'arbiy hududlari ham uzviy ravishda mintaqaning tarkibiy qismlaridir.»[2].

Обсуждение. Язык является не только средством общения и передачи мыслей, но также он выступает в качестве яркого показателя национальной культуры и ее основным хранителем. В каждом языке отражена и его национально-культурная семантика, поэтому именно с этой точки зрения, в любом языке, в том числе английском, французском, проявляется национальная самобытность народа. Как справедливо отмечают В.П. Фелицына и В.М.Мокиенко, «национально-культурная семантика присутствует на всех уровнях языка: и в морфологии, и в синтаксисе, не исключая и фонетики. Однако наиболее ярко оно проявляется в так называемых строевых единицах языка, т.е. в тех единицах, которые непосредственно и прямо отражают внеязыковую действительность, называют предметы и явления окружающего нас мира. К числу строевых единиц языка принадлежат слова,

фразеологизмы и языковые афоризмы (пословицы, поговорки и крылатые выражения) [6].

Следует согласиться с мнением М.К. Голованивской, которая отмечает, что «история формирования менталитета для нас в чем-то синонимична истории становления общенационального языка. И в том смысле, что менталитет – это сумма представлений и объяснительных моделей (то есть принятого в культуре способа установления причинно-следственных связей между явлениями), и в том смысле, что понятийная система этноса неотделима от понятийной системы того языка, на котором этот этнос говорит и пишет» [1]. Автор справедливо считает, что «...всегда понятийная система языка отражала менталитет народа, сканы прошлого стояния языка, его история является сканом соответствующего этапа развития менталитета, фиксацией истории этого процесса [1].

Действительно, изучение мировоззренческих понятий французского и английского языков невозможно без изучения исторических фактов и социокультурных смыслов, при этом социокультурный смысл, повлиявший на развитие менталитета, по существу, – это стечение обстоятельств, изменившее или развившее взгляды и представления этноса, это аргументы, причины, позволившие отныне и впредь устанавливать логику событий, объяснять те или иные мотивы для поступков. Следовательно, социокультурным смыслом может стать и идея гуманистического характера.

Таким образом, постигая через лексические и грамматические особенности языка менталитет и культуру другого народа, билингвы приобретают дар смотреть на мир глазами другого народа, что не может не сказаться на их менталитете и социокультурных идеалах. Языковая культура претерпевает значительные изменения: билингвы используют более широкую палитру вербальных средств для выражения своих мыслей, стараются избегать категоричности в оценках и утверждениях.

Литература, язык, искусство, национальная культура в целом являются воспроизводителем, распространителем ментальных ценностей, предпочтений народа, выработанных вековыми усилиями духа.

Как отмечает Т.Б. Радбиль, «...на уровне быденного сознания то, что принято называть менталитетом, издревле ощущается как безусловная реальность нашего экзистенциального опыта. В этом нас убеждают данные фольклора, в частности, анекдотов на национальную тему, языковой материал фразеологизмов, пословиц и поговорок, а также почтенная философская, культурная и литературная традиция» [5].

Под ментальностью обычно понимают народное мировосприятие людей. Т.Б. Радбиль изучает языковой менталитет с синхронической точки зрения, его интересует то, «каким образом язык начала третьего тысячелетия, в эпоху культурного глобализма и экспансии всемирной компьютерной сети, сохраняет в себе самобытные рефлексы народного миропонимания и мироощущения, сформированные еще в древние периоды его существования, у истоков нынешней человеческой цивилизации» [5]. Ученый рассматривает проблему языкового менталитета с точки зрения современных процессов глобализации человеческого общества. «Языковой менталитет представляет собой феномен этнического сознания, который, подвергаясь определенным изменениям с течением времени (речь, разумеется, идет о больших промежутках времени,

исчисляемых столетиями), в своих глубинных основах остается, в общем и целом неизменным. Эта относительная стабильность поддерживается национальным языком как основой языкового менталитета, особенностями его функционирования в изменчивой социокультурной среде этноса. Именно национальный язык и воплощает в себе диалектику стабильности и изменчивости, обеспечивающую, с одной стороны, передачу от поколения к поколению опыта без ощутимых информационных потерь, а с другой – адаптацию к постоянно меняющимся условиям внешней среды» [5].

Заключение. Именно адаптация к условиям внешней среды и является одной из уникальных особенностей национального языка. На наш взгляд, данное определение ментальности выдержано в контексте понимания языка как формы культуры. Национальная культура и язык являются распространителями ментальных ценностей, таким образом, менталитет мы можем рассматривать как своеобразное социально-психологическое ядро миропонимания любого народа и нации. Менталитет можно назвать организующим началом, способствующим культурно-исторической преемственности, а язык – единственным средством, позволяющим проникнуть в скрытую сферу ментальности,

ибо он определяет способ членения мира в той или иной культуре.

Именно строевые единицы языка, по мнению В.П.Фелициной и В.М. Мокиенко, являются результатом длительного развития и передают от одного поколения к другому общественный опыт, поэтому «они важны не только как средство коммуникации, но и как источники различных общественно значимых сведений. Авторы также утверждают, «что национально-культурная семантика языка – это продукт истории, включающей в себя также и прошлое культуры, и чем богаче история народа, тем ярче и содержательные строевые единицы языка» [6; с.4]. Следовательно, именно историческое наследие народов является самым ярким показателем его развития.

Английские и французские фразеологизмы представляют для нас страноведческую ценность, поскольку они отражают национальную культуру всеми своими элементами, взятыми вместе, то есть своим идиоматическим значением. В связи с тем, что в основном семантика фразеологизма совпадает с лексической и некоторые фразеологизмы описывают явления прошлой жизни народов, многие компоненты фразеологизмов теряют свое современное значение в виду постоянного развития языка и общества, модернизацией и прогресса.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Головановская М.К. Ментальность в зеркале языка. Некоторые базовые концепты в представлении французов и русских. – М.: Языки славянской культуры, 2009. – 376 с. – (Язык. Семиотика. Культура)
2. Маматов А.Э. 100 наиболее важных функций языка. Т.: изд. «Вауoz», 2014.
3. Маматов А.Э. Важное учебное пособие по французской фразеологии. Сб.науч.статей. Т.: 2013. С.197-202.
4. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебн.пособие для студ.высш.учебн.завед.- М.: Издат.центр «Академия», 2004:66.
5. Радбиль Т.Б. Основы изучения языкового менталитета:учебн.пособие – М.: Флинта:Наука,2010.-328с.
6. Фелицына В.П. и Мокиенко В.М. Лингво - страноведческий словарь «Русские фразеологизмы». М.:1990 – 221 с.



Doniyor XUDOYBERGANOV,
Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: d_xudoyberganov@mail.ru

FarPI dotsenti, p.f.n., N.Shaxodjayev taqrizi asosida

KOGNITIV KOMPETENSIYA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING O'QUV FAOLIYATINING MUHIM TARKIBIY QISMI SIFATIDA

Аннотация

Maqolada boshlang'ich maktab o'quvchilarini o'qitish uchun kognitiv kompetensiyani shakllantirish muammosi, yosh o'quvchilarda kognitiv motivatsiya va o'rganishga qiziqishni shakllantirishning eng muhim vositalaridan biri bo'lgan og'zaki vazifalar tushunchasi va turlari, darsni qiziqarliligini ta'minlash usullari yoritib berilgan. Shuningdek mavzu yuzasidan zarur taklif-tavsiyalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, ta'limning kognitiv motivlari, o'quv faoliyati, boshlang'ich maktab o'quvchilari, kognitiv faoliyat, pedagogik mahorat.

ПОЗНАВАТЕЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ КАК ВАЖНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация

В статье освещена проблема формирования познавательной компетенции для обучения младших школьников, понятие и виды словесных заданий, являющихся одним из важнейших средств формирования познавательной мотивации и интереса к обучению младших школьников, способы обеспечения интересности урока. Также были высказаны необходимые предложения и рекомендации по теме.

Ключевые слова: Компетентность, познавательные мотивы обучения, учебная деятельность, младшие школьники, познавательная деятельность, педагогическое мастерство.

COGNITIVE COMPETENCE AS AN IMPORTANT COMPONENT OF THE EDUCATIONAL ACTIVITIES OF ELEMENTARY PUPILS

Annotation

The article highlights the problem of the formation of cognitive competence for the education of primary school pupils, the concept and types of verbal tasks, one of the most important tools for the formation of cognitive motivation and interest in learning in young students, methods for ensuring lesson fun. As well as the necessary suggestions on the topic-recommendations are expressed.

Key words: Competence, cognitive motives of education, educational activity, primary school students, cognitive activity, pedagogical skill.

Kirish. Ta'lim jarayoni - bu o'quvchilarning o'quv faoliyatining shakllanish darajasi bilan bog'liq bo'lgan murakkab shaxsiy ta'lim, ijtimoiy muhitda va oilada qabul qilingan ijtimoiy rivojlangan axloqiy qadriyatlarga asoslangan ta'limotning ob'ektiv ahamiyatini anglashni, ta'limning sub'ektiv ahamiyatini tushunishni o'z ichiga oladi.

Ilmiy tadqiqotlar va zamonaviy jamiyatning shaxsga bo'lgan talablari tashabbuskor, mas'uliyatli, malakali va kommunikativ qobiliyati rivojlangan odamlarga katta ehtiyojni ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, maktab o'quvchisining kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar nafaqat yuqori darajadagi fundamental bilimni, balki funksional savodxonlik darajasidagi bilimlarni ham o'z ichiga oladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta'limning yangi avlod standartlari o'quvchilarning umumiy madaniy, shaxsiy va kognitiv rivojlanishini ta'minlashi, shuningdek, asosiy kompetensiyalarni, shu jumladan kognitiv kompetensiyasini shakllantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Ushbu maqsadlar zamonaviy jamiyatda tez o'zgarib turadigan sharoitlarga moslashuvchanlikni talab qiladigan, bilim olish qobiliyati muvaffaqiyatli hayot va kasbiy faoliyat uchun asosiy mahorat asosiga aylanishini tushunishga asoslangan.

Umumiy madaniy rivojlanish o'quvchilarda keng dunyoqarashni, madaniyat, san'at, tarix asoslarini, boshqa milliy va madaniy an'analarni tushunishni shakllantirishni qamrab oladi. Bu turli xil bilimlarni idrok etish va jamiyatdagi farqlarga nisbatan bag'rikenglik munosabati uchun barqaror asos yaratishga yordam beradi. Shaxs rivojlanishi atrofda dunyoga va boshqa odamlarga nisbatan qadriyat munosabatini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Bunga o'z-o'zini anglash, o'zini o'zi boshqarish, empatiya va ijtimoiy mas'uliyat qobiliyatlarini rivojlantirish kiradi. Ijodkorlik, stressga chidamlilik, moslashuvchanlik kabi shaxsiy fazilatlarini shakllantirish ham ushbu jihatning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Kognitiv kompetensiya haqida to'xtalishdan oldin kompetensiya so'ziga qisqacha ta'rif berish joiz. S. I. Ojegovning lug'atiga ko'ra "kompetensiya" quyidagi ma'nolarni anglatadi:

- 1) kimdir yaxshi tushinadigan savollar doirasi;
- 2) kimdir vakolatlari doirasi, huquqlari.

Kompetensiyaga egalik - ma'lum bir sohada yuqori bilimga ega, malakali obro'li mutaxassis.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining kognitiv kompetensiyasi - bu o'quvchining shaxsiy - o'quv xususiyatlari to'plami bo'lib u yaxlit semantik hamda universal ta'lim faoliyati va qobiliyatlardan tarkib topadi. Ushbu fazilatlar ijtimoiy - shaxsan muhim soha sharoitida ta'lim faoliyati natijasida bilan shakllanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetensiyasi - bu bolaning shaxsining turli jihatlarini va elementlarini birlashtirgan ajralmas sifat hisoblanadi. Ushbu murakkab tushuncha nafaqat kognitiv, ya'ni aqliy, jihatlarini, balki shaxsning boshqa sohalarini, masalan, qadriyatli, motivatsion, hissiy va axloqiy tarkibiy qismlarini ham o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisida kognitiv kompetensiyani muvaffaqiyatli shakllantirishi uchun, maktab boshlangunga qadar unda ijtimoiy-psixologik kompetensiya shakllangan bo'lishi kerak. Ijtimoiy-psixologik kompetensiya-maktabgacha yoshdagi bolalarda boshqa bolalar, o'qituvchilar bilan muloqot qilishlari natijasida shakllanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi sinfdagi boshqa o'quvchilar bilan munosabatlarni o'rnatish usullariga ega bo'lishi, bolalar jamoasiga tez kira olishi, boshqalar bilan birgalikda harakat qilishi, sinfdoshlarini tushunishi va o'zini himoya qilish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

Kognitiv kompetensiya o'z ichiga quyidagi ko'nikmalarni oladi:

maqsadni belgilash va unga erishishni tashkil qilish qobiliyati, o'z maqsadini anglash qobiliyati;

o'z o'quv faoliyatini rejalashtirish, tahlil qilish, refleksiylash, o'zini o'zi baholashni tashkil qilish;

atrofida yuz berayotgan hodisalarning sabablarini izlash, o'rganilayotgan muammo bilan bog'liq tushunchalarini yoki tushunmovchiliklarni aniqlay olish qobiliyati;

kognitiv vazifalarni belgilash, uni hal qilishning zarur vositalari va usullarini tanlash, natijalarni tavsiflash, xulosalarni shakllantirish qobiliyati;

o'quv faoliyati jarayonini batafsil va qisqartirilgan nazorat turlarini amalga oshirish qobiliyati.

Kognitiv rivojlanish esa, axborotni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Bu yerda muhim jihat-yangi mavzularni mustaqil ravishda o'rganish, ma'lumotlarni yetarli darajada baholash va asosli qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish deb belgilangan. Bunga axborot savodxonligini rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash qobiliyati kiradi.

Shunday qilib, yangi standartlarga muvofiq ta'limning maqsadi nafaqat bilimlarni uzatish, balki zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va fazilatlariga ega o'quvchilarni shakllantirish bo'lib, bu yerda kognitiv qobiliyati asosiy kompetensiya vazifasini bajaradi.

Tahlil va natijalar. Boshlang'ich sinf bosqichi - bu ta'lim faoliyatining eng jadal shakllanish davri bo'lib, uning xarakteri va samaradorligiga shaxsning rivojlanishiga bevosita bog'liqdir. O'qishda yaxshi natijalarga erishish, o'z qobiliyatlarini anglash va turli vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish o'quvchini maktabda ta'lim jarayonida faol qatnashishi uchun zarur bo'ladigan kompetensiya turlarini shakllantirishga yordam beradi. O'z-o'zini anglashning ushbu yangi jihati, nazariy reflektiv fikrlash bilan bir qatorda, ma'lum bir yoshdagi bolalar rivojlanishining asosiy bosqichi hisoblanadi.

Kognitiv kompetensiya o'quvchilarning ta'limiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishning ongli tajribasi sifatida 2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limini modernizatsiya qilish strategiyasida belgilangan asosiy ta'lim kompetensiyalari orasida muhim o'rin tutadi.

Kognitiv kompetensiya - bu insonning bilim olish, bilimlarni egallash, qayta ishlash va undan foydalanish, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish qobiliyati bo'lib u quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

Fikrlash: tahlil qilish, sintez qilish, umumlashtirish, mavhumlashtirish, taqqoslash, tasniflash, muammolarni hal qilish qobiliyati.

Xotira: ma'lumotni saqlash va ko'paytirish qobiliyati.

Tasavvur: yangi tasvirlarni yaratish qobiliyati.

Nutq: fikrni tushunish va ifoda etish qobiliyati.

O'quv faoliyati va o'quv hamkorligini tashkil etishning mazmuni va shakllari o'quvchilarning motivatsiyasini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. O'quvchilarning o'quv jarayoniga ijobiy munosabati faqat o'quv predmeti mazmunini idrok etish va qayta ishlash, shuningdek undan keyingi foydalanish maktab o'quvchilarining faol o'quv faoliyati bilan ta'minlanganda paydo bo'ladi. Talabning aqliy faoliyatini faollashtirish uning yo'nalishini o'zgartirish, unga yanada yo'naltirilgan, intensiv xarakter berish, ya'ni fikrlarni joylashtirishning keyingi jarayoniga sifatli o'zgarishlar kiritish demakdir.

Biz yosh o'quvchilarda kognitiv motivatsiya va o'rganishga qiziqishni samarali shakllantirishda quyidagilar muhim omillardan biridir:

1) maktabdagi o'quv jarayonining gumanistik, ijodiy, ijobiy, hissiy jihatdan qulay tabiati;

2) o'qituvchining ta'lim jarayoniga individual, sub'ekt-faoliyat va integrativ yondashuvlardan birgalikda foydalanishi;

3) o'quv ishining individual sur'atini, kognitiv faoliyatning turli shakllari va usullarini talabani tanlashni ta'minlaydigan rivojlanayotgan, moslashuvchan va o'zgaruvchan muhitni yaratish;

4) o'quvchining bilim faoliyati o'qituvchi tomonidan to'liq tartibga solinmagan taqdirda, o'quvchining bilim ob'ektlari bilan faol o'zaro ta'sirini tashkil etish, o'z taqdirini o'zi belgilash imkoniyati;

5) o'qituvchining pedagogik faoliyati uslubining moslashuvchanligi, talabalar bilan pedagogik muloqotning demokratik tabiati;

6) darsda faol o'qitish usullaridan foydalanish, o'qitishning dialogik shakllari, o'quv materialining hissiy to'yinlanligi, nostondant vaziyatlarda bilimlarni qo'llashni talab qiladigan vazifalarni kiritish va kognitiv faoliyat usullarini ijodiy qayta qurish;

7) bolaning bilim tashabbusi va mustaqilligining namoyon bo'lishini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, introspeksiyaning talab qiladigan dars va vazifalarning aks ettiruvchi bosqichini joriy etish;

8) talabning kognitiv faoliyatida muvaffaqiyat holatlarini yaratish.

Agar o'qituvchi talabalarni muammoli vaziyatlarni hal qilish uchun muammoli vaziyatga qo'ysa, mustaqil xulosa chiqarganda, o'rganilgan materialni yangi aloqalarda baholasa, o'rganish uchun ichki, yetarlicha barqaror motivatsiya shakllanadi. Bunday holda, bilim va ko'nikmalar ta'limning yakuniy maqsadi emas, balki har bir o'quvchining ijodiy faoliyati va o'zini o'zi anglash vositasi hisoblanadi. Bularning barchasi o'quvchilarni tahlil qilish, bilish va faoliyatning umumiy usullari, tamoyillari va usullarini o'zlashtirishni talab qiladi. Ushbu texnikani o'zlashtirish nafaqat bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga, balki o'quvchilarning bilim qiziqishini rivojlantirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Muhokama. O'quvchilarda kognitiv kompetensiyani shakllantirish ta'limning ustuvor maqsadlaridan biridir. Biroq, o'quv va kognitiv faoliyatga, uni shakllantirish va faollashtirish

usullariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqotlar o'tkazilganiga qaramay, umumiy ta'lim ko'nikmalarini takomillashtirishga qaratilgan ta'lim texnologiyalarining ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ko'plab boshlang'ich maktab o'qituvchilari boshlang'ich ta'limning yangi maqsadlariga yo'naltirishda qiynalmoqda. Hali ham asosiy e'tibor bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga qaratilgan. Natijada, boshlang'ich maktab o'quvchilari nafaqat haqiqiy, balki yangi, nostandart o'quv va amaliy vaziyatlarda ham o'quv vositalarining imkoniyatidan foydalana olmaydilar. Ushbu fakt bir necha bor pedagogik amaliyot va turli darajadagi ta'lim sohasidagi monitoring bilan tasdiqlangan.

Boshlang'ich maktab yoshida eng muhim bilim jarayonlarini rivojlantirishda ijobiy dinamika mavjud. E'tibor bering, kognitiv universal ta'lim harakatlarining shakllanishi yuqori aqliy funksiyalarni — xotira, e'tibor, tasavvurning o'zboshimchaliklarini rivojlantirishni talab qiladi. Kichik maktab o'quvchisi ko'rgan yoki eshitgan narsalarini xotirada saqlashga imkon beradigan, ilgari qabul qilingan narsadan tashqarida bo'lgan narsani tasavvur qilishga imkon beradigan maxsus harakatlarga ega bo'lishni o'rganadi. Shunday qilib, yosh o'quvchining e'tibori maktabgacha yoshdagi davrga nisbatan ko'proq barqarorlik va o'zboshimchalik bilan ajralib turadi.

Boshlang'ich maktab yoshida ixtiyoriy xotira ham kognitiv kompetensiyaning shakllanishiga tayanadigan funksiyaga aylanadi. Ushbu kognitiv jarayonning o'quv faoliyatidagi yetakchi roli bolani xotirasini rivojlantirish zarurligini tushunishga, uni tartibga solish va ongli ravishda boshqarish imkoniyatini o'zlashtirishga olib keladi.

Boshlang'ich maktab o'quvchisi uchun tasavvur shaxsiy amaliy tajribadan tashqariga chiqishning bir usuli va ijodkorlik va ijodkorlikni rivojlantirishning eng muhim shartidir. Bundan tashqari, boshlang'ich maktab yoshida

bolalar o'z harakatlarini rejalashtirish, qaror qabul qilish va samarali xotira strategiyalarini tanlashda foydalanadigan metakognitiv qobiliyatni rivojlantiradilar. Biroq, boshlang'ich maktab davrida xotira, e'tibor, fikrlash va tasavvurning rivojlanishi, shuningdek, ta'lim va kognitiv kompetensiyaning shakllanishi ta'lim faoliyatida ro'y beradi, bu bola rivojlanishining ushbu bosqichida yetakchi faoliyat turiga aylanadi. Bu boshlang'ich maktab yoshidagi rivojlanishning eng muhim muammolarini hal qilishga imkon beradigan o'quv faoliyati, ya'ni o'rganish motivlarini shakllantirish, barqaror bilim ehtiyojlari va qiziqishlarini rivojlantirish, shuningdek samarali o'qitish texnikasi va ko'nikmalarini rivojlantirish, o'rganish zarur. O'rganish ta'siri ostida hodisalarning tashqi tomonini bilishdan ularning mohiyatini bilishga, tafakkurda muhim xususiyatlarni aks ettirishga bosqichma-bosqich o'tish mavjud bo'lib, bu birinchi umumlashmalar, elementar xulosalar chiqarish imkonini beradi. Shu asosda bolada ilmiy tushunchalar shakllana boshlaydi, kundalik tushunchalardan farqli o'laroq, uning tajribasi asosida maqsadli ta'lim rivojlanadi.

Xulosa. Boshlang'ich maktab yoshi kognitiv kompetensiyani shakllantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi, chunki bu yoshdagi barcha faoliyat turlari, shu jumladan o'quv faoliyati kognitiv sohaning rivojlanishiga hissa qo'shadi. Diqqat, xotira, tasavvur, idrok ko'proq o'zboshimchalik xususiyatiga ega bo'ladi. Bola ularni mustaqil boshqarish usullarini o'zlashtiradi.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kognitiv kompetensiya ijtimoiy-psixologik kompetensiya asosida shakllana boshlaydi degan xulosaga kelish mumkin. U zarur nazariy bilimlarni o'zlashtirishi va ularni muayyan masalalar va muammoli vaziyatlarni hal qilishda muvaffaqiyatli qo'llay olishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son
2. Azizov A. Kognitiv ko'nikma ta'limning asosiy kompetensiya sifatida. TDPU ilmiy axborotlari, 2022 yil (2-son), 12-17 b.
3. Ожегов С.И. Словарь русского языка. /С.И.Ожегов, Н.Ю.Шведова.- М., 1989. - 650с.
4. Pedagogik atamalar lug'ati // R.X. Djuraev va boshqalar. - "Fan" nashriyoti. Tashkent.-2008. 198 - b.105-sahifa.
5. Смирнова Е. О. Формирование социально-психологической компетентности у детей младшего школьного возраста // Дошкольное воспитание. 2019. № 11. С. 65-72.
6. Эриксон Э.Г. Детство и общество. /Э.Г.Эриксон-СПб.: Речь, 2000.- 416с.



UO•K: 376:37.06:316.752.4

Tamara XO'JANOVA,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti dotsenti, f.f.n.
E-mail: tamaraxujanova7@gmail.com

F.f.d., professor G.K.Masharipova taqrizi asosida

PREVENTING THREATS TO NATIONAL SPIRITUALITY IN THE INFORMATION SOCIETY

Annotation

The article scientifically substantiates methods and means of preventing threats to national spirituality in the information society. The main thing that helps to ideologically protect the younger generation is the ideological prevention of the system of education and promotion. Family, school, mahalla and various public organizations are important structures that serve to educate young people in the spirit of noble ideas and introduce this education into their minds.

Key words: Ideological prevention, youth, destructive information, aggression. protection, means, neighborhood, family, educational institutions.

ПРЕДОТВРАЩЕНИЕ УГРОЗ НАЦИОНАЛЬНОЙ ДУХОВНОСТИ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация

В статье научно обоснованы методы и средства предотвращения угроз национальной духовности в информационном обществе. Главное, что помогает идеологически защитить молодое поколение и идеологическая профилактика системы воспитания и продвижения. Семья, школа, махалла и различные общественные организации являются важными структурами, которые служат воспитанию молодых людей в духе благородных идей и внедряют это образование в их умы.

Ключевые слова: Идеологическая профилактика, молодежь, деструктивная информация, агрессия. защита, средства, соседство, семья, образовательные учреждения.

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA MILLIY MA'NAVIYATGA QARSHI TAHDIDLARNING OLDINI OLISH

Annotatsiya

Maqolada axborotlashgan jamiyatda milliy ma'naviyatga qarshi tahtidlar oldini olish usul va vositalari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Yosh avlodni g'oyaviy jihatdan himoyalashga yordam beradigan asosiy narsa ta'lim-tarbiya, targ'ibot-tashviqot tizimi mafkuraviy profilaktikadir. Ezgu g'oya va qarashlar ruhida yoshlarni tarbiyalash va shu tarbiyani ularning ongiga singdirishga xizmat qiladigan tuzilmalar oila, maktab, mahalla va turli jamoa tashkilotlari bunda o'z o'rniga egaligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Mafkuraviy profilaktika, yoshlar, buzg'unchi axborotlar, tajovuz. himoya qilish, vosita, mahalla, oila, ta'lim muassasalari.

Kirish. Dunyoda vujudga kelgan global muammolar echimida, ayniqsa ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tizimi barqarorligini ta'minlashda fuqarolarni ma'naviy-mafkuraviy himoyalash, ya'ni Uchinchi Renessnas yoshlarini axborotlashgan jamiyatda g'oyaviy-mafkuraviy xurujlardan asrash masalasi dolzarb hisoblanadi. Xususan, bugungi kunda global miqyosda kuchayib borayotgan ma'naviy tahdidlar, g'oyaviy-mafkuraviy xurujlar, ma'naviy buzquklarga qarshi jamiyatda mafkuraviy profilaktikani yanada kuchaytirish ob'ektiv zaruriyatdir. Ayniqsa, yoshlar ijtimoiy-demografik qatlamining mafkuraviy ongi, ma'naviy immuniteti va axloqiy sifatlarini rivojlantirishda hamda har tomonlama g'oyaviy himoyalashda mafkuraviy profilaktika o'tkazish muhim vazifalardan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XXI asr axborot texnologiyalari kundan-kunga taraqqiy etib borayotgan davr sifatida davlatlar, qit'alar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy to'siqlarni bartaraf etishga qodir yagona axborot makonini vujudga keltirmoqda. Axborotlashgan jamiyat sharoitida axborotlar bir qator maqsadlarga ega bo'lib, bular quyidagilardan iboratdir: axborot zahiralari bitmas-tuganmas bo'lib, jamiyatning rivojlanishi va axborotga bo'lgan talabning ortib borishi bilan ular doimiy ravishda ko'payib boradi;

jamiyat hayotida axborotdan foydalanish imkoniyati doimo saqlanib turadi; axborotni zamonaviy kommunikatsiya vositalari orqali bir zumda istalgan joyga etkazish mumkin; axborotning mazmuni vaqt o'tishi bilan o'zgarmay, tarixiy fakt sifatida muayyan qimmatga ega bo'ladi; axborot zahiralari boshqa zahiralardan birlashgan holatda harakatlanuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi [3].

Jahonda axborotni saqlash, qayta ishlash va uzatish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning kuchayib borishi yoshlarga o'z ta'sir kuchini turli yo'llar bilan o'tkazib kelmoqda. Ayniqsa, kompyuter tarmoqlari orqali axborotni qabul qilib olish va uzatishda aloqa vositalaridan foydalanishning keng joriy etilishi hamda axborotlashtirishning jadal taraqqiyoti axborot uzatish tizimlarini tahdidlardan himoya qilish, axborot xavfsizligini ta'minlash muammolarini keltirib chiqardi. Bugungi kunda har qanday axborot yashin tezligida dunyoning turli chekkalariga etib borishi, millionlab odamlar undan bir zumda xabar topishi oddiy xolatga aylangan. Ushbu holatning qulayliklari bilan birgalikda salbiy oqibatlar olib kelishi mumkin bo'lgan xavfli tomonlari ko'proq yoshlarni o'z domiga torta boshladi. "Shu bilan birga, globallashtirish va axborot xurujlari, turli

buzg'unchi g'oyalar ta'sirida milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarimizga qarshi tahdid va xatarlar tobora kuchaymoqda. Xudbinlik, ya'ni, faqat o'zini o'ylash, hayotga, mehnatga, oilaga engil qarash, iste'molchilik kayfiyati singari illatlar turli yo'llar bilan aholi, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirilmoqda" [1]. Axborot xavfsizligi muammosi davlat va jamiyatning barcha sohalari – iqtisodiyot, siyosat, ilm-fan, madaniyat, milliy va xalqaro xavfsizlikning sifatli axborot almashinuvi, axborot va telekommunikatsiya tizimi, texnologiya va vositalariga tobe bo'lib qolganiga asoslanadi. Yoshlarning axborot sohasidagi manfaatlarining ularning axborotga ega bo'lish, qonunan ta'qiqlanmagan faoliyatni, ya'ni jismoniy, ma'naviy va intellektual rivojlanish jarayonida axborotdan foydalanish borasidagi konstitutsion huquqlarining amalga oshirilishining ta'minlanishini nazarda tutadi [4].

Yosh avlod ta'lim-tarbiyasi, unda yuksak ma'naviyat tamoyillari va mafkuraviy immunitetni shakllantirish hamma vaqt jamiyat oldidagi muhim vazifadir. Zero, jamiyat kelajagi, xalq, millatning davomiyligi, Vatan taraqqiyoti ana shu tarbiyaning to'g'ri yo'lga qo'yilishi va samaradorligiga bog'liq. Bu yana shuning uchun xam zarurki, keyingi paytlarda ba'zi xorij ommaviy axborot vositalarida yoshlarni ma'naviy jihatdan buzishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilayotganligi ma'lum bo'lib qolmoqda. Ayrim muxoliflarimiz, xorijdagi bir qancha matbuot organlari, Internetdan ustakorona foydalanuvchilar noxolis xulosalar, buzg'unchi g'oyalarni tarqatishni davom ettirmoqda [5].

Yoshlarda yot g'oyalarga nisbatan ma'naviy immunitet shakllanmas ekan, "bu - yaxshi, bu – yomon" degan qat'iy fikr paydo bo'lmas ekan, mafkuraviy xatarlarga qarshi turish qiyin bo'ladi" [2]. Ochiq axborot tizimlarida millatlarni parokandalikka olib boradigan, insoniyat uchun sharmandali vaziyatlarni o'zida ifodalovchi holatlar demokratiya, inson huquqlari kabi oliy qadriyatlar shiori ostida targ'ib qilinmoqda. Mana shunday holatlardan kelib chiqib, bugungi kunda O'zbekistonda boy tarixiy ma'naviy meros, milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, fuqarolarda milliy g'urur va iftihar tuyg'ularini yuksaltirish asosida mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yoshich jarayonida analiz va sintez, induksiya va deduksiya, dialektik, retrospektiv, qiyosiy tahlil va tizimli yondoshuv kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Axborot xavfsizligi haqida gap ketganda, biz odatda kompyuterlar, tarmoqlar, Internet va xakerlar haqida o'ylashni boshlaymiz. Ammo ta'lim muhiti uchun muammo kengroqdir: o'quvchini uning shakllanishi va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ma'lumotlardan himoya qilish, ya'ni turli yo'nalishlarni targ'ib qilish, yoshlarni axborot urushi davrida mafkuraviy tajovuzdan asrash tadqiqining nazariy-falsafiy asoslari, axborot urushlarining paydo bo'lishi va ularning sodda-ibtidoiy xarakteri, yoshlarning ilmiy falsafiy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishga qarshi OAV orqali olib borilayotgan xurujlar va yoshlarni axborot urushi davrida g'oyaviy tushkunlikka tushishiga qarshi ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishdan iborat. Tabiiyki, har bir shaxs uchun insoniylik xususiyatlari begona emas: har bir kishi o'z shaxsiy qadr-qimmatini, axloqiy yaxlitligi va o'z irodasini, ob'ektiv haqiqat dunyosida nomoyon qilish istagi bilan yashaydi. Shu bilan birga deyarli har bir kishi yolg'on hayot bilan yashashga ko'nadi va ma'lum darajada tazyiq va me'yorlardan ta'sirlanadi. Ularning har biri yuzsiz massaga, soxta hayot oqimida suzish moyilligini shakllantiradi. Bunday vaziyatda, endi fikr ikki mohiyat

ziddiyati haqida emas, balki undan ham yomoni, mohiyatning inqirozi haqida ketadi.

Ma'naviy jihatdan G'arbdan qolishmaydigan Sharq nima uchun ko'proq ta'sir o'tkaziladigan mintaqaga aylanib qoldi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiy ta'sir o'tkazish uchun iqtisodiy jihatdan boy bo'lish kerak. Biroq, ma'naviy ta'sir o'tkazish uchun ma'naviy boylikning o'zi kifoya qilmas ekan. Masalan, dunyoda eng qadimgi tamaddunlar o'lkasi bo'lgan Iroq keyingi yarim asr davomida, globallashuv jarayonida uzoq mamlakatlar u yoqda tursin, yon atrofdagi mamlakatlarga ham sezilarli ta'sir o'tkaza olmadi. Ma'naviy globallashuv jarayonlarini o'rganar ekanmiz, ma'naviy ta'sir o'tkazishning muhim sharti ma'naviy faollik degan xulosaga keldik.

Mamlakat boy-madaniy tarixga ega bo'lsa-yu, hozirgi avlod o'sha ma'naviy boylik va an'analarni o'zlashtirmagan bo'lsa, u mamlakat ma'naviy ta'sir sub'ekti bo'la olmaydi va ob'ektligicha qoladi.

O'zgarishlarga qanchalik qarshilik ko'rsatilmasin, ular bari bir hayotimizga kirib kelaveradi. Ayniqsa, globallashuv jarayonidan o'zining g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanuvchi kuchlar bor ekan, bu o'zgarishlardagi salbiy jihatlar ham kuchayib boradi. Binobarin, globallashuv jarayonining asosiy sub'ekti va harakatlantiruvchi kuchlari manfaatlariga hizmat qiladigan bunday sa'y-harakatlardan ko'zlangan maqsad milliy manfaat va qadriyatlarga tayangan an'anaviy tafakkur tarziga zarba berib, butun dunyoda g'arbona andozalarga asoslangan, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hamda madaniy jihatdan yagona tamaddun hukmronligini o'rnatishidan iborat. Bunday sa'y-harakatlarning hatarli jixati shundaki, uning boshqa tamaddunlar, xalqlar va davlatlar uchun qanday oqibatlar keltirib chiqarishi, masalan, yaqindagina mustaqillikka erishgan mamlakatlarning milliy manfaatlarini, an'ana va qadriyatlariga qay tarzda ta'sir etishi mumkinligi global hukmronlikka intilayotgan kuchlarni u qadar tashvishlantirmaydi [6].

Ana shunday global ta'sirlar xalqaro telekommunikatsiyalar, internet tizimi orqali yoshlarimiz ma'naviyatiga salbiy ta'sir etayotganligi bugungi kunda isbot talab qilmaydigan xaqiqatdir. Xavf-xatarlarga jiddiy razm soladigan bo'lsak, mustamlakachilik siyosati, birovlarini qaram qilish siyosati yangi asrda yo'qolmaganini, balki o'zining shakli shamoyilini o'zgartirganini tushunib etamiz [7]. Darhaqiqat, «Millat bor ekan, milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urf-odatlariga tahdid soladigan, uni o'z ta'siriga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o'z manfaatini yo'lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar» [8].

Aslida, suverenitet davlat miqyosida oliy hokimiyatga egalikni, tashqi va ichki siyosatni olib borishdagi to'la mustaqillikni anglatadi. Aynan suverenitet muayyan davlat mustaqilligining birlamchi sharti va belgisidir. Bu esa suverenitetning qisman yoki cheklangan shaklda mavjud bo'la olmasligini anglatadi. Chunki suverenitet davlatning boshqa davlatlarga tobe bo'lmay, qaram bo'lmay yashashini, o'zga kuchlar tomonidan boshqarilmay, birovlarining irodasiga bo'ysunmay, mustaqil hayot kechirishini nazarda tutadi. Muhimi, davlat suverenitetining o'rnatilishi mamlakatlar o'rtasida tenglik qaror topishini shartlab qo'yadi hamda mutelik, o'zgarlar hisobiga yashash, turli kamsitishlar, ortiqcha ta'zim-tavozega yo'l qo'ymaydi. Davlat suvereniteti mustamlakachilikning har qanday shaklini, uning kamsituvchi tabiatini, u taqozo etadigan zo'ravonliklarni inkor etadi [9].

Globalashuv jarayonlarini tahlil qilgan olimlar bu jarayonlarda davlatning rolini turlicha baholaydilar. Ayrim nazariyalarda globalashuv jarayonida davlatning roli tobora pasayib borishi uqitirilsa, boshqalarida uning o'zni va ahamiyati o'zgaraydi, deb ta'kidlanadi. Yana bir guruh olimlar esa globalashuv sharoitida davlat bilan davlatlararo tashkilotlari o'rtasida siyosiy hokimiyat qayta taqsimlanib, davlat ularga o'z suverenitetining bir qismini beradi [10, 389-b.], degan farazlarni ilgari surmoqda. Har qanday jamiyat bunday makkor tahdidlarni engishi uchun o'zida ogohlik, mafkuraviy xavfsizlik, to'kislik, jangovarlik, safarbarlik, umummilliy birlik kabi ijtimoiy sifatlariga ega bo'lishi kerak. Buning uchun milliy istiqlol mafkurasi yot mafkuralarga qarshi kurash uslublari, jumladan, buzg'unchi g'oyalar mohiyatini fosh qilishga qaratilgan targ'ibot, mafkuraviy monitoring va tahdidlar mohiyatini xalqimiz ongi va qalbiga etkazish, jaholatga qarshi ma'rifat tarqatish uslublaridan doimo va hamma joyda foydalanish taqozo qilinadi. Mafkuraviy tarbiya samaradorligi eng avvalo jamiyatni mafkuraviy tarbiyalashdan natija qanday bo'lishi kerak ekanligini aniq belgilanishiga bog'liq [11].

Yoshlarda internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish uchun quyidagi masalalarga asosiy e'tibor qaratish lozim:

- yoshlarning g'oyaviy-mafkuraviy salohiyatini o'stirish va barkamol avlod tarbiyasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan to'g'ri foydalanishni tashkil etish;

- axborot-kommunikatsiya va internet texnologiyalari yutuqlaridan oqilona va maqsadli foydalanish;

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan va axborotlardan foydalanish muhitini yaratish;

- internet tarmog'ida yoshlarga, ularning qiziqishlariga va intilishlariga, axborot ehtiyojlariga yo'naltirilgan elektron manbalarni tashkil etish masalalari.

Yoshlarda internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirishda milliy g'oya va mafkurani targ'ib qiluvchi, insonning o'zligini anglatuvchi, kuchli g'oyaviy, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy, badiiy, sport, harbiy-vatanparvarlik, milliy o'yinlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar yo'nalishlarida

milliy axborot resurslarini yaratish va rivojlantirish masalalariga katta e'tibor beriladi. Bugungi kunda yoshlar internetdan faol foydalanuvchi sub'ektlarning asosiy qismini tashkil etib, ularning mafkuraviy ongi unda berilayotgan ma'lumot-axborotlar orqali shakllanib boradi [12].

Xulosa va takliflar. Axborotlashgan jamiyatda milliy ma'naviyatga bo'layotgan tahdidlarning oldini olish va bartaraf etishda quyidagilar muhim ahamiyatga egadir:

- chetdan kirib kelayotgan tashqi ma'naviy, siyosiy va iqtisodiy tahdidlarni paydo bo'lish davridan aniqlab, ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish;

- ularga qarshi kurashishning huquqiy asosini yanada takomillashtirish, yangi normativ – huquqiy ujjatlar ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq qilish;

- millatning, xalqning jamiyatda qabul qilingan ma'naviy-axloqiy normalari, madaniy rivojlantirish tamoyillarini rivojlantirish, ularni barcha fuqarolar, ayniqsa yoshlar orasida targ'ibot-tashviqot ishlarini yanada kuchaytirish;

- internet va xorijiy ommaviy axborot vositalari orqali kirib kelayotgan turli salbiy axborotlarga qarshi O'zbekistonning barcha fuqarolarining o'zaro hamkorlikda kurashishi;

- ichki va tashqi ma'naviy tahdidlarga qarshi "mafkuraviy immunitet"ni shakllantirish;

- yoshlarning ongida milliy ma'naviyatimizga, ma'naviy merosimizga, tariximizga mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish;

- atrofda bo'layotgan voqea-hodisalarga nisbatan doimo ogoh va hushyor bo'lish hamda o'zining mustaqil fikrini bildirish muhim ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda mafkuraviy xurujlar yoshlar, inson va jamiyat hayotiga, mamlakatning ijtimoiy taraqqiyotiga katta ta'sir o'tkazmoqda. Hozirgi vaqtda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya maydonida chuqur o'zgarishlar ro'y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi kurashish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: Ozbekiston, 2021. -B. 268.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. –Toshkent: O'zbekiston, 4-jild. 2020. -B. 178.
3. Masharipova G.K. Development of scientific creativity in the era of renaissance // International conference bridge to science. - San Francisco, California, USA conference proceedings. Research work april, 15, 2019. - Pp. 6-10.
4. Xo'janova T. Axborotlashgan jamiyat va uning mafkuraviy texnologiyalarini OAV tizimidagi to'g'ri foydalanishning yosh avlodni g'oyaviy himoyalashdagi ma'no-mazmuni va ahamiyati. - O'zMU xabarlari. 2022 1/8. – 169-173-bb.
5. X'yanova T. Mafkuraviy profilaktika – yosh avlodni g'oyaviy himoyalash omili (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Monografiya. – Toshkent, «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2019. – 256 b.
6. Umarov B. "G'arb tamadduni: inkiroz alomatlari". "Tafakkur" jurnali, 2/2007 yil, 16-b.
7. Abbosxo'jaev, Umarova N., Qo'chqorov R. Mafkura poligonlaridagi olishuv. – Toshkent, «Akademiya», 2007. 14-15-bb.
8. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: «O'zbekiston», 2000, 3-bb.
9. Abbosxo'jaev, Umarova N., Qo'chqorov R. Mafkura poligonlaridagi olishuv. – Toshkent: «Akademiya», 2007. 16-b.
10. Удовик С.Л. Глобализация: семиотические подходы. – Москва: «Ваклер», 2002. - С. 389.
11. Masharipova G.K. Globalashuv jarayoni to'g'risida zamonaviy yondashuvlar va madaniyatlararo integratsiya masalasi // «Mustaqillik sharoitida xalqimizning g'oyaviy tarbiyalanishining dolzarb masalalari» mavzusida onlayn respublika miqyosida ilmiy-nazariy anjuman. 2020-yil 5 may. - B.521-524.
12. Masharipova G.K. Globalashuv jarayoni va ma'naviy tahdidlarning yoshlar ma'naviyatiga ta'siri. // "Sog'lom avlod tarbiyasida ma'naviyatning o'zni" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. – T., 2014. - 37-41-bb.



UDC: 539.46.38(5.12.3)

Gavhar HATAMOVA,

Navoi State Pedagogical Institute Associate Professor of the Department of Geography and Economic

E-mail: gavharxotamova8887@gmail.com

Professor of Navoi State University of Mining and Technologies, Doctor of Economics Ashurova N.B. based on the review

THE CURRENT SITUATION AND FUTURE POSSIBILITIES OF EDUCATIONAL REFORMS IN UZBEKISTAN

Annotation

A primary measure of a state's progress is the competitiveness of its scientific, technology transfer, and education systems. Because of the fact that this guarantees the inventive character of the economy, industrialized nations place a high value on the ongoing advancement of this field. Uzbekistan's educational system has undergone significant reforms in recent years with the goal of producing highly skilled workers who are in high demand on the job market. The nation's leaders are actively working to change the educational system in this regard. The article outlines the major adjustments made to Uzbekistan's educational system as well as the primary issues that the nation will be confronting in the years to come.

Key words: Education, innovative development, higher education, scientific and technological progress, reforming, international systems PISA, TIMSS, PIRLS.

ТЕКУЩАЯ СИТУАЦИЯ И БУДУЩИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕФОРМ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

Одним из основных показателей уровня развития государства служит конкурентоспособность ее системы образования, науки, трансфера технологий. Это фактор, обеспечивающий инновационный характер экономики, поэтому в развитых странах придают огромное значение непрерывному развитию данной сферы. В последние годы в системе образования Узбекистана происходят кардинальные изменения, направленные на формирование высококвалифицированных кадров, востребованных на рынке труда. В связи с этим руководство страны предпринимает активные действия и меры по реформированию системы образования. В статье освещаются ключевые изменения в системе образования Узбекистана и основные задачи, стоящие перед страной в ближайшие годы.

Ключевые слова: Образование, инновационное развитие, высшее образование, научно-технический прогресс, реформирование, международные системы PISA, TIMSS, PIRLS.

O'ZBEKISTONDA TA'LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR: HOLATI VA ISTIQBOLLARI

Аннотация

Davlat taraqqiyotining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bu uning ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, fan va texnologiyalar transferidir. Bu iqtisodiyotning innovatsion xususiyatini ta'minlovchi omil bo'lgani uchun ham rivojlangan mamlakatlarda ushbu sohaning uzluksiz rivojlanishiga katta ahamiyat beriladi. Keyingi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimida mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlarni shakllantirishga qaratilgan tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Shu munosabat bilan mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Maqolada O'zbekiston ta'lim tizimidagi asosiy o'zgarishlar va yaqin yillarda mamlakat oldida turgan asosiy vazifalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, innovatsion rivojlanish, oliy ta'lim, ilmiy-texnik taraqqiyot, islohot, PISA, TIMSS, PIRLS xalqaro tizimlari.

Introduction. The content and essence of education is determined by the level of material and cultural development of society. Depending on social relations, the need for general information, professional training of people, pedagogical ideas about education, the essence, method, and organizational forms of education have changed at different stages of the development of human society. [1].

In the era of globalization and information technology, education is becoming increasingly important on a global scale. A nation's degree of development is influenced not only by socioeconomic and cultural indicators, but also by an evaluation of its strength and power, and to a large extent by its intellectual capacity. The country's sustainable development and wealth are largely attributed to scientific and technological advancements, the roots of which are set in the educational system. The primary source of wealth of a nation is its human capital, or the entirety of its citizens' knowledge, skills, talents, and capacities,

according to the World Bank report "Changing the level of welfare of nations".

Literature review. Uzbekistan's primary strategic objective is to join the world's developed nations and provide a good standard of living for its people. The nation is implementing a very deliberate and well-defined plan of action, and the institutional, legal, practical, consistent, and systemic measures adopted fully support the implementation of democratic, political, and economic reforms as well as social transformations meant to provide ample opportunity for the full realization of each citizen's and society's collective professional, intellectual, and spiritual potential [2].

When an educated, politically and socially engaged individual with a high degree of legal consciousness and culture is designated as the central agent of all revolutions, the concerns surrounding the gradual growth of the educational system have ever-greater significance. Shavkat Mirziyoyev, the President of Uzbekistan, correctly pointed out on this particular occasion

that “our competitiveness in science, education, and upbringing, as well as the success of reforms, are primarily associated with the development of science, education, and upbringing in the country” [3].

It is important to note that Uzbekistan's educational policies are designed to assure the constant and methodical application of the values outlined in the Republic of Uzbekistan's Constitution, which guarantees everyone the right to free general education [4].

Mutolaa-bu yozma mantni idrok qilish va tushunish uchun mo'ljallangan nutqiy faollikning o'ziga xos turidir. Insoniyat tarixida mutolaa qilish qobiliyati o'g'zaki nutqdan so'ng vujudga kelganligiga qaramay, hozirda u alohida aloqa turi sifatida rivojlanmoqda. Mutolaa qilish uchun beriluvchi matnlar faqat grafemalardan iborat murakkab konstruksiyaga ega bo'lgan ma'lumotlarni berish uchungina emas, balki, insonlarning aqliy qobiliyati, shu jumladan tasavvur, his-tuyg'ular, tajriba, bilim berish bilan birga dunyoqarashni kengaytirishni nazarda tutadi. Shu asnodan bu til o'rganuvchining shaxsiy o'zgarishlariga ham ta'sir o'tkazadi. O'qish jarayoni tahlil, sintez, umumlashtirish va tahmin qilish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Har bir bolada og'zaki nutq shakllanganidan so'ng u o'z ona tilida o'qishni boshlaydi va shu orqali og'zaki nutqdan ma'lum bo'lgan materiallar grafikasini

sintez qiladi va keyingi jarayonlarni ham birinma-ketin boshdan kechiradi. Huddi shu vaziyatdan kelib chiqqan holda, ikkinchi til o'rganuvchilarda ham shunday vaziyat yuzaga keladi. Mutolaani o'rgatish vazifasi quyidagilardan iborat bo'ladi: til o'rganuvchilarni muayyan nutq muammosini hal qilish uchun kerakli darajada ma'lumotni mantdan ajratib olish va ma'lum Mutolaa texnologiyalardan fodalaniшни o'rgatishdir [1].

MUTOLAA bir-biriga bog'liq nutq qobiliyatlari va tilni o'rganish, qo'llash uchun vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin, chunki:

Mutolaadan foydalanish til o'rganuvchilarni til va nutq materiallarini o'rganish jarayonini optimallashtirishga xizmat qiladi. Ya'ni bu degani ham til xususiyatlarini (grammatika) hamda og'zaki nutq faoliyatini birga ko'rsatib bera oladi.

Kommunikatsiyaga yo'naltirilgan leksika va grammatikani o'rganish shuningdek tinglash, yozish va gapirishni o'zaro parallel shaklda o'zlashtirish qobiliyatini shakllantirishga yozma matnlar orqali erishilishi samarali bo'ladi.

Barcha til va nutq qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish topshiriqlarga oid matn va yozma ko'rsatmalar ustida ishlashga asoslanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Har qanday nutq qobiliyatlarining asosida ma'lum darajadagi malaka shakllangan bo'lib, bu malaka ko'p vaqt o'ylashni talab qilmaganligi uchun shaxslarda avtomatik tarzda bajariladi. Mutolaa jarayoni bevosita avtomatlashtirilgan vizual va eshitish aspektlari bilan bog'liq holda kommunikativ qobiliyatlarni matn orqali orfografik qoidalar ko'nikmasini

shakllantiradi. Mutolaa kompetensiyasiga tegishli nutq qobiliyatini o'stirish uchun turli matndan ma'lumotlarni olish va ularni to'g'ri anliz va sintez qilish uchun xilma xil texnologiyalardan foydalanilishi zarur. Bularning asosi esa mutolaa qilish texnikasidir. Shuning uchun mukammal o'qish (mutolaa qilish) texnikasini ishlab chiqish lozim. Birinchi bosqichda mutolaa texnikasini qachon va qaysi o'rinda boshlash vaqtini aniqlab olish kerak. Mutolaa texnikasi tushunchasida birinchi navbatda harf va tovush qanchalik bir biriga muvofiqligini ikkinchi navbatda esa qabul qilingan materialni semantik guruhlariga birlashtirish va intonatsiyani tog'ri shakllantirishni ham o'z ichiga olishi kerak. Agar shu ko'nikmalarni yetarli darajada shakllantira o'lmasangiz avtomatik tarzda nutqni paydo bo'lishiga to'sqinlik qiladi va mutolaa jarayoni samarasiz kechadi.

R. MINYAR Belaruchev mutolaa texnikasining uch komponenti keltiradi:

Ko'rish shakli

Nutq shakli

Ma'no-mazmun shakli [2]

Agar mutolaa texnikasi shu uchta komponentni shakllantirishni o'z ichiga olmagan bo'lsa o'qishdagi izchillik yo'qoladi va o'rganuvchi og'zaki nutqni o'zlashtirsada ma'no-mazmuni o'zlashtirmaydi yoki ko'rgan o'qigan materialini yozib bera olmasligi mumkin. Mutolaa qilish(o'qish) paytida o'rganuvchi nafaqat matnни ko'rib eslab qoladi, balki o'zi ham matnни so'zlab berishga harakat qiladi va ayni paytni o'zida

tashqi tomondan ham o'zining ovozi eshitadi. Ichki talaffuz mexanizmi yordamida esa grafik va eshiting jihatlarini qiyoslab solishtirib, ya'ni yuqorida aytilganidek tahlil jarayoni kechadi. Ushbu mexanizm orqali o'rganuvchi o'zini kuzatib boradi natijada tajriba ortishi bilan esa ichki ovoz (intertil) ancha qisqaradi va yo'qolib borish bilan nutq ham avtomat tabiiy tarzda namoyon bo'la boshlaydi.

Mutolaa texnikasini shakllantirishda o'qituvchining vazifalari quyidagilardir:

Nutqiy birlikning grafik belgilari va uning ma'nolari o'rtasidagi mutanosiblikni o'rnatish zarur.

Nutqiy birliklarni bosqichma-bosqich oshirib borishi(so'z, sintagma yoki xatboshi) va o'quv kursining birinchi bosqichi yakuniga qadar o'rganuvchida sintagmani shakllantira olish qobiliyatini rivojlantirishi kerak.

Mutolaa qobiliyatini me'yorlashtirish(o'qish tempi, urg'uni to'g'ri qo'yish, pauza va intonatsiya)lozim

Mutolaa mexanizmi usulida o'qishning ham ikki turi mavjud: Ichki o'qish (jim) va Tashqi o'qish(baland ovozda). [3] Birinchi shakli ichki shakli asosan monolog shaklida o'z o'zi bilan amalga oshiriladi. Tashqi o'qish esa diolog shaklida bo'lib axborotni uzatishdan iborat va bu jarayon bevosita baland ovozda o'qiladi. Bu jarayon o'quv sharoitiga amalga oshiriladi va

ovozni baland qilib o'qish esa yuqori samara beradi. Psixolingvist olimi Solovyova quyidagi jadvalni keltiradi:

	Boshlang'ich bosqichda	O'rta bosqichda	Yuqori bosqichda
ICHKI O'qish(ovoz chiqarimasdan)	10%	50%	90%
Tashqi o'qish (baland ovozda)	90%	50%	10%

Solovyovaning fikricha, boshlang'ich bosqichda o'rganuvchi ovoz chiqarimasdan o'qishdan ko'ra ovoz chiqarib baland ovozda o'qish afzalroqdir. Ovoz chiqarib o'qish nafaqat ko'nikmani rivojlantiradi, balki yetarli darajada nazorat gipotezasidan kelib chiqib o'z o'zini boshqarish qobiliyatini shakllantiradi. Agar boshlang'ich bosqichda nutqni chiqarish uchun tashqi o'qishdan foydalanilmasa, o'rta bosqichga kelib nutqda kamchiliklar kuzatiladi. Shu bilan bir qatorda o'rta bosqichda o'qishning ikkala turi bir xil tarzda olib borilishi kerak chunki aynan shu paytda o'rganuvchining aksenti(talaffuz) o'qish texnikasiga ta'sir qiladi[4].

Yuqori bosqichda ichki o'qish samarali hisoblanadi chunki u o'rganuvchi uchun ko'p ma'lumotlarni olish manbasi bo'lib xizmat qiladi. Bu paytda o'rganuvchining nutqi yetarli darajada shakllangan bo'ladi, lekin bu degani tashqi o'qishni ham tashlab qo'yish kerak emas, chunki aksentdagi muammolar davom etadi. Bu bosqichda tashqi o'qishni aqliy qobiliyat, argumentatsiya qilish, mustaqil fikrlashga qaratilgan bo'ladi.

Boshlang'ich bosqichda mutolaa texnikasini rivojlantirish uchun quyidagi mashqlar tavsiya etiladi:

Yod olingan maqol, tez aytish, she'r va kichik hajmli dialoglarni ovoz chiqarib o'qish

Bosh kataklarni qoldirilgan harflar bilan to'ldirish

Matndagi so'zlarni ma'noviy guruhlariga birlashtirish

Matndan sinonim va antonimlarni toppish va ularni izohlash

Matndagi bosh qoldirilgan joyni ma'no jihatidan to'g'ri keladigan so'zlar bilan to'ldirish

Matnни vaqt belgilab o'qish

O'qituvchi ortidan matndagi gaplarni takrorlash

Matndan savollarga javob topish

Ajratilgan gaplarni izohlab, uni davom ettirish

Misol tariqasida berilgan gaplarni matndagi gaplarning ma'nosidan kelib chiqish bog'lash [5]

Mustaqil mutolaa katta hajmli voqeilikka ega bo'lgan qiziqarli matnlarni o'qishdan boshlanadi. Boshlang'ich bosqichda mutolaa texnikasini rivojlantirish bilan birga mutolaaning turli texnologiyalari va mustaqil ishlash(o'qish) malakasi shakllanadi. Ushbu bosqichda quyidagilarni o'rganish mumkin:

Lug'at bilan ishlash

Matnga havola va izohlar berish

Matnни interpretatsiya va transformatsiya qilish

Berilgan topshiriqlarni bajarishda rol o'ynamaydigan qismlarni tashlab ketish

Tadqiqot metodologiyasi. Ikkinchi tilni o'rganish metodikasida quyidagi mutolaa turlari ajratiladi:

Yuzaki tanishuv (skimming)- matn bilan yuzaki tanishib chiqish (matnning asosiy g'oyasini, mavzusini aniqlash.

Matnни lug'atsiz, berilgan savol yoki umumiy mazmunini tushunish maqsadida o'qish;

matn: 10 % gacha notanish so'z bo'lgan ilmiy-omnabop, ijtimoiy-siyosiy, maxsus badiiy matnlar;

matn mazmunini chet tilida yoki ona tilida so'zlab berish, paragraflarni nomlash, test topshirish.

Ko'z yugurtirib o'qish:

matn mazmuni xususiyatlarini aniqlash;

zarur axborotni matndan topish;

so'z (matn) ma'no mazmunini kontekst asosida fahmlab olish;

matndagi birlamchi (asosiy) ikkinchi darajali axborotni ajratish;

matn kalit so'zlarini ajrata olish;
matn qismlariga sarlavha qo'yish.

Sinkichlab o'qish (Scanning)- matnni sinchiklab ko'rib chiqish, o'rganish (matndan aniq ma'lumot qidirish) matnni asosiy axborotni ajratib olgan holda mazmunini to'liq va aniq tushunib o'qish.

lug'atdan foydalanib 1600 bosma belgili matnni 1 akademik soatda o'qish va tarjima bilan shug'ullanish.

Bizga ma'lumki, metodikada matn ikki turga ajratiladi :

Ta'lim matni. Bunday matnlar asosan maktab darsliklari uchun yaratilgan ta'limiy, odob axloq va madaniy m'anaviy mavzularga qaratilgan yoki mavzudan kelib chiqqan holda o'quvchilarga fan yuzasidan bilimlarni egallashlari uchun tuzuladigan matn hisoblanadi.

Autentik matnga til tashuvchilari tomonidan ta'lim berish maqsadida yaratilmagan faqatgina til o'rganish maqsadida yozilgan, ma'lum maqsadga yo'naltirilgan yozma matnlarga aytiladi. Autentik matnlar tabiiy leksika va grammatik shakl, nutq birliklarining vaziyatga mos ravishda ishlatish uchun foydalaniladi. Hozirga kunda til o'rgatish jarayonida autentik ruhdagi matnlardan foydalanish ko'paymoqda. Ya'ni autentik matn yordami bilan o'rganilayotgan tilning muhitidan uzilgan ravishda ham uning tabiiy til vaziyatlarida kommunikatsiyaga kirishish usullari va madaniyatini o'rgatish mumkin. O'rgatish jarayonida autentik matndan foydalanmaslik o'rganilayotgan til egasi bilan muloqotga kirishganda tushunmovchiliklar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. [6]

Tahlil va natijalar. Mutolaada matn bilan ishlash sistemasini. Har qanday matn bilan ishlashda uchta asosiy ish bosqichi mavjud: matn oldi, matn va matndan keyin. Matndan keyingi bosqich faqatgina matn o'qish qobiliyatini shakllantirish vositasi sifatida emas, balki og'zaki yoki yozma tilida samarali ko'nikmalarini rivojlantirish uchun taqdim etiladi.

Matn oldi bosqichining maqsadi- birinchi navbatda o'qish uchun nutq malakasini aniqlash va shakllantirish bo'lib: O'rganuvchining bilim darajasidagi mantlarni tanlash. Imkon bo'lsa, til va nutq qiyinchiliklarini kamaytirish. Mashqlar va vazifalar.

Mavzuga ko'ra, o'rganuvchilar quyidagilarni aniqlashlari mumkin:

1. Sarlavha bilan ishlash.
Matn mavzusi;
Unda ko'tarilgan masalalar ro'yxati;
Kalit so'zlar va ifodalar.

2. Muallif nomi bilan bog'langan ma'lumotlardan foydalanish.

Ushbu matn qaysi janrga tegishli bo'lishi mumkin?

Sizningcha, asosiy qahramon (kasb, fuqarolik) kim bo'ladi?

Qayerda va qaysi vaqtda sodir boladi?

3. Mavjud illustratsiyalarga asoslangan holda matn mavzusiga doir taxminlarni shakllantirish.

4. Yangi so'z bilan tanishib chiqish va matnning mavzusini olish.

5. Matnni birinchi xatboshini ko'rib chiqish va ma'nosini aniqlash

6. Matn o'qilgach, taklif qilingan savollarga javob berishga harakat qilish.

Matn bilan ishlash bosqichining maqsadi- turli til qobiliyatlari va nutq qobiliyatlari shakllanish darajasini nazorat qilish.

Tegishli malakalarni shakllantirishni davom ettirish.

Mashqlar va vazifalar.

1. Topish / tanlash / o'qish / aloqa qilish:

Berilgan savollarga javob berish;

Bayonlarning to'g'riligini / noto'g'riligini tasdiqlash;

Har bir xatboshi uchun tegishli sarlavha tanlash;

Matndan tushgan tegishli jumlani aniqlash;

Hodisa ko'rinishining / joylashuvining ta'rifi / kimnidir

biror narsaga aloqasi.

2. Tasavvur qilish:

Kontekstda so'z yoki so'zlarning ma'nosi haqida;

Tavsiya etilgan tarjimalar orasidan ajratib ko'rsatilgan so'zga ma'no jihatdan eng muqobilini tanlash;

Matnning ikkinchi qismida / keying qismida voqealar qanday rivojlanishi.

Matndan keying bosqichninh maqsadi- matnni gapirish va yozishda ko'nikmalarini rivojlantirish uchun til va nutqning tarkibiy sifatida foydalanish.

Mashqlar va vazifalar.

1. Ayblovlarni inkor etish yoki ular bilan kelishish.

2. Buni isbotlang ...

3. Belgilash uchun ...

5. Ushbu iboralardan qaysi biri bilan mos bo'lmasligini aytish.

6. Uning asosiy g'oyalarini ta'kidlab, matnning rejasini tuzish.

7. Matn holatiga asoslanib, o'z matningizni boshqa janrda yozish.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda Mutolaa... tanishuv o'qish, ko'z yugurtirib o'qish va sinchiklab o'qish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish;

xat-xabar, yozishmalar va elektron pochta o'qish; maxsus materiallarni o'zida aks ettirgan autentik matnlarni o'qish;

maxsus so'z va terminlarga ega matnlarni, ilmiy va kasbga oid adabiyotlarni, elektron manbalar va matbuot materiallarini o'qish.

ADABIYOTLAR

1. Alimov Sh. Chet tili o'qitish metodikasi. Andijon 2007.B-2
2. SakayevaL. , VaranovaA. Методика обучения иностранным языкам, Kazan 2016.
3. Adrian Dorff. Teach English. A training course for teachers. Cambridge. University Press 1988.
4. SakayevaL. , VaranovaA. Методика обучения иностранным языкам, Kazan 2016.
5. Леонтьев А. А. "Психолингвистика". Ленинград 1967.
6. Гез А.И. и др. Методическая обучения иностранным языку в средней школе. ,, Высшая школа ,, 1982.



UDK:327.7

Alisher ESHANKULOV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi dotsenti v.b.

E-mail: ap.eshankulov@yandex.ru

Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) G.O.Sa‘dieva taqrizi ostida

O‘ZBEKISTON VA TURKIYA PARLAMENTLARARO HAMKORLIGINING RETROSPEKTIV TAHLILI

Аннотация

Maqolada O‘zbekiston Respublikasi va Turkiya parlamentlararo munosabatlarining bugungi holati, ikki mamlakat o‘rtasidagi strategik sherikchilikning qisqacha tarixi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Turkiya Buyuk Millat Majlisi hamkorligi, Turkiy davlatlar tashkiloti, Turkiy Davlatlar Parlament Assambleyasi retrospektiv tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Strategik sheriklik, ikki tomonlama munosabatlar, parlamentlararo hamkorlik, Turkiy davlatlar tashkiloti, TURKPA.

РЕТРОСПЕКТИВНЫЙ АНАЛИЗ МЕЖПАРЛАМЕНТСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА УЗБЕКИСТАНА И ТУРЦИИ

Аннотация

В статье рассматривается история стратегического партнерства между Республикой Узбекистан и Турцией, современное состояние межпарламентских отношений между двумя странами, сотрудничества Законодательной палаты Олий Мажлиси и Великого Национального Собрания Турции, Организации тюркских государств, Парламентская ассамблея тюркских государств.

Ключевые слова: Стратегическое партнерство, двусторонние отношения, межпарламентское сотрудничество, Организация тюркских государств, ТЮРКПА.

RETROSPECTIVE ANALYSIS OF INTER-PARLIAMENTARY COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND TURKEY

Annotation

The article considers the history of the strategic partnership between the Republic of Uzbekistan and Turkey, the current state of inter-parliamentary relations between the two countries, cooperation of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis and the Grand National Assembly of Turkey, Organizations of Turkic states, Parliamentary Assembly of Turkic states.

Key words: Strategic partnership, bilateral relations, inter-parliamentary cooperation, Organization of Turkic States, TURKPA.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tashabbusi bilan xalqaro diplomatik va parlamentlararo aloqalarni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Xususan, Davlat Rahbarining 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasida “Biz O‘zbekiston tashqi siyosatini faollashtirish yuzasidan boshlagan keng ko‘lamli ishlarni, milliy manfaatlarimizga javob beradigan, ochiq, pragmatik va chuqur o‘ylangan tashqi siyosat yo‘lini davom ettiramiz. O‘lis va yaqindagi barcha davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini, uzoq muddatli va ko‘p qirrali sheriklikni yanada kuchaytiramiz” [1] deb ta‘kidlab, ushbu sohadagi eng ustivor yo‘nalishlarni ko‘rsatib o‘tdilar.

Shu bilan birga, Oliy Majlis tomonidan xorijiy davlatlar parlamentlari va xalqaro parlamentlararo assambleyalar bilan samarali hamkorlik aloqalari davom ettirilib, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va «O‘zbekiston — 2030» strategiyasida belgilangan ustivor maqsadlarni amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shu sabab O‘zbekistonning tashqi siyosat, xalqaro hamkorlik sohasidagi rivojlanish istiqbollari tobora kengayib bormoqda.

Tadqiqot doirasida o‘rganilgan adabiyotlar va manbalar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, ushbu mavzu milliy tadqiqotchi olimlar Q.Jo‘raev, D.Fayzieva, O.Hakimov, M.Abdieva hamda Turkiyalik olimlar Ömer Çaha, Cihat Yıldırım, Fatih

Tuğluoğlu, Mustafa Gökçe, Osman Okumuş lar tomonidan O‘zbekiston - Turkiya o‘rtasidagi xalqaro munosabatlar, diplomatik aloqalar, iqtisodiy hamkorlik va strategik sherikchilik masalalari, shuningdek parlamentlararo hamkorlikning ayrim jihatlarini tadqiq qilingan.

Ushbu tadqiqot mavzusi O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi xalqaro munosabatlarga oid mavjud izlanishlarning mantiqiy davomi bo‘lib, xalqaro aloqalarning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan parlamentlararo hamkorlik, «O‘zbekiston-Turkiya» do‘stlik guruhi hamda mamlakat parlament a‘zolarining TurkPA doirasidagi ishtiroki bosqichlarini o‘rganishga qaratilgan.

Hozirgi sharoitda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish iqtisodiy farovonlikni ta‘minlash, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatar, tahdidlarning oldini olish, zararsizlantirish, butun jamiyat, qolaversa har bir fuqaroning manfaatlarini himoya qilishni ta‘minlashning muhim kafolati hisoblanadi [1].

Ushbu jarayonda O‘zbekiston Respublikasi oliy vakillik organi - Oliy Majlis alohida o‘ringa ega bo‘lib, umumdavlat vazifalarni bajarishda, xususan parlamentlararo smarali muloqot qilish orqali hal etishda muhim imkoniyatlarga ega.

Ta‘kidlash joizki, Turkiya Respublikasi O‘zbekiston tashqi siyosatida alohida o‘ringa ega bo‘lgan, o‘ziga xos mamlakat hisoblanadi. O‘zbek va turk xalqlarini azaliy do‘stlik,

birodarlik va qardoshlik rishtalari bog'lab turadi, har ikki xalqlar turkiy tilda so'zlashuvchi bo'lib, ularning dini, tili, urf-odatini va madaniyati bir-biriga juda yaqin.

Qolaversa, Turkiya dunyodagi 200 dan ortiq mamlakat ichida 1991 yilda O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini birinchi bo'lib tan olgan va shu tariqa uning dunyo xaritasida yangi davlat sifatida e'tirof etilishi jarayonini boshlab bergan davlat hisoblanadi. Shu yilning o'zidayoq birinchi Prezident I.Karimov boshchiligidagi delegatsiya Turkiya Respublikasiga tashrif buyurib, uning doirasida davlatlararo munosabatlarning asoslari va maqsadlari to'g'risida shartnoma, konsullik vakolatxonalarini ayirboshlash to'g'risida Protokol va boshqa qator hujjatlar imzolandi [2].

1992 yilning aprelida Toshkentda Turkiya elchixonasi, 1993 yilning yanvarida Anqarada O'zbekiston elchixonasi rasmiy faoliyatini boshladi. Istanbulda esa O'zbekiston Respublikasining Bosh konsulxonasi ochilib, faoliyat yurita boshladi [3].

Afsuski, ikki mamlakat o'rtasida mustaqilligimizning ilk yillarida jadal sur'atlar bilan boshlangan o'zaro munosabatlar 2000 yillarga kelib ba'zi sub'ektiv omillar sababli to'laqonli rivojlana olmadi va turg'unlik davriga kirib qoldi.

Faqatgina 2016 yilga kelib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning ulkan siyosiy irodasi va uzoqni ko'zlab olib borayotgan siyosati tufayli ushbu turg'unlikka barham berildi va qardosh davlatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar tarixida mutlaqo yangi davr boshlandi.

O'zbekiston va Turkiya munosabatlarining o'tgan 32 yillik tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, hech shubhasiz, so'nggi 7 yil aloqalarimiz tarixidagi eng yorqin sahifa bo'lganini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston va Turkiya bir-birini nafaqat ikki tomonlama munosabatlar doirasida, balki xalqaro tashkilotlar darajasida ham qo'llab-quvvatlovchi strategik hamkorlarga aylandi [4].

Xususan, Turkiy tilli davlatlar tashkilotidagi ishtirok ham O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi xalqaro hamkorlikning muhim qismlaridan biridir. Ushbu tashkilot Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi (Turkiy kengash) nomi ostida 2009 yilda tashkil etilgan edi. 2019 yilning 14 sentabr kuni "Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashini tuzish to'g'risidagi Naxichevan Bitimini (Naxichevan, 2009 yil 3 oktabr) ratifikatsiya qilish haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilingan. O'zbekiston unga 2019 yil 15 oktabrda Boku shahrida bo'lib o'tgan yettinchi sammitda to'laqonli a'zo sifatida qo'shildi. Tashkilotning 2021 yil 12 noyabrda Istanbul shahrida o'tkazilgan sakkizinchi sammitida uning nomi Turkiy davlatlar tashkilotiga o'zgartirildi [5]. Shuningdek, sammitda turk dunyosining 2040 yilgacha bo'lgan davr uchun konsepsiyasi ham tasdiqlandi. Prezident Sh.Mirziyoevning tashabbuslari bilan Turkiy davlatlar tashkilotining birinchi sammiti 2022 yilning 11 noyabrida Samarqand shahrida bo'lib o'tdi.

Tadbirda Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti (TurkSOY), Turkiy davlatlar parlament assambleyasi (TurkPA), Xalqaro turkiy akademiya, Turkiy madaniyat va meros jamg'armasi, ushbu ko'p tomonlama tuzilma Kotibiyati rahbarlari ham qatnashishdi [6].

Sammit doirasida TDT Samarqand sammiti deklaratsiyasi, TDTning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan strategiyasini qabul qilish kabi strategik qarorlar imzolandi.

Turkiya va O'zbekiston o'rtasida ikki va ko'p tomonlama formatlarda manfaatli hamkorlik bilan birga parlamentlararo munosabatlar ham jadallashib bormoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida Turkiya Buyuk Millat Majlisi bilan «Turkiya-O'zbekiston» parlamentlararo do'stlik guruhi tashkil qilinib, unga quyi palata spikerining birinchi o'rinbosari A.Saidov rais etib saylandi.

Oliy Majlisning parlament delegatsiyasi bir necha bor amaliy tashrif bilan Turkiyada bo'lib, Buyuk Millat Majlisi bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatildi. Bugungi kunda ikki mamlakat oliy vakillik organlari o'rtasidagi parlamentlararo aloqalar izchil davom etmoqda [2]. Oliy Majlisda ham, Buyuk Millat Majlisida ham parlamentlararo do'stlik guruhlarini tashkil etilgan bo'lib, ular muntazam faoliyat olib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis vakillari va Turkiya vakillari o'rtasida parlamentlararo konstruktiv va barqaror muloqot yo'lga qo'yildi, jumladan, palamentlararo muloqotning samarali va uzluksiz faoliyatini tahlil qiladigan bo'lsak, qo'ydagilar ko'zga tashlanadi [7].

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining 2021 yil 28 apreldagi "Parlamentlararo tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qo'shma qarori bilan O'zbekistonning TurkPA bilan 2021-2022 yillarga mo'ljallangan amaliy hamkorlik rejasi tasdiqlandi [8].

2021-yil 25-oktabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining Turkiya Buyuk milliy Majlisi a'zosi, «Turkiya-O'zbekiston» parlamentlararo do'stlik guruhi raisi Usmon Mesten bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi [9]. Uchrashuvda so'nggi yillarda O'zbekiston-Turkiya munosabatlari ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlik shaklida sezilarli darajada rivojlanayotgani qayd etildi. Bundan tashqari, «Turkiya-O'zbekiston» do'stlik guruhi faoliyati va uning doirasida amalga oshirilgan bir qator ishlar ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohalardagi ikki tomonlama munosabatlarni yangi bosqichga ko'tarishda parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlashda katta ahamiyatga ega. Suhbat davomida ikki tomonlama hamkorlik sohasida parlamentlararo aloqalarni yanada chuqurlashtirish muhimligi qayd etildi.

Shuningdek, 2023 yilning 2 mart kuni Qonunchilik palatasi Spikeri N.Ismoilov Turkiya Buyuk Millat Majlisi raisi M.Shentop bilan telefon orqali muloqot o'tkazdi. Suhbat chog'ida parlamentlararo aloqalarni yanada faollashtirish va kengaytirish masalalari muhokama etildi [10].

Shu bilan birga, 2023 yilning 6 – 8 oktabr kunlari Qonunchilik palatasi Spikeri N.Ismoilov boshchiligidagi delegatsiyasi Turkiyaning «Adolat va taraqqiyot» partiyasi Qurultoyida ishtirok etish uchun Turkiya Respublikasida bo'ldi. Tashrif doirasida Turkiya Prezidenti R.T.Erdog'an, Turkiya Respublikasi Buyuk Millat Majlisi raisi N.Kurtulmush, Turkiya Vitse-prezidenti J.Yilmaz bilan uchrashuvlar o'tkazildi [10].

Ta'kidlash kerakki, Turkiya Buyuk Millat Majlisi deputatlari O'zbekistonning ichki va tashqi siyosatini hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni qizg'in qo'llab-quvvatlamodalar. Xususan, Turkiya Buyuk Millat Majlisi deputati, Turkiy tilli davlatlar parlament assambleyasining Huquqiy ishlar va xalqaro munosabatlar komissiyasi rahbari Erol Kaya so'nggi yillarda Prezident Sh.Mirziyoev boshchiligidagi olib borilayotgan keng ko'lamlil islohotlarga hamda parlamentarizmni rivojlantirish borasidagi yangilanishlarga yuqori baho berdi. U, shuningdek, qulay bir fursatda ikki mamlakat parlamentlari o'rtasida o'zaro aloqalarni mustahkamlash, parlament faoliyati bo'yicha tajriba almashish hamda «ziyorat turizmi» maqsadida O'zbekistonga borishni rejalashtirayotganini bildirdi [11].

Turkiya Buyuk Millat Majlisining «Turkiya - O'zbekiston» do'stlik guruhi rahbari Osman Mesten bir necha bor O'zbekistonga tashrif buyurgan bo'lib, bu esa ikki tomonlama va xalqaro tashkilotlar doirasida mamlakatlar o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlayotgani, jumladan, ikki mamlakat parlamentlarida tuzilgan hamkorlik bo'yicha parlamentlararo guruhlarining faolligi natijasi hisoblanadi.

Shuningdek, ikki tomon xalq vakillarining xalqaro platformalarda va Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) faoliyati doirasida o'zaro hamkorligi ta'minlayotganini ko'rishimiz mumkin. Xususan, Turkiy tilli davlatlarning Parlament Assambleyasi (TurkPA) faoliyati doirasida ham o'zaro hamkorlik keng yo'lga qo'yilgan.

TurkPA 2008 yil 21 noyabrda Istanbul shahrida asos solingan bo'lib, uning bosh qarorgohi Boku shahrida joylashgan. Hozirgi kunda Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkiya va Turkmaniston parlamentlari a'zo. Vengriya 2018 yildan beri kuzatuvchi maqomiga ega. Ushbu tashkilotning rasmiy tillari sifatida ishtirokchi mamlakatlarning davlat tillari (Ozarbayjon, qozoq, qirg'iz va turk tillari) hamda ingliz tili belgilangan. Belgilangan tartibga ko'ra, TurkPAga yangi a'zo qo'shilganda ushbu ishtirokchi-mamlakatning davlat tili ham birlashmaning rasmiy tillari qatoriga kiritiladi [12].

TurkPA faoliyatini tahlil qilar ekanmiz, uning bosh maqsadi turkiyzabon davlatlarda parlamentlararo hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, parlament diplomatiyasi orqali a'zo mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro mulqotni rivojlantirishga ko'maklashishdan iborat ekanligini tushunish mumkin.

Shu o'rinda alohida aytish kerakki, yurtimiz manfaatlarini jahon maydonida ilgari surish, uning xalqaro nufuzini oshirishda deputatlik korpusi vakillari ochiq, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi hamkorlikning faol ishtirokchisiga aylanib bormoqda.

Umumiy tariximiz va mushtarak ma'naviy qadriyatlarimiz birlashtirib turgan turkiy dunyo mamlakatlari bilan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalaridagi munosabatlarni yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, Turkiy tilli davlatlar Parlament assambleyasi (TurkPA) bilan izchil aloqalar va konstruktiv mulqot kengaytirilayotgani muhim tarixiy voqea hisoblanadi.

TurkPAning hamkorlari qatoridan YeXHT PA, Parlamentlararo Ittifoq, Islom hamkorlik tashkiloti va boshqa nufuzli xalqaro tuzilmalar joy olgan bo'lib, tashkilot bilan hamkorlik O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlariga hamda pragmatik tashqi siyosatiga to'la mos keladi.

Garchi O'zbekiston Respublikasi hali TurkPA a'zosi bo'lmasa-da, 2018 yildan beri Oliy Majlisning rasmiy delegatsiyalari TurkPAning yalpi majlislari va anjumanlarida doimiy ravishda taklif etilgan mehmon sifatida ishtirok etib kelmoqda.

Mamlakatimiz bugungi kunda Turkiyaning Markaziy Osiyodagi eng asosiy, ishonchli sheriklaridan biriga aylandi, deb bemaolol aytay olamiz. O'zbekistonning ulkan bozori, liberallashib borayotgan iqtisodiyoti, qulay investitsiyaviy muhiti, turizm sohasini rivojlantirishga mos shart sharoitlari Turkiyalik ishbilarmon doira vakillarini qiziqirtirmoqda [13].

O'zbekiston-Turkiya parlamentlararo hamkorligi va xalq diplomatiyasi izchil rivojlanib borayotganiga yana ko'plab misollar keltirish mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasida O'zbekistonga tashrif buyurgan Turkiyaning inson huquqlari va tenglik instituti raisi Muharrem Qilich boshchiligidagi delegatsiya vakillari bilan uchrashuvini keltirib o'tish joizdir [14]. Delegatsiya O'zbekiston hukumati tomonidan milliy madaniy markazlar, respublikada istiqomat qilayotgan turli millat vakillariga yaratilgan sharoitlar hamda inson huquqlarini himoyalashga qaratilgan chora-tadbirlarga hamda bugungi kunda O'zbekistonning millatlararo munosabatlar siyosati va xorijiy mamlakatlardagi hamkor tashkilotlar, vatandoshlar jamiyatlari bilan do'stlik aloqalarini mustahkamlash borasida olib borilayotgan ishlarga yuqori baho berdi.

Xulosa. O'zbekiston – Turkiya o'rtasida boshqa sohalar singari parlamentlararo hamkorlik ham izchil rivojlanib bormoqda. Parlament vakillari o'rtasidagi jonli mulqot ikki mamlakat o'rtasida oliy darajada erishilgan kelishuvlarining manfaatli amalga oshishiga turtki bermoqda va pirovardida o'zbek-turk xalqlarining bir-biriga yanada yaqinlashishga yordam bermoqda.

Bundan tashqari, parlamentlararo aloqalar orqali O'zbekistonda turli sohalarida amalga oshirilayotgan ijobiy islohotlar xaqida dunyo hamjamiyatini xabardor qilishda hamda xalqaro makonda O'zbekiston tashabbuslarini ilgari surishda yangi maydon yaratiladi.

Yuqorida qayd etilganlarni inobatga olib, shuni aytish mumkinki, ikki davlat parlamentlarining o'zaro manfaatli hamkorligini rivojlantirish, hamda Oliy Majlis vakillarining TurkPA kabi xalqaro tashkilotlar doirasidagi faol ishtiroki mamlakatning xalqaro arenadagi nufuzini mustahkamlashga, mintaqada xavfsizlik va tinchlikni ta'minlashga ijobiy ta'sir o'tkazadi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлиса ва халққа муносабатномаси – амалга оширилган ислохотларнинг тадқиқийлигини таъминлайдиган сиёсий ҳужжат URL: https://uz.uz/uz/posts/ozbekiston-respublikasiprezidentiningoliy-mazhlisiga-va-xalqqa-murozhaatnomasi-amalga-oshirilayotgan-islohotlarningtadqiqiyliгинi-taminlaydigan-siyosiy-huzhzhathat_199007 (дата обращения: 02.02.2024).
2. Ўзбекистон – Туркия: Тарих ва ислохотлар муштараклиги URL: <https://yuz.uz/news/ozbekiston--turkiya-tarix-va-islohotlar-mushtaraklig> (дата обращения: 27.01.2024).
3. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Тошкент: Ўзбекистон, 2000-2005 URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_%E2%80%94_Turkiya_munosabatlari (дата обращения: 16.01.2024).
4. Çaha Ömer. Türkiye'de siyasal partiler ve Arupa Birliği. -Istanbul:Istanbul yayinlari. 2000. 125 pp.
5. О.Ҳакимов. Ўзбекистон Республикаси Президенти администрацияси ҳузуридаги иқтисодий тадқиқотлар ва ислохотлар маркази директори. Ўзбекистон – Туркия: Тарих ва ислохотлар муштараклиги URL: <https://yuz.uz/news/ozbekiston--turkiya-tarix-va-islohotlar-mushtarakligi> (дата обращения: 27.01.2024).
6. М.Абдиева. Олий Мажлис Қонунчилик палатаси депутати. Туркий давлатлар Ташкilotининг Самарқанд саммити янги иқтисодий имкониятлар учун кенг йўл очмоқда URL: https://uz.uz/uz/posts/tdning-samarqand-sammiti-yangi-iqtisodiy-imkoniyatlar-uchun-keng-yol-ochmoqda_425845 (дата обращения: 24.01.2024).

7. Қ.Жўраев. Олий Мажлис Қонунчилик палатаси Халқаро ишлар ва парламентлараро алоқалар қўмитаси Раиси ўринбосари, Ўзбекистон - Туркия: ўзаро ҳамкорликни мустаҳкамлаш йўлида URL: <http://www.adolatgt.uz/policy/munosabat1/5110> (дата обращения: 30.01.2024).
8. Ҳаракатлар стратегияси - Янги Ўзбекистоннинг мустаҳкам замини / Стратегия действий - прочная основа Нового Узбекистана // Мақолалар тўплами. Тошкент: Baktria press, 2021. 157 pp.
9. Халқ вакиллари Туркия Буюк миллат мажлиси депутати Осман Местен билан учрашди URL: <https://yuz.uz/news/xalq-vakillari-turkiya-buyuk-millat-majlisi-deputati-osman-mesten-bilan-uchrashdi> (дата обращения: 22.01.2024).
10. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг 2023 йилдаги фаолияти тўғрисида Ахборот, Тошкент, 2024.
11. Cihat Yıldırım, Fatih Tuğluoğlu, Mustafa Gökçe, Osman Okumuş. 20. yüzyılda Türkiye-Türk Dünyası ilişkileri / editörler Cihat Yıldırım. Ankara: Pegem Akademi, 2021. 247-290 pp.
12. Туркий тилли давлатлар Парламент ассамблеяси билан тизимли ҳамкорликка старт берилмоқда // “Янги Ўзбекистон” газетаси. 2021 йил 3 июль. URL: <https://online.anyflip.com/brpug/mtem/mobile/index.html> (дата обращения: 30.01.2024).
13. Ўзбекистон - Туркия муносабатлари тарихида янги мулоқот формати URL: <https://www.gazeta.uz/uz/2020/02/20/council/> (дата обращения: 30.01.2024).
14. O'zbekiston - Turkiya hamkorlik munosabatlari rivojlanmoqda URL: <https://www.trt.net.tr/uzbek/turk-dunyosi/2022/06/12/12345678910-1841371> (дата обращения: 27.01.2024).



UDK:091

Doniyor YULDASHEV,

International school of finance technology and science nodavlat oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi

E-mail: d_yuldashev@gmail.com

NamMQI o'qituvchisi f.f.f.d.(PhD) Farxodjonova N. taqrizi asosida

YOSHLAR SIYOSIY-HUQUQIY ONGINI TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIM-TARBIYA TIZIMINING AHAMIYATI

Аннотация

Ta'lim-tarbiya tizimi yoshlarning siyosiy ongini takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, ta'lim muassasalari, ko'p jihatdan davlatlarning siyosiy, iqtisodiy va hatto axloqiy imkoniyatlarini belgilaydi.

Ushbu maqolada yoshlar siyosiy-huquqiy ongini takomillashtirishda pedagogik mahorati va darsda qo'llaniladigan samarali innovatsion ta'lim metodlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar, siyosat ha huquq, siyosiy ong, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, ta'lim-tarbiya tizimi, dars samaradorligi, ta'lim sifati.

ЗНАЧЕНИЕ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ПОЛИТИКО-ПРАВОВОГО СОЗНАНИЯ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

Система образования играет важную роль в улучшении политического сознания молодежи. Также институты образования во многом определяют политические, экономические и даже моральные возможности государств.

В данной статье освещается педагогическое мастерство молодежи в совершенствовании ее политико-правового сознания и эффективные инновационные методы обучения, применяемые на уроке.

Ключевые слова: Молодежь, политика да право, политическое сознание, правосознание, правовая культура, система образования, эффективность урока, качество образования.

THE IMPORTANCE OF THE EDUCATIONAL SYSTEM IN IMPROVING THE POLITICAL AND LEGAL CONSCIOUSNESS OF YOUTH

Annotation

The educational system plays an important role in improving the political consciousness of young people. Also, the institutions of repair, in many ways, determine the political, economic and even moral capabilities of states.

This article highlights pedagogical skills in improving the political and legal consciousness of young people and effective innovative educational methods used in the lesson.

Key words: Youth, politics yes law, political consciousness, legal consciousness, legal culture, educational system, lesson effectiveness, quality of Education.

Kirish. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni talablaridan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, hozirgi kunda pedagoglar oldida turgan muhim vazifalardan biri ta'lim jarayonini samarali tashkil etish hamda innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanib qiziqarli dars o'tish, talabalarni dars jarayoniga qiziqtirishni ta'minlashdir. Shunday ekan, o'qituvchilar darsni davr talabi darajasida tashkil etishlari uchun zarur vositalarni to'g'ri tanlay bilishlari va qo'llay olishlari dars jarayonini qiziqarli bo'lishiga hamda bunda talabalarni davr talabi darajasidagi har tomonlama barkamol kadrlar bo'lib yetishishlariga erishish zarur. Bugungi kunda mamlakatimizda mutaxassislarning ilmiy salohiyatini birlashtirish va takomillashtirishga moddiy-texnik, madaniy imkoniyatlar yetarli. Nazariya va amaliyot birligining ta'minlanishi esa zamonaviy pedagogik texnologiyaning asl mohiyatini aniqlashga keng yo'l ochdi. Jamiyatning demokratiya yo'lida taraqqiy etishi va islohotlarning yaxshi samara berishi ko'p jihatdan fuqarolarning siyosiy-huquqiy ongi hamda huquqiy madaniyatiga bog'liq.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta'lim jarayonida har bir yo'nalishdagi talabning siyosiy - huquqiy ong va

tafakkurini shakllantirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Negaki, "biz odamlarning eskicha psixologiyasini o'zgartirib, ularda yangi huquqiy ongi shakllantirmog'imiz lozim. Shunday bo'lsinki, har bir kishi inson erkinlari ayni vaqtda muayyan burch, majburiyat va ma'suliyat ekanligini chuqur his etib tursin".

Siyosiy ong - bu bilimlar, baholar, kayfiyat va tuyg'ular tizimi bo'lib, ular orqali sub'ektlar - shaxslar, guruhlar, millatlar va boshqalar tomonidan siyosiy sohani anglash amalga oshiriladi. Siyosiy ong - tabiatni, jamiyatning moddiy hayotini va butun ijtimoiy munosabatlar tizimini aks ettiruvchi g'oyalar, nazariyalar, qarashlar, e'tiqodlar, odamlarning his-tuyg'ulari, kayfiyatlar tizimi; bu bilim va baholash tizimi bo'lib, buning natijasida shaxslar, guruhlar, sinflar, jamoalar shaklida harakat qiluvchi sub'ektlar tomonidan siyosat sohasi haqida xabardorlik.

Huquqiy ong - ijtimoiy ong shakli; jamiyat a'zolarining mavjud huquqiy munosabatlar va huquqni tushunishi, huquq-tartibot haqidagi tasavvurida o'z aksini topadi. Huquqiy ong nafaqat amaldagi huquq, balki uning tarixi, shuningdek boshqa jamiyatlardagi voqe'larni bilishni ham o'z ichiga oladi.

Huquqiy madaniyat bu avvalo, har bir fuqaroni huquqiy onga, huquqiy bilim va savodxonlikka ega bo'lgan holda, jamiyatda huquqiy munosabatlarga kirishidir. Huquqiy ongva madaniyat – bu oddiy fuqarolarning, huquqni muhofaza qiluvchi davlat idoralari xodimlari va mansabdor shaxslarning o'z huquq va burchlarini huquq me'yorlari talablari darajasida hamda doirasida bajarishlarini, anglab olishlarini ta'minlovchi huquqiy bilimga ega bo'lishlaridir. Huquqiy ong insonning jamiyat manfaatlariga munosabati, bilim darajasi, dunyoqarashi, imon – e'tiqodi, axloq – odobi, hatti – xarakatida aks etadi hamda jamiyat ijtimoiy – tarixiy jarayonlarining ilgarilab, takomillashib, murakkablashib borishiga ta'sirini o'tkazib, fuqarolarni umumjamiyat hamda davlat tomonidan qabul qilingan, kuchga kiritilgan qonunlar, qoidalar asosida boshqarish birligi va darajasini ko'rsatadi.

Shuningdek, bobomiz Amir Temurning “qayerda qonun hukmronlik qilsa, o'sha yerda erkinlik bo'ladi” degan o'g'itlari hozirgi paytda ham o'ziga xos ma'no kasb etmoqda. Shuningdek, fuqarolarning Konstitusiyaga va turli qonunlarga hurmat bilan birga, huquq, erkinlik va majburiyatlar orqali yondashishi ham huquqiy ong va huquqiy madaniyatning ma'lum bir darajasi hisoblanadi.

Barcha fanlar qatori huquqqa oid fanlardan dars berish jarayonida ham huquqiy tushunchalarni shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llab, yangi o'qitish metodlari, innovatsion usullardan foydalanish amaliy zaruriyat kasb etmoqda. Har bir o'qituvchi dars jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashdan oldin uning mohiyati, maqsadi va vazifalarini o'rganib chiqib, ular haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlar va amaliy yo'llanmalar, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqqandan so'ng, uni ta'lim tizimiga joriy etish, samarali qo'llashi lozim. Xususan, o'quvchilarda huquqiy ong va tafakkurni shakllantirish jarayoni zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

1. O'quvchilarni huquqiy terminlarning mohiyati bilan tanishtirish;

2. Huquqiy ong va tafakkurning mazmunini anglash, ya'ni huquqiy tushunchalarning muhim belgilarini aniqlash;

3. Bilishga oid topshiriqlarni bajarishda tushunchaga tayanish malakalarini hosil qilish;

4. Huquqiy terminlarni tasniflash va ularni bir tizimga solish.

Ta'kidlash joizki, hayotiy faoliyatning huquq sohasida o'quvchining o'ziga xos sifatlari majmuini shakllantirishga qaratilgan faoliyatda quyidagi huquq nazariyalari muhim o'rin tutadi:

- yaqin maqsad – huquqiy bilimlar tizimini shakllantirish;

- oraliq maqsad – huquqiy ishonchni shakllantirish;

- pirovard maqsad – huquqiy ijtimoiy faol xulqqa odatlanishni shakllantirish.

Huquqqa oid fanlarda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishda bir necha jihatlarga alohida e'tibor berish lozim. Ya'ni, o'qitish jarayonida maqsad bo'yicha kafolatlanlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olishi, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olishi, o'quv jarayonida talabalar o'zlarining tanqidiy mustaqil fikrlarini bildira olishi, ijodiy ishlay olishi, izlanishi, taxlil eta olishi, o'zlar xulosa chiqara olishi, o'ziga va guruhga adolatli baho bera olishi, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlarini uchun imkoniyat va sharoit yarata olishi lozim.

Tahlil va natijalar. O'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyani ta'lim jarayoniga tadbiiq qilishda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishga sharoit yaratadi va shu bilan bir vaqtda boshqaruvchilik yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Shuning uchun ta'lim muassasalarida malakali kasb egalari tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari, interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarining o'rni benihoya kattadir. Bunda pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mutaxassislik fanlarini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish dars samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Quyida bir necha zamonaviy pedagogik texnologiya va innovatsion metodlarni tahlil qilib chiqamiz.

“Muammoli o'qitish” texnologiyasini oladigan bo'lsak, darsda mavzuga tegishli masala yuzasidan o'qituvchi qator muammoli vaziyatlarni o'rta tashlaydi va muammoning samarali yuzasidan talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, har bir guruhga alohida topshiriqlar beradi. Bu metodni qo'llash orqali talabalarda izlanuvchanlik, kuzatuvchanlik, diqqatni bir joyga to'plash, o'z fikrini mustaqil ifoda etish ko'nikmalari shakllanadi.

“Case study” metodi orqali talabalarining bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish hamda intellektual salohiyatini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega. Bu metodlarning samarali jihati shundaki, o'qituvchi rejadagi o'tiladigan mavzularni hamda foydalanish mumkin bo'lgan adabiyotlar ro'yhatini oldindan talabalarga bo'lib beradi.

Loyiha usuli bilan ishlashda talabalar, avvalo, mavzuga dahldor bo'lgan materiallarni to'plashib, materiallarni slaydlar asosida tartibga keltirishi, o'zlar mustaqil test, krassvord topshiriqlari mumkin. Bu jarayonda guruhdagi talabalar topshiriq hamda belgilangan vaqtni o'zlarining qobiliyatlaridan kelib chiqib taqsimlab olishadi. Har bir guruh reja asosida belgilangan mavzuni o'z vaqtida taqdimot bilan ma'ruza qilishadi va shu bilan birga mavzu yuzasidan tayyorlangan testlarni bir-birlariga tarqatishadi. Demak, bu usul talabadan bir vaqtning o'zida ham aqliy, ham ilmiy, ham tahliliy izlanuvchanlikni talab qilish bilan birga, o'qituvchining ijodiy ko'nikmalarini ham shakllantirib boishda muhim ahamiyatga ega deyish mumkin. Chunki o'qituvchi tayyorlangan taqdimot yuzasidan talabalarga o'zining tanqidiy qarashlarini beradi hamda ularning ish faoliyatlarini kuzatib boradi. Bunda talaba ham o'qiydi, ham o'rgatishni o'rganadi, qisqa qilib aytganda, ham o'rganadi, ham o'rgatadi.

“Blits-so'rov” usuli esa, talabalarni harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, ma'lumotlar ichidan kerakligini tanlab olishga, shu bilan birga o'zlarini olgan bilimlarini to'g'ri baholay olishni o'rgatishga qaratilgandir. Mazkur usulda talaba avval yakka tartibda mustaqil ravishda, so'ng kichik guruhlarda o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olgan holda yoki boshqalar bilan hamfikir bo'la olgan holda ishlaydi.

Shuningdek, “FSMU”, “Bumerang”, “Ven diagrammasi”, “Aqliy hujum”, “Klaster” metodlari talabalarining mavzularni o'zlashtirish barobarida, chuqur ilmiy va intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Pedagogik kuzatuvlarga ko'ra yuqorida keltirilgan innovatsion usullar orqali o'quvchilarning huquqiy ong va tafakkurini shakllantirish quyidagi holatlarda ijobiy kechadi:

birinchidan: muammoli vaziyatlarni mashg'ulot boshlanishida o'quvchilarga taklif etish yoki predmet

mavzusini ifoda eta oladigan maxsus muammoli topshiriqlar berish;

ikkinchidan, muammoli vaziyatlar orqali o'quvchining qiyinchiliklarni yengish, innovatsion usul va harakatlarni izlab topishni talab qilish;

uchinchidan o'quvchilarning motivasion doirasiga ta'sir o'tkazish, ya'ni ichki harakatlanuvchi kuchini yuzaga keltirish, fanga bo'lgan qiziqishini orttirish;

to'rtinchidan, o'quvchilarning kreativ (noyob, standartli bo'lmagan) qobiliyatlarini kamol toptirish, ularda mantiqiy o'ylash, fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Muhokama. Yoshlar ijtimoiy mas'uliyatni boshqalarga qaraganda o'zgacharoq his qilishadi. Ular kattalarning e'tiborini, yaratib berilayotgan imkoniyatlarni qadrlashadi. Shu orqali o'zlarini jamiyatga kerakli shaxs sifatida ko'ra boshlashadi. Balog'atga yetib qo'liga ilk bor fuqarolik pasportini olgan yoshlarda ijtimoiy-psixologik jarayonlar o'zgacha kechadi hamda yoshlar jamiyatdagi har bir voqea-hodisaga jiddiy va kattalarga qaraganda boshqacharoq yondashadi. Yurtimizda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, huquqiy, siyosiy madaniyatini yuksaltirish va ularning siyosiy partiyalar, nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bugun yoshlarimiz jamiyatimizning teng huquqli a'zosi va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning eng faol ishtirokchilaridan biridir.

Mamlakatimiz yoshlarining ijtimoiy-siyosiy faolligi amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining samaralarini, navqiron avlod vakillari Vatanimiz tanlab olgan mustaqil taraqqiyot yo'lini yakdil qo'llab-quvvatlashini dunyoga ko'rsatib beradigan muhim jarayondir.

Umuman olganda, nafaqat huquq fanlari, balki har bir fandan dars berish jarayoni zamonaviy pedagogik texnologiyalar va yangi texnik vositalar asosida olib borilishi yaxshi samara berishi shubhasiz. Chunki, zamonaviy

pedagogik texnologiya shunday bilimlar sohasiki, ularning vositasida yangi ming yillikda davlatning ta'lim sohasidagi siyosatida tub burilish yuz beradi, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, talaba yoshlarda hur fikrlilik, insonparvarlik tuyg'ulari tizimi shakllantiriladi. Ayni paytda yangi ta'lim tizimi, mazmuni, o'quv reja, darsliklar asosida o'quv jarayonini loyihalashtirishga ham yangicha yondashish, tashkil etish davr talabidir. Zero, hali bu yo'nalishda tadqiq qilinishi va amaliyotga joriy etilishi kerak bo'lgan masalalarni o'rganish va ularning yechimini topish kabi vazifalar talaygina. Bu kabi vazifalar har bir fan o'qituvchisiga ma'suliyatli ishlarni amalga oshirishni yuklaydi.

Xulosa. Yoshlarning siyosiy-huquqiy ongini shakllantirishda quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

- Fuqarolarning siyosiy-huquqiy faolligini oshirish;
- Yosh – avlodda huquqiy bilim va madaniyatni avvalo oilada bolalikdan boshlab turli xil ertak va hikoyalarda aks ettirgan holda yuksaltirib borish;
- Barcha o'quv yurtlarida, maktablarda hattoki maktabgacha ta'lim muassasalarida ham huquqiy bilimni o'rganish bilan birga ayni maqsadga yo'naltirilgan turli huquqiy tadbirlar o'tkazish;
- Ommaviy axborot vositalari bilan barcha davlat va jamoat tashkilotlari xususan huquqni muhofaza qiluvchi idoralar hamkorligini oshirish, huquqiy masalalarni keng targ'ib va tashfiq qilish;
- Badiiy adabiyotda, san'atda huquqiy madaniyatga oid saboqlar berish;
- Aholining mustaqil ravishda huquqiy bilimlarini oshirish maqsadida qonun hujjatlarini to'liq va muntazam ravishda chop etib borish;
- Oshkorlik, fuqarolarning qonun oldida mavqeidan qat'iy nazar tengligini ta'minlash;
- Ilg'or huquqiy davlatlar huquqiy tajribasini o'rganish, foydalanish va boshqalar.

ADABIYOTLAR

1. Ergashev I. Civil society and youth //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 2. – C. 282-284.
2. Yuldashev D. Jamiyat hayotini modernizatsiyalashda yoshlar siyosiy-huquqiy ongini takomillashtirishning zaruriyati //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – T. 7. – №. 1. – C. 211-212.
3. Ibodulla E., Makhmudovich S. M., Oynisa M. The role of constructive ideas in the formation social-political consciousness of youth and social progression in Uzbekistan //International Journal of Advanced Science and Technology. – 2019. – T. 28. – №. 14. – C. 19-23.
4. Otabekovna H. S. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish usullari //Scientific approach to the modern education system. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 135-138.



UDK:323:301:008:1(575.1)

Matluba YULDASHEVA,
Qo'qon DPI falsafa fanlari nomzodi, dotsent
E-Mail: matlubayuldasheva1974@gmail.com

FarDU professori, falsafa fanlari doktori, B.G'aniev taqrizi asosida

SIYOSAT VA MAFKURA IJTIMOYIY ONG MAHSULI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada mafkuraning ijtimoiy taraqqiyotdagi ahamiyati, mafkura va siyosat o'rtasidagi bog'lanishlarda ham hukmron sinfning ham ularga qarshi turuvchi, hokimiyatga intilayotgan kuchlarning manfaatlari ifodalanishiga asosiy e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Mafkura, g'oya, jamiyat, inson, tahdid, tajovuz, siyosiy ong, ijtimoiy qatlam, dunyoqarash, fan, ziddiyat.

ПОЛИТИКА И ИДЕОЛОГИЯ КАК ПРОДУКТ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ

В статье акцентируется внимание на значении идеологии в общественном развитии, связи идеологии и политики, выражении интересов как правящего класса, так и сил, противостоящих ему и стремящихся к власти.

Ключевые слова: Идеология, идея, общество, человек, угроза, агрессия, политическое сознание, социальный класс, мировоззрение, наука, конфликт.

POLITICS AND IDEOLOGY AS A PRODUCT OF SOCIAL CONSCIOUSNESS

Annotation

The article focuses on the importance of ideology in social development, on the expression of the interests of both the ruling class and the forces striving for power in the connections between ideology and politics.

Key words: Ideology, idea, society, human, threat, aggression, political consciousness, social class, worldview, science, conflict.

Kirish. Mafkura va fan o'rtasida, birinchi navbatda, funksional farq bor. Demak, eng avvalo faktlarga asoslanadigan fanda aks ettirish funksiyasi ustunlik qiladi. Mafkurada orientatsiya funksiyasi ustunlik qiladi, qadriyat jihati ustunlik qiladi - u, birinchi navbatda, aniq ijtimoiy jamoalarning manfaatlarini himoya qiladi. Darhaqiqat, fan va mafkura o'z oldiga alohida va aniq maqsadlarni qo'ygan. Mafkura va ilm-fan, — deb haqli ravishda yozadi rus olimi A.A. Zinovev - turli vazifalar: birinchisi - jamoat ongini tashkil etish, mafkuraviy buyruqlarni amalga oshirish, ikkinchisi - dunyoni bilish, ijodkorlikni rivojlantirish. Bundan tashqari, mafkura omma uchun, ularni manipulyatsiya qilish uchun mo'ljallangan, u bir qator amalga oshirib bo'lmaydigan loyihalar bilan bog'liq va fan kasbiy ta'limni o'z ichiga oladi va hamma uchun mo'ljallangan emas. Agar, masalan, Marksizm fan edi, demak, A.A. Zinovev, u hech qachon katta muvaffaqiyatga erisha olmasdi[1].

Shunday qilib, mafkura ham, ijtimoiy fan ham bir obekt bilan shug'ullanishiga qaramay, ular turli yondashuvlar, bilim vositalari va maqsadlari bilan ajralib turadi. Mafkuralar siyosiy harakatlar uchun maqsadlar, ko'rsatmalar beradi. A. Eynshteyn aytganidek, fan "maqsadlar yarata olmaydi va ularni odamlarga singdirishga ham qodir emas; hech bo'lmaganda ilm-fan qaysidir maqsadda vositalarni ta'minlay oladi." Mafkura shunchalik zarurki, hayotda fan har doim ham javob bera olmaydigan ko'plab masalalar bo'yicha qaror qabul qilish zarur.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Butun mutafakkirlar turkumi mafkurani faqat yolg'on yoki, eng yaxshi holatda, illyuziya bilim deb hisoblagan va hozir ham shunday deb hisoblaydi. Bunday mutafakkirlarga K. Mangeym, K. Marks,

ilk davrdagi «ideologizatsiya» mafkuraviy tendensiyasi vakillari (E. SHills, D. Bell, S. M. Lipset, R. Aron) va boshqalar. Mafkuraga nisbatan bunday qarash mavjud. Masalan, o'sha A.A. Zinovevning qat'iy tezisiga qo'shilib bo'lmaydi. "haqiqat tushunchasi dinga taalluqli bo'lmaganidek, mafkuraga ham taalluqli emas. Mafkura haqiqat mezonlari bilan emas, balki adekvatlik mezonlari bilan baholanadi", ya'ni ma'lum bir guruh kishilar ehtiyojlariga mosligi, dolzarbligi va ta'sirchanligi bilan baholanadi. Ko'rinib turibdiki, muallif nafaqat mafkura va fanning o'ziga xosligini, balki umuman, mafkuraga voqelikni chinakam aks ettirish elementlarini kiritish imkoniyatini ham istisno qiladi. Bu erda shuni ta'kidlash kerakki, ma'lum obektiv bilimlarni o'z-o'zidan nafaqat mafkura, balki A.A. Zinovev dini, ijtimoiy jihatdan aniqlangan va fan bilan bir xil bilim shakllari. Ular orqali inson doimo atrofdagi dunyoni bilishga va anglashga harakat qiladi[2].

Mafkuraning ijtimoiy taraqqiyotdagi ahamiyati g'oyalarning jamiyat a'zolariga ta'sir qilish darajasidan kelib chiqib baholanishi kerak. Mafkura obektiv zarur, prinsipial jihatdan ijobiy, mafkuraviy tamoyillar va qadriyatlarga rioya qilish ichki va tashqi siyosat muammolarini hal qilishning zaruriy sharti sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Mafkuralar eng muhim milliy resurs, har qanday davlatni modernizatsiya qilish va uning jahondagi mavqeini mustahkamlashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, biz, bizningcha, mafkurada namoyon bo'ladigan eng muhim qarama-qarshiliklarni ajratib ko'rsatishga harakat qildik. Ular mafkuraning o'z mohiyatiga, ya'ni ichki mazmuniga ham, funksional tomoniga ham ishora qiladi. Tabiiyki, mafkuraning qarama-qarshi mohiyatini ochib

berish bilan cheklanib bo'lmaydi. Bu murakkab hodisa tadqiqotchilaridan ushbu hodisaning turli darajalarini hisobga olgan holda juda qat'iy, ko'p qirrali tahlil qilishni talab qiladi.

Mafkuraning qarama-qarshi mohiyatini aniqlash jamiyatning ma'naviy hayotining bu hodisasi teskari tomondan namoyon bo'lmaydi, ya'ni uni tugatishga yordam bermaydi degani emas.

Siyosiy ong mafkura bilan eng yaqin munosabatda bo'ladi. Ba'zi olimlar hatto u bilan mafkurani aniqlashga moyildirlar. Masalan, mashhur olim A.G. Spirkin. U "siyosiy mafkura" atamasini "siyosiy ong"ning sinonimi sifatida ishlatadi, mafkura haqida "fuqarolarning siyosiy tafakkuri"[3] deb ta'kidlaydi. Bu ong siyosiy hokimiyat mexanizmlari faoliyatini aks ettiruvchi va siyosiy munosabatlar sohasidagi odamlar va ijtimoiy jamoalarning xulq-atvorini boshqaradigan inson ma'naviyatining xilma-xil ko'rinishlarini anglatadi. Davlat oldida turgan ijtimoiy, milliy manfaatlar, maqsadlarning ro'yobga chiqishi hal qiluvchi darajada ularga bog'liq bo'lsa, ongning ayrim tarkibiy qismlari siyosiy ahamiyatga ega bo'ladi. "Hozirgacha hech kim, - deb yozadi T.Eagleton bu munosabat bilan, - mafkuraning yagona va adekvat ta'rifini shakllantirgani yo'q. Bu ushbu sohadagi tadqiqotchilarning tafakkur darajasining yuqori emasligi bilan emas, balki "mafkura" tushunchasi o'zida bir-biriga mos kelmaydigan ulkan ma'nolar doirasini o'z ichiga olganligi bilan izohlanadi. Bu xilma-xil ta'riflarni qandaydir keng qamrovli va yagona tushunchaga birlashtirishga urinishlar umuman mumkin emas"[4].

Mafkura, ijtimoiy qatlamlarni yoki butun jamiyatni amaliy muammolarni hal qilish uchun safarbar etib, ijtimoiy subektlarning munosabatlarini belgilaydi. Bundan tashqari, mafkura ularning turli jamoat institutlariga, eng avvalo, jamiyatning siyosiy institutlariga munosabatini aks ettirishga qaratilgan. Busiz o'z-o'zini anglash darajasi yuqori bo'lgan va o'zini boshqa subektlar bilan solishtirish va ularning xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan ijtimoiy jamoalarning tub manfaatlarini to'liq aks ettirib bo'lmaydi. Bunga faqat siyosiy dastaklardan foydalanish, jamiyatning siyosiy tizimi orqali erishish mumkin. Bizningcha, ijtimoiy jamoalar nuqtai nazaridan harakat qiladigan mafkura deyarli har doim siyosiy mazmun kasb etadi.

Bu ko'pgina tadqiqotchilar mafkurani aynan siyosiy deb hisoblashini tushuntiradi va bu hodisani "siyosiy mafkura" deb ataydi. Bunday nuqtai nazar mavjud bo'lish huquqiga ega, chunki mafkura kabi hamma narsani qamrab oluvchi hodisa siyosiy muammolarni ko'rsatmasdan va hal qilmasdan o'zini amalga oshira olmaydi. Har qanday mafkuraning asosiy mazmuni siyosiydir. SHuning uchun tadqiqotchi har safar bu holatni ko'rsatishi shart emas. "Siyosiy mafkura" atamasi faqat o'quvchi e'tiborini aynan shu hodisaning siyosiy tomoniga qaratish uchun yoki mafkurani siyosatning asosi sifatida tushunishda foydalanish mumkin.

Mafkura va siyosat o'rtasidagi bog'lanishlarda ham hukmron sinfning, ham ularga qarshi turuvchi, hokimiyatga intilayotgan kuchlarning ham manfaatlarini maksimal darajada ifodalaydi. Birinchi holatda ham, ikkinchi holatda ham siyosat va mafkura o'rtasidagi munosabat ularni bir-biridan ajratib turuvchi va yaqinlashtiruvchi qator o'ziga xos xususiyatlar bilan belgilanadi. Ularning ikkalasi ham ong hodisalari bo'lib, bir xil asosga – jamiyatning moddiy, iqtisodiy hayotiga, shuningdek, uning madaniy va ma'naviy asoslariga bevosita tayanib, bevosita tarixiy jarayonga kiradi. Mafkura siyosat kabi umumshariy xususiyatga ega, ya'ni u tafakkur, faoliyat, xulq-atvorning eng xilma-xil sohalarni qamrab olishga, ularning yo'nalishini, maqsad va vositalarini belgilashga qodir. Mafkura

siyosatda markaziy o'rinni egallagan ideallar va aniq vazifalarni solishtirish jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. SHuning uchun konservativ yoki liberal, progressiv yoki reaksiyon siyosatlar paydo bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Siyosat va mafkura ijtimoiy ong va jamiyatni tashkil etishning eng keng tarqalgan, intruziv tizimidir. Ular nafaqat uning hayotining boshqa sohalari kirib borishga qodir. SHu bilan birga, har qanday siyosat kamomadi, har qanday zaiflik, siyosiy bo'shliq, siyosiy g'oyalar va qarorlarning etishmasligi darhol va muqarrar ravishda mafkuraviy tuzilmalar bilan almashtiriladi. Mafkuraviy munosabatlar siyosatni siqib chiqarishga va uni o'ziga bo'yusundirishga qodir, ayniqsa siyosatning mafkuraviylashuvi va giperideologizatsiyasi qandaydir tashqi hodisalar yoki ichki sharoitlar ta'sirida turtki bo'lsa bu jarayon o'zgacha ma'no-mazmun kasb etadi.

Tahlil va natijalar. Siyosat va mafkura kurash va xilma-xil fikrlar, qarashlar, qarorlar, dasturlar va boshqalar bilan bir xil darajada bog'liq. Ular muqarrar ravishda antinomiya tamoyiliga ko'ra ijobiy va salbiy baholar bilan turli yo'nalishlarda qutblanadi: "ha-yo'q". SHuning uchun ular o'ng va chap, reaksiyon va progressiv, liberal va avtoritar va hokazolarga bo'linadi. Siyosat ham, mafkura ham o'z roli va ahamiyatini mutlaqlashtirmasa, bir vaqtning o'zida murosaga, o'zaro maqbul echimlarga qodir.

SHu sabablarga ko'ra siyosat va mafkura o'rtasidagi tabiiy bog'liqlik ularning bevosita siyosiy-mafkuraviy majmuaga integratsiyalashuvidir. Agar axloq, madaniyat, ilmiy bilim, din, siyosatga ta'sirining barchasiga qaramay, siyosatni kam yoki kamdan-kam belgilay olsa va bu ta'sir o'lchovi o'ta o'zboshimchalik bilan bo'lsa, mafkura bevosita siyosat bilan qo'shilib ketadi. Siyosat o'zining mohiyatiga ko'ra ma'lum bir g'oya, reja, ma'lum manfaat va maqsadlar yo'lida odamlarning ongi va faoliyatini boshqarish, yo'naltirish, nazorat qilish istagi sifatida mafkuraviydir.

Siyosatning har qanday subekti mafkuraga muhtoj - odamlarning siyosiy munosabatlar sohasidagi xatti-harakatlarini boshqaradigan, shakllantiradigan ma'naviy birlik va etakchilik vositasi iroda, siyosiy harakatga intilish, ularning faolligini safarbar qiladi, siyosiy harakatga jalb qilingan yoki unga tayyorgarlik ko'rayotgan guruhlarning ijtimoiy integratsiyalashuviga yordam beradi. Ta'kidlangan siyosatshunos endryu Xeyvud ta'biri bilan aytganda, mafkura "ma'lum hokimiyat tizimini saqlab qolish, o'zgartirish yoki ag'darib tashlashga qaratilgan uyushgan siyosiy harakatlar uchun asos bo'lib xizmat qiladigan ozmi-ko'pmi izchil va izchil g'oyalar majmuasidir"[5]. Tafakkurni yo'naltiruvchi, siyosiy harakatni ma'lum manfaatlariga moslashtiruvchi mafkurani "vektor" deyish ham asosli bo'ladi.

Binobarin, mafkura siyosiy ongning analogi bo'lmay, siyosiy hayotning rang-barangligini to'liq aks ettirmay, unda shunday muhim o'rin tutadi. Bu uni siyosiy ongning asosiy elementiga aylantiradi, uning mavjudligi uning tashuvchisining siyosiy munosabatlar sohasida faol, maqsadli harakat qilish qobiliyatidan dalolat beradi. Mafkura tufayli siyosat yuritish mantiqiylikka ega bo'ladi.

Siyosiy ongning barcha boshqa elementlari mafkuraning hal qiluvchi ta'siri ostida rivojlanadi, uning ta'siri ostida qoladi.

Mafkura kabi hodisani mifologiya bilan bog'liqligini aniqlamasdan o'rganish mumkin emas, bu ham o'zini namoyon qiladi.

Zamonaviy libertarizmning vakili Lyudvig fon Mizes ham mafkura va mif o'rtasidagi bevosita bog'liqlikka ishora qiladi. Uning ta'kidlashicha, umuman olganda va eng muhimi,

ilgari tarixda ulkan rol o'ynagan vaqt rad etgan mafkuralarni faqat raqiblari mif deb atashadi. "Ammo bu rol, - deb davom etadi u, - ular afsona sifatida emas, balki haqiqat deb hisoblangan ta'limot sifatida o'ynagan. O'z izdoshlari nazarida ular ishonchli haqiqat, chuqur va samimiy e'tiqodining obekti edi. N.I.Shestovning so'zlariga ko'ra, bu "ratsional komponent ko'pincha afsonani g'oyaviy va hatto ilmiy hukmdan ajratishni qiyinlashtiradi"[6]. Darhaqiqat, afsona va mafkura bir-biriga singib ketgan va bir-biriga bog'langan. G'oyalar yoki mafkuralar faqat tavsif jamiyat yoki ijtimoiy guruhning harakat vektori va bu g'oyalar siyosiy afsonaga aylansa, u bo'ylab haqiqiy harakat sodir bo'ladi. SHu bilan birga, mafkuraning kishilar ongiga kirib borishiga katta yordam berilmoqda. Bu borliqdan ustun bo'lgan elementlar orqali sodir bo'ladi, "muhim" va "tufayli" g'oyalarini shunday masofadan ajratib turadiki, ijtimoiy-siyosiy jarayonning paydo bo'lishi uchun etarli bo'lgan ma'lum bir "energiya" paydo bo'ladi.

Mafkura va mifning chambarchas bog'liqligini A.N. Koliev «Haqiqatni idrok etish, - deb yozadi u, - har doim ma'lum bir tuyg'u, obrazli silsila asosida yuzaga keladi. Haqiqat hissiy jihatdan qabul qilinadi. Bu g'oya afsonadan ko'proq rasmiylashtirilgan, o'ziga xos mantiqiy sxemada joylashtirilgan, ertakdan ko'ra fanga yaqinroq bo'lgan, lekin baribir genetik jihatdan bu ertak bilan bog'liq bo'lgan belgilar sifatida kelib chiqadi. Bunday yondashuv to'liq oqlanadi, chunki aks holda mafkura o'zining ijtimoiy zaryadini yo'qotadi va o'zaro bog'liq bo'lgan keraksiz fikrlar majmuasiga aylanadi"[7].

Afsonalar ko'pincha mafkura manbalaridan biri, mifologiklashtirilgan ong elementlari - qahramonga sig'inish, messianizm avtoritar va totalitar rejimlarga xizmat qiladigan mafkuralarda ko'p uchraydi. Mif nafaqat "kerak"ning ramziy yozuvi, balki umumiy irodaning ifodasidir. Mafkura bu holatdan odamlarning individual ongiga chuqur kirib borish uchun "foydalanadi". Tegishli mif bilan "qurollangan" ongsizni omma uchun umumiy bo'lgan belgilarda ko'rsatishni boshlaydi. Ikkinchisi ilhomlantiruvchi va harakatga keltiruvchi g'oyalar shaklida taqdim etilgan bo'lib, ular osongina ijtimoiy qatlamlarning e'tiqodiga aylanadi. Biroq, bu o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Har bir afsonaning zamirida ma'lum bir tushuncha bo'lishi kerak. Siyosatda munosib tarzda aks ettirilgan konsepsiya mafkuraga aylanadi.

Insonni o'rab turgan hamma narsaning "sof mohiyati" va undan ham ko'proq kelajakda u qanday harakat qilishi kerakligi ko'p jihatdan falsafiy tafakkurning natijasi bo'lib, dunyoni bilishning butun xilma-xil shakllarini birlashtirishga harakat qiladi. aniq fanlar natijalari va an'analari va "davr ruhi" tahlili bilan yakunlanadi. SHu bilan birga, marksizm-leninizm ta'kidlaganidek, qandaydir alohida falsafiy tizim jamiyat dunyoqarashining o'zagini shakllantirishga qodir, deb ta'kidlash noto'g'ri bo'lar edi. Tabiiyki, hukmron mafkura unda ham o'z izini qoldirishga qodir. Biroq, umuman olganda, dunyoqarash muayyan davrdagi ijtimoiy hayotning ayrim qirralari va qolaversa, ommabop g'oyalar ta'sirida emas, balki butun davr madaniyati ta'sirida shakllanadi. Dunyoqarashning bir qator xususiyatlari ko'proq uning ratsionalistik yo'nalishini aks ettiradi, boshqalari esa, aksincha, qadriyat ongining shakli sifatida uning ma'nosini ifodalaydi. Bu tizim nafaqat ekzistensial, axloqiy jihatdan namoyon bo'ladi

Boshqa jihatlar, balki kognitiv va qiymatga yo'naltirilgan. Oxirgi jihatlar bir-biriga kirib boradi va dunyoqarashni mafkuraga yaqinlashtiradi, uni qurollantirishga imkon beradi.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, mafkurani ma'naviy hodisa sifatida ko'rib chiqish bir-biri bilan chambarchas bog'liq, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Shunday qilib, agar biz mafkuraga yuqorida aytilganlarning barchasini hisobga olgan holda yondashadigan bo'lsak, ya'ni unda biz bir qator o'zaro bog'liq va o'zaro bog'liq jihatlarga ega bo'lgan, shuningdek, mavjud bo'lgan barcha ilmiy yondashuvlarni (ba'zan hatto bir-biriga zid bo'lgan) hisobga oladigan murakkab ijtimoiy-ma'naviy shakllanishni ko'ramiz. bo'lganlar) bu murakkab hodisaga, aftidan, uning ta'rifiga, mohiyatining yakuniy ifodasiga yaqinlashish mumkin.

Hozirgacha mafkuraga turli xil ta'riflar berilgan. Ularning har biri tadqiqotchilarning qanday maqsadlarni ko'zlashi, uni aniqlashda qanday usullardan foydalanishiga qarab mafkuraning u yoki bu tomonini, ma'lum belgilari va xususiyatlarini ta'kidlaydi. Mafkuraviy tushunchalarning ravonligi, ularning ijtimoiy manfaatlar va imtiyozlarga bog'liqligi subektivizmning aniq ta'sirini shakllantiradi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, mafkuraning eng keng qamrovi va fundamental ta'rifini, uni ko'p ko'rinishlarda ko'rib chiqish, faqat sovet yoki possovet fanida topish mumkin.

Mafkuraning ko'plab ta'riflarida ushbu hodisaning kognitiv qiymati qayd etilgan. SHunday qilib, masalan, S.E. Krapivenskiy "mafkura - bu butun jamiyat va uning individual tomonlari tomonidan dunyoni bilish darajasini aks ettiruvchi nazariy qarashlar tizimi". Ko'rinib turibdiki, mafkuraning bunday ta'rif muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Boshqa barcha narsalarni, birinchi navbatda, liberal nazariyalarni illyuziya sifatida rad etdi. Bunday ta'rif mafkura mohiyatiga qanchalik yaqin bo'lmasin, baribir u bir tomonlama.

Ilmiy adabiyotlarda mafkuraning ijtimoiy guruhlar va umuman jamiyat manfaatlarini ifodalash nuqtai nazaridan, ya'ni aksiologik jihati ustunlik qilgan holda ta'riflar ko'p uchraydi. R.T. Muxaev, masalan, "muayyan ijtimoiy guruhga, shaxsga tegishli va ularning manfaatlarini ifodalovchi qadriyatlar va faktlarga oid" bayonotlar mafkura deb ataladi. Ayrim mualliflar mafkuraga ta'rif berib, ayni paytda uning nazariy darajasini ham qamrab oladi. Masalan, V.N. Shevchenko shunday yozadi: "Mafkura - bu ma'lum bir insonlar jamoasi mavjud ijtimoiy voqelikka, uning individual muammolari va ziddiyatlariga o'z munosabatini bildiradigan ma'lum ideallar, qadriyatlar, maqsad va qarashlar majmuidir". YOki soddaroq: mafkura ijtimoiy hayotning ijtimoiy guruh yoki sinf manfaatlarini prizmasi orqali aks etishidir.

Yana bir guruh olimlar mafkura deganda odamlarning (guruhlar, tashkilotlar, partiyalar va boshqalar) munosabatlari (qarashlari, manfaatlarini, maqsadlari, niyatlari, kayfiyatlarini va boshqalari) tan olinadigan, baholanadigan va ifodaladigan qarashlar va g'oyalar tizimi sifatida ta'riflaydilar. Siyosat.) u yoki bu voqelikka va bir-biriga, ijtimoiy-siyosiy muammolar va qarama-qarshiliklar, shuningdek, ushbu ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni mustahkamlash yoki o'zgartirish (rivojlantirish)ga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy faoliyatning maqsadlari (dasturlari)ni o'z ichiga oladi³. Taxminan A.A. Ivin: "Mafkura - bu ma'lum bir jamiyatda qabul qilingan vakillik va g'oyalar tizimi kishilarning jamiyatga va bir-biriga bo'lgan munosabatlari tahlil qilinadi, ijtimoiy muammolar va ziddiyatlar tushuniladi, ijtimoiy faoliyatning maqsadlari ko'rsatiladi».

Xulosa va takliflar. Mafkuraga ta'rif berish bo'yicha yuqoridagi barcha yondashuvlar mavjud bo'lish huquqiga ega, chunki ular mafkuraning mohiyatini turli nuqtai nazardan ochib beradi, uning turli qirralari, qatlamlari va namoyon bo'lish darajalarini tushuntiradi, bu kabi murakkab hodisaga ta'rif

berishda qonuniydir. mafkura. Bunday sharoitga qaramay, biz mafkuraning amaliy ta'rifini ham berishni xohlaymiz. Bizningcha, mafkura mohiyatiga quyidagi ta'rif ko'proq adekvat bo'ladi. Mafkura - siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, axloqiy, estetik, falsafiy va diniy xarakterdagi g'oyalari va qadriyatlar to'plami bo'lib, ular manfaatlar va manfaatlardan kelib chiqadi.

SHu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, bu ta'rif ham mafkura kabi keng qamrovli hodisaning mutlaq xarakteristikasi

deb da'vo qila olmaydi. Uning deyarli har qanday ta'rif, qisman yoki bo'lmasa, bir tomonlamalik, bir o'lchovlilik yoki baholashning torligidan aziyat chekadi. Bu hodisani ijtimoiy ongning barcha darajalarida, uning jamiyatdagi barcha ko'rinishlarida, uning ijtimoiy hayotdagi roli haqida obektiv tasavvurni shakllantirish uchun ko'rib chiqish kerak.

ADABIYOTLAR

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/novaya-ideologiya-aleksandra-zinovieva>
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/novaya-ideologiya-aleksandra-zinovieva>
3. Летягин Л. И. Философия идеологии : моногр. / Л. И. Летягин ; Урал. гос. пед. ун-т. — Екатеринбург, 2014. — 281 с.
4. Eagleton, T. Ideology. An Introduction / T. Eagleton. — London ; New York : Verso, 1991. — P. 1.
5. Хейвуд Э. Политология : учеб. для студентов вузов / Эндрю Хейвуд; [пер. с англ. Ю. В. Никуличева]; пер. с англ. под ред. Г. Г. Водолазова и В. Ю. Бельского. - Второе изд. - Москва : Юнити, 2005 (ГУП ИПК Ульян. Дом печати). - 525 с.
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/politicheskiy-mif-kak-forma-sohraneniya-pravdy-proshlogo>
7. <https://www.disserscat.com/content/mifologiya-i-ideologiya-rol-ratsionalnosti-v-ikh-vzaimodeistvii>



Rasuljon YUSUPOV,

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti dotsenti

E-mail: rasuljon979956768@gmail.com

“Kokand universiteti” Andijon filiali dotsenti R.Ataxonov taqrizi asosida

PRIORITY OF "HUMAN DIGNITY" WHILE ENSURING THE RULE OF LAW.

Annotation

The article covers the sequence aimed at fully ensuring the implementation of constitutional norms, ultimately increasing the "human value" in the literal sense, improving the quality of service to the people based on the system principle of "man - society - state" in the life of the state and society.

Key words: Constitution, norm, state, society, human, new, editorial, scope, sovereign, democracy, republic, legal, social, secular, legal, space, time, population, privilege, man, value, state, teacher, neighborhood, leader.

ПРИОРИТЕТ «ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ДОСТОИНСТВА» ПРИ ОБЕСПЕЧЕНИИ ПРАВОПОРЯДКА.

Аннотация

В статье необходимо обеспечить полную реализацию конституционных норм, в конечном итоге к буквальному возвышению «человеческого достоинства», повышению качества обслуживания народа на основе системного принципа «человек – общество – государство» в жизни государства и общества. Целенаправленное освещение.

Ключевые слова: Конституция, норма, государство, общество, человек, новое, пересмотр, сфера действия, суверен, демократия, республика, правовое, социальное, светское, правовое, пространство, время, население, привилегия, человек, ценность, государство, учитель, соседство, лидер.

QONUN USTUVORLIGINI TAMINLASHDA “INSON QADRI” USTIVORLIGI

Аннотация

Maqolada konstitutsiyaviy normalarning ijrosini to'liq ta'minlash, pirovardida "inson qadri"ning tom ma'noda yuksalishiga, davlat va jamiyat hayotini "inson – jamiyat – davlat" degan tizim tamoyili asosida xalqqa xizmat ko'rsatishning sifat darajasini oshirishga ketma-ketlik asosida qaratilgani yoritilgan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, norma, davlat, jamiyat, inson, yangi, tahrir, ko'lam, suveren, demokratiya, respublika, huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy, yuridik, makon, zamon, aholi, imtiyoz, inson, qadri, davlat, o'qituvchi, mahalla, rahbar.

Kirish. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "inson – jamiyat – davlat" degan tamoyilga asoslangan yangi boshqaruv tizimining huquqiy asoslari belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023 yil 1 maydan e'tiboran kuchga kirdi. Mamlakatimizda qonun ustivorligini taminlanishida, qonun hujjatlarini, shu jumladan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni yaratishda, qonun majmualari va nazariyalari muhim o'rin tutdi. Bu esa albatta qonunchlik tizimida intellektual qobiliyat muhim o'rin egallashining yaqqol na'munasidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tan olish kerakki, hayotning o'zi va islohotlar shiddati mustaqillik davrida amalga oshirilgan islohotlar bilan bir qatorda jamiyat va davlat hayotida yillar davomida yig'ilib qolgan va o'z yechimini kutayotgan tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Bu muammolarni qisqa vaqt ichida yechish uchun o'zimizda iroda, qat'iylik va shijoat topa oldik. Inson bolasi borki, orzu-umid bilan yashaydi. Davlat va jamiyat uning orzu va maqsadlari ushlab berishi shart va zarur. Biz anashu davlatni-qalbmiz va ongimiz shurimizdan mustahkam o'rin olgan Yangi O'zbekistonni barpo etishga qat'iy bel bog'ladik. Biz o'n yillar, asrlar davomida amal qilib kelingan "inson-jamiyat-davlat" tamoyiliga o'zgartirdik. Yurtimizda "Davlat-inson uchun" g'oyasi amal qiladi boshladi[1] deya Prezident SH.M.Mirziyoyev bejiz takidlamagan. Bu borada O'zbekiston

Respublikasi Konstitutsiyaviy qonun ustivorligini taminlashda "Davlat-inson uchun" g'oyasi fuqarolarning huquqiy imtiyozlarini, huquqiy madaniyatini yuksalib borilayotganidan dalolatdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga 1992 yildan buyon jami 15 marta o'zgartirish kiritilgan, bu safar esa o'zgarishlar ko'lamiga sabab oliy yuridik kuchga ega normativ-huquqiy hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman, rasmiylarga ko'ra, konstitutsiya 65 foizga yangilangan[2].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri[3] rivojlangan huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini qurishda o'z salmog'i bilan alohida o'rin egallaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi- ning yangi tahririning quyidagi eng muhim o'zgarishlari ketma ketligiga etibor berib o'tamiz: birinchdan, O'zbekiston – huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat: Konstitutsiyaning 1-moddasidagi "O'zbekiston – suveren demokratik respublika" jumlasini quyidagicha o'zgartirildi: birinchdan O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. Ikkinchdan, Konstitutsiyasiga to'g'ridan to'g'ri amal qiladi: 15-moddaga quyidagicha qo'shimcha qo'shildi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi. Uchinchidan, imtiyozlar qonunda yozib qo'yilishi shart emasligi;

Yangi konstitutsiyaning 19-moddasi esa (avvalgi 18-modda) – fuqarolarning jinsi, millati, mavqeyi va hokazolardan qat'i nazar qonun oldida tengligi haqida. Bu moddaning 2-qismi quyidagicha o'zgard: Eski: Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart. Yangi: Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart. To'rtinchidan, barcha noaniqliklar – inson foydasiga: Inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi. Beshinchidan inson huquqlari ijtimoiy axloq va jamoat tartibini saqlash maqsadida cheklanishi mumkin: Huquq va erkinliklarning cheklanishi masalasi avvalgi konstitutsiyada quyidagi ikkita norma bilan tartibga solingan edi: -Insonning konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas. -Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart. Konstitutsiyaning yangi tahririda yuqoridagi ikkita norma deyarli o'zgarishsiz saqlab qolindi. Shu bilan birga, quyidagicha yangi norma qo'shildi: Insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash maqsadida zarur bo'lgan doirada cheklanishi mumkin.

Shu o'rinda, namoyishlarga oid moddani ham eslatib o'tish o'rinli. Bu modda avvalgi holida, o'zgarishsiz saqlab qolindi: Fuqarolar o'z ijtimoiy faolliklarini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga ega. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridagina bunday tadbirlar o'tkazilishini to'xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega.

Oltinchidan, o'qituvchilarga alohida e'tirof bildirildi: Konstitutsiyaga o'qituvchilar haqida modda qo'shildi. U ikki banddan iborat: O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi. Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi. Yettinchidan, yer xususiy mulk bo'lishi mumkin: O'zbekistonda 2022 yildan e'tiboran qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiyashtirish boshlangan.

Shu bilan deyarli bir vaqtda, o'tgan yili e'lon qilingan yangi konstitutsiya loyihasining birlamchi versiyasida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni xususiyashtirish mumkin emasligiga ishora qilingan edi. Yakuniy talqindan bunday cheklov olib tashlandi va yerni xususiyashtirishga oid norma quyidagicha shaklga keltirildi: Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta'minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo'lishi mumkin. Bosh qomusning o'tgan yili e'lon qilingan birinchi loyihasida unga quyidagicha jumlani kiritish taklif etilgan edi: "Iqtisodiy faoliyatda insofsiz raqobatga, monopollashtirishga yo'l qo'yilmaydi". Yakunda bu boradagi normalar quyidagicha ko'rinish oldi: Davlat bozor

munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi. Monopol faoliyat qonun bilan tartibga solinadi va cheklanadi. Hujjatning birlamchi loyihasida mavjud bo'lgan: "Xususiyashtirish natijalari qayta ko'rib chiqilmaydi hamda bekor qilinmaydi" degan normani konstitutsiyaga kiritmaslikka qaror qilindi. Sakizinchidan, OAV faoliyatiga to'sqinlik qilish javobgarlikka sabab bo'ladi: Avvalgi konstitutsiyaning "Ommaviy axborot vositalari" nomli bobi bitta moddadan iborat edi.

Unda shunday deyilgandi: "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi". Yangi konstitutsiyaga ko'ra, bu bob ikkita moddadan iborat bo'ldi: Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ish olib boradilar. Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi. Ommaviy axborot vositalari o'zi taqdim etadigan axborotning ishonchligi uchun javobgardir. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi. Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. Asosiy yangilik – OAV faoliyatiga to'sqinlik uchun javobgarlik konstitutsiya darajasida belgilandi. To'qqizinchidan, davlat boshqaruvidagi o'zgarishlar. Prezidentning vakolat muddati 7 yil bo'ldi. O'zbekistonning yangi tahrirdagi konstitutsiyasiga binoan: Prezidentning vakolat muddati 5 yildan 7 yilga uzaytirildi. Prezidentning "davlat boshlig'i" maqomi, ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq prezident bo'lishi mumkin emasligi, prezidentning qasamyodi matni va prezidentga taalluqli boshqa aksariyat normalar o'zgarishsiz qoldirildi. Ma'lumot uchun, prezidentning vakolat muddati 2003 yilda ham 5 yildan 7 yilga uzaytirilgan, 2011 yilda esa qaytib 7 yildan 5 yilga tushirilgan edi. Bosh vazir nomzodini endi prezident taqdim etadi. Senatorlar soni 100 nafardan 65 nafarga tushiriladi. 14 ta hududdan 6 nafardan emas, 4 nafardan senator saylanadi, prezident tomonidan tayinlanadigan senatorlar soni 16 nafardan 9 nafarga qisqaradi. Bu o'zgarish 2024 yilda bo'ladigan parlament saylovi vaqtida kuchga kiradi. Qonunchilik palatasi deputatlari sonini (150 nafar) oshirmaslikka, o'zgarishsiz qoldirishga qaror qilindi. Bosh vazirni tayinlash va unga ishonchsizlik votumi bildirishda Senatning ishtiroki bekor qilindi. Korrupsiyaga va monopoliyaga qarshi kurashish organlari rahbarlarini prezident taqdimiga binoan saylash Senatning vakolatiga kiritildi. Qonunchilik palatasi qonunlar bo'yicha qo'shimcha vakolat oldi. Unga ko'ra, endilikda Senat qonunni ma'qullash yoki rad etish to'g'risida 60 kun ichida qaror qabul qilmasa, Qonunchilik palatasi qonunni prezidentga yuboradi. Qonunlarning prezident tomonidan imzolinishi va e'lon qilinishi uchun belgilangan muddat 30 kundan 60 kungacha uzaytirildi. Prezident tomonidan qaytarilgan qonun parlament palatalari tomonidan yana qabul qilingan taqdirda, prezidentning bu qonunni imzolash va e'lon qilish muddati o'zgarishsiz (14 kun) qoldirildi. Prezident muddatidan ilgari prezident saylovini tayinlashga haqli ekani belgilandi. Bundan tashqari, Qonunchilik palatasi va Senatga o'zini o'zi tarqatib yuborish vakolati berildi (palata a'zolarining kamida uchdan ikki qismining ovozi talab etiladi). Shuningdek, jiddiy voqealar ro'y berganida, ikki palata qo'shma qaror qabul qilgan holda parlament tekshiruvini o'tkazishi mumkinligi yozib qo'yildi. Sudyalar muayyan ishlar bo'yicha hisobdor bo'lmaydi. Konstitutsiyaga qo'shilgan bu norma bo'yicha ham huquqiy sharhga zarurat bor. "Sudlar to'g'risida"gi qonunda "hisobdor" tushunchasi uchramaydi. Sudyalarning o'zlari chiqargan

qarorlari bo'yicha hisobdor bo'lmasligi odil sudlovni ta'minlashga qanday ta'sir qilishi – izohtalab holat, bizningcha. Bu kabi mavhum qoidalar pirovardida yangi konstitutsiyani uning targ'ibotida ko'p marta aytilgan va hujjatning o'zida ham belgilangan to'g'ridan to'g'ri ishlaydigan qonun bo'lishini savol ostida qoldiradi. Konstitutsiyaviy sud sudyalari 10 yil muddatga saylanadi va qayta saylanishi mumkin bo'lmaydi. Avvalgi tartibga ko'ra, bu muddat birinchi marta saylanganida 5 yil, keyingisida 10 yil edi. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki martadan ortiq bitta lavozimni egallashi mumkin emasligi haqidagi qoida, prezidentdan tashqari, Senat raisi, Qonunchilik palatasi spikeri, Oliy sud raisi va o'rinbosari, Sudyalar oliy kengashining raisi va o'rinbosari, Markaziy saylov komissiyasi raisi, bosh prokuror, hokimlar va kengashlar raislariga nisbatan ham tatbiq etiladigan bo'ldi. Referendumda qabul qilingan qonunning 7-moddasi bilan, barcha darajadagi davlat mansabdorlarining ayni paytga qadar egallab kelgan muddatlari nollashtirildi. Ular lavozimlarini egallab kelayotganining surunkali muddatlari sonidan qat'i nazar, boshqa fuqarolar bilan teng ravishda xuddi shu lavozimlarga saylanish va tayinlanishga haqli, deb belgilandi. O'ninchidan, mahalliy davlat hokimiyatidagi o'zgarishlar. Hokimlar kengash raisligidan ketadi: Mahalliy davlat boshqaruvida vakillik va ijro etuvchi organlar bir-biridan ajratilmoqda. Bu boradagi hozirgi tartib hokimiyatning bo'linish va hokimiyat bo'g'inlarining o'zaro tiyib turish prinsipiga zid. Bosh qomusning yangi tahririga asosan, bunga barham berilib, mahalliy kengashlar saylanadigan vakillik organlari, hokimliklar esa ijro organlari deb belgilanmoqda.

Tahlil va natijalar. Shunga muvofiq, quyidagi sanalardan boshlab, hokimlarning kengashlarda raislik qilishiga barham beriladi: viloyatlarda va Toshkent shahrida 2024 yilgi deputatlik saylovlari yakunlari bo'yicha; tuman va shaharlarda 2026 yil 1 yanvardan boshlab. Mahalliy kengashlar raislari kengash deputatlari orasidan 5 yil muddatga saylanadi. Hokimlar esa 5 yil muddatga tayinlanadi, tayinlangan hokimni

kengashlar tasdiqlaydi. Shu tariqa, kengash raislari ham, hokimlar ham to'g'ridan to'g'ri aholi tomonidan saylanmaydi. Kengashlarning vakolatlariga, jumladan, quyidagilar kiradi: mahalliy budjetni ko'rib chiqish va qabul qilish, uning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish; hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarini tasdiqlash; hokimni lavozimga tasdiqlash, uning faoliyati to'g'risidagi hisobotlarni eshitish.

Hokimlarning vakolatlari esa, jumladan, quyidagilardan iborat bo'ladi: konstitutsiya va qonunlarni, parlament palatalarining qarorlarini, prezidentning farmonlari, qarorlari va farmoyishlarini, Vazirlar Mahkamasining, yuqori turuvchi hokimlarning va tegishli xalq deputatlari kengashlarining qarorlarini bajarish; hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatdan rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish; mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish. Hokimlar va mahalliy kengashlarning faoliyatini tashkil etish tartibi bo'yicha alohida qonunlar qabul qilinadi. Mahalliy masalalar bo'yicha ularning vakolatlari qanday taqsimlanishi ana shu qonunlarda aks etadi.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda jamiyat organlarini tizimli shakllantirish va boshqarishda, qonun ustuvorligini vujudga keltirish eng muhim yo'nalish hisoblanar ekan, yangi tahrirdagi Konstitutsiya ijrosini to'liq ta'minlash barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlarining birinchi navbatdagi ustuvor vazifasi bo'lib hisoblanadi. Demak Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan konstitutsiyaviy normalarning ijrosini so'zsiz ta'minlash barcha sohalarda "inson qadri"ning tom ma'noda yuksalishiga, davlat va jamiyat hayotini "inson – jamiyat – davlat" degan tizimga asoslangan yangi va zamonaviy tarzda boshqarish imkonini berishi, o'z samarasini isbotini fuqarolarni huquqiy ongini yanada rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqligi o'z isbotini topadi.

ADABIYOTLAR

1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. "O'zbekiston" nashriyoti, -2021
2. Xalq so'zi 2023yil 2 may, №87-88 (8431) son
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -Toshkent, "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi -2023 y.-336 b.